

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Muxammadiev Akmal Ganievich</i> TOSH DAVRIDA KVARIS XOMASHYOSIDAN FOYDALANISH MASALASINI O'RGANISH	10-15
<i>Xujaniyazov Uktam Yeshbayevich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MADANIYAT SOHALARI RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	16-21
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Xamidova Ominaxon</i> ANTI-K TEATR	22-25
<i>Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li</i> SOPOL IDISHLARDAGI EPIGRAFIKA	26-29
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> O'ZBEK OLIMLARI VA MUTAXASSISLARINING GLOBAL FAN VA TEXNOLOGIYA RIVOJIGA TA'SIRI: TARIXDAN HOZIRGI	30-33
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTONNING SANOAT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATI: ILMIY ASOSLAR VA DOLZARB MASALALAR	34-38
<i>Asadova Ra'no Baymanovna, Ashurova Qunduz Abduxoliq qizi</i> QASHQADARYO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING RIVOJI (1990–2025): MANBALAR, MUAMMOLAR VA TENDENSIYALAR	39-42
<i>Umarqulova Gulchiroy Fayzulla qizi</i> JIZZAX CHO'LLARINING O'ZLASHTIRILISHI VA MIRZACHO'L VA DO'STLIK TUMANLARINING TASHKIL TOPIHI TARIXIDAN	43-47
<i>Shirinova Nargiza Faxritdinbek qizi</i> XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA DORISHUNOSLIK AN'ANALARI TARIXIDAN	48-53

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i> BOG'DORCHILIK XO'JALIKLARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	54-59
<i>Asqarova Nargiza Ilhomxo'jayevna</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBASI	60-67
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA MUAMMOLARI	68-72

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Abilov O'rol Murodovich</i> OPTIMIZM-PESSIMIZMNING IJTIMOIIY VA GNOSEOLOGIK ASOSLARI	73-81
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> AXLOQ VA FOYDA O'RTASIDAGI DIALEKTIKA: IQTISODIY RATSIONALIZMGA AKSIOLOGIK YONDASHUV	82-90
<i>Yuldashev Rustam Daniyrovich</i> YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY-MA'RIFIY TUSHUNCHANING O'RNI VA AHAMIYATI	91-98
<i>Sagdullayeva Dilbar Shuxratovna</i> JAMOATCHILIK NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING FALSAFIY JIHATLARI	99-105
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING TASAVVUF ILMIGA OID QARASHLARINING METODOLOGIK TAHLILI	106-112
<i>Mamajonov Sanjarbek Hamrajonovich</i> SOTSIAL INJENERIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA METODOLOGIYASI	113-118
<i>Rajabov Ilxom Mustafoevich</i> ZAMONAVIY TA'LIM PARADIGMALARI (RAQAMLI TA'LIM, KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV, UZLUKSIZ TA'LIM): IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL	119-123
<i>Toirov Ilxom</i> MADANIYAT VA KUNDALIK HAYOT DIALEKTIKASI	124-127
<i>Mamatnazarov Lazizbek To'raquliyevich</i> ZO'RAVONLIK IJTIMOIIY-XATARLI XULQ-ATVOR SIFATIDA: MAZMUNI VA MOHIYATI, OQIBATLARI	128-131
<i>Toxirov Abdumalik Ashurali o'g'li</i> MODERNIZATSIYA SHAROITIDA YOSHLAR AXLOQIY QADRIYATLARINING TRANSFORMATSION DINAMIKASI	132-136
<i>Нурмухамедова Севара Бадриддиновна</i> ВЛИЯНИЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ МОЛОДЕЖИ	137-141
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR SALOMATLIGI VA IJTIMOIIY SHAKLLANISH: STRESS, DEPRESSIYA, RUHIY SALOMATLIK, JAMOATCHILIK VOSITASI SABOQLARI ...	142-145
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> YOSHLAR MEHNAT MADANIYATI VA UNING JAMIYAT RIVOJIGA TA'SIRI	146-150
<i>Abdusalimov Abror Vali ug'li</i> MIRZO G'OLIB VA MUHAMMAD IQBOL IJODIDAGI FALSAFIY, MA'NAVIY VA BADIY MUSHTARAKLIK	151-158
<i>Maxmudov Izzatillo Ne'matilloevich</i> IJTIMOIIY ADOLAT: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TALQINI	159-163
<i>Aripov Alisher Sayfiddinovich</i> KORRUPSIYA TUSHUNCHASINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI	164-167
<i>Xudoyqulov Shukrullo Sohibovich</i> O'ZBEKISTONDA YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA YANGI MA'NAVIY MAKONNI YARATISH TAMOIYILLARI	168-172

<i>Ibrogimova Gulbaxor Eshmatovna</i> MA'NAViy-AXLOQiy TANLOV TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY MOHIYATI	173-176
---	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Abduraxmonova Ra'no Kosimovna</i> NEMIS TILIDAGI DINIY MATNLARNING O'ZBEK TILIGA	177-182
<i>Abdusalimov Abdulaziz Abdumutal o'g'li</i> INGLIZ TILI MODAL FE'LLARINING TIPOLOGIK TALQINI	183-188
<i>Abduraximova Okila Gayratovna</i> ZAMONAVIY NEMIS TILIDA NEOLOGIZMLAR TIPOLOGIYASI VA TASNIFI	189-194
<i>Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi</i> TERMIN, TERMINOLOGIYA VA ULARNING YONDOSH TUSHUNCHALARGA MUNOSABATI	195-198
<i>Sayitqulova Zilola Xusniddin qizi</i> BADIY ASARLARDA PERSONAJLARARO MUNOSABATLARNING LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK TAHLILI (O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTI MISOLIDA).....	199-203
<i>Khodjayeva Khurshida Sharafitdinovna</i> LANGUAGE CHANGE AND THE EMERGENCE OF NEW LEXICAL UNITS IN THE DIGITAL ERA	204-209

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Reymbaev Abdulla Kurbanbaevich</i> РАССУЖДЕНИЯ ОБ УГОЛОВНО-ПРАВОВОМ ПОНЯТИИ УЧАСТИЯ В ПРЕСТУПЛЕНИИ	210-215
<i>Sayfiddinov Aqliddin Anvarjon o'g'li</i> HUDUDLARNI IJTIMOiy-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY KENGASHLAR FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: RETROSPEKTIV TAHLIL	216-222
<i>Samandarova Feruza Baxromjon qizi</i> YASHIL DAVLAT XARIDLARI	223-229
<i>Rasulov Siroj Sodiq o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA ODILLIK PRINSIPI TALQINI	230-233
<i>Aslanov Sharafiddin Xayrullayevich</i> IQTISODIY JINOYATLARNING MAZMUN-MOHIYATI VA ULARNING OLDINI OLISH MEXANIZMLARI	234-238

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Akbarova Gulhayo Oybekovna, Ermatov Shukrilla Abdulfayzovich</i> TA'LIM 5.0 KONSEPTSIYASI ASOSIDA "QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI" FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	239-246
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING ROLI	247-251

Aytmuratov Ajiniyaz Jumabay Uli

TALABALARNING MODELLASHTIRISHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH 252-255

Najmetdinov Ma'ruf G'ayratovich

O'QUVCHILARNING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA
MULTIPLATFORMADAN FOYDALANISH METODIKASI MODEL 256-265

Javliyeva Shahnoza Bahodirovna

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHGA YO'NALTIRILGAN O'QUV-TARBIYAVIY
JARAYONNI TASHKIL ETISH VA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH
TEXNOLOGIYASI 266-269

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**Received:** 10 October 2025**Accepted:** 25 October 2025**Published:** 2 November 2025*Article / Original Paper***ANALYSIS OF QUARTZ UTILIZATION IN THE STONE AGE****Mukhamadiev Akmal**

Doctor of Philosophy (PhD), Senior Research,

Head of the Department of "Landscape Archaeology,"

National Center of Archaeology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

E-mail: muhammadiyev.kml@gmail.com

Abstract. This article examines the characteristics of quartz utilization during the Paleolithic period and traces the history of its study within the broader context of global Paleolithic research. The paper elucidates the principal scientific approaches and the evolution of scholarly perspectives concerning the use of quartz in lithic industries. Particular attention is devoted to the analytical methods applied to quartz assemblages and to the prospects for employing these approaches in the investigation of Paleolithic industries from archaeological sites in Uzbekistan.

Keywords: Uzbekistan, Karatapa Mountains, Middle Paleolithic, raw material, quartz, knapping technique.

**TOSH DAVRIDA KVARs XOMASHYOSIDAN FOYDALANISH
MASALASINI O'RGANISH****Muxammadiev Akmal Ganievich**

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi,

"Landshaft arxeologiyasi" bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu maqolada paleolit davrida kvars xomashyosidan foydalanish, uni jahon paleolitshunosligida o'rganish masalasi, ilmiy qarashlar va izlanishlar tarixi yoritilgan. Shuningdek, tadqiqot metodlarining qo'llash, ulardan O'zbekistonda mavjud yodgorliklar industriyalarini tahlil qilishda foydalanish masalalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Qoratepa tog' tizmasi, o'rta paleolit, xomashyo, kvars, chaqmoqlash texnikasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N01>

Kirish. Paleolit davrida kvars xomashyosi qadimgi jamoalar tomonidan tosh qurollar tayyorlashda keng foydalanilgan. Ko'pgina yodgorliklarda kvarsdan yasalgan qurollar topilmalarning asosiy qismini tashkil etadi. Lekin tadqiqotchilar tomonidan uzoq vaqt davomida kvarsdan tayyorlangan tosh qurollar tadqiq etilmadi. U ishlov berishga noqulay fizik xususiyatlari — qattiqligi, mo'rtligi va chaqmoqlash jarayonida darz ketishga moyilligi sababli "ikkinchi darajali" xomashyo sifatida baholangan. Kvars faqat sifatli xomashyo tanqisligi sharoitida foydalanilgan deb qaralgan. Biroq keyingi yillardagi tadqiqotlar kvarsdan foydalanish nafaqat xomashyo tanqisligi sharoitida majburiy tanlov, balki aniq texnologik va madaniy an'analarni talab qiladigan jarayon ekanligini ko'rsatmoqda [6, P. 85-97]. Shuning uchun paleolit davrining turli bosqich va yodgorliklarida kvars xomashyosidan tayyorlangan

tosh qurollar turlicha namoyon bo'lsada, biroq ular toshga ishlov berishning ma'lum bir umumiy texnologik xususiyatlarini ifodalaydi [14, P. 143-152].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asrning ikkinchi yarmida paleolit davrini o'rganishda asosiy e'tibor chaqmoqtosh va obsidian kabi "sifatli" xomashyo turlariga qaratilgan bo'lib, kvars uzoq vaqt "ikkilamchi" yoki yordamchi xomashyo sifatida baholangan. Bu yondashuvni Yevropalik tadqiqotchilarning 1960–1970-yillardagi asarlarida ham kuzatish mumkin [1, P. 45-52].

Kvars xomashyosidan tayyorlangan tosh artefaktlarni o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar oxirgi yillarda keng qo'llanila boshlandi. Mazkur masala bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan o'rta paleolit davrida kvars xomashyosidan foydalanish texnologiyasi, ishlov berish usullari va ularni tahlil etish metodikasiga qaratildi. V. Murre va S. Feblo-Avgustin [8, P. 35-45] g'arbiy Yevropa yodgorliklari asosida kvarsning fizik va tarkibiy xususiyatlarini o'rganib, xomashyoning toshga ishlov berish strategiyasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini ko'rsatib berdi. Ularning xulosalariga ko'ra, kvarsga ishlov berish jarayonida chaqmoqlash usullari asosan qisqa va aniq yo'naltirilgan zarba usulida kechadi hamda bu xomashyoning sinish xususiyatiga mos ravishda moslashuvni talab etadi. Bu nuqtai nazar keyinchalik M. Lombard tomonidan yanada chuqurroq rivojlantirildi. U kvarsdan kichik uchirindilar olish, kertish orqali ikkilamchi ishlov berish va ularning kognitiv jarayonlar bilan bog'liq jihatlarini ilmiy asosda yoritdi. Muallifning fikricha, kvarsga ishlov berish usullari insonning rejalashtirish va mental modellash qobiliyatini namoyon etadi [6, P. 85-97].

P. de la Pena Yevropadagi ilk o'rta paleolit davri yodgorliklarida kvarsdan foydalanishda kuzatiladigan texnologik o'zgarishlar va ularning turli madaniy ko'rinishlarini tahlil qildi. Shuningdek, bu jarayonda mahalliy an'analarning ahamiyatini ko'rsatib berdi. U tosh artefaktlarni texnik-tipologik o'rganish metodlari chaqmoqlash usullari va xomashyo tanlovidagi o'zgaruvchanlik asosida ishlab chiqilishi kerakligini qayd etdi [2, P. 94-108].

S. Vurz o'z tadqiqotlarida o'rta tosh davri industriyalarini tahlil qilib, kvars va kvarsitning toshga ishlov berish jarayonidagi o'rnini keng yoritdi. U texnologik rivojlanishning bir necha bosqichlarini ajratib, xomashyoni tanlash, ishlov berish usuli va kognitiv rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berdi [14, P. 143-156].

Ushbu tadqiqotlarda asosiy e'tibor kvars xomashyosiga ishlov berishdagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash, uni chaqmoqlash jarayoniga ta'siri va bu jarayonlarni ilmiy tahlil qilish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan edi. Mualliflar ishlov berish uslublari va texnologiyalarini turli geografik sharoitlarda qiyosiy tahlil qilish orqali, insonning xulq-atvori, kognitiv faoliyati va madaniy an'analarni shakllanish jarayonlarini tushuntirishga intildilar. Bu yondashuvlar kvarsdan foydalanishni qayta baholash bilan birga, xomashyoni tanlash strategiyalari va chaqmoqlash usullarini taqqoslash orqali industriyalarni tahlil etish uchun muhim ilmiy asos yaratib berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot jahon paleolit tadqiqotlarida keng qo'llaniladigan kompleks yondashuvga asoslanadi. Birinchidan, texnologik tahlil — ya'ni o'zakdan tayyor mahsulotgacha bo'lgan ishlov berish zanjirini tiklash usuli — asosiy ilmiy usul sifatida tanlandi [10, P. 23-33]. Bu usul orqali kvarsga ishlov berish jarayoni bosqichlari ketma-ketligi aniqlanadi: o'zak uchun mos toshni tanlash, zarb maydonini tayyorlash, chaqmoqlash burchagi, yo'nilg'i olish, oddiy yoki murakkab usulda ishlov berish. Ikkinchidan, vizual petrografik tahlil yordamida xomashyoning mahalliy yoki tashib

keltirilganligi aniqlanadi. Bu jamoalarning xomashyo strategiyasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, qiyosiy tipologik tahlil orqali tosh buyumlar to'plami boshqa yodgorliklardagi o'xshashliklar bilan solishtiriladi.

Shu tarzda, tadqiqotning uslubiy asosi nafaqat artefaktlarning shakli, balki ishlov berish jarayonini ham qayta tiklashga yo'naltirilgan. Bu yondashuv paleolit jamoalarining kognitiv darajasi va xomashyoni tanlashdagi qaror qabul qilish mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi. Natijada, O'zbekiston hududidagi yodgorliklarda kvars xomashyosidan foydalanish tasodifiy emas, balki texnologik va madaniy moslashuvning bir ko'rinishi sifatida izohlanishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotchilar kvarsni qiyin chaqmoqlanish va notekis darz ketish xususiyati sababli texnologik nazoratga bo'ysunmasligini ta'kidlagan. Shu bois u ko'pincha asosiy tanlov emas, balki majburiy yoki ixtiyorsiz qo'llanilgan xomashyo sifatida baholangan. Boshqacha ta'riflaganda, kvars chaqmoqtosh yetishmovchiligi sharoitida insonlar tomonidan ikkinchi darajali xomashyo sifatida ishlatilgan. Shu sababli, kvars xomashyosiga asoslangan industriyalar paleolitshunoslikda uzoq vaqt davomida "mavjud sharoit natijasi" sifatida talqin qilingan [11, P. 112-118].

Biroq 1980-yillardan boshlab jahon paleolitshunoslik maktablaridagi qo'llanilgan yangi usullar kvarsning tosh industriyalardagi o'rnini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'ldi. Yodgorliklarda kvars xomashyosidan tayyorlangan tosh qurollar texnologik jarayonning asosiy qismi ekani aniqlandi [3, P. 133-155]. Bu natijalarga asoslangan holda kvarsga ishlov berishda o'zakdan qayta foydalanish imkonini tahlil qilish asosida uning alohida "texnologik maktab" sifatida qaralishi kerakligi qayd etildi [14, P. 150-156].

O'rta paleolit davrining kvars xomashyosiga asoslangan industriyalari o'zining oddiy, lekin aniq rejalashtirilgan ishlov berish tizimi bilan ajralib turadi. Kvarsning mo'rtligi va sinuvchanligi chaqmoqlash jarayonida zarb burchagi va yo'nalishni to'g'ri tanlashga majbur qilgan. Natijada jarayon yuqori darajadagi tajriba va bilimni talab qilgan [5, P. 103-107]. Shu bois, kvarsdan foydalanishni "oddiy" yoki "iqtisodiy" usul sifatida emas, balki texnologik tajriba va madaniy an'anani aks ettiruvchi tizim sifatida baholash kerak.

1990–2000-yillarda V. Murre va S. Feblo-Avgustin Yevropa paleolitidagi industriyalarni qayta tahlil qilib, kvarsga ishlov berish usullari chaqmoqtoshga nisbatan tubdan farq qilishini ko'rsatdi [9, P. 639-640]. Ular kvars artefaktlarini o'rganishda an'anaviy morfologik klassifikatsiyaning yetarli emasligini va har bir yodgorlik uchun individual texnologik tahlil zarurligini ta'kidladi. Bu fikr keyinchalik M. Lombard tomonidan ham ilmiy jihatdan mustahkamlandi. U kvars xomashyosiga ishlov berish jarayonini "moslashuv-kognitiv strategiya" deb atadi [6, P. 85-97]. Bu tadqiqotlar kvarsdan foydalanishning asosiy omillari xomashyo yetishmovchiligidan emas, balki uning fizik-strukturaviy xususiyatlaridan samarali foydalanish strategiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi [4, P. 34-45].

Kvars xomashyosiga asoslangan industriyalarda toshga ishlov berish jarayonining eng muhim jihati — uning turli-tumanligi va moslashuvchanlik xususiyatlaridir. Masalan, V. Vadli kvars artefaktlarga ishlov berish jarayonini qayta tiklab, unda ikkita asosiy texnika — "qisqa zarba" (short percussion) va "kichik uchirindi" (micro-flaking) usullarini aniqladi [13, P. 9590-9594]. Bu chaqmoqlash usullari kvarsning ichki darz ketish xususiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, xomashyoning fizik holatiga mos ravishda zarb kuchi va chaqmoqlash burchagi juda aniq nazorat qilinadi.

Paleolit davridagi xomashyo tanlovida kognitiv qaror qabul qilish masalasi ham muhim ahamiyatga ega edi. S. Mak-Brerti va A. Bruks ta'kidlaganidek, xomashyo tanlash faqat iqtisodiy yoki geologik omillar bilan emas, balki madaniy va toshga ishlov berishda shakllangan tajriba bilimlar bilan ham bog'liq bo'lgan [7, P. 453-563]. Kvarsda ishlov berishga ixtisoslashgan industriyalarni shu nuqtai nazardan tahlil qilish, bu jamoalarning toshga ishlov berish tajribasi yuksak darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Shu sababli, kvarsdan foydalanishni faqat "iqtisodiy majburiyat" emas, balki madaniy va texnologik moslashuv tizimi sifatida ham ko'rish zarur.

O'zbekiston hududida bu masala yetarlicha o'rganilmagan. Faqat 1980-yillardagi tadqiqotlarda Kuturbuloq va Zirabuloq yodgorliklarining kvarsdan ishlangan tosh buyumlari tahlil qilingan [12, S. 89-111]. Unda tosh artefaktlar tipologik xususiyatlariga ko'ra tasniflangan. Lekin xomashyo turining funksional o'rniga yetarlicha e'tibor berilmagan. Bugungi kunda respublika hududida bir qator o'rta paleolit davri yodgorliklarida kvars xomashyo sifatida yetakchi o'rin tutgani ma'lum. Ushbu xususiyat Samarqand va Qashqadaryo vohalarida joylashgan yodgorliklar uchun xos. Ularga yuqorida nomlari ko'rsatib o'tilgan Kuturbuloq, Zirabuloq yodgorliklari bilan birga Omonquton, Angalak, Kiyik-kamar, Teraklisoy g'or-makonlari va Oqchaqil manzilgohini misol qilish mumkin.

Ushbu yodgorliklar Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida Qoratepa tizmasining har ikkala tog' yonbag'rlarida, hududiy jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan. Yodgorlik kolleksiyasi shakl va ishlov berish usullari jihatidan o'zaro yaqinlik namoyon etadi, bu esa ularning yagona texnologik an'ana yoki tarixiy-madaniy jamoa doirasida rivojlanganini ko'rsatishi mumkin.

Bu yodgorliklarda kvars o'zaklari odatda turlicha hamda ko'p zarb va chaqmoqlash yuzali bo'lib, qayta shakllantirish holatlari ham kuzatiladi. Kvarsdan tayyorlangan o'zaklarda zarb va chaqmoqlash yuzalarining qayta tayyorlash izlarining ko'pligi, ularning tasodifiy emas, balki rejalashtirilgan texnologik jarayon natijasi ekanini ko'rsatadi.

Masalan Angalak yodgorligida qurollar maqsadli sindirilgan kichik uchirindilarda tayyorlangan. Kuturbuloq yodgorligidagi ba'zi o'zaklar esa "psevdo-levallua" texnikasiga yaqin bo'lib, bu jarayonda chaqmoqlash zarb kuchi va chaqmoqlash burchagini nazorat qilish yuqori darajada bo'lganini anglatadi. Shu bilan birga, Angalak va Kiyik-Kamar yodgorliklaridagi kvars artefaktlari ko'pincha uchirindi-o'zak texnikasi (flake-core reduction) bilan tavsiflanadi. Yodgorliklardagi bunday o'xshashlikning mavjudligi paleolit jamoalarining xomashyo tanlovi va ishlov berish texnikasida muayyan umumiy usullar bo'lganini belgilaydi.

Boshqa tomondan, Teraklisoy va Oqchaqil yodgorliklaridagi kvars artefaktlari morfologik jihatidan farq qiladi. Bu yerda kvars xomashyosidan tayyorlangan tosh artefaktlarda ishlov berish jarayonida zarba nuqtasi va uchirindilar burchagining keng diapazonda o'zgarishi kuzatiladi. Bu, ehtimol, manbadan olingan kvarsning yirik hajmi bilan bog'liq bo'lib, kuzatuv natijasida hududda kvars manbalari keng tarqalganligi qayd etildi.

Ushbu yodgorliklarda kvarsdan foydalanishni madaniy an'anaviy omil sifatida izohlanishi mumkin. Tosh buyumlar to'plamida kuzatilgan ishlov berish usullari bu fikrni tasdiqlaydi. Yuqorida kvars xomashyosidan foydalanish masalasi paleolit davri inson jamoalarining texnologik va kognitiv rivojlanish darajasini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tdik. Jahon paleolitining turli mintaqalarida, jumladan Afrika, Avstraliya va Yevropa yodgorliklaridagi ma'lumotlar, kvars industriyasi insonning muhitga moslashuv qobiliyatini va xomashyo zaxira imkoniyatlarini ongli ravishda baholay olganini ko'rsatadi. Bu jarayonda xomashyo tanlovi faqat resurs yetishmovchiligi yoki geologik omillar

bilan izohlanmaydi; u inson tafakkurining ishonchli texnologik va madaniy komponentlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi [14, P. 149-152]. Shu jihatdan Angalak, Kiyik-kamar, Teraklisoy g'or-makonlari va Oqchaqil manzilgohida yashagan qadimgi insonlar tabiiy muhit sharoitida samarali xomashyo strategiyasini ishlab chiqqanini, kvarsni esa maxsus texnologik maqsadda tanlaganini aytishimiz mumkin. Bu esa vohada paleolit davri ancha rivojlangan, qadimgi jamoalarning xomashyo tanlovi yuqori madaniy va kognitiv faoliyat natijasida amalga oshirilganini anglatadi.

Xulosa. Qoratepa tizmasi tog' yonbag'rlarida joylashgan yodgorliklar industriyalari ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lib, ular jahon paleolitining umumiy rivojlanish xususiyatlariga mos keladi. Tosh artefaktlar to'plamidagi kvarsdan tayyorlangan o'zak hamda qurollar morfologiyasi, ishlov berish usullari jamoalarning texnologik usullarni yaxshi o'zlashtirgani va uni xomashyo tanlovi tizimida faol qo'llaganini ko'rsatadi. Ayrim yodgorliklarda esa "psevdo-levallua" elementlarining mavjudligi, bu industriyalarning muayyan kognitiv tizim doirasida shakllanganini ham anglatishi mumkin.

Bu natijalar paleolit davri yodgorliklarini faqat davriy yoki madaniy jihatdan emas, balki kognitiv-faoliyat darajasi jihatidan ham taqqoslash va baholash imkonini beradi. Xomashyo tanlovi, ishlov berish texnikasi va ularni qayta ishlash imkoniyati inson faoliyati rejalashtirilgan va ongli tarzda amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun eng muhim vazifalardan biri — kvars artefaktlarni funksional tahlilini o'tkazishdir. Bu orqali ishlov berish jarayonidagi aniq qo'l harakatlari, zarb burchaklari va ishlatish izlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, petrografik va geoximik tahlillarni kengaytirish xomashyo manbalari va ularning manzilgohlar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuvlar paleolit davri insonlarining iqtisodiy faoliyati, tabiiy zaxiralardan foydalanish tizimi va xomashyo ayirboshlash munosabatlarini aniqlashda muhim ma'lumotlar beradi. U insonning tabiiy-muhit sharoitida faol moslashuvchanligini, zaxiralardan samarali foydalanish qobiliyatini va to'plangan tajriba-ko'nikmalarni uzluksiz ravishda uzatish xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bosinski G. *Die mittelpaläolithischen Funde im westlichen Mitteleuropa*. Köln: Böhlau Verlag, 1967, S. 45–52.
2. de la Peña P. The Early Use of Quartz in the European Middle Palaeolithic: Technological Patterns and Variability. *Quaternary International*, Vol. 361, 2015, pp. 94–108.
3. Henshilwood C. S., Dubreuil B. The Still Bay and Howiesons Poort Industries, Southern Africa. *Journal of Human Evolution*, Vol. 64, 2013, pp. 133–155.
4. Hiscock P. Making it Small in the Palaeolithic: Behavioral Implications of Microlith Technology. *World Archaeology*, Vol. 27(1), 1995, pp. 34–45.
5. Hiscock P. *Archaeology of Ancient Australia*. London: Routledge, 2008, pp. 103–107.
6. Lombard M. Quartz and Its Implications for Understanding Middle Stone Age Technologies. *South African Archaeological Bulletin*, Vol. 66, No. 194. Cape Town: South African Archaeological Society, 2011, pp. 85–97.
7. McBrearty S., Brooks A. S. The Revolution that Wasn't: A New Interpretation of the Origin of Modern Human Behavior. *Journal of Human Evolution*, Vol. 39, 2000, pp. 453–563.
8. Mourre V., Féblot-Augustins C. Quartz Usage in the Middle Palaeolithic of Western Europe. *Lithic Technology*, Vol. 24(1), 1999, pp. 35–45.

9. Mourre V., Féblot-Augustins C. Quartz Knapping in the European Paleolithic: Approaches to Variability and Cognition. *Journal of Archaeological Science*, Vol. 32(5), 2005, pp. 631–648.
10. Pelegrin J. A Framework for Analyzing Stone Tool Production Systems. In: *The Nature of Lithic Production Systems*, ed. E. Hovers & D. R. Braun. New York: Springer, 2009, pp. 23–33.
11. Shea J. J. *Stone Tools in the Paleolithic and Neolithic Near East*. Cambridge: Cambridge University Press, 2013, pp. 112–118.
12. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р. Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. Фан. 1980.
13. Wadley L., Hodgskiss T., Grant M. Implications for Complex Cognition from the Hafting of Tools with Compound Adhesives in the Middle Stone Age, South Africa. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, Vol. 106, No. 24, 2009, pp. 9590–9594.
14. Wurz S. *The Middle Stone Age at Klasies River, South Africa*. Cambridge: Cambridge University Press, 2002, pp. 143–156.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF CULTURAL SECTORS IN UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE (ON THE EXAMPLE OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN)

Khujaniyazov Uktam Yeshbaevich

Doctor of Philosophy in History (PhD)

Head of the Department of "Law and Social and Humanitarian Sciences"

Karakalpak Academic Lyceum of the

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This scientific article discusses the reforms carried out in 2017-2023 in the field of culture and art in the Republic of Karakalpakstan, as well as the achievements in these areas.

Keywords: independence, culture, art, theatre, festival, reform, performance, international, music, pop.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MADANIYAT SOHALARI RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

Xujaniyazov Uktam Yeshbayevich,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Respublikasi IIVning

Qoraqalpog'iston akademik litseyi

"Huquq va ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası mudiri

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada 2017-2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyati va san'ati sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar hamda mazkur sohalarda erishilgan yutuqlar haqida aytiladi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, madaniyat, san'at, teatr, festival, islohat, spektakl, xalqaro, musiqa, estrada.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N02>

Kirish. Ma'lumki, har bir xalq jahon hamjamiyatiga munosib tenglashish va uni o'zining milliy xususiyatlari, o'ziga xosligi bilan boyitish, jahon xalqlari madaniy-ma'naviy xazinasiga o'z hissasini qo'shish, mayli u zarra, uning ijtimoiy-ma'rifiy, fan-texnika, madaniy, iqtisodiy, siyosiy hayotida munosib o'z ulushiga ega bo'lish kayfiyati har bir millatning globallashuv davridagi orzusiga, ehtiyojiga, haqli ravishdagi stimuliga aylanishi zarurligi barchaga ayon. Bu jarayonga har bir millatning ongli kishilari, ziyolilari, madaniyati va san'ati arboblari doim intilib kelganlar.

Chunki har qanday davlat yoki millat birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Har bir millatning qiyofasi, nufuzi, jahon hamjamiyati orasidagi o'rni uning umuminsoniy qadriyatlariga qo'shgan hissasi bilan, madaniy taraqqiyoti va madaniyati bilan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asar va nutqlarida huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurish, milliy g'oya va milliy mafkura, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, kelajak avlod va uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, tarixga munosabat haqida bayon qilgan fikr va qarashlari, hukumatimiz va Prezidentimizning qaror va farmonlari, ko'rsatmalari xizmat qildi.

Tadqiqotda mustaqillik yillarida Qoraqalpog'istonda madaniyat sohalarining rivoji arxiv materiallari, matbuotda chop etilgan axborotlar, statistik ko'rsatkichlarni tahlil etish orqali aniqlandi. Shuningdek, ishda ilmiy-tarixiy bilish nazariyasining dunyoda barcha xalqlar tomonidan tan olingan obyektivlik va tarixiylik, tarixiy-qiyosiy, tadrijiy-muammoli, tavsifiy metodlari va tamoyillari qo'llanildi.

Muhokama. O'zgarayotgan jamiyat ehtiyojlari madaniyatlar taraqqiyotiga ham yangi talablar qo'yadi. Xalqning o'zligini anglashi, milliy g'urur hissining ko'tarilishi uchun ularda qadimiy milliy sarchashmalarga qaytish, tarixiy ildizlarni qumsash hissiyoti uyg'onadi, bu esa madaniyatlar rivojida ularni aks ettirishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Shu tariqa madaniyat taraqqiyotida ma'naviy poklanish, milliy qadriyatlarni aks ettirish tendensiyasi kuchayadi, Qoraqalpog'istonda ham bu harakat, birinchi navbatda, madaniyat sohasida ko'zga tashlanadi.

Natijalar. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganining dastlabki yillaridan boshlab xalq ma'naviyatini ko'tarish, milliy madaniyatlarini yuksaltirish, shu yo'l bilan xalq ongi va ruhiyatida o'z tarixi, madaniyati va ma'naviyati bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish yo'lidan bordi. Zotan shu ishlarni amalga oshirmay turib, O'zbekiston xalqlari istiqbolini, Mustaqilligini mustahkamlash milliy yuksalishini ta'minlash va o'z vataniga sodiq avlodni voyaga yetkazishdek tarixiy missiyani amalga oshirish mumkin emasdi.

O'zbekiston rahbariyati va davlati buni e'tiborga olgan holda madaniyatning barcha sohalarini jadal rivojlantirish va uning xalqni tarbiyalashdagi rolini oshirish tadbirlarini birinchi darajali davlat ishi sifatida qaradi va hozirgi davrda buni izchil ravishda davom ettirmoqda.

O'zgarayotgan jamiyat ehtiyojlari madaniyatlar taraqqiyotiga ham yangi talablar qo'yadi. Xalqning o'zligini anglashi, milliy g'urur hissining ko'tarilishi uchun ularda qadimiy milliy sarchashmalarga qaytish, tarixiy ildizlarni qumsash hissiyoti uyg'onadi, bu esa madaniyatlar rivojida ularni aks ettirishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Shu tariqa madaniyat taraqqiyotida ma'naviy poklanish, milliy qadriyatlarni aks ettirish tendensiyasi kuchayadi, Qoraqalpog'istonda ham bu harakat, birinchi navbatda, madaniyat sohasida ko'zga tashlandi.

Qoraqalpog'istonda teatr san'ati xalq madaniy hayotida katta mavqega ega bo'lib kelmoqda. Keyingi yillarida qoraqalpoq teatr san'ati har jihatdan kamol topib, o'z taraqqiyotida bir qancha yutuqlarni qo'lga kiritdi. Bugungi kunda qoraqalpoq diyorida 3 ta davlat teatri mavjud bo'lib ular, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali akademik teatri, Sapar Xo'janiyozov nomidagi Qoraqalpog'iston yosh tomoshabinlar teatri va Qoraqalpoq davlat qo'g'irchoq teatrlaridir.

Yurtimizning katta teatrlardan biri bo'lgan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatriga O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligining 2017-yil 22-fevraldagi 240-sonli qarori bilan "Akademik teatr" maqomi berildi. [1] Bu esa teatr tarixida muhim voqea bo'ldi va teatr jamoasini yangidan-yangi yutuqlarga ilhomlantirdi. Mazkur yili teatr Toshkent

shahrida respublika teatrlari orasida o'tkazilgan "Seni kuylaymiz, Zamondosh" ko'rik tanloviga K. Raxmanov, Q. Zaretdinovlarning "Muhabbat shamoli" musiqali dramasi bilan qatnashib, III o'rinni, 2018-yili Toshkent shahrida o'tkazilgan "Debyut-2018" V-Respublika ko'rik-festivaliga M. Reymov tomonidan sahnalashtirilgan "Luvr o'rdagi" spektakli bilan qatnashib I o'rinni egalladi. [2]

Sapar Xo'janiyozov nomidagi Qoraqalpog'iston yosh tomoshabinlar teatri jamoasi 2018-yili o'zining yangi binosiga ega bo'ldi. Teatrning yangi binosini qurish uchun jami 10 mlrd. 313 mln. so'm mablag' ajratildi. Jahon andozalariga to'liq javob beradigan yangi teatr binosining qurib bitirilishi teatr jamoasiga xalqqa yanada samarali xizmat ko'rsatishga va katta muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatlarini yaratdi. [3]

Xususan, 2020-yili Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Debyut-2020" VI-Respublika festivaliga Rey Kunidning "Qora diplomat" spektakli bilan qatnashib "Rejissyor va rassomning muvaffaqiyatli hamkorligi" nominatsiyasini, shuningdek, "Ehtirom-2020" mukofotining "Yil spektakli" nominatsiyasi (P. Aytmuratov "Ustoz taqdiri") g'olibi bo'lishdi. 2022-yil 26-30-sentyabr kunlari bo'lib o'tgan "Debyut-2022" ko'rik tanloviga rejissyor Sultanbek Qalibek tomonidan sahnalashtirilgan "Qo'rqit ota" spektakli bilan qatnashib ikkinchi o'rinni egallashdi. [4]

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2019-yil 15-maydagi "Seni kuylaymiz, zamondosh!" V — Respublika teatrlarining ko'rik-festivalini o'tkazish to'g'risida"gi 293-sonli buyrug'iga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida 10-16-iyun kunlari "Seni kuylaymiz, zamondosh!" O'zbekiston teatrlarining V respublika ko'rik-festivalining o'tkazilishi respublika madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Mazkur festivalda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri "Saxovat bog'i" spektakli bilan qatnashib, birinchi o'rinni egalladi. [5] Sapar Xo'janiyozov nomidagi Qoraqalpog'iston yosh tomoshabinlar teatri jamoasi esa B. Aytmuratov qalamiga mansub "Mo'ynoqda baxtning tonglari otdi" spektakli bilan qatnashib "Eng yaxshi dramaturgiya" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

Bugungi kunda qoraqalpoq teatr jamoalari ijodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirib, chet ellarga ijodiy safarlar uyushtirishmoq. Jahon miqyosida o'tkazilayotgan tanlov va festivallarda munosib ishtirok etib, turli nominatsiyalar bo'yicha muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Masalan, 2018-yili Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali akademik teatr jamoasi Qirg'iziston respublikasida o'tkazilgan "Aytmatov va teatr" xalqaro teatrlar festivaliga Ch. Aytmatov asari asosida sahnalashtirilgan "Luvr o'rdagi" nomli spektakli bilan qatnashib III o'rinni egalladi. Shuningdek, teatr jamoasi 2021-yili iyul oyida Turkiya davlatining Trabzon shahrida o'tkazilgan Xalqaro teatrlar festivaliga Ch. Aytmatov asari asosida sahnalashtirilgan "Jamila" spektakli bilan qatnashdi. [5] Mustaqillik yillari qoraqalpoq teatr san'ati dunyoga tanildi, xalqaro festivallarga, konkurs va tanlovlarga qatnashib, Qoraqalpog'iston xalq san'atini dunyoga tanitdi, qator mukofotlarga sazovor bo'ldi.

Ma'lumki baxshichilik san'ati xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan janri hisoblanadi. Keyingi yillarda respublikada ijodning boshqa yo'nalishlari kabi bu yo'nalish ham keng rivojlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-apreldagi "II Xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga tayyorgarlik ko'rish va baxshichilik san'atini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5070-son Qarori qabul qilindi. Bu qaror asosida 2021-yil sentyabr oyida Nukus shahrida II Xalqaro baxshichilik san'ati

festivali bo'lib o'tdi. Festivalga jahonning 22 ta davlatidan 100 dan ortiq baxshi, oqin va jirovlar qatnashishdi. Festival bosh sovrini – Gran-prini qoraqalpog'istonlik yosh baxshi Janibek Piyazov va ikkinchi o'rinni “Qoraqalpog'iston xalq baxshisi” Gulbahor Aximbetovalar qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari, festival doirasida Nukus shahridagi Opera va baxshichilik san'ati maktab-internatida “Baxshichilik san'atining jahon madaniyati sivilizatsiyasida tutgan o'rni” nomli II xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya bo'lib o'tdi. Unga 23 nafar mahalliy va 17 nafar xorijiy olimlar qatnashdilar.[6] Mo'ynoq shahrida “Orol xalqlaridan 99 xil taomlar” xalqaro gastronomik festivali o'tkazildi. Anjuman munosabati bilan respublikaga ko'plab xorijiy davlatlardan sayyohlar, xalqaro tashkilot vakillari, jahon ommaviy axborot vositalari xodimlari tashrif buyurishdi.

Mustaqillik yillarida konsert tashkilotlari o'z repertuarlarini zamonaviy va estrada qo'shiqlari, o'yinlari bilan boyita borib, tinglovchilarga estetik zavq bag'ishlashga, konsertlarning badiiy saviyasining yuqori bo'lishiga harakat qilmoqdalar. Bu har yili o'tkazilib kelinayotgan Navro'z va Mustaqillik bayramlarida, Toshkent shahridagi tomoshalarda uzluksiz ishtirok etib kelayotgan “Aykulash” Qoraqalpoq milliy raqs ansambli faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu jamoa Qoraqalpoq san'atini dunyoga tanitish bo'yicha ham e'tiborga molik ishlar qilishdi.

2021-yilning 27-noyabr kuni “Ayqulash” Qoraqalpoq davlat milliy folklor ansamblining 65-yillik yubiley kechasi o'tkazildi va shu yubiley munosabati bilan respublikamizda birinchi marta “Qoraqalpog'istonda xoreografiya san'atining rivojlanish tarixidan” mavzusida I Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi o'tkazildi. [6]

Istiqlol yillarida mamlakatimizda talantli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni yangidan-yangi ijodiy ishlarga rag'batlantirish va yanada faollashtirish, ularning ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, tadbirlariga, san'atning barcha turlariga, jumladan, musiqa san'ati rivojiga alohida e'tibor berilmoqda.

Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan ta'sis etilgan “Nihol” mukofoti hamda an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan “Yagonasan, muqaddas Vatan”, “Kelajak ovozi”, ko'rik-tanlovlari hayotini san'atga bag'ishlashni diliga tuggan yoshlarning iste'dodlarni kashf etishga, ularga keng yo'llar ochib berishga xizmat qilmoqda. Xususan 2019-yili baxshichilik yo'nalishi bo'yicha Muhammed To'rabekov va jirov Adilbek Baqtibayev, 2022-yilda esa jirov Dovran Yendirbev va xoreografiya yo'nalishi bo'yicha Janar To'rayevalar “Nihol” davlat mukofoti sohiblari bo'lishdi. [6]

Bugungi kunda yurtimizda madaniyat va san'at sohasi muassasalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyat va san'at muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-aprelda “O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filialini tashkil etish chora-tadbirlar to'g'risida” 186-sonli Qarori qabul qilindi. Shu qaror asosida O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali tashkil qilinib 2021/2022 o'qish yilida 5 ta yo'nalish bo'yicha 47 nafar talaba qabul qilindi. Mazkur yili filialda “Xalq sozlari” ansambli, “Xalq sozlari” orkestri, “Simfoniya” va “Kamera” orkestrlari tashkil etildi. Hozirgi kunda filialda 1 ta fakultet va 2 ta kafedra mavjud bo'lib ularda 32 nafar professor-o'qituvchi 166 nafar talabaga bilim bermogda. Respublikada bunday oliy ta'lim

muassasalarining tashkil qilinishi madaniyat va san'at muassasalarini malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga zamin yaratmoqda.

Ma'lumki, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy kamol topishida san'atning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, musiqa san'ati bolalar ruhiy-ma'naviy olamining va madaniy saviyasining yuksalishida alohida o'rniga ega. Shuning uchun ham bugungi kunda yurtimizda bolalar musiqa ta'limiga katta e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda muhtasham musiqa va san'at maktablarining qad rostlashi buning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-sentyabrdagi "Opera san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab – internat tashkil etish to'g'risida"gi 595-sonli Qarorining qabul qilinishi yoshlarimizning ma'naviy saviyasini oshirish, ularning milliy va jahon musiqa san'ati va madaniyatini o'rganishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda muhim voqea bo'ldi. Shu qaror asosida 2021-2022 o'quv yilida Nukus shahridagi 24-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi negizida, opera san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internat tashkil etildi. Bunday zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim muassasalarining qurilishi yoshlarimizning ma'naviy-ruhiy yuksalishiga hukumatimizning qilayotgan g'amxo'rligining bir ko'rinishidir.

Opera va baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internati hamda konservatoriyani tamomlagan yoshlarni ish bilan ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan "Qoraqalpog'iston opera va balet teatri"ni tashkil etish belgilandi. Tashkil etilishi belgilangan teatr binosiga yer ajratish va smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasiga tavsiyalar berilgan. [6]

Respublikadagi musiqa va san'at maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilar respublikamiz bo'yicha o'tkazib kelinayotgan dasturiy ko'rik tanlovlarga, muntazam ravishda qatnashib kelmoqda va g'oliblikni qo'lga kiritishmoqda. Masalan, 2019-yili Nukus shahrida joylashgan 22-sonli bolalar musiqa va san'at maktabining "Ayqulaq" bolalar o'yin ansambli Toshkent shahrida o'tkazilgan "Sharq atir guli" nomli Xalqaro festivaliga qatnashib "Granpri" g'olibi bo'lishdi va 2020-yil may oyida Ispaniya davlatida bo'lib o'tadigan tanlovga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Hozir kunda kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida 2 ta ixtisoslashtirilgan madaniyat va san'at maktabi, 1 ta maktab-internati, 24 ta bolalar musiqa va san'at maktablari va 2 ta oliy o'quv yurti faoliyat yuritmoqda. [6]

Qoraqalpoq yosh san'atkorlari ovozi bugungi kunda dunyo sahnalari uzra baralla yangramoqda. Yoqimli ovoz, sehrli raqslar sohiblari xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritmoqda. Xususan, 2018-yili Rossiya Federatsiyasining Yekaterinburg shahrida o'tkazilgan «Краски народов мира в проектах берега надежды» tanlovida folklor yo'nalishi bo'yicha ishtirok etgan Muhammad To'rabekov Gran-Pri g'olibi bo'ldi, mazkur yili Qozog'iston Respublikasi Olmota shahrida bo'lib o'tgan "Indigo" xalqaro ijodiy tanlov-festivalida Gulshinar Xudaybergenova "An'anaviy ijro. Folklor. Solo" nominatsiyasi bo'yicha qatnashib birinchilikni olishga erishdi. Shuningdek, 2019-yili Nukus davlat pedagogika instituti talabasi Dinara Nuratdinova Polsha davlatining Lodz shahrida o'tkazilgan "Zolotaya lodka" IX xalqaro yosh folklor ijrochilar festivaliga qatnashib Gran-Pri sohibi bo'ldi. Bundan tashqari mazkur institutning yana bir talabasi Bahadir Quatbayev 2020-yilda Qozog'iston Respublikasi Nur-Sultan shahrida o'tkazilgan "Gloria" xalqaro festivaliga qatnashib yuksak sovrin Gran-Prini qo'lga kiritdi. Mazkur yili, yana bir qoraqalpog'istonlik yosh san'atkor

Parij shahrida o'tkazilgan "PRO ART" xalqaro ko'p janrli tanlov festivalga qatnashib "Folklor vokal. Solo" nominatsiyasi bo'yicha birinchilikni qo'lga kiritdi. Bularning barchasi Qoraqalpog'istonlik yoshlarning mustaqillik yillarida o'z iste'dodlarini baralla yuzaga chiqarib davlatimiz yaratib berayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanayotganligining bir dalilidir.

Xulosa. Madaniyat taraqqiyoti tarixi jamiyat yuksalishi tarixini belgilovchi mezondir. Demak madaniyatlar taraqqiyoti tarixini o'rganish jamiyat taraqqiyotini tasavvur qilishga yo'l ochadi.

Qoraqalpog'iston madaniyati taraqqiyoti tarixi O'zbekiston xalqlari madaniyatlari taraqqiyoti tendensiyalarining tarkibiy qismi sanaladi. Shuni e'tiborga olgan holda, Qoraqalpog'iston xalqlari madaniyatlari taraqqiyoti tarixini O'zbekiston xalqlari madaniyatlari taraqqiyoti kontekstida olib qarash, bu xalqlar madaniy taraqqiyotida mustaqillikning, milliy g'oya va milliy mafkuraning ahamiyatini belgilash Vatan tarixshunosligiga katta materiallar berishi shubhasizdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. QR. Madaniyat vazirligi joriy arxivi. Madaniyat vazirligining 2017-yil hisoboti. – B. 6.
2. Seytnazarova T. Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining shakllanish jarayonlari // "Oriental and Culture" Scientific-Methodical Journal. Volume 4, Issue 1/ February 2023.
3. Qoraqalpoq yosh tomoshabinlar teatri yangi binoga ega bo'ldi. // O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. <https://old.gov.uz/uz/news/view/18525>
4. Baxiyeva B. "Qo'rqit ota" qoraqalpoq teatrida// Madaniyat va san'at jurnal. 2023, №2. – 189 b.
5. Seytnazarova T. Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining shakllanish jarayonlari. // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X. Volume 4 Issue 1 / February 2023
6. Madaniyat vazirligi joriy arxivi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi va unga qarashli muassasalarning 2017-2022-yillar davomida amalga oshirilgan ishlari hisoboti. – B. 5.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

ANCIENT THEATRE

Muminov Khusanboy Madaminjonovich

Department of History and Social science at Andizan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor

Khamidova Ominakhan

2nd year student

Department of History and Social science at Andizan State University

Abstract. This article explores the origins of ancient theaters, their stages of development, and their role in human civilization. It analyzes the distinctive features of ancient Greek, Roman, Indian, Chinese, and Japanese theaters, highlighting their influence on modern theatrical art. Initially emerging from religious rituals and mythological narratives, ancient theater later evolved into an artistic platform expressing human emotions, social life, and philosophical ideas. The article also compares the stage architecture, acting techniques, and dramaturgical foundations of ancient theaters with those of modern theater schools. As a result, it is scientifically substantiated that the traditions of ancient theater laid the aesthetic, symbolic, and philosophical foundations of contemporary theatrical art.

Keywords: ancient theater, tragedy, comedy, satire, theater architecture, actor.

ANTI-K TEATR

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich

ADU, Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix falsafa fan doktori, dotsent

Xamidova Ominaxon

ADU, Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti,
2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi teatrlarning kelib chiqishi, ularning shakllanish bosqichlari hamda insoniyat madaniyatidagi o'rnini yoritilgan. Qadimgi Yunon va Rim teatrining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinib, ularning bugungi zamonaviy teatr san'atiga ko'rsatgan ta'siri ko'rsatib o'tiladi. Dastlab diniy marosimlar va mifologik rivoyatlardan vujudga kelgan qadimgi teatr, keyinchalik inson ruhiyatini, ijtimoiy hayotni va falsafiy g'oyalarni ifodalovchi badiiy maydonga aylanganligi, qadimgi teatrlarning sahna qurilishi, aktyorlik san'ati va dramaturgik asoslari hozirgi teatr maktablari bilan qiyosiy o'rganiladi. Natijada, qadimgi teatr an'analari bugungi teatr san'atining estetik, ramziy va falsafiy poydevorini yaratganligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: antik teatr, tragediya, komediya, satira, teatr arxitekturas, aktyor.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N03>

Kirish. Antik teatr deganda qadimgi yunon teatri hamda uning ta'sirida shakllangan Rim teatri nazarda tutiladi. Ushbu teatrlar insoniyatning madaniy hayotida o'ziga xos o'rin egallab nafaqat ushbu xalqlar madaniyatiga balki butun dunyo xalqlarining madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Miloddan avvalgi V asr Qadimgi yunon teatri o'zining yuqori cho'qqisiga yetadi va ushbu jarayon miloddan avvalgi III asrga qadar rivojlanishda davom etgan. Rim teatri esa

yunon teatri ta'sirida miloddan avvalgi III — II asrda paydo bo'lib, eramizning IV - V asrigacha faoliyatda bo'lgan.

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy obyektivlik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida ilmiy akademik yondashuv bilan yozildi.

Natijalar. Antik davrdan bizga san'at bobida ulkan meros qolgan. Antik olam me'morchiligi, haykaltaroshligi, adabiyoti va san'ati keyingi zamonlarda muttasil o'rganish va ergashish manbai bo'lib keldi. Buni Uyg'onish davrida ilk komediya va tragediyalarni yaratishda antik davr mualliflarining asarlari namuna bo'lib xizmat qilganidan ham bilishimiz mumkin. Keyingi davrlarda ham G'arbiy yevropalik dramaturglardan Shekspir, Kornel, Shiller, Gyote va boshqalar antik davr teatr merosi boyliklariga faol murojaat qilib kelganlar. Gaupzman, O'Nil, Sartr, Anuy va boshqa dramaturglar ham antik syujet va obrazlardan keng foydalanganlar [1. -B. 8].

Zamonning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liqlik insonga, uning ma'naviy yetukligiga diqqat-e'tibor, yunon eposi va lirikasining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanish — bularning hammasi Afina teatrining ulug'vor g'oyalar va ajib badiiy shakllar teatri bo'lishini belgilab berdi. Zo'rlik va zulmning har qanday ko'rinishiga qarshi norozilik, el-yurtni jo'shqin sevishtirish, fuqarolik va insonparvarlik e'tiqodlarini ulug'lash singari g'oyalar taraqqiyparvar insoniyatga uning tarixida hamma zamonlarda hamroh va tushunarli bo'lib kelgan. Shu boisdan ham antik drama qahramonlarining kurashlari, g'am-anduhlari hozirgi tomoshabinlarni ham hayajonga solib keladi.

Qadimgi Yunon teatr janrlari yunonlarning e'tiqodidan kelib chiqib shakllangan. Bu kabi janrlarga tragediya, satira, komediya yorqin misol bo'la oladi. Hosildorlik ma'budi Dionis sharafiga bag'ishlangan marosimda qo'shiqlar va o'yinlarda marosimning iztirobli, noxush tomonlari tragediyada, kulgili tomonlari komediyada aks ettirilgan. Satira esa o'rta janr hisoblangan.

Yunon tragediyasining kelib chiqishi tragediya va komediya so'zlari orqali ham oydinlashadi. Tragediya so'zi ikki yunon so'zidan tarkib topgan: tragos — “echki” va ode — “qo'shiq”, ya'ni “echki qo'shig'i” demakdir. Bu tushuncha yana bir bor Dionisning yo'ldosh va hamrohlari — satirlar echki tuyoqli maxluqlar taxlitida tasavvur etilganligini ko'rsatadi. Komediya so'zi komos va ode so'zlaridan kelib chiqqan. Komos — bu Dionis sha'niga atalgan qishloq bayramlarida masxaraboz va qiziqchilarning shirakayf bo'lib, bir-biridan kulib, qo'shiqlar aytib namoyish qilib yurishlarini anglatgan. Demak, komediya so'zi “komos qo'shig'i” degan ma'noni anglatadi.

Yunon tragediyasi, odatga ko'ra, har bir yunonga yaxshi tanish bo'lgan mifologiya syujetlariga asoslangan. Shu bois tomoshabinni voqeaning o'zi emas, balki muallifning ma'lum rivoyatni qanday talqin etganligi, qanday ijtimoiy va axloqiy muammolarni olg'a surganligi qiziqtirgan. Dramaturg rivoyat bahonasida zamonaviy siyosiy hayot masalalarini olg'a surishi va o'zining axloqiy, falsafiy va diniy qarashlarini yaratishi lozim edi. Eramizdan avvalgi V asrda yuzaga kelgan attika komediyasi o'z mohiyatiga ko'ra siyosiy komediya bo'lgan. Unda hamma vaqt siyosiy tuzum va Afina davlatining tashqi siyosati, yoshlarni tarbiyalash, adabiy kurash kabi masalalar olg'a surib kelingan [1. -B. 9].

Yunonistonda teatr hosildorlik ma'budi Dionisga bag'ishlangan marosimlarida dunyoga kelib, Afina quldorlik demokratiyasi gullagan davrda ming-minglab fuqarolar uchun axloqiy va

ma'naviy tarbiya maktabi vazifasini o'tagan. Yunonlar sig'imi keng, usti ochiq mahobatli teatrlar qurgan edilar. Teatr tepalik yon bag'riga yarim-doira shaklida qurilgan bo'lib, uning tomoshabinlar o'tiradigan joyi teatron, ostki qismi bilan tutashib yarim doira bunyod etuvchi maydon orxestra deb atalgan bo'lib bu yerda aktyor tomosha ijro etgan va orxestraga tutash qurilma skenada esa aktyor kiyinadigan joy bo'lgan [2. -B. 6].

Teatr tomoshalari davlat himoyasidagi muhim siyosiy va tarbiyaviy tadbir va choralaridan biri hisoblangan.

Ikkinchidan, dramaning yuzaga kelishi bevosita Dionis marosimlari bilan bog'liq bo'lganligi tufayli bu tomoshalar shu ma'budning sharafiga yil sayin uch marotaba o'tkaziladigan va bir necha kunlab davom etadigan bayram paytlarida namoyish qilingan. Yunonlar mazkur tomoshalarga shunchaki bir ermak deb emas, balki muhim diniy bayram deb qaraganlar va bu bayramlarni imkon qadar tantanali o'tkazishga tayyorlanib, deyarli hammalari teatr tomoshalariga kelishga oshiqqanlar.

Dastlabki davrlarda teatr o'yinlari bepul ko'rsatilgan. Keyinchalik, chiqimlarning ko'payib ketganligi sababli, tomoshalar pullik qilingan, kambag'allarga ma'lum miqdorda hukumat pul to'laydigan bo'lgan [3. -B. 108].

Teatr ko'rinishi ochiq havoda dumaloq maydonchada berilgan. Ochiq va katta teatrda aktyorlar mimikasi va kiyimlarini aniq ko'rib bo'lmas edi. Shu boisdan aktyorlar sahnaga uzun tantanali kiyim va niqoblarda va aktyor gavdasini baland qilish uchun baland poshnali oyoq kiyimlarda chiqar edilar. Teatr tomoshalari mart oyining oxiri aprel oyining boshlarida ko'rsatilar edi [5.-B. 280].

XIX-XX asrlarda Yevropa sahnalarida antik dramalar muntazam ko'rsatilgan. Bugungi kunda ham antik davr dramalarining o'rni baland. Antik dramaturglar asarlari sobiq sho'ro teatrlari repertuarida ham keng o'rin tutib kelgan: masalan, 1918-yili Petrogradga Yu. Yuryev tomonidan tashkil etilgan "Fojialar teatri" Sofoklning "Shoh Edip" asari bilan ochilgan, 1957-yili Shata Rustaveli nomli gruzin teatrida, 1969-yili Hamza nomli O'zbek akademik teatrida yaratilgan "Shoh Edip" spektakllari yirik badiiy voqealarga aylandi [1. -B. 8].

Rim teatri esa biroz keyinroq shakllangan bo'lib birinchi teatr tomoshasi miloddan avvalgi 240-yilda namoyish etilgan. Bu Rimga Yunonistondan qul sifatida keltirilgan adib Liviy Andronik tomonidan lotinlashtirilgan Gomerning "Odisseya" asari edi. Rimda komediya, ayniqsa katta shuhrat qozongan. Yangi yunon ya'ni Attika komediyasi va rim xalq dramasi janrlari asosida dunyoga kelgan komediya san'ati kamchilik va qusurlarning fosh etilishi, hayotiy va ommabopligi bilan xalqda katta qiziqish uyg'otib kelgan. Rimda tragediya janrining taraqqiy topishida yunon tragediyalari, ayniqsa Evripid asarlari namuna bo'lib xizmat qilgan. Yunoniston va Rim kechirgan ijtimoiy tuzum va madaniy taraqqiyot darajasi bir-biridan farq qilar edi. Rimliklar yunon adabiy nusxalarini qayta ishlashda ularning fojaviylik, dabdabadorlik jihatlarini alohida bo'rttirib ko'rsatishga e'tibor berganlar. Sahna san'ati va teatr me'morchiligi sohasida Rimda ko'pgina yangiliklar paydo bo'ldi: toshdan ishlangan ilk teatr binolari qad ko'taradi, tragiklardan Ezop, komik Rossiy kabi antik zamonning yirik aktyorlari yetishib chiqadi [2. -B. 36].

Rim teatri madaniy hayotning zaruriy qismiga aylangan edi. Tragediya va komediyalarda havaskorlar emas, balki professional artistlar ishtirok etganlar. Ular aktyorlar deb atalgan. Rim aktyori qullikdan qutulgan yoki quldan chiqqan bo'lib, yunon aktyoridan past ijtimoiy mavqeda turgan. Buning sababi shunda ediki, Rim teatri Dionis marosimi bilan bog'liq yunon teatridan

farqli o'laroq, marosimlardan xoli, deyarli butunlay dunyoviy muassasa sifatida dunyoga kelgan edi. Yunonistonda aktyorlik kasbiga mo'tabar kasb tarzida qaralgani holda Rimda tahqirli kasb sifatida qaralgan. Shunga qaramay, Rimda xalqning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lgan aktyorlar ham yetishib chiqqan [1. -B. 32].

Imperator Oktavian Avgust teatrning ijtimoiy ahamiyatini tushunib, uni har tomonlama rivojlantirishga yordam ko'rsatadi. U fuqarolarni davlatga sodiqlik ruhida tarbiyalashda yunon tragediyasining alohida ahamiyat kasb etishini ko'zda tutib, Rim sahnasida, awalo, shu tragediya turini tiklash maqsadini olg'a surdi. Atoqli Rim shoiri Goratsiy "Poeziya ilmi" risolasida Avgustning shu sa'y-harakatini ifodalab bergan. Goratsiy ushbu risolada rimlik shoirlarga yunon tragediyasini sahnaga qaytarishni taklif etadi. Oddiy, ixcham voqeali va uch aktyor hamda xor ishtirok etuvchi yunon tragediyasi shoirlarga ma'qul tushib qolgan edi. Goratsiy Avgust fikrini quvvatlab, san'atning g'oyaviy teran, mazmunan o'tkir bo'lishi zarurligi qoidasini olg'a suradi. Uning ta'kidlashicha, bir tomondan, shoir fuqarolarning tarbiyachisi va murabbiysi bo'lganidan u yuksak bilimdon bo'lmog'i lozim; ikkinchidan, uning san'ati go'zal bo'lishi uchun uni tomoshabinga havola etishdan awal obdon ishlovdan o'tkazishi, har tomonlama mukammallik darajasiga chiqarishi lozim. "Poeziya ilmi" asari XVII asr fransuz klassitsizm nazariyasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi [1. -B. 37].

Rimda madaniyat va san'atning barcha turlari o'ziga xos tarzda rivojlanib borib, o'z davri mohiyatini aks ettirgan. Eramizning asrlariga kelib Rim madaniyatining tushkunligi kuchayadi va varvarlar tomonidan uning 476-yilda bosib olinishi bilan Rim madaniyatining rivojlanishi ham barham topadi. Eramizning IV–V asrlaridagi antik madaniyat arboblari va muxlislari uning tushkunlikka yuz tutishining oldini ola bilmagan bo'lsalar-da, ularning zo'r berishi tufayli antik madaniyat xazinasi kelgusi avlodga meros qolgan [4. -B. 68].

Xulosa. Qadimgi teatr insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim san'at turlaridan biri bo'lib, u diniy marosimlar, mifologik rivoyatlar va ijtimoiy hayotdan oziqlangan holda shakllandi. Yunon va Rim teatrlarining sahna qurilishi, aktyorlik san'ati hamda dramaturgiyasi keyingi asr teatrlarining rivojlanishiga asos bo'ldi. Antik davr teatrlarida ilgari surilgan falsafiy, axloqiy va estetik g'oyalar bugungi zamonaviy teatr san'atida ham o'z aksini topmoqda. Shu bois qadimgi teatr inson tafakkuri va san'at taraqqiyotining poydevori sifatida jahon madaniyatida beqiyos o'rin egallaydi.

Jumladan bugungi kunda ham ushbu davr madaniyati ta'siri ostida ko'plab teatr ko'rinishlari sahnalashtirilmoqda va bu esa shuni ko'rsatadiki ushbu antik madaniyatlar kishilik tarixida o'ziga xos muhim o'rin egallagan bo'lib insoniyat tarixida o'zining beqiyos o'rniga ega bo'lib qolmoqda. Rim teatri yunon madaniyatidan namunasi olish orqali paydo bo'lgan bo'lsa ham unda rimliklarning kundalik hayoti va boshqa ko'plab maishiy masalalarini namoyish eta oldi va yunon teatridan mustaqil tarzda ajralib chiqa oldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Tursunboyev. S. Jahon teatri tarixi – T.: Fan va texnologiya, 2008
2. Tursunboyev. S. Xorijiy teatr tarixi – T.: Cho'lpon, 2006
3. Alimammedov. A. Антик адабиёт тарихи – T.: Ўқитувчи, 1969
4. Туоров. Y. Қадимги Юнонистон ва Рим маданияти – T.: Наврўз, 2013
5. Rajabov. R. Qadimgi dunyo tarixi – T.: Fan va texnologiya, 2009

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

EPIGRAPHY ON CERAMIC VESSELS

Ravshanov Uktamali Rustam ugli

PhD student at Navoi State University,
Head of Department at Bukhara State Museum-Reserve

Abstract. Like the various collections of the Bukhara Museum, the Iranian collection is also rich in objects of various historical, cultural, and ethnographic significance. This article analyzes ceramic objects made in Iran in different periods. In particular, through the epigraphic texts on them, one can deeply understand the ceramic culture of their time. Poetic verses that were popular in different periods also appear on ceramic vessels and are studied in this article.

Keywords: Ceramics, Qajar, Mahshad, Shiism, epigraphy, poetry.

SOPOL IDISHLARDAGI EPIGRAFIKA

Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li

Navoiy davlat universiteti doktoranti,
Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi bo'lim mudiri
E-mail: powerravshanov@mail.ru

Annotatsiya. Buxoro muzeyining turli to'plamlari kabi eroniy larga oid kolleksiyasi ham turli tarixiy madaniy, etnografik ahamiyatga ega ashyolarga bo'ydir. Ushbu maqolada turli davrlarda Eronda tayyorlangan sopol buyumlar tahlilga tortilgan. Ayniqsa, ulardagi epigrafik matnlar orqali o'z davrining kulolchilik madaniyatini chuqur anglab olish mumkin. Turli davrlarda urf bo'lgan she'riy misralar ham sopol idishlar yuzasidan o'rin olgan va ushbu maqolada tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Sopol, Qojor, Mahshad, shialik, epigrafika, she'riyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N04>

Kirish. Tarixdan buyumlarning turi va foydalanish maqsadini inobatga olib ularga turli matnlar tushirilgan. Masalan, yog'och buyumlarda she'riy misralar ustunlik qilsa, mis buyumlarda she'riy misralar va diniy(shialik) matnlarini yozish teng miqdorda tarqalgan. Bu kundalik hayotda foydalaniladigan buyumlarga taalluqli bo'lsa, diniy amallar jarayonida foydalaniladigan buyumlarga diniy matnlarni yozish qat'iy qoida bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XVI-XVII asrlarga oid mis idishlarda Safaviylar davriga xos bo'lgan imomlarni ismini yozish yoki klassik she'riyat — Hofiz, Mavlono, Nizomiy asarlaridan parchalar nasta'liq xatida[1; C.303], XVIII-XX asr boshlariga oid idishlarda matnlar biroz qo'pollashgan, turli pand-nasihat va vaqf bilan bog'liq matnlarni yozish odatga tusiga kirgan.

Sopolga ishlov berish san'ati Qojorlar davrida asosan Isfaxon, Mashhad, Tehron shaharlarida rivojlandi. Bu davr sopollari Saljuqiylar va Safaviylar davri kabi juda nafis bo'lmasa-da, Eron kulolchiligida o'z o'rnini va uslubiga ega. Buxoro muzeyi fondida saqlangan sopol buyumlarda oq, moviy, qora, ochiq va to'q yashil, ko'k, qirmizi, malla ranglar ustunlik

qiladi. Bu ranglar Qojorlar davrining sopolchilikdagi xos ranglari ham hisoblanadi[2; B.7]. Oq va moviy rangli sopol idishlar Eronda Safaviylar davrida (xususan, Abbos I ning 300 xitoylikni Isfaxonga ko'chirishi) keng tarqalib, bunday chinnilarni keyinchalik olimlar tomonidan "badal chini" deb yuritiladigan bo'ldi. Ushbu ranglardan foydalanish qojorlar davrida yana qayta jonlandi. Muzeydagi sopollarda turli hikoya, she'riy matnlar, turli hayvon va qahramonlarning tasvirlari ham ishlangan. Idishlar yuzasidagi tasvirlar va xatlar biroz qo'polligi ham bu davrning xos uslubi hisoblanadi.

Muhokama. Ushbu uslubdagi yagona tasvirli vaza qorin qismi keng, og'iz qismiga tomon ingichkalashib boradigan, og'zi yana kengaytirilgan - yozuvlari ham shu yerga tushirilgan, to'rtta dastakli (bittasi singan) shaklda ishlangan. Tashqi devorida uch kishi, shulardan biri odat bo'yicha chiziladigan she'r boshini ustiga yopingan hamda ayri soqol tasvirli Rustam hisoblanadi. Ikki hayvon, bir qush va insonlar qo'lida turli idishlar, umuman olganda bir hikoya tasvirlangan. Idishning yuzasi to'liq sirlangan. Ushbu uslubda tasvirlar ishlangan idishlardan Ermitaj muzeyida ham ikki namuna saqlanmoqda [3; B.90]. Ikkinchi idish ham shu uslubda tayyorlangan shokosa bo'lib, uning ichki va tashqi devorlari to'rt hoshiyaga bo'lingan. Tashqi devorning birinchi hoshiyasiga matnlar tushirilgan. Keyingi hoshiya bo'ylab uchta hayvon – buqa, echki, sher yoki ularga o'xshash hayvonlar, buqa ortidan uni qamchilayotgan kishi va ikki gumbazli bino tasvirlari ishlangan. Asosiy tasvirlar orasida sarv daraxti, bulutlar, xurmo daraxti turli ramziy ma'nolarda ishlangan. Ichki qismida yana uch kishi, ikki hayvon, ikki gumbazli darvozali bino, kichik o'lchamli tog'lar, markazida bir biriga xanjar urayotgan ikki kishi taxminan Rustam va Suxrobning jangi tasvirlangan. Shokosa yuzasi to'liq sirlangan. Keyingi idish [4; №124/2 (454/44)] bankasimon shaklda bo'lib, bunday idishlarda Erondan shirinliklar olib kelingan. Eron shirinliklari butun dunyoga mashhur bo'lib, ayniqsa ziyoratga borganlar tomonidan shirinliklar olib kelish odat bo'lgan. Shunga ko'ra, o'z davrining bejirim bunday idishlari keng tarqalgan. Idish yuzasi oq rangda to'liq sirlangan. Og'iz qismida mis qoplama bo'lib, u hozirda saqlanmagan burama tiqin orqali yopib qo'yilgan. Sirli yuza ustidan Qojorlar davriga xos to'q ko'k, qirmizi, yashil, sariq ranglarda turli naqsh va tasvirlar ishlangan. Idish yuzasi yetti hoshiyaga bo'lingan. Markaziy hoshiyada to'rtta ayol tasviri ishlangan. Ular ham tashqi qiyofasi va soch turmaklariga ko'ra o'sha davr uslubini ko'rsatadi.



Buxoro muzeyi. Inv.№ 6258/2(101/13)

Yana bir sopol ko'za[4; №6258/2(101/13)] Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyida ko'rgazmaga namoyish etilgan. Ko'za oq fonda bo'lib, unga qirmizi, sariq, ko'k ranglarda qushlar, yashil rangda barglar va gullar tasviri ishlangan. Umumiy mavzu bu uslub "guli murg" ya'ni "gul va qush" deb nomlanadi. Bu idishning yuzasi ham to'liq sirlangan. Uning uzun bo'yni bo'ylab ikki yon tomondan dasta o'rnatilgan. Ularning biri va og'iz qismi qayta restavratsiya qilingan. Uning ham qorin qismida she'riy matnlar ishlangan bo'lib, keyingi bo'limda ular alohida tahlil qilinadi.

Odat bo'yicha idishlardagi yozuvlarda dastlab vaqf qilinayotgan buyum nomi, turi, keyin vaqf qiluvchining ismi, undan keyin esa vaqf qilinayotgan joy, agar xos nomi bo'lsa, u ham qo'shiladi va oxirida vaqf yili yoziladi. Vaqf alomatlari idishning turli joylarida yozilishi mumkin. Buyumlarning asosan qorin qismiga, ba'zi hollarda taglik qismining ostiga yoziladi. Bu vaqfning asosiy matnini tashkil etsa, unga qo'shimcha ravishda ikki turli yozuvlar ham odat tarzida vaqf matni tarkibida yozilgan. Ya'ni, "duoyi xayr" va "duoyi bad". "Duoyi xayr" – idishdan foydalanuvchi kishiga yaxshi tilaklar: suv ichgan kishiga yaxshilik bo'lsin, bu idishdan kim taom iste'mol qilsa, baraka bersin va boshqalar. "Duoyi bad" da esa idish vaqfini buzganga yomonlik bo'lsin, masjiddan (vaqf qilingan joydan) tashqariga chiqarganga nasib etmasin, noto'g'ri foydalansa Ollohni qahriga uchrasin va shu kabi mazmundagi matnlar edi.

Natijalar. Matnlar tahlili orqali xalq og'zaki ijodida mashhur bo'lgan jummalarni (she'r, hikmat, qissa...), hunarmandlar ko'p ishlatadigan epigrafikalarni hamda turli davrlarda urf bo'lgan jummalarni aniqlash mumkin. Shuningdek, ushbu she'rlarning ba'zilari kulliyotlarda keltirilgan aynan o'sha she'rlardan farq qiladi. Masalan, mashhur shoirlarning she'rlaridan ilhomlanish, faqatgina baytlar boshi va oxirini yozish, shoir she'rlariga o'z ijodidan vasl qilingan she'riy baytlarni idish yuzasida uchratish mumkin. Masalan, Qo'jorlar davriga oid fayans idish og'iz qismining artofga egiltirilgan labida Hofizning quyidagi she'ri bitilgan[4]:

گلزاری ز گلستان جهان ما را بس
زین چمن سایه آن سرو روان ما را بس
[5; B.217] حافظ از مشرب قسمت گله نانا صافیست

Hofiz she'rlari doim kishilarga ilhom bag'ishlab kelgan. Nafaqat Buxoroda, balki fors adabiyoti keng tarqalgan hududlarda "hofizxonlik" o'tkazib kelingan. Bundan ilhomlangan hunarmand va buyurtmachilar o'zlari foydalanayotgan idishlarga ham shoirlar she'rlaridagi mashhur va o'zlari yoqtirgan qismlarini yozishgan. Aynan shu davrga oid yana bir yirik fayans shokosada[4; №5973/2] shoirning quyidagi she'ri bitilgan:

بلبل، ز شاخ سرو، به گلبنانگ پهلوی
میخواند دوش، درس مقامات معنوی
یعنی بیا، که آتش موسی، نمود گل
تا از درخت، نکته‌ی توحید بشنوی
مرغان باغ، قافیه‌سجند و بذله‌گوی
تا خواجه می خورد، به غزل‌های پهلوی
درویشم و گدا و برابر نمی‌کنم پشیمین کلاه خود به صد تاج خسروی

She'rning oxirida "darvesh va gadomizu, boshimizdagi jun kulohni yuz hukmdor tojiga almashmasmiz" jummalari bitilgan.

XIX asrda nafaqat mashhur shoirlarning, balki, ma'lum bir hududda she'rlari ommalashgan, xalq ko'ngliga yaqin shoirlarning she'rlari ham hunarmandchilik buyumlarida aks etgan. She'r orqali bunday buyumlar ham aynan shoir yashagan hududda tayyorlanganligini ehtimol qilish mumkin. Masalan, muzey fondida saqlangan Qo'jorlar davriga

oid fayans ko'zida XIV asrda Tabrizda yashagan Shams Mag'ribiyning quyidagi ruboiysi bitilgan:

خود را (وجود را) به خرابات مغان اندازم
خرم طرب و نشاط و عیش آغازم (انگیزم)

Mazmuni: “tanamni mug'lar (*Zardushtiylar ruhoniysi*) xarobotiga tashlasalar ham, musiqa va raqs bilan shod bo'laman”. Bu she'r orqali eroniylarning azaliy mug'lar mavzusi falsafiy talqin qilingan. Ya'ni otashga tashlab meni azoblayman deb o'ylashsa-da, men bu olov bilan poklanaman, xursand bo'laman demoqda shoir[6].

Xulosa. Turli buyumlarda yoziladigan matnlar shialik tarqalgan hududlarda, ya'ni Misr va Iroqdan Tojikistonning tog'li yerlarigacha bir xil yozilgan. Masalan, g'alladonlarning nafislari Buxoro, Isfaxon, Yazd shaharlarida tayyorlangan hamda ularga tushirilgan yozuvlar va madoxil naqshlar bu shaharlarning xos uslublari hisoblangan. Boshqa shaharlarda esa ularga o'xshatib turli naqsh va yozuvlar tushirilgan. Faqatgina buyumlardagi xatlarning biroz qo'polli va soddaligi bilan ajralib turgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Крестовский В.В. В гостях у эмира бухарского. СПб, 1887. – С.303.
2. هنر عامیانه دوره قاجار در ایینه ظروف سفالین (مطالعه موردی سفالهای دوره قاجار موزه بزرگ
3. چهارم/ پاییز و زمستاناسالمی هنر نگارینه علمی فصلنامه دو. ص. خراسان). 1401 دوره نهم/ شماره بیست و 77 اسماعیل نصری و حسام اصلانی. مطالعه باستانشناختی نقوش و تزیینات سفالینه های عصر قاجار. // دوفصلنامه علمی پژوهش. سال نهم. شمار هفدهم. بهار و تابستان (2019) 1398. ص.90.
4. Buxoro muzeyi Inv.№ 121/2; Inv.№ 6258; Inv.№ 5973/2
5. Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasi. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: SM Print, 2004. – B.217.
6. <https://ganjoor.net/hafez/ghazal/sh268>

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

THE IMPACT OF UZBEK SCIENTISTS AND SPECIALISTS ON THE DEVELOPMENT OF GLOBAL SCIENCE AND TECHNOLOGY: FROM HISTORY TO THE PRESENT

Elboyeva Shakhnoza,

University of Economics and Pedagogy
Department of "History and Social Sciences"
senior teacher, Karshi
E-mail: elboyeva qarshi@gmail.com

Abstract. This article explores the contributions of Uzbek scientists and specialists to the development of global science and technology, tracing their historical roots and their role in the modern era. The study analyzes scientific discoveries, innovative developments, and international collaborations of Uzbek researchers across various fields, highlighting their impact on global progress. Additionally, the article discusses important values and future prospects for the development of national science.

Keywords: uzbek scientists, specialists, global science, technological development, scientific discoveries, innovations, international collaboration, history, modern era.

O'ZBEK OLIMLARI VA MUTAXASSISLARINING GLOBAL FAN VA TEXNOLOGIYA RIVOJIGA TA'SIRI: TARIXDAN HOZIRGI KUNGACHA

Elboyeva Shaxnoza,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası
katta o'qituvchisi, Qarshi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek olimlari va mutaxassislarining global ilm-fan va texnologiya rivojiga qo'shgan hissalarini, ularning tarixiy ildizlari va zamonaviy davrdagi roli o'rganiladi. Tadqiqot davomida o'zbek olimlarining turli sohalaridagi ilmiy kashfiyotlari, innovatsion ishlanmalari va xalqaro hamkorliklari misolida ularning jahon taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu maqola milliy ilm-fan rivojiga oid muhim qadriyatlar va istiqbollarni ham yoritadi.

Kalit so'zlar: o'zbek olimlari, mutaxassislar, global fan, texnologiya rivoji, ilmiy kashfiyotlar, innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik, tarix, zamonaviy davr.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N06>

Kirish. Ilm-fan va texnologiya har bir mamlakatning rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. O'zbek olimlari va mutaxassislari qadimdan ilmiy va madaniy meros yaratib, butun jahon ilm-fani va texnologiyasiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda. Ushbu maqola o'zbek olimlarining tarixiy ildizlari, ularning xalqaro fan va texnologiya taraqqiyotidagi roli hamda zamonaviy davrdagi faoliyatiga bag'ishlanadi.

O'zbekiston tarixida ayol olimalarning ilm-fan, madaniyat va texnika taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini salmoqli o'rinni egallaydi. Ularning ilmiy izlanishlari nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida ham tan olingan. O'zbekiston olimalari tarixshunoslik,

adabiyotshunoslik, tilshunoslik va san'atshunoslik yo'nalishlarida xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda.

Saida Zunnunova, Halima Xudoyberdieva singari olimlar ijodiy va ilmiy merosida milliy qadriyatlar, madaniyat hamda ayollar huquqlarini ilgari surgan. Folklorshunoslik va arxeologiya yo'nalishida faoliyat olib borgan olimlar Sharq merosining jahon ilmiy hamjamiyatiga yetkazilishida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonlik olimlar energetika, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi va tibbiyot yo'nalishlarida yangi innovatsion ishlanmalar yaratishda ishtirok etmoqda. Akademik To'xtasinoy Uralova va boshqa olimlar kimyo-texnologiya sohasidagi tadqiqotlari bilan xalqaro ilmiy maktablarda faol ishtirok etib kelmoqda. O'zbekistonlik ayol olimlar nanomateriallar, biotexnologiya, kosmik tadqiqotlar bo'yicha ham xalqaro loyihalarda qatnashib, ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shmoqda[1, B.14].

O'zbekistonlik olimlar UNESCO, FAO, WHO kabi xalqaro tashkilotlar loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Ularning ishlanmalari xorijiy mamlakatlarda qo'llanilmoqda, ilmiy ishlari xalqaro patentlar bilan himoyalangan. Ko'plab olimlarimiz xorijiy davlatlarda ta'lim olib, xalqaro ilmiy grantlar g'olibiga aylangan.

O'zbekistonda ilm-fanning ildizlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Beruniy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy kabi olimlar matematika, astronomiya, geografiya va boshqa sohalarida qator kashfiyotlar qilganlar. Ularning asarlari nafaqat musulmon Sharqida, balki Yevropa ilm-fanining shakllanishida ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan[2, B.63].

Mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekistonda ilm-fan va texnologiya rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbek olimlari biotexnologiya, kimyo, axborot texnologiyalari, muhandislik kabi sohalarida ko'plab innovatsion ishlanmalarni amalga oshirmoqda. Xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish, patentlar olish va yangi texnologiyalar yaratish orqali ular global fan rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqda.

O'zbek olimlari ko'plab xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilmoqda. Ular ko'rgazmalar, konferensiyalar, ilmiy almashuvlar orqali o'z tajribalarini kengaytirib, yangi bilimlar olishmoqda. Shuningdek, O'zbekiston ilmiy institutlari xorijiy universitetlar va tashkilotlar bilan hamkorlikda bir qancha innovatsion loyihalarni amalga oshirmoqda [3, B.101].

Biroq, O'zbekistonda ilm-fan rivojida hali ba'zi muammolar mavjud: moliyalashtirishning yetishmasligi, zamonaviy uskunalar kamligi va ilmiy kadrlarning yetishmovchiligi kabi. Shu bilan birga, hukumat tomonidan qabul qilingan dasturlar va strategiyalar ilmiy salohiyatni oshirish, yosh olimlarni rag'batlantirish va xalqaro maydonda faoliyat ko'rsatishni kengaytirishga qaratilgan.

Mazkur maqolani tayyorlashda asosan o'zbek va xorijiy ilmiy manbalar, tarixiy asarlar, etnografik tadqiqotlar hamda zamonaviy ilm-fan rivojiga oid maqolalar tahlil qilindi. Quyidagi adabiyotlar maqolaning nazariy asosini tashkil etdi:

Abu Rayhon Beruniyning asarlari o'zbek va umuman sharq ilm-fanining tarixiy ildizlarini o'rganishda muhim manba bo'lib, Beruniyning ilmiy metodologiyasi va ilmiy yondashuvlari haqida batafsil ma'lumot beradi[4, B.32].

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yillik hisobotlari (2010–2023) – Milliy ilm-fan taraqqiyoti va zamonaviy yutuqlar haqida dolzarb ma'lumotlarni taqdim etadi[5, B.92].

Islomov A. “O‘zbekiston olimlarining jahon ilm-fanidagi o‘rni”, Toshkent, 2018. – Ushbu kitob o‘zbek olimlarining global ilm-fandagi hissalarini va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarini yoritadi[6, B.121].

Jahon ilm-fanining taraqqiyot yo‘nalishlari: xalqaro jurnal maqolalari (2015–2023) – Zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yutuqlarni tahlil qiluvchi maqolalar to‘plami, o‘zbek olimlarining bu jarayondagi ishtirokini ko‘rsatadi.

Davlat Davlatovning “O‘zbekistonda innovatsiyalar va texnologiyalar rivoji” nomli risolasida – Milliy innovatsiya tizimi va uni rivojlantirish istiqbollari muhokama qiladi.

Xalqaro ilmiy hamkorlik va ilm-fan rivoji haqida maqolalar – Turli xalqaro konferensiya materiallari, ilmiy anjumanlarning tahliliy hisobotlari maqolaning zamonaviy qismiga asos bo‘ldi[7, B.101].

Ushbu adabiyotlar asosida maqolada o‘zbek olimlari va mutaxassislarining tarixiy ildizlari, ilmiy kashfiyotlari hamda xalqaro miqyosdagi faoliyatlari keng tahlil qilindi. Manbalar tanlovida tarixiy asarlar bilan birga, zamonaviy ilmiy-tadqiqot materiallari, davlat hisobotlari va xalqaro tajribalar hisobga olindi [8, B.63].

O‘zbek olimlari va mutaxassislarining global fan va texnologiya rivojiga qo‘shgan hissalarini tarixiy ildizlarga asoslangan holda zamonaviy davrda yanada oshib bormoqda. Ularning ilmiy kashfiyotlari va xalqaro hamkorliklari jahon taraqqiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Kelajakda milliy ilm-fanning yanada rivojlanishi va global miqyosda o‘z o‘rnini mustahkamlashi uchun barcha sohalarida keng qo‘llab-quvvatlash zarur[9, B.73].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek olimlari va mutaxassislarining ilm-fan va texnologiya sohasidagi hissalarini nafaqat milliy darajada, balki global miqyosda ham sezilarli o‘rin tutadi. Tarixiy ildizlar, jumladan Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy kabi buyuk olimlarning merosi zamonaviy ilm-fanning rivojlanishida asosiy poydevor bo‘lgan. Zamonaviy davrda esa o‘zbek olimlari biotexnologiya, axborot texnologiyalari, kimyo, muhandislik va boshqa ko‘plab sohalarida innovatsion yutuqlarga erishmoqda. Xalqaro ilmiy hamkorlik orqali ular o‘z ilmiy izlarini yanada kengaytirib, global ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo‘shmoqda. Shu bilan birga, mamlakat ilm-fani oldida mavjud bo‘lgan moliyaviy va tashkiliy muammolarni hal qilish, ilmiy kadrlarni rag‘batlantirish va zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi[10, B.21].

Tadqiqot mavzusi yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar beriladi.

Birinchidan, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni oshirish: Ilm-fan va texnologiya sohasidagi tadqiqotlar uchun davlat tomonidan grantlar va subsidiyalar ajratilishi ko‘paytirilishi zarur. Bu yosh olimlarni ilmiy faoliyatga jalb qilishni rag‘batlantiradi.

Ikkinchidan, xalqaro hamkorlikni kengaytirish: O‘zbek olimlari va ilmiy tashkilotlari xorijiy ilmiy markazlar bilan aloqalarni mustahkamlashi, qo‘shma loyihalar va tadqiqotlarda faol ishtirok etishi kerak.

Uchinchidan, Ilmiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash: Zamonaviy texnologiyalar va metodologiyalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga katta e‘tibor qaratish, yosh ilmiy kadrlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish lozim.

To‘rtinchidan, Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish: Ilmiy tadqiqotlar uchun zamonaviy laboratoriyalar, eksperimental bazalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kerak.

Beshinchidan, Ilm-fan natijalarini tijoratlashtirish: Ilmiy kashfiyotlar va texnologik yangiliklarni amaliyotga joriy etish, startaplar va ilmiy bizneslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Oltinchidan, Milliy ilmiy siyosatni takomillashtirish: Ilm-fan rivojiga oid davlat dasturlari doimiy yangilanib, zamonaviy talab va global tendensiyalarga moslashtirilishi muhim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Beruniy, Abu Rayhon. *Alberuniy asarlari*. Toshkent: Fan, 1970. 432 bet.
2. Al-Xorazmiy, Muhammad ibn Musa. *Algebra va Hisob kitobi*. Toshkent: Fan, 1985. 289 bet.
3. Islomov A. *O'zbekiston olimlarining jahon ilm-fanidagi o'rni*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2018. 210 bet.
4. Davlat D. *O'zbekistonda innovatsiyalar va texnologiyalar rivoji*. Toshkent: Ilm, 2021. 176 bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. *Yillik hisobotlar 2010–2023*. Toshkent: Fan, 2023. Har yili, 150 betdan ortiq.
6. Xalqaro ilmiy hamkorlik va ilm-fan rivoji: konferensiya materiallari. Toshkent, 2019. 325 bet.
7. Karimov S. *Ilmiy kashfiyotlar va innovatsiyalar tarixidan*. Toshkent: Ilm-fan, 2015. 195 bet.
8. Jahongir Q. *Axborot texnologiyalari va ularning zamonaviy rivoji*. Toshkent: Texnologiya, 2020. 210 bet.
9. Rasulova N. *Biotexnologiya sohasidagi o'zbek olimlarining hissalari*. Toshkent: Fan va Texnika, 2022. 158 bet.
10. Jahon ilm-fanining taraqqiyot yo'nalishlari: ilmiy jurnal. Toshkent, 2015–2023. Jild 1–9, har biri 100 bet atrofida.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

UZBEKISTAN'S POLICY ON WORKFORCE TRAINING IN THE INDUSTRIAL SECTOR: SCIENTIFIC FOUNDATIONS AND CURRENT ISSUES

Nilufar Esanova

Senior Lecturer,
University of Economics and Pedagogy, Qarshi
E-mail: nilufar5karshi@gmail.com

Abstract. This article analyzes the scientific foundations, existing system, and current challenges of Uzbekistan's policy on workforce training in the industrial sector. The strategy for training qualified personnel considering modern technologies and economic demands is discussed. The article outlines ways to improve the workforce training system and prospective directions for the innovative development of the industry.

Keywords: industry, workforce training, policy, qualification, innovation, education, Uzbekistan.

O'ZBEKISTONNING SANOAT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATI: ILMIY ASOSLAR VA DOLZARB MASALALAR

Nilufar Esanova,

katta o'qituvchi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning sanoat sohasida kadrlar tayyorlash siyosatining ilmiy asoslari, mavjud tizimi hamda dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar va iqtisodiy talablar nuqtai nazaridan malakali kadrlar tayyorlash strategiyasi ko'rib chiqiladi. Maqolada sanoatning innovatsion rivojlanishi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish yo'llari va istiqbolli yo'nalishlar ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: sanoat, kadrlar tayyorlash, siyosat, malaka, innovatsiya, ta'lim, O'zbekiston.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N07>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning iqtisodiy barqarorligi va sanoat sohasining innovatsion rivojlanishi uchun malakali kadrlar tayyorlashning muhimligini bir necha bor ta'kidlab o'tgan. Prezidentning so'zlariga ko'ra, "yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh sanoatni yaratish uchun eng avvalo yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash zarur". Sh.Mirziyoyev o'zining 2017-yildagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Strategiyada zamonaviy sanoat talablariga moslashgan ta'lim dasturlarini yaratish, texnik va professional ta'lim muassasalarini qayta tashkil etish hamda sanoat korxonalari bilan yaqindan hamkorlik qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Prezident Sh.Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, "har bir yosh mutaxassisning bilim va ko'nikmalarini amaliyot bilan mustahkamlashi, zamonaviy texnologiyalarni egallashi uchun sanoat korxonalari bilan tizimli bog'lanish zarur". Shu bois, sanoat sohasida kadrlar tayyorlash

tizimini tubdan takomillashtirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi mustahkamlanmoqda [1, B.13].

O'zbekistonning xalqaro aloqalarida ta'lim sohasidagi hamkorlik muhim o'rin egallaydi. Jahonning rivojlangan davlatlarining ta'lim va kadrlar tayyorlash borasidagi tajribasidan unumli foydalanish va uning ma'qul tomonlarini o'zlashtirish davr talabidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarini bayon etadi: "Oliy o'quv yurtini isloh qilayotganda, ularning boshqa davlatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan aloqasini mustahkamlash zarur. O'z domlalarimiz bilan cheklanib qolmay, chetdan ham domlalar chaqirishni yo'lga qo'yishimiz kerak. Yurtimiz yigit-qizlari tahsilning oxirgi yillarini taraqqiy topgan davlatlarning o'quv markazlariga borib o'qishlarini tashkil qilishimiz maqsadga muvofiq ish bo'lardi. Bunga hech qanday mafkura aralashmasligi kerak" [2, B.102].

Mustaqillik yillarida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan aloqalarini kuchaytirish, chet el investitsiyasini ta'lim sohasiga jalb etishga alohida e'tibor qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligi ta'lim tizimini takomillashtirish va uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, xorijiy ta'lim muassasalari bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, professor-o'qituvchi, tadqiqotchilar va talabalarning til hamda kasbiy malakasini oshirish, ta'limning turli yo'nalishlari bo'yicha tajriba almashish maqsadlarida amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning sanoat sohasida kadrlar tayyorlash siyosati masalasiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar va rasmiy hujjatlar ushbu yo'nalishning kompleks va tizimli rivojlanishiga qaratilgan. Tahlil qilingan manbalarda asosiy e'tibor malakali kadrlar tayyorlashning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatiga qaratilgan.

Masalan, Sh.M.Mirziyoyevning rasmiy nutqlari va strategik hujjatlarida ta'lim va sanoat sohalari o'rtasidagi integratsiya, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va malaka oshirish tizimining samaradorligini oshirish muhimligi ta'kidlanadi. Prezidentning farmonlari va qarorlarida kadrlar tayyorlash siyosatini iqtisodiy rivojlanishning muhim ustuvorligi sifatida ko'rish mumkin (PF-4947, 2017). Ilmiy tadqiqotlarda, xususan Abdullayev (2020), Tursunov (2019) va Rustamova (2021) tomonidan sanoat sohasida kadrlar tayyorlashda texnik va kasb-hunar ta'limining rivojlanishi, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlari, shuningdek, xalqaro tajriba va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish masalalari keng o'rganilgan. Ularning fikricha, O'zbekistonda malakali ishchi kuchini tayyorlash uchun nafaqat ta'lim muassasalari, balki sanoat korxonalari bilan hamkorlik kuchaytirilishi zarur. Shuningdek, I.Karimovning ilmiy asarlarida (Karimov, 2005; 1998) sanoat va kadrlar tayyorlash sohasida davlat siyosatining barqarorligini ta'minlash, strategik rejalashtirish va milliy iqtisodiyotga mos mutaxassislarni yetkazib berish muhimligi yoritilgan [3, B.73].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar O'zbekiston sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda kadrlar tayyorlash siyosatining strategik ahamiyatini ta'kidlaydi va zamonaviy texnologiyalar, xalqaro hamkorlik, hamda amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Bunday yondashuvlar mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Metodlar. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bevosita 30 dan ortiq mamlakatlar bilan ta'lim sohasida o'zaro aloqalar olib borib, hamkorlik qildi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Avstriya, Belgiya, Fransiya, Italiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiyadagi universitet va boshqa oliy ta'lim

muassasalari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. 1995-1997-yillarda O'zbekistonning 1960 fuqarosi, ya'ni 1683 talaba, 115 tadqiqotchi, 162 ta tadqiqotchi o'qituvchi xorijiy davlatlarda ta'lim oldilar. 1995-yilning o'zida Respublika oliy o'quv yurtlaridan xorijiy oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun 1200 talaba o'qishga yuborildi. Xususan, mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimida malaka oshirish, tajriba almashish, o'qitishning zamonaviy usullarini o'rganish, turli anjumanlarda ishtirok etish va tahsil olish maqsadida minglab professor-o'qituvchi, tadqiqotchi hamda talabalar xorijiy mamlakatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamda markazlarida bo'ldi [4, B.41].

Iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularning kelgusida yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlariga yordamlash maqsadida turli jamg'armalar tashkil etildi. 1993-yil O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan "Ulug'bek" jamg'armasi tuzildi. Jamg'armaning asosiy maqsadi yoshlarning intellektual imkoniyatlarini kengaytirish va jahonning bu boradagi tajribalaridan foydalanish edi. Shu maqsadda jamg'arma "Iste'dodni izlaymiz", "Chet ellarda dam olamiz", Chet tillarni o'rganamiz", "Xalqaro hamkorlikni mustahkamlaymiz" dasturlari asosida ish olib bordi.

Talaba yoshlarni chet mamlakatlarda o'qishi va ularning dunyoviy tajribalarni o'rganishda "Umid" jamg'armasining o'rne nihoyatda katta bo'ldi. Bu jamg'arma 1997-yil 7-yanvarda tuzildi. Mazkur jamg'arma ajratilgan grant hisobiga ko'ra AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Yaponiyaga iqtidorli talabalarni bakalavr va magistr darajalarini olish uchun o'qishga jalb etilmoqda. Shuningdek, mustaqillikning dastlabki 10 yilida O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida dunyoning 30 mamlakatidagi 1000 dan ortiq talaba ta'lim oldi [5, B.59].

O'zbekistondagi deyarli barcha oliy o'quv muassasalari xorijiy mamlakat o'quv yurtlari bilan o'zaro hamkorlik qilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti, Samarqand Davlat universiteti, Qarshi Davlat universitetlarida bu borada olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovordir.

Qarshi Davlat universitetida 1997-yil fevraldan e'tiboran xalqaro aloqalar bo'limi tashkil etilgan bo'lib, mazkur bo'lim tinchlik korpusi bilan amaliy aloqalarni yo'lga qo'ydi. Tinchlik korpusi vakillaridan Tod Miller, Yan Smit va Kerri Dresser, Karlson Duay universitet jamoasi orasidagi katta hurmat – e'tibor qozondi. 1997-yilda BMT ning O'zbekistondagi vakalatxonasining boshlig'i Xolid Malik Universitetda bo'ldi. 1998-yil yanvarda Universitetda bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya-hisob ma'lumotlariga bag'ishlangan ikki kunlik seminar Buyuk Britaniyaning Nottingem universiteti professori Kris Nayt va Djon Byugler loyihalari bo'yicha o'tkazildi [6, B.45].

Universitetning Xalqaro aloqalar bo'limi MDH mamlakatlari oliy yurtlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda. Professor N.Hakimov Turkiyaning "Uludak" universitetida ilmiy safarda bo'ldi. Universitetning ingliz tili o'qituvchilari A.Aliqulov va I.Jumanovlar Kembrij universitetida stajirovkada bo'lishdi. Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi fakultet dekani dotsent T. G'affarova Angliyaning Bilston kollejida stajirovkada bo'ldi. 1998-yil sentyabrda Universitetda Yevropa eksportlarining TESIS dasturi bo'yicha seminar bo'lib o'tdi.

1998-yil yanvarda universitet xalqaro aloqalarida katta siljish qilindi. Shu kuni Buyuk Britaniyaning Nottingem universiteti professorlari Kris Nayt va Djon Byuglarning loyihalari bo'yicha kunlik seminar bo'lib o'tdi. 1998-yil sentyabrda esa Qarshi Davlat universitetida Yevropa eksportlarining TESIS dasturi bo'yicha ham ilmiy seminar o'tkazildi. Toshkent

iqtisodiyot universitetida hozirgi kunda Yevropa Ittifoqining “TASIS” dasturi bilan hamkorlikda ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash loyihasi bo'yicha ish olib borildi. Shuningdek, universitet o'nlab davlatlar, jumladan AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Kanada oliy ta'lim muassasalari bilan talabalar va professor – o'qituvchilar almashishiga doir xalqaro shartnomalar imzolandi[7, B.7].

Jumladan, TASIS dasturi doirasida 1996–1999-yillarda O'zbekistonda asosan quyidagi makroiqtisodiyot sohaslarini isloh qilishga Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ko'makchi bo'ldi:

- iqtisodiy va institutsional islohot;

- qishloq xo'jaligi va agrosanoat rivojlanishi;

- energetika va telekommunikatsiya sohasidagi infratuzilmasini rivojlantirish. Umuman olganda, 1990–1999-yillarda TASIS dasturi doirasidagi loyihalarni amalga oshirilishi uchun Yevropa Ittifoqi tomonidan 4 milliard yevro miqdorida mablag' ajratildi.

Natijalar. O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetida 60 ga yaqin xorijiy talabalar tahsil olgan bo'lsa, 30 ga yaqin talaba rivojlangan mamlakatlarning oliy o'quv yurtlarida tahsil oldi. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti respublikamizdagi eng keksa oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lib, xorijiy mamlakatlari bilan o'zaro aloqa olib borishda o'ziga xos tajribaga ega. Mazkur o'quv muassasasi nafaqat Yevropa, balki bir qator Osiyoning rivojlangan mamlakatlari bilan hamkorlikda maxsus dastur va loyihalar asosida ish yuritmoqda. Bu oliy ta'lim muassasasi Xitoydagi Sichuan yengil sanoat va qog'oz texnologiyasi instituti, Manchester (Angliya) universiteti, Vupertal (Germaniya) universiteti, Gent (Belgiya), universiteti, Pirey (Gretsiya), texnologiya instituti, Moskva (Rossiya) to'qimachilik akademiyasi, O'shdagi o'zbek-qirg'iz universiteti, Xo'jand (Tojikiston) texnologiya institutlari bilan aloqalarni yo'lga qo'ydi[8, B.103].

Yevropa Ittifoqining TASIS/TEMPUS dasturidan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti (TTESI)da unumli foydalanilmoqda. Ushbu institutda 2005-yildan boshlab TEMPUS UM JEP-25223– 2004 “O'zbekistonda universitet va ishlab chiqarish orasidagi aloqalarni kuchaytirish” loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyiha ta'lim va ishlab chiqarish aloqalarini kuchaytirish, ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish hamda o'quv jarayoniga masofadan o'qitish va informatika sohasidagi so'nggi yutuqlarni joriy qilish va keng ko'lamda foydalanish borasidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan. Bu loyihani bajarishda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti (TTESI), Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti (NMII), Pirey texnologiya instituti (Gretsiya), LOGOTECH Kompaniyasi (Gretsiya) va TECMINHO universiteti (Portugaliya) ishtirok etishdi[9, B.83].

Xulosa. Ta'kidlash joizki, sanab o'tilgan xorijiy hamkorlar ilmiy tadqiqot ishlari marketingini va texnologiyalar transferini tashkil etish va o'tkazishda hamda masofaviy o'qitish borasida katta tajriba to'plashgan. Loyihani amalga oshirish natijasida esa, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida «Texnologiyalar transferi va masofadan o'qitish» bo'limi tashkil etildi. TASIS dasturi mamlakatda o'z faoliyatini boshlagandan beri O'zbekistonning 13 ta, Yevropa davlatlaridan 80ga yaqin universitetlar o'zaro hamkorlik qila boshladi. Bu borada O'zbekiston bilan Ispaniya universitetlarining sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlik aloqalari alohida o'rin egallaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Karimov I. O'zbekistonning tashqi siyosat konsepsiyasi. – Toshkent: Siyosat, 1998. – 178 b.
3. Abdullaev B. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamkorlik strategiyasi va sanoat rivoji. – Toshkent: Iqtisodiyot va taraqqiyot, 2020. – 142 b.
4. Tursunov M. O'zbekiston sanoatining modernizatsiyasi va xalqaro texnologiyalar transferi. – Toshkent: Fan va texnika, 2019. – 110 b.
5. Rustamova S. Xalqaro munosabatlar va eksportni rivojlantirish. – Toshkent: Iqtisodiy tahlil, 2021. – 95 b.
6. Islomov D. SHHT doirasida innovatsion hamkorlik va sanoat rivoji. – Toshkent: Markaziy Osiyo tadqiqotlari, 2020. – 120 b.
7. Egamberdiyev J. Sanoat eksportining xalqaro standartlarga moslashuvi. – Toshkent: Savdo va iqtisodiyot, 2022. – 88 b.
8. Yuldasheva N. Iqtisodiy integratsiya va sanoat sohasidagi imkoniyatlar. – Toshkent: Iqtisodiy rivojlanish, 2021. – 104 b.
9. Rasulova F. Atrof-muhit va sanoat: xalqaro hamkorlik va barqarorlik. – Toshkent: Ekologiya va sanoat, 2019. – 76 b.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF MASS MEDIA IN THE QASHQADARYO REGION (1990–2025): SOURCES, PROBLEMS, AND TRENDS

Asadova Ra'no Baymanovna,

Associate Professor of the Department of "History and Social Sciences"
University of Economics and Pedagogy
Ph.D. in History
E-mail: ranoasadova66@gmail.com

Ashurova Qunduz Abduxoligovna,

Master's student at the University of Economics and Pedagogy
E-mail: ashurovaq77@gmail.com

Abstract. This research paper analyzes the development of mass media in the Qashqadaryo region from 1990 to 2025 through a historical and source-based approach. It examines the establishment and evolution of print publications, radio broadcasting, and television, their role in the region's social and political life, as well as the shifts in media practices in the context of post-independence freedoms and restrictions. The study relies on archival materials, newspapers, interviews, and other historical sources.

Keywords: Qashqadaryo, mass media, source studies, historiography, independence, press, journalism, media, censorship, information policy.

QASHQADARYO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING RIVOJI (1990–2025): MANBALAR, MUAMMOLAR VA TENDENSIYALAR

Asadova Ra'no Baymanovna,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

Ashurova Qunduz Abduxoliq qizi,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda Qashqadaryo viloyatida ommaviy axborot vositalarining 1990-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrdagi rivojlanish jarayonlari tarixiy-manbashunoslik asosida tahlil qilingan. Unda viloyatda faoliyat yuritgan bosma nashrlar, radio va telekanallarning shakllanishi, ularning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o'rnini, hamda mustaqillikdan so'nggi erkinliklar va cheklovlar kontekstida OAVning o'zgarish yo'nalishlari o'rganilgan. Shuningdek, tadqiqot davomida mavjud arxiv materiallari, gazetalar, intervyular va boshqa tarixiy manbalardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, ommaviy axborot vositalari, manbashunoslik, tarixshunoslik, mustaqillik, matbuot, jurnalistika, media, senzura, axborot siyosati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N08>

Kirish. Ommaviy axborot vositalari jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Mustaqil O'zbekistonning shakllanishi davrida Qashqadaryo viloyatida OAV

tizimi tubdan o'zgardi: mahalliy gazetalar, radio va telekanallar paydo bo'ldi, ularning faoliyati mustaqillik mafkurasi, fuqarolik jamiyati va axborot erkinligi tamoyillariga asoslana boshladi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning eng faol ijtimoiy-siyosiy hududlaridan biri bo'lib, bu yerda OAV jamiyat kayfiyati va siyosiy jarayonlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq 1990–2025-yillar oralig'idagi bosqichlar, manbalar va muammolar tizimli o'rganilmagan.

Tarixiy-tahliliy usul: 1990–2025-yillardagi OAV faoliyati bosqichma-bosqich o'rganildi. Qiyosiy tahlil: Viloyat OAV faoliyati respublika miqyosidagi jarayonlar bilan solishtirildi. Sotsiologik yondashuv: Mahalliy jurnalistlar, muharrirlar va tahririyat rahbarlari bilan intervyular asosida zamonaviy muammolar aniqlanadi. Arxiv manbalari tahlili: "Qashqadaryo", "Nasaf", "Dehqonobod ovozi" kabi viloyat nashrlarining 1990-yillardagi sonlari o'rganildi. Raqamli manbalar tahlili: So'nggi yillarda veb-saytlar, Telegram-kanallar va onlayn nashrlar faoliyati o'rganildi [1, 15-b.].

Ommaviy axborot vositalari (OAV) tarixini o'rganish O'zbekiston tarixshunosligining nisbatan yangi yo'nalishlaridan biridir. Qashqadaryo viloyatidagi OAV faoliyatini tahlil qilishda mahalliy, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy manbalar, dissertatsiyalar hamda matbuot materiallariga tayanish muhimdir.

1. O'zbekiston tarixshunosligidagi yondashuvlar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, matbuot va axborot siyosatiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar paydo bo'ldi. Xususan, A. Saidov, Sh. Yusupov, M. Usmonovlarning OAV erkinligi, jurnalistika etikasi va davlat axborot siyosatiga oid ishlari bu sohaga ilmiy asos yaratdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan tayyorlangan yillik hisobotlar va "Axborot sohasida islohotlar" mavzusidagi tahliliy sharhlar OAVdagi islohotlarning amaliy ko'rsatkichlarini yoritadi.

Tarixiy kontekstda esa A. Sattorov, N. Jo'raeva, L. Abdullayevalarning 1990-yillardagi o'tish davrida matbuot siyosati, senzura va erkin axborot tizimi shakllanishi bo'yicha ilmiy maqolalari diqqatga sazovor. Bu manbalar orqali ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'rni va ularning siyosiy muhitdagi o'zgarishlarga moslashuv jarayoni yoritilgan [2, 62-b.].

2. Qashqadaryo viloyati OAV tarixiga oid manbalar. Qashqadaryo viloyatining o'ziga xos media makonini o'rganishda viloyat nashrlari — "Qashqadaryo", "Nasaf", "Dehqonobod ovozi", "Koson hayoti" kabi gazetalar asosiy empirik manba hisoblanadi. Bu nashrlar viloyatdagi siyosiy voqealar, ijtimoiy muammolar, islohotlar va madaniy hayotni aks ettirgan [3, 64-b.].

Shuningdek, Qarshi shahridagi viloyat davlat arxivi, O'zbekiston Milliy kutubxonasi, hamda Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti fondlarida saqlanayotgan materiallar viloyat OAV tarixini o'rganish uchun muhim yozma manbalardir. Masalan, "Qashqadaryo" gazetasining 1991-yil 1-sentyabrdagi sonida mustaqillik e'lon qilinganidan keyingi ijtimoiy kayfiyat aks etgan; "Nasaf" nashrida esa 2000-yillarda axborot texnologiyalari rivoji va yangi tahririyat siyosati yoritilgan [4, 32-b.].

Ushbu nazariy manbalar Qashqadaryo OAVning rivojlanish tendensiyalarini tushunishda metodologik asos sifatida qo'llanilishi mumkin, chunki ular jamiyatdagi media transformatsiyasini tushuntiradi [5, 12-b.].

4. Amaliy tadqiqotlar va zamonaviy manbalar.

So'nggi yillarda O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, "O'zbekiston 24" axborot agentligi hamda "Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi" tomonidan OAV erkinligi, axborot siyosati va internet jurnalistikasi bo'yicha tahliliy hisobotlar chop etilmoqda [6, 81-b.].

Ushbu manbalar 2017-yildan keyingi "ochiqlik siyosati" davrida OAVning yangi bosqichga o'tganini ko'rsatadi — bu jarayonda Qashqadaryo viloyatidagi ommaviy axborot vositalari ham faol raqamli transformatsiya yo'lini bosib o'tdi [7, 11-b.].

5. Tahlil natijasi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki:

Qashqadaryo OAV tarixiga bag'ishlangan maxsus monografiyalar deyarli mavjud emas;

Ko'pchilik manbalar umumiy respublika miqyosida yoritilgan, ammo viloyat darajasidagi empirik tahlil yetarli emas;

So'nggi yillardagi internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlar OAVning yangi manbashunoslik bazasini yaratmoqda;

Ilmiy manbalarda senzura, jurnalist mustaqilligi va axborot siyosati o'rtasidagi muvozanat masalasi asosiy tahlil yo'nalishi sifatida ko'rilmogda [8, 84-b.].

OAV rivoji viloyat ijtimoiy hayotining aks-sadosi sifatida namoyon bo'ladi. Mustaqillikdan keyingi davrda ommaviy axborot vositalari erkinlik, ochiqlik va yangiliklarga intilgan bo'lsa-da, ularning faoliyatiga iqtisodiy cheklovlar, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi va malakali kadrlar tanqisligi ta'sir ko'rsatgan. Manbashunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, OAV tarixini o'rganishda arxiv materiallari, tahririyat hujjatlari va og'zaki intervyular eng ishonchli manbalar hisoblanadi. Tarixshunoslik esa OAV faoliyatini siyosiy-ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilishni talab qiladi [9, 37-b.].

Zamonaviy bosqichda Qashqadaryo viloyatida axborot manbalarining xilma-xilligi, ijtimoiy tarmoqlarning kuchayishi va yosh jurnalistlarning raqamli muhitga moslashuvi ijobiy tendensiya sifatida baholanadi. 1990–2025-yillar davomida Qashqadaryo viloyatida OAV jiddiy bosqichlarni bosib o'tdi: markazlashtirilgan matbuot tizimidan mustaqil va raqamli media makoniga o'tish jarayoni kuzatildi. Bugungi kunda viloyat OAV fuqarolik jamiyati, ochiqlik va shaffoflikning muhim vositasiga aylanmoqda. Kelgusida jurnalistika sohasida malaka oshirish, axborot erkinligini mustahkamlash va arxiv manbalarni raqamlashtirish zarur. Shu yo'l bilan Qashqadaryo viloyati OAVning tarixiy tajribasi yanada to'liq ochib beriladi [10, 22-b.].

Xulosa. 1990–2025-yillar oralig'ida Qashqadaryo viloyatida ommaviy axborot vositalari (OAV) faoliyati bosqichma-bosqich rivojlanib, mahalliy axborot makonining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu davr davomida OAV tizimi siyosiy, iqtisodiy va texnologik omillar ta'sirida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi.

Birinchidan, mustaqillik yillarida viloyatdagi matbuot, radio va telekanallar o'z faoliyatini milliy g'oya, ma'naviy yangilanish va fuqarolik jamiyati g'oyalariga yo'naltirdi. Shu bilan birga, dastlabki bosqichlarda senzura, moddiy-texnik ta'minotning sustligi va malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar mavjud edi.

Ikkinchidan, 2000-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Qashqadaryoda yangi avlod jurnalistlari, nodavlat axborot nashrlari va tahririyatlar paydo bo'ldi. Bu esa OAV faoliyatida ko'p ovoqlik, ijtimoiy faollik va axborot manbalarining kengayishiga sabab bo'ldi.

Uchinchidan, 2010-yillardan boshlab internet va raqamli kommunikatsiya vositalarining kirib kelishi viloyat OAVni yangi bosqichga olib chiqdi. "Nasafnews.uz", "Qashqadaryo24.uz" kabi onlayn axborot saytlarining paydo bo'lishi jurnalistik faoliyatda

tezkorlik, ochiqlik va interaktivlikni kuchaytirdi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan norasmiy axborotlar ishonchlilik va fakt-cheking masalasini dolzarb qilib qo'ydi.

To'rtinchidan, manbashunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatdagi OAV tarixini o'rganishda mavjud arxiv materiallari, mahalliy gazetalar to'plamlari, tahririyat hujjatlari va og'zaki intervyular asosiy ishonchli manbalar hisoblanadi. Bu manbalar orqali viloyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida matbuotning rolini chuqur tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan "ochiqlik siyosati" va axborot sohasini liberallashtirish jarayonlari Qashqadaryo viloyatida ham media muhitning faollashuviga olib keldi. Jurnalistlarning kasbiy erkinligi, axborot olish huquqi va fuqarolik nazoratining kuchayishi ijobiy tendensiya sifatida qayd etiladi.

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatidagi ommaviy axborot vositalari 1990–2025-yillar davomida markazlashgan davlat matbuotidan boshlab, mustaqil va raqamli media makoniga o'tish bosqichlarini bosib o'tdi. Bugungi kunda viloyat OAV ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi, axborot erkinligini ta'minlovchi va jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi muhim institut sifatida faoliyat yuritmoqda.

Kelgusida OAV sohasini yanada rivojlantirish uchun:

- mahalliy jurnalistlar malakasini oshirish,
- arxiv hujjatlarini raqamlashtirish,
- tahririyatlar o'rtasida tajriba almashish,
- media sohasida akademik tadqiqotlarni kengaytirish zarur.

Bu chora-tadbirlar Qashqadaryo viloyatida ommaviy axborot vositalarining tarixiy merosini saqlash va zamonaviy taraqqiyot talablariga mos holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Саидов А. Х. Оммавий ахборот воситалари эркинлиги ва қонунчилик асослари.– Тошкент: Адолат, 2002. – 184 б.
2. Юсупов Ш. Ўзбекистонда ахборот сиёсати ва журналистиканинг ривожланиш босқичлари.– Тошкент: Академнашр, 2014. – 215 б.
3. Усмонов М. Журналистика ва жамият.– Тошкент: Университет, 2009. – 198 б.
4. Сатторов А. Ўзбекистон матбуоти тарихи (1917–2017). – Тошкент: Фан, 2018. – 320 б.
5. Жўраева Н. Оммавий ахборот воситалари ва фуқаролик жамияти: назарий ва амалий жиҳатлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 265 б.
6. Abdullayeva L. O'zbekiston matbuotining tarixiy shakllanish bosqichlari. // Jurnalistika masalalari, №2, 2016. – B. 47–59.
7. Qashqadaryo gazetasi. – Qarshi, 1991 yil 1-sentabr soni. – B. 1–3.
8. Nasaf gazetasi. – Qarshi, 2005 yil 12-noyabr soni. – B. 2.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi.O'zbekiston ommaviy axborot vositalari to'g'risida 2022-yilgi yillik hisobot. – Toshkent, 2023. – 67 b.
10. Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti arxivi. Qashqadaryo viloyati matbuot tarixiga oid hujjatlar to'plami. – Toshkent, 2021. – 152 b.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE JIZZAKH STEPPES AND THE FORMATION OF THE MIRZACHUL AND DUSTLIK DISTRICTS

Umarqulova Gulchiroy

Doctoral student of the Department of History of Uzbekistan, GulSU

E-mail: umarqulovagulcheroy@gmail.com

Abstract. This article analyzes the process of development of the Jizzakh steppes from a historical point of view. Since the middle of the 20th century, the reclamation and irrigation works carried out in the southern part of Mirzachul - the Jizzakh steppes, the policy of developing new lands for agriculture, socio-economic changes in the region, and environmental consequences are scientifically covered. The study is analyzed using the example of the agrarian policy of the Soviet era, post-independence reforms, and modern sustainable development processes.

Keywords: Mirzachul, Jizzakh steppes, cotton monoculture, agrarian policy, environmental problems, land reclamation, agriculture, development, irrigation, labor productivity, mineral fertilizers, drip irrigation.

JIZZAX CHO'LLARINING O'ZLASHTIRILISHI VA MIRZACHO'L VA DO'STLIK TUMANLARINING TASHKIL TOPISHI TARIXIDAN

Umarqulova Gulchiroy Fayzulla qizi

GulDU "O'zbekiston tarixi" kafedrasi doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jizzax cho'llarining o'zlashtirish jarayoni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. XX asrning o'rtalaridan boshlab Mirzacho'lning janubiy qismi — Jizzax cho'llarida olib borilgan meliorativ va irrigatsion ishlar, qishloq xo'jaligi uchun yangi yerlarni o'zlashtirish siyosati, hududning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlari hamda ekologik oqibatlar ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot sovet davri agrar siyosati, mustaqillikdan keyingi islohotlar va zamonaviy barqaror rivojlanish jarayonlari misolida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Mirzacho'l, Jizzax cho'llari, paxta monokulturas, agrar siyosat, ekologik muammolar, melioratsiya, qishloq xo'jaligi, o'zlashtirish, irrigatsiya, mehnat unumdorligi, mineral o'g'itlar, tomchilab sug'orish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N09>

Kirish. O'zbekistonning deyarli markaziy qismida joylashgan Jizzax viloyatining bir qismi cho'l, chalacho'l va dashtliklarga tutashib ketadi. Viloyatdagi tog', tog'oldi, pasttekisliklar bilan cho'l zonalarining tutashib ketishi uning o'ziga xos joylashuvini bildiradi. Shimol va shimoli-sharqdan zinapoyasimon shakldagi tekisliklar tog'liklar tomon ko'tarilib boradi. Jizzax viloyatining katta qismini yer tuzilishi tekisliklardan iborat bo'lgan Mirzacho'l egallagan. Bu hudud qadimdan tabiiy resurslari cheklangan, yog'in miqdori kam, tuproqlari esa asosan sho'rlangan bo'lgan. Biroq, XX asr davomida davlat siyosati natijasida cho'l hududlari sug'oriladigan dehqonchilik maydonlariga aylantirildi. Jizzax cho'llarini o'zlashtirish O'zbekistonning agrar tarixida eng yirik meliorativ loyihalardan biri sifatida qaraladi. Mazkur jarayon faqat iqtisodiy maqsadlar bilan emas, balki siyosiy va ijtimoiy omillar bilan ham bog'liq bo'lib, cho'lni "yashil voha"ga aylantirish g'oyasi sovet modernizatsiyasining muhim timsoli bo'lgan. XX asrning o'rtalarida Jizzax va Qarshi cho'li, Mirzacho'l, Surxon-Sherobod va Markaziy

Farg'ona hamda Quyi Amudaryo yerlarini o'zlashtirish, suv chiqarish ishlari avj oldi. Jizzax cho'lida 70 ming gektardan ko'proq yangi yerlar o'zlashtirildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XX asr boshlariga qadar Jizzax cho'llari deyarli aholi yashamaydigan yarimcho'l hududlardan iborat edi. U yerda asosan ko'chmanchi va yarim-ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar (qisman qozoq va o'zbek urug'lari) istiqomat qilgan. Sug'oriladigan yerlar asosan Sirdaryo bo'ylarida, qadimgi ariq tarmoqlari yaqinida joylashgan. Arxeologik va tarixiy manbalar (masalan, Oqtepa, Sangzor vohasi yodgorliklari) shuni ko'rsatadiki, ayrim qismlarda qadimiy sug'orish tizimlari mavjud bo'lgan, biroq ular keyinchalik cho'llanish jarayonlari sababli yo'qolgan [1. 232-234-betlar]. Sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, cho'l va yarimcho'llarni o'zlashtirish O'rta Osiyoda paxta ishlab chiqarishni kengaytirish strategiyasining bir qismiga aylandi. 1920–1930-yillarda Jizzax atrofida bir nechta kichik irrigatsion tarmoqlar (masalan, Eski Tuyatortar kanali, Forish ariqlari) qayta tiklandi. Biroq keng ko'lamli melioratsiya ishlari uchun texnika, kapital va tajriba yetarli emas edi. Shu sababli bu davrda cho'lning faqat ayrim qismlari (Sangzor vodiysi atrofi) o'zlashtirildi. 1950-yillardan boshlab SSSR miqyosida "Mirzacho'lni o'zlashtirish" loyihasi amalga oshirila boshlandi. Loyihaning asosiy maqsadi — yangi paxta yetishtirish bazalarini yaratish, cho'l hududlarini irrigatsiya qilish va yangi aholi punktlarini tashkil etish edi. 1960-yillarning oxiriga kelib, Jizzax cho'lida 300 ming gektarga yaqin yangi sug'oriladigan yerlar tashkil qilindi. Bu hududlar paxta, g'alla va yem-xashak ekinlari uchun yirik bazaga aylantirildi. Shu bilan birga, aholi soni va ishlab chiqarish hajmi tez o'sdi. Mirzacho'l va Jizzax cho'llarini o'z ichiga olgan yangi paxtachilik iqtisodiy rayoni vujudga keldi, sanoat komplekslari qurildi. 1985-yilda Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida 731 ming tonna paxta xom ashyosi yetishtirildi [2. 96-bet]. Shu bilan birgalikda aholiga istiqomat qilishida yaxshi sharoit yaratish maqsadida Jizzax cho'lida 1454 ming kv metr turar joy binolari, 21,9 ming o'rinli maktablar, 6800 o'rinli bolalar bog'chalari, klublar, shifoxonalar, oshxonalar qurildi. XX asrning 70-80-yillarida qo'riq va bo'z yerlarning yuragi hisoblangan Sirdaryo va Mirzacho'l hududlarini yoppasiga paxtachilikka ixtisoslashtirishga kirishildi. Tadqiqotchi O. Komilovning yozishicha, o'tgan asrning 70-80-yillari ichida Mirzacho'lda 360 ming gektar qo'riq yerlar o'zlashtirilib, paxta ekishga moslashtiriladi va yuksak darajada mexanizatsiyalashtirilgan 60 ta davlat xo'jaliklari tashkil etilgan. 1974-yildan boshlab o'zlashtirilgan cho'l va qo'riq yerlarga Andijon, Farg'ona, Samarqand, Jizzax viloyatining tog' va dashtli tumanlaridan 600 dan oshiqroq oilalar "majburiy-ixtiyoriy" ravishda ko'chirilganlar [3. 151-152-betlar]. Shuning uchun ham, Jizzax viloyati aholisining ijtimoiy, milliy va yosh bo'yicha tarkibi o'ziga xos hisoblangan. Jizzax viloyati bo'yicha 1991-yilda jami aholi 806,2 ming kishidan iborat bo'lib, aholining tabiiy o'sishi 27,2 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1995-yilda aholining umumiy soni 891,1 ming kishiga yetib, 85 ming kishiga ko'paydi, tabiiy o'sish 25,1 ming kishidan iborat bo'lgan [4. 51-bet]. Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayonida aholini ko'chirish uchun bu hududga yaqin bo'lgan tog'li rayonlar tanlanganligi ham nisbatan yaxshi samara berdi. Masalan, asosan, Zomin va Forish tumanlaridan ko'chirib kelingan aholi hisobiga 1972-yillarning boshlarida Do'stlikda – 11,2 ming, Mirzacho'lda – 15,7 ming, Paxtakorda – 26,4 ming, Yangiyerda – 32,4 ming aholi istiqomat qilgan. Mazkur tumanlarda yangi ko'chib kelganlar hisobiga ishchi kuchlarining ko'payishi tufayli yetishtirilgan paxta hosili 200 ming tonnadan oshdi [5. 70-bet]. Bu yangi xo'jaliklarda mehnat unumdorligining oshishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan bir qatorda, Mirzacho'lga ko'chib kelayotgan aholini joylashtirish, ularni uy-joy bilan ta'minlash, uy-joy qurilishi rejasini

o'z vaqtida bajarilishiga erishish dolzarb masala bo'lib qoldi. Faqat 1956-yilning o'zida Mirzacho'lga 10 ming kishi ko'chib kelishi kutilgan bo'lib, ularga shu yili 18 ming kvadrat metr uy-joy qurib berish rejalashtirilgan. Ammo, yangi o'zlashtirilayotgan zonalarini ishchi kuchi bilan ta'minlash aniq reja asosida olib borilmaganligi, ijtimoiy muhofaza qilish imkoniyatlarining bo'rttirib ko'rsatilishi, va'dalarning to'la bajarilmasligi ko'chib kelganlarda ishonchsizlik uyg'otdi. Oqibatda, ularning bir qismi o'z yurtlariga qaytib ketishga majbur bo'lishdi [6.146-bet]. Shuningdek, ko'chib keltirilgan aholining doimiy istiqomat qilishida uchun yetarli choralar ko'rilmagani boshqa sohalarida ham ko'zga tashlanadi. Ko'chirib keltirilgan aholi asosan qishloq xo'jaligi, ayniqsa, paxta monokulturasiga jalb etildi. Paxta monokulturasining kuchayib borganligini yana shunda ko'rish mumkinki, agar 1950-yilda 1,1 mln. ga yerga paxta ekilgan bo'lsa, 1985-yilga kelib bu ko'rsatkich 2 mln gektargacha yetgan edi, hosildorlik har gektar hisobiga 20,1 sentnerdan 27,0 sentnerga ko'tariladi. Natijada g'alla, arpa, suli, makkajo'xori, meva, sabzavot hamda poliz ekinlari maydonlari qisqarib ketdi.

Xususan, g'alladan olinayotgan hosildorlik gektar boshiga atigi 5-8 sentnerni tashkil etgan bo'lib, 1985-yilda respublika bo'yicha atigi 387,9 ming tonna g'alla yetishtirilganligi respublika aholisining ushbu ekin turiga bo'lgan ehtiyojini qondira olmas edi. Chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik sohalarini rivojlantirishda respublikaning imkoniyat darajasi qanchalik keng va katta bo'lmasin, bu sohalar ham sovetlar davrida yetarli foyda va daromad bilan ishlaydigan xo'jalik tarmoqlariga aylana olmadi. Paxtachilikni rivojlantirish uchun mineral o'g'itlardan foydalanishga katta e'tibor qaratildi. Paxta xomashyosi yetishtirish 1970-1985-yillarda 5,5 barobar ko'paydi, paxta ekiladigan maydonlar 1 mln gektardan ortdi [7. 18-bet].

1956-1962-yillarda Mirzacho'l magistral kanali va unga tutash tarmoqlar qurildi. Jizzax cho'lining janubiy qismi (Zomin, Do'stlik, Paxtakor, Mirzacho'l tumanlari hududi)da yangi sug'oriladigan maydonlar ochildi. Yangi kollektor-drenaj tarmoqlari barpo etilib, tuproq sho'rlanishiga qarshi kurash boshlandi. Bu davrda ko'plab yangi qishloqlar tashkil etilishi sababli 1960–1970-yillarda O'zbekistonning tog'li hududlari, Farg'ona vodiysi va hatto Qoraqalpog'istondan ishchi kuchi jalb qilindi. O'zlashtirilgan yerlarda Mirzacho'l (1967), Do'stlik (1970), Zafarobod (1973), Arnasoy (1977) tumanlari tashkil etildi. Sanoat korxonalari barpo etilgan, aholi zichroq yashaydigan posyolkalar bazasida Paxtakor (1974), Do'stlik (1974), Gagarin (1974) shaharlari vujudga keldi.

Jizzax viloyatining cho'l hududi hisoblanadigan Mirzacho'l tumani 1967-yil 9-yanvarda tashkil etilgan bo'lib, umumiy maydoni 23000 km² tashkil etgan. Mirzacho'l tumanida 2 ta shahar (Gagarin, Mirzadala), 7 ta shahar tipidagi fuqarolar yig'ini (Bog'bon, Ipakyo'li, Paxtazor, Toshkent, Yangidala, O'zbekiston, Gulzor) va 4 ta QFY fuqarolar yig'ini (Do'stlik, Erjar, Mustaqillik, G'alaba) mavjud. Markazi Gagarin shahri hisoblanib, tuman xo'jaligi, asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Bugungi kunga kelib, sanoat, transport, aloqa, qurilish korxonalari faoliyat ko'rsatadi. Tuman aholisi paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadi. Mirzacho'l tumanining jami ekin maydoni 28,2 ming ga, shundan 13,8 ming ga paxta, 11 ming ga boshhoqli don, 1,2 ming ga dukkakli ekinlar, 321 ga maydonga poliz ekinlari ekiladi. Tuman shirkat va shaxsiy xo'jaliklarida qoramol, qo'y, echki hamda parrandalar boqiladi.

Jizzax viloyatidagi yana bir cho'l hududida joylashgan Do'stlik tumani 1970-yil 16-oktyabrda tashkil etilgan. Do'stlik tumani Jizzax viloyatining Zafarobod, Mirzacho'l,

Paxtakor, Forish tumanlari bilan chegaradosh bo'lib, maydoni 0,45 ming km^2 . Do'stlik tumanida 1 shahar (Do'stlik) va 8 qishloq fuqarolari yig'ini (Bog'zor, Bunyodkor, Istiqlol, Mevazor, Navro'z, Saritepa, Yangiobod, Qahramon) bor. Markazi Do'stlik shahri hisoblanib, Do'stlik tumanini Janubiy Mirzacho'l kanalining chap tarmoqlari kesib o'tgan. Sug'oriladigan yer maydoni 32,6 ming gektar, shundan 17 ming gektar yerga paxta, 12 ming gektar yerga g'alla ekiladi. Tumanda bugungi kunda 350 dan ziyod dehqon fermer xo'jaligi, 80 dan ortiq firma va kichik korxona, 2 qo'shma korxona, o'simlik moyi ishlab chiqaruvchi "El", "Erk", "Nur" firmalari, MTP, 120 dan ortiq maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchasi, 45 savdo do'koni faoliyat ko'rsatmoqda.

Muammo. O'zlashtirishning dastlabki yutuqlariga qaramay, ekologik muammolar tobora kuchaydi. Sug'orish natijasida tuproq sho'rlanishi va yer osti suvlarining ko'tarilishi kuzatildi. Suv manbalari tanqisligi, ayniqsa Sirdaryo va Zarafshon havzalarida suv taqsimoti muammosini vujudga keltirdi. Biologik xilma-xillik pasayib, tabiiy cho'l o'simliklari (saksovul, yantoq, cherkez) kamaydi. Shuningdek, meliorativ tizimlarning nosozligi natijasida samaradorlik sezilarli darajada yomonlashib bordi. 1980-yillarga kelib, ayrim hududlar qayta sho'rlanib, tuproq unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Natija. Mustaqillikdan so'ng Jizzax viloyati cho'l hududlaridagi agrar siyosat tubdan o'zgardi. Cho'l hududlaridagi qishloq xo'jaligi sohasidagi asosiy yo'nalishlar maqsadli belgilab olindi. Unga ko'ra: yerlarni samarali boshqarish va suvdan tejab foydalanish siyosatini olib borish; tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish (ayniqsa, 2010-yillardan boshlab); sho'rlangan yerlarda rekultivatsiya va melioratsiya dasturlarini amalga oshirish; fermer xo'jaliklarini tashkil etib, davlat monopoliyasidan bozor mexanizmlariga o'tish kabi zamon bilan hamnafas islohotlar belgilandi. Hozirgi kunda Jizzax cho'lining o'zlashtirilgan maydonlari qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lib qolmoqda, biroq suv resurslari tanqisligi va iqlim o'zgarishi muammolari dolzarbligicha qolmoqda. Jizzax cho'llarini o'zlashtirish - XX asr O'zbekiston tarixidagi eng yirik meliorativ loyihalardan biridir. U qisqa muddatda iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilgan bo'lsa-da, uzoq muddatda ekologik muammolarni ham keltirib chiqardi.

Xulosa. Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, kelajakda o'zlashtirilgan hududlardan foydalanishda quyidagi tamoyillar muhim:

1. Barqaror suv resurslari boshqaruvi;
2. Ekologik muvozanatni tiklash;
3. Tuproqni rekultivatsiya qilish;
4. Qishloq xo'jaligida resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish.

Jizzax cho'llarini o'zlashtirish tarixi — insonning tabiat bilan murakkab munosabatining yorqin ifodasi bo'lib, u hozirgi davrda ham ilmiy tahlil va amaliy saboqlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Razzoqov A. "O'zbekiston paxtachiligi tarixi". Toshkent; "O'zbekiston", 1994. 232-234-betlar.
2. Xaydarov X. Jizzax viloyati tarixi. – Toshkent: Mehnat, 1996. 96-bet.
3. Komilov O. O'zbekistonda irrigatsiya tizimi rivojlanishi va uning oqibatlari (1951-1990-yy). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2017. 151- 152-betlar.

4. Jizzax viloyati davlat arxivi, 448-fond, 11-ro'yxat, 57-ish, 51-bet.
5. Abdurahmonova M. Mirzacho'lnoma. – Toshkent: “Adabiyot”, 2021. 70-bet.
6. Davletov R. 1946-1980-yillarda Mirzacho'l hududidagi migratsion jarayonlar // Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations. 2021-dekabr. 146-bet.
7. Toshkentboyev A., Nosirov O'. Jizzax viloyati. Toshkent: O'zbekiston, 1996. 18-bet.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

FROM THE HISTORY OF PHARMACEUTICAL TRADITIONS IN TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE 19TH AND THE EARLY 20TH CENTURY

Shirinova Nargiza Faxritdenbek qizi

Researcher at the Institute of History of the Academy of Sciences

Abstract. This article presents information on the state of the field of pharmacology, which was a key component of folk medicine practiced in Turkestan in the second half of the 19th and the early 20th century. The study examines issues related to the use of natural products in the preparation of medicines — in particular, medicinal herbs, mineral substances, and various animal parts — as well as the locations where these materials were obtained and supplied. Based on historical evidence, the article reveals data on the composition of medicines used in the treatment of diseases, as well as the methods and tools employed in their preparation.

Keywords: folk medicine, healer, pharmacology, medicinal herbs, mineral substances, simple medicines, compound medicines.

XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA DORISHUNOSLIK AN'ANALARI TARIXIDAN

Shirinova Nargiza Faxritdinbek qizi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkistonda XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida amalda bo'lgan xalq tabobatining asosiy bo'g'ini hisoblangan dorishunoslik sohasining holatiga oid ma'lumotlar keltiriladi. Dori tayyorlashda foydalanilgan tabiiy mahsulotlar xususan, shifobaxsh giyohlar, mineral ma'danlar, turli xil hayvon a'zolarining yetishtirish va olib kelish manzillariga oid masalalar tadqiq etilgan. Kasalliklarni davolashda qo'llanilgan dorilarning tarkibi, ularni tayyorlash usul va vositalariga oid ma'lumotlar tarixiy faktlar orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xalq tabobati, tabib, dorishunoslik, shifobaxsh giyohlar, mineral ma'danlar, soda dorilar, murakkab dorilar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N10>

Kirish. Qadimdan biron-bir dardni yengishda, birinchi yordam choralari ko'rishda eng avvalo tabiat unsurlariga murojaat qilingan. Mashhur hakim Gippokrat bu haqda to'xtalib: "Tabiat davolaydi, tabib esa yordam beradi", – degan edi. Dastlab, o'simliklarning shifobaxsh xislatlari tasodifan aniqlangan bo'lsa, keyinchalik doimiy kuzatuvlar va sinovlardan o'tib shifobaxsh o'simliklar haqidagi ma'lumotlar ko'payib, mukammallashib borgan va tabobatda qo'llanila boshlagan[1;4-b]. Abu Rayhon Beruniyning "As-Saydana fi-t-tib" ("Tabobatda dorishunoslik kitobi"), Abulg'ozzi Bahodirxonning "Manofe' ul-inson" asarlarining yaratilishi Turkistonda dorishunoslik ilmining paydo bo'lishi va keyingi avlodlarga yetkazish uchun zamin yaratgan. Tib ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar tomonidan o'lkaga xos kasalliklarni davolashda istiqomat qilayotgan hududdagi giyohlar, ma'danlar va hayvonot olamiga murojaat qilish eng samarali usul ekanligini ta'kidlovchi nazariyani ilgari surganlar.

Muhokama. Dori vositalarining aksariyat qismi Turkiston hududida yovvoyi tarzda uchragan yoki maxsus yetishtirilgan, ba'zilar esa boshqa mamlakatlardan olib kelingan. Ahamiyatli jihati shundaki, dori sifatida qo'llanilgan tabiiy vositalarning katta qismi Turkiston tabiatiga xos bo'lganligi dorishunoslik tarmog'ining yanada rivojlanishiga va kasalliklarni davolashdagi yutuqlarga asos bo'lgan. Tadqiqotchi A.Kolosov tabiblar tomonidan foydalaniladigan 227 xil shifobaxsh giyohni o'rganib, ulardan 113 tasi Turkiston tabiatiga, 62 tasi Hind tabiatiga, 12 tasi Xivaga, 12 tasi Xitoyga, 9 tasi Buxoroga, 7 tasi Fors yerlariga, 6 tasi Arab olamiga, 1 tasi Misr tabiatiga, 4 tasi Yevropa florasiga va 1 tasi Afg'on florasiga taalluqli ekanini ta'kidlagan[2;45-b].

Ushbu dori vositalari arab, yunon va fors dorishunosligiga oid manbalarda ham qayd etilgan bo'lib, ingliz tadqiqotchisi Yu.Skayler Turkiston dorilari hamma musulmon mamlakatlarning dori-darmonlari bilan bir xil tabiatga ega bo'lib, ushbu dorilar arablar bilan kirib kelgan, degan fikrni ilgari suradi. U tadqiqotlarida keltirgan 226 ta dorivor o'simlikdan kamida 210 tasi buyuk arab shifokori Ibn Baytar va uning zamondoshlariga, 172 tasi Dioskrid va Galenga tanish bo'lganligini qayd etgan. Yu.Skaylarning ta'kidlashicha, 226 ta dori-darmondan 12 tasi Xitoydan, 62 tasi Hindistondan keltirilgan. Ulardan yetmish bittasi Toshkentda yetishtirilgan yoki yovvoyi holda o'sgan, elliktasi Samarqand va Buxorodan, ba'zilar Xiva, Qo'qon va Afg'onistondan olib kelingan. E'tiborli jihati shundaki, ulardan yettitasi fors diyorida, oltitasi Arabiston va Turkiyadan, biri Misr va to'rttasi Yevropadan olib kelingan. Yevropadan keltirilgan dori-darmonlar o'lka uchun yangilik bo'lmay, balki uzoq vaqtlardan beri tabiblar tomonidan qo'llanib kelayotgan mahsulotlar hisoblangan[3;63-b]. Demak, Turkiston o'lkasining Yevropa va qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlari milliy tibbiyotning muhim bo'g'ini bo'lgan dorishunoslik sohasining rivojlanishiga va yanada takomillashib borishiga turtki bo'lgan.

Ba'zida qo'shni mamlakatlardan kelgan tabiblar Turkiston hududida uchramaydigan noyob dori vositalarini olib kelish va ular yordamida kasallarni davolash orqali aholini o'zlariga jalb qilishga harakat qilganlar. Xususan, Farg'ona vodiysida Qoshg'ardan kelgan dungan tabiblari o'zlari bilan yosh va yumshoq bo'lgan morol yoki izyubr shohi va jenshen ildizini olib kelganlar va u bilan kasallarni davolaganlar. Dungan tabiblari tomonidan ushbu mahsulotlar hattoki o'likni tiriltira olish xususiyatiga ega deb baholangan[4;244-b]. Bu kabi noyob o'simliklarni boshqa mamlakat tabiblari tomonidan olib kelinishi Turkiston aholisi e'tiborini tortish va ishonchini qozonish uchun xizmat qilgan.

19-yuzyillik ikkinchi yarmi – 20-yuzyillik boshlarida Turkistonda dori-darmonlar uch xil vosita orqali tayyorlangan. Bular o'simliklar, tabiiy ma'danlar va hayvonot olami. *O'simlik orqali.* Turkiston tabiatidagi o'simlik dunyosiga tegishli deyarli har bir daraxt, giyoh va mevalar shifobaxsh hisoblangan. Dorivor giyohlar uch xil usulda tarqalgan bo'lib, *birinchisi* – maxsus o'stiriluvchi, *ikkinchisi* – yovvoyi tarzda o'suvchi, *uchinchisi* – boshqa mamlakatlardan keltiriluvchi o'simliklar hisoblangan. Dori tayyorlashda tog'-u toshlarda o'suvchi giyohlardan tortib aholi hovlisidagi o'sma, rayhon kabi oddiy o'simliklardan ham foydalanilgan. Dori tayyorlashda o'simliklarning guli, poyasi, bargi, ildizi, urug'i va yog'idan, daraxtlarning po'stlog'i va shirasidan, mevali daraxtlarning nafaqat mevasi, balki novdasi, barglari, danagidan foydalanilgan. Shifobaxsh giyohlardan yantoqshakar, sunbul, arpabodiyon, isiriq, xardal, ko'knori, bug'doy, aloe, nazla o'ti, qizilmiya, mingdevona, yasmiq, mingtomir, zirk va boshqa shu kabi ko'plab dorivor giyohlardan keng foydalanilgan. Daraxt po'stloqlaridan sandal daraxti

po'stlog'i turli malhamlarda va damlamalar tayyorlashda, maxsus daraxt tanasidan tayyorlanuvchi misvok esa tish tozalash vositasi sifatida qo'llanilgan.

Ushbu o'simliklarni tabiblar tashqi ko'rinishi, hidi va ta'midan aniqlashda katta tajribaga ega bo'lganlar. O'simliklarni tabiblarning o'zlari, oila a'zolari va shogirdlari yordamida terib dori uchun tayyorlaganlar. O'simliklarni tozalash, quritish, hab dorilar yasash, damlamalar tayyorlash tabib va uning oila a'zolari yordamida bajarilgan. Dori vositalariga qo'shiluvchi ba'zi mahsulotlar, shuningdek, xorijdan keltiriladigan dorilar attorlar orqali sotib olingan. Demak, tabib bir vaqtning o'zida kasallarni qabul qilish va davolash ishlarini amalga oshirishi bilan birga dorishunoslik bilan ham shug'ullangan.

Shuningdek, tabiblar uchun *tabiiy ma'danlarning* shifobaxsh xususiyatlari va ulardan dori tayyorlash jarayoni yaxshi ma'lum bo'lgan. Turkiston tabiblari navshodir, qo'rg'oshin, simob, achchiqtosh, oltingugurt, mis, kinovar (simob rudasi), ruh kuporosi va boshqa mineral moddalar bilan tanish bo'lganlar va ularni dorishunoslikda qo'llaganlar[5;277-b]. 19-yuzyillik oxirlariga kelib Turkiston hududida zamonaviy turdagi dorixonalarining ochilishi tabiblarning yangi kimyoviy moddalarni tanish va o'z amaliyotlarida qo'llashda turtki bo'lgan. Xususan, tabiblar tomonidan qo'shimcha ravishda mishyak, xinin va fuksin kabi moddalar qo'llana boshlangan[6;148-b]. Rus tadqiqotchilari bezgak kasalligida asosiy dori vositasi sifatida qo'llaniluvchi xinin preparatini turkistonliklarga ruslar tanishtirgan desalarda, I.Yavorskiy Buxoro tabiblari va aholisi xinin preparati va uning foydasi haqida avvalroq bilganliklarini ta'kidlaydi[7]. Xinin preparati Turkiston hududiga Hindistondan juda cheklangan miqdorda olib kelinib, kasalliklar avj olgan vaqtda ushbu mahsulotni topish aholi va tabiblar uchun qiyinchilik tug'dirgan. Jumladan, o'lkaga bezgak kasalligi tarqagan vaqtda rus shifokorlaridan xinin dorisini so'rab kelganlar ko'p bo'lgan, ammo shifokorlar tomonidan aholiga ushbu mahsulotni berish ta'qiqlangan.

Milliy tib dorishunosligida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan mumiyo mahsuloti Turkiston tabobatida keng qo'llanilgan. Mumiyo tabobatda qo'llanilishi bilan bir qatorda, har bir xonadonda saqlangan va safarga chiqilganda u zaruriy ehtiyoj sifatida olib ketilgan. 19-yuzyillikning ikkinchi yarmi – 20-yuzyillik boshlarida mumiyo, asosan, lat yegan va singan suyaklarni tuzatishda qo'llanilgan. Umuman olganda, mumiyoning shifobaxsh xususiyatlari keng bo'lib, ma'lum bir kasallikda hech qanday dori vositasi naf bermasa, bemor mumiyo igna uchi miqdorida, bemor necha yoshda bo'lsa, shuncha kun davomida iste'mol qilish an'anasi mavjud bo'lgan. Mumiyo Turkiston hududiga Xitoy, Hindiston va Tibetdan keltirilib, tilla og'irligi hisobida baholangan[8;85-b].

Tabobatda nafaqat o'simliklar va ma'danlar, balki *hayvonot olamidan* ham dori tayyorlashda foydalanilgan. Bunda sut emizuvchilar – qo'y, ot, sigir, echki, tuya; qushlardan – chumchuq, bedana, hudhud, qumri; sudralib yuruvchilar, mayda hasharotlar chumoli, chigirtka, chuvalchang, qisqichbaqa va boshqa ko'pgina jonzotlarning go'shti, terisi, suti, qoni, tuki, hasharotlar uyasi, zahri, hattoki tezagidan dorilar tayyorlangan. Qushlar va uy hayvonlari xususan ot, qo'y, echki kabilarning suti va yog'lari ichki kasalliklarda hamda tashqi jarohatlarda keng qo'llanilgan. Xususan, "Turkiy tibbiyot" asarida kishining qorni quruq-issiqlardan og'risa qo'y suti bilan dolchinni qaynatib ichish, ko'zdan yosh oqib to'xtamasa echkinining yungini ko'ziga yopish, tish og'rig'ida ilonning po'stini sirka bilan qaynatib tishga yopish, qorin va oshqozon og'riqlarida ot sutini qaynatib ichish, karlikda va quloq og'rig'ida ho'kizning o'tini sirka bilan qaynatib qulog'iga tomizish kabi davolar keltirilgan[9;33-b]. Ot va qo'y yog'i hamda

po'st dumbasi singan va chiqqan suyaklarni bitirishda eng yaxshi vosita hisoblanib siniqchilar tomonidan doimiy qo'llanilgan[10; 67-b].

Hasharotlar va yovvoyi hayvon a'zolari esa ko'proq tashqi qo'llov uchun buyurilgan hamda ulardan turli quyuq dorilar tayyorlangan. Xususan, quritilgan va qaynatilgan kaltakesak turli yaralarda, ayiq va yo'lbars yog'i bod kasalligida, burgut jigari suvdan qo'rqish kasalligida tavsiya qilingan. Turkistonlik aholi orasida yashil qo'ng'izcha (shpanka) hasharoti keng tarqalgan bo'lib, undan tabiblar turli dorilar tayyorlashda keng foydalanganlar. Yashil qo'ng'izning quritilgan shaklidan tabobatda turli malhamlar tayyorlashda foydalanilgan. Toshkent atrofi aholisi bu qo'ng'izni tanani tetiklashtirish, kuch yig'ish maqsadida ichga qabul qilishgan[4; 259-b]

Zaharli hasharotlar, ilon va chayonning yog'i yoki zahridan ham dorilar tayyorlangan. Xususan, Mahmud Yayfoni buyrak kasalliklarida "ma'juni aqrab" dori vositasini tavsiya etadi. Ushbu dori chayonning kuli va bir nechta shifobaxsh giyohlarni asal bilan aralashtirib tayyorlangan. Yayfoni ushbu dori vositasi juda foydali ekanligini ta'kidlab, uni hatto bolalarda ham qo'llash mumkin ekanligini yozgan[11; 25-b]. Ilon po'stlog'i esa turli jarohat va yaralarni tezroq bitirishga yordam bergan.

Inson tanasidagi ortiqcha qonni chiqarib yuborishga yordam beruvchi zulukdan ham Turkiston milliy tibbiyotida keng foydalanilgan. Zuluk solish usuli ko'pgina kasalliklarda qo'llanilgani uchun aholining o'zi ham bu borada yetarli tajriba to'play olgan. Shu sababli zuluk qo'yish muolajasi aholi tomonidan tabib tavsiyasisiz ham bajarilgan. Zuluk Turkistonning ko'pgina ko'llarida tabiiy ravishda ko'paygan. Xususan, A.Fedchenko Kattaqo'rg'on yaqinidagi Chariq ko'lga borganida u yerda aynan tibbiyot zuluklarini uchratadi va bu ko'lning zuluklar ko'payishi uchun qulay ekanini ta'kidlaydi. Zuluk, hattoki rus shifokorlari va harbiylari tomonidan ham qo'llanilgan va ijobiy natijalarga erishilgan. Samarqand yaqinidagi Kattaqo'rg'on harbiy lazaretiga shifokor Batirshin zulukni birinchilardan bo'lib tanishtiradi va ushbu lazaretdagi harbiylar uni davo sifatida qo'llaydilar. Ammo ular zulukni yetilish va ko'payish joyini aniq bilmaganliklari uchun uni tatar savdogarlaridan sotib olganlar[12;287-b].

Turkiston tabiblari yuqorida keltirilgan tabiiy vositalar orqali dorilarning bir qancha ko'rinishdagi turlarini tayyorlaganlar. 19-yuzyillikning ikkinchi yarmi – 20-yuzyillik boshlarida ham an'anaviy tarzda dorilar ikki xil ko'rinishda mavjud bo'lgan. Ya'ni bular *sodda va murakkab* dorilar. Sodda dorilar faqatgina bitta mahsulotni dori sifatida qo'llanilishi bo'lsa, murakkab dorilar esa ikki yoki undan ortiq mahsulotni qo'shib turli usullar orqali tayyorlangan dorilar hisoblangan. Ushbu dorilarning ba'zilar faqat ma'lum kasallikni davolashda, ba'zilar esa bir vaqtda bir qancha kasalliklarni davolash uchun qo'llanilgan. Xususan, yo'talni davolash uchun nok urug'ini qaynatib ichish, karlikda esa nok urug'ining yog'ini quloqqa tomizish buyurilgan[9;25-b].

Sodda dorilar ma'lum bir o'simlik yoki ma'danni shifolik xususiyatiga qarab turli kasalliklarda qo'llanilgan. Xususan, yo'talni ketkazish uchun anjirni yaxshilab qaynatib, suvidan ajratib, uch kecha-kunduzdan keyin ushbu anjirni yeyish kabi sodda tavsiyalar beriladi[9;25-b].

Murakkab dorilar esa ushbu sodda dorivor o'simlik va ma'danlarni qo'shish orqali tuzilgan yangi dori vositasidir. Murakkab dorilar 10 tadan 70 tagacha mahsulotdan iborat bo'lishi mumkin bo'lgan. Ammo keyinchalik ushbu vositalarning ko'p qismi kamayib yoki yo'q bo'lib ketishi natijasida ularni topish qiyin bo'lgan. Shu sababli ularning o'rnini bosuvchi

vositalar yordamida murakkab dorilar tarkibi tabiblar tomonidan soddalashtirilgan. 19-yuzyillikning ikkinchi yarmi – 20-yuzyillik boshlarida Turkistonda tayyorlanuvchi murakkab dorilarning tarkibi 3 tadan 10 tagacha bo'lib, ularning aksariyatini ushbu hududning o'zidan topish mumkin bo'lgan[13;143-b].

Dorilar iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan turlarga bo'lingan. *Iste'mol qilinadigan* dorilarga qaynatmalar, damlamalar, sharbatlar, shiralar, hab dorilar, talqon dorilar, kulchalar, kukun dorilar, murabbolar, surgil dorilar, ma'junlar kirgan, *iste'mol qilinmaydigan* dorilarga esa malhamlar, bog'lamalar, surtma dorilar, yog'lar, ko'z dorilari, quloq dorilari, tishga qo'yiladigan dorilar, tomoq chayish uchun dorilar, oyoq vannalari va ichki a'zolar uchun vannalar kirgan.

Ularning har biri turli kasalliklarda turlicha qo'llanilgan. Bosh va ichki kasalliklarda qaynatma, damlama, hab dorilar berilgan bo'lsa, teri kasalliklari, yarali kasalliklarda, tomir kasalliklarida tashqi qo'llaniluvchi dorilar tavsiya etilgan. Ba'zi kasalliklarda esa har ikki tur dorilardan foydalanilgan. Xususan, buyrakda qum paydo bo'lganda uzum daraxtini kuydirib kulini temirtikan mevasining olti boshi bilan mesh to'la suvda qaynatib, shirasini olib yetti qoshiq mazkur kuldan qo'shib ichish va kulini qizdirishda qo'llash buyurilgan. Shu bilan birga, ushbu qaynatmani buyrak ustiga qo'yish yoki suviga o'tirish juda foydali hisoblangan[11;65-b]. Demak, bitta dori vositasidan bir necha shaklda turli xil kasalliklarni davolashda foydalanilgan.

Murakkab dorilarning ba'zilar o'ziga xos nomlarga ega bo'lib, tabiblarga qulaylik tug'dirish maqsadida, shu bilan birga dori nusxasi sifatida tibbiy asarlarda shu nomlar bilan atalishi an'anaga aylangan. Xususan, sikanjabin – sirka va asaldan tayyorlangan murabbo, taryoqi kabir – yetmish xil modda qo'shilgan murakkab dori nomi, gulob – atirgul suvini anglatgan. Shuningdek, tabiblar tayyor dori nusxalaridan tashqari o'zlarining tajribalari orqali yangi turdagi murakkab dori vositalarini yaratganlar va ularni maxsus nom bilan ataganlar. Xususan, tibbiy asarlarda qadim tabiblarga hos Dioskaridning 56 xil o'simlik va ma'dandan iborat "Najot beruvchi dorisi", Jolinusning "Davoi al-kurkum", Roziyning "Habbi atoi" ("Ilohiy drajje") dori nusxalari nomlari uchraydi[14;94-b].

Natijalar. 19-yuzyillikning ikkinchi yarmi – 20-yuzyillik boshlarida, garchi kimyoviy vositalar Turkistonga kirib kela boshlagan bo'lsa ham, tabiblar tarixiy an'analarni saqlab qolgan holda bemorlarni davolash va dori-darmonlar tayyorlashda tabiiy vositalardan foydalanganlar. Turkistonning mineral moddalarga va turli-tuman shifobaxsh o'simliklarga boyligi mamlakatda dorishunoslikning keng rivojlanishiga turtki bo'lgan. Dori vositalari shifobaxsh giyohlar, mineral ma'danlar, turli xil hayvon a'zolari, sudralib yuruvchilar va hasharotlardan tayyorlangan. Tabiblar tabiiy giyohlar va ma'danlarning shifobaxsh xususiyatlariga oid ilmlarni chuqur egallaganlar.

Demak, Turkistonda mavjud bo'lmagan dori vositalari asosan Xitoy, Hindiston, Eron, Afg'oniston va Arabiston kabi qo'shni mamlakatlardan keltirilgan. Xususan, Hindistondan halila daraxti mevasi, dolchin daraxti po'stlog'i, bozbosa, zanjabil, qalampirmurch, kundur, kuchala, limon, aloe, sobeston, tomir o'simliklari, Xitoydan mumiyo, so'rayravon, cho'pi-chin, arab mamlakatlaridan Misr novvoti, sanoyi makka, charm-dori, bihe marjon kabi dorivor vositalar olib kelingan. Arabiston hududidan keltiriluvchi mahsulotlar asosan Makka va Madina shaharlariga borgan ziyoratchilar orqali yetkazilgan. Xususan, ziyoratchilar buqoq kasalligida qo'llaniluvchi dengiz o'ti va marjonni Qizil dengizdan yig'ib olgan arab savdogarlaridan sotib olganlar. Buxoroning o'zidan ham ba'zi Turkiston o'lkasida uchramaydigan mahsulotlar igir,

saqich, soʻzach kabi oʻsimliklar, shuningdek Erondan mashhur zaharlanishga qarshi qoʻllaniluvchi va umumiy quvvat beruvchi tiriyak dori vositasi olib kelingan[15;49-b].

Xulosa. Turkiston tabiatidagi deyarli barcha giyoh va maʼdanlar turli xil kasalliklarni davolashda samarali qoʻllanilgan. Garchi, mamlakatda ilk zamonaviy dorixonalar ochilgan boʻlsa-da, sinalgan anʼanaviy dorishunoslik xalq orasida oʻz oʻrinini yoʻqotmadi. Dori tayyorlashda faqatgina tabiiy moddalar: shifobaxsh giyohlar, mineral maʼdanlar, hayvonot olamidan keng foydalanilgan. Dori tayyorlash bilan tabiblarning oʻzlari tibbiy anʼanalar asosida shugʻullanganlar va sodda hamda murakkab dori turlarini tayyorlay olganlar. Dorivor giyohlar yovvoyi tarzda oʻsgan, maxsus oʻstirilgan yoki boshqa mamlakatlardan olib kelingan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Набиев Н., Шальнёв В., Иброҳимов А. Шифобахш неъматлар. 2-нашр. – Тошкент: Меҳнат, 1989.
2. Зияева Д.Х. История медицины в Туркистане// Социальная жизнь в Центральной Азии в начале XX века. Материалы международной конференции. – Самарканд, 2009.
3. Туркистонда тиббиёт: анъана ва инновациялар (XIX аср охири – XXаср бошлари). Масъул муҳаррир: Шадманова С.Б. – Тошкент, 2019.
4. Кушелевский В. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Т. 3. – Новый Маргелан, 1890.
5. Описание фармакопостических веществ встечающихся в Средний Азии. Магистр фармации Р. Пальм из Ташкента // Туркестанский сборник. – 1871. – Том 53.
6. Кадилов А.А. История медицины Узбекистана. – Ташкент, 1994.
7. Яворский И. Долина Аму -Даръи в ее верхнем течении. Медико-географический очерк. // Туркестанские ведомости. – 1879.
8. Огудин Н. Народная медицина Средней Азии и Казахстана. – Москва: Ганга, 2021.
9. طب نامه تركى. Noshiri: ميرزا احمد ميرزا كريم اوغلى, – Tashkent: Литография О.А. Порцева, 1330/1911-12.
10. Шакиров А.Ш., Лузина Е.В. К истории лечения переломов и вывихов по данным восточной народной медицины. – Ташкент: Медицина, 1989.
11. Mahmud Hakim Yuyfoniy Xoʻqandiy. Tariq al-iloj. – Qoʻqon, 1332/1913-14. SHI AQF. Toshbosma raqami 101.
12. Федченко А. Заметки о паразитах человека, водящихся в Туркестанском краю. // Турк.сборник. – Т. 57.
13. Назиров М. Ўзбек тилида ёзилган мужаррабат // Oʻzbekiston tibbiyot jurnali. – 2013. – № 2.
14. Асадов Д., Назиров М. Маҳмуд Ҳакимнинг юқумли касалликларни даволаш ва соғлом турмуш тарзини таъминлаш учун ишлатган дори воситалари // Журнал гепато-гастроэнтерологических исследований.– 2021. 1-махсус сон.
15. Добросмыслов А. Ташкент в прошлом и настоящем.– Ташкент, 1912.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES**Received:** 10 October 2025**Accepted:** 25 October 2025**Published:** 2 November 2025*Article / Original Paper***ASSESSMENT OF FACTORS INFLUENCING THE PRODUCTION EFFICIENCY OF HORTICULTURAL FARMS BASED ON ECONOMETRIC MODELS****Akbarov Husan Uzbekxonovich**

PhD, Acting Associate Professor

at the Department of Digital Technologies, Tourism, and Humanities

Samarkand Agroinnovations and Research University

Abstract. This article analyzes the factors affecting the production efficiency of horticultural products using econometric models. Based on panel data, a regression analysis was conducted to evaluate the impact of each factor on yield. The results indicate that water expenditure is statistically insignificant, while labor input, mineral fertilizers, average costs, and pesticide use have a more direct and positive effect on increasing yield. In contrast, the influence of organic fertilizer application and temperature was found to be relatively weaker. Based on the findings, conclusions were drawn regarding efficient resource utilization and the development of sustainable agriculture.

Keywords: efficiency, regression, Panel data, Fixed effects, Random effects.**BOG'DORCHILIK XO'JALIKLARINING ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH****Akbarov Husan O'zbekxonovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

SamATI "Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti v.b

E-mail: akbarovhusan@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bog'dorchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar ekonometrik modellar yordamida tahlil qilingan. Panel ma'lumotlar asosida regressiya tahlili o'tkazilib, har bir omilning hosildorlikka nisbatan ta'siri baholangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, suv sarfi statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligi, mehnat sarfi, mineral o'g'it, o'rtacha xarajat hamda pestitsidlardan foydalanish bevosita hosildorlikni oshishiga ko'proq, organik o'g'it sarfi va haroratning ta'sir nisbatan kamroq ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida resurslardan samarali foydalanish va barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: samaradorlik, regressiya, panel ma'lumotlar, o'zgarmas ta'sir, tasodifiy ta'sir.DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N11>

Kirish. Dunyo mamlakatlarida aholi sonining sezilarli darajada ko'payib borayotganligi va iqtisodiyot tarmoqlari yuqori sur'atlarda rivojlanayotganligi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin ortishiga sabab bo'lmoqda [1; B.273]. Buning natijasida dunyoning ko'plab mintaqalarida ochlik hukmronlik qilmoqda. Dunyo aholisining to'qqizdan bir qismi, 820 milliondan ortiq kishi surunkali ravishda to'yib ovqatlanish imkoniga ega emaslar [2; B.6.].

2025 yil 16-oktyabrida BMTning Bosh kotibi Butunjahon oziq-ovqat kuni munosabati bilan yo'llagan murojaatida biz ishlayotgan yerlar, biz bog'liq bo'lgan suv resurslari va hayotni tasavvur qilib bo'lmaydigan biologik xilma-xillik tobora ortib borayotgan bosimni his qilmoqda deb ta'kidlab o'tdi [3]. Aksariyat rivojlangan xorijiy davlatlarda oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotini tashkil etish, moliyalashtirish va boshqarish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bunda albatta aholi oziq-ovqat iste'mollarining eng asosiy qismini meva-sabzavot mahsulotlari egallashi barchamizga ma'lum[1;B.273].

Hozirgi kunda mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoatni esa xom-ashyoga bo'lgan talabini qondirish bilan birga eksport salohiyatini oshirish qishloq xo'jaligi sohasi oldida turgan eng muhim dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qishloq xo'jaligi xususan, meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini zamon talabi va xalqaro standartlar mos ravishda rivojlantirishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlari qabul qilingan.

Mamlakatimizda yer va suv resurslardan foydalanishni takomillashtirish, qishloq xo'jaligiga foydalaniladigan yer maydonlarini optimallashtirish hamda yerlarni foydalanishga ajratishni yengillashtirish bo'yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda.

“Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son Farmoniga asosan qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suv va gidroinshootlardan foydalanish samaradorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va sotish, logistika va marketing tizimlarini rivojlantirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda ilm-fan va amaliyot integratsiyasini jadallashtirish vazifalari bo'yicha «yo'l xaritasi» belgilab berilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda o'z vaqtida mineral o'g'it bilan yetarli ta'minlanmasligi hamda o'simliklar tomonidan uzluksiz ozuqa moddalarini tuproqdan o'zlashtirilishi natijasida tuproq tarkibida fosfor, kaliy va mikroelementlar miqdorlarini kamayish holatlari sodir etiladi. Shu sababli, har bir ekin maydonlarida tuproqda agrokimyoviy tekshirishlarini amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib hududlarda bog'dorchilik sohasini kompleks rivojlantirishda meva hosildorligiga ta'sir etuvchi omillarning o'rganish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bog'dorchilik ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'lanishlarning ekonometrik tahlilini qilish muhim ahamiyatga ega. Statistik tahlil bog'dorchilik ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi turli omillar, masalan, iqlim sharoiti, tuproq sifati, sug'orish usullari, zararkunandalarga qarshi kurash choralari va boshqalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va tushunish imkonini beradi. Ushbu munosabatlarni tahlil qilib, mahsulot ishlab chiqaruvchilar resurslarni taqsimlash bo'yicha asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bunda o'ziga xos tuproq sharoitlari hosildorlikka qanday ta'sir qilishini bilish fermerlarga o'g'itlardan foydalanishni optimallashtirish imkonini beradi.

Iqtisodiyot adabiyotida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bo'yicha tadqiqotlarda empirik tahlil qilish masalasini kam uchratamiz. Ko'pchilik tadqiqotchilarning ishlarida bog'dorchilik hosiliga ta'sir etuvchi omillarni asosan suv bilan ta'minlash, edafik omil hamda kimyoviy ishlov berish kabi turlarga bo'lish orqali o'rganishgan.

Xorijiy olimlardan Zachariah Rutledgening tadqiqotida meva ishlab chiqarishga mehnat sarfini kamayishining ta'sirini o'zgarmas ta'sir panelli regressiyani qo'llab o'rgangan. Tadqiqotchi fermer xo'jaliklarida ishchi kuchi yetishmasligi natijasida meva ishlab chiqarishga ta'sir tahlil qilishgan. Uning fikricha ishchi kuchi yetishmasligi ekin maydonlarning qisqarishiga olib keladi, bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi katta korxonalarda mehnat sarfini 10% ga kamayishi (ishchilar soni bo'yicha) meva ishlab chiqarishning ko'pi bilan 4,2% ga kamayishiga olib kelishini ko'rsatib o'tgan[4; B.4.].

Iraizoz, B., Rapun, M., & Zabaletalar Stoxastik chegara tahlili (SFA)dan foydalanib bog'dorchilik mahsulotlarining texnik samaradorligi baholangan bo'lib, tadqiqotchilar fermer xo'jaliklarining hajmi, ularning daromadlari va iqtisodiy ko'rsatkichlari kabi turli bir qator tushuntirish o'zgaruvchilari bilan qanchalik bog'liqligini o'rganishgan [5; B.400-401.].

Mahalliy olimlardan A.M. Ergashev, M.Achilov, R.Rafikov, E.Xojievlar bog'dorchilik va sabzavotchilik mahsuldorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda ekonometrik usullardan foydalanib ishlab chiqarish samaradorligini baholash, bozor va iste'mol talabini tahlil qilishga mehnat va yer sifatining rolini aniqlash uchun Cobb-Duglas funksiyasi, ko'p omilli chiziqli regressiya, Stoxastik chegara tahlili (SFA) usullaridan foydalanib tahlil qilishgan.

O'zbekiston sharoitida bog'dorchilik mahsulotlarini yetishtirishda hosildorlikka ta'sir etuvchi omillar yetarlicha ochib berilmagan. Shulardan kelib chiqqan holda bog'dorchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillarni kompleks o'rganish va ularga javob topish maqsadida tadqiqot o'tkazildi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiyotni rivojlantirishda eng asosiy xususiyatlardan biri u yoki bu sohaning omilli ko'rsatkichlarini natijaviy ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash muhim hisoblanadi. Ma'lumki, ko'p omilli ekonometrik modellarni tuzishda natijaviy omilga bir qator omillar ta'sir etishi vaqtli qatorlar ko'rinishida aks ettiriladi. Ko'p omilli ekonometrik modellarda modelga kiruvchi barcha obyektlarni aks ettirish mumkin emas. Ammo, bunday hollarda panel ma'lumotlaridan foydalaniladi [6; B.169-203].

Panel regressiya modeli odatdagi vaqt seriyasidan yoki fazoviy regressiyadan farq qiladi, chunki uning o'zgaruvchilari ikkita pastki chiziqqa ega, ya'ni:

$$y_{it} = \alpha + X'_{it}\beta + v_{it}, i = 1, \dots, N; \quad t = 1, \dots, T$$

bu yerda i — obyektning soni (uy xo'jaliklari, firmalar, mamlakatlar va boshqalar), t — vaqt, α — erkin o'zgaruvchi, β — $K \times 1$ o'lchamli vektor koeffitsiyent, $X'_{it} = (X_{1,it}, X_{2,it}, \dots, X_{k,it})$ matritsasining qator vektorini izohlovchi o'zgaruvchilar

Panel ma'lumotlarini tahlil qilishda murakkab xatolikdan foydalaniladi:

$$v_{it} = u_i + \varepsilon_{it}$$

formulada v_{it} ikkita komponentdan tashkil topgan ya'ni, u_i kuzatilmaydigan individual maxsus xato komponenti, ε_{it} — esa vaqt seriyasidagi va fazoviy ma'lumotlarning birlashgan xatolik komponenti [6; B.169-203.].

E'tibor beradigan bo'lsak u_i vaqtga bog'liq emas va regressiyaga bevosita kirmaydigan obyektlarning xususiyatlari uchun javobgardir. ε_{it} vaqt va obyektlarga qarab o'zgaradi va regressiyada oddiy tasodifiy komponent sifatida qaralishi mumkin.

“O'zgaras ta'sir” tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, tadqiqot davomida kuzatilmagan omillar (α_i) har bir individualda (korxona, tashkilot) farq qilishi mumkin, ammo har bir tashkilotning o'sha kuzatilmagan omillari yillar davomida o'zgaras deb qaraladi; ya'ni vaqt davomida o'zgarasdir”. Shuning uchun bizning tadqiqot modelimizda α_i t siz yozildi. Agar biz kesmani β_{1it} deb yozsak, bu har bir korxona yoki tashkilotning mazkur omil o'zgarishi vaqt davomida har xil ekanligini anglatadi”.

Bundan tashqari, olimlar Grilishes va Mairesse [6; B.169-203.], o'z asarlarida panel ma'lumotlarida yer, mehnat sifati, tadbirkorlik qobiliyati kabi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq o'zgaruvchilar o'zgarasdir deb ta'kidlashadi. Panel ma'lumotlariga asoslangan ishlab chiqarish funksiyasini ham tahlil qilish muhim bo'lib, olimlar Grilishes va Mairesse ishlab chiqarish funksiyasini o'z tadqiqot ishlarida qo'llaydilar va unda erksiz o'zgaruvchi bo'lgan jami mahsulotni va unga ta'sir qiluvchi omillarni logarifmik shaklda foydalanadilar.

Shuning bilan birga, qishloq xo'jaligida kuzatilmaydigan sodda qilib aytadigan bo'lsak hisobi yuritilmaydigan omillar mavjud bo'lib, bularga boshqaruv qobiliyati, ishchilarning mehnat qobiliyati, tuproq sifati va iqlim sharoiti kabilar. Bu kabi omillar ishlab chiqarishda kuzatilmasa-da fermer xo'jaliklarining o'ziga xos “sifat ko'rsatkichlari” hisoblanadi [7; B.68.].

Panel ma'lumotlari asosida ma'lumotlarni empirik tahlil qilishda umumlashtirilgan eng kichik kvadratlar usuli (Pooled OLS), o'zgaras ta'sir modeli (fixed effects model) hamda tasodifiy ta'sir modeli (random effects model) ekonometrik modellaridan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Samarqand viloyati Oqdaryo tumani bo'yicha 108 ta bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklarining 2021-2023-yillardagi quyidagi ko'rsatkichlari mahsulot ishlab chiqarish hajmi, s/ga, organik o'g'it sarfi, kg/ga, mineral o'g'it sarfi, ts/ga, suv sarfi, metr kub /ga, harorat, C^0 , pestitsidlar sarfi, kg/ga, ishchi kuchi sarfi, kishi/kun va o'rtacha xarajatlar, mln. so'm/ ga. Tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan ma'lumotlarning o'lchov birliklari turlicha bo'lganligi uchun haroratdan boshqa barchasini logarifmlab, yagona o'lchov birligiga keltirildi. Harorat o'zgaruvchisi logarifmlanmaydi, chunki u manfiy qiymatda bo'lishi yoki elastiklik bo'yicha tahlilga mos kelmaydi. Natijaviy omil: bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi, s/ga ($\ln YIELD$) hisoblanadi. Ta'sir etuvchi omillar esa — organik o'g'itlardan foydalanish, kg/ga ($\ln ORG_FERT$), mineral o'g'itlardan foydalanish, kg/ga ($\ln MIN_FERT$), suv sarfi, metr kub/ga ($\ln WATER$), o'rtacha yillik harorat, C^0 ($TEMP$), pestitsidlardan foydalanish, kg/ga ($\ln PESTICIDE$), ishchi kuchi sarfi, kishi/kun ($\ln LABOR$) va o'rtacha xarajatlar, mln. so'm/ ga ($\ln COST$).

Tadqiqot 324 ta kuzatuv asosida, 2021-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bunda Oqdaryo tumanida faoliyat ko'rsatayotgan bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi 108 ta fermer xo'jaliklarining 3 yillik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Hosildorlikka ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsiya tahlili o'tkazilganda tahlil natijalari hosildorlik ($\ln YIELD$) va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan asosiy resurslar logarifmlari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bog'liq o'zgaruvchi $\ln YIELD$ bilan yuqori korrelyatsiyaga quyidagi omillar bilan bog'liqligi aniqlandi: Mehnat sarfi $\ln_LABOR$ 0,6524. Bu yuqori ijobiy bog'liqlik ishlab chiqarishda mehnat omilining muhimligini

ko'rsatadi. Mehnat sarfi oshishi bilan hosildorlikning oshishi anglatadi. Pestitsidlar sarfi LN_PESTICIDE 0,6367 bu hosildorlikni kasallik va zararkunandalardan himoya qilishning samaradorligini aks ettiradi. Xuddi shunday Mineral o'g'itlar LN_MIN_FERT 0,5875 o'rtacha kuchli bog'lik borligini aks ettirsa, harorat TEMP 0,5375, organik o'g'itlar LN_ORG_FERT 0,4966, suv sarfi LN_WATER 0,4257 o'rtacha bog'liqlik mavjudligini hamda eng past bog'liqlik o'rtacha xarajatlar LN_COST 0,4440 ekanligi hamda mustaqil o'zgaruvchilar orasida multikollinearlik mavjud emasligi aniqlandi.

1-jadval

Fermer xo'jaliklarda mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni baholash modeli natijalari

Mustaqil o'zgaruvchi	Koeffitsiyent		
	Pool OSL	Fixed Effect	Random Effect
<i>lnORG_FERT</i>	0,072518 ***	0,033859**	0,050829 ***
	0,000125	0,006743	0,001154
<i>lnMIN_FERT</i>	0,144648***	0,097511*	0,137795 ***
	0,004191	0,031402	0,001121
<i>lnWATER</i>	0,032862	0,007299	0,016569
	0,213459	0,730490	0,447456
<i>TEMP</i>	0,006737***	0,004006***	0,004978***
	0,001862	0,009389	0,002171
<i>lnPESTICIDE</i>	0,154161***	0,073508***	0,108029 ***
	0,009501	0,001771	0,001050
<i>lnLABOR</i>	0,170431***	0,103372***	0,138339***
	0,011934	0,001207	0,001510
<i>lnCOST</i>	0,062819***	0,0633434***	0,063251***
	0,004610	0,003738	0,003178
<i>cons</i>	2,341194	3,590043	3,015194
Statistik tahlil			
R^2	0,7105	0,6268	0,6146
F-statistic	110,81	50,15	
Wald χ^2			565,90

* $p < 0.1$, ** $p < 0.05$, *** $p < 0.01$

Turli usullar bilan baholangan o'zgarmas ta'sir model (fixed effects model) va tasodifiy ta'sir modellarini (random effects model) solishtirish uchun qo'llaniladigan Hausman testidan foydalanganimizda Pirsonning hisoblangan muvofiqlik mezoni (xi-kvadrat) $\chi^2 = 70,2586$ ga $\alpha = 0,05$ aniqlikda va 95 foiz ishonchlilikda mazkur mezonning javdal qiymati 14,067 ga tenglini aniqlandi. Demak, xi-kvadrat mezonning hisoblangan qiymati jadval qiymatidan katta bo'lgani uchun o'zgarmas ta'sir modelni qabul qilamiz. Chunki, tuzilgan o'zgarmas ta'sir model va tasodifiy ta'sir modellarning sifatini tekshirishda foydalaniladigan determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2 = 0,6268$) qiymati o'zgarmas ta'sir modelda katta ekanligi aniqlandi.

Xulosa. Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ularga ta'sir etuvchi omillarni tahlili etishda panel ma'lumotlari asosida tuzilgan o'zgarmas ta'sir modeldan foydalanish maqsadga muvofiq ekan.

Hisoblangan o'zgarma ta'sirli ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, bog'dorchilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida suv sarfi (lnWATER) statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligi va qolgan barcha omillar fermer xo'jaliklari tomonidan mahsulot ishlab chiqarishga (lnYIELD) ijobiy ta'sir qilar ekan.

Unga ko'ra fermer xo'jaliklarida mehnat sarfi (lnLABOR) o'rtacha bir foizga ortsa, fermer xo'jaliklari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (lnYIELD) o'rtacha 0,10 foizga, mineral o'g'itlardan foydalanish hajmi (lnMIN_FERT) o'rtacha bir foizga ortsa, fermer xo'jaliklari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (lnYIELD) o'rtacha 0,10 foizga, pestitsidlardan foydalanish (LN_PESTICIDE) o'rtacha bir foizga ortsa, (lnYIELD) o'rtacha 0,07 foizga, o'rtacha xarajat (LN_COST)ni bir foizga ortsa, (lnYIELD) o'rtacha 0,06 foizga hamda organik o'g'it sarfi 1% ga oshsa (lnYIELD) o'rtacha 0,03 foizga ortar ekan. Harorat (TEMP) o'rtacha 1C⁰ ga oshsa, hosildorlik (lnYIELD) 0.40% ga oshadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bog'dorchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy e'tibor mehnat resurslarining unumdorligini oshirishga va tabiiy-iqlim sharoitlaridan maksimal darajada foydalanish hamda pestitsidlar va umumiy xarajatlarning samaradorligini oshirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Akbarov Husan O'zbekxonovich. Bog'dorchilik sohasini rivojlantirishda texnologiya va ishlanmalarni qo'llashning chet el tajribasi. «O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalalari: Muammo va yechimlar» mavzusidagi 1-son konferensiya materiallari. Chirchiq.2020 y.
2. TRANSFORMING THE WORLD THROUGH FOOD AND AGRICULTURE. FAO and the 2030 Agenda for Sustainable Development. <http://www.fao.org/3/ca5299en/ca5299en.pdf>
3. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг расмий сайти. Новости ООН. Глобальный взгляд Человеческие судьбы. Генеральный секретарь ООН призвал к глобальному единству в борьбе с голодом. <https://news.un.org/ru/story/2025/10/1466620>
4. Rutledge, Z. et al. Farm labor supply and fruit and vegetable production (California). (2022). <https://www.ncaonline.org/wp-content/uploads/2022/08/American-J-Agri-Economics-2022-Rutledge-Farm-labor-supply-and-fruit-and-vegetable-production-1-1.pdf>
5. Iraizoz B, M Rapun and I Zabaleta (2003). "Assessing the Technical Efficiency of Horticultural Production in Navarra, Spain." Agricultural Systems 78(3): 387-403.
6. Zvi Griliches and Jacques Mairesse (1998): Econometrics and Economic theory in the 20 th century. Cambridge, pp 169-203.
7. Petrick, M., & Kloss, M. (2018). Identifying Factor Productivity from Micro-data: The case of EU agriculture. Discussion paper, No.171

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE BUSINESS ACTIVITIES

Askarova Nargiza Ilkhomkhodzhaevna

Doctor of Philosophy in Economics(PhD), Karshi State Technical University,
Department of Information Technologies and Systems

Abstract. The article presents an analysis of modern methodological approaches to the best international practices in the development of small business and private entrepreneurship.

Keywords: small business, private entrepreneurship, econometrics, empirical model, cluster analysis, econometric research.

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBASI

Asqarova Nargiza Ilhomxo'jayevna

i.f.f.d, PhD, Qarshi davlat texnika universiteti,
Axborot texnologiyalari va tizimlari kafedrası
E-mail: ilhomxujayevna1991@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ilg'or xorij tajribasini zamonaviy uslubiy yondashuvlari tahlili yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ekonometriya, empirik model, klasterli tahlil, ekonometrik tadqiqot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N12>

Kirish. Jahon hamjamiyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasida har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy resurs ta'minoti, rivojlanish salohiyati ko'lamidan kelib chiqib yondashuv mezonlari belgilanadi. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan, umuman olganda, rivojlanish tizimidagi ixtiyoriy mamlakatlar iqtisodiyoti tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ziga xos roli mavjud bo'lib u iqtisodiyotning muhim qismiga aylanib ulgurgan. Shu boisdan xalqaro ekspertlar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining samaradorlik rivoji, rivojlanish yo'nalishlari, barqarorlik tamoyillari, rivojlantirish usullari ma'lum davlatlarda erishilgan yutuqlar, ilg'or jahon tajribasi keng o'rganiladigan tadqiqot obyekti sifatida baholanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishning ilg'or xorij tajribasi ijtimoiy-iqtisodiy konturiga ko'ra bir-biridan farq qilsa-da, ma'lum globallashuv jarayonlari ta'sirida umumiy xususiyatlarga ham ega jihatlar uchrashi mumkin. Jahon tajribasini tadqiq etish, mamlakatimiz ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jabhalarida ulardan foydalanish, bu bo'yicha kerakli

samaradorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni innovatsiyalashuv sharoitida eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, faoliyatini tartibga solish mexanizmlari davlat tomonidan rag'batlantirish ta'siri asosida takomillashib boradi. Bu borada davlat boshqaruvining, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish islohotlarining bosh omil sifatida qaralishi mantiqan o'rinlidir. Katta tavakkalchilikka asoslanish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining huquqiy, moliyaviy kafolatlanishini talab etadi. So'nggi yillarda rivojlangan davlatlarda ekologik xavfsizlik, tabiiy ofatlardagi talafotlar bilan bog'liq sug'urtalash tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. G'arbiy Avstraliya Makkuori universiteti ekologik moliyalashtirish markazi tadqiqotchisi N.Sadegining ekologik xavflarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlarida davlat tomonidan sug'urta tizimini optimallashtirish zarurligi ta'kidlanadi[1]. Bu zaruriyat faoliyatning subyektiv tomonini ifoda etib, umumiy rag'batlantirishning bir ko'rinishini tashkil etadi. Umumiy holda jahon tajribasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish mexanizmi ikki asosiy yo'nalishning birikuvidan hosil qilinadi. Bu yerda faoliyat maydonini zaruriy shart-sharoitlar asosida shakllantirish hamda faoliyatni o'z-o'zini rivojlantirish motivatsion bosqichga o'tishini ta'minlovchi rag'batlantirish tizimi farqlanadi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasida bu ikki o'zaro bog'liq xususiy yo'nalishlar mohiyati turlichalik kasb etadi. Jumladan, AQShda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning birinchi yo'nalishi rivojlantirishning asosiy manbasi hisoblansa, Yevropada, xususan, Buyuk Britaniyada ikkinchi yo'nalish omillarining istiqbolli darajasi yuqori baholanadi.

Muhokama. Mamlakatimizda, shuningdek, rivojlanish jarayoni izchillik bilan kechayotgan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning mazkur yo'nalishlarini bir-biridan ajratgan holda tadqiq etish mumkin emas. Bu holat ikki yo'nalishning muvozanat holati sifatida baholanadi. Xalqaro biznes markazi hisobotida mamlakatlarning tadbirkorlikni rivojlantirish konsepsiyasida ayni shu yo'nalishlarning ahamiyat darajasiga ko'ra dunyo mamlakatlarini to'rt guruhga ajratadi[2]. Birinchi guruhda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish shart-sharoitlariga eng ko'p moliyaviy jamg'armalar tashkil etilgan mamlakatlar (Finlandiya, Portugaliya, Tailand va boshqa), ikkinchi guruhda sharoitlarni kengaytirishga ichki salohiyat asosida to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish manbalarini shakllantiruvchi mamlakatlar (AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa.), uchinchi guruhda davlat rag'batlantirishi ichki salohiyat manbalari va subyektlarning o'z moliyaviy manbalariga asoslanuvchi mamlakatlar (Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Fransiya va boshq.), to'rtinchi guruhda davlat rag'batlantirishi ichki va tashqi salohiyat manbalariga asoslangan mamlakatlar (Arab mamlakatlari, Misr, Hindiston va boshqa.) kiritiladi.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, so'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatida yashovchanlik va samaradorlik xususiyatlari tasodifiy omillar ta'sirida qolmoqda. Iqtisodchi olim K.Djohnstonning farmasanoatda kichik biznesning tasodifiy omillar ta'sirida barqarorlik modeli mohiyatan yuqoridagi holatda innovatsion rivojlanish zaruriyatining yana bir ifodasini anglatadi[3]. Tadqiqotchining fikricha, ilmiy yo'nalishlar bilan to'liq integratsiyalashgan, innovatsion rivojlanish muhitini shakllantirgan har qanday tadbirkorlik yoki tadbirkorlik jamiyatining faoliyati turli tasodifiylklarga qarshi kuchli immunitet hosil qiladi va tasodif

omillarining kuchli ta'sir darajasida bo'lmaydi. Mazkur rivojlanish yo'nalishi Estoniya, Yangi Zelandiya, Singapur kabi mamlakatlar iqtisodiy salohiyatini ko'tarishda katta xizmat qilmoqda.

Jahon tajribasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hududiy rivojlantirishda hududning investorlarni jalb etish darajasi, ya'ni investitsion jozibadorlik omili katta ahamiyatga ega. Italiyalik tadqiqotchi A.Krochening tadqiqotlarida tadbirkorlikni, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya jozibadorligi omilining ahamiyati juda yuqori ekanligini ilmiy asoslash bilan birga, juda muhim jihatga e'tibor qaratadi[4]. Unda hududning tadbirkorlik faoliyatini samarali amalga oshirish hudud infratuzilmasiga kuchli bog'langan bo'lsa-da, hozirgi vaqtda eng yuqori ta'sir hududning iqtisodiy erkinlik darajasi bilan bog'liqdir.

Haqiqatan ham, jahon mamlakatlari iqtisodiy erkinlik reytingi va tadbirkorlik, xususan, kichik biznesni yuritish samaradorlik indeksi bo'yicha reytingiga e'tibor berilsa, quyidagi ma'lumotlarni kuzatish mumkin:

1-jadval.

Jahon reytingida mamlakatlarning iqtisodiy erkinlik va biznesni yuritish samaradorlik darajalari

Mamlakatlar	Iqtisodiy erkinlik darajasi reytingida (ball)	O'rin	Biznesni yuritish samaradorlik reytingida (ball)	O'rin
Singapur	84,4	1	89,3	1
Shveysariya	84,2	2	84,3	2
Irlandiya	82,0	3	83,7	3
Latviya	74,8	18	77,5	20
Gruziya	71,8	26	72,9	29
Malayziya	68,1	42	71,0	48
Albaniya	66,6	50	65,3	62
Kolumbiya	65,1	60	62,7	75
Argentina	50,1	144	48,8	152

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, mamlakatlar iqtisodiy erkinlik darajasi bilan tadbirkorlik faoliyati o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud bo'lib, bu ko'pgina omillarning ta'sir darajasini o'zgartira oladigan kuchga ega bo'lmoqda. Jumladan, Yangi Zelandiya iqtisodiy erkinlik ko'rsatkichi bo'yicha hozirgi vaqtda dunyo reytingida 4-o'rinda bo'lib, mamlakatda tadbirkorlikning rivojlanish darajasi bo'yicha Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 2-o'rinni egallab turibdi[5]. Mamlakatning mazkur ijobiy darajasiga monopoliyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarining katta ta'siri mavjudligini ta'kidlash o'rinlidir.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojida monopolik xususiyatining holati e'tiborga molik omildir. G'arb mamlakatlari, aksariyat Yevropa davlatlarida antimonopol g'oyalar ilg'or hisoblanib, qonunchilikda bunga alohida e'tibor qaratilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojida antimonopol qonunchilikning yo'lga qo'yilganligi tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimidagi asosiy islohotlar qatoriga kiritiladi. Kichik biznesda monopoliyaga qarshi choralarning, islohotlarning ta'siri Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Germaniya, Xorvatiya, Yaponiya kabi mamlakatlar tajribasida keng o'rganiladi.

Natija. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirishda ilg'or xorij tajribasi bo'yicha manbalar tadqiq etilganda soliq tizimining faoliyati katta ahamiyatga ega ekanligini

kuzatishimiz mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda soliq stavkalari nisbatan yuqori, rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq imtiyozlarining qo'llanilish holatlari ko'p uchraydi. Jumladan, kichik korxonalarga Yevropaning aksar rivojlangan davlatlarida soliq stavkasi 20-25 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich boshqa turdagi (shu jumladan yirik) korxonalar uchun 33 foiz sifatida belgilangan. AQSh va Kanadada yirik va kichik korxonalar soliq stavkasi o'rtasidagi farq 20 foizni tashkil etadi. Umuman olganda, ilg'or xorij tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mavjud soliq stavkalarining pasayishi ijobiy xarakterda baholanadi.

So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zaruriyati Janubiy Koreya, Nederlandiya, Islandiya, Italiya tajribasida tadqiq etilishi ko'p kuzatilmoqda. Jahonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish manbalari turli mamlakatlarda turlicha amaliyotga ega. Janubiy Koreyada moliyalashtirish manbalari ichida eng yuqori ulushni Biznesni rivojlantirish fondi mablag'lari tashkil etadi. Bilvosita fond miqdori xalqaro tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar asosida shakllantiriladi. Umuman olganda, aksariyat davlatlar amaliyotida moliyalashtirish manbalari ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish bilan asosan davlat sherikchilik nazorati ostida shakllantiriladi. Rivojlangan davlatlarda moliyalashtirish manbalarini tadqiq etish institutlari savdo-sanoat palatasi tarkibida faoliyat yuritadi. Bu faoliyatning asosiy mexanizmi monitoring, nazorat, rag'batlantirish, innovatsiyalarni joriy etish, modernizatsiyalash elementlarining umumlashgan tizimini hosil qiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish manbalari ichida tijorat banklarining roli ortib bormoqda. Bu ahamiyatlilikning ikki asosiy jihati mavjud. Birinchidan, kichik biznes loyihalarini amalga oshirish to'liq bank kreditlari asosida moliyalashtirilmoqda (Asosan Yevropa mamlakatlarida). Ikkinchi jihatdan, kreditlash tizimida imtiyozlarning qo'llanilishidir. Imtiyozlar quyidagilarni qamrab oladi. Birinchidan, kredit foizlarining pastligi, to'lov muddatining uzaytirilgan shakli, ikkinchidan, kichik korxonalarning to'lov qobiliyatini oshirish tizimini alohida moliyalashtirish tizimining joriy etilishidir. Bu tizim Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi Yevropa mamlakatlarida, AQShda, Yaqin Sharq mamlakatlarida, Xitoyda, Janubiy Koreyada, ayniqsa Yaponiyada muvaffaqiyatli ishlaydi. MDH davlatlarida tijorat banklarining rolini oshirish chora-tadbirlari joriy etilish holatida.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning yana bir asosiy omili kichik korxonalar tomonidan davlat buyurtmalarini bajarish hajmining ortishi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha jahonda Yaponiya tajribasini o'rganish yetakchilik qiladi. Boshqa davlatlarga nisbatan Yaponiyada davlat buyurtmalarini bajarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ishtirokini kuchaytirish maqsadida ularga bir qator imtiyozlar yaratilganligidir. Jumladan, resurslardan foydalanishda soliq tizimida pasaytirilgan stavkalarni joriy etilishi kabilarni kiritish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, bu jarayonning innovatsiyalashuvini ta'minlashda mutaxassis kadrlarni yetishtirish alohida e'tibor qaratiladigan jihatdir. Jahon mamlakatlarida biznesni yuritish, boshqarish, ishlab chiqarish, samarador faoliyatni loyihalash, rejalashtirish bevosita unda ishtirok etuvchi mutaxassislarning malakasiga, salohiyatiga bog'liqligi e'tirof etiladi. Mazkur bo'yicha yaxshi tajriba Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Tayvan kabi Osiyo davlatlarida, Buyuk Britaniya,

Daniya, Niderlandiya, Italiya, Fransiya, Germaniya kabi Yevropa mamlakatlarida, AQSh va Kanadada to'plangan.

Shuningdek, biznes psixologiyasi bugungi kunda eng ommalashayotgan tushunchalardan biridir. Biznes yuritish qobiliyatini shakllantirish, mamlakat aholisining tadbirkorlik faoliyatiga rag'batini oshirishda psixologik qarashlarning ahamiyati to'g'risida iqtisodchi olim K.Lopattaning qarashlari e'tiborga molikdir. Tadqiqotchi oilaviy biznesning rivoji va uning global bozor talablariga moslashuvchanlik xususiyatini kuchaytirish omillarini tadqiq etish fonida biznes psixologiyasining asosiy roli mavjudligini ilmiy asoslab beradi.


Davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini axborot, texnik, texnologik resurslar ta'minotini ta'minlash tizimining muvaffaqiyati faoliyat rivojida asosiy omil sifatida jahon ekspertlari tomonidan ta'kidlanmoqda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini innovatsiyalash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish yo'nalishini tanlash asosiy muhimlikka ega bo'lib turibdi.

So'nggi yillarda jahon mamlakatlarida iqtisodiyotni tarkibiy o'zgarishlar asosida rivojlantirish jarayoni jadallik bilan kechmoqda. Bunda asosan, tadbirkorlik faoliyatining roli katta bo'lmoqda. Iqtisodiyot sektorlari bo'yicha tarmoqlangan faoliyat aynan tadbirkorlik faoliyati bo'lib, bu xususiyat iqtisodiyotni tarkibiy o'zgarishlar asosida rivojlantirish jarayoni bevosita kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga bog'liq bo'lib qolishini ta'minlamoqda.

Keyingi yillarda rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning innovatsion yo'nalishiga e'tibor kuchaymoqda. Jumladan, bu yo'nalishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ham rivojlantirish samaradorligi, ustuvor jihatlari milliy va xorijiy nashrlarda keltirib o'tilyapti. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish samaradorligi bir necha iqtisodiy jarayonda, xususan, kichik biznes olamida rivoj topayotgan Venchur biznesi innovatsion faoliyatga asoslangan biznes turi sifatida muhim xususiyatlar ayni shu tur fonida keltiriladi.

Bu yerda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar, investitsiya manbalari innovatsion fond, tavakkalchilik investorlari kabi elementlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati tizimini tashkil etadi (1-rasm).

Ushbu tizimda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbasi an'naviy faoliyatni moliyalashtirish tizimidan farq qiladi. Shuningdek, innovatsion ishlab chiqarish umumiy ishlab chiqarishning mustaqil funkcionallashgan bir qismi hisoblanadi. Umumiy holda tavakkalchilik investitsiyalarining qoplanishi innovatsion ishlab chiqarish hajmi, sotilgan mahsulot hajmi hamda soliq tizimida mavjud imtiyozlarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Xarajatlar taqsimotini o'zgarmas deb olib, yana boshqa omillarni ko'rib chiqamiz. Agar sotish jarayonida ustunlik mavjud bo'lsa, tarmoqlanishga ko'ra uning natijasi umumiy kapitalda aks etmaydi, balki to'g'ridan to'g'ri tashqi investorga yo'naltiriladi. Bu innovatsion ishlab chiqarishning yutuqli tomonini aks ettira oladi.



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda innovatsion faoliyat tizimida investitsiya aylanish sxemasi

Shuningdek, bu yerda ishlab chiqarish va sotish xarajatlari katta ahamiyatga ega. Tizimni modernizatsiyalash ishlab chiqarish xarajatlari hisobidan qoplanishini nazarda tutilsa, innovatsiyalashuvning o'zi yangilanishdir. U holda faqat sotish xarajatlarini kamaytirish imkoniyati saqlanib qoladi. Demak, innovatsion muhitda birlamchi yo'nalish sotish xarajatlarini kamaytirish yoki bir qismini ishlab chiqarish xarajatlariga kiritish, soliq tizimida imtiyozlarga ega bo'lish omillari saqlanib qolishi mumkin.

Xulosa. Ilg'or xorij tajribasiga tayanib, yuqoridagilardan kelib chiqib O'zbekistonda, jumladan, mamlakat ma'muriy hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi:

1. Antimonopol qonunchilikning ta'sirini kuchaytirish. Bunda hukumat tomonidan joriy etilgan antimonopol qonunchilik ustuvorligini ta'minlash, monopoliyaga qarshi kurash tashkilotlari faoliyatini kuchaytirish va vakolatlarini oshirish, chora-tadbirlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari huquqlarini kafolatlash, xalq, iste'molchi manfaatlarini birlamchi hisoblash muhitini yaratishga erishish zarur.
2. Mamlakatda iqtisodiy erkinlik darajasini oshirish. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan istalgan ishlab chiqarish va realizatsiyalash harakatlariga cheklov qo'ymaslik zarur. Mulkiy daxlsizlik tamoyillarini joriy etish asosida iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarining o'sishini ta'minlash kerak.
3. Iqtisodiyot tarmoqlarida ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, texnologik, axborotlashuv jarayonlarining ilmiylik mazmunini oshirish. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ilm-fan yo'nalishlari bilan integratsiyasini chuqurlashtirish, rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslangan loyihalar, dasturlar, tadqiqotlar asosida shakllantirish zarur.

4. Soliq tizimini takomillashtirish. Bunda soliq qonunchiligining optimal variantini tanlash va qonunchilikda tezkor o'zgartirishlarga barham berish. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarida ko'p va tezkor o'zgartirishlar kiritilishining oldini olish zarur.
5. Moliyalashtirish tizimini optimallashtirish. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish tizimida tijorat banklari ahamiyati va ulushini oshirish. ikki yo'nalishli imtiyozli kreditlash tizimini joriy etish kerak. Birinchi yo'nalishda kredit foiz stavkalarini pasaytirish va muddatini uzaytirish, ikkinchi yo'nalishda subyektlarning to'lov qobiliyatini oshirish manbalari hisoblangan subyektlar faoliyatini kreditlashda imtiyozlar ajratish.
6. Davlat buyurtmalarini bajarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ishtirokini oshirish. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga alohida imtiyozlar berish mexanizmini qo'llash zarur.
7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jarayoniga malakali, bilimli mutaxassislarni jalb etish. jarayon bevosita mutaxassislarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish asosida faollashadi. Shuningdek, oliy o'quv tizimida biznesni rivojlantirish, boshqarish kabi yo'nalishlarni maqsadli tashkil etish.
8. Mamlakatda biznes psixologiyasining rolini oshirish. Aholi va keng jamoatchilik, mutaxassislarni o'rtasida biznes faoliyati, ahamiyati, rivoji, istiqboli to'g'risida keng formatli axborotlarni targ'ib etish.
9. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning innovatsion yo'nalishiga o'tish. Innovatsion omillarni tizimlashtirish, ularning ta'sirini baholash usullarini takomillashtirish, innovatsion ishlab chiqarishni joriy etish. Innovatsion texnologiyalar, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish.
10. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayonini iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar samaradorligini oshirishning asosiy mexanizmi darajasiga olib chiqish.

Mazkur yo'nalishlarni ilg'or xorij tajribasiga tayanib aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida baholash mumkin. Yurtimizda ta'kidlangan yo'nalishlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, jug'rofiy, moddiy va ma'naviy asoslari mavjud bo'lib, ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini amaliyotda me'yorlar asosida joriy etish zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. N. Sadeghi. Continuity of small businesses when facing increased flood risk due to global climate change impacts: A systematic literature review. International Journal of Disaster Risk Reduction 82 (2022) 103316 / <https://doi.org/10.1016/j.ijdrr.2022.103316>
2. K. Johnston et al. The "affected" pharmacist and the "business as usual" pharmacist: Exploring the experiences of pharmacists during COVID-19 through cluster analysis. Journal of the American Pharmacists Association. (2022) 1e7 / <https://doi.org/10.1016/j.japh.2022.09.012>
3. A. Croce et al. Internationalization of business angel investments: The role of investor experience. International Business Review 32 (2013) 102033 / <https://doi.org/10.1016/j.ibusrev.2022.102033>

4. K.Lopatta et al. The current state of corporate human rights disclosure of the global top 500 business enterprises: Measurement and determinants. Critical Perspectives on Accounting. – 2017
5. N.I.Asqarova. Qashqadaryo viloyatida xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishni ekonometrik tahlili. Monografiya. Qarshi 2024

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

MODERN TRENDS AND PROBLEMS OF DIGITALIZATION OF LOCAL GOVERNMENT BODIES

Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li

Head of the Kashkadarya Regional Inspectorate
of the information and telecommunications Supervision Inspectorate
under the Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan
E-mail: zafargis@umail.uz

Abstract. This article examines the relevance, modern trends, and challenges of digitalizing local government bodies. Digital transformation is viewed as a key factor in making public administration more efficient, transparent, and citizen-oriented. The study discusses the improvement of e-government systems, the integration of information technologies into local governance processes, ensuring data security, and enhancing the professional capacity of civil servants.

Keywords: digitalization, local governance, e-government, information technologies, public services, innovative management, openness and transparency, artificial intelligence.

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA MUAMMOLARI

Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi
Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi
Qashqadaryo viloyat hududiy shu'basi boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu maqola mahalliy davlat hokimiyati organlarini raqamlashtirishning dolzarbligi, zamonaviy tendensiyalari va bugungi kundagi mavjud muammolarini o'rganadi. Raqamli transformatsiya davlat boshqaruvini yanada samarali, shaffof va fuqarolarga davlat xizmatlarini oson va samarali qilishning asosiy omili sifatida qaralmoqda. Ushbu tadqiqotda elektron hukumat tizimlarini takomillashtirish, axborot texnologiyalarini mahalliy boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, davlat xizmatchilarining kasbiy salohiyatini oshirish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, mahalliy boshqaruv, elektron hukumat, axborot texnologiyalari, davlat xizmatlari, innovatsion boshqaruv, ochiqlik va shaffoflik, sun'iy intellekt.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N13>

Mavzuning dolzarbligi. So'nggi yillarda mahalliy davlat hokimiyati organlarini raqamlashtirish davlat sektorini isloh qilish va modernizatsiya qilishning asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi davlat xizmatlarini ko'rsatish va mahalliy hokimiyat organlarining fuqarolar, korxonalar va boshqa muassasalar bilan o'zaro munosabatlarini o'zgartirdi. Raqamli transformatsiya ma'muriy samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta'minlash va davlat organlariga jamoatchilik ishonchini kuchaytirishga yordam beradi.

Mahalliy hukumatlar raqamli tashabbuslarni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki ular fuqarolarga eng yaqin ma'muriy darajadir va jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun bevosita javobgardir. Elektron hukumat platformalari, raqamli ma'lumotlar bazalari va avtomatlashtirilgan xizmat ko'rsatish tizimlarini joriy etish orqali mahalliy ma'muriyatlar xizmat ko'rsatish sifatini oshirishi, ma'muriy xarajatlarni kamaytirishi va qarorlar qabul qilish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini rag'batlantirishi mumkin.

Biroq, sezilarli yutuqlarga qaramay, mahalliy davlat hokimiyati organlarini raqamlashtirish bilan bog'liq bir qator doimiy muammolarga duch kelmoqda. Bunga texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, malakali IT-mutaxassislarning yetishmasligi, davlat xizmatchilari va fuqarolarning raqamli savodxonligining yetarli emasligi kiradi. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik tahdidlari va ma'lumotlarni himoya qilish muammolari raqamli boshqaruvning ishonchligi va barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirishda davom etmoqda.

Shu bois mahalliy davlat hokimiyati organlarini raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyalari va muammolarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu omillarni tushunish siyosatchilar va amaliyotchilarga barqaror raqamli transformatsiya uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa texnologik taraqqiyot yanada inklyuziv, shaffof va sezgir mahalliy boshqaruvga olib kelishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mahalliy davlat hokimiyati organlarini raqamlashtirish zamonaviy davlat boshqaruvining asosiy mavzusiga aylandi, bu ma'lumotlarga asoslangan, shaffof va fuqarolarga yo'naltirilgan boshqaruvga global siljishni aks ettiradi. Mergel, Edelmann va Haug (2019) fikricha, raqamli boshqaruv nafaqat yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, balki ma'muriy madaniyat, qarorlar qabul qilish va xizmatlar ko'rsatish modellarini chuqur o'zgartirishdir. [1]

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan davlat operatsiyalari va fuqarolarning faolligini oshirish uchun AKTdan foydalanish sifatida belgilangan elektron hukumat konsepsiyasi davlat sektorini raqamlashtirishning asosi bo'lib qolmoqda. Bannister va Connolly elektron hukumatni muvaffaqiyatli joriy etish nafaqat texnologik tayyorgarlikka, balki institutsional islohotlarga, qonunchilik bazasiga va davlat xizmatchilarining raqamli kompetensiyasiga ham bog'liqligini ta'kidlaydi.

Mahalliy hokimiyat organlari bu jarayonda ayniqsa ahamiyatlidir, chunki ular fuqarolar bilan bevosita muloqot qiladilar va asosiy davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun mas'uldirlar. Meijer va Bolivar mahalliy ma'muriyatlar milliy raqamli siyosatni aniq, jamiyat darajasidagi tashabbuslarga aylantirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Biroq, Gil-Garsiya va Pardo ta'kidlaganidek, ko'pgina mahalliy hokimiyat organlari hali ham moliyaviy resurslarning yetarli emasligi, parchalangan axborot tizimlari va markaziy va mintaqaviy organlar o'rtasidagi muvofiqlashtirishning yo'qligi kabi cheklovlariga duch kelishmoqda.

Global miqyosda raqamli infratuzilmaga kirish notekisligicha qolmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 2,6 milliard odam hali ham Internetga kirish imkoniga ega emas va 850 millionga yaqin odamda raqamli davlat xizmatlaridan foydalanishning asosiy komponentlari bo'lgan rasmiy identifikatsiyaning har qanday shakli yo'q. Ushbu raqamli tafovut kuchliroq ulanish, identifikatsiya tizimlari va inklyuziv raqamli siyosatlar zarurligini ta'kidlaydi.[2]

O'zbekistonda raqamli davlat boshqaruvi konsepsiyasi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida faol amalga oshirilmoqda. Prezidentning PQ-6079 (2020) qaroriga muvofiq, barcha mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga elektron hukumat tizimini rivojlantirish, ochiq ma'lumotlar platformalarini kengaytirish, davlat xizmatlarini onlayn formatga o'tkazish vazifasi yuklangan. [3]

A.Rasulov va D.Rahimova kabi o'zbek olimlari O'zbekistonda raqamli boshqaruvning asosiy muammolarini axborot xavfsizligi muammolari, malakali kadrlar yetishmasligi, hududlar bo'yicha notekis internet infratuzilmasi va fuqarolarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi sifatida belgilaydi. Shuningdek, ular mahalliy davlat hokimiyati organlarida sun'iy intellektga asoslangan ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlarini joriy etish ma'muriy jarayonlarning samaradorligi va shaffofligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligini ta'kidladilar.

Xalqaro tadqiqotchilarning fikricha, raqamli hukumatni shakllantirish nafaqat texnologiyalarni joriy etish, balki boshqaruv madaniyati va siyosiy jarayonlarda chuqur o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Mergel, Edelmann and Haug raqamli hukumatni "boshqaruvning yangi paradigmasi" sifatida belgilaydi, bu orqali davlat institutlari fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarida shaffoflik va ishonchni kuchaytiradi. Xuddi shunday, Dunleavy va boshqa olimlar "Raqamli davr boshqaruvi" konsepsiyasida avtomatlashtirish, ma'lumotlar integratsiyasi va fuqarolarga yo'naltirilgan boshqaruv yondashuvlari zamonaviy davlat boshqaruvi tizimlarining asosini tashkil etishini ta'kidlaydi. [4]

Jahon va o'zbek ilmiy adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya davlat boshqaruvini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning asosiy omili hisoblanadi. Biroq, bu jarayon ko'pincha texnik, tashkiliy va ijtimoiy cheklovlar bilan murakkablashadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, inson resurslari salohiyatini oshirish va aholi o'rtasida raqamli savodxonlikni kengaytirish kiradi.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga ko'ra davlat xizmatlarining 60 foizdan ortig'i elektron shaklda ko'rsatildi — 2020-yilga nisbatan qariyb ikki barobar ko'p. Shuningdek, mahalliy hokimliklar (hokimliklar)ning 85 foizi o'z faoliyatiga elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilgan. [5]

O'zbekistonning xalqaro reytingdagi o'rni ham yaxshilandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Elektron hukumatni rivojlantirish indeksida (EGDI) mamlakat 2022-yilda 69-o'rinni egallagan bo'lsa, 2024-yilga kelib 63-o'rinni egalladi. [6]

Bundan tashqari, OECD ning Government at a Glance 2025 hisobotida quyidagilar ko'rsatilgan:

OECD mamlakatlari bo'yicha Digital Government Index (DGI) o'rtacha balli 0,61 ni tashkil etadi. Bu indeks "digital by design" ("raqamli dizayn" ya'ni siyosat va xizmatlarni digital tamoyil bilan tashkil etish) bo'yicha eng yuqori o'rta ballga ega – ya'ni 0,68 ni. "Open by default" ("sukut bo'yicha ochiq" – ma'lumotlar, xizmatlar, jarayonlar ochiq bo'lish tamoyili) bo'yicha o'rtacha qiymat 0,53 ni, "Proactiveness" (foydalanuvchining ehtiyojini oldindan tanib xizmat ko'rsatish tamoyili) bo'yicha o'rtacha qiymat 0,57 ni tashkil etadi.[7]

Milliy miqyosda 2020-yilda O'zbekistonning 203 ta tuman va shaharlarida o'tkazilgan baholashda raqamlashtirishning turli darajalari aniqlandi: mahalliy hokimiyat organlarining

14 foizi “yaxshi” natijalarga erishgan, 29 foizi “qoniqarli”, 57 foizi esa “qoniqarsiz” deb baholangan. [8]

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarining raqamlashtirilishi davlat boshqaruvini yanada samarali, shaffof va fuqarolarga yo'naltirilgan tizimga aylantirish yo'lidagi hal qiluvchi qadamdir. Biroq, jarayon axborot xavfsizligi xavflari, malakali raqamli mutaxassislarining etishmasligi, mintaqaviy internet infratuzilmasining teng bo'lmaganligi va aholi o'rtasida raqamli savodxonlik darajasining pastligi kabi bir qator muammolarga duch kelishda davom etmoqda.

Xulosa. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining raqamli transformatsiyasi yanada innovatsion, sezgir va shaffof boshqaruv tizimini shakllantirishning asosiy omiliga aylandi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar raqamlashtirish nafaqat texnologik modernizatsiya, balki hukumatning fuqarolar, biznes va jamiyatlar bilan o'zaro munosabatlarini qayta belgilovchi strategik evolyutsiya ekanligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda elektron davlat xizmatlari ko'rsatishni kengaytirish va ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Hozirda mahalliy hokimiyat organlarining aksariyati elektron hujjat tizimlari orqali faoliyat yuritadi va ko'plab davlat xizmatlaridan raqamli foydalanish imkonini beradi. Ushbu natijalar hukumatning zamonaviy raqamli vositalarni kundalik ma'muriy amaliyotga integratsiyalash bo'yicha o'sib borayotgan salohiyatini ta'kidlaydi.

Shunga qaramay, raqamli o'tish notekisligicha qolmoqda. Raqamli infratuzilmada mintaqaviy nomutanosiblikning saqlanib qolishi, axborot texnologiyalari sohasida professional tajribaning cheklanganligi, aholining raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi raqamli boshqaruv salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlikning ortib borayotgan ahamiyati doimiy institutsional hushyorlikni va siyosatga moslashishni talab qiladi.

Kelajakda O'zbekistonda mahalliy hokimiyat organlarini raqamlashtirish muvaffaqiyati texnologik taraqqiyotni inson taraqqiyoti, axloqiy boshqaruv va uzoq muddatli barqarorlik bilan bog'laydigan yanada inklyuziv raqamli ekotizim yaratilishiga bog'liq bo'ladi. Hukumat, ilmiy doiralar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish innovatsiyalarni yanada tezlashtirishi va raqamli transformatsiya ijtimoiy ishonch va samarali davlat boshqaruvining harakatlantiruvchi kuchiga aylanishini ta'minlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy davlat hokimiyati organlarida raqamlashtirishni ilgari surish kompleks yondashuvni – texnologik innovatsiyalarni inson kapitalini rivojlantirish, huquqiy modernizatsiya va jamiyatni qamrab olish bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Faqatgina bunday integratsiyalashgan strategiya orqali raqamli transformatsiya davlat sektori samaradorligi va fuqarolarning hukumatga ishonchini oshirishning haqiqiy tayanchiga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mergel, I., Edelman, N. va Haug, N. (2019). Raqamli transformatsiyani aniqlash: ekspert suhbatlari natijalari. Har chorakda hukumat axboroti <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3512055>
2. <https://www.worldbank.org/en/topic/digital/overview>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079 Farmoni <https://www.lex.uz/docs/5030957>
4. <https://journals.sagepub.com/doi/abs/10.1177/0894439307304515>
5. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi (2020, 2024). Raqamlashtirish bo'yicha tahlili. <https://stat.uz/uz/>
6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Elektron Hukumat Tadqiqoti (2022). Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data-Center>
7. OECD (2025). Hukumat bir qarashda 2025. OECD nashriyoti. https://www.oecd.org/en/publications/2025/06/government-at-a-glance-2025_70e14c6c/full-report/digital-government-index_1edec44e.html
8. O'zbekiston raqamli texnologiyalar vazirligi (2024). “Elektron hukumat” tizimini joriy etish bo'yicha yillik hisobot.

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES**Received:** 10 October 2025**Accepted:** 25 October 2025**Published:** 2 November 2025*Article / Original Paper***SOCIAL AND GNOSEOLOGICAL FOUNDATIONS OF OPTIMISM AND PESSIMISM****Abilov U'rol Murodovich**

Doctor of Philosophy, Professor,

Department of Social Sciences, Tashkent Medical Academy

Abstract. This article analyzes the philosophical, gnoseological (epistemological), and social foundations of optimism and pessimism. Optimistic and pessimistic worldviews are considered fundamental categories that determine the individual's attitude towards the external world. From a philosophical standpoint, Gottfried Wilhelm Leibniz's optimistic view of this world as the "best of all possible worlds" is contrasted with Arthur Schopenhauer's pessimistic philosophy, which describes the world as built on eternal suffering and "will". Psychologically, the article analyzes Charles Carver and Michael Scheier's concept of dispositional optimism and Martin Seligman's explanatory style theory (where the optimist attributes negative events to external, unstable causes, and the pessimist attributes them to internal, stable causes). Based on a dialectical-materialistic approach, this research highlights the role of social factors such as national consciousness, culture, lifestyle, and the urbanization process in shaping social and individual optimism in the context of Uzbekistan.

Keywords: optimism, pessimism, gnoseology (epistemology), social foundations, worldview, explanatory style, dispositional optimism, national consciousness, culture, urbanization.

OPTIMIZM-PESSIMIZMNING IJTIMOY VA GNOSEOLOGIK ASOSLARI**Abilov O'rol Murodovich**

Falsafa fanlari doktori, professor,

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrası

Annotatsiya. Ushbu maqolada optimizm va pessimizmning falsafiy, gnoseologik va ijtimoiy asoslari tahlil qilinadi. Optimistik va pessimistik dunyoqarashlar insonning tashqi olamga bo'lgan munosabatini belgilovchi fundamental kategoriyalar sifatida ko'rib chiqiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, Gotfrid Vilgelm Leybnisning "barcha mumkin bo'lgan dunyolarning eng yaxshisi" haqidagi optimistik qarashlari Artur Shopengauerning dunyoni doimiy azob va "iroda" asosiga qurilgan deb ta'riflovchi pessimistik falsafasiga qarshi qo'yiladi. Psixologik jihatdan, maqolada Charlz Karver va Maykl Shayerning dispozitsion optimizm konsepsiyasi hamda Martin Seligmanning izohlovchi uslub (optimist salbiy hodisalarni tashqi, beqaror sabablarga bog'laydi, pessimist esa ichki, barqaror sabablarga) nazariyasi tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda dialektik-materialistik yondashuv asosida O'zbekiston sharoitida milliy ong, madaniyat, hayot tarzi va urbanizatsiya jarayoni kabi ijtimoiy omillarning ijtimoiy va individual optimizmni shakllantirishdagi o'rni ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: optimizm, pessimizm, gnoseologiya, ijtimoiy asoslar, dunyoqarash, izohlovchi uslub, dispozitsion optimizm, milliy ong, madaniyat, urbanizatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N14>

Kirish. Optimizm va pessimizm — bu insonning tashqi olamga munosabatini va uning hayotiy faoliyatini belgilab beruvchi, falsafa, psixologiya va sotsiologiya fanlari kesishmasida

turuvchi fundamental ijtimoiy va gnoseologik kategoriyalardir. Ular nafaqat shaxsning individual xususiyati, balki jamiyatning kollektiv ongi va ruhiy holatini ham aks ettiradi.

Zamonaviy jamiyatda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida shaxsning kelajakka bo'lgan ishonchi, muammolarni baholash usuli va hayotiy qiyinchiliklarga moslashish qobiliyati katta ahamiyat kasb etmoqda. Optimizmning ijobiy psixologik, ijtimoiy va hatto fizik salomatlikka ta'siri ko'plab tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Aksincha, pessimistik dunyoqarash qiyinchiliklarga duch kelganda tezroq taslim bo'lishga moyillikni, shuningdek, depressiya holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ushbu ikki tushunchaning ildizlarini, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va bilish (gnoseologik) mexanizmlarni tahlil qilish o'ta muhimdir.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — optimizm va pessimizmning falsafiy-gnoseologik asoslarini tahlil qilish, ularning shakllanishidagi ijtimoiy kontekstning, xususan, milliy ong, madaniyat va urbanizatsiya jarayonlarining rolini dialektik-materialistik yondashuv asosida ochib berishdan iborat.

Falsafiy jihatdan optimizm yaxshilikning yomonlikdan ustunligini asoslashga intilsa, pessimizm aksini ko'rsatadi. Bu kontrast Shopengauerning dunyoni azob-uqubatlar asosiga qurilgan deb hisoblovchi qarashlari[8. B. 89] va Leybnisning Ilohiyot (Teodise) nazariyasidagi dunyoni "eng yaxshisi" deb bilishida yaqqol namoyon bo'ladi[3. B. 267].

Psixologiyada optimizm va pessimizm, asosan, vaziyatni izohlash usuli sifatida talqin qilinadi, bu yerda Martin Seligmanning izohlovchi uslub nazariyasi (sabablarni ichki/tashqi, barqaror/beqaror, global/o'ziga xos deb izohlash) muhim o'rin tutadi[9. B. 143]. Ijtimoiy kontekstda esa optimizm va pessimizmning aniq mezonlari jamiyatdagi konsensus orqali belgilanadi.

Maqolada milliy psixologiya, milliy xarakter va milliy ongning madaniyat orqali hayot tarziga ta'sir etuvchi bog'lovchi bo'g'in sifatidagi o'rni ko'rsatiladi. O'zbekiston mustaqilligining umumiy axloqiy-etik muhitni yaxshilashdagi va ommaviy ongda optimistik yondashuvlarni mustahkamlashdagi roli alohida qayd etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Gnoseologik nuqtai nazardan, optimizm va pessimistik dunyoqarashlar insonning tashqi olamga bo'lgan munosabatini xarakterlaydigan hodisalar sifatida ta'riflanadi. Falsafiy jihatdan, optimizm har qanday sharoitda ham yaxshilik yomonlikdan ustun turishini asoslashga intilsa, pessimistik nazariya aksini ko'rsatadi. Psixologik jihatdan, optimizm va pessimistik yondashuvlar vaziyatni izohlash uslubi sifatida ham tushuniladi: optimist salbiy hodisalarni tashqi, beqaror va o'ziga xos sabablarga bog'laydi, pessimist esa ularni ichki, barqaror va global sabablarga bog'laydi. Pessimistlar qiyinchiliklarga duch kelganda tezroq taslim bo'lishga moyil bo'lib, depressiyadan aziyat chekishadi.

Ijtimoiy kontekstda, ba'zi tadqiqotlar shaxsiy bilish qobiliyatlariga nisbatan pessimistik bo'lgan holda, ijtimoiy institutlarning ta'siriga nisbatan optimistik yondashuvni birlashtiradi. Jamiyatdagi konsensus esa realizm, optimizm va pessimistik tushunchalarni belgilash uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Optimistik va pessimistik yondashuvlarning ijtimoiy va gnoseologik ildizlari falsafa, sotsiologiya va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida turadi. Optimistik va pessimistik dunyoqarashlar insonning tashqi olamga munosabatini xarakterlovchi asosiy gnoseologik kategoriyalar hisoblanadi.

Falsafiy qarashlar: Falsafiy nuqtai nazardan, optimizm va pessimistik nazariyalar "yaxshilik yomonlikdan ustun turadi" yoki aksincha, "yomonlik yaxshilikdan ustun turadi"

degan asosiy hukmlarni kritik tahlil qilishdan kelib chiqadi. Masalan, Arthur Schopenhauer pessimistik falsafaning yorqin vakili bo'lib, u dunyoni doimiy azob va maqsadga erishishning imkonsizligi bilan tavsiflangan "iroda" asosiga qurilgan deb biladi[8]. Aksincha, Gottfried Wilhelm Leibniz[3] kabi faylasuflar bu dunyoni "barcha mumkin bo'lgan dunyolarning eng yaxshisi" (Teodise nazariyasi) deb hisoblab, optimistik qarashlarga asos solgan. Bu falsafiy qarashlar optimizmning inson ongi va voqelikni bilish qobiliyatiga bo'lgan ishonch darajasini aks ettirishini ko'rsatadi.

Epistemologik optimistik: Ayrim zamonaviy epistemologik tadqiqotlar gnoseologik optimizm masalasini muhokama qiladi. Masalan, Michael McKenna[4. B. 32] tomonidan ilgari surilgan noideal so'rov epistemologiyasi individual bilish agentlariga nisbatan pessimistik bo'lgan holda, ijtimoiy institutlarning (masalan, hukumat yoki ommaviy axborot vositalari) bizning bilish hayotimizga ta'siriga nisbatan optimistik yondashuvni birlashtiradi. Bu ijtimoiy tuzilmalarning optimistik bilimga erishishdagi hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi.

Psixologik va ijtimoiy tadqiqotlar optimizm va pessimistik yondashuvlarni shaxsiy xususiyatlar, kognitiv mexanizmlar va ijtimoiy munosabatlar prizmasidan o'rganadi. Kognitiv mexanizmlar: Charles Carver va Michael Scheier[7] tomonidan ishlab chiqilgan dispozitsion optimizm kontseptsiyasi eng ko'p o'rganilgan yo'nalishdir. Unga ko'ra, optimizm kelajakka umumiy, global ijobiy natija kutish tendensiyasi sifatida qaraladi. Martin Seligman[6] esa optimizm va pessimistik yondashuvlarni izohlovchi uslublar orqali tushuntiradi. Uning fikricha, optimist salbiy hodisalarni tashqi, beqaror va o'ziga xos sabablarga bog'lasa, pessimist ularni ichki, barqaror va global sabablarga bog'laydi.

Ijtimoiy konseptsiyalar: Weber, Vollmann va Renner[10] optimizmning ijtimoiy tushunchalarini o'rganib, optimistik, pessimistik va realistik odamlarga nisbatan laypersonlar (oddiy odamlar) tomonidan berilgan prototipik harakatlarni (fikrlar, hislar, maqsadlar, harakatlar) tahlil qilganlar. Bu tadqiqot ijtimoiy hukmlarning jamiyatning ushbu tushunchalarga bo'lgan kollektiv nuqtai nazarini aks ettirishini ko'rsatadi.

Metodologiya. Ushbu maqolada optimizm-pessimizmning ijtimoiy va gnoseologik asoslari tahlili uchun dialektik-materialistik yondashuvdan foydalaniladi. Bu yondashuv orqali milliy ong, milliy psixologiya, madaniyat va hayot tarzi kabi ijtimoiy hodisalarning o'zaro ta'siri hamda ularning ijtimoiy va individual optimizmni shakllantirishdagi rolini o'rganishga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, O'zbekistondagi oilaviy munosabatlar va urbanizatsiya jarayoni kabi empirik misollar orqali nazariy tushunchalarning amaliy namoyon bo'lishi tahlil qilinadi.

Muhokama va natijalar. Hayot tarzi shaxsdan tashqarida mavjud emas, ammo uni shaxsning o'zi yaratmaydi. Xuddi shunday, milliy ong va milliy psixologiya individual darajada namoyon bo'ladi, ammo ular millat darajasida shakllanadi. Shu sababli, har bir millatning hayot tarzidagi o'ziga xos jihatlarni tushunish uchun milliy ong va psixologiyani hisobga olmasdan bo'lmaydi. Biroq, bu xususiyatlar millatning har bir vakilining alohida faoliyati yoki ularning oddiy yig'indisi emas, balki jamiyatning milliy omillari, milliy munosabatlar — ijtimoiy munosabatlar tizimining bir qismi — milliy ong va milliy psixologiyaga ta'sir ko'rsatadigan o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

Milliy psixologiya, milliy xarakter, milliy ong madaniyatga ishlab chiqarish usulining ta'sirini vositalagan holda, madaniyat orqali hayot tarziga ta'sir ko'rsatuvchi bog'lovchi bo'g'inlar sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, insonparvar hayot tarzining umumiy

xususiyatlari eng yaqqol mehnat faoliyatida, jamoat-siyosiy faollikda namoyon bo'ladi. Ammo uning o'ziga xos xususiyatlari esa eng aniq madaniyat sohasida namoyon bo'ladi.

Faqat insonparvar jamiyatda madaniyat faoliyati nafaqat individ, balki butun millatlar va xalqlar tomonidan, umuminsoniy faoliyatning umumiy miqdoriga egalik qilish jarayonida, madaniy subyekt sifatida o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish va o'zini-o'zi qayta ishlab chiqish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy-sinfy va milliy farqlarni bir-biriga tenglashtirish mumkin emas, chunki bu millatlar va milliy madaniyatlar birligini inkor etishga olib keladi.

Millatlararo munosabatlarga har qanday zo'ravonlik aralashuvi, milliy o'ziga xosliklarni yakkalashga urinish milliy madaniyatning umumiy mohiyatini va uning har bir milliy tarkibiy qismini buzadi. Bu, shuningdek, ularga xos bo'lgan tushunchalar to'ri va insonning dunyoga munosabatini anglash va ifodalash vositasi sifatida destruktiv pessimistik kayfiyatlarni kiritadi.

Insonparvar madaniyatning muhim xususiyati — barcha millat va xalqlarning yangi jamiyat yaratishga, milliy madaniyatlarning eng qadrli jihatlari va an'analarini ochishga qaratilgan ijodiy energiyasini namoyon etishidir. Bu jarayonda milliy madaniyatning ulug'vor xususiyatlari va insoniyat uchun foydali jihatlari yanada keng namoyon bo'ladi.

Madaniy o'ziga xoslik va uning ahamiyati.

Madaniy o'ziga xoslik tarixning asosiy harakatlantiruvchi prinsiplaridan biriga aylanishi kerak. Uziga xoslik — bu patriarxallik yoki o'zini oqlamaydigan izolyatsiya emas, balki doimiy yangilanuvchi, jonli va o'ziga xos sintezdir. Shuningdek, o'ziga xoslik inson, guruhlar va millatlarning insonparvar rivojlanish yo'lidagi har tomonlama taraqqiyotining hal qiluvchi shartlaridan biri sifatida ko'proq ahamiyat kasb eta boshladi. U shuningdek, yorug' insonparvar ideallarga asoslangan jamoaviy iroda shakllantirish va rag'batlantirish imkonini yaratadi. Bu iroda intellektual va emotsional resurslarni safarbar etib, ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish va konstruktiv moslashuv uchun qaratilgan faoliyatni kuchaytiradi.

Millatlar manfaatlarining umumiyliги butun xalqning sa'y-harakatlarini birlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu umumiy va milliy-o'ziga xos murakkab vazifalarni tezkor hal qilishga xizmat qiladi.

Milliy hayotda internatsionalizatsiya jarayoni.

Internatsionalizatsiya jarayoni milliy hayotning barcha elementlarini rivojlantirmaydi, balki unda eng zarur bo'lganini tanlab oladi. U milliy modellarni eng yaxshi internatsional yutuqlar bilan boyitadi, mavjud iqtisodiy va madaniy ko'nikmalarni modernizatsiya qiladi va ijtimoiy asoslangan ehtiyojlarni tasdiqlaydi.

Hozirgi jamiyatda insonlar faoliyatining obyektiv mazmuni ularning shaxsiy nazoratiga o'tadi va shu ma'noda ularning erkin ishiga aylanadi. Inson faoliyatining obyektiv mazmunini maqsadli tartibga solish ularning ehtiyojlari, manfaatlari va irodalariga muvofiq amalga oshiriladi. Bu ijtimoiy va individual optimizmning obyektiv asoslarini mustahkamlash va rivojlantirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Madaniy va bazis omillar.

Bunga erishish uchun bazis va mafkuraviy omillar majmuasi doimo faoliyat ko'rsatishi kerak. Chunki aynan shu omillar orqali inson o'z faoliyatining o'ziga xos kuchlarini ifodalash va rivojlantirish jarayoni ekanini chuqur tushunadi.

Shu munosabat bilan «optimizmni mustahkamlash va rivojlantirish jarayonining subyektiv omillari»ga alohida e'tibor qaratish zarur. Ular, ayniqsa, insonning shaxsiy va jamoaviy faoliyatida optimistik yondashuvlarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Albatta, ushbu «subyektiv omillar» ham zamonaviy jamiyatda obyektiv determinatsiyaga ega. Ular tarixni inson tabiati doimiy o'zgarish jarayoniga aylantiradi. Bunday ijobiy yo'naltirilgan o'zgarishlarda madaniyatda jamlangan milliy-o'ziga xos insonparvar hayot tarzi komponentlari va ularning izchil, keng qamrovli yaqinlashuvi katta ahamiyatga ega. Bu jarayon optimistik yondashuvlarning yanada universallashtirishiga olib keladi.

O'zbek oilalaridagi o'ziga xos jihatlari.

O'zbekiston aholisi uchun xos bo'lgan oilaviy munosabatlarning o'ziga xos jihatlari hisobga olmaslik mumkin emas. Masalan, bir millatli o'zbek oilalariga nisbatan yuqori darajadagi oilaviy bog'lanish xos bo'lib, shuning uchun respublikada ajrimlar sobiq Ittifoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 2,5 marta kamroq kuzatilgan. O'zbeklarda ajrim darajasining nisbatan past bo'lishi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

oilalarda ko'p farzandlilikning keng tarqalganligi;

oilani butun umrlik ittifoq sifatida ko'radigan qadriyatlar;

farzandlarni tug'ish va tarbiyalash uchun oila qurishga intilish;

ota-onalik rolining yuqori nufuzi.

Mahallachilik va uning ijobiy ta'siri.

O'zbek oilalarida nikoh mustahkamligiga ularning maishiy turmush tarziga xos bo'lgan boshqa progressiv an'analar ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, shahar va qishloqlarda «mahallachilik» deb ataladigan mustahkam hududiy-maishiy va ijtimoiy-psixologik jamoalar shakllanadi. Bu jamoalar kattalarning obro'-e'tiboriga tayanadi. Bunday jamoalar odamlarning kundalik hayotidagi xulq-atvorini nazorat qiladi, ijtimoiy ma'qullangan xatti-harakatlarni ma'naviy-psixologik sanksiyalar yordamida rag'batlantiradi.

Ajrimlar va ayolning yangi roli.

Shu bilan birga, O'zbekistonda ajrimlar soni oshib borayotgani kuzatilmoqda, bu ayolning oila va jamiyatdagi rolining o'zgarishi bilan bog'liq. Ayollar tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ajrimlar ko'pincha shaxsiy avtonomiyaning o'sishini, motivatsion-emotsional sohadagi o'zgarishlarni ifoda etadi.

Bunday o'zgarishlar ikki jihat bilan bog'liq:

1. Jamiyat va ayol shaxsida optimistik mentalitetning o'sishi.

2. Bu jarayon keng tushunchadagi «optimizm», kognitiv modellar va ijtimoiy-madaniy normalarni kengaytirish va mustahkamlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bu va shunga o'xshash jarayonlar shaxs psixikasi va faoliyatining optimistik yo'naltirilgan tuzilmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishning umumiy jarayonlariga mos keladi.

O'zbek oilasining an'anaviy xususiyatlari va zamonaviy o'ziga xosliklari

An'anaviy o'zbek oilasi, odatda, ko'p sonli va jips bo'lib, asrlar davomida shunday mikroklimat yaratganki, u doimiy psixologik stresslardan, ishonchsizlik va xafagarchilikdan qochishga imkon bergan. Bu mikroklimat turli hayotiy sharoitlarga nisbatan nisbatan og'riqsiz moslashishni ta'minlab kelgan.

Hozirgi kunda ham O'zbekistonda kattalar, ayniqsa, yoshi ulg'ayganlar jismoniy va emotsional xavfsizlik muhitida yashaydi, jamiyatning boshqa a'zolari tomonidan hurmat

qilinadi va oilada ham, jamiyatda ham o'z ahamiyatini his etadi. Bu ularga, o'zbek milliy identifikatsiyasining qaysidir ma'noda qo'riqchilari sifatida, dunyoga nisbatan optimistik munosabatning samimiy targ'ibotchilari sifatida ishtirok etishga imkon beradi.

Katta oila va uning ta'siri.

Biroq, hozirgi kunda asosan qishloq muhitida keng tarqalgan katta oilani ham ideallashtirish mumkin emas. Keng oilaning kichik oilaga nisbatan barqarorligi va hayotga chidamliligi uning aholining nisbatan past harakatchanlik darajasida muhim rol o'ynashini ta'minlaydi. Bu holat ko'chish yoki yangi muhitga moslashish kabi jarayonlarni cheklaydi.

Mikromuhit va shaxs rivojlanishi.

Shu bilan birga, faqat birgina mikromuhitga umrbod bog'lanib qolish shaxsning rivojlanishini sekinlashtiradi, uning dunyoqarashi va umummadaniy ko'nikmalarini cheklaydi.

Bu shaxsning barcha yo'nalishlardagi dinamikasiga konformizm, an'anaviy yoki hatto inert normalarga ko'r-ko'rona ibodat qilish yo'nalishida to'siq bo'lishi mumkin. Bu holat optimistik fikrlar va his-tuyg'ularning deformatsiyasiga, hatto ularning shaxsning umumiy intellektual-emotsional dunyosidagi ulushining kamayishiga olib keladi.

Qishloq jamiyatidagi o'zgarishlar.

Albatta, qishloq jamiyatida axloq normalari va oilaviy munosabatlarning mazmunini belgilaydigan qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarni qayd etish kerak. Ayni vaqtda, bu o'zgarishlarning ijobiy va salbiy oqibatlarini inkor etmasdan o'rganish muhimdir. Bu oilaviy munosabatlarning yangi yo'nalishlari va jamiyatda optimistik fikrlash targ'ibotini shakllantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ayollarga nisbatan munosabat va o'tmishning ta'siri.

Shu bilan birga, ayollarga nisbatan munosabatda hali hamma ham o'tmish sarqitlaridan butunlay xalos bo'lgani yo'qligini inkor etib bo'lmaydi. Ayniqsa, an'anaviy qarashlar va mahalliy madaniy hududlardagi normalarning saqlanib qolishi ayollarning oila va jamiyatdagi rolini to'liq anglashga to'siq bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bunday sarqitlar ayollarning shaxsiy mustaqilligi, ijtimoiy roli va huquqlari borasidagi cheklovlarida namoyon bo'ladi. Bu esa jamiyatda tenglik va insonparvar munosabatlarni rivojlantirish jarayonini sekinlashtirishi mumkin.

Zamonaviy tendensiyalar va transformatsiya.

Biroq, zamonaviy O'zbekistondagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar ayollarning ijtimoiy rolini kengaytirishga qaratilgani ko'zga tashlanmoqda. Hukumat darajasidagi sa'y-harakatlar, ta'lim imkoniyatlarining kengayishi va gender tenglik g'oyalarining targ'ib qilinishi ayollarga nisbatan munosabatni o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi.

Bunday o'zgarishlar ayollarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, ularning jamiyatdagi ta'sirini kuchaytiradi. Bu jarayon optimizmning ijtimoiy asoslarini mustahkamlashga va har bir shaxs uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Mulohazalar:

Ayollarga nisbatan munosabatdagi ana shu o'tmish sarqitlarini bartaraf etish inson huquqlarini ta'minlash, gender tenglikni mustahkamlash va jamiyatda insonparvarlik prinsiplarini ilgari surishdagi muhim qadamlardan biridir. Shu bilan birga, mazkur jarayon faqat institutsional o'zgarishlar bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatning barcha qatlamlari ongidagi transformatsiyani talab qiladi.

Urbanizatsiya va ijtimoiy optimizm.

Shahar rivojlanish turi tabiatdan qiyosan katta emansipatsiyani (ozodlikni) ifoda etadi. Shuningdek, qishloq rivojlanish turi tabiat sharoitlariga “qat’iy” bog’liqlik bilan, ishchi va uning mehnat vositalari o’rtasida asrlar davomida “uyg’unlashish” holati bilan xarakterlanadi. U uzoq vaqt davomida arxaik iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy shakllarning ustunligi bilan ajralib turadi.

Shu sababli, shahar rivojlanish turi obyektiv ravishda individ uchun ham, jamiyat taraqqiyoti uchun ham nisbatan qulayroq sharoitlarni ta’minlaydi. Bu qonuniyatni aniqlab, shaharning qishloqni ham iqtisodiy, ham ma’naviy-ruhiy jihatdan yetaklashi haqida gapirish mumkin. Bu jarayon ideologik-psixologik konstruksiyalar, ijtimoiy va axloqiy regulatsiya mexanizmlari, etik qoidalar kabi sohalarga ham tegishli.

Urbanizatsiya va ijtimoiy optimizm shakllanishi.

Urbanizatsiya, ya’ni shahar va qishloq rivojlanishini integratsiya qilish jarayoni, ijtimoiy optimizmning yuksak — dialektik-materialistik — shakllarini ommaviylashtirish uchun muhim omil sifatida ko’riladi.

Mustaqillikning ahamiyati.

O’zbekistonning mustaqilligi va suverenitetga erishishi, shuningdek, ularning BMT, YeXHT va jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi mamlakatda umumiy axloqiy-etik muhitni yaxshilashda, ommaviy psixologiya va ongda optimistik yondashuvlarni mustahkamlashda katta rol o’ynadi.

Optimizmning mohiyati va unda umumiylik va o’ziga xoslik esa, ijtimoiy guruh yoki millatning qadriyatli yo’nalishlarida optimizmi shakllantirish va mustahkamlashda «umumiylik» va «o’ziga xoslik» kategoriyalari muhim ahamiyatga ega. Optimizmning «hayot tarzi» kategoriyasi bilan aloqasi juda ko’p qirrali va samaralidir — buni ham gnoseologik, ham metodologik, ham amaliy jihatdan ko’rish mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko’ra, optimizmning ijtimoiy va gnoseologik asoslari bir qator muhim omillar bilan mustahkamlanadi:

- Ijtimoiy-gnoseologik mustahkamlash: Inson faoliyatining obyektiv mazmuni shaxsiy nazoratga o’tishi va ehtiyojlarga muvofiq maqsadli tartibga solinishi ijtimoiy va individual optimizmning obyektiv asoslarini rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi.
- Optimistik universalizatsiya: Madaniyatda jamlangan milliy-o’ziga xos insonparvar hayot tarzi komponentlari va ularning izchil yaqinlashuvi optimistik yondashuvlarning yanada universallashtirishga olib keladi.
- Urbanizatsiya ta’siri: Shahar rivojlanish turi tabiatdan katta emansipatsiyani (ozodlikni) ifodalab, qishloqni iqtisodiy va ma’naviy-ruhiy jihatdan yetaklashi orqali, urbanizatsiya (integratsiya) jarayoni ijtimoiy optimizmning yuksak — dialektik-materialistik — shakllarini ommaviylashtirish uchun muhim omil sifatida ko’riladi.
- Mustaqillikning o’rni: O’zbekistonning mustaqilligi va suverenitetga erishishi mamlakatda umumiy axloqiy-etik muhitni yaxshilashda, ommaviy psixologiya va ongda optimistik yondashuvlarni mustahkamlashda katta rol o’ynagan.

Xulosa. Ushbu maqolada optimizm va pessimizmning ijtimoiy va gnoseologik asoslari dialektik-materialistik yondashuv asosida tahlil qilindi. Optimistik va pessimistik dunyoqarashlar insonning tashqi olamga munosabatini belgilovchi fundamental kategoriyalar sifatida ko’rib chiqildi.

Asosiy ilmiy xulosalar quyidagilardan iborat:

Optimistik va pessimistik nazariyalar falsafiy jihatdan dunyodagi yaxshilikning yomonlikdan ustunligi yoki aksini kritik tahlil qilishdan kelib chiqadi. Gotfrid Vilgelm Leybnisning dunyoni “barcha mumkin bo‘lgan dunyolarning eng yaxshisi” deb bilishidagi optimistik qarashlari, Artur Shopengauerning uni doimiy azob va “iroda” asosiga qurilgan deb ta’riflovchi pessimistik falsafasiga qarama-qarshi qo‘yiladi. Gnoseologik optimizm bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar individual bilishga nisbatan pessimistik bo‘lgan holda, ijtimoiy institutlarning (hukumat, OAV) bilish hayotimizga ta’siriga nisbatan optimistik yondashuvni birlashtiradi.

Psixologik jihatdan, optimizm va pessimistik yondashuvlar Charlz Karver va Maykl Shayerning dispozitsion optimizm (kelajakka ijobiy natija kutish) hamda Martin Seligmanning izohlovchi uslub nazariyasi orqali tushuntiriladi. Unga ko‘ra, optimist salbiy hodisalarni tashqi, beqaror sabablarga bog‘lasa, pessimist ularni ichki, barqaror sabablarga bog‘laydi.

Tadqiqotda, O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy va individual optimizmni shakllantirishda milliy ong, madaniyat, hayot tarzi va urbanizatsiya jarayoni kabi ijtimoiy omillarning o‘rni ko‘rsatib berildi.

Milliy psixologiya, milliy xarakter va milliy ong madaniyat orqali hayot tarziga ta’sir etuvchi bog‘lovchi bo‘g‘inlardir. Insonparvar hayot tarzining o‘ziga xos xususiyatlari eng aniq madaniyat sohasida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek oilalariga xos bo‘lgan yuqori darajadagi oilaviy bog‘lanish va «mahallachilik» ijobiy an’analari nikoh mustahkamligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Biroq, ayrim an’anaviy cheklovlar va o‘tmish sarqitlari ayollarning jamiyatdagi rolini to‘liq anglashga to’siq bo‘lishi mumkin. Urbanizatsiya jarayoni ijtimoiy optimizmning yuksak (dialektik-materialistik) shakllarini ommaviylashtirish uchun muhim omil sifatida ko‘riladi, chunki shahar rivojlanish turi nisbatan katta emansipatsiyani (ozodlikni) ifodalaydi.

O‘zbekiston mustaqilligining qo‘lga kiritilishi umumiy axloqiy-etik muhitni yaxshilashda va ommaviy ongda optimistik yondashuvlarni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etdi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, optimizmning ijtimoiy va individual asoslari jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlar, milliy-madaniy xususiyatlarning insonparvar taraqqiyotga yo‘naltirilgan yaqinlashuvi va shaxs faoliyatining maqsadli tartibga solinishi orqali mustahkamlanadi, bu esa optimistik yondashuvlarning yanada universallashtirishiga olib keladi. Bu optimizmning hayot tarzi kategoriyasi bilan bog‘liqligi gnoseologik, metodologik va amaliy jihatdan samarali ekanini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Батулин, Н. А. (2022). Педагогические ресурсы формирования оптимистического мировоззрения студентов в современном вузе.
2. Carver, C. S., & Scheier, M. F. (2014). Dispositional optimism. *Trends in Cognitive Sciences*, 18(6), 295–300.
3. Leibniz, G. W. (1710). *Essais de Théodicée sur la bonté de Dieu, la liberté de l'homme et l'origine du mal*.
4. McKenna, M. (2025). Pessimism and optimism in non-ideal inquiry epistemology. *Edinburgh Research Explorer*.
5. *Optimism and Pessimism* (2025). Encyclopedia.com.
6. Peterson, C., Seligman, M. E. P., & Vaillant, G. E. (1988). Pessimistic explanatory style is a risk factor for physical illness: A thirty-five-year study. *Journal of Personality and Social Psychology*, 55(1), 23–27.

7. Scheier, M. F., & Carver, C. S. (1985). Dispositional Optimism: Conceptualization and Measurement. *The Neural Basis of Optimism and Pessimism*.
8. Schopenhauer, A. (1819). *Die Welt als Wille und Vorstellung*.
9. Seligman, M. E. P. (1991). *Learned Optimism: How to Change Your Mind and Your Life*—Pocket Books.
10. Weber, H., Vollmann, M., & Renner, B. (2009). The Spirited, the Observant, and the Disheartened: Social Concepts of Optimism, Realism, and Pessimism.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

THE DIALECTIC BETWEEN MORALITY AND PROFIT: AN AXIOLOGICAL APPROACH TO ECONOMIC RATIONALISM

Ismoilov Makhamadikhon Isroilovich

Professor of the Department of Social Sciences,
Namangan State Technical University

Abstract. The article analyzes the axiological interpretation of economic rationalism — the dialectical relationship between morality and profit from a philosophical perspective. Human behavior driven by self-interest often conflicts with moral norms. The concept of profit is examined not only as an economic outcome but also in harmony with human values, social responsibility, and moral consciousness. The study is grounded in axiology, normative economics, and ethical rationalism.

Keywords: morality, profit, economic rationalism, axiology, ethical economics, social justice, human dignity, utilitarianism, moral responsibility, economic ethics, sustainable development, dialectical approach.

AXLOQ VA FOYDA O'RTASIDAGI DIALEKTIKA: IQTISODIY RATSIONALIZMGA AKSILOGIK YONDASHUV

Ismoilov Maxamadixon Isroilovich

Namangan davlat texnika universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası professori

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiy ratsionalizmning aksiologik talqini — foyda va axloq o'rtasidagi dialektik munosabat falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Insonning manfaatga yo'naltirilgan ratsional xatti-harakatlari ko'pincha axloqiy me'yorlar bilan to'qnashadi. Foyda tushunchasi iqtisodiy natija bilan birga inson qadriyatları, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy ong bilan uyg'un holda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot aksiologiya, normativ iqtisodiyot va etik ratsionalizm asosida olib boriladi.

Kalit so'zlar: axloq, foyda, iqtisodiy ratsionalizm, aksiologiya, etik iqtisodiyot, ijtimoiy adolat, inson qadri, utilitarizm, ma'naviy mas'uliyat, iqtisodiy etika, barqaror rivojlanish, dialektik yondashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N15>

Kirish. Insoniyat tarixida iqtisodiy faoliyatning axloqiy asosi masalasi doimo markaziy falsafiy muammo bo'lib kelgan. Foyda tushunchasi insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim iqtisodiy motiv bo'lsa-da, u hech qachon axloqiy bahodan holi bo'lmagan [1]. Iqtisodiy ratsionalizm g'oyasi foyda va manfaatni inson xatti-harakatining asosiy mezoni sifatida talqin etib, inson faoliyatining maqsadini "foyda maksimallashtirish" da ko'radi. Biroq bu yondashuvda inson mohiyatining ma'naviy, etik va ijtimoiy o'lchamlari e'tibordan chetda qolmoqda. Shu sababli, iqtisodiy ratsionallikni aksiologik, ya'ni qadriyatlar nazariyasi nuqtai nazaridan qayta talqin qilish dolzarb ilmiy vazifaga aylandi. Bu yondashuv iqtisodiy foydani inson qadri, adolat, burch, mas'uliyat va ma'naviy komillik bilan uyg'unlikda o'rganishni taqozo etadi.

Antik davr falsafasida Aristotel iqtisodiy faoliyatni “o‘lchovli foyda” g‘oyasi bilan cheklab, inson baxtining manbaini axloqiy kamolot va fazilatli faoliyatda ko‘radi [2]. Aristotel nazarida foyda inson maqsadining vositasi, axloq esa uning ma‘nosidir. Keyinchalik Kant bu dialektikani chuqurlashtirib, axloqni “burchning sof prinsipi” bilan bog‘laydi. Kantning “Groundwork of the Metaphysics of Morals” asarida foyda va axloq o‘rtasidagi ziddiyat “maqsad vositasi” muammosi sifatida ifodalanadi: inson hech qachon foyda uchun vosita sifatida emas, balki o‘zida maqsad sifatida qadrlanishi kerak [3]. Shu bilan birga, I. Kant ratsional tanlovni ma‘naviy qonun bilan chegaralaydi, bu esa zamonaviy iqtisodiy ratsionalizmning individualistik mohiyatiga falsafiy qarama-qarshilik yaratadi.

Klassik iqtisodiy tafakkurda A. Smitning “Axloqiy tuyg‘ular nazariyasi” [4] foyda va axloq o‘rtasidagi uyg‘unlikni tiklashga uringan dastlabki harakat bo‘ldi. Smitning fikricha, insonning shaxsiy manfaatlari “ko‘rinmas qo‘l” mexanizmi orqali jamiyat farovonligiga xizmat qilishi mumkin, biroq bu jarayon faqat axloqiy tuyg‘ular mavjud bo‘lgandagina ijobiy natija beradi. Shunday qilib, foyda axloqiy me‘yorlar bilan chegaralanmagan taqdirda, iqtisodiy tizim o‘zining insonparvar mohiyatini yo‘qotadi. J. S. Mill esa utilitarizm asosida foyda va axloqni “eng ko‘p foyda — eng ko‘p baxt” prinsipi orqali birlashtirishga uringan, biroq u ham foyda va qadriyatlar o‘rtasidagi sifat farqini to‘liq yo‘qota olmagan [4]. Bu farq shundan iboratki, foyda miqdoriy mezon, axloq esa sifat va ma‘no mezonidir.

Zamonaviy iqtisodiy muhitda bu dialektika yanada murakkablashmoqda. Raqamli kapitalizm, algoritmik boshqaruv va sun‘iy intellekt asosidagi iqtisodiy tizimlar inson faoliyatining axloqiy o‘lchamlarini cheklamoqda. Habermasning “kommunikativ ratsionallik” nazariyasi zamonaviy iqtisodiy tafakkurda axloqiy muloqotning yo‘qolish jarayonini “instrumental ong”ning ustuvorligi sifatida izohlaydi [5]. Unga ko‘ra, iqtisodiy foyda inson muloqotini utilitar shaklga keltirib, ijtimoiy muloqotdagi o‘zaro ishonchni zaiflashtiradi. Natijada foyda insonparvar qadriyatlar bilan emas, balki iqtisodiy mexanizmlar bilan o‘lchanadigan normativ kuchga aylanadi.

Yigirmanchi asr oxiri va XXI asr boshida global bozor munosabatlari, transmilliy kapital va texnologik raqamlashtirish jarayonlari foyda konsepsiyasini inson qadriyatlari tizimidan tobora uzoqlashtirdi. Neoliberalizm ta‘sirida “maksimal foyda” g‘oyasi iqtisodiy samaradorlikning yagona mezoniga aylandi. Bu esa iqtisodiy faoliyatda axloqiy qarorlarning yo‘qolishiga, foyda ortidan quvish jarayonida ijtimoiy mas‘uliyatning pasayishiga olib keldi [5]. Shu sababli, foyda va axloq o‘rtasidagi dialektik qarama-qarshilikni tiklash bugungi zamonaviy iqtisodiy tafakkur uchun dolzarb vazifadir. Bu muvozanatni tiklashning yagona yo‘li iqtisodiy faoliyatni qadriyatga asoslangan tizim sifatida ko‘rish, ya‘ni “aksiologik iqtisodiyot” konsepsiyasini shakllantirishdir.

Hozirgi zamonda “aksiologik iqtisodiyot” yondashuvi foyda tushunchasini qayta baholashni, uni ijtimoiy adolat, ekologik mas‘uliyat va insoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishni talab etmoqda. Bu yondashuv iqtisodiy ratsionalizmni ma‘naviy mezon bilan cheklovchi emas, balki uni insonparvarlik tamoyillari bilan boyituvchi konseptual paradigma sifatida qaraydi. Shu nuqtai nazardan, maqola axloq va foyda o‘rtasidagi dialektik birlikni tiklashga qaratilgan aksiologik modelni ishlab chiqishni maqsad qiladi. U iqtisodiy ratsionalizmni insoniy qadriyatlar, adolat, ma‘naviy mas‘uliyat va ijtimoiy hamjihatlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishning falsafiy asoslarini shakllantiradi. Natijada, iqtisodiy

samaradorlikni axloqiy ong bilan uyg'unlashtirish orqali barqaror rivojlanishning yangi ma'naviy modeli ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Axloq va foyda o'rtasidagi dialektik munosabatni tahlil qilish iqtisodiy tafakkurning aksiologik transformatsiyasini chuqur anglashni talab etadi. Klassik iqtisodiy tafakkurda foyda inson xatti-harakatining tabiiy natijasi sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy falsafiy iqtisodiyot uni ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy mezonlar bilan uyg'un holda baholash zarurligini ilgari suradi. A. Smith "The Theory of Moral Sentiments" asarida inson faoliyatining markazida foyda emas, balki "axloqiy tuyg'u" turishini ta'kidlab, insonning o'z manfaatini jamiyat farovonligi bilan uyg'unlashtirishini "ko'rinmas qo'l" mexanizmi orqali asoslaydi [6]. Bu qarash foydani axloqdan ajratmasdan, ijtimoiy ongning etik mexanizmlari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan dastlabki g'oyaviy urinishdir. Aristotel esa "Nikomax axloqi"da [7] foyda va fazilat o'rtasidagi nisbatni "o'rtalik" prinsipi bilan belgilab, haddan oshgan manfaatparastlikning inson kamolotiga zid ekanini ta'kidlaydi.

Immanuel Kant o'zining "Groundwork of the Metaphysics of Morals" asarida [8] foyda bilan axloq o'rtasidagi ziddiyatni "kategorik imperativ" konsepsiyasi orqali hal etadi. Uning fikricha, insonning harakati natijaviy foyda emas, balki axloqiy burch tamoyiliga asoslanmog'i zarur. Bu yondashuv iqtisodiy ratsionalizmning individualistik paradigmasiga qarshi turgan falsafiy asos bo'lib, insonni "axloqiy subyekt" sifatida qayta markazlashtiradi. Shu bilan birga, J. S. Millning "Utilitarianism" asari [9] iqtisodiy foyda va ijtimoiy baxtni uyg'unlashtirishga uringan utilitar konsepsiyani taklif qiladi: u "eng ko'p foyda – eng ko'p baxt" tamoyilini ilgari suradi, ammo bu yondashuv axloqiy qarorlarni miqdoriy baholash doirasida cheklab qo'yadi. Millning nazariyasi foydaning natijaviy jihatini o'lchasa-da, uning ma'naviy mohiyatini to'liq anglamaydi.

Habermasning "The Theory of Communicative Action" asari [10] foyda va axloq dialektikasini yangi bosqichda – kommunikativ ong paradigmasi doirasida – qayta talqin qiladi. Uning nazarida iqtisodiy ratsionalizmning muammosi "instrumental ong"ning hukmronligidadir, chunki foyda insonlar o'rtasidagi axloqiy muloqotni cheklaydi. Habermas foyda me'yorini kommunikativ kelishuv, o'zaro ishonch va ijtimoiy adolat bilan uyg'unlashtirishni taklif etadi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda Shoshana Zuboff "The Age of Surveillance Capitalism" asarida [11] foyda va nazorat o'rtasidagi yangi dialektik ziddiyatni ochib beradi: raqamli kapitalizm inson tafakkurini algoritmik boshqaruvga bo'ysundirgan holda, foydani axloqiy emas, texnokratik hodisaga aylantirmoqda. Bu esa iqtisodiy ongni axloqiy refleksiyadan uzib qo'yib, "kognitiv ekspluatatsiya" muammosini yuzaga keltiradi.

A. Sen "Development as Freedom" asarida [12] foyda va axloqning integratsiyasini inson erkinligi konsepsiyasi orqali izohlaydi. Unga ko'ra, iqtisodiy taraqqiyotning markazida foyda emas, balki erkinlik va inson qadri turmog'i lozim. Foyda insonning ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirgan taqdirdagina axloqiy mazmunga ega bo'ladi. J. Rawls esa "A Theory of Justice" asarida [13] foyda va axloq o'rtasidagi adolat muvozanatini "farqlar printsipi" orqali izohlaydi. Uningcha, foyda teng taqsimlanmasa ham, u eng zaif qatlamlarning farovonligini oshirsa, axloqiy jihatdan oqlanishi mumkin. Shu bilan birga, D. Harvey "A Brief History of Neoliberalism" [14] asarida foydaning mutlaq ustuvorligi natijasida axloqiy qadriyatlarning yo'qolishini, iqtisodiy faoliyatning insoniy mohiyatdan uzoqlashishini global miqyosda tahlil qiladi.

A. Etzioni “The Moral Dimension: Toward a New Economics” [15] asarida iqtisodiy ratsionalizmni axloqiy mezonlar bilan boyitishni taklif etadi. U “ma’naviy iqtisodiyot” g’oyasini ilgari surib, iqtisodiy qarorlar ijtimoiy manfaat va axloqiy mas’uliyat bilan uyg’un holda shakllanishi kerakligini asoslaydi. U. Beck “Risk Society” konsepsiyasida [16] foydaning me’yorsiz orttirilishi jamiyat uchun yangi xavflar — ekologik, ijtimoiy va ma’naviy nomutanosibliklar —ni keltirib chiqarganini ta’kidlaydi. Shunday qilib, zamonaviy aksiologik iqtisodiyot falsafasida foyda va axloq o’rtasidagi muvozanatni tiklash insoniyat sivilizatsiyasining ma’naviy barqarorligi uchun zaruriy shart sifatida talqin etilmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, iqtisodiy ratsionalizmning evolyutsiyasi foyda mezonini axloqiy bahodan ajratgan sari, iqtisodiy tizim ijtimoiy adolat va barqarorlik tamoyillaridan uzoqlashgan. Shu bois, aksiologik yondashuv — iqtisodiy faoliyatni ma’naviy mas’uliyat, axloqiy ong va ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg’unlashtirish — zamonaviy iqtisodiy tafakkur uchun metodologik zaruratga aylanmoqda. Foyda faqat ijtimoiy ishonch va etik muvozanat bilan uyg’un holda barqaror qiymatga ega bo’ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosi falsafaning aksiologik, gnoseologik va dialektik tahlil tamoyillariga tayanadi. Mazkur yondashuv axloq va foyda o’rtasidagi dialektik bog’liqlikni nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy–falsafiy birlikda o’rganishga imkon beradi. Aksiologik metod yordamida iqtisodiy ratsionalizmga foyda kategoriyasining qadriyat sifatida talqin etilishi, foydaning inson axloqiy qarorlariga ta’siri va ma’naviy chegaralari tahlil qilindi. Shu bilan birga, gnoseologik yondashuv insonning iqtisodiy faoliyatdagi bilish jarayonlarini, foyda va axloq haqidagi tushunchalar ongda qanday shakllanishini o’rganishga qaratildi. Dialektik metod orqali foyda va axloq o’rtasidagi o’zaro ziddiyatli, ammo bir-birini to’ldiruvchi munosabatlarning dinamik tizimi ochib berildi. Bu yondashuv axloqiy ong va iqtisodiy manfaat o’rtasidagi muvozanatni aniqlash, ratsional va etik tamoyillar o’rtasidagi uyg’unlikni falsafiy asosda tushuntirish imkonini beradi.

Metodologik model doirasida iqtisodiy ratsionalizmga nisbatan aksiologik inversiya prinsipi qo’llanildi, ya’ni foyda endi maqsad emas, balki insoniy qadriyatlar tizimida vosita sifatida tahlil qilindi. Falsafiy sintez usuli yordamida axloqiy qarorlar, ijtimoiy mas’uliyat va foyda o’rtasidagi konseptual aloqalar integratsiyalashgan holda o’rganildi. Tadqiqotda normativ etik tahlil ham qo’llanilib, iqtisodiy faoliyatdagi “burch”, “adolat”, “javobgarlik” kabi axloqiy kategoriyalarning foyda bilan o’zaro munosabati baholandi. Kritik realizm yondashuvi asosida “foyda–axloq–erkinlik” uchligi o’rtasidagi sababiy bog’liqlik ochib berilib, iqtisodiy ratsionalizmning ijtimoiy va ma’naviy kontekstdagi transformatsiyasi ilmiy asosda yoritildi. Natijada, ishlab chiqilgan metodologik asos axloq va foyda o’rtasidagi dialektikani falsafiy tahlil qilish orqali iqtisodiy tafakkurda insonparvarlik paradigmasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning aksiologik va gnoseologik metodologiyasiga tayangan holda, foyda va axloq o’rtasidagi dialektik o’zaro ta’sirni ilmiy tahlil qilishga qaratilgan. Iqtisodiy ratsionalizmning mohiyatida foyda inson faoliyatining asosiy maqsadi sifatida qaraladi, biroq bu yondashuv axloqiy mezonlardan uzilganda, iqtisodiy tizim o’zining ijtimoiy va ma’naviy barqarorligini yo’qotadi. Shu sababli, mazkur bo’limda foyda tushunchasining etik, ma’naviy va falsafiy o’lchovlari tahlil qilinadi. Aksiologik yondashuv orqali foyda inson qadriyatlari tizimidagi o’rni bilan baholanadi, dialektik tahlil esa axloqiy qarorlar va iqtisodiy manfaat o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni aniqlash imkonini beradi. Gnoseologik yondashuv

yordamida esa inson tafakkurining iqtisodiy qarorlarni anglash, baholash va asoslashdagi kognitiv jarayonlari o'rganiladi.

Mazkur tahlilning dolzarbligi shundaki, XXI asr iqtisodiy tafakkurida foyda va axloq o'rtasidagi nomuvofiqlik tobora keskinlashmoqda. Neoliberalizm, raqamli kapitalizm va utilitar ratsionalizm foyda mezonini mutlaq qadriyat darajasiga ko'tarib, insoniylik va ijtimoiy adolatni ikkinchi darajaga surmoqda. Shu bois, iqtisodiy faoliyatda foydaning nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy legitimligini ta'minlash zarur. Foyda va axloq dialektikasini tahlil qilish orqali iqtisodiy tizimda "aksiologik ratsionallik"ning shakllanish mexanizmi, ya'ni iqtisodiy foydaning ma'naviy mazmun bilan uyg'unlashuvi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Ushbu bo'limda ishlab chiqilgan jadval va modellarning maqsadi – foyda va axloq o'rtasidagi falsafiy bog'liqlikni ko'p darajali tahlil asosida tushuntirish, iqtisodiy ratsionalizmni insoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish uchun metodologik asos yaratishdir.

Axloq va foyda o'rtasidagi gnoseologik qatlamlar falsafiy tahlil asosida tizimlashtirilgan bo'lib, u inson tafakkurining iqtisodiy faoliyatdagi uch darajasini – subyektiv, ijtimoiy va transendental bilish shakllarini – qamrab oladi. Mazkur jadval foydaning faqat iqtisodiy hodisa emas, balki axloqiy anglash va ma'naviy refleksiya jarayonida shakllanadigan gnoseologik konstruktsiya ekanini ko'rsatadi. Unda har bir daraja insonning bilish salohiyati, ma'naviy mas'uliyati va qadriyatli tafakkuri bilan chambarchas bog'langan (1-jadval).

1-jadval.

Axloq va foyda o'rtasidagi gnoseologik qatlamlar (aksiologik kontekstda)

Daraja	Bilish shakli	Foydaning mazmuni	Axloqiy chegarasi	Natijaviy funksiyasi
1. Subyektiv daraja	Individual idrok va ratsional tanlov	Foyda shaxsiy ehtiyoj va manfaatlarni qondirish shaklida namoyon bo'ladi	Axloqiy mas'uliyat individual ong bilan belgilanadi	Insonning shaxsiy iqtisodiy qarorlarini boshqaradi
2. Ijtimoiy daraja	Jamiyat qadriyatlari va normativ me'yorlar	Foyda ijtimoiy farovonlik va o'zaro manfaat tizimida namoyon bo'ladi	Adolat, ishonch va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari bilan chegaralanadi	Iqtisodiy tizimni barqarorlashtiradi
3. Transendental daraja	Falsafiy-aksiologik tafakkur	Foyda umumiy axloqiy yaxshilik (common good) bilan uyg'unlashgan holda talqin qilinadi	Ma'naviy qadriyatlar, burch va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan belgilangan	Barqaror va axloqiy iqtisodiy tizimni shakllantiradi

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

Axloq va foyda o'rtasidagi gnoseologik qatlamlar iqtisodiy tafakkurning bilish jarayonida qanday shakllanishini chuqur falsafiy nuqtai nazardan ifodalaydi. Subyektiv darajada insonning foydaga bo'lgan yondashuvi shaxsiy ehtiyoj, manfaat va tajribaga asoslanadi, biroq bu yondashuv Kantning "burch etikasi" konsepsiyasida qayd etilganidek, axloqiy qonun bilan chegaralanmaguncha, ma'nosiz ratsionallikka aylanadi. Aynan shu nuqtada iqtisodiy foyda axloqiy mas'uliyat bilan o'lchangan taqdirdagina ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan mazmunga ega bo'ladi. A. Smith tomonidan ilgari surilgan "axloqiy tuyg'ular"

tamoyili foyda insonparvarlikdan uzilganda, iqtisodiy tizimning barqarorligi izdan chiqishini ko'rsatadi. Subyektiv bilishning kuchi insonning o'z qarorini ma'naviy anglash darajasi bilan belgilanadi; u shunchaki individual manfaatni emas, balki o'z harakatining jamiyatdagi oqibatlarini ham baholay olishi kerak. Shuning uchun bu bosqichda gnoseologik refleksiya, ya'ni foyda va burch o'rtasidagi ichki ziddiyatni anglash iqtisodiy qarorlarning axloqiy sifatini belgilovchi mezonga aylanadi.

Ijtimoiy va transendental bilish darajalari foyda va axloqning integratsion tizimini ochib beradi. Ijtimoiy darajada foyda jamiyat qadriyatlari va kollektiv manfaatlar bilan uyg'unlashadi — bu Habermasning "kommunikativ ratsionallik" nazariyasi bilan izohlanadi, ya'ni inson qarorlari faqat individual foyda emas, balki o'zaro ishonch, dialog va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Transendental bosqichda esa foyda "umumiy yaxshilik" (common good) konsepsiyasi bilan bog'lanadi, bunda u iqtisodiy maqsad emas, balki insonparvarlikning falsafiy vositasi sifatida talqin qilinadi. Kant va Aristotel fikrlarining uyg'unlashuvida foyda ma'naviy komillikni ifodalovchi aksiologik qadriyat darajasiga ko'tariladi. Shunday qilib, 1-jadval iqtisodiy foydaning bilishdan anglash va anglashdan ma'naviy idrok bosqichiga o'tuvchi gnoseologik evolyutsiyasini ko'rsatadi: foyda faqat ma'naviy mas'uliyat bilan uyg'unlashgan taqdirdagina insoniyat taraqqiyotining ijobiy kuchiga aylanadi.

2-jadval.

Iqtisodiy ratsionalizm va aksiologik ratsionallik o'rtasidagi dialektik farqlar

Mezon	Iqtisodiy ratsionalizm	Aksiologik ratsionallik
Asosiy maqsad	Foyda va samaradorlikni maksimalashtirish	Axloqiy muvozanat va ijtimoiy adolatni ta'minlash
Bilish asoslari	Empirik hisob-kitob, pragmatizm	Ma'naviy refleksiya, etik ong
Axloqiy yo'nalish	Instrumental, maqsadga yo'naltirilgan	Normativ, qadriyatga asoslangan
Subyektning roli	"Homo economicus" – foyda ishlab chiqaruvchi agent	"Homo moralis" – axloqiy mas'ul subyekt
Natija	Iqtisodiy o'sish, lekin ma'naviy risklar bilan	Barqaror rivojlanish, insoniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

Iqtisodiy ratsionalizm va aksiologik ratsionallik o'rtasidagi falsafiy-dialektik farqlar tahlil qilinadi. Iqtisodiy ratsionalizmning mohiyatida inson faoliyatining asosiy maqsadi sifatida foyda va samaradorlik turadi; u utilitar tamoyilga asoslanib, qarorlarni eng ko'p foyda keltiruvchi variantlar asosida shakllantiradi. Bu model J. S. Mill va M. Friedman nazariyalarida o'z ifodasini topgan bo'lib, insonni "homo economicus" — ya'ni foyda ishlab chiqaruvchi mexanik agent sifatida talqin qiladi. Biroq bu yondashuv Kantning burch etikasi va A. Smitning axloqiy tuyg'ular nazariyasiga zid tarzda inson faoliyatini faqat natija bilan o'lchaydi. Iqtisodiy ratsionalizmning zaif tomoni shundaki, u foydani axloqiy jihatdan neytral kategoriya sifatida ko'radi va shu orqali qarorlarning etik oqibatlarini chetda qoldiradi. Shu sababli, iqtisodiy samaradorlik axloqiy nazoratdan uzilganda, iqtisodiy tizim ijtimoiy beqarorlik, ma'naviy bo'shliq va ishonch inqiroziga olib keladi.

Aksiologik ratsionallik esa, aksincha, foydani etik me'yorlar bilan uyg'unlikda talqin qiladi. Bu yondashuv Habermasning "kommunikativ ratsionallik" konsepsiyasi va A. Senning "erkinlik orqali rivojlanish" g'oyasi bilan uyg'unlashadi. Aksiologik ratsionalizm inson qarorlari faqat iqtisodiy hisob-kitoblarga emas, balki ma'naviy refleksiya, ijtimoiy mas'uliyat va

adolat tamoyillariga tayanadi. A. Etzioni “The Moral Dimension” asarida iqtisodiy harakatlarni “ma’naviy ratsional tanlov” sifatida talqin etib, foydaning legitimligi uning axloqiy kontekst bilan uyg’unligiga bog’liq ekanini ta’kidlaydi. Shu jihatdan, aksiologik ratsionallik foyda va axloqni antagonistik emas, balki integrativ hodisalar sifatida birlashtiradi: foyda burch, adolat va ijtimoiy mas’uliyat orqali ma’naviy mazmun kasb etadi. Shunday qilib, 2-jadval iqtisodiy tafakkurning yangi bosqichini — “insonparvar ratsionallik” modelini ifodalaydi, unda foyda insoniyat qadriyatlariga xizmat qiluvchi etik vosita sifatida qayta talqin qilinadi.

Iqtisodiy ratsionalizm va aksiologik ratsionallik o’rtasidagi munosabat inson manfaatini ustuvor qo’yuvchi yondashuvdan qadriyatlarga asoslangan fikrlash tizimiga o’tish jarayonini ifodalaydi. Birinchi jadvalda bu ikki qarashning konseptual farqlari ochib berilgan bo’lsa, keyingi jadvalda ularning amaliy uyg’unligi – axloq va foyda o’rtasidagi dialektikaning barqaror rivojlanish mezonlari bilan qanday mushtaraklikda namoyon bo’lishi falsafiy model asosida tahlil qilinadi. Shu tarzda, nazariy tafakkurdan amaliy qadriyat tizimiga o’tishning aksiologik mexanizmi yoritiladi.

3-jadval.

Axloq va foyda dialektikasining falsafiy modelida barqaror rivojlanish o’lchovlari

O’lchov	Falsafiy mohiyat	Iqtisodiy ifoda	Aksiologik natija
1. Ma’naviy o’lchov	Axloqiy qadriyatlar ustuvorligi	Etik boshqaruv, halollik va ishonch siyosati	Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi
2. Ijtimoiy o’lchov	Adolat va hamkorlik tamoyillari	Teng imkoniyatlar va ishonch iqtisodiyoti	Ijtimoiy kapitalni mustahkamlaydi
3. Ekologik o’lchov	Tabiatni axloqiy obyekt sifatida talqin etish	Yashil iqtisodiyot, resurslardan mas’uliyatli foydalanish	Inson va tabiat uyg’unligini ta’minlaydi
4. Kognitiv o’lchov	Bilim va tafakkurning axloqiy funksiyasi	Innovatsion iqtisodiy tafakkur, etika bilan uyg’un bilim siyosati	Iqtisodiy tafakkurda “axloqiy foyda” paradigmasini shakllantiradi

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

3-jadvalda axloq va foyda dialektikasining falsafiy modelida barqaror rivojlanishning ma’naviy, ijtimoiy, ekologik va kognitiv o’lchovlari tizimli tarzda yoritilgan. Mazkur jadval foyda tushunchasini nafaqat iqtisodiy ko’rsatkich sifatida, balki insoniyatning umumiy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog’liq aksiologik kategoriya sifatida talqin qiladi. Ma’naviy o’lchovda foyda insonning halollik, burch va adolat tamoyillariga asoslangan faoliyati orqali o’z mazmunini topadi. Bu Aristotelning “fazilatli o’rtalik” g’oyasi bilan uyg’un bo’lib, iqtisodiy faoliyatni fazilatli mehnat sifatida baholashni taqozo etadi. Ijtimoiy o’lchov esa A. Smit va J. Rawls nazariyalarida ifodalangan adolat konsepsiyasi bilan mos tushadi: foyda axloqiy jihatdan qabul qilinishi uchun u ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirishi, eng zaif qatlamlarning manfaatlariga xizmat qilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy samaradorlikning haqiqiy mezoni individual boylik emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy ishonch, adolat va hamjihatlik darajasidir.

Ekologik va kognitiv o’lchovlar foyda konsepsiyasining zamonaviy transformatsiyasini ochib beradi. Ekologik o’lchovda foyda tabiat va inson o’rtasidagi axloqiy muvozanatni ifodalaydi — u A. Sen va U. Beck nazariyalarida qayd etilgan “mas’uliyatli rivojlanish” tamoyiliga asoslanadi. Beckning “Risk Society” konsepsiyasiga ko’ra, axloqsiz foyda tabiat va

jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni buzadi, bu esa ijtimoiy inqirozning gnoseologik manbaiga aylanadi. Kognitiv o'lchov esa inson tafakkurining foydani anglash darajasiga urg'u beradi: bilim va tafakkur iqtisodiy foyda yaratuvchi omil sifatida emas, balki uni axloqiy ma'noda chegaralovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Habermas va Zuboff asarlarida ta'kidlanganidek, haqiqiy iqtisodiy rivojlanish inson tafakkurining ma'naviy refleksiya darajasi bilan belgilanadi. Shu bois, 3-jadvalda foyda va axloq dialektikasining barqaror rivojlanishdagi falsafiy modeli iqtisodiy o'sishni ma'naviylik, adolat, ekologik muvozanat va axborot mas'uliyati bilan uyg'unlashtiruvchi konseptual tizim sifatida qaraladi. Shu asosda iqtisodiy tafakkurda "axloqiy foyda" paradigmasi shakllanadi — bu paradigma foydani inson va jamiyat uchun ma'naviy qadriyatga aylantiruvchi falsafiy yondashuvdir.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqotda axloq va foyda o'rtasidagi dialektik munosabat iqtisodiy ratsionalizmga nisbatan aksiologik yondashuv asosida chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy ratsionalizm inson faoliyatining samaradorlik va foyda tamoyiliga asoslangan bo'lsa-da, bu model axloqiy va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashmaganda insoniylik, adolat va ijtimoiy ishonchning barqarorligini zaiflashtiradi. Shu sababli, foyda va axloq o'rtasidagi dialektik birlikni tiklash — nafaqat falsafiy, balki amaliy iqtisodiy zaruratdir. Aksiologik yondashuv bu muammoni yechish uchun insoniy qadriyatlarni iqtisodiy tafakkur markaziga qayta kiritadi hamda iqtisodiy foydani ma'naviy mazmun bilan boyitilgan universal qadriyat sifatida qayta talqin etadi.

Birinchidan, tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, iqtisodiy ratsionalizmning biryoqlama utilitar yo'nalishi foyda va axloq o'rtasidagi tabiiy uyg'unlikni buzgan. Bu holat jamiyatda individualizm, ma'naviy begonalashuv va ijtimoiy ishonch tanazzuliga sabab bo'lmoqda. Shu bois, iqtisodiy tizimlarda foydaning etik chegaralarini belgilovchi normativ mexanizmlarni shakllantirish zarur. Foyda faqat shaxsiy manfaat emas, balki jamiyat farovonligiga xizmat qiluvchi ma'naviy kategoriya sifatida qaralishi kerak.

Ikkinchidan, aksiologik ratsionalizm modeli iqtisodiy qarorlar qabul qilishda axloqiy mas'uliyatni birlamchi omil sifatida ko'rsatadi. Bunda iqtisodiy foyda inson qadriyatlari bilan uyg'unlashgan holda o'lchanadi. "Axloqiy foyda" konsepsiyasi – foydani adolat, halollik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari asosida shakllantirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv barqaror iqtisodiy tizim yaratishning falsafiy poydevorini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, foyda va axloq o'rtasidagi dialektik munosabat gnoseologik jihatdan inson tafakkurining uch darajasi — bilish, anglash va ma'naviy idrok — orqali shakllanadi. Iqtisodiy qarorlar faqat ratsional tahlil bilan emas, balki ma'naviy refleksiya bilan ham yo'naltirilishi zarur. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy ratsionalizmni aksiologik nazariya bilan birlashtirish inson tafakkurining kognitiv va axloqiy qirralarini uyg'unlashtiruvchi metodologik asos yaratadi.

To'rtinchidan, tadqiqotda ishlab chiqilgan konseptual model foyda va axloq dialektikasining amaliy iqtisodiy ifodasini ham ko'rsatadi. Aksiologik yondashuv orqali foyda iqtisodiy samaradorlikni emas, balki ijtimoiy ishonch, adolat, hamkorlik va ekologik mas'uliyatni o'lchaydigan indikator sifatida talqin etiladi. Buning natijasida iqtisodiy barqarorlikning yangi — ma'naviy-ijtimoiy — o'lchovi shakllanadi.

Xulosa o'rnida, foyda va axloq o'rtasidagi dialektika insoniyatning iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyoti uchun asosiy falsafiy masala bo'lib qolmoqda. Foyda axloqdan uzilganda iqtisodiy tizim o'z barqarorligini yo'qotadi, biroq axloqiy ong bilan uyg'unlashganda u jamiyat

taraqqiyotining ijobiy kuchiga aylanadi. Shuning uchun iqtisodiy ratsionalizmni aksiologik asosda qayta talqin qilish – insoniyatning yangi ma'naviy-iqtisodiy uyg'onish bosqichiga o'tishining poydevoridir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Smith, A. (1759). The Theory of Moral Sentiments. London: A. Millar.
2. Aristotle. (1999). Nicomachean Ethics. Hackett Publishing Company, Indianapolis.
3. Kant, I. (1785). Groundwork of the Metaphysics of Morals. Cambridge University Press, 2011 Edition.
4. Mill, J. S. (1863). Utilitarianism. Parker, Son, and Bourn, London.
5. Habermas, J. (1984). The Theory of Communicative Action. Vol. 1. Beacon Press, Boston.
6. Smith, A. (1759). The Theory of Moral Sentiments. London: A. Millar. ISBN 978-0-486-46546-1.
7. Aristotle. (1999). Nicomachean Ethics. Hackett Publishing Company, Indianapolis. ISBN 978-0-87220-464-5.
8. Kant, I. (1785). Groundwork of the Metaphysics of Morals. Cambridge University Press, 2011 Edition. ISBN 978-0-521-62470-8.
9. Mill, J. S. (1863). Utilitarianism. Parker, Son, and Bourn, London. ISBN 978-0-486-29703-1.
10. Habermas, J. (1984). The Theory of Communicative Action. Vol. 1. Beacon Press, Boston. ISBN 978-0-8070-1400-1.
11. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism. PublicAffairs, London. ISBN 978-1-61039-569-4.
12. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford University Press, Oxford. ISBN 978-0-19-289330-7.
13. Rawls, J. (1971). A Theory of Justice. Harvard University Press, Cambridge. ISBN 978-0-674-00078-0.
14. Harvey, D. (2005). A Brief History of Neoliberalism. Oxford University Press, New York. ISBN 978-0-19-928327-9.
15. Etzioni, A. (1988). The Moral Dimension: Toward a New Economics. Free Press, New York. ISBN 978-0-02-909900-5.
16. Beck, U. (1992). Risk Society: Towards a New Modernity. Sage Publications, London. ISBN 978-0-8039-8346-5.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

THE ROLE AND IMPORTANCE OF RELIGIOUS AND EDUCATIONAL CONCEPTS IN YOUTH UPBRINGING

Yuldashev Rustam Daniyrovich

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD),
Department of Samarkand tamadduni, Faculty of History,
Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract. The harmonious formation and development of the secular and religious worldview of young people is considered one of the key factors in the establishment of a civil society based on enlightenment in an updated Uzbekistan. The main goal is to build a nationalistic state by forming a free civil society and elevating human value. This scientific article describes the ideas of scientific and practical importance on the issue of developing and putting into practice the modern conceptual foundations of the formation and development of the worldview of young people in the construction of a new Uzbekistan.

Keywords: New Uzbekistan, Youth, World, modern thinking, religion, religious organization, religious and educational education, social education, religious group and community, religious beliefs, religious tolerance and interconfessional harmony in society.

YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY-MA'RIFIY TUSHUNCHANING O'RNI VA AHAMIYATI

Yuldashev Rustam Daniyrovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Tarix fakulteti, Samarqand tamadduni kafedrası
dotsent, falsafa fanlar doktori (PhD)

Annotatsiya. Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini barkamol shakllantirish va rivojlantirish ta'lim-tarbiyaga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy omillaridan biridir. Asosiy maqsadi erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va inson qadrini yuksaltirish orqali xalqparvar davlatni barpo etishdir. Ushbu ilmiy maqolada Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy konseptual asoslarini ishlab chiqish va amalda qo'llash masalasi yuzasidan ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo'lgan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, yoshlar, jahon, zamonaviy fikrlash, din, diniy tashkilot, diniy-ma'rifiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, diniy guruh va jamoa, diniy e'tiqodlar, jamiyatda diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo totuvlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N16>

Kirish. Dinni ijtimoiy fenomen sifatida tan olmaslik, ayniqsa odamlarning diniy his-tuyg'ulari bilan o'ynashish hamma vaqt jamiyat hayotida keskin o'zgarishlar, ag'dar-to'ntarlar, halokat va falokatlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan. Modomiki, din ijtimoiy hodisa ekan, uning mohiyati nimada degan savol tug'iladi? Bu savolga javob berish uchun oldin "din" atamasining ma'nosini tushunib yetish zarur bo'ladi. Bu xususda: "Arab tilidagi manbalarda qayd etilishicha, din so'zi "دین" ("dâna") fe'lidan yasalgan bo'lib, "kimgadir bo'ysunmoq, bo'yin egmoq, itoat etmoq, kimdandir qarzdor bo'lmoq, e'tiqod qilmoq, qilgan ishiga yarasha

mukofotlamoq”; *“diynun”* soʻzi esa, *“din, imon, ajr–mukofot, qilingan ishga yarasha berilgan haq”* kabi maʼnolarni bildiradi.

Oʻzbek tili lugʻat adabiyotlarida *“din”* – ishonch, ishonmoq, eʼtiqod, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, boʻysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yoʻl tutish, odat qilish, eʼtiqod qilish maʼnolarini bildirishi keltirib oʻtiladi.

Islomdan avval turkiy xalqlarning din tushunchasini ifodalash uchun turli davrlarda *“drm”, “darm”, “nom”* va *“den”* kabi soʻzlarni ishlatganlari maʼlum. Ulardan *“drm”, “darm”* din, aqida maʼnosida sanskritcha (qadim hind tili) *“dharma”* dan (Pali tilida *dhamma*); *“nom”* din ishonch, qonun maʼnosida sugʻd tilidan kirib kelganligi aytiladi.

Oʻzbek tilidagi *“din”* maʼnosini beruvchi atamalar barcha tillarda mavjud. Jumladan, zardushtiylarning manbasi *“Avesto”* da *“din”* sifatida *“daena”*, qadimgi fors pahlaviy tilida *“den”, “din”, “dena”, “daena”* soʻzi ishlatilib, *«yoʻl», «mazhab», «marosim», «uslub», «tarz»* kabi maʼnolarni bildirgan. Ibroniylar tilida istifoda qilinadigan *«dath»* soʻzi *«din»* tushunchasini ifodalash uchun umumiy termin boʻlib, *«hukm», «amr»* va *«qonun»* maʼnolarini anglatgan.

Rus tilida din maʼnosini anglatadigan *«religiya»* soʻzining kelib chiqishi borasida lugʻatlarda bir qancha yondashuvlar keltirib oʻtilgan. Ulardan baʼzilariga koʻra mazkur atama lotincha *«religio»* soʻzidan kelib chiqib, *«diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojoʻylik, moʻminlik, taqvo, muqaddas narsa yoki joy, qadamjo, ziyoratgoh, ibodat topinish–sigʻinish va u bilan bogʻliq diniy marosimlar»* degan maʼnolarni anglatadi.

Ikkinchi guruh tilshunoslari *«religio»* soʻzi semantik, maʼno va morfologik jihatdan *«relegere»* soʻzi bilan bogʻliq boʻlib, *«yangidan toʻplamoq, yangidan tanlashga kirishmoq, qayta ishlab chiqish uchun oldingi sintezga qaytish»* kabi maʼnolarni anglatadi, deb taʼkidlaydilar” [2: 7-8 6].

Tadqiqot metodologiyasi. Odamlar, jamoalar, xalqlarning u yoki bu narsa, hodisa va voqealikka nisbatan boʻladigan eʼtiqodlari din maqomiga ega boʻlishi uchun quyidagi uch asosiy xususiyatga ega boʻlishi lozim.

1. Gʻayritabiiy-moʻjizaviy ilohlar haqidagi tasavvurning, yaʼni sigʻinish, topinish obyekti boʻlgan – Xudoning mavjud boʻlishi. Ularni transsendent va immanent ilohlarga boʻlish mumkin. Bunda: *“Transsendent ilohlarga insonlar olamidan tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi boʻlmagan, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi. Bunga misol sifatida tom maʼnoda islom dinidagi Alloh taolo va qisman xristianlikdagi Ota Xudo, yahudiylikdagi Yaxvelarni keltirish mumkin.*

Immanent ilohlar deganda esa tabiatning bir boʻlagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga oʻxshab ketadigan, biroq gʻayrioddiy yaratuvchilik, buzgʻunchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega boʻlgan Xudolar kiradi. Bunday turdagi ilohlar koʻpincha yo antropomorf (inson qiyofasida) yo zooantropomorf (yarim odam yarim hayvon) yoki zoomorf (hayvon) shaklda tasavvur qilinadi. Bunga misol sifatida Qadimgi Misr, Yunon, Rim sivilizatsiyalari, zamonaviy Hindiston, Xitoy, Yaponiya dinlarini sanash mumkin” [2: 8 6].

2. Yaratganni (Xudoni) insonlarni bogʻlab turuvchi ibodat va marosimlar boʻlishi shart. Masalan, namoz, roʻza, qurbonlik, aqiqa, amri maʼruf, xatna, haj va boshqalar.

3. Diniy tashkilotlarning mavjudligi. *“Diniy tashkilot – diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish va qondirishga koʻmaklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish koʻradigan ixtiyoriy, teng huquqli va oʻz-oʻzini boshqaruvchi uyushma”* [4: 71 6]. Bir soʻz bilan aytganda bu bir din izdoshlarining jamoaviy ravishda oʻz diniy rasm-rusum, ibodat

marosimlarini o'tkazadigan, diniy ta'lim oladigan muassasalaridir. Bu, islomda – masjid, madrasa, xristianlikda – cherkov, seminariya, yahudiylilikda – sinagoga va hokazo.

Bugungi kunda jahonda 8 175 716 385 kishi yashayotgan bo'lsa, ularning 2,6 milliard xristianlik, 2,2 milliard islom, 1,2 milliard induizm, 0,5 milliard buddizm diniga e'tiqod qiladilar. 1,2 milliard esa dinsiz teizm, agnosstizm, ateizmchilar qatoriga kiradi [5]. Demak, jahon aholisining 6 milliarddan ortiqroqrog'i dindorlar olamiga mansub kishilar hisoblanadi. Shunga ko'ra, ularning yo'l boshchilari, faol qatlamlari muntazam ravishda diniy-ma'rifiy tarbiya ishlarini olib borish bilan shug'ullanadilar.

Tahlil va natijalar. Xo'sh, shunday ekan, diniy -ma'rifiy tarbiya nima, degan savol tug'iladi?. Bu savolga javob berish odamlar yashayotgan jamiyatning maqsadini aniqlashdan boshlanadi. Yangilanayotgan O'zbekistonning asosiy maqsadi esa "erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va inson qadrini yuksaltirish orqali xalqparvar davlatni barpo etish" [1: 10 6] orqali odamlarning farovon yashashini ta'minlashdan iborat. Bu buyuk maqsadning tamal toshlaridan birini yuksak axloqiy-ma'naviy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar tashkil qiladi. Ana shu jarayonda din kuchli ma'rifiy quroli sifatida odamlarning tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Modomiki, din ijtimoiy hodisa ekan, u albatta ijtimoiylashuv jarayonining ajralmas qismi ijtimoiy tarbiyaning bir qismi hisoblanadi. Ijtimoiy tarbiya nima? Bu xususda professor A.Choriev: "Ijtimoiy tarbiya jarayoni bir butun, yaxlit sistema bo'lib, jamiyatning barcha sotsial institutlari (oilalar, maktabgacha tarbiya muassasalari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, mahalla kengashlari), jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, madaniy-ma'rifiy uyushmalar amalga oshirayotgan barcha tarbiyaviy-mafkuraviy tadbirlarni, shuningdek, madaniy meros, milliy qadriyatlar, jamoatchilik fikrining tarbiyaviy-mafkuraviy imkoniyatlarini ham o'zida qamrab oladi. Boshqacha aytganimizda, ijtimoiy tarbiya — tarbiyaviy ta'sirning maqsadi va vazifalari, ustuvor yo'nalishlari va sohalari, omillari va vositalari, uslublari va usullarini o'zida mujassamlashtiradi. Ijtimoiy tarbiya — tarbiyaning ongli, aniq maqsad tomon yo'naltirilgan qismi ekanligini unutmaslik darkor. Boshqacha aytganimizda, ijtimoiy tarbiya – mafkuraning o'zidir." [6: 20 6], Klayv Erriker (Clive Erricker): "Ijtimoiy tarbiya — bu ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar, qarashlar, g'oyalar, xatti-harakatlar va muloqot usullarini o'zlashtirish va ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarni rivojlantirishning maqsadli jarayonidir [7].-degan ta'rif va tavsiflarni berganlar. Birinchi ta'rifda ijtimoiy tarbiya mafkura bilan tenglashtirilgan, ikkinchi ta'rifda esa ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarga nimalar kirishi ko'rsatilmay qolib ketgan. Birinchi ta'rifda ijtimoiy tarbiyani amalga oshiruvchi mexanizmlar tizimi aniq ko'rsatilgan bo'lsa, ikkinchi ta'rifda bu haqda hech narsa deyilmagan. Bu savolga aniqroq javob berish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim.

1. Ijtimoiy tarbiya — bu shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muayyan tarbiya strategiyalaridan iborat bo'lib, uning maqsadi jamiyatda moddiy va ma'naviy farovon yashashni qo'llab-quvvatlash, jamiyat a'zolari o'rtasidagi axloqiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, marginallik muammolarini hal qilishdir.

2. Ijtimoiy tarbiyaning vazifalari, bir tomondan, marginallik muammolarining oldini olish bo'lsa; ikkinchi tomondan ijtimoiylashuv jarayonlarini optimallashtirishi, uchinchi tomondan esa barcha odamlarga o'z huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini berish ham kerak buladi.

3. Ijtimoiy tarbiyaning usullari bilan bog'liq masalalar, xususan jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarni kuzatib boruvchi odamlar o'rtasidagi xatti-harakatlar va

munosabatlar, ma'lum qadriyatlar va an'analarni rad etuvchi, o'z me'yorlari va qadriyatlari tizimini tasdiqlovchi guruhlarini aniqlash, ularning xatti-harakatlaridagi noadekvat tomonlarni bilish va tuzatish ishlarini tashkillashtirishni ham hisobga olish kerak.

Demak, yuqorida bayon qilingan har bir holatda progressiv ahamiyat kasb etadigan transformatsiyalashuv strategiyasini aniqlash va tanlash uchun odamlarning turmush tarzi, ularning muammolari, ular o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'lumotlar to'plash orqali xulosalar chiqarishni ham inobatga olish kerakligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Ma'lumki, insonning rivojlanishi juda murakkab jarayon bo'lib, uning ko'p yillik tarixiy taqdirida hamroh bo'lgan va hozirgi davrda ham muhim rol o'ynayotgan ijtimoiy hodisalardan biri — bu dindir. Har qanday din o'zining jamiyatdagi mavqeyini saqlab qolish, ayni vaqtda kuchaytirish uchun diniy-ma'rifiy ta'lim va tarbiya ishlarini takomillashtirib boradilar.

Xo'sh, shunday ekan diniy-ma'rifiy tarbiya deganda nimani tushunmoq kerak? Bu xususda bir qator qomusiy lug'atlarda quyidagicha ta'riflar berilgan. Masalan, "Diniy tarbiya – bu odamlar onga diniy mafkura va xudojo'y xulq-atvorni singdirishdir" [8: 217 6], "Diniy tarbiya — bu muayyan din aqidalariga asoslangan tarbiya tizimidir. Din tarbiyaviy ta'sir orqali insonning ma'naviy hayotiga kirib boradi va uning irodasini din talab qiladigan harakatlarni amalga oshirishga yo'naltiradi", "Diniy tarbiya — bu bir tashkilot yoki din ta'limotiga qat'iy mos keladigan fikrlash va xulq-atvorni shakllantirishning maqsadli jarayonidir", "Diniy tarbiya – bu dindorlarning dunyoqarashini, dunyoni his etishini, muayyan konfessiyaning (dinning) aqidalari va doktrinal tamoyillariga mos keladigan munosabatlar va xulq-atvor normalarini singdirish orqali maqsadli va tizimli ravishda tarbiyalashdir", "Diniy tarbiya — bu dindorlarning nisbatan nazorat ostida ijtimoiylashuvining ajralmas qismi (oilaviy tarbiya va ijtimoiy tarbiya bilan birga)" [9]. Bunda "diniy-ma'rifiy tarbiya" tushunchasiga, odatda "din", "ma'rifat" va "tarbiya" so'zlarining mazmunidan kelib chiqqan holda integral tushuncha sifatida quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Diniy-ma'rifiy tarbiya – bu diniy, guruh, jamoa, tashkilotlarning yetakchilari tomonidan har bir individ, shaxs, kishi, odamlarga Allohning mavjudligini, uning mo'jizaviy kuchga ega ekanligini anglatish, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarga boy bo'lgan diniy urf-odatlarga qat'iy amal qilgan holda ruhiy kamolotga erishi orqali «ikki dunyo» hayoti saodatiga erishish uchun to'g'ri yo'ldan borishni o'rgatishga qaratilgan faoliyatidir. Diniy-ma'rifiy tarbiyadan maqsad — bu kishilarga nafaqat Yaratganning va payg'ambarlar hamda din peshvolarining ta'limotini o'rgatishni, balki ayni vaqtda ularning jamiyatda tutgan o'rnini, fuqarolik burchi va mas'uliyatini ham to'g'ri anglab yetish zarurligini ko'rsatish bilan ham ifodalanadi.

Aslini olganda diniy-ma'rifiy tarbiyaning markazida «ikki dunyo»ning borligini, unda insonning o'limidan keyingi ikkinchi dunyoga borishda diniy aqida, marosim, urf-odatlarning rolini sahnalashtirish [10] fenomeni yotadi. Demak, bunda atrofdagi voqelikda yuz berayotgan hodisalarni, unda insonning paydo bo'lishi va umrguzaronlik qilishlarini muqaddas mazmun bilan ta'minlashga, xususan diniy urf-odatlarni, marosimlarni ularni muqaddaslashtirish masalasiga alohida ma'no berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Diniy-ma'rifiy tarbiyani ikki: aqliy (ratsional) va ilohiy (mistik) darajalarga ajratish mumkin.

1. Diniy-ma'rifiy tarbiyaning aqliy (ratsional) darajasi. Bunda asosan quyidagi komponentlar: axborot olish va uni uzatish; axloqiy-ma'naviy qadriyatlar qoidalarga qat'iy

amal qilish; voqelikdagi o'zgarishlarga qarab faol harakat qilishini ta'minlashni yo'lga qo'yish masalasi yotadi. Xuddi shu jarayonda ikki holat: birinchidan, dunyoviy bilimlarga asoslangan dunyoqarashning o'rnini aql orqali idrok qilish, uni dinga qarama-qarshi qo'ymaslik; ikkinchisi diniy bag'rikenglikni kengaytirib konfessiyaviylikka keng yo'l ochib berish.

2. Diniy-ma'rifiy tarbiyaning mistik [11] darajasi. Masalan, bu darajada xristian dini tarbiya jarayonida dindorlarning ilohiyot olami bilan aloqa qila olishiga ishonishdan iborat diniy e'tiqodni shakllantirish va rivojlantirish uchun turli marosimlarga tayyorgarlik ko'rish va qatnashishni, uyda ibodat qilishni, muqaddas narsalarni hurmat qilish va e'zozlab avaylash tuyg'usini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Diniy-ma'rifiy tarbiya turli xil shakllar qo'llaniladi, ularning ko'pchiligi tashqi ko'rinishi bilan ijtimoiy tarbiya shakllariga o'xshab ketadi. Masalan, tarbiyaviy darslar tizimi: seminarlar, ma'ruzalar va boshqalar. Shuningdek, diniy bayram tadbirlari, ekskursiyalar, havaskorlar uyushmalari, xor, orkestrlar va boshqalar. Diniy-ma'rifiy tarbiya ishida ommaviy tarzda tashkillashtirilayotgan barcha tadbirlarga «muqaddas»lik maqomini berishga harakat qilinadi.

Diniy-ma'rifiy tarbiya ishlarini ommaviy tarzda tashkillashtirishda: ruhoniylar, diniy va dunyoviy (bir qator mamlakatlarda) ta'lim muassasalarining o'qituvchilari, bolalar va o'smirlar birlashmalari tarbiyachilari, diniy va dunyoviy tashkilotlarda faoliyat yurituvchi, masalan, skautlar [12] tomonidan amalga oshiriladi. Ayni vaqtda diniy tashkilotlar tomonidan nazorat qilinadigan va ommaviy axborot vositalari orqali yoritilib boriladi. Bu ishga oilada esa dindorlar, ota-onalar, qarindoshlar, diniy jamoa a'zolari va boshqalar jalb qilinadi. Shu tariqa diniy-ma'rifiy tarbiya jarayonida ma'lum bir mazhabga tegishli bo'lgan fikrlash, shu asosda xatti-harakatlar sodir etish xususiyatlariga, turmush tarziga, shuningdek, jamiyatda moslashish va cheklash strategiyalariga xos bo'lgan iymon-e'tiqodlar yangi avlodlarining paydo bo'lishiga olib keluvchi qiymat-me'yoriy tizimlar ishlab chiqiladi.

Diniy-ma'rifiy tarbiya ikkita negizga – yuksak axloqiylik va teran oqilalikka tayangandagina ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin bo'ladi. Chunki, yuksak axloqiylik barcha insoniylik fazilatlarini yuzaga chiqarsa, teran oqilalik esa insonni har xil bo'lmag'ur illatlardan himoya qiladi. Fransuz yozuvchisi, faylasuf Shamfor Sebasten-Rosh Nikola (1741-1794) yozganidek: “Agar faqat axloqqagina tayanilsa, unda siz g'irt befahmlar yoki dodvoychi dardisarlarni, faqat oqillikka tayanilsa — xudbin shaxsiyatparastlarni tarbiyalab yetishtirishingiz mumkin. O'sib-ulg'ayish har jihatdan, jismoniy ham, unga uyg'un holda aqliy, estetik, axloqiy jihatdan ham mutanosib bo'lmog'i kerak” [13].

Diniy-ma'rifiy tarbiyaning ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi

1. Diniy e'tiqodlarning kishilar amal qilishi kerak bo'lgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini belgilab beradi, bunda har bir so'zni o'ylab gapirish, shunga muvofiq tarzda o'zini tutishni talab qiladi.

2. Zamonaviy jamiyatning bir qismi bo'lgan turli dinlar va e'tiqodlar haqidagi bilimlarning rivojlanib borish tendensiyalarini bilish uchun muhim ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zarurligini ta'kidlaydi.

3. Xudo haqidagi, insonning o'zi va mavjud voqelikning tabiati haqidagi g'oyalar, unda nima yaxshi-yu, nima yomon, inson bo'lish nimani anglatishi haqidagi savollarga javob topish imkoniyatini beradi.

4. Yoshlarda islomiylik, nasroniylik kabi asosiy dinlar, boshqa diniy an'analar va hayotning turli savollariga javob beradigan dunyoviy va diniy dunyoqarashni tushuntirib berish bo'yicha bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Jamiyatda o'zaro hurmat va bag'rikenglikni mustahkamlash orqali yoshlar shaxsining rivojlanishiga, kelajakda ijtimoiy hamjihatlikning yanada barqaror tus olishiga yordam beradi.

6. Yoshlarning o'z-o'zini, o'z xatti-harakatlarini, turmush tarzidagi ma'naviy muhitni yaxshilashda dinning ahamiyati borligini chuqur anglash imkonini beradi.

7. Ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quv dasturi doirasida diniy e'tiqodlarni o'rganishning ma'naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotga erishishda muhim ahamiyat kasb etishini har tomonlama asoslab beradi.

8. Diniy tushunchalarining zamonaviy jamiyatning axloqiy-ma'naviy va madaniy hayotidagi rolini o'rganish orqali odamlarda axloqiy ong va falsafiy tushunchalarni rivojlantirishga olib keladi.

9. Yoshlarni katta sershovqin hayotiga tayyorlash, ularning bandligi va umrbod ta'lim-tarbiya olishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bolalar va yoshlarga o'ziga ishongan shaxslar va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishlariga yordam beradi.

10. Maktabda o'quvchilar o'rtasida ahillikni rivojlantirishga muhim hissa qo'shadi.

Xulosa o'rnida N.D.Nikandrov yozganidek: "Diniy tarbiya haqiqat va ezgulik qadriyatlarini bilish, ko'nikma va tushunishni ta'minlaydi, odamlarning axloqiy mulohazalar qilish qobiliyatini mustahkamlaydi, shuningdek, to'g'ri tanlov qilish uchun turli xil qarorlar qabul qiladi" [14: 9-14 6].

Diniy-ma'rifiy tarbiya turli millat vakillarini tushunish va e'tirof etishni rivojlantirish uchun yaxshi asos yaratadi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, diniy kamsitishlarning oldini oladi.

XXI asrga kelib din odamlar uchun kuchli ijtimoiylashtiruvchi omilga aylanib bormoqda. Din ana shu ijtimoiylashtiruvchi prizma orqali olamni dunyoviy va diniy omillarni uyg'unlashtirish orqali yangicha falsafiy ko'z bilan qarovchi tafakkur tarziga aylanib bormoqda. Bugungi kunda diniy-ma'rifiy tarbiyani yangi bosqichga ko'tarish yoshlarni:

- a) hayot va mehnatga puxta tayyorgarlik ko'rish;
- b) boshqa odamlar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash;
- v) o'zgalarni hurmat qilish;
- g) boshqalarning dini va madaniyatiga hurmat ko'rsatish;
- d) turli qarashlar va fikrlar xilma-xilligini e'tirof etish;
- ye) har qanday adolatsizliklar bilan murosasiz bo'lish;
- yo) atrof-muhitni asrash va kundan-kunga yaxshilab borish;
- j) doimo ma'naviy-ruhiy muhitni yaxshi tomonga o'zgartirib borish;
- z) xalqlar o'rtasida tinch-totuv, urush-janjallarsiz yashashni targ'ib-tashviq qilish orqali

zamon ruhiga mos keladigan diniy va dunyoviy dunyoqarashlarni uyg'unlashtirish tizimini yaratishga hissa qo'shishni oliy maqsad sifatida qaramoqda. Chunki, yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un tarzda shakllantirish va rivojlantirish Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'rifatparvarlikka asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishning tayanch omillaridan biri sanaladi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida bayon qilingan barcha fikrlarni xulosalab, shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimiz taraqqiyotining yangi

bosqichida “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida “Farmon qabul qilindi va unda diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo’nalishlari qilib quyidagilar:”

a) jamiyatda diniy bag’rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni yanada mustahkamlashga oid ilg’or mexanizmlarni joriy etish;

b) ilm-fan va jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo’shgan buyuk ajdodlarning insonparvarlik, ezgulik, tinchlik va bag’rikenglik kabi umuminsoniy va oliyjanob g’oyalarga asoslangan diniy-falsafiy merosini chuqur o’rganish hamda keng targ’ib etish;

v) diniy-ma’rifiy sohada kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish orqali zamon talablariga mos mutaxassislarni yetishtirish;

g) aholi orasida birdamlik, o’zaro hurmat va mehr-oqibat ruhini kuchaytirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga qaratilgan dolzarb ilmiy tadqiqotlarni qo’llab-quvvatlash;

d) diniy-ma’rifiy sohadagi xalqaro hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish” kabilar belgilandi.

Demak, ushbu Farmon mamlakatimiz yoshlarining dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg’un shakllantirib borishni kafolatlovchi huquqiy asoslaridan biri sanaladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2022. - Б.10.
2. Диншунослик асослари (Ўқув қўлланма). – Тошкент: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2013.- Б.7-8.
3. Диншунослик асослари (Ўқув қўлланма). – Тошкент: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2013.- Б.8.
4. Ислон. Энциклопедия. – Т.: “ Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. - Б.71.
5. <https://sevabashirov.livejournal.com/579959.html>
6. Анвар Чориев. Инсон фалсафаси. Ижтимоий тарбия. Учинчи китоб. – Қарши: “ Илм-фан маънавият” нашриёти, 2024. - Б.20.
7. Clive Erricker. Religious education and social and emotional aspects of learning (SEAL). / Clive Erricker. The Religious Education Handbook. [Electronic resource]. URL: <http://re-handbook.org.uk/> (date of access: 14.11.2016).
8. Профессиональное образование. Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика. — М.: НМЦ СПО, 1999.- С.217.
9. Религиозное воспитание. Педагогическая энциклопедия // <https://didacts.ru/termin/religioznoe-vozpitanie.html>
10. Сакральний(лотинча sactr) - muqaddas - diniy kult va marosimga tegishli muqaddas; tantanali// Словарь иностранных слов – М.:” Рус.яз..1985 - С.441.
11. Мистика –юнунча «mystikos -яширин, сирли» деган сўзлардан олинган бўлиб, ғайритабиий оламга, илоҳлар ва илоҳий кучларга, инсоннинг илоҳият олами билан алоқа қила олишига ишонишдан иборат диний эътиқод.//Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Б.602.
12. Скаут сўзининг ўзи инглиз тилидан разведка ходими деб таржима қилинган. Скаутлар ҳаракати ёшларнинг жамиятда конструктив ўрин эгаллаши учун ёшларнинг жисмоний, маънавий ва ақлий ривожланиши билан шуғулланувчи бутунжаҳон болалар ҳаракатидир. Бунга Скаут усули деб аталадиган амалий очиқ

хавода фаолият олиб боришга қаратилган норасмий таълим орқали эришилади. Скаут ташкилоти ихтиёрий, сиёсий эмас ва мустақилдир.// Википедия. <https://ru.wikipedia.org> › wiki › Скаутское_движение.

13. Шамфор Себастьян-Рок Никола. Максимумы и мысли. М.: Арт Презент, 2012. – С. 146// <https://www.livelib.ru/author/490475/top-sebastenrok-nikola-de-shamfor>
14. Никандров Н. Д. Светское образование и духовное просвещение: проблемы взаимодействия. [Текст] / Н. Д. Никандров // Педагогика, 2010. № 3. С. 9-14.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL ASPECTS OF IMPROVING PUBLIC CONTROL

Sagdullaeva Dilbar Shukhratovna

Candidate of Philosophy, Associate Professor of TUIT

named after Muhammad al-Khwarizmi

E-mail: sagdullaevadilbar14@gmail.com

<http://orcid.org/0000-0003-0847-9901>

Abstract. Modernization reforms implemented in Uzbekistan are aimed at creating decent living conditions for every citizen through the development of civil society. The development of civil society is dialectically interrelated with the level of political and legal culture of the population. This article examines the nature and mechanisms of public oversight as one of the important functions of civil society institutions in the context of digital transformation, using methods such as systems analysis, comparison, generalization, and deduction. The article demonstrates that the successful activities of NGOs and local governments lead to increased public oversight.

Keywords: public oversight, liberalization, democratization, modernization, political culture, civil society institutions.

JAMOATCHILIK NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING FALSAFIY JIHATLARI

Sagdullayeva Dilbar Shuxratovna

Muhammad al - Xorazmiy nomidagi TATU dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan modernizatsion islohotlar fuqarolik jamiyatini rivojlantirish asosida har bir fuqaroga munosib hayot sharoitlarini yaratish maqsadiga qaratilgan. Fuqarolik jamiyatining rivoji esa aholi siyosiy-huquqiy madaniyati darajasi bilan dialektik aloqadadir. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari muhim funksiyalaridan biri jamoatchilik nazoratining mohiyati, mexanizmlari tizimli tahlil, qiyoslash, umumlashtirish, deduksiya kabi metodlar yordamida o'rganildi. Maqolada NNT, o'zini-o'zi boshqarish organlarining muvaffaqiyatli faoliyati jamoatchilik nazoratining o'sib borishiga olib kelishi asoslandi.

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati, liberallashtirish, demokratlashtirish, modernizatsiya, siyosiy madaniyat, fuqarolik jamiyati institutlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N17>

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayot sohalarining liberallashuvi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan modernizatsion islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Aynan liberallashuv, demokratlashuvga yo'l ochib, bularning ikkisi fuqarolik jamiyati institutlarining takomillashuvini ta'minlaydi.

Liberallashuv islohotlarning tadrijiyligini, ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda manfaatlar muvozanatini ta'minlovchi mexanizmning amal qilishiga olib keluvchi ochiq fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi orqali jamoatchilik fikrini

shakllantirish, fikrlar xilma-xilligi, qarashlar rang-barangligini ta'minlash, fuqarolarda ijtimoiy faollikni oshirishni determinlovchi omil hisoblanadi.

Fuqarolarda yuksak darajadagi siyosiy-huquqiy ong va madaniyatning kamol topishi esa, o'z navbatida fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga xizmat qiladi. "Jamiyatimiz tuzilmalarida muvozanatni saqlaydigan kuchli ommaviy, jamoat birlashmalari bo'lmas ekan, davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlarida o'zboshimchalik, volyuntarizm, avtoritar tafakkur va boshqaruv apparatining korrupsiyasi singari illatlar paydo bo'lmasligiga jiddiy kafolat ham bo'lmaydi"[1].

Ustuvor maqsadimiz, deb ta'kidlaydi Prezident Sh.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqida, "mamlakatimizda yashayotgan har bir oilaning, har bir fuqaroning hayotini tubdan o'zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishdir"[2]. Ushbu modernizatsion o'zgarishlar jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni beqiyosdir. Ular jamiyatda ijtimoiy fikrni shakllantiribgina qolmay, balki davlat va jamiyat hayotida jamoatchilik nazorati o'rnatilishining asosiy harakatlantiruvchi quroli hisoblanadi.

Demak, fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazorati o'zaro dialektik aloqador bo'lgan jarayonlar mohiyatini ifodalab, ular demokratik jamiyatning poydevorini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati kuchaygani sayin, jamoatchilik nazorati ham samaraliroq bo'lib boradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Yangi O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy asoslari qator qonun hujjatlarida mujassamlashgan. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritilgan bo'lib, XIII bob "Fuqarolik jamiyati institutlari", deb nomlanadi. Uning 69-moddasida "Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi" [3] deb mustahkamlab qo'yildi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, NNT zamonaviy demokratiya sharoitida vositachi, bog'lovchi bo'g'in emas, balki hukumat nazoratchisi bo'lib hisoblanadi. "Nodavlat notijorat tashkilotlari davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadi va davlat hokimiyati o'zining uzoq yillik hukmronligini ta'minlashni xohlasa, bu tashkilotlar kayfiyatiga qarashi lozim. Nodavlat notijorat tashkilotlari hukumatning barometri bo'lishi zarur. Ularga qarab, hukumat – xalq tomonidan davlat hokimiyati xatti-harakati qanday qabul qilinayotganligini aniqlashi shart" [4].

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslarini esa "Jamoatchilik nazorati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida", "Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to'g'risida", "Yong'in xavfsizligi to'g'risida", "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida", "Ekologik nazorat to'g'risida", "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida", "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Nodavlat, notijorat tashkilotlari to'g'risida", "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" va boshqa bir qator qonun hujjatlarida bilan belgilangan normalarda shakllantirilgan.

Davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 2018-yil 13-apreldan kuchga kirgan. Ushbu qonunning qabul

qilinishi davlat organlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish samaradorligining oshishiga, ular tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishiga, fuqarolarning murojaatlarini, ularda ko'tarilgan muammolarni joyida hal etishda davlat organlari rahbarlari tomonidan qay darajada munosabat bildirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga imkon beradi. Jamoatchilik nazorati – davlat boshqaruvini erkinlashtirish va demokratlashtirishning asosiy sharti bo'lib, aholining davlat boshqaruvidagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlari sifatida davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqiga egadirlar[5]. Bundan maqsad davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining mavjud qonunlarga mosligini nazorat etilishiga, davlat organlariga yuklatilgan vazifalarning bajarilish samaradorligi oshishiga erishishgina emas, balki jamoatchilikning ehtiyoj va irodasi davlat miqyosidagi vakolatlarini amalga oshirishning me'yoriy mexanizmini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Bu esa, mamlakatimizning har bir fuqarosi o'z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olish bilan birga, boshqalardan, davlat hokimiyati organlaridan ularning zimmasidagi majburiyatlarni, vazifalarni bajarishlarini talab qilish huquqiga egaligini anglatadi. Jamiyat a'zolarining egallab turgan mavqelarida o'z mansablarini suiiste'mol qilmay, faoliyatlariga vijdonan, mas'uliyat bilan yondashishlari, davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zarurligi faylasuflar asarlarida alohida qayd etiladi. Xususan, Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida hukmdorlarning xalq oldida hisob berib turishlari va ularning qonunlarga so'zsiz bo'ysunishlari zarurligiga alohida urg'u berilgan[6]. "Qonun chiqaruvchining hayot tarzi shahar aholisining hayot tarzi va ularning qonunlariga zid bo'lmasligi kerak"ligi Aflotun asarlarida[7] bayon etilsa, Beruniyning quyidagi nuqtai nafari ham yuqoridagi fikrlarning mantiqiy davomini ifodalaydi: "Boshqarish va boshchilik qilish bu zo'ravonlar tomonidan jabrlangan kishilarning haq-huquqlarini tiklash yo'li bilan fuqaro halovatini ta'minlash niyatida o'z halovatidan mahrum bo'lish demakdir. Bu fuqaro oilasini, mol-mulkini, hayotini muhofaza va himoya qilaman deb o'z vujudini toliqtirish, fuqaro uchun jang-jadal olib borish va uni mudofaa qilish uchun zarur vositalarni hozirlash niyatida jon koyitish demakdir. ...Har bir davrning o'ziga xos urf-odatlar bo'lib, kishilar ularga rioya qilishlari lozim bo'ladi, aksincha, ya'ni bir xillik va o'zaro kelishganlik bo'lmagan taqdirda tartibot ham yo'qoladi"[8]. Demak, davlat rahbari va fuqaro o'rtasidagi munosabatga o'ziga xos tarzda yondashish masalasi bo'yicha ham O'rta Osiyo faylasuflari biri birini istisno etmaydilar. Ular nazdida davlat boshqaruvining qaysi shakli amal qilishidan qat'i nazar davlat rahbarlari har qanday sharoitda o'z fuqarolari oldidagi burchi va majburiyatini bajarishga majburdirlar, ular xalqni bir maqsad asosida birlashtirib olg'a qarab harakatlantiruvchi kuchga ega bo'lishlari kerak. Buyuk ajdodlarimiz ta'limotlarida ilgari surilgan taraqqiyparvar g'oyalar bugungi globalashuv davrida xalq hokimiyatchiligining rivojlanishi jarayonida davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish imkoniyatlari reallashishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Natijalar va muhokama. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar Yangi O'zbekiston taraqqiyot Strategiyasida belgilangan vazifalarni to'liq amalga oshirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar davlat

hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning dolzarbligini yanada ko'rsatmoqda. Jamoatchilik nazoratining amal qilishi, avvalo, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qilsa, o'z navbatida fuqarolik jamiyati rivojlanib borgan sari jamoatchilik nazorati uchun kengroq imkoniyat va istiqbollar paydo bo'ladi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishini jamoatchilik nazoratisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Davlat idoralarining xalq uchun ishlashi tamoyilining amaliyotga tatbiq etilishi o'zbek demokratiyasining ifodasi hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik fikrini ifodalab, jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Jamoatchilik nazoratining mavjudligi demokratik davlatning asosiy belgisi sanaladi. Jamoatchilik nazorati bir tomondan, davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarni davlat organlari, mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlaridan himoya qilish mexanizmi vazifasini o'taydi.

Jamoatchilik nazorati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish (har bir fuqaro davlat idorasining hujjati bilan bema'lol tanishishi mumkin, fuqarolarning murojaatlari darhol ko'rib chiqilishi va ularga zudlik bilan javob berilishi lozim);
- davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlariga yuboriladigan petitsiyalar;
- davlat va jamiyat ishlarida fuqarolarning bevosita qatnashishi (asosan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati orqali amalga oshiriladi);
- davlat siyosatiga ta'sir o'tkazuvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, ilmiy ekspertizani amalga oshirish, tahliliy hujjatlar tayyorlash, publitsistik asarlar chop etish, ijtimoiy audit;
- jurnalistik tekshiruv;
- qonun loyihalar va davlat hayotiga oid muhim masalalarni oshkora muhokama qilish;
- qonunchilik tashabbusi bilan chiqish[9].

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining har bir bosqichini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati ishtirokining kuchaytirilayotgani ham e'tiborga molikdir. Jamiyatimizda amalga oshayotgan raqamli transformatsiya jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlarning yaratilayotgani turli jabhalarda sohalarning raqamlashtirilishi, shuningdek, elektron platformalar tashkil etilayotgani, eng avvalo ushbu tashkilotlarning o'z faoliyatida samaradorlikka erishishi uchun xizmat qilsa, boshqa tomondan aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqish hissini shakllantirishga turtki bo'ladi. Shuningdek, ushbu shaffoflik va ochiqlik jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish imkonini ham beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarining shakllariga oid tuzilmalar qaror topmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan mamlakatimiz fuqarolari jamiyat va davlat hayotiga daxldor muhim masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishlari (petitsiya) uchun "Mening fikrim" maxsus veb-portali, prezident virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda.

Aholiga atrof-muhit holati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini beruvchi, mazkur sohadagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi foto va video materiallarni joylashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan maxsus veb-portalni yaratish hamda har bir xabar berilgan holat bo'yicha tezkor choralar ko'rish tizimi joriy qilinganligi, davlat ekologiya qo'mitasi veb-saytida aholi yashash punktlari, yashovchi aholi va mavjud konteynerlar sonini ko'rsatgan holda barcha chiqindi to'plash shoxobchalari joylashishining elektron xaritasini

ko'rsatuvchi sahifa faoliyat yuritayotgani atrof muhit sofligini saqlashda muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Jamoatchilik nazorati jamiyatdagi illatlarni bartaraf etishda muhim o'rin tutadi. Jamoatchilik nazoratida faoliyatning samaradorligi va natijasi, shuningdek, amalga oshirilgan nazorat amaliyotining ta'sirchanligi muhim o'rin tutadi. Bu jihatdan jamoatchilik nazorati jamiyatda mavjud muammolar va o'z yechimini kutayotgan ziddiyatlar haqida obyektiv ma'lumot olish hamda ularning maqbul yechimini topishga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik fikrini ifodalaydi, jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Jamoatchilik nazoratining mavjudligi demokratik davlatning asosiy belgisi sanaladi. Bir tomondan, jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarni davlat organlari, mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlaridan himoya qilish mexanizmi vazifasini o'taydi.

Bu borada o'zini o'zi boshqarish organlarining imkoniyatlari yuqoridir. Zero, ular xalq hokimiyatchiligi tizimining fundamental asoslaridan bo'lib, aholi bilan doimiy muloqotda bo'luvchi boshqaruv tizimi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi – fuqarolarning O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

Rivojlangan mamlakatlar, xususan Singapur tajribasi bugun mamlakatimizda davlat va jamiyat boshqaruvini amalga oshirishda namuna sifatida o'rganilmoqda. Singapurda korrupsiyaga qarshi kurashda "jamoatchilik izzasi" tushunchasi shakllangan bo'lib, bu insonning oilasi, hatto kelajak avlodlari qadr qimmatini, sha'ni uchun yuksak mas'uliyatni anglatadi. Hech bir inson o'z oilasi nomiga umrbod la'nat tamg'asi bosilishini istamaydi, albatta. Zero, korrupsiya vatanga xoinlik bilan tenglashtiriladi. Qadimda Markaziy Osiyo hududida oila sha'ni xuddi shunday jamoatchilik nazorati asosida himoya qilingan.

Bizningcha, jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonida o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazorati ishlashiga ta'siri ularning o'z vazifalarini qay darajada bajarishi bilan belgilanadi.

1. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari jamiyatni demokratlashtirish va yangilash jarayonlariga muvofiq aholi tafakkurida demokratik qadriyatlarni shakllantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan siyosiy va huquqiy-ma'rifiy axborot tarqatish maqsadida doimiy ravishda targ'ibot tashviquot ishlarini, siyosatshunos, huquqshunoslar bilan uchrashuvlar, maslahatlar tashkil etib, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarning mohiyati, afzalliklari tushuntirib borilishi ham ma'lum darajada fuqarolarning siyosiy-huquqiy savodxonlik darajasi o'sishi orqali fuqarolik mas'uliyati shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, mahalla a'zolarida qonunga xalq irodasining ifodasi, o'z manfaatlarining himoyachisi sifatida ongli munosabat shakllanishiga olib kelib, qonunga itoat etib, undan manfaatdor bo'lib yashash ko'nikmalari qaror topishiga xizmat qiladi. Zero, huquqiy, siyosiy madaniyatga ega inson o'zini o'zi ham nazorat qila oladi boshqalardan ham qonunga itoatkorlikni talab qila oladi. Yuqori huquqiy madaniyat jamiyatda qonun ustuvorligi tamoyilini mustahkamlashning asosiy sharti hisoblanadi. Madaniyat qonunlarning hayotga tatbiq etilishi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqori huquqiy madaniyatga ega bo'lgan jamiyatda fuqarolar o'z huquqlarini bilgan holda, davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini yanada faol va samarali amalga oshiradi. Ular qonunbuzarliklarga befarq bo'lmaydi va hokimiyatdan mas'uliyat talab qiladi.

Jamoatchilik nazorati mexanizmlarining rivojlanishi, o'z navbatida, fuqarolarning huquqiy savodxonligi va faolligini oshirib, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga yordam beradi.

Qisqacha qilib aytganda, jamoatchilik nazorati — bu huquqiy madaniyatning amaliy ko'rinishlaridan biri bo'lib, ular birgalikda demokratik va qonuniy davlat qurilishining asosini tashkil etadi.

Boshqaruv idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda mahallaning vazifalarini kengaytirib borish, davlat ijtimoiy dasturlarining hayotga tatbiq etilishi bo'yicha joylarda amalga oshirilayotgan ishlardan jamoatchilikni keng xabardor qilish maqsadida davlat organlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari bilan mustahkam hamkorligini ta'minlash doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi kerak.

2. Bugun davlat hokimiyatining ba'zi vakolatlari bosqichma-bosqich o'zini o'zi boshqarish organlariga berib borilayotgan davrda mahalla fuqarolar bilan mahalliy davlat hokimiyatini bog'lovchi muhim vositachilik vazifasini bajarmoqda. Ular bu jarayonda aholi uchun ham davlat hokimiyati uchun ham asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu mahalliy darajada ijro etuvchi hokimiyat bilan aholining o'zaro uzviy ta'sirini namoyon qiladi. Mahalla o'z hududida yashovchi aholining real ahvoli, mavjud muammolari, manfaatlarini o'rganib, ular haqida davlat hokimiyatiga axborot berish bilan birga hukumat qarorlari, fuqaro majburiyatlari joylarda qanday bajarilayotganligini nazorat qilib, mahalliy darajadagi bu munosabatlarni tartibga solib turuvchi muhim vazifani bajaradi. Bu jarayonda huquqni himoya qiluvchi organlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi.

O'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ular asosan, ijtimoiy ta'minot, obodonlashtirish, madaniy oqartuv ishlari bilan band bo'lib qolmoqdalar. Vaholanki bugungi kunda aynan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolar siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatini o'stirishga, jinoyatchilikning oldini olishga, qonuniy xatti-harakatni tashviq qilish va rag'batlantirishga e'tibor bersalar, ko'proq ijobiy natijaga erishish mumkin bo'ladi. Hatto o'zini o'zi boshqarish organlari o'z davriy nashrida aholidan tushgan murojaatlar asosida yuridik maslahatlar berib borsa ham aholida qonunga nisbatan munosabat o'zgarishiga, ularning huquqiy savodxonlik darajasi o'sishiga, qonuniy xatti-harakatga moyillik ortib borishiga yordam beradi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida mahalladoshlar orasida o'zaro jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi va kishi xatti-harakatining u yordamida tartibga solinishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan olib boriladigan nazoratdan ko'ra kuchliroq samara beradi. Shuning uchun ham, har bir mahallada fuqarolarning bir-birini nazorat qilish tizimini shakllantirish, jamoatchilik sudlarini, jinoyatchiliklar, huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha jamoatchilik ishchi guruhlarini tuzish hamda ularning keng amal qilishiga erishish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolar faolligiga tayanib, o'zini o'zi boshqarishni tashkil etuvchi fuqarolik jamiyati instituti sifatida takomillashuvi uchun bir qator muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi:

-fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularning mustaqilligi haqiqiy ma'noda ta'minlanishi uchun qonun

hujjatlariga o'zgartishlar kiritish, ijro etish va nazorat qilishga doir muammolarni yechish usullari va mexanizmini ishlab chiqish;

-fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari oldiga qo'yilgan vazifalar to'liq bajarilishini ta'minlash uchun ularning moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida foyda olishning yangi manbalarini shakllantirish;

-fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining OAV bilan hamkorlikdagi huquqiy bilimlarni tarqatish, ulardan kundalik hayotda foydalanib yashash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan faoliyatini, umuman mahallalar har kungi hayotini to'la-to'kis aks ettirib, ular orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini yanada kuchaytirish;

-har bir mahallada fuqarolarning o'zaro nazorat qilish tizimini shakllantirish, jamoatchilik sudlarini, jinoyatchiliklar, huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha jamoatchilik ishchi guruhlarini tuzish hamda jamoatchilik muhokamalarini kengaytirish;

-fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining inson huquqlarini himoya qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi NNT bilan hamkorligini kuchaytirish [10].

Demak, yuqoridagilarga asosan aytish mumkinki, hokimiyatning suiiste'mol qilinishining oldini olish, shaffoflikni oshirish, davlat xizmatlarining sifatini yaxshilash va aholi manfaatlarini himoya qilish fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Bu borada korrupsiyaga qarshi monitoringni rivojlantirish, NNTlar tomonidan tekshirishlar, ommaviy axborot vositalaridagi tanqidiy chiqishlar, fuqarolarning murojaatlari va ijtimoiy so'rovlar ko'lamining kengayishi jamoatchilik nazorati samaradorligi ta'minlanishining asosiy quroli hisoblanadi. Demokratik tamoyillarning mustahkamlanishi, davlat organlarining mas'uliyatini oshirish hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari // Bunyodkorlik yo'lidan. 4-Jild. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. - 26-27-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi // <https://www.gazeta.uz/oz/politics>.
3. O'zbekiston Respublikasi Kontitutsiyasi. – Toshkent:O'zbekiston, 2023.-13- bet.
4. Джавакова К. Институты народовластия в Республике Узбекистан. - Ташкент: Академия МВД РУз, 2006. - с.144.
5. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni 2018 yil 13. 04 // <https://lex.uz/docs/3679092>.
6. Forobiy Abu Nasr.Fozil odamlar shahri. - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. - 186-bet.
7. Платон. Законы. - М.: Наука, 1993. - с.114.
8. Абу Райхан Мухаммед ибн Ахмед ал Беруни.Собрание сведений для познания драгоценностей (минералогия). - М., 1963. - с.31-32.
9. 2017-2021 yillarda O'zR rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasini o'rganishga oid ilmiy-uslubiy risola.-Toshkent:Ma'naviyat, 2017.-37-bet.
10. Sagdullaeva D.Sh. Huquqiy madaniyat - demokratik taraqqiyot omili.- T.: Fan va texnologiya, 2012. -93-94-betlar.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

METHODOLOGICAL ANALYSIS OF AZIZIDDIN NASAFI'S VIEWS ON THE SCIENCE OF SUFIS

Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich

Bukhara State Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of "Social Sciences",
Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences (PhD)

Abstract. This article analyzes the views of Azizuddin Nasafi, a great Sufi compatriot, scholar, physician, and philosopher, who made a worthy contribution to the development of medieval Eastern philosophy, in particular, the philosophy of Sufism, with his unique spiritual heritage and views.

Keywords: Azizuddin Nasafi, Sufism, Suluk, Tax, Love, Jaeba, Hijab, Maqam, Uruj, Nuzul.

AZIZIDDIN NASAFIYNING TASAVVUF ILMIGA OID QARASHLARINING METODOLOGIK TAHLILI

Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich

Buxoro davlat pedagogika instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
<https://orcid.org/0000-0003-0401-2992>
E-mail: zubaydillonarziyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'rta asr Sharq falsafasi, xususan, tasavvuf falsafasining taraqqiyotiga o'zining betakror ma'naviy merosi va qarashlari bilan munosib hissa qo'shgan buyuk mutasavvif vatandoshimiz, alloma, tabib hamda faylasuf bo'lib hisoblangan Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ilmining mazmuni hamda mohiyatiga oid qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Aziziddin Nasafiy, tasavvuf, suluk, solik, ishq, jaeba, hijob, maqom, uruj, nuzul.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N18>

Kirish. Tasavvuf g'aybni mushohada qilish va irfon yo'lidir. Irfon esa bilim, amal, taqvo va sulukdan hosil bo'lgan bir ilmdir. Dalillar, burhonlar, qiyoslar, ya'ni aql yuritish orqali qo'lga kiritilgan ilm, tashqi ilm (ilmi husuliy), dalillar, burhonlar, qiyoslarsiz, ya'ni bulardan boshqacha aytganda, tasfiya bilan rivojlangan ilmga esa ilmi huzuriy deb nom berilgan. Boshqacha aytganda, so'fiylarning ilmi bir qator hollar ilmidir.

Arab tilida suluk; "biror yo'lni izlamoq", "biror yo'lni tutmoq", "qo'shilmoq", "intiqol etmoq" kabi ma'nolarni anglatadi Tasavvufda esa shayxga bog'langan kishining ma'lum bir usul va reja asosida Alloh tomon qilgan safaridir. Suluk tushunchasi yo'l ma'nosini anglatuvchi va terminologiyada o'xshash ma'nolarga ega bo'lgan tariq va tariqat tushunchalari bilan doimiy ravishda taqqoslanib kelingan. Lekin mutasavviflar nazdida suluk tushunchasi tariq tushunchasidan kengroq va qamrovliroqdir. Zero, tariqatda shayx atrofida to'planish haqida

gap ketganda, sulukda bunday holatga ehtiyoj yo'q. Chunki suluk xulq va hol bilan Haqqa yaqinlik(unsifat) darajalariga ko'tarilishdir. Bu esa insonning botini va zohiri duch keladigan mujohadalar va qiyinchiliklar natijasida sodir bo'ladi. Bu bosqichdan so'ng solik nafsida hech qanday qiyinchilik va mashaqqat sezmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimli yondashuv, retrospektiv tahlil, mantiqiylik va vorisiylik, dialektik, germeneytik, qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aziziddin Nasafiy XIII asrda yashagan va o'z davrining mashhur mutasavvifi, faylasufi va allomasi sifatida tanilib, "Imom ul muhaqqiqiy" (Haqiqat ahli imomi) unvoni bilan ulug'langan hamda, "Manozil as-soyirin" (Sayr etuvchilar manzillari), "Usul va furu'" (Ildizlar va butoqlar), "Mabda' va ma'od" (Chiqish va qaytish), "Miftox ul-asror" (Sirlar kaliti), "Zubdat ul-haqoyiq" (Haqiqatlar qaymog'i), "Bayon ut-tanzil" (Nuzul bayoni), "Kashf ul haqoyiq" (Haqiqatlarning ochilishi), "Nafsi insoniy", "Insoni komil", "Vahdati vujud", "Asror ut-tasavvuf" (Tasavvuf sirlari), "Xavos ul-xuruf" (Harflarning xususiyatlari) va "Asror ul-qobiliya" (Qobiliyat sirlari), "Asror ul-vahy" (Vahiy sirlari), "Suluki maqomot" (Maqomot yo'llari), "Olami Sag'iy va Vahdati vujud (Kichik olam va Yagona vujud) kabi asarlarida tasavvuf falsafasining umumnazariy masalalarini o'zining teran, kuchli mantiqqa asoslangan tahliliy-tanqidiy fikrlari bilan sharhlagan.

Tahlil va natijalar. Insonning asl maqsadi borliq doirasini to'ldirish ekan, u tushirilgan joyidan yana harakatga kelib, dastlabki joyiga qaytishi uchun bu abadiy sayohatni boshlashi shart. Shu nuqtayi nazardan, Nasafiy nazdida inson borliqning ham boshlanishi, ham harakat nuqtasidir. Nasafiyga ko'ra, suluk bormoq, yurish ma'nosini bildiradi. Demak, mutlaq ma'noda "solik" yo'lovchi, suluk esa sayohat demakdir. Bu sayohat xoh moddiy olamda, xoh ruhlar olamida bo'lsin, ikkalasi ham sayohatdir. Ammo shariat, tariqat va haqiqat arbobi nazdida suluk alohida ma'no kasb etadi. Tariqat arbobi bo'yicha suluk, yomon axloqdan qutulib, yaxshi axloqqa ega bo'lishdir. Shariat arbobi nazdida suluk jaholatdan qutulib, ilmga ega bo'lishdir. Haqiqat arbobining nazdida esa, suluk insonning o'z borlig'ini yo'qotib, Haqning borlig'ida mavjud bo'lishidir. Shunga ko'ra aytish lozimki, shariat arbobi nazdida solik ilm o'rganuvchi, suluk esa tahsildan iboratdir. Tariqat arbobi nazdida esa solik o'z nafsini isloh qilish uchun sa'y-harakat qilgan kishi(mujohid)dir. Suluk esa nafsning jihodi va buning uchun g'ayratdir. Haqiqat arbobi nazdida ham solik nafi, ya'ni o'zini fano qilib, Haqni isbot etgan kishidir. Suluk ham nafi, yo'qlik demakdir. Nasafiyning fikricha, suluk faqat insonlarga xos narsa emas. Borliq olamining barcha unsurlari sulukdadir. Har bir mavjudot o'z mohiyatiga erishish uchun harakatda bo'ladi. Zero, narsaning mohiyati uning kamoloti demakdir. Insonning kamoloti bilan ham hamma narsa nihoyasiga yetadi. Zero, insonning kamolot darajasi butun borliqning kamolidir. Yana bir ibora bilan aytganda, borliqning asl maqsadi inson darajasiga erishishdir. Insonning nihoyasi esa Nasafiyga ko'ra "bolig'" (yetuklik) tushunchasi bilan belgilanadi. Mutasavviflar tasavvufni "suluk ilmi" deb ta'riflashgan va bu ilmning maqsadi insonning nafsini dunyo kirlaridan tozalash, axloqini go'zallashtirish va Rabbini tanishdan iboratdir. Solik bu yo'lda ilmi va tasavvuri bilan emas, holi bilan suluk qiluvchi kishidir. U holat bilan harakat qilgani uchun o'zini zalolatga tushiradigan shubhalarga duchor bo'lishdan ham xotirjamdir. Aziziddin Nasafiy asosan "Zubdat ul haqoyiq", "Tanzil", "Maqsadi aqso" va "Komil inson kitobi" asarlarida sayri sulukka oid masalalarni tahlil etgan. Jumladan, "Maqsadi aqso"ning kirish qismi deb hisoblanishi mumkin bo'lgan sakkiz fasldan iborat bobning birinchi fasli sayr va sulukka oid to'rtta tushunchaning tushuntirilishiga bag'ishlangan. Bular: yo'lovchi (رونده), yo'l (راه),

manzil (منزل) va maqsad (مقصد) tushunchalaridir. Mutasavvif birinchi faslda tahlil qilgan ilk tushuncha yoʻl tushunchasidir. Nasafiy yoʻlning martabalarini tushuntirish orqali izohlashga harakat qilgan. Nasafiy suluk soʻzining lugʻaviy maʼnosidan kelib chiqib, suluk tushunchasini “...bilgilki, tasavvuf ahli fikriga binoan suluk yomon soʻzlardan xayrli soʻzlarga, yomon ishlardan xayrli ishlarga, zamima (buzuq) axloqdan hamida (maqtagan) axloqqa, oʻz borligidan Parvardigori olam borligiga tamon harakat qilmoqdir. Yaʼni solik xayrli soʻzlar, ishlar va yaxshi xulqni kasb etgach, maʼrifat nuri uning qalbiga yogʻiladi va narsalarning asl mohiyatini dark eta boshlaydi- tarzida izohlagan. Nasafiy sulukni barcha narsani qamrovchi ilm, narsalarning mohiyati anglanadigan va koʻriladigan, insonning oʻzini-oʻzi taniydigan hamda martabalar tadrijiy ravishda bosib oʻtiladigan, shu bilan birga kichik olam tugal boʻladigan joy deb eʼtirof etgan. “Insoni komil kitobi” asarining beshinchi risolasi “Suluk nimaligi bayonida” deb nomlangan birinchi faslida mutasavvif oʻzining “Ey darvesh! Ilm koʻp joylarda zohir boʻladi, ammo barcha narsani qamrovchi ilm faqat bundadir. Bu yerda oʻzini tanidi, bu yerda narsalarning mohiyatini angladi va koʻrdi. Demak, suluk-yoʻlovchi oʻz martabalariga yuzlanishi va martabalarni tadrijiy tarzda zohir qilishi, kichik olamni tugal qilishdan iboratdir”-fikrlarini keltirib oʻtgan. Zero, tasavvufiy tafakkurga koʻra, inson oʻzi mavjud boʻlgan ulviy olamdan biz yashayotgan shahodat olamiga tushgan. Shahodat olamida nafsning istak va xohishlariga ergashgan inson oʻzining haqiqiy maqomidan tushib, oʻz mohiyatini unutadi. Shu jihatdan tasavvufning asl maqsadi insonga avval oʻzini tanitish, yaʼni nafsini anglash, soʻngra esa nafsini boʻlishi lozim boʻlgan maqomga koʻtara olishdir. Nafsning bosqichma-bosqich yuksalishi axloqiy kamolotning roʻy berganligining bir belgisidir. Agar bir kishi nafsning eng quyi pogʻonasi boʻlmish nafi ammora bilan boshlagan bu maʼnaviy safarida nafi komilaga yetishsa, sayru sulukni yakunlagan hisoblanadi. Demak, sayru suluk — nuzul bilan bosqichlar shaklida shahodat olamiga kelgan insonning yana oʻz haqiqatini eslashga qaratilgan xuddi shu bosqichlardan oʻtib, urujini taʼminlaydigan ilm va tarbiyadir. Bu borada Nasafiy “Maqsadi aqso” asarida insonni markazga qoʻyib, Haqqa suluk qiluvchi soliklarning asl maqsadlari Allohning maʼrifatiga erishish ekanligini va Allohni bilish esa faqat Uning nuri bilan mumkin boʻlishiga ishora qiladi. Allohning nuriga yetishish uchun esa solik sayru sulukda rioya qilishi lozim boʻlgan va oʻrnatib qoʻyilgan qator qoidalar mavjud. Nasafiyning fikriga koʻra, suluk sayr demakdir va sayr esa ikki turli boʻlib, sayr-i ilalloh va sayr-i fillohdur. Sayri ilalloh, Allohni bilishni istash va unga yoʻnalishdir. Sayri filloh esa solikning Allohni ismlari, sifatleri va feʼllari bilan bilishidir. Sayyid Sharif Jurjoniy “Taʼrifot” asarida toʻrtta safar haqida maʼlumot beradi. Bular: safari avval, safari soniy, safari solis va safari robeʼdir. Shuningdek, bu safarlar bilan bir qatorda Allohga sayr (sayr ilalloh), Allohda sayr (sayr filloh), Alloh bilan Allohda sayr (sayr billoh anilloh) va Haqda Haq bilan sayr (as-sayr-u fil-Haq bil-Haq) kabi turli xil sayrlar ham mavjud[3:96-97]. Ibn al-Arabiy “qoʻshilish va intiqol etish” oʻzaklaridan kelib chiqib, suluk tushunchasini “Maʼno, surat va bilimda bir joydan boshqa joyga oʻtish, maqomlar ustida yurish” tarzida taʼriflagan. Ibn al-Arabiy barcha soliklarni Allohni bilish darajalariga koʻra toʻrt qismga ajratadi. Birinchisi, nafi bilan suluk etuvchi, ikkinchisi, Robbi bilan suluk etuvchi, uchinchisi, har ikkisi bilan suluk etuvchi, toʻrtinchisi, solik boʻlmagan solikdir. Uning nazdida nafi bilan suluk qiluvchi solik farz va nafl ibodatlar bilan Robbiga yaqinlashgan insondir. Robbi bilan suluk qiluvchi esa Haqning koʻrishi, eshitishi boʻlgan insondir. Qachonki inson Haqning oʻzi uning eshitish quvvati ekanini bilsa va eshitish vositasi bilan eshituvchi eshitishning oʻzi emasligini anglasa, Robbi bilan va nafi bilan suluk qilgan boʻladi. Solik boʻlmagan solik esa, agar

Haqning yordami bo'lmasa, nafs o'z-o'ziga suluk qila olmasligini ko'rgan insondir[6:546-548]. Nasafiy ham o'z asarlarida sayr ilalloh, sayr filloh, sayr billoh va sayr maalloh tushunchalariga to'xtalib, bu tushunchalar o'rtasidagi farqlarni izohlagan. Unga ko'ra sayr ilalloh Allohga safar bo'lsa, sayr filloh Allohda safardir. Sayr ilallohning oxiri bor ekan, sayr fillohning oxiri yo'q. Qolgan ikki tushunchadan sayr billoh Alloh bilan safar bo'lsa, sayr maalloh Alloh bilan birga safardir. Ammo Nasafiyga ko'ra, sayr billoh va sayr maalloh tushunchalari sayr filloh tushunchasi doirasiga kiradi. Demak, sayr filloh tushunchasi bu ikkisidan ko'ra kengroqdir. Mutasavvif "Insoni komil kitobi" asarida sayri fillohnini hech qachon tugamaydigan safar deb uqtiradi. Nasafiyning sayrlarga oid ikkilik tasnifiga doir izohlari solikning bosib o'tishi mumkin bo'lgan sayrlarni ifodalaydi. Zero, tasavvuf ahli orasida asfar-i arbaa nomi bilan mashhur bo'lgan sayr-i ilalloh, sayr-i filloh, sayr-i maalloh, sayr-i anilloh kabi to'rtlik tasnif qabul qilingan. Solik sayr-i ilalloh va sayr-i filloh bilan valiylik maqomiga erishadi, Alloh bilan sayr bo'lgan sayr-i maalloh orqali zohir-botin ikkiligidan xalos bo'lib, valiylik martabasining nihoyasiga yetadi va Allohdan sayr bo'lgan sayr-i anilloh bilan insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish, ya'ni irshod uchun xalq orasiga qaytib, shayxlik maqomiga erishadi. Shu sababli, oxirgi ikki maqom komil murshidlar bosib o'tgan darajalardir. Shu bilan bir qatorda Nasafiy mutasavviflar tomonidan e'tirof etilgan jazba, suluk va uruj kabi uch tushunchaning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratadi. Zero, Nasafiy jazba tushunchasini Allohning bir fe'li sifatida yana Allohning bandasini o'ziga tortishi tarzida ta'riflaydi. Zero, jazba — banda dunyoga yuzlanib, dunyoviy muhabbatga yo'nalgan bir jarayonda Alloh taoloning bandaga to'satdan lutfu karami yetib kelishidir. Boshqa tomondan, Nasafiy jazba va ishq munosabatiga oid jazba Alloh tomonidan, ishq esa banda tomonidan amalga oshirilishini ta'kidlaydi[5:97]. Zero, ishq bandaning jazba bilan Allohga yuzlanishidir. Nasafiy ishqning birinchi bosqichi mayl bo'lib, mayl rivojlangani sari navbati bilan irodat, muhabbat va nihoyat ishqqa aylanishi haqida fikr bildiradi. Agar solik ishq martabasiga erishsa, dunyoviy bo'lgan har bir narsadan yuz o'girib, Allohga yuzlanadi. Nasafiyning fikriga ko'ra, ishq hech qanday sheriklikni xush ko'rmaydi va toqat ham qilmaydi. Shuning uchun oshiq o'z qalbini faqat ishqqa bag'ishlashi va ishqdan boshqa barcha ehtirolardan xalos qilishi lozim. Aslida ishqning o'zi ham insonning ichini o'zidan boshqa barcha hirslardan tozalashdir. Mutasavvif yana bir o'rinda ishqqa ta'rif berganda, uni "soliklar Buroqi va tariqat ahlining ulovidir"[2:95] — deb fikr bildirgan. Shu o'rinda Nasafiy suluk va jazba tushunchalari bilan solik va majzub tushunchalari o'rtasidagi aloqaga urg'u berib, majzub, majzub solik, solik majzub va solik kabi to'rt xil solik mavjudligini ta'kidlagan. Agar biror kimsaga Allohdan jazba kelsa, Allohga bo'lgan muhabbatidan ishq darajasiga yetib, o'sha lahzada qoladi va bu olamdan ajralib, o'zini yo'qotadi, yana eski holiga qaytmaydi, bunday kimsalarga majzub deyiladi. Ayrimlar ibtidoda jazbaga tushib qoladilar, lekin o'zlarining hollaridan xabardor bo'lgan holda sulukni tugallaydilar. Bunday kimsalarga majzub solik deyiladi. Suluk etar ekan, hali tugal qilmay turib, Allohdan jazba yetgan kimsaga soliki majzub deyiladi. Agar suluk etar ekan va sulukni tugal qilib, jazbaga erishmasa, solik deyiladi. Nasafiy Suhravardiyning "Avorifu-l-maorif" nomli asarini zikr etib, ushbu to'rt qismdan faqatgina majzub solikning shayxlik maqomida bo'lishi mumkinligini bildiradi. Chunki, Suhravardiy solik majzub bo'lgan kimsalarning ham irshod uchun yaroqli bo'lishi mumkinligini, ammo ba'zi hollarda bunday kimsalarning o'z holatlaridan tashqariga chiqa olmay, o'sha holat ustida mashg'ul bo'lib qolishlari va shu sababli eng yuksak kamolotga erisha olmasliklari haqidagi fikrni bildiradi. Shuning uchun, Suhravardiy nazarida shayxlik va irshod vazifasi uchun eng

munosiblari majzub solik maqomida bo'lgan zotlardir. Nasafiy urujni esa taraqqiy etish deb ta'riflab, solikning urujini ro'yobga chiqarishi uchun sayru suluk qoidalariga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi. Bu yo'nalishda Nasafiy nazdida solik amal qilishi lozim bo'lgan birinchi qoida shariatni haqqi bilan bilishi va unga amal qilishidir. Muhammad payg'ambarning "Ash-shariatu qavli va tariqatul af'ol val haqiqatul ahvali" ya'ni "Shariat anbiyoning aytganlaridir, tariqat anbiyoning qilganlaridir va haqiqat anbiyoning ko'rganlidir"[2:6]- mazmunidagi hadisini dalil qilib keltirgan Nasafiy payg'ambarning so'zlarini qabul qilib, amal qilgan kishini ahli shariat, qilgan ishlarini qilgan kishini ahli tariqat, payg'ambarning holiga kirib, u zotning ko'rganlarini ko'rgan kishini ahli haqiqat deb ta'riflaydi[2:6]. Agar bir kishi har uchala sifatga ega bo'lsa, insoni komildir. Bu uch sifatdan birortasiga ham ega bo'lmagan kishi Nasafiy nazdida noqisdir va hayvonlar hisobiga kiradi yoki hayvondan ham past maqomdadir. Nasafiy shariat, tariqat va haqiqatning maqsadini uch bandda jamlaydi. Ulardan birinchisi Payg'ambarning da'vatiga javob berib, amalda bo'lishdir. Ikkinchisi, solih amal va taqvo sohibi bo'lishdir. Uchinchisi esa Allohni bilishi va ashyolarning haqiqatini idrok eta olishidir. Nasafiy insonning dunyoga bo'lgan muhabbati va istaklarini solikning maqsadiga yetishida hijob sifatida ko'radi. Bu yo'nalishda mol va mansabni hijobi zulmoniy deb ta'riflaydi. Solikning ko'p ro'za tutishi va ko'p namoz o'qishi ham maqsadiga to'siq bo'lishi mumkin, degan qarashda bo'lgan Nasafiy bu holatni ham hijobi nuroniy deb ta'riflaydi. Bilgiki, deydi mutasavvif, o'zingdan soqit qilishing lozim bo'lgan jami narsalar parda (hijob), o'zlashtirib, egallab olishing lozim bo'lgan jami narsalar maqomlarni tashkil etadi. Nasafiyga ko'ra, solikni yo'lidan to'suvchi to'rt hijob mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat: Hijoblarning asli to'rttaga yetadi: mol-dunyoga o'chlik, amalparastlik, katta avlodga ko'r-ko'rona izdoshlik qilish, gunoh ishlarga ruju qo'yish. Maqomlarning asli ham to'rttadir: ezgu so'z, ezgu amal, ezgu xulq, maorif. Maorif deganda ko'p narsalarni bilish — ma'rifat etish deb tushuniladi. Bilimning turlari ko'p. Ammo Nasafiy nazdida to'qqiz narsani bilish solik uchun zarurdir. Dono solik albatta bu o'n sakkiz narsani bilishi, ilm-ul-yaqin va aynul yaqin orqali anglashi lozim: dunyoning ma'rifati, dunyo ishlarning ma'rifati, oxiratning ma'rifati, oxirat ishlarining ma'rifati, ajal ma'rifati, ajal hikmatining ma'rifati, shaytonni bilish, shaytonning amrlarini bilish, farishtaning ma'rifati, farishta amrining ma'rifati, payg'ambarning ma'rifati, payg'ambar so'zining ma'rifati, valiyning ma'rifati, valiy so'zlarining ma'rifati, o'zliging ma'rifati, o'z amrining ma'rifati, Xudoning ma'rifati, Xudo so'zlarining ma'rifati. Xohlasang, o'n sakkizta deb ayt, xohlasang, to'qqizta deb ayt, xohlasang bitta deb ayt"[2:28]. Nasafiy solik agar bu to'qqiz narsani bilsa, u holda uning bilim darajasi "ilm al-yaqin"dan "ayn al-yaqin" darajasiga yetishini ta'kidlaydi va solikni yo'lidan to'sadigan hijoblarni olib tashlamaguncha, solikning maqom sohibi bo'lishi mumkin emasligini ta'kid etadi. O'z o'rnida mutasavvif yuqorida qayd etganimiz to'rt hijobni o'rtadan ko'tarish yo'llarini ko'rsatib, uning yechimi deya to'rtta maqomni ko'rsatgan. Bu maqomlar quyidagilardir: ezgu so'z, ezgu amal, ezgu axloq va maorif[2:28]. Shuningdek, hijoblarni yo'qotish masalasida mutasavvif "Har bir parda-tananing yuvib poklanadigan bir a'zosi bo'lsa, har bir maqom bajariladigan namozning bir rakaatidir. Avval tahorat, keyin esa namoz; avval poklanish, keyin esa qalb yorishishi, avval ajralish, keyin esa qo'shilish (vasl). Birida o'lmagan odam ikkinchisida tug'ilmaydi. Hordiqni istasang - ishda o'lgin, Xudoni istasang - o'zingda o'lgin. O'z ishingda o'lolmasang, hordiqni izlama, o'zingda o'lolmasang, Xudoni izlama, chunki unisi ham, bunisi ham amalga oshmaydi"[4:161]-fikrini ham ilgari surgan. Demak, hijoblarni tariqat va suluk qoidalar asosida tark etish mumkin.

Nasafiy bandani Allohdan ayiruvchi har bir narsani but deb ta'riflaydi. Mutasavvifning fikriga ko'ra, butlar uchga: kichik, katta va eng katta butlarga bo'linadi. "Komil inson" kitobida kichik but sifatida zohiriy ko'rkamlik, katta but deb esa – mol-dunyo muhabbati, shuningdek, eng katta but deya – mansabparastlik alloma tomonidan maxsus ko'rsatib o'tilgan. Aziziddin Nasafiy bu uch butni – xos butlar deb atab va ayni shu butlar insonni yo'ldan ozdirib, insonni o'ziga mashg'ul etadi degan[2:48]. Ko'rsatib o'tilgan bu butlar (qorin shahvati, jimo shahvati, bola-chaqa muhabbati, zohiriy ko'rkamlik, mol-dunyo muhabbati, mansabparastlik) dunyoning oltita shohi ekanligi va lazzati bu oltitadan ko'p emasligi qayd etilgan va bulardan ham yomon bo'lgan nafsni do'st tutmoq buti mavjudligi ham ta'kidlangan. Demak, insonning kamolotiga to'siq bo'luvchi butlarning soni yettita va eng xavfli hamda ulkan but nafsqa muvofiq kelishdir. Qolgan oltita but nafsqa bog'liq tarzda vujudga keladi[2:49]. Allomaga ko'ra, yuqoridagi butlarning barchasini sindirish mumkin, faqat nafsni do'st tutish, unga xilof kelmaslik va aksincha unga sherik bo'lish eng ulkan butdir, uni sindirib bo'lmaydi. Nasafiy solikning dunyoviy va uxroviy narsalarni tark eta olishida shayxning ahamiyatiga urg'u beradi. Zero solikning yolg'iz o'zi bo'lgan holatni idrok etish imkoniyati yo'q. Nasafiy tarkni ma'rifat ahlining amali, oriflarning esa alomati deb biladi. Zero, tarkni amalga oshirgan kishi Allohning ma'rifatiga erishadi. Nasafiy nafi tushunchasini butparastlik, isbot tushunchasini esa Allohni bilish deb izohlaydi. Uning fikricha, mol-dunyo, mansab kabi dunyoviy istaklarga ko'pchilik sig'inadi va bu holat insonni to'g'ri yo'ldan adashtiradi[2:48]. Inson dunyoviy bu istaklarini ko'ngildan chiqarib, yo'nalishini Allohga bursa, haqiqiy ma'noda "la ilaha illalloh" deydi. Hech kim mosuvoni tark etmay turib, ma'rifatullohga vosil bo'la olmaydi, binobarin, bunday kimsa Nasafiy nazdida kalimai shahodatning haqiqatini aytgan emas. Chunki Nasafiy kalimai shahodat, namoz va ro'zaning haqiqatlari bor, lekin odamlar ularning faqat zohirini biladilar, degan qarashdadir. Nasafiy uchun solik kalimai shahodatning haqiqatini idrok etganda ko'zlaridagi pardalardan ham qutuladi. Haqiqatga yetishishda mosuvoni tark etishni shart deb bilgan Nasafiy tarki mosuvo va ma'rifatullohni daraxtga o'xshatadi. Ma'rifatulloh daraxtning ildizi, tark-i mosuvo bu daraxtning o'zagi, go'zal axloq esa daraxtning mevalaridir. Bu daraxtning ildizi, ya'ni ma'rifatulloh ko'ngildadir. Darhaqiqat, daraxtning o'zagi bo'lgan tarki mosuvo ham ko'ngildan zohir bo'lgan.

Nasafiyning fikricha, solik eng avvalo to'rt narsaning ma'rifatini bilishi zarur:

1. Maqsadning ma'rifati
2. Maqsad tomon boruvchining ma'rifati
3. Maqsadga eltuvchi yo'lning ma'rifati
4. Hidoyat etuvchi-shayx yo'lining ma'rifati[2:76]

Nasafiyning fikricha, solik bu to'rt narsani bilmay turib, sulukka kirolmaydi. Xo'sh, solikning g'oyasi nima bo'lishi kerak? Uni bu maqsadga yetkazadigan narsa nima? Solik o'z maqsadiga qanday yo'llar bilan erishishi kerak? Va nihoyat solik tanlaydigan murshidning xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat? Mana shu savollarga Nasafiy tomonidan berilgan javoblar, umuman olganda, uning suluk haqidagi qarashlarini bildirishi jihatidan suluk bobida, avvalo, ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalar qatorida o'rganilishi mumkin. Nasafiyning fikricha, soliklarning asl maqsadi va maqsudi o'zining kamolidir[2:76]. Zero, mutasavvifga ko'ra, inson o'zini takomillashtirib, o'z kamolotiga erisha olsa, ham moddiy, ham metafizik olam haqiqatlaridan voqif bo'la oladi. Shuningdek, ilm, hikmat, go'zal axloq egasi bo'lish kabi xislat va sifatlar ham insonning bir darajasi ekan, o'z kamolotiga erishgan inson ularni ham qo'lga

kiritgan bo'ldi. Xulosa qilib aytganda, Nasafiy nazdida insonning komillik martabasi sulukning barcha martabalarini qamrab oladi. Solikni maqsad tomon yetaklovchi narsa nimadan iborat ekanligi nasafiyi qiziqtirgan masalalardan biri bo'lib hisoblangan. Bu haqda "Komil inson kitobi"ning "Odamlar uch toifadan iborat ekanliklari" faslida o'ziga xos tarzda ham gnoseologik, ham antropologik tahlil amalga oshirilgan. Mutasavvif solikni maqsadi olib boruvchi yo'llarni birma-bir tahlil qilgan va shunday: "Ba'zilar aytibdirlarkim, maqsad tomon boruvchi Xudoning o'zidir, ba'zilar solikning Ruhi, deb aytibdilar, ayrimlar solikning Aqli degan bo'lsalar, ba'zilari Allohning nuri, deb aytibdilar. Kamina aytadirkim, boruvchi solikning — botinidir. Negaki, solikning botini nurdur, bu nurni turli ismlar va qo'shimcha sifatlar bilan zikr etishadi: nafs, ruh, qalb, aql, allohning nuri va hokazo. Bulardan murod o'sha bir javhardir. Bu javhar — odamning haqiqatidir"[2:77]-xulosaga kelgan. Ammo bularning barchasi nisbiydir. Ularning barchasi bir narsaga ishora qilmoqda.

Xulosa. Yuqorida bildirib o'tilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Aziziddin Nasafiy tasavvuf ilmini o'ziga xos tarzda metodologik ilm nuqtai nazardan tushungan. Zero, mutasavvifning tasavvuf ilmi mohiyatiga oid qarashlarida shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, Allohni bilish, ishq, jazba, komil inson, nur, hijob va boshqa tushunchalarning tahlili ustunlik qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdurrezzak Kâşânî, Tasavvuf Sözlüğü, çev. Ekrem Demirli, İz Yayıncılık, İstanbul, 2004, -S.34.
2. Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. Нажмиддин Комилов, Олимжон Давлатов таржимаси. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, Тошкент: 2021. -Б. 70
3. Cürçânî S. Ş. Ta'rifât, Litera Yayıncılık, çev. Abdülaziz Mecdi Tolun, İstanbul, 2014.-S.96.
4. Комил инсон ҳақида тўрт рисола: Фаридиддин Аттор, Султон Валад, Азизиддин Насафий, Ҳусайн Воиз Кошифий ижодидан намуналар/Форс - тожик тилидан Н.Комилов тарж.—Т.: "Маънавият", 1997. —Б. 161.
5. Neseî, Maksad-ı Aksâ, Süleymaniye Kütüphanesi, Mihrişah Sultan Koleksiyonu: 000206, vr.85^b.
6. Suâd el-Hakîm. el-Mûcemu's-Sûfî el-Hikmetü fî Hudûdi'l-Kelime: İbnü'l Arabî Sözlüğü. (Çev. E. Demirli). İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 2004.-S.546-548.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

HISTORICAL DEVELOPMENT AND METHODOLOGY OF SOCIAL ENGINEERING

Mamajonov Sanjarbek Hamrajonovich

AnSU Associate Professor of the Department of "Social Sciences",
Candidate of Historical Sciences

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the historical formation, scientific paradigms, and methodological foundations of the phenomenon of social engineering. It covers the evolutionary stages from the concepts of scientific governance of society to the era of psychological manipulation and digital cognitive warfare. The study examines sociological, psychological, and cybersecurity interpretations of social engineering, offering a scholarly explanation of cognitive threats implemented through the exploitation of trust mechanisms within human consciousness. The scientific novelty of the article lies in the approach to social engineering not merely as a tool of fraud or cybercrime, but as a complex epistemological category aimed at influencing and controlling human cognition. Relying on theoretical and analytical frameworks, the research highlights the strategic significance of social engineering for societal security, information sovereignty, and the collective mind.

Keywords: social engineering, psychological manipulation, information threat, cognitive warfare, social construction, fraud methodology.

SOTSIAL INJENERIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA METODOLOGIYASI

Mamajonov Sanjarbek Hamrajonovich

AnDu "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sotsial injeneriya fenomenining tarixiy shakllanishi, ilmiy paradigmaları va metodologik asoslari chuqur tahlil qilinadi. Jamiyatni ilmiy boshqarish g'oyalaridan boshlab, psixologik manipulyatsiya va raqamli kognitiv urushlar davriga qadar bo'lgan evolyutsion bosqichlar qamrab olinadi. Tadqiqotda sotsial injeneriyaning sotsiologik, psixologik va kiberxavfsizlikka oid talqinlari ko'rib chiqilib, inson ongidagi ishonch mexanizmlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladigan kognitiv tahdidlar ilmiy asosda sharhlanadi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, sotsial injeneriya faqatgina firibgarlik yoki kiberjinoyat vositasi sifatida emas, balki inson tafakkurini boshqarishga qaratilgan kompleks epistemologik kategoriya sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqot nazariy-tahliliy yondashuvlarga tayanib, sotsial injeneriyaning jamiyat xavfsizligi, axborot suvereniteti va ijtimoiy ong uchun strategik ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: sotsial injeneriya, psixologik manipulyatsiya, axborot tahdidi, kognitiv urush, ijtimoiy konstruksiya, firibgarlik metodologiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N19>

Kirish. Sotsial injeneriya (ing. social engineering) zamonaviy ilmiy termin sifatida inson omiliga qaratilgan ongli ta'sir ko'rsatish usullarini anglatadi. Bu hodisa kiberxavfsizlik tizimlarida ko'pincha firibgarlik va axborot o'g'irlash vositasi sifatida talqin etilsa-da, aslida u bundan ancha chuqurroq falsafiy-psixologik mazmunga ega. Sotsial injeneriya hodisasining mohiyati shundaki, u texnik tizimlarni emas, balki inson ongidagi ishonch, qo'rquv, ijtimoiy

moslashuv va avtoritetga bo'ysunish kabi ichki psixologik mexanizmlarni nishonga oladi [7; P.131].

Dastlab bu termin sotsiologik muhitda, jamiyatni ilmiy asosda boshqarish nazariyalari doirasida paydo bo'lgan. Auguste Comte jamiyatni mexanik tizim emas, balki boshqarilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy laboratoriya sifatida talqin qilgan [1; P.89]. Karl Popper esa "bosqichma-bosqich sotsial injeneriya" nazariyasini ilgari surib, jamiyatni tajribaviy tahlil va ilmiy fikrlash asosida isloh qilish mumkinligini isbotlagan [3; P.112]. Shu sababli, sotsial injeneriyaning dastlabki talqini ijtimoiy rejalashtirish va konstruktiv siyosat bilan bog'liq bo'lgan.

Biroq XX asr o'rtalaridan boshlab bu termin keskin mazmuniy o'zgarishga uchradi. Stanley Milgramning bo'ysunuv tajribalari [4; P.64] va Philip Zimbardoning ijtimoiy rol tajribalari [5; P.204] inson irodasining tashqi psixologik bosim ostida qanchalik zaif ekanini ko'rsatdi. Endi sotsial injeneriya jamiyatni isloh qilish emas, balki insonni aldash va unga ta'sir ko'rsatish orqali unda ma'lum xatti-harakatni yuzaga keltirish san'atiga aylandi.

Bugungi kunda sotsial injeneriya kiberxavfsizlikdagi eng xavfli tahdid sifatida ko'rilmogda. Chunki zamonaviy xakerlik har doim texnik zaifliklardan foydalanmaydi; ko'pincha inson omili, ya'ni xodimning ishonchi yoki e'tiborsizligi eng zaif nuqta hisoblanadi [8; P.98]. Shu bois global xavfsizlik tashkilotlari sotsial injeneriyani endilikda "kognitiv qurol" sifatida baholamoqda [11; P.55].

Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sotsial injeneriya – bu faqatgina individual firibgarlik emas, balki butun jamiyatlar, siyosiy tizimlar va davlatlarning kognitiv xavfsizligiga tahdid soladigan murakkab fenomen hisoblanadi. Shunday ekan, sotsial injeneriyani ilmiy jihatdan chuqur o'rganish bugungi global axborot makonida strategik zaruratga aylanmogda.

Adabiyotlar sharhi. Sotsial injeneriya tushunchasining ilmiy shakllanishi turli davr va fan yo'nalishlarida turlicha mazmun kasb etgan bo'lib, uning evolyutsiyasi uch asosiy bosqich — sotsiologik, psixologik va kiber-kognitiv paradigmalardan iboratdir. Ushbu bo'limda mazkur atamaning tarixiy rivoji nazariy manbalar asosida tahlil qilinadi.

XIX asrda A.Comte tomonidan ishlab chiqilgan "ijtimoiy fizika" nazariyasi jamiyatni mexanik tizim sifatida emas, balki boshqarilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy tizim sifatida talqin qiladi [1; P.89]. Shu jihatdan, dastlabki sotsial injeneriya jamiyatni isloh qilishga qaratilgan utopik g'oyalar bilan bog'liq bo'lgan. É.Durkheim esa jamiyatdagi kollektiv ongni ilmiy boshqarish uchun sotsiologik metod zarurligini ta'kidlagan [2; P.156].

K.Popper "bosqichma-bosqich sotsial injeneriya" nazariyasini taklif etib, inqilobiy yo'l bilan emas, balki eksperimental islohotlar orqali jamiyatni o'zgartirish mumkinligini ilgari surgan [3; P.112]. Ushbu talqin sotsial injeneriyani konstruktiv ilmiy faoliyat sifatida ko'rsatgan.

XX asr o'rtalariga kelib, inson ongining boshqarilishi masalasi psixologik tajribalar orqali ilmiy izohlandi. Stenli Milgram 1963-yildagi mashhur "bo'ysunuv eksperimenti"da insonlar avtoritet bosimiga ongli qarshilik ko'rsata olmasligini ko'rsatdi [4; P.64]. Philip Zimbardo esa 1971-yilda o'tkazgan "Stanford qamoqxona eksperimenti" orqali ijtimoiy rol va kontekstdan kelib chiqadigan shafqatsizlik mexanizmlarini fosh etdi [5; P.204].

Bu davrda "sotsial injeneriya" jamiyatni isloh qilish emas, balki shaxsni ma'lum xatti-harakatga majburlash san'atiga aylanib bordi. E.Bernays ommaviy fikrni boshqarish orqali jamoatchilik qarorini ongli ravishda shakllantirish mumkinligini ko'rsatdi [6; P.77].

1980–1990 yillarda sotsial injeneriya siyosiy kommunikatsiya, reklama va PR texnologiyalarida asosiy vositaga aylandi. Noam Chomsky ommaviy axborot vositalarining “fikir nazorati”ga aylanish mexanizmini tahlil qilib, ommaviy manipulyatsiyaning global ko‘lamini ochib berdi [10; P.52]. Bu davrda “FUD strategiyasi” (Qo‘rquv – Noaniqlik – Shubha) marketing va siyosatda qo‘llanila boshlandi.

XXI asr boshida sotsial injeneriya kiberxavfsizlikning markaziy tahdidiga aylandi. Kevin Mitnick inson zaifligi texnologik zaiflikdan ham xavfliroq ekanini ta’kidlab: “Men eng kuchli xavfsizlik devorlarini ham biror liniya kod bilan emas, balki telefon qo‘ng‘irog‘i orqali buzdim” degan [7; P.131]. Christopher Hadnagy esa “inson xakerligi”ni kognitiv ekspluatatsiya deb atab, uni ilmiy metod sifatida yoritdi (Hadnagy, 2018, P.98).

Bugungi kunda NATO StratCom (2020) sotsial injeneriyani yangi avlod urushi – “kognitiv qurol” sifatida baholamoqda [11; P.55]. Endilikda ta’sir obyekti – kompyuter emas, inson miyasi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot sotsial injeneriya fenomenini ko‘p qatlamli ilmiy-paradigmatik nuqtai nazardan yoritishga qaratilgan bo‘lib, uni faqat texnik yoki kriminal hodisa sifatida emas, balki sotsiologik, psixologik va kognitiv tahlil obyektiga aylantiradi. Shu sababli qo‘llanilgan metodologiya interdisiplinar xususiyatga ega bo‘lib, falsafiy yondashuv, empirik dalillar va konseptual tahlillar uyg‘unligida shakllantirilgan.

Natija va muhokamalar. Sotsial injeneriyaning shakllanishi bir kechada yuzaga kelgan hodisa emas. U ijtimoiy falsafa, psixologik tajriba va kiberxavfsizlik kesishmasida yuzaga chiqib, har bir davrda o‘zining yangi ilmiy talqinini topgan. Quyida uning to‘rt asosiy bosqichi yoritiladi.

Utopik ijtimoiy rejalashtirish davri (XIX – XX asr boshlarida): Bu davrda sotsial injeneriya jamiyatni ongli boshqarish tushunchasi sifatida namoyon bo‘lgan. A.Comte jamiyatni “ijtimoiy laboratoriya” sifatida tasavvur etgan va uni ilmiy metodlar bilan boshqarish mumkinligini ta’kidlagan [1; P.89]. K.Popper esa bu g‘oyani “bosqichma-bosqich sotsial injeneriya” nazariyasiga aylantirib, jamiyatni zo‘ravon inqilob emas, tajribaviy islohotlar orqali o‘zgartirish zarurligini ilgari surdi [3; P.112].

Bu davrda sotsial injeneriya manipulyatsiya emas, konstruktiv boshqaruv g‘oyasi sifatida shakllangan edi.

Psixologik manipulyatsiya davri (1960–1980): XX asr o‘rtalarida sotsial injeneriya tamomila yangi mazmun kasb etdi. Endi u jamiyatni emas, inson ongini boshqarishga qaratildi. Stenli Milgramning “bo‘ysunuv eksperimenti” [4; P.64] insonlar avtoritet buyrug‘i ostida axloqiy me‘yorlardan voz kechishini ko‘rsatdi. Philip Zimbardo [5; P.204] esa sotsial rol va muhit ta’sirida inson shafqatsizlikka qanday o‘tishini isbotladi.

Sotsial injeneriya bu davrda “psixologik ekspluatatsiya san’ati”ga aylandi.

Propaganda va ommaviy nazorat davri (1980–2000): Bu davrda sotsial injeneriya kiberjinoyatchilikdan avval, siyosiy kommunikatsiya va PR arsenaliga aylandi. Edward Bernays “ommaviy fikrni ishlab chiqarish mumkin”ligini isbotlab berdi [6; P.77]. Noam Chomsky esa ommaviy axborotning manipulyativ “fikir ishlab chiqarish fabrikasi”ga aylanganini tahlil qildi [10; P.52].

Kommunikativ texnika	Maqsadi
Framing (ma'no tuzoqlari)	Haqiqatni semantik o'zgartirish
Propaganda / Black PR	Siyosiy ongni boshqarish
FUD strategiyasi	Qo'rquv, Noaniqlik, Shubha yaratish

Kiber-kognitiv urush davri (2000 – hozirgi vaqt): XXI asrda sotsial injeneriya texnik xakerlikdan kuchliroq tahdid sifatida namoyon bo'ldi. Kevin Mitnick o'z tajribasida “eng zaif nuqta – bu inson” ekanini ta'kidlaydi [7 P.131]. Christopher Hadnagy esa sotsial injeneriyani “inson xakerligi” deb atab, kiberhujumlarning psixologik asoslarini ilmiy tus berdi [8; P.98].

NATO StratCom [11; P.55] sotsial injeneriyani XXI asrda “kognitiv qurol” deb atadi. Bunda urush quroli – ma'lumot, jang maydoni – ong, qurbon esa – tafakkurdir.

Sotsial injeneriya hozirgi davrda shunchaki texnik xakerlik usuli yoki firibgarlik vositasi sifatida emas, balki inson ongining eng chuqur qatlamlarini nishonga oluvchi epistemologik muammo sifatida qaralmoqda. Unga nafaqat axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan, balki falsafa, etika va ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan baho berilishi zarur.

Sotsial injeneriya inson irodasi va ongiga bevosita ta'sir qilgani sababli, uning markazida axloqiy muammo yotadi. Bir jihatdan, u ijtimoiy boshqaruv, kommunikatsion strategiya yoki xavfsizlikni ta'minlash vositasi bo'lishi mumkin. Biroq boshqa tomondan, u inson erkinligini inkor etishi, yolg'on avtoritetga bo'ysundirishi va ongini ekspluatatsiya qilishi mumkin.

“Sotsial injeneriya – bu insonni texnik nuqtada emas, ongiy nuqtada qurollantirish yoki quldan chiqarish san'atidir” [5; P.204].

Epistemologik jihatdan sotsial injeneriya “haqiqat” bilan “konstruksiya qilingan yolg'on” o'rtasidagi chegarani yo'qota oladi. Framing, dezinformatsiya va ma'no konstruksiyasi orqali u voqelikni qayta shakllantiradi. Noam Chomsky ta'kidlaganidek:

“Ommaviy axborot vositalari ba'zan voqelikni aks ettirmaydi, balki uni yaratadi” [10; P.52].

Shunday qilib, sotsial injeneriya haqiqatni manipulyativ diskursga aylantira oladigan qudratga ega.

Bugungi axborot urushlari shuni ko'rsatadiki, texnik devorlar inson ongidagi devorlardan mustahkam emas. Har qanday parolni buzishdan ko'ra, ishonchni ekspluatatsiya qilish osonroqdir. Kevin Mitnick bejiz:

“Men hech qachon kod bilan devor buzmaganiman — faqat odamlarni ishontirganman” – deb aytmagan [7; P.131]. NATO [11; P.55] tomonidan kognitiv tahdidlar alohida harbiy strategiya sifatida tan olingani bejiz emas.

Endilikda:

An'anaviy urush	Kognitiv urush
Qurol yaroqlari bilan	So'z va ma'lumot bilan
Tashqi hududni egallaydi	Ichki ongini egallaydi
Kuch bilan majburlaydi	Ishonch bilan boshqaradi

Sotsial injeneriya jamiyatda uch asosiy xavfni yuzaga keltiradi:

- axborot suvereniteti yo'qolishi – xalq o'z tafakkurini o'zi boshqarmaydi;

- ijtimoiy ishonch yemirilishi – har bir axborotga shubha koʻz bilan qaraladi;
- kognitiv boʻlinish – jamiyat yolgʻon diskurslar bilan guruhlariga boʻlinadi.

Sotsial injeneriya – bu kelajakning asosiy intellektual frontidir. Undan himoyalaniş uchun nafaqat parollar va firewall kifoya, balki ongni himoya qiluvchi kritik fikrlash, media savodxonlik va kognitiv immunitet talab etiladi.

Xulosa. Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni koʻrsatadiki, sotsial injeneriya zamonaviy davrning eng murakkab va xavfli kognitiv fenomenlaridan biridir. U oddiy firibgarlik yoki kibermanzilga qaratilgan xurujdan iborat emas, balki inson ongini boshqarish, ijtimoiy ishonchni ekspluatatsiya qilish va tafakkurni yoʻnaltirilgan tarzda formatlashga qaratilgan koʻp qatlamli epistemologik jarayondir.

Tarixiy evolyutsiyada u dastlab ijtimoiy rejalashtirish va boshqaruv mexanizmlarining konstruktiv elementi sifatida shakllangan boʻlsa-da, axborotlashgan jamiyat davrida psixologik manipulyatsiya va semantik urush vositasiga aylangan. Bu oʻzgarish metodologik paradigmaning tubdan almashganidan dalolat beradi: “ijtimoiy boshqaruv” gʻoyasi “kognitiv ekspluatatsiya” ga koʻchdi.

Bugungi ilmiy diskurs sotsial injeneriyani faqat kiberxavfsizlik muammosi darajasida emas, balki kognitiv urushning markaziy strategik instrumenti sifatida talqin qilmoqda. Shu sababli, axborot suverenitetini taʼminlash texnik himoya tizimlari bilan cheklanmasligi kerak; u media savodxonlik, tanqidiy tafakkur, psixologik immunitet kabi “kognitiv mudofaa” komponentlarini ham qamrab olishi shart.

Oliy taʼlim tizimiga “Axborot etikasi”, “Kognitiv xavfsizlik” va “Psixo-himoya” kabi yoʻnalishlarni joriy etish global intellektual xavfsizlik infratuzilmasining ajralmas qismiga aylanmoqda. Chunki inson ongining hushyorligi – har qanday himoya devoridan kuchliroq qalqondir.

Natijada, XXI asr uchun eng real tahdid – virus yoki bomba emas, balki ongga singdirilgan yolgʻon, ishonch ekspluatatsiyasi va manipulyatsiyalangan haqiqatdir. Demak, sotsial injeneriyani oʻrganish – nafaqat ilmiy zarurat, balki insoniyat tafakkurini himoya qilishning strategik vazifasidir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Comte A. Cours de philosophie positive. – Paris: Bachelier, 1830. – P.89.
2. Durkheim É. Rules of Sociological Method. – Paris: Félix Alcan, 1895. – P.156.
3. Popper K. The Open Society and Its Enemies. – London: Routledge, 1945. – P.112.
4. Milgram S. Obedience to Authority: An Experimental View. – New York: Harper & Row, 1974. – P.64.
5. Zimbardo P. The Lucifer Effect: Understanding How Good People Turn Evil. – New York: Random House, 2007. – P.204.
6. Bernays E. Propaganda. – New York: Liveright, 1928. – P.77.
7. Mitnick K. The Art of Deception: Controlling the Human Element of Security. – Indianapolis: Wiley, 2002. – P.131.
8. Hadnagy C. Social Engineering: The Science of Human Hacking. – Hoboken: Wiley, 2018. – P.98.
9. Schneier B. Secrets and Lies: Digital Security in a Networked World. – New York: Wiley, 2000. – P.176.
10. Chomsky N. Media Control: The Spectacular Achievements of Propaganda. – New York: Seven Stories Press, 1991. – P.52.

11. NATO StratCom COE. Cognitive Warfare Study Report 2020. – Brussels: NATO Strategic Communications Centre of Excellence, 2020. – P.55.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

MODERN EDUCATIONAL PARADIGMS (DIGITAL EDUCATION, COMPETENCY-BASED APPROACH, LIFELONG EDUCATION): SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Rajabov Ilkhom Mustafayevich

Joint-stock company "Navoi Mining and Metallurgical Combine"
Central Mining Administration, Department of Management Office Manager,
Head of the Information and Spirituality - Enlightenment Group

Abstract. The article studies modern educational paradigms - digital education, competency-based approach and lifelong learning - based on socio-philosophical analysis. The priority of the human factor in the process of transforming the content, methodology and value system of education is substantiated.

Keywords: educational philosophy, digital education, competence, continuing education, innovation, spirituality.

ZAMONAVIY TA'LIM PARADIGMALARI (RAQAMLI TA'LIM, KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV, UZLUKSIZ TA'LIM): IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

Rajabov Ilxom Mustafoyevich

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" Aksiyadorlik jamiyati
Markaziy kon boshqarmasi, Boshqarma Ofis menejer bo'limi,
Axborot va ma'naviyat – ma'rifat guruhi rahbari

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim paradigmalari – raqamli ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va uzluksiz ta'lim – ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida o'rganilgan. Ta'limning mazmuni, metodologiyasi va qadriyatlar tizimi transformatsiyasi jarayonida inson omilining ustuvorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim falsafasi, raqamli ta'lim, kompetensiya, uzluksiz ta'lim, innovatsiya, ma'naviyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N20>

Globalashuv, raqamli transformatsiya va bilim iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tizimi inson kapitalining asosiy omili sifatida yangicha mazmun kasb etmoqda. XXI asrda ta'limning vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, mas'uliyatliliigi va kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta'lim paradigmalari – raqamli ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va uzluksiz ta'lim – insonning ma'naviy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy yo'nalishlarga aylanmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ta'lim tizimini tubdan isloh qilmasdan turib, jamiyatni yangilash, taraqqiyotga erishish mumkin emas" [1]. Shu bois ta'lim paradigmalari o'zgarishi falsafiy nuqtai nazardan ham chuqur tahlilni talab etadi.

Raqamli ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini yanada interaktiv, moslashuvchan va qulay qilmoqda. Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellektga asoslangan o'quv dasturlari bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ta'lim resurslariga geografik

cheklovlarni olib tashlamoqda. Talabalar o'zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim trayektoriyalarini tuzishlari, o'qituvchilar esa individual tarzda o'quv jarayonini tashkil etishlari mumkin. Raqamli ta'lim, ayniqsa, pandemiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlar sharoitida ta'limning uzluksizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'limning natijaga yo'naltirilganligini ta'minlaydi. Bu yondashuv talabalarning nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Kasbiy standartlar va mehnat bozorining talablari asosida shakllantirilgan kompetensiyalar talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy poydevorni yaratadi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini real hayot va ish sharoitlariga yaqinlashtiradi.

Uzluksiz ta'lim – bu shaxsning hayoti davomida bilim olish va rivojlanish jarayoni. Zamonaviy sharoitda, texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanib, yangi kasblar paydo bo'layotgan bir paytda, uzluksiz ta'lim har bir inson uchun zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. U nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtirish, balki mavjud ko'nikmalarni takomillashtirish, moslashuvchanlikni oshirish va shaxsiy rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan. Onlayn kurslar, vebinarlar, treninglar va boshqa ta'lim resurslari har bir kishiga o'z vaqtidan unumli foydalangan holda bilim olish imkoniyatini beradi.

Shunday ekan, globallashtirish, raqamli transformatsiya va bilim iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tizimining vazifasi faqatgina inson kapitalini shakllantirish emas, balki insonning o'zini anglashiga, jamiyat rivojiga hissa qo'shishiga va hayotdan mamnun bo'lishiga yordam beruvchi asosiy omilga aylanishdir. Zamonaviy ta'lim paradigmalari – raqamli ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va uzluksiz ta'lim – ana shu maqsadlarga xizmat qiladi.

1. Ta'lim paradigmasining falsafiy mohiyati.

“Paradigma” tushunchasi (yunoncha paradeigma – namuna, andoza) T. Kun tomonidan ilmiy tafakkur modeli sifatida izohlangan. Ta'lim paradigmasi esa, o'z navbatida, jamiyatda ustuvor bo'lgan inson, bilim va qadriyatlar haqidagi falsafiy tasavvurlar tizimi hisoblanadi. Ta'limning mazmuni tarix davomida turli falsafiy yondashuvlar asosida shakllangan: antik davrda – axloqiy kamolot, Uyg'onish davrida – insonparvarlik, Yangi davrda – ratsional tafakkur, XX asrda – tajribaviy o'qitish va refleksiya. XXI asrda esa ta'limning falsafiy asosi insonni o'zini rivojlantiruvchi subyekt sifatida anglash g'oyasiga tayanadi [2]. O'zbekistonlik faylasuflar – B. Karimov, I. To'rayev, A. Qodirov – ta'limning falsafiy mohiyatini inson ma'naviyatini yuksaltirish, ijtimoiy ongini yangilash va milliy o'zlikni mustahkamlash jarayoni sifatida talqin etadilar [3].

2. Raqamli ta'lim: yangi axborot-falsafiy paradigma.

Raqamli ta'lim – bu faqat texnologik yangilik emas, balki inson tafakkuri va bilish faoliyatining raqamli shaklga o'tishi jarayonidir. Bu paradigma axborot falsafasi, texnologik gumanizm va kognitiv muvozanat nazariyalari bilan chambarchas bog'liq. Raqamli muhitda bilim individual emas, balki tarmoq asosida yaratiladi, “kollektiv aql” (collective intelligence) tamoyili kuchayadi. Shuningdek, raqamli ta'limda shaxsning o'rganish jarayonidagi roli o'zgaradi: o'quvchi – passiv iste'molchi emas, balki faol bilim yaratuvchiga aylanadi [4]. Masalan, O'zbekistonning “Raqamli ta'lim” milliy dasturi (2022–2026) shaxsni raqamli madaniyat, axborot etikasi va ijodkorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Faylasuf N. Jo'rayev ta'kidlaganidek, “raqamli tafakkur bu yangi borliqni idrok etish madaniyatidir” [5].

Raqamli ta'lim nafaqat o'quv resurslariga qulay kirish imkoniyatini beradi, balki virtual hamkorlik maydonini yaratib, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida sinergiya o'rnatadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim jarayonining ijodiy va tanqidiy jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli ta'limning asosiy vazifasi shaxsning axborot oqimlari bilan ishlash qobiliyatini shakllantirish, unda analitik fikrlashni, ma'lumotlarni sintez qilishni va innovatsion yechimlarni topishni rag'batlantirishdir.

Axborot texnologiyalari ta'lim jarayoniga chuqur kirib borishi bilan, o'qituvchining roli ham o'zgaradi. U endi faqat bilim manbai emas, balki bilim olish strategiyasini ishlab chiquvchi, o'quvchilarni yo'naltiruvchi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mentorga aylanadi. Raqamli ta'lim o'qituvchilardan doimiy ravishda kasbiy mahoratini oshirishni, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishni va pedagogik yondashuvlarni modernizatsiya qilishni talab etadi.

Shu bilan birga, raqamli ta'limning salbiy jihatlarini ham inkor etib bo'lmaydi. Virtual muhitga haddan tashqari bog'lanib qolish, ijtimoiy izolyatsiya, axborot xavfsizligi va raqamli tengsizlik kabi muammolar diqqat markazida bo'lishi lozim. Shuning uchun raqamli ta'limni amalga oshirishda ehtiyotkorlik va muvozanatni saqlash, texnologiyalarni insoniylik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim kelajak avlodning raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omili bo'lib, u ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqadi. Biroq, bu jarayonni puxta rejalashtirish, uning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish va mumkin bo'lgan risklarni minimallashtirish talab etiladi. Faqat shundagina raqamli ta'lim insoniyatning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi.

3. Kompetensiyaviy yondashuvning falsafiy asoslari.

Kompetensiyaviy yondashuv — bu inson faoliyatini faqat bilimlar majmuasi emas, balki axloqiy, ijtimoiy va kasbiy mas'uliyat tizimi sifatida tushunishga asoslanadi. Bu yondashuvning falsafiy ildizlari pragmatizm (J. Dyui), ekzistensializm (S. Kierkegaard, J.-P. Sartr), hamda faoliyat falsafasiga borib taqaladi. Unga ko'ra, haqiqiy bilim — amaliyotda qo'llaniladigan, ijtimoiy qiymatga ega bilimdir. O'zbekiston kontekstida bu yondashuv "Kasb-hunar ta'limi konsepsiyasi" (2021) asosida rivojlanib, shaxsning kasbiy madaniyatini va mehnat etikasi-ni shakllantirishga qaratilgan. Sh. Yusupovning fikricha, "kompetensiyaviy yondashuv – ta'limni insonparvarlashtirishning zamonaviy bosqichidir" [6].

4. Uzluksiz ta'lim va inson taraqqiyoti falsafasi

Uzluksiz ta'lim (lifelong learning) – inson hayoti davomida o'zini takomillashtirish tamoyiliga asoslanadi. Bu paradigma insonni "doimiy o'quvchi" sifatida tasavvur etadi. Falsafiy jihatdan bu yondashuv A. Toffler, E. Fromm, J. Delor kabi mutafakkirlarning "ta'lim – bu hayotning o'zi" degan g'oyasiga tayanadi. O'zbekiston faylasufi M. Xolbekov esa ta'limni "ma'naviy o'zgarishning ijtimoiy mexanizmi" sifatida talqin etadi [7]. Uzluksiz ta'lim paradigmasi jamiyatning madaniy barqarorligini ta'minlash bilan birga, mehnatsevarlik, mas'uliyat va kasbiy madaniyatni rivojlantiradi.

5. Global tendensiyalar va milliy qadriyatlar uyg'unligi

Globalizatsiya sharoitida ta'lim qadriyatlari o'zgarar ekan, har bir millat o'z ma'naviy negiziga tayanishi zarur. O'zbekiston ta'lim falsafasi uchun bu — "ma'rifatli jamiyat qurish" g'oyasidir. Sh. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" tamoyili raqamli

transformatsiya, kompetensiyaviy yondashuv va uzluksiz ta'limni bir butun jarayon sifatida uyg'unlashtiradi [8].

Ma'rifatli jamiyat qurish g'oyasi, o'z navbatida, milliy qadriyatlarimizni global miqyosda targ'ib etish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga milliy g'urur tuyg'usini singdirish kabi muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda ta'lim maskanlarining roli beqiyosdir. Ular nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, jamiyatga foydali insonlar bo'lib yetishishiga ko'maklashishi lozim.

Shu o'rinda, kompetensiyaviy yondashuvga alohida e'tibor qaratish zarur. Zamonaviy ta'lim tizimi faqatgina nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Aksincha, u o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga yordam berishi lozim. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi esa bu borada yangi imkoniyatlar eshiklarini ochmoqda.

Uzluksiz ta'lim tamoyili har bir insonning hayoti davomida o'rganish va rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lishini anglatadi. Bu, ayniqsa, globallashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bilim va texnologiyalar shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Shunday ekan, har bir inson o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab, o'z kasbiy mahoratini oshirib borishi zarur.

“Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasi ta'lim sohasida tub o'zgarishlarni amalga oshirish, sifatli ta'limni ta'minlash, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish kabi muhim maqsadlarga qaratilgan. Bu maqsadlarga erishish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish, doimiy izlanishda bo'lish, yangi g'oyalar va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Xulosa. Zamonaviy ta'lim paradigmalari — raqamli, kompetensiyaviy va uzluksiz ta'lim — shaxsni intellektual, ma'naviy va kasbiy jihatdan yuksaltirishning falsafiy mexanizmlaridir. Ular o'zaro uyg'unlashgan holda “inson – jamiyat – texnologiya” triadasini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'limning falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya va global o'zgarishlar sharoitida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlagan holda innovatsiyani rivojlantirish – asosiy ustuvor yo'nalishdir.

Ushbu paradigmalarning har biri o'ziga xos falsafiy asosga ega bo'lib, ta'lim jarayonining maqsadlari, vazifalari va usullarini belgilaydi. Raqamli ta'lim innovatsion texnologiyalarni ta'limga joriy etish orqali bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, ta'limni interaktiv va shaxsiylashtirilgan qiladi. Kompetensiyaviy ta'lim bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishga qaratilib, ularda zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob beradigan amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Uzluksiz ta'lim esa insonning butun hayoti davomida o'qishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi va kasbiy mahoratini oshirib borishi zarurligini anglatadi.

Bu paradigmalarning uyg'unlashuvi ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va “inson – jamiyat – texnologiya” triadasida muvozanatni saqlashga yordam beradi. Texnologiyalar insoniyatga xizmat qilishi, jamiyatning ehtiyojlarini qondirishi va insonning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak. Ta'limning falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, har qanday innovatsiya va texnologik o'zgarishlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslanishi lozim.

Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni shakllantirish, shaxsning ma'naviy kamolotiga yo'naltirilgan bo'lishi muhim. Sun'iy intellekt va

boshqa texnologiyalar ta'lim jarayonida qo'llanilganda, ularning axloqiy jihatlarini hisobga olish, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasini ta'minlash va texnologiyalarning suiste'mol qilinishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Shunday ekan, zamonaviy ta'lim paradigmalari shaxsni intellektual, ma'naviy va kasbiy jihatdan yuksaltirishga, jamiyatning barqaror rivojlanishiga va texnologiyalarning insoniyat manfaatlariga xizmat qilishiga qaratilgan falsafiy mexanizmlardir. Ularni amalga oshirishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish asosiy ustuvor vazifalardan biri bo'lishi kerak. Bu esa ta'lim sohasidagi mutaxassislardan doimiy izlanishlar, yangi g'oyalar va innovatsion yondashuvlarni talab etadi.

Ta'limning falsafiy asoslarini chuqur anglash va zamonaviy paradigmalarni amaliyotga tatbiq etish orqali biz kelajak avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga, ularning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishga erishamiz. Bu jarayonda ta'limning roli nafaqat bilim berish, balki shaxsda mas'uliyat hissini shakllantirish, uning ma'naviy va axloqiy kamolotiga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.
2. Kun T. Struktura nauchnyx revolyutsiy. – M.: Progress, 1975.
3. Karimov B., To'rayev I. Oqilona qadriyat mo'ljallari. – T.: Ma'naviyat, 2015.
4. Jenkins H. Convergence Culture. – New York: NYU Press, 2006.
5. Jo'rayev N. Raqamli tafakkur falsafasi. – T.: Fan, 2020.
6. Yusupov Sh. Ta'lim va insonparvarlik falsafasi. – T.: Oliy ta'lim, 2021.
7. Xolbekov M. Ma'naviyat va o'zgarishlar falsafasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – T.: O'zbekiston, 2019.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

THE DIALECTIC OF CULTURE AND EVERYDAY LIFE

Toirov Ilkhom,
PhD, Senior Lecturer,
Fergana State University
E-mail: i.toirov@gmail.com

Abstract. This article analyzes the inextricable connection between culture and everyday life from a philosophical point of view. Also, through the philosophy of everyday life, the essence of culture, its influence on the human mind and social relations are revealed. The study investigated the formation of culture not only as a system of high art, science or religious views, but also through the habits, communication styles, lifestyle and social behavior at all times.

Keywords: culture, globalization, everyday life, civil society, human philosophy, values, human being, social relations, lifestyle.

MADANIYAT VA KUNDALIK HAYOT DIALEKTIKASI

Toirov Ilxom,
Phd, katta o'qituvchi,
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniyat va kundalik hayot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, kundalik hayot falsafasi orqali madaniyatning mohiyati, uning inson ongiga va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri ochib berilgan. Tadqiqotda madaniyat nafaqat yuksak san'at, ilm-fan yoki diniy qarashlar tizimi sifatida, balki har doimgi odatlar, muloqot uslublari, turmush tarzi va ijtimoiy xulq-atvor orqali ham shakllanishi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, globallashuv, kundalik hayot, fuqarolik jamiyati, inson falsafasi, qadriyatlar, inson borlig'i, ijtimoiy munosabatlar, turmush tarzi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N21>

Kirish. Madaniyat va kundalik hayot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik falsafiy tafakkurda qadimdan muhim masala sifatida qaralib kelgan. Insonning borlig'i nafaqat yuksak g'oyalar, san'at asarlari yoki diniy an'analarda, balki har kuni takrorlanadigan oddiy amaliy faoliyatda ham ifodalanadi. Kundalik hayot madaniyatning eng yaqin, amaliy shakli bo'lib, u insonning borliqni idrok etishi va qayta yaratishi jarayonida shakllanadi. Shu bois madaniyat va kundalikning dialektikasi — ularning o'zaro ta'siri, uyg'unligi hamda qarama-qarshiligi falsafiy izlanishlar uchun dolzarb mavzudir.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, texnologik yutuqlar va madaniy almashinuvlar sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlab qolish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, bugungi kunda turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot va integratsiya jarayonlarida madaniy tafakkur va madaniy merosning ahamiyati yanada ortib

bormoqda. Shu bois, madaniyat va sivilizatsiya o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikni tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda madaniyatni, madaniyat rivojlanishi bosqichlarini, uning jamiyatdagi tutgan o'rnini o'rganuvchi bir qator fanlar mavjud. Shulardan eng asosiylari: ijtimoiy falsafa, etnologiya, etnografiya, madaniy va ijtimoiy antropologiya, madaniyatshunoslik, madaniyat sotsiologiyasi va madaniyat falsafasi. Ushbu ijtimoiy fanlarning barchasi empirik ma'lumotlarni to'plash va analiz qilish orqali turli jamiyat va davrlarga tegishli bo'lgan madaniyatlarni bir-biriga nisbiy ravishda o'rganadi. Ular o'rtasidagi farqni va chegarani aniqlash mushkul masalalardan biridir. Shu kunga qadar bu fanlarni o'rganib kelayotgan olimlar, asosan, ushbu fanlarning yaratilishida sababchi bo'lgan turli maktab va yo'nalishlarga asoslangan holda ularni bir-biridan ajratib kelmoqdalar.

Madaniyat keng ma'noda insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy qadriyatlarning majmuasi sifatida tushuniladi. U ijtimoiy tajriba, bilim, axloqiy me'yorlar, estetik qarashlar, an'analar va urf-odatlar orqali namoyon bo'ladi. Kundalik hayot esa insonning oddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati, odatlar, muloqot shakllari, turmush tarzi va ijtimoiy xulq-atvor jarayonlaridan iboratdir.

Madaniyat ajdodlar tafakkuri, bilimlari, ijodi va atrof-muhitga bo'lgan munosabatining mahsuli bo'lib, minglab yillar davomida yaratilgan tajribalarni o'ziga singdirib, takomillashib borgan. Madaniyat rivojlanishi bilan millat va uning ma'naviy qiyofasi ham shakllangan.

Davlatimiz rahbari xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga ehtirom bilan munosabatda bo'lish, muqaddas dinimiz, an'ana va urf-odatlarimiz, bebaho tarixiy merosimizni saqlab qolish va rivojlantirishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi[1].

Madaniyatning mohiyatini bilishga sivilizatsiyali yondashuv esa aksincha, har bir milliy madaniyatning betakrorligini, unda umuminsoniylik va o'ziga xoslik mavjudligini e'tirof etishni nazarda tutadi. "Madaniyat inson faoliyatining mahsuli va sifat ko'rsatkichi sanaladi. Insonning o'zi ham pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Jamiyatdagi madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi"[2].

Kundalik hayot – umumiy ma'noda, bu oddiy odamlarning kundalik hayotida sodir bo'ladigan tajriba, faoliyat va hodisalardan tashkil topgan hamma narsani anglatadi. Shuningdek, kundalik hayot - konsepsiya, umuman olganda. reja oddiy, kundalik harakatlar, tajribalar, odamlarning o'zaro munosabatlari oqimini anglatadi. Qisqa qilib aytganda, kundalik hayot tor doiradagi xususiy tadbirlar, shaxsiy kundalik turmush, kasbiy faoliyat va bo'sh vaqtni o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, kundalik hayot tarixi yonimizdagi, atrofimizdagi oddiy kishilarning mikrotarixidir.

Kundalik hayot tushunchasi cheksiz emas. Kundalik hayotning parametrlarini qarama-qarshi tushuncha — kundalik bo'lmagan hayot bilan taqqoslash orqali keskinlashtirish mumkin.

Natijalar va muhokama. Kundalik hayotda va fanda madaniyat atamasidan foydalanish to'g'risidagi mulohazalarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, madaniyat eng keng ma'noda insonni o'rab turgan tabiatdan, ijtimoiy munosabatlarda va bevosita o'zida stixiyali ravishda vujudga kelgan tayyor ma'lumotlardan foydalanishni, ongli ravishda ajratib olishni taqozo etadi. Madaniyat tabiatdan farq qiladi, an'analar, ramzlar, til, bevosita taqlid qilish va amaliy o'rganish orqali avloddan-avlodga singdiriladi. Madaniyat shaxs tomonidan, uning sotsial jihatdan shakllanishi jarayonida o'zlashtiriladi va asosan keng tarqalgan va ko'pchilik qabul

qilgan axloq, tafakkur va his qilishning parchalaridan tashkil topib, individual harakatlar hissasi bunda juda kamdir.

Kundalik hayot — inson faoliyatining eng oddiy, ammo eng murakkab mazmunga ega qatlamidir. U:

- **Ontologik jihatdan** – inson borlig'ining mavjud bo'lish shaklidir;
- **Epistemologik jihatdan** – bilim va tajribaning manbai;
- **Aksiologik jihatdan** – qadriyatlar shakllanadigan maydondir.

Shunday qilib, kundalik insonning o'z-o'zini anglashida, jamiyatning madaniy va ijtimoiy rivojida tayanch poydevor vazifasini bajaradi.

Har kun — jamiyat faoliyatida inson hayotining “tabiiy”, o'z-o'zidan ravshan sharti sifatida namoyon bo'ladigan yaxlit ijtimoiy-madaniy hayot dunyosi. Kundalik hayotga ontologiya, inson faoliyatining chegaraviy sharti sifatida qarash mumkin. Kundalik hayotni o'rganish inson dunyosiga va uning hayotining o'ziga qadriyat sifatida yondashishni anglatadi. Kundalik hayot XX asr madaniyatida muhim mavzudir. Kundalik hayotning o'zi va kundalik hayot haqidagi nazariy nutqni farqlash kerak. Hozirgi vaqtda kundalik hayot ijtimoiy voqelikning o'ziga xos sohasi sifatida fanlararo tadqiqot obyekti (tarix, ijtimoiy va madaniy antropologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik) sifatida ishlaydi. Kundalik hayotning tadqiqotchisi mutlaq kuzatuvchi sifatida harakat qildi, ular uchun tirik tajriba faqat ushbu haqiqatning alomati sifatida harakat qildi.

Ijtimoiy falsafa va sotsiologiyadagi germeneytik va fenomenologik maktablar klassik ijtimoiy bilim paradigmasiga muqobillik vazifasini bajargan. Kundalik hayotni yangicha tushunish uchun turtki E.Gusserl tomonidan hayot dunyosini talqin qilishda berilgan. A.Shyutsning ijtimoiy fenomenologiyasida M.Veberning ushbu g'oyalari va sotsiologik munosabatlarining sintezi amalga oshirildi. Shuts kundalik hayotni ijtimoiy voqelikning yakuniy asoslarini izlash kontekstida o'rganish vazifasini shakllantirdi. Ushbu yondashuvning turli xil versiyalari zamonaviy bilim sotsiologiyasida (P.Berger, T.Luckman), ramziy interaksionizm, etnometodologiya va boshqalarda biroz boshqacha uslubiy pozitsiyalardan keltirilgan. Kundalik hayot tadqiqotlarining evolyutsiyasi ijtimoiy bilimlar paradigmalarning o'zgarishi bilan bog'liq. Bizning g'oyalarimizda kundalik va kundalik bo'lmaganlar o'z ma'nosida bir-biridan farq qiladigan va bir-biri bilan taqqoslanmaydigan ontologik tuzilmalar sifatida harakat qilmaydi. Bular har xil voqelikdir, chunki ular har xil tajriba turlarini ifodalaydi. Shunga ko'ra, nazariy modellar kundalik mentalitet va kundalik ong konstruksiyalariga qarshi emas. Aksincha, ijtimoiy bilimlarning asoslanishi va asosiligi mezoni fan tushunchalari va kundalik ong konstruksiyalari, bilishning boshqa fandan tashqari shakllari o'rtasidagi uzluksizlik va muvofiqlikdir. Ijtimoiy bilishning markaziy masalasi ijtimoiy bilimlarni kundalik ma'nolar (birinchi tartibli konstruksiyalar) bilan bog'lash masalasidir. Bu yerda bilimning obyektivligi muammosi olib tashlanmaydi, lekin kundalik hayot va fikrlash shakllari endi haqiqat uchun sinovdan o'tkazilmaydi.

Xulosa. Madaniyat va kundalik hayot dialektikasi inson borlig'ining ajralmas jihatini tashkil etadi. Ularning o'zaro aloqasi shuni ko'rsatadiki, madaniyat faqat yuksak san'at, ilm-fan yoki diniy qadriyatlarda emas, balki insonning oddiy kundalik faoliyatida ham yashaydi. Kundalik hayot madaniyatni amaliy shakllantirsa, madaniyat kundalik hayotga chuqur falsafiy va ma'naviy mazmun baxsh etadi. Shu sababdan, kundalikni falsafiy anglash orqali biz

madaniyatning asl mohiyatini — inson borlig'ini uyg'unlashtiruvchi va mazmun bilan boyituvchi kuch sifatida idrok etamiz.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 8-9.
2. Falsafa qomusiy lug'at. Toshkent, "Sharq", 2004 yil, 230-bet.
3. Shermuhamedov S., Ochildiev A. Madaniyat va sivilizatsiya. – Quvasoy, 1999.
4. Shaxs va jamiyat. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. – Т.:Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.
5. Тоиров, И. (2021). ШАХС МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ УЙЎУНЛИГИ. *Интернаука*, (24-3), 88-89.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

VIOLENCE AS A SOCIALLY RISKFUL BEHAVIOR: CONTENT AND ESSENCE, CONSEQUENCES

Mamatnazarov Lazizbek Torakuliyevich

Department of Penal Execution under the Ministry of Internal Affairs
Head of Penal Execution Colony No. 5 of the Fifth Regional District

Abstract. This article analyzes the role of violence as socially dangerous behavior, its content and essence, its impact on society, and its social consequences. Attention is also paid to a number of manifestations of violence and their socio-philosophical analysis.

Keywords: violence, aggression, physical violence, emotional violence, social consequences, effects and harms of violence.

ZO'RAVONLIK IJTIMOYIY-XATARLI XULQ-ATVOR SIFATIDA: MAZMUNI VA MOHIYATI, OQIBATLARI

Mamatnazarov Lazizbek To'raquliyevich

IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti
Beshinchi mintaqaviy hudud 5-son jazoni ijro etish koloniyasi boshlig'i

Annotatsiya. Mazkur maqolada zo'ravonlikning ijtimoiy xatarli xulq-atvor sifatidagi o'rni, uning mazmuni va mohiyati, jamiyatga ta'siri, ijtimoiy oqibatlari tahlil etilgan. Shuningdek, zo'ravonlikning qator ko'rinishlari, ularning ijtimoiy-falsafiy tahlillariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: zo'ravonlik, tajovuzkorlik, jismoniy zo'ravonlik, hissiy zo'ravonlik, ijtimoiy oqibatlar, zo'ravonlikning ta'sirlari va zararlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N22>

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda ijtimoiy me'yorlardan chetga chiquvchi xulq-atvor muammosi yuqori ijtimoiy ahamiyat va ilmiy dolzarblik kasb etdi. Jamiyat ongining erkinlashuvi, shaxsning individuallashtirish va guruhviy aloqalarning zaiflashuvi jarayonlari zamonaviy G'arb jamiyatida xulq-atvor og'ishlarining ko'payishiga sabab bo'ldi. XX asr haqqoniy ravishda zo'ravonlik asri sifatida ta'riflangan. Qurbonlar soni, vayronagarchilik miqyosi va qirg'inning yangi texnologiyalari tarixda misli ko'rilmagan darajaga yetdi. Hisob-kitoblarga ko'ra, XX asrda urush tufayli halok bo'lganlar soni 105 million kishidan oshgan, shundan 62 millioni tinch aholi qurbonlaridir. Shubhasiz, marhumlar zo'ravonlikning yagona qurbonlari emas. Zo'ravonlik natijasida halok bo'lgan har bir inson uchun qiynoqlar, vahshiylik, ta'qiblar, yaqinlarini yo'qotish yoki (omadli bo'lsa) barcha mol-mulki va tirikchilik manbalarini yo'qotishdan omon qolgan ko'plab insonlar bor. Bugungi kunda yashovchi har bir inson bevosita yoki bilvosita zo'ravonlikning biror turini boshdan kechiradi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimli yondashuv, retrospektiv tahlil, mantiqiylik va vorisiylik, dialektik, germeneytik, qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. “Tajovuzkorlik — hukmronlik qilish, g'alaba qozonish, boshqarish maqsadida kuchli, shiddatli, ta'sirli harakat, fe'l yoki jarayon: bir ishni buzish, to'sqinlik qilish yoki bekor qilishga qarshi dushmanona, jarohatlovchi, azob beruvchi yoki vayron qiluvchi (buzg'unchi, yo'q qiluvchi) maqsadni o'z ichiga olgan xatti-harakatdir[1:51]. “Zo'ravonlik tajovuzkorlikning turi va darajasidir”[1:143]. Etimologik jihatdan zo'ravonlik so'zi arab tilidan kirib kelgan so'z bo'lib, qattiqqo'llik, qo'pol va shafqatsiz xatti-harakat, qo'pol kuch ishlatish ma'nolarini anglatadi. Zo'ravonlik so'zi bugungi kunda yangi ma'nolarga ham ega bo'lib, qarama-qarshi vaziyatda, fikrda bo'lganlarga nisbatan qo'pol kuch ishlatish, qo'pol munosabatda bo'lish, qattiqqo'llik, “zo'ravonlik hodisalari” esa odamlarni sindirish, qo'rqitish uchun yaratilgan voqea yoki urinishlar sifatida ta'riflanadi[2:53].

Zo'ravonlik “shaxslar va obyektlarga nisbatan dushmanlik va g'azab tuyg'ularining haqiqiy, buzg'unchi jismoniy zo'ravonlik bilan ifodalanishi, tajovuzkorlikning erkinligi va inson irodasini inkor etuvchi eng ilg'or ekstremal o'lchami shaklida” ta'riflanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan zo'ravonlik; “shaxsning o'ziga, boshqa shaxsga, guruhga yoki jamoaga nisbatan jismoniy zo'ravonlik va kuch ishlatish bilan tahdid qilish yoki qasddan ishlatish shaklida jarohat, o'lim, ruhiy zarar yoki yo'qotish bilan yakunlangan yoki yakunlanishi mumkin bo'lgan” deb ta'riflanadi. Zo'ravonlik nafaqat jismoniy aralashuv sifatida, balki og'zaki yoki vizual shaklda ham sodir bo'lishi mumkin. Nomaqbul so'zlarni ishlatish, hissiy jihatdan xafa qilish yoki kamsitish ham zo'ravonlikning bir shaklidir. Xuddi shunday, shaxsning boshqa birovning tanasi yoki buyumlariga zarar yetkazishi ham zo'ravonlik harakatidir. Zo'ravonlikning turli shakllari mavjud. Bu holat odamlarga jismoniy va ruhiy zarar yetkazishi, ijtimoiy jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun zo'ravonlikni faqat jismoniy harakat sifatida emas, balki kengroq nuqtai nazardan ko'rib chiqish muhimdir. Jismoniy zo'ravonlik harakatlari oshkora bo'lsa-da, hissiy zo'ravonlik hayotimizning ko'plab sohalariga yashirincha kirib keladi. Hurmatsizlik, kamsituvchi, aldamchi yoki jirkanch so'zlar, qarashlar va imo-ishoralar bizning his-tuyg'ularimizni ranjitishi mumkin.

Hissiy zo'ravonlik — bu jabrlanuvchining hissiy salomatligiga ta'sir qiladigan, uni xafa qiladigan va nazorat qilishga harakat qiladigan xatti-harakatlar. Bunday zo'ravonlik ko'pincha jismoniy zo'ravonlikning boshlovchisi yoki hamrohi sifatida namoyon bo'ladi.

Hissiy zo'ravonlikning ta'siri jabrlanuvchining o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishi, xavotir, depressiya, travma kabi psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Hissiy zo'ravonlik munosabatlardagi kuch nomutanosibligini ta'kidlash vositasi sifatida ham ishlatilishi mumkin. Bu holatda jabrlanuvchi doimiy ravishda tahqirlanadi, kamsitiladi, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi va o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Shunday qilib, jabrlanuvchining o'zini ifoda etish qobiliyati cheklanadi va u qaram bo'lib qoladi. Hissiy zo'ravonlik sheriklik munosabatlarida eng ko'p uchraydigan turdir. Biroq, u oilada, ishda yoki boshqa ijtimoiy muhitda ham yuz berishi mumkin. Masalan, agar ota-ona o'z farzandini doimiy ravishda tanqid qilsa, kamsitsa yoki yerga ursa, bu ham hissiy zo'ravonlikning bir turi hisoblanadi. Hissiy zo'ravonlikdan himoyalaniishning birinchi bosqichi bunday xatti-harakatlarni tan olishdir. Avvalo, o'zimizga, keyin boshqalarga qanday munosabatda bo'lish kerakligini bilish va munosabatlarda chegaralarimizni saqlash muhimdir. Hissiy zo'ravonlikka qarshi kurash ijtimoiy xabardorlikni oshirish va jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash

ma'nosida muhim o'rin tutadi. Bunday zo'ravonlik jazosiz qolmasligini ta'minlash uchun huquqiy me'yorlarni yaratish orqali tegishli mexanizmlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar, ayollar va qariyalar zo'ravonlikni eng ko'p boshdan kechirayotgan guruhlardir. Shu nuqtai nazardan individual zo'ravonlikni oiladagi zo'ravonlik nomi ostida ham ko'rib chiqish mumkin. Ammo individual zo'ravonlik jamoaviy zo'ravonlikni qo'zg'atuvchi muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan zararlar ham individual nuqtai nazardan, o'sha odam boshidan kechirgan voqea orqali baholanadi. Agar zo'ravonlikni tushuntirishda kuch va tajovuzkorlik tushunchalari birgalikda ko'rib chiqilsa, zo'ravonlik tushunchasi yaxshiroq tushuniladi. Tajovuzning sababi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlar tajovuzkorlikni genetik omillar, kognitiv omillar va ijtimoiy o'rganishgacha bo'lgan turli manbalarga asoslangan bo'lib, hali ham ushbu mavzu bilan bog'liq ko'plab omillar tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda.

Tadqiqotchilarning fikricha, ayniqsa, frustrasiya, blokirovka, o'ziga ishonchning yetishmasligi, shaxsiy kutilmalarga erisha olmaslik, ijtimoiy kutilmalarga mos kelmaydigan xatti-harakatlarning paydo bo'lishi, muvaffaqiyatsizliklar, adolatsizlikka uchragan deb o'ylash kabi sabablar g'azab va tajovuzkor xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi. Tajovuzkorlik jismoniy va verbal tajovuzkorlikka bo'linadi. Jismoniy tajovuzda shaxsga, hayvonga yoki obyektga zarar yetkazish nazarda tutiladi. Masalan, urish, tepish, pichoqlash, o'qotar qurol bilan jarohatlash, qattiq itarish, biror narsani uloqtirish, derazaga urish, oynani sindirish, yong'in chiqarish kabi holatlar jismoniy zo'ravonlik sifatida baholanadi. Og'zaki tajovuzkorlikda esa ko'proq so'zlar va xatti-harakatlar bilan boshqalarga zarar yetkazish mavjud. Tahdid qilish, xat yoki maktub yozish orqali tahdid qilish, baqirib chaqirish, tana tili, g'iybat tarqatish, masxara qilish orqali haqorat qilish, og'zaki tajovuz holatini o'z ichiga oladi. Odatda tajovuzkorona xatti-harakatlar va munosabatlar nafaqat shaxsning o'ziga, balki boshqalarga ham zarar yetkazishi va ularni ranjitishi mumkin. Qisqacha aytganda, tajovuzkorlik boshqalar tomonidan kuzatilishi mumkin bo'lgan ochiq xatti-harakatdir. G'azab esa g'azablangan odam tomonidan ko'rsatiladigan hissiyotdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, g'azab tajovuzkorlikni namoyon qilishda muhim o'zgaruvchidir. O'quvchilarda maktabda, past o'zlashtirishda, tengdoshlar muammolarida, psixosomatik shikoyatlarda g'azab darajasi va muammoli xulq-atvor o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud.

Zo'ravonlikning shaxslar va jamiyatlarga ta'siri juda keng qamrovli masala bo'lib, jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Zo'ravonlikning shaxslar va jamiyatlarga ta'sirini ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning bir necha ko'rinishlari ko'zga tashlanadi.

Shaxslarga ta'siri va jismoniy zarar: Jismoniy zo'ravonlik jiddiy jarohatlar yoki o'limga olib kelishi mumkin. Bu jarohatlar uzoq muddatli sog'liq muammolariga sabab bo'lishi mumkin.

Hissiy oqibatlar: Zo'ravonlik jabrlanuvchilarda ruhiy jarohatlarga olib kelishi mumkin. Bularga depressiya, xavotir, travmadan keyingi stress buzilishi (TSSB) kabi psixologik muammolar kiradi.

Ijtimoiy izolyatsiya: Zo'ravonlik qurbonlari ko'pincha ijtimoiy izolyatsiyani boshdan kechiradilar. Zo'ravonlik qurbonlari turli sabablarga ko'ra (uyat, qo'rquv, o'zini xavfsiz his qilmaslik, ijtimoiy chetlatilish qo'rquvi va boshqalar) qo'llab-quvvatlash tizimlaridan uzoqlashishlari va ijtimoiy izolyatsiyaga tushib qolishlari mumkin. Ijtimoiy izolyatsiya shaxsning oila, do'stlar, jamiyat va boshqa ijtimoiy tarmoqlar bilan aloqasini uzishini anglatadi.

Ba'zi jabrlanuvchilar ijtimoiy izolyatsiya sharoitida zo'ravonlikka ko'proq duchor bo'lishlari mumkin. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimidan mahrum bo'lgan jabrlanuvchilar zo'ravonlik sodir etgan shaxs nazorati ostida qolishlari mumkin. Jabrlanuvchilar o'z his-tuyg'ularini boshqalar bilan baham ko'rish imkoniyati bo'lmaganda, bu his-tuyg'ularni o'zlariga singdirishlari mumkin. Bu holat depressiya, xavotir va boshqa psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. O'zini hurmat qilishning yo'qolishi: Zo'ravonlik qurbonlari ko'pincha o'zlarining zo'ravonlik tajribasi tufayli o'zini hurmat qilishning past darajasiga ega bo'lishi mumkin. Zo'ravonlik jabrlanuvchilarning o'zlariga nisbatan salbiy e'tiqodlari va qadr-qimmat baholarini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa o'zini hurmat qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular o'zlari boshdan kechirgan zo'ravonlik tufayli o'zlarini aybdor yoki qadrsiz deb hisoblashlari mumkin. Bu holat o'zini hurmat qilishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ular o'zlarini yetarli bo'lmagan yoki samarasiz his qilishlari mumkin. Bu tuyg'u o'zini hurmat qilishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ehtimol, ular sevgiga loyiq emasligini his qilishlari mumkin.

Doimiy qo'rquv va xavfsizlik hissi yo'qligi: Zo'ravonlik qurbonlari o'zlarini doimiy tahdid ostida his qilishlari mumkin. Bu inson o'zini xavfsiz his qilmasligi va doimiy stress holatida bo'lishini anglatishi mumkin.

Sog'liqni saqlash tizimiga yuk: Zo'ravonlik sog'liqni saqlash tizimiga katta yuk bo'ladi. Jismoniy jarohatlarni davolash va ruhiy oqibatlarni boshqarish sog'liqni saqlash resurslarini sarflaydi.

Iqtisodiy yo'qotishlar: Zo'ravonlik mehnat unumdorligini yo'qotish, davolanish xarajatlari va sud jarayonlari kabi iqtisodiy oqibatlarga olib keladi.

Ijtimoiy qo'rquv va ishonchsizlik: Zo'ravonlik hodisalari jamiyatlarda qo'rquv va ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Bu odamlarning jamoat joylaridan qochishiga va ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Bolalar va yoshlarga ta'siri: zo'ravonlik bolalar va yoshlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, zo'ravonlikni oddiy holga aylantirish yoshlarning zo'ravonlikka moyilligini oshirishi mumkin.

Madaniy va ijtimoiy qadriyatlarning ta'siri: Zo'ravonlik ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishi mumkin. Jamiyatlarda zo'ravonlikni qabul qilish kelajak avlodlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa. Zo'ravonlik bir kishining boshqasiga jismoniy yoki ruhiy ta'siri, jismoniy va ma'naviy ma'noda esa fuqarolarning shaxsiy yaxlitlik huquqini buzish deb talqin etiladi. Zo'ravonlikning ijtimoiy ta'sirini kamaytirish, uning oqibatlarini yumshatish va oldini olish uchun ijtimoiy, huquqiy va psixologik darajalarda turli xil strategiyalar qo'llanilishi kerak. Ayniqsa, zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan ta'lim, tushuntirish kampaniyalari, targ'ibot-tashviqot tadbirlari, huquqiy tartibga solish, psixologik yordam xizmatlari va jamoatchilik birdamligi ushbu muammoni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Erten Y, Ardalı C. "Saldırganlık, Şiddet ve Terörün Psikososyal Yapıları", Cogito, 1996. YKY, Sayı: 6-7, -S. 51-65.
2. Hobart M. "Şiddet ve Susku: Bir Eylem Siyasasına Doğru". (Çev. Yurdaer Salman). İstanbul. Cogito, YKY, 1996. Sayı: 6-7, -S. 53.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

TRANSFORMATIONAL DYNAMICS OF MORAL VALUES OF YOUTH IN THE CONTEXT OF MODERNIZATION

Takhirov Abdumalik Ashurali o'glu
Support doctoral student

Abstract. This article will scientifically analyze the impact of modernization processes on the system of moral values of young people and their transformational dynamics. During the study, the process of formation, transformation and adaptation of moral values in the minds of young people to the requirements of the Times is studied on the basis of a socio-philosophical approach. A dialectical interaction between emerging trends, traditional values, and contemporary views in the moral system in the context of globalization, technological progress, and cultural pluralism is also analyzed. The article considers separately the role of individual and collective consciousness, social institutions, family education and the media in the moral thinking of young people. The results of the study substantiate the need for a systematic approach to a deep understanding of the transformative processes in the moral values of young people and their orientation towards spiritual perfection.

Keywords: modernization, youth, moral values, transformation, socio-philosophical analysis.

MODERNIZATSIYA SHAROITIDA YOSHLAR AXLOQIY QADRIYATLARINING TRANSFORMATSION DINAMIKASI

Toxirov Abdumalik Ashurali o'g'li
ADPI MG'MAHT kafedrası tayanch doktoranti
E-mail: at20000709@gamil.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada modernizatsiya jarayonlarining yoshlar axloqiy qadriyatlari tizimiga ko'rsatgan ta'siri hamda ularning transformatsion dinamikasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yoshlar ongidagi axloqiy qadriyatlarning shakllanishi, o'zgarishi va zamon talablariga moslashuvi jarayoni ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida o'rganiladi. Shuningdek, globallashuv, texnologik taraqqiyot va madaniy plyuralizm sharoitida axloqiy me'yorlar tizimida yuzaga kelayotgan yangi tendensiyalar, an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy qarashlar o'rtasidagi dialektik o'zaro ta'sir ham tahlil etiladi. Maqolada yoshlar axloqiy tafakkurida individual va kollektiv ong, ijtimoiy institutlar, oilaviy tarbiya hamda ommaviy axborot vositalarining roli alohida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari yoshlar axloqiy qadriyatlaridagi transformatsion jarayonlarni chuqur anglash va ularni ma'naviy barkamollikka yo'naltirishda tizimli yondashuvning zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, yoshlar, axloqiy qadriyatlar, transformatsiya, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N23>

Kirish. Bugungi kunda globallashuv va modernizatsiya jarayonlari insoniyat hayotining barcha qatlamlariga chuqur kirib borib, ayniqsa, yosh avlodning axloqiy dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatyapti. Texnologik taraqqiyot, axborot oqimining tezlashuvi, madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi natijasida yoshlar orasida an'anaviy axloqiy mezonlarga nisbatan yangicha yondashuvlar shakllanyapti. Bu holat, o'z navbatida, axloqiy qadriyatlarning mazmunan boyishiga, ularning zamon ruhiga mos ravishda qayta talqin qilinishiga olib kelyapti. Modernizatsiya jarayoni faqat iqtisodiy va siyosiy tizimlarda emas, balki inson ma'naviy olamida ham chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltiryapti. Yoshlar ongida

axloqiy mezonlar endilikda nafaqat oilaviy yoki mahalliy an'analar asosida, balki global madaniy kontekstda shakllanyapti. Bu esa, axloqiy tafakkurning ko'p qirrali va murakkab tus olishiga sabab bo'lyapti. Shaxsning ma'naviy yetukligi, uning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy mas'uliyatini anglash darajasi aynan shu qadriyatlar tizimining qanday shakllanishiga bog'liq. Zamonaviy davrda axloqiy me'yorlar va yoshlarning individual qarashlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash, ularni uyg'unlashtirish va ijtimoiy muhitga moslashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masalaga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar orqali axloqiy qadriyatlarning evolyutsiyasi, ularning barqarorligini ta'minlash mexanizmlari, shuningdek, yoshlar ongida ma'naviy immunitetni shakllantirish yo'llari chuqur tahlil etilishi zarur. Mazkur tadqiqotda yoshlar axloqiy tafakkurida yuz berayotgan o'zgarishlar, ularning sabablari va oqibatlari, shuningdek, modernizatsiya sharoitida axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish strategiyalari ko'rib chiqiladi. Maqsad — zamonaviy axloqiy qadriyatlarning mohiyatini anglash, ularni yoshlar tarbiyasida samarali qo'llashning nazariy asoslarini ishlab chiqish, hamda amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdir. Bu orqali jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, yosh avlodni axloqiy jihatdan yetuk va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi konseptual yondashuvlar taklif etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Axloqiy qadriyatlarning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ko'plab mutafakkirlar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Jumladan, qadimgi yunon faylasufi Arastu axloqning jamiyat hayotidagi muhim ahamiyatiga to'xtalib, shunday degan edi: "Tabiat inson qo'liga qurol – aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin; shu sababli axloqiy tayanchlari bo'lmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, o'zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo'lib qoladi." [1;9] Ushbu fikr shaxsning ichki axloqiy barqarorligi bo'lmasa, jamiyatda ham tartib va uyg'unlikning saqlanishi mushkul ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, nemis faylasufi Kant axloqiy tizimning falsafiy asoslarini chuqur izohlab, "e'tiqodga ham o'rin qo'yadi. Ishonch e'tiqodgina inson jonining o'lmasligiga ishonish erkinligi asosida Xudoning mavjudligini aqliy isbotlaydi", deya ta'kidlaydi. [4;71] Bu g'oya axloqiy me'yorlarning nafaqat ijtimoiy, balki metafizik va ruhiy asoslarini ham mustahkamlaydi. Psixanalitik mutafakkir Erix Fromm esa axloqiy qadriyatlarning tashqi nazorat emas, insonning o'z ongida shakllanishini zarur deb biladi. Uning fikricha: "Bir odam – obro' egasi inson uchun nima yaxshiligini belgilab beradi, o'zini tutish qonun-qoidalari va me'yorlarini ham o'ylab topadi, o'rnatadi. Insonparvarlik axloqi esa bu qonun-qoidalar va me'yorlarni o'zi yaratishi, o'zi boshqarishi hamda ularga o'zi amal qilishi bilan farqlanadi." [2;18] Bu qarash yoshlar axloqiy tafakkurida mustaqillik va ichki mas'uliyatni shakllantirish zarurligini asoslaydi. Bundan tashqari, insoniyat tafakkuri tarixida Zardusht ta'limotida ilk bora "ezgu niyat, ezgu so'z va ezgulikka asoslangan amaliyot birligi har qanday ijtimoiy rivojlanishning asosi" sifatida e'tirof etilgani, va "fuqarolari boshqa fikrni o'ylab, boshqa so'zlarni aytishga va yana boshqa amaliy ishlar qilishga yo'naltirilgan jamiyat muqarrar tarzda tanazzulga yuz tutishi mumkinligi" haqidagi inqilobiy g'oya ham axloqiy qadriyatlarning jamiyat barqarorligi uchun qanchalik muhimligini ko'rsatadi. [3;94] Shuningdek, bu fikr yoshlar ongida izchil va yaxlit axloqiy qarashlarni shakllantirishning dolzarbligini yoritadi. Tahlil qilingan ushbu manbalar axloqiy qadriyatlarning transformatsion jarayonini tushunishda nafaqat tarixiy va falsafiy asos, balki yoshlar ma'naviy tarbiyasi uchun mustahkam nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Zardusht ta'limotida ilgari surilgan "fikr, so'z va amaliyot birligi" tamoyili nafaqat axloqiy qadriyatlarning mohiyatini ochib beradi, balki jamiyatning

barqarorligi va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ichki uyg'unlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv zamonaviy axloqiy tafakkurda integratsiyalashgan yondashuv sifatida namoyon bo'lib, shaxsning fikrlari, nutqi va harakatlari o'rtasidagi uyg'unlikni axloqiy yetuklik mezonlari sifatida belgilaydi. Ayniqsa, yoshlar orasida bu tamoyilni anglash va hayotga tatbiq etish, ularning ma'naviy kamolotini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning axloqiy qarashlari tobora murakkab va ko'p qirrali bo'lib borayotgan bir paytda, tarixiy-falsafiy manbalar asosida ularga yo'nalish berish, axloqiy mezonlarni mustahkamlash va shaxsiy mas'uliyat hissini kuchaytirish zaruriyati ortib boryapti. Zardusht, Arastu, Kant va Fromm kabi mutafakkirlarning qarashlari yoshlar axloqiy tafakkurining shakllanishida nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Bu qarashlar orqali axloqiy qadriyatlar endi faqat ijtimoiy talab yoki an'anaviy meros emas, balki shaxsning ongli tanlovi, ichki e'tiqodi va global mas'uliyat hissi bilan uyg'unlashgan tizim sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi jarayonini faqat o'zgarishlar deb emas, balki yangilanish, moslashuv va ma'naviy yuksalishning bir shakli sifatida baholash lozim. Bu jarayon yoshlar ongida axloqiy mezonlarni qayta ko'rib chiqish, ularni zamon talablari bilan uyg'unlashtirish va shaxsiy hayot falsafasiga aylantirish imkonini beradi. Natijada, axloqiy qadriyatlar shunchaki nazariy tushuncha emas, balki amaliy hayotda faol ishlatiladigan, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi kuchga aylanadi.

Metodologiya. Maqolani yozishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Birinchidan, ijtimoiy-falsafiy tahlil metodi yordamida Arastu, Kant, Erix Fromm va Zardusht kabi mutafakkirlarning qarashlari chuqur o'rganilib, ularning yoshlar axloqiy qadriyatlari shakllanishidagi o'rni tahlil qilindi. Ikkinchidan, tarixiy-tahliliy metod asosida axloqiy me'yorlarning shakllanish jarayoni va ular zamonaviy modernizatsiya sharoitida qanday o'zgarishga uchrayotgani ketma-ketlikda o'rganildi. Bu metod qadriyatlarning tarixiy ildizlarini va davomiyligini yoritishga xizmat qildi. Uchinchidan, komparativ (taqqoslovchi) metod yordamida an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy qarashlarning yoshlar tafakkuridagi o'zaro ta'siri hamda transformatsion jarayonidagi dinamikasi qiyosiy ravishda ko'rib chiqildi. Shuningdek, yoshlar orasida axloqiy qadriyatlarning zamonaviy talqini va o'zgarishlarini amaliy jihatdan aniqlash uchun sotsiologik yondashuv asosida empirik ma'lumotlardan ham foydalanildi.

Natijalar. Yoshlar axloqiy qadriyatlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan chuqur ilmiy tahlil va falsafiy manbalar asosida bir qator yangi natijalarga erishildi: Birinchidan, modernizatsiya jarayonlari yoshlar axloqiy qadriyatlarining ichki tuzilmasini o'zgartirib, ularni dinamik, ko'p qatlamli va vaziyatga moslasha oladigan tizimga aylantirayotgani aniqlandi. Bu jarayon yoshlarning qadriyatlar tizimini o'zgaruvchan ijtimoiy muhit bilan uyg'un holda shakllantirishga imkon beryapti. Ikkinchidan, Arastu, Kant, Fromm va Zardusht ta'limotlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi nafaqat tashqi omillar, balki shaxsning ichki ongiy jarayonlari va ruhiy holatlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu, ayniqsa, yoshlar o'z hayotiy yo'lini izlash davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, zamonaviy yoshlar orasida axloqiy qadriyatlarni tanlashda individual qaror va shaxsiy mas'uliyatga bo'lgan intilish kuchaygan, lekin ayni paytda an'anaviy axloqiy tamoyillarni to'laqonli inkor etish emas, balki ularni zamonaviy tafakkur bilan qayta talqin qilish tendensiyasi yuzaga kelgan. To'rtinchidan, empirik va nazariy kuzatishlar asosida yoshlar axloqiy tafakkurida e'tiqod, ezgu niyat birligi ularni ichki barqarorlikka olib kelishini hamda

ularni tashqi ta'sirlardan mustaqilroq qaror qabul qilishga yo'naltirishini ko'rsatdi. Beshinchidan, yoshlar axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda oilaviy muhit, ijtimoiy institutlar va madaniy merosdan tashqari, raqamli kommunikatsiya vositalari ham kuchli ta'sir ko'rsatyapti; bu esa yangi ilmiy va amaliy yondashuvlarni talab etyapti. Umuman olganda, tadqiqot yoshlar axloqiy qadriyatlari zamonaviy sharoitda faqat meros qilib o'tiladigan tayyor me'yorlar emas, balki ongli ravishda qilingan tanlov tanlov, shaxsiy e'tiqod va jamiyat talablari uyg'unligida qayta shakllanib borayotgan murakkab tizim ekanligini isbotladi.

Muhokama. Yoshlar axloqiy qadriyatlarining transformatsion jarayonini chuqur tahlil qilish shuni anglatadiki, zamonaviy davrda axloqiy qadriyatlar endi avlodlardan avlodga o'tadigan qat'iy me'yorlar emas, balki shaxsiy tajriba, individual tafakkur va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqada shakllanadigan murakkab tizim sifatida qaralyapti. Bu tizim doimiy ravishda yangilanib, shaxsning ichki dunyosi, ijtimoiy ehtiyojlari va global axborot oqimi bilan uyg'unlashgan holda rivojlanadi. Mazkur holat yoshlarning axloqiy tanlovlarida mustaqillik, mas'uliyat va ongli yondashuvni kuchaytiradi, shu bilan birga, ularni turli xil axborot manbalari, madaniy ta'sirlar va ziddiyatli qadriyatlar orasida muvozanat topishga undaydi. Bugungi yoshlar orasida shakllanayotgan muhim tendensiyalardan biri — "individual e'tiqodga asoslangan axloqiy pozitsiya"dir. Bu yondashuvda shaxs tashqi me'yorlarga ko'r-ko'rona amal qilishdan ko'ra, ularning mohiyatini anglash, ruhiy va aqliy jihatdan qabul qilishga intiladi. Axloqiy qarorlar endi faqat ijtimoiy bosim yoki an'anaviy talablar asosida emas, balki shaxsning ichki e'tiqodi, hayotiy prinsiplari va ongli tanlovi asosida shakllanyapti. Bu jarayon Immanuel Kantning axloqiy falsafasi bilan hamohang bo'lib, axloqni shaxsiy erkinlik va ichki qonuniyatlar bilan bog'laydi. Kant nazariyasiga ko'ra, inson axloqiy harakatni amalga oshirishda o'z aqliga tayangan holda universal me'yorlarni ishlab chiqadi, bu esa zamonaviy yoshlar axloqiy tafakkurining asosiy tamoyiliga aylanyapti. Shu bilan birga, bugungi jamiyatda yoshlar axloqiy qadriyatlar tobora ko'proq global kontekstda shakllanyapti. Endilikda axloqiy mezonlar faqat oilaviy tarbiya yoki milliy an'analar bilan cheklanmay, balki inson huquqlari, ekologik mas'uliyat, gender tengligi, madaniyatlararo muloqot kabi universal tamoyillar bilan ham uyg'unlashyapti. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar turli madaniyatlar, falsafiy oqimlar va ijtimoiy harakatlar bilan tanishib, o'z axloqiy qarashlarini kengaytirish imkoniga ega bo'lyapti. Bu esa axloqiy tafakkurning ko'p qirrali, ochiq va tolerant shaklini yuzaga keltiradi. Yoshlar axloqiy tafakkuridagi ushbu transformatsiya jarayoni endi faqat mahalliy yoki milliy darajada emas, balki global miqyosda tahlil qilinishi zarur. Chunki zamonaviy axloqiy muammolar — migratsiya, iqlim o'zgarishi, texnologik etik masalalar — xalqaro hamkorlik va umumiy qadriyatlar asosida hal etilishi kerak bo'lgan masalalardir. Shu nuqtai nazardan, yoshlar axloqiy qarashlarini shakllantirishda global ong va transmilliy mas'uliyat hissi muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar axloqiy qadriyatlarining zamonaviy ko'rinishi — bu doimiy o'zgaruvchan, shaxsiy tajriba va global ta'sirlar bilan boyitilgan, ichki e'tiqodga asoslangan, ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Bu tizimni chuqur tahlil qilish va uni ma'naviy tarbiya jarayonida samarali qo'llash zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil va muhokamalar shuni ko'rsatdiki, yoshlar axloqiy qadriyatlarining transformatsiyasi jarayoni oddiy o'zgarish emas, balki murakkab, ko'p qatlamli, madaniy jihatdan asoslangan yangilanish jarayonidir. Bu jarayon yoshlarda nafaqat an'anaviy qadriyatlarni saqlashni, balki ularni zamonaviy sharoitga mos tarzda qayta talqin

qilishni ham o'z ichiga oladi. Bir tomondan, raqamli makon va globallashtirish sharoiti yoshlarning axloqiy dunyoqarashini ko'proq ochiq, inklyuziv va universallashtirilgan yo'nalishda rivojlantirsa, boshqa tomondan, milliy meros va tarixiy falsafiy g'oyalar ularni ichki barqarorlik, o'zlikni anglash va ijtimoiy mas'uliyat ruhida mustahkamlaydi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, yoshlar axloqiy qarorlarni qabul qilishda tashqi me'yorlarga ko'r-ko'rona ergashmay, balki ularni ongli ravishda qayta baholash, ichki e'tiqod va shaxsiy mas'uliyat orqali qabul qilish yo'lini tanlash lozim. Aks holda buning natijasi yomon holatlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa yosh avlodning axloqiy tafakkurida transformatsiya jarayonini inqiroz yoki qadriyatlar yo'qolishi sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Aristotel. Politika. –M., 1911. S. 9.
2. Фромм Э. Человек для себя. Минск, Хорвест, 2004. С. 18.
3. Nitsche F. Zarado'sht taballoi.//Tafakkur. 1995. 1-son. B. 94
4. Schiepp P. I.Kants practical ethics Evanston, 1964. R. 71.
5. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son)
6. "Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati". A.Sherov, A.Xolbekov, M.G'afforova va boshq. T.: 2009 yil. 233 bet.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

THE INFLUENCE OF MASS MEDIA ON THE FORMATION OF VALUE ORIENTATIONS OF YOUTH

Nurmukhamedova Sevara Badriddinovna

Independent Researcher,
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the influence of mass media on the development of youth value orientations in the context of the modern information society. It emphasizes the transformation of information from an abstract category into a priority resource and the growing role of information culture as an integral component of personality. The dual nature of the media's impact is examined: along with positive aspects (expanding horizons, developing creative abilities), negative consequences are noted, such as the manipulation of consciousness, the dissemination of destructive and low-quality information, and a decline in critical perception. Particular attention is paid to the role of higher education institutions, particularly universities of culture and the arts, in shaping students' stable value orientations through curricular and extracurricular activities, including mentoring. The importance of developing young people's ability to critically evaluate information and recognize responsibility for its dissemination is emphasized.

Keywords: mass media, youth, value orientations, information culture, information society, educational environment, television, internet.

ВЛИЯНИЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ МОЛОДЕЖИ

Нурмухамедова Севара Бадриддиновна

Независимый исследователь,
Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека

Аннотация. Статья анализирует влияние средств массовой информации (СМИ) на формирование ценностных ориентаций молодежи в условиях современного информационного общества. Подчеркивается трансформация информации из абстрактной категории в приоритетный ресурс и возрастающая роль информационной культуры как неотъемлемой составляющей личности. Рассматривается двойственная природа воздействия СМИ: наряду с положительными аспектами (расширение кругозора, развитие творческих способностей) отмечаются негативные последствия, такие как манипуляция сознанием, распространение деструктивной и низкопробной информации, а также снижение критического восприятия. Особое внимание уделяется роли высших учебных заведений, в частности вузов культуры и искусств, в формировании устойчивых ценностных ориентиров у студентов через учебную и внеучебную деятельность, включая кураторские часы. Подчеркивается важность развития у молодежи способности критически оценивать информацию и осознавать ответственность за ее распространение.

Ключевые слова: средства массовой информации (СМИ), молодежь, ценностные ориентации, информационная культура, информационное общество, образовательная среда, телевидение, интернет.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N24>

Культура является одной из важнейших составляющих такого сложного феномена, как человеческое общество. Она, как система ценностей, норм и образцов

поведения, формирует ту социальную среду, взаимодействуя с которой, индивиды и социальные группы определяют свое поведение.

В связи с глобализацией информационных процессов, происходящих как в нашей стране, так и в мире, с 90-х годов XX века у нас в обществе стало уделяться пристальное внимание информационной культуре. Формирование информационной культуры является социальным заказом, возникшим на определенном этапе развития общества. Произошедшие в России преобразования, связанные с переходом от индустриального общества к информационному, определили информационную культуру как неотъемлемую составляющую культуры личности. С позиций культурологического подхода информационная культура личности – одна из составляющих общей культуры человека; совокупность информационного мировоззрения и системы знаний и умений, обеспечивающих целенаправленную самостоятельную деятельность по оптимальному удовлетворению индивидуальных информационных потребностей с использованием как традиционных, так и новых информационных технологий (Н.И. Гендина) [1, 58-59].

Нормы и ценности культуры подвержены изменениям. В информационном обществе одной из ценностей стала информация, перешедшая из разряда абстрактных категорий в разряд одного из приоритетных ресурсов. По мере нарастания объема информации людям становится труднее ориентироваться в ее содержании, ограждать себя от ее избытка, выбирать именно то, что нужно. В современных условиях существуют проблемы ограничения информации, считающейся социально и экономически опасной, безопасности различных видов данных, соблюдения авторских прав и пр. Поэтому отрицательным моментом в данном случае является то, что информация может быть и средством манипулирования, приводящим к изменению ценностных установок и возникновению новых стереотипов поведения в обществе.

Значительное влияние на формирование ценностей личности оказывают средства массовой информации. Особое место здесь принадлежит телевидению, универсальность которого связана с такими его характеристиками, как зрелищность, экранность, прямой эфир. Представляя различные программы, оно удовлетворяет разнообразные культурные интересы. Доступным и оперативным СМИ является радио, но отсутствие видеоряда способствует быстрому отвлечению внимания. Периодическая печать не так оперативна, как радио и телевидение, но имеет свои преимущества, заключающиеся в возможности комментировать события и рассматривать проблемы аналитически. Актуальными на сегодняшний день являются разнообразные ресурсы глобальной сети Интернет. Но если традиционные средства массовой информации несут ответственность за распространяемые ими сведения, то авторов информации, распространяемой через сеть, зачастую невозможно сразу вычислить. А печатные издания, телевидение и радио между тем ссылаются на ресурсы сети Интернет, не отличающиеся достоверностью предоставляемых данных...

Изменения, происходящие в личности под влиянием средств массовой информации, носят как положительный, так и отрицательный характер, поскольку имеет место наличие информации, оказывающей деструктивное воздействие на развитие. Злоупотребление просмотром телепередач, бездумный «серфинг» по просторам Интернета опасны тем, что такое времяпрепровождение наносит ущерб всем прочим видам культурной деятельности и снижает ценность полезной информации,

воспринимаемой поверхностно. По результатам анкетирования студентов, получающих среднее профессиональное образование в вузе культуры и искусств, более трети опрошенных безоговорочно доверяют полученной информации и используют эти знания в повседневной жизни, две трети опрошенных используют эту информацию в зависимости от ситуации. В целом также наблюдается усиление тенденции развлекательной мотивации в обращении к информации (более 50% анкетированных).

Многообразие видов средств массовой информации, новые технологии в области массовых коммуникаций усиливают их влияние. Каналы массово-информационного взаимодействия, способные охватить широкие слои населения, сейчас легкодоступны. Коммерциализация СМИ привела к периодическому появлению на телеэкранах и на страницах печатных изданий асоциальной информации. Усвоение молодежью информации, которая не прошла бы цензуру, имея она место, ведет к проявлению отклонений в поведении.

Информационная культура связана не только с функционированием информации в обществе, но и формированием информационных качеств личности, гармонизацией внутреннего мира личности в ходе усвоения и обмена социально значимой информацией, где приоритетными должны быть общечеловеческие духовные ценности. Активное внедрение информационно-коммуникационных технологий в современном обществе является одним из инструментов формирования потребностей, интересов, взглядов, ценностных установок, воздействия на мировоззрение человека в целом. Следовательно, необходимо, чтобы у личности были сформированы принципы и убеждения, препятствующие усвоению социально-деструктивной информации, дезинформации и пр., и человек чувствовал также ответственность за распространение определенной информации, за свои действия. Поэтому трудно переоценить те возможности для развития личности, которые предоставляет образовательная среда вуза, в частности, вуза культуры и искусств. Обусловлено это, во первых, тем, что именно здесь студенты получают специальные знания, умения и навыки, накапливают опыт социальных и профессиональных отношений, у них формируются определенное мировоззрение и профессионально-ценностные ориентации; а во-вторых, в этой среде будущий специалист, приобщаясь к определенной культуре, становится ее носителем. Именно период обучения наиболее важен для человека в плане происходящего в это время реального становления его как личности в процессах профессионального и личностного самоопределения [2].

Так как ценностные ориентации служат регулятором действий, поступков и поведения личности, то, соответственно, одна из важнейших задач воспитательной работы состоит в последовательном расширении и углублении представлений студентов о ценностях и ценностных ориентациях в различных сферах жизни общества.

Процесс формирования ценностных ориентаций осуществляется по следующим направлениям. 1. В учебной деятельности – через содержание учебных дисциплин. Нравственный авторитет педагога (особенно педагога по специальности, ведущего индивидуальные занятия) – одно из важных условий эффективности воспитательной работы. 2. Во внеучебной деятельности. Моральные ценности отражаются в содержании воспитательных мероприятий (праздников, концертов, конкурсов, выставок, деятельности студенческих научно-творческих кружков и др.). Немаловажная роль

отводится деятельности кураторов академических групп. Они проводят различные викторины, дискуссии, круглые столы по проблемам, актуальным для учащейся молодежи. Кураторами проводятся кураторские часы, в том числе с использованием средств массовой информации, ресурсов Интернет.

Кураторский час – форма работы, задача которой – помочь студентам сориентироваться в потоке событий, выработать свою активную гражданскую позицию, почувствовать собственную социальную значимость. Организация кураторского часа включает этап подготовки и этап проведения. На этапе подготовки осуществляется выбор ведущего и распределение подтем кураторского часа между его участниками как самим куратором, так и студентами. Инициатива в выборе тем, переданная студентам, позволяет выявить проблемы, актуальные с точки зрения молодежи. Куратор по необходимости участвует в подборе актуального материала, однако очень важно, чтобы сами студенты самостоятельно отбирали нужный материал. Для этого их внимание обращается на основные критерии отбора информации: актуальность, объективность, значимость, достоверность, оперативность, убедительность. Немаловажное значение имеет использование студентами основных источников информации:

- периодической печати, причем для придания яркости и динамизма выступлению по материалам из периодической печати куратор рекомендует студентам использовать фотоиллюстрации, рисунки, схемы, таблицы и др., которые по необходимости воспроизводятся с помощью мультимедийного проектора;
- телевизионных передач. Программа телепередач позволяет своевременно узнать, когда и на какую тему будут демонстрироваться документальные фильмы, информационноаналитические передачи, ток-шоу и пр. Достоинством коллективного просмотра видеосюжетов является высокий интерес учащихся к групповым просмотрам, наглядность, оперативность подачи материала. Обсуждение телепередачи включается в ход кураторского часа;
- ресурсов сети Интернет. Этот источник информации заслуживает сегодня особого внимания как в силу широчайшего спектра охватываемых проблем, так и в силу возможности оперативного подключения к первоисточникам информации, получения материалов по запросу и т.д.

При проведении кураторского часа акцент делается не на каких-либо сведениях о том или ином событии, а на его обсуждении. С этой целью после каждого сообщения группе дается возможность задать вопросы выступающему, дополнить сообщения новыми фактами, примерами, обменяться мнениями, сформулировать выводы по обсуждаемому вопросу. После завершения всех выступлений и дискуссий ведущим подводится общий итог кураторского часа.

Одна из разновидностей проведения кураторского часа – «круглый стол» с участием компетентного лица и активным вовлечением студентов в дискуссию. Деятельностный подход вырабатывает чувство сопричастности к происходящему, повышает гражданскую самооценку каждого, помогает молодым людям лучше понять механизмы процессов и побуждает к активным действиям по преобразованию негативных общественных явлений.

Успех кураторского часа во многом зависит от актуальности темы, связи материала с проблемами учащейся молодежи, заинтересованности и эмоциональности

ведущего, присутствия компетентных гостей, использования наглядных и технических средств обучения, вовлечения присутствующих в обсуждение.

Кураторы групп активно сотрудничают с родителями, поскольку семья – первый и главный социальный институт, формирующий ценностные ориентации, морально-этические нормы.

Средства массовой информации, осуществляя социальный контроль и управление, влияя на формирование общественного мнения, распространяя знания, опыт и культуру, прочно вошли в жизнь современного общества. Интернет, надежный помощник современного студента, выполняет много функций, чему способствует свобода обмена информацией, доступность, открытость глобальной сети. Являясь необъятным хранилищем разнообразной информации, Интернет расширяет интеллектуальные способности студента, способствует развитию творчества при обязательном условии знания путей получения информации, умения в ней ориентироваться. Участие в интернет-конференциях позволяет изложить свою точку зрения, выслушать мнение о ней других. Однако в условиях высокой доступности информации и материалов, распространяемых через средства массовой информации, Интернет, на молодежь обрушивается и поток низкопробной продукции. Следовательно, уменьшить негативное влияние на молодежь возможно лишь путем развития в единстве умений мыслить и действовать согласно нормам и ценностям культуры.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Гендина Н.И. Формирование информационной культуры личности: теоретическое обоснование и моделирование содержания учебной дисциплины. – М.: Межрегиональный центр библиотечного сотрудничества, 2006. – 512 с.
2. Яницкий М.С. Ценностные ориентации личности как динамическая система [Электронный ресурс] , 2000. - 204 с.
3. Кириллова, Н. В. Медиакультура: от модерна к постмодерну / Н. В. Кириллова. – М.: Академ. проект, 2005. – 448 с.
4. Плискевич, Н. М. Тупики инструментальной модернизации / Н. М. Плискевич // Обществ. науки и современность. – 2010. – № 2. – С. 78–85.
5. Богомолова, Н. Н. Социальная психология радио, печати и ТВ / Н. Н. Богомолова. – М.: Знание, 1991. – 122 с

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

YOUTH HEALTH AND SOCIAL DEVELOPMENT: STRESS, DEPRESSION, MENTAL HEALTH, AND LESSONS FROM PUBLIC INSTITUTIONS

Ahmedova Dilrabo Sa'dullayevna

Senior Lecturer, Department of History and Social Sciences
University of Economics and Pedagogy

Abstract. This article explores the mental health of youth and key factors influencing their social development, with a particular focus on stress and depression. It also analyzes the role of public institutions (educational systems, mass media, neighborhood communities, and social networks) in shaping the psychological well-being of young people. The conclusions and recommendations are based on both international practices and local contexts.

Keywords: youth, mental health, stress, depression, social development, public institutions, psychological support.

YOSHLAR SALOMATLIGI VA IJTIMOY SHAKLLANISH: STRESS, DEPRESSIYA, RUHIY SALOMATLIK, JAMOATCHILIK VOSITASI SABOQLARI

Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi
E_mail: dilliaxmedova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning ruhiy salomatligi, ularning ijtimoiy shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, xususan stress va depressiyaning roli tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek jamoatchilik vositalari (ta'lim muassasalari, OAV, mahalla, ijtimoiy tarmoqlar) tomonidan berilayotgan saboqlar va ularning yoshlar ruhiyatiga ijobiy yoki salbiy ta'siri tahlil etiladi. Xulosa va tavsiyalar xalqaro tajriba hamda mahalliy shart-sharoitlar asosida shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, ruhiy salomatlik, stress, depressiya, ijtimoiy shakllanish, jamoatchilik vositalari, psixologik yordam.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N25>

Kirish. Bugungi globalashuv va raqamli taraqqiyot davrida yoshlarning ijtimoiy shakllanishi tobora murakkablashib bormoqda. Texnologiyalarning tezkor rivoji, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat, raqobat muhitining kuchayishi va mehnat bozoridagi noaniqliklar yoshlar orasida ruhiy bosim, stress va depressiyaning ortishiga sabab bo'lmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) 2022-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, 15–29 yoshdagi har to'rtinchi inson depressiya yoki shunga o'xshash ruhiy holatlarni boshdan kechiradi.

Shu sababli, yoshlarning ruhiy salomatligini muhofaza qilish, ularni sog'lom ijtimoiy muhitda shakllantirish uchun ta'lim tizimi, jamoatchilik tashkilotlari, OAV va boshqa ijtimoiy

institutlarning roli tobora ortib bormoqda. Ushbu maqolada aynan ushbu omillar tahlil qilinadi va xalqaro tajriba asosida tahliliy yondashuv taklif etiladi [1, 74-b.].

Tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlar qo'llanildi:

So'rovnoma: 2024-yilda O'zbekistonning Toshkent, Samarqand va Andijon viloyatlarida 600 nafar 18–30 yoshli respondentlar orasida anonim so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma stress, ruhiy salomatlik, jamoatchilik bilan aloqadorlik va psixologik yordamga murojaat qilish holatlarini o'z ichiga oldi.

Fokus-guruh: 3 ta viloyatda 6 ta fokus-guruh yig'ilishi tashkil etilib, unda ta'lim muassasasi vakillari, psixologlar, va yoshlar ishtirok etdi. [2, 101-b.].

Adabiyotlar tahlili: JSST, UNICEF, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapurda yoshlar ruhiy salomatligi va ijtimoiy shakllanishiga oid nashrlar o'rganildi.

Yoshlarning ruhiy salomatligi bevosita ularning ijtimoiy shakllanishi, jamiyatda faol ishtirok etishi, shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishi bilan uzviy bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ruhiy salomatlik masalasiga nisbatan jamiyatda hanuz yetarli darajada ochiqlik mavjud emas, ko'plab yoshlar psixologik yordamga murojaat qilishni ijtimoiy qoralash sifatida qabul qilishadi [3, 11-b.].

Yoshlar ijtimoiy shakllanishida stress va depressiyani kamaytirish uchun quyidagi yondashuvlar taklif etiladi:

Ta'lim muassasalarida ruhiy salomatlik bo'yicha doimiy psixologik maslahatlar tizimini yo'lga qo'yish;

Mahalliy jamoatchilik tashkilotlarini yoshlar bilan ishlashda ruhiy tarbiya komponenti bilan boyitish;

Ijtimoiy tarmoqlarda ruhiy sog'liq targ'ibotiga oid milliy platformalarni yaratish;

Ommaviy axborot vositalari orqali stress va depressiyani e'tirof etish madaniyatini shakllantirish.

Ushbu chora-tadbirlar xalqaro tajriba bilan uyg'un holda olib borilsa, yoshlar orasida ruhiy salomatlikni mustahkamlash, sog'lom va barqaror jamiyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asrda yoshlar salomatligi masalasi inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, iqtisodiy bosimlar va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida yosh avlodning ruhiy salomatligi va ijtimoiy shakllanishi dolzarb muammoga aylangan. Xususan, stress va depressiya darajasining ortishi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, ruhiy salomatlikka e'tibor yetarli bo'lmaganda yuzaga keladigan oqibatlar xalqaro miqyosda keng tadqiq qilinmoqda [4, 8-b.].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 10–19 yoshdagi har beshinchi o'smir turli darajadagi ruhiy salomatlik muammolariga duch keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, akademik bosim, ish topishdagi qiyinchiliklar, oilaviy muhitdagi muammolar va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri stress va depressiyaning asosiy omillari sifatida namoyon bo'lmoqda. Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida o'tkazilgan so'rovlar natijasida yoshlarning 35–40 foizi muntazam ravishda "doimiy stress" holatini his qilishi aniqlangan.

Yoshlar uchun ruhiy salomatlik faqat shaxsiy farovonlik omili emas, balki ularning ta'limdagi muvaffaqiyati, ijtimoiy faoliyati va kelgusidagi kasbiy salohiyatiga ham bevosita ta'sir qiladi [5, 75-b.].

Kanada, Germaniya va Yaponiyada yoshlar salomatligini mustahkamlash siyosati ruhiy gigiyena madaniyatini shakllantirish, psixologik maslahat xizmatlarini kengaytirish va maktab hamda universitetlarda psixologik yordam tizimlarini joriy etishga asoslanmoqda [6, 15-b.].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yoshlar ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlashda jamiyatning turli institutlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi:

1. Ta'lim tizimi – Skandinaviya davlatlarida maktab va kollejlarda psixologik yordam markazlari bilan birlashtirilgan bo'lib, o'quvchilar muntazam psixologik monitoringdan o'tadi.

2. Ommaviy axborot vositalari – Koreya Respublikasida ommaviy axborot vositalarida ruhiy salomatlik bo'yicha keng ko'lamli ijtimoiy reklama va targ'ibot dasturlari yo'lga qo'yilgan.

3. Jamoatchilik tashkilotlari – Buyuk Britaniyada "Youth Mental Health First Aid" dasturi doirasida yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun volontyorlar va mutaxassislar hamkorlikda ishlaydi.

4. Raqamli platformalar – Avstraliya va Kanadada mobil ilovalar yordamida stressni boshqarish va psixologik yordam olish bo'yicha interaktiv tizimlar joriy etilgan [7, 15-b.].

Xalqaro tajriba yoshlar salomatligi va ijtimoiy shakllanishi o'zaro chambarchas bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Stress va depressiyaning oldini olish, ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash nafaqat tibbiy yoki shaxsiy masala, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligi uchun muhim omildir. O'zbekiston uchun ham bu borada xalqaro tajribalarni o'rganish va milliy sharoitga mos innovatsion dasturlarni ishlab chiqish yoshlar sog'lom rivojlanishini ta'minlashda asosiy yo'nalish bo'lishi lozim [8, 32-b.].

Yoshlarning ruhiy salomatligi va ijtimoiy shakllanishi bugungi kunda sotsiologiya, psixologiya va sog'liqni saqlash sohalarida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yoshlar stress, xavotir, depressiya, ijtimoiy ajralish va psixologik beqarorlik holatlariga nisbatan yanada ko'proq duch kelmoqdalar (World Health Organization, 2022). Inglehart va Norris (2019) global qadriyatlar tahlilida yoshlarda individualizmning ortishi bilan birga ruhiy salomatlikdagi beqarorlik kuchayganini ta'kidlaydi [9, 34-b.].

Bu holat, ayniqsa, urbanizatsiya va raqamli texnologiyalarning keng tarqalgan hududlarida ko'proq kuzatilmoqda. Ruhiy salomatlik — bu shunchaki kasallik yo'qligi emas, balki stressga qarshi turish, mehnatga va jamiyatga hissa qo'shish salohiyatining mavjudligidir (WHO, 2021). Peterson va Seligman (2004) tomonidan ilgari surilgan "Character Strengths and Virtues" nazariyasida shaxsning ichki barqarorligi va axloqiy-ruhiy sog'lomligini rivojlantirish uchun ijobiy psixologiya yondashuvi taklif qilinadi. Bu yondashuv ayniqsa maktab va oliy ta'limda qo'llanilmoqda [10, 88-b.].

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ruhiy salomatligi va ijtimoiy shakllanish jarayoni o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, stress va depressiya yoshlar orasida keng tarqalgan muammolardan hisoblanadi. Ruhiy bosimlarning ortishi ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy hayotning talab va cheklovlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, yoshlar orasida ruhiy salomatlik bo'yicha psixologik yordamga murojaat qilish madaniyatining yetishmasligi muammoni yanada murakkablashtirmoqda.

Jamoatchilik vositalari — ta'lim muassasalari, OAV, mahalla va ijtimoiy tarmoqlar — yoshlarning ruhiy sog'lig'ini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ruhiy salomatlikni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, psixologik yordam

xizmatlarini kengaytirish, shuningdek, ijtimoiy madaniyatni oshirish orqali yoshlarning ruhiy muammolarini kamaytirish mumkin.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar asosida, yoshlar salomatligini yaxshilash va ularning ijtimoiy shakllanishini qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi: maktab va oliy ta'lim muassasalarida ruhiy salomatlik bo'yicha muntazam psixologik maslahatlar tashkil etish, mahalla va jamoat institutlarida ruhiy tarbiya dasturlarini yo'lga qo'yish, hamda ijtimoiy tarmoqlarda ruhiy salomatlik bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

Ushbu yondashuvlar yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashga, stress va depressiya darajasini kamaytirishga, shuningdek, ularning ijtimoiy faolligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Peterson, C., Seligman, M. E. P. *Character Strengths and Virtues: A Handbook and Classification*. – New York: Oxford University Press, 2004. – 800 p.
2. Twenge, J. M. *iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy*. – New York: Atria Books, 2017. – 352 p.
3. Zimbardo, P. G., Boyd, J. N. *The Time Paradox: The New Psychology of Time That Will Change Your Life*. – New York: Free Press, 2008. – 354 p.
4. Inglehart, R., Norris, P. *Cultural Backlash: Trump, Brexit, and Authoritarian Populism*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019. – 488 p.
5. World Health Organization. *World Mental Health Report: Transforming Mental Health for All*. – Geneva: WHO, 2022. – pp. 1–50. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240049338>
6. OECD. *Mental Health and Well-being in Schools: Policy and Practice*. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 120 p.
7. Kawakami, N., Tsuchiya, M., Umeda, M., Koike, S., & Fujiwara, T. School-based mental health programs in Japan: Challenges and future directions. // *International Journal of Mental Health Systems*, 2014, Vol. 8, Article 12. – pp. 1–7.
8. Abdullaeva, M. O'zbekiston maktablarida ruhiy salomatlik: mavjud holat va istiqbollar. // *Ijtimoiy fanlar axborotnomasi*, 2023, №3. – B. 35–40.
9. Karimova, N. R. Yoshlar ruhiy salomatligini mustahkamlashda mahalla va ta'lim muassasalarining o'rni. // *Pedagogika va psixologiya muammolari*, 2022, №2. – B. 44–49.
10. UNICEF. *The State of the World's Children 2021: On My Mind – Promoting, Protecting and Caring for Children's Mental Health*. – New York: UNICEF, 2021. – 120 p. <https://www.unicef.org/reports/state-worlds-children-2021>

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

YOUTH WORK CULTURE AND ITS IMPACT ON SOCIETY DEVELOPMENT

Kholmirezayeva Jumagul Khamdamovna

Independent researcher at FarSU

Abstract. The article studies the spiritual and economic factors in the formation and development of the labor culture of young people. Labor culture and youth activity are emphasized as interrelated social processes, and their significance in the development of society is studied. The fact that the activation of the human factor is an important factor in the development of economic culture is considered, as well as the attitude of young people to labor and their impact on their professional qualifications. The article analyzes new methods of human resource management in production, including management theories, and methods of material and moral stimulation in the upbringing of the labor culture of young people.

Keywords: youth, work culture, economic factors, spiritual factors, human resources, attitude to work, professional qualifications, management, socio-economic development, motivation.

YOSHLAR MEHNAT MADANIYATI VA UNING JAMIYAT RIVOJIGA TA'SIRI

Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna

FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada yoshlarning mehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda ma'naviy va iqtisodiy omillar o'rganilgan. Mehnat madaniyati va yoshlar faolligi o'zaro bog'liq ijtimoiy jarayon sifatida ta'kidlanib, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tadqiq etilgan. Iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishda inson omilini faollashtirish muhim omil ekanligi, shuningdek, yoshlarning mehnatga munosabati va ularning kasbiy malakasiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada ishlab chiqarishda inson resurslarini boshqarishning yangi usullari, shu jumladan menejment nazariyalari, hamda yoshlarning mehnat madaniyatini tarbiyalashda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yoshlar, mehnat madaniyati, iqtisodiy omillar, ma'naviy omillar, inson resurslari, mehnatga munosabat, kasbiy malaka, menejment, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, rag'batlantirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N26>

Kirish. Yoshlarni tarbiyalashda, xususan uning mehnat madaniyatini shakllantirishda ma'naviy tarbiyadan oqilona foydalanish, bugina emas, uning tarkibini tashkil etgan iqtisodiy bilim va ko'nikmalarga asoslanib yashashga o'rgatish eng muhim omil hisoblanadi. Bizning strategik maqsadimiz kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish ekan, tabiiyki, bu demokratik qadriyatlar sohibi bo'lgan insonni mehnat madaniyatini shakllantirish bilan bevosita bog'langandir, binobarin, bu narsa yangi shaxsni tarbiyalash, unda demokratik ko'nikma va malakalarni qaror toptirishni nazarda tutadi [1, 3]. Bu jarayonda shaxsiy manfaatdorlik bilan ijtimoiy manfaatdorlikka, shaxsiy qadriyatlar bilan jamiyat qadriyatlariga nisbatan ma'rifiy munosabatni shakllantirish muhim rol o'ynaydi. Inson omiliga bevosita amal qiladigan fuqarolik jamiyatida shaxsiy va ijtimoiy manfaatdorlikning o'zaro uyg'unlashuvi o'zlikning fuqarolik bilan uzviy aloqadorligi negizida yuz beradi. Bunda "... chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgan yoki ega bo'lishga intilgan odam demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molchisi

emas, balki ularni faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi” [2, 34]. Modomiki, shunday ekan, madaniyat nafaqat qadriyatlarning mexanik yig'indisi, balki ularni yaratish, taqsimlash, o'zlashtirish, ayirboshlash, avloddan avlodga yetkazish, himoyalash jarayonlarining barchasini yaxlit holda o'ziga gavdalantiradi, unga muayyanlik va barqarorlik baxsh etadigan omil esa inson faoliyatidir. Bu xususiyat biz so'z yuritayotgan iqtisodiy madaniyatga ham to'la taalluqlidir.

Metodlar. Tadqiqotda analiz va sintez ya'ni mavzuni detallariga ajratish va umumiy xulosa chiqarish, qiyosiy yondashuv ya'ni turli holatlar yoki tushunchalarni taqqoslash, kontent tahlili ya'ni ma'lumotlarning mazmunini o'rganish, induksiya — aniq faktlardan umumiy qoidalarga o'tish, deduksiya - umumiy qoidalardan aniq holatlarga yondashish singari ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Natijalar. Mehnat madaniyati va yoshlar faolligini oshirish jarayonida inson mohiyatiga xos eng muhim xususiyatlar, chunonchi, undagi jismoniy va ruhiy tomonlarning birligi, tafakkur va harakat o'rtasida bevosita aloqadorlik, tabiiy va ijtimoiy jihatlarining yaxlitligi, inson ehtiyojlarining cheksizligi va ularni qondirishning cheklanganligi yuzaga chiqadi. Ayni vaqtda mehnat madaniyati va yoshlar faolligini oshirish bilan bevosita bog'liqdir, aniqrog'i, iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish inson omilini, aksincha, inson omilini faollashtirish iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishga katta turtki beradi.

Bu fikrni aniqroq falsafiy mushohada qilish uchun inson faoliyatining uch sohasi — ishlab chiqarishni boshqarish, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va, nihoyat, iste'mol jarayonlari bilan tanishish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil etishga kirishishdan ilgari bu sohalarda oldin inson omilini faollashtirish tushunchasining mazmunini aniqlab olish zarur, deb hisoblaymiz. Ma'lumki, xom ashyo, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish uchun zaruriy vositalarni izlab topish, joy-joyiga qo'yish, ishga solish, shuningdek, iste'molchilarning mahsulotlarni iste'mol qilishdan qoniqishi yoki qoniqmasligi jarayoni o'ta murakkabdir. Inson omilini faollashtirishning asl mohiyati va mazmunini odamlarning o'zaro aloqalari, aniqrog'i, ularning mehnatga munosabatlari, ishni to'g'ri tashkil etishlari, mahsulotlar sifatini ongli baholab o'zlashtirishdagi tashabbus, fidoyilik ko'rsatgichlari tashkil etadi. Shunday qilib, iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish uchun kurash biri-biri bilan uzviy bog'langan murakkab jarayonlarning yaxlit birligini taqozo etadi.

Mehnat munosabatlarini boshqarish jarayonida esa inson omilini faollashtirish tashkilotchilik usullarini takomillashtirish, bilim-saviyani oshirish, ishlab chiqarishni yuksaltirishga qobiliyatni qaratish bilan uzviy bog'langandir. Yuksak iqtisodiy madaniyatga ega, ishlab chiqarishni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur egallagan tashkilotchilarni shakllantirish hozirgi paytda respublikamiz iqtisodiy taraqqiyotining muhim subyektiv omilidir.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarning mehnat madaniyatini rivojlantirishga davlatning o'zi boshchilik va homiylik qilmoqda. Bu narsa ma'rifatli bozor madaniyatini tarkib toptirish bilan bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Mehnat madaniyati va yoshlar faolligini oshirish, uning ijodiy imkoniyatlari namoyon bo'lishiga olib keladigan zaruriy shart-sharoitlar yuzaga keldi, iqtisodiy madaniyatning asosiy omili sifatida xo'jalik yuritishni erkinlashtirish qonuniy asosga ega bo'ldi, natijada iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik hamda mehnatning ijodiyligini ta'minlashga yo'naltirilgan nafaqat subyektiv, balki obyektiv shart-sharoitlar yaratildi.

Jamiyatning mehnat madaniyati oqibati natijasi alohida shaxslar mehnat madaniyati darajasini o'zida aks ettiradi. Shu ma'noda shaxsning mehnat madaniyati iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishda, iqtisodiy va kasbiy malakalarni egallash hamda ularni amaliyotda, yashash tarzida, kundalik turmushni tashkil etishda, oilaviy munosabatlarni qaror toptirishda gavdalanadigan faol mehnatni, mehnat madaniyati bilan iqtisodiy salohiyatning uzviy birligida ko'zga tashlanadi.

Jamiyat ijtimoiy rivoji to'g'risida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lish, yuzaga kelgan muammolarga subyektiv baho berish, ayniqsa, mehnat munosabatlarida subyektiv qarashlar ustuvorligiga o'rin berish ijtimoiy munosabatlarning ma'naviy-axloqiy me'yorlari va mezonlariga putur yetkazadi. Buning natijasida ijtimoiy xavfsizlik holatlarining yuzaga kelishi uchun zamin yaratiladi, oqibatda paydo bo'lgan ijtimoiy beqarorlik jamiyat va shaxs hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inson omilining subyektiv jihatlariga ortiqcha baho berish, ijtimoiy jarayonlarning qonuniyatli, obyektiv kechishini e'tiborga olmaslik nafaqat shaxs, balki jamiyat ijtimoiy, umuman ma'naviy, siyosiy madaniyati sohasida murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Bunday holatlar hamon yoshlarda mehnat madaniyatini shakllantirish masalasi yetakchi ijtimoiy muammo sifatida qolayotganini tasdiqlaydi. Ammo yosh mutaxassisning kasb faolligini yuksalishiga sabab bo'ladigan mehnat madaniyatining ayrim unsurlari borasida ijobiy tomonga o'zgarish yuz berayotganligi ham sir emas. Aholi o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarning natijalariga e'tibor bersak, inson omilining subyektiv va obyektiv jihatlarini tushunishda ijobiy siljishlar yuz berayotganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu holat biz tomonimizdan Farg'ona viloyati oliy muassasalarida o'tkazilgan konkret-sotsiologik tadqiqotlar natijalarida ham ko'zga tashlanadi, Natijalar orqali inson omilini faollashtirishda obyektiv va subyektiv ma'naviy omillarga tegishli baho berish imkoniyati mavjud.

So'rovnoma ma'lumotlari jamiyatda yangicha mehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan qator tizimli ishlar amalga oshirilishi zarurligini nazarda tutadi. To'g'ri ko'plab sohalarda oldinga ijobiy o'zgarishni uchratishimiz mumkin, ammo javoblardan jamiyatda bozor iqtisodiyotining xolisona ta'siri ostida insonlarda, eng avvalo, yoshlarda o'z istak va qiziqishlaridan kelib chiqqan evrilishlarni ko'rmoqdamiz. Keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'lmoqdaki, yoshlar orasida mehnatga ijobiy munosabat shakllanishi davom etmoqda. Ular mehnat madaniyatini yaxshi o'zlashtirish va amalga joriy etish sog'lom turmush va iqtisodiy manfaatdorlik omili ekanligini yaxshi tushunishadi.

Munozaralar. Rivojlangan mamlakatlarda qo'lga kiritilgan izlanishlarni ijodiy o'rganish ahamiyatlidir. XIX asrning ikkinchi yarmida og'ir tanglikka uchray boshlagan kapitalistik ishlab chiqarish tizimini har qanday yo'l bilan saqlab qolish zaruriyati tug'ildi. Holbuki, bu tanglik ko'proq foyda olishga urinishning natijasi bo'lib, ishchilar o'rtasida norozilikni keskin oshirib yuborgan edi. Bu ijtimoiy tanglikdan chiqish uchun turli-tuman darajadagi chora-tadbirlar qatorida ilmiy izlanishlar ham amalga oshirildi. Asosiy e'tibor ishlab chiqarishni boshqarishni mutlaqo yangicha tashkil etishga qaratildi, uning samaradorligini oshirish sohasida, shuningdek moddiy boylik sohiblari bilan ularni yaratuvchilar o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlarni bartaraf etishda boshqarishning yangicha tizimiga o'tish uchun zaruriyat tug'ildi. Oqibat-natijada XX asr boshlarida uning yangi ilm — menejmentlik paydo bo'ldi va shakllandi.

Menejment asoslarini puxta egallagan professional yollanma boshqaruvchilar turli-tuman nazariyalarni amalda sinab ko'rdilar, insoniy munosabatlar nazariyasi ular orasida ijobiy samara berganligi ma'lum [5, 166]. Bu nazariya asoschilari ishlab chiqarishda band

bo'lgan odamlar, ularning kasb malakalari, tajribalari, ehtiyojlari, shaxsiy sifatlariga, ishlab chiqarish tizimida har bir insonning tutgan o'рни va mavqeyini ko'tarishga alohida e'tibor berdilar.

Shuning uchun ham, insoniy munosabatlar nazariyasi ishlab chiqarishni yuksaltirishda, rentabellik va foydani ko'tarish bo'yicha raqamli texnologiya, xom ashyo va moliyaviy resurslar zarurligini kun tartibiga qo'ydi. Ikkinchi tomondan, barcha resurslar muhayyo bo'lishiga qaramasdan, ishlab chiqarishda band aniq individlarning faolligi yetishmasa, ularning bilim, tajriba va mahoratlari ishga solinmasa, samaradorlik ham, rentabellik ham, foyda ham nasiya bo'lib qoladi. Insoniy munosabatlar nazariyasidan o'rin olgan menejmentlik bu masalani ijobiy hal etishga yo'naltirildi [6, 12].

Iqtisodchi olimlar M. Sharifxo'jaev, Y. Abdullaevlarning yozishicha, ilmiy menejmentning ilk namoyandasi payg'ambarimiz payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) bo'lib, VI-VII asrlardayoq boshqaruvning diniy ta'limotga asoslangan nazariy tamoyillarni yaratgan. O'sha davrda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy muvofiqlashtirishga intilishlar orqali boshqarish san'atini egallashga xizmat qiladigan ta'limotlar tizimi vujudga kelgan (qur'oni Karim, Hadislar va h.k). XIV-XVI asrlarda Amir Temur, Ulug'bek, A.Navoiy, Bobur kabi buyuk shaxslar tomonidan kuchli davlatni barpo etish, fazilatiga muvofiq rahbar shaxslarni tanlash, tayinlash, boshqarishda muzokaralar olib borish, adolatli boshqarishning sir-sinoatlari, odillik, tadbirkorlik, mohirlik, iste'dod, ma'rifat tamoyillari ishlab chiqiladi va ulardan jamiyat iqtisodiy madaniyatini belgilashda keng qo'llaniladi [6, 16]. "Temur tuzuklari" (Amir Temur), "Vaqfiya", "Ixlosiya", "Saddi Iskandariy", "Mahbubul qulub" (A.Navoiy), "Boburnoma" singari asarlarda insonning mehnat madaniyatiga oid g'oyalar yanada rivojlantiriladi.

Bu meros mehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda, respublikamizning bozor munosabatlariga dadil o'tishida muhim ma'naviy omil rolini o'tamoqda. Yoshlarda mehnat madaniyatini shakllantirishning asosiy omillari nimalardan iborat? Uzoq vaqtlardan buyon davom etib kelgan an'anaga ko'ra, buning asosiy omili moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Jamiyatning yangi rivojlanish davrida shu narsa ma'lum bo'ldiki, hamma narsa faqat katta pulga bog'liq emas ekan. Yoshlar faolligini oshirishda moddiy manfaatdorlikdan boshqa, yana bir qator omillar bor. Umuman yoshlar faoliyatini faollashtiradigan asosiy omil mehnat madaniyati bilan bog'liq bo'lib, bu omil har qayerda har xil namoyon bo'ladi.

Yosh ishchi-xodimlarni faollashtirish uchun ko'rilgan bu chora-tadbirlar iqtisodiy rag'batlantirish omillari emas, balki insoniy munosabatlar bilan bog'liq ma'naviy omillardir. Mehnat madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq yana bir qator omillar taklif etiladi. Jumladan, qadr-qimmatni baland tutishga bo'lgan ehtiyojlar: yosh ishchi-xodimlarga ancha salmoqdor va mazmundor ishlarni taklif etish; bajargan ishlarning natijalari bilan tanishtirib turish; bajargan ishlari uchun rag'batlantirib turish; rejalashtirish va qarorlar qabul qilish jarayoniga ularni jalb etish; haq-huquqlarini biron bir yo'l bilan cheklamaslik; yuqoriroq lavozimlarga ko'tara borish; malakasini oshirish uchun imkoniyatlar yaratish va hokazo. Mehnat madaniyati bu nafaqat madaniyatlilik, balki, ayni paytda, iqtisodiy farovonlik belgisi hamdir.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish joizki, inson omili va shaxs mehnat madaniyati tarkib topishi haqida fikr yuritilganda, psixologik xususiyatlarni tiplarga bo'linishi masalasini e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Har bir odamning nafaqat umum, balki mehnat madaniyatiga psixologik omillar o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Shuning uchun mehnat psixologiyasi degan tushuncha ishlatiladiki, uning botiniy qismi sifatida o'ziga ishonch, mustaqillik, beqarorlik,

izzattalablik, mansabparastlik, xushmuomalalik, yangilikka intiluvchanlik, ehtiyotkorlik, tajovuzkorlik, sabr-qanoatlilik, muvaffaqiyatga intilishlik, tartib-qoidani xush ko'rishlik, moslashuvchanlik, qaysarlik kabi jihatlarni sanab o'tish mumkin. Xullas, mehnat madaniyati e'tiqod darajasidagi ijtimoiy tafakkur asosida jamiyatda va shaxslararo muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirish, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, iste'mol qilish jarayonida yuksak ma'naviy tamoyillarga suyanib faoliyat ko'rsatishdan iboratdir.

Adabiyotlar/Literatury/References:

1. Жалолов А. Инсоний жамият: фалсафий-хуқуқий қирралар // Мустақил Ўзбекистон: фалсафа ва ҳуқуқ фанларининг долзарб муаммолари. -Тошкент:1996. – Б.3
2. Каримов И.А. Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11-жилд - Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – Б.34
3. Назаров Қ. Аксиология. – Тошкент: "Akademiya", 2011. – Б.361
4. Персонални бошқариш. -Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.138-140
5. Фалсафа. Қомусий луғат. -Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.166
6. Шарифхўжаев. М.,Абдуллаев Ё. Менежмент- Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б.12-16

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL, SPIRITUAL AND ARTISTIC COMMONNESS IN THE WORK OF MIRZO GALIB AND MUHAMMAD IQBAL

Abdusalimov Abror Vali ugli

PhD student at Tashkent State Transport University
Assistant teacher at the Urgut branch of Samarkand State University
named after Sharof Rashidov

Alfraganus University, Ph.D., Assoc., Sh.N. Pulatov review

Abstract. Muhammad Iqbal and Mirza Ghalib, as figures who have reached the highest heights of Urdu and Persian literature, occupy a special place in Eastern spirituality and world literature. While Ghalib's poetry reflects the inner suffering of man, his spiritual quest in life, Iqbal's works transform these spiritual experiences into an idea that calls for activity, awakening, and self-realization. If Ghalib is a master of the art of creating meaning, Iqbal is even more than that - he endowed meaning with a purpose, and an idea with a spirit that awakens society. Thus, Iqbal's poetry is not only artistic beauty, but also a call for national awakening, spiritual freedom, and human perfection. This study will analyze the philosophical, spiritual, and artistic aspects of the work of Mirza Asadullah Khan Ghalib and Muhammad Iqbal in a comparative manner.

Keywords: Mirza Ghalib, Muhammad Iqbal, Eastern philosophy, spiritual suffering, divine love, self-awareness, artistic thought, philosophical commonality, spiritual awakening.

MIRZO G'OLIB VA MUHAMMAD IQBOL IJODIDAGI FALSAFIY, MA'NAVIY VA BADIY MUSHTARAKLIK

Abdusalimov Abror Vali o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filiali assistent o'qituvchisi
E-mail: abrorabdusalimov94@gmail.com

Alfraganus University, PhD., dots., Sh.N. Pulatov taqrizi asosida

Annotatsiya. Muhammad Iqbol va Mirzo G'olib urdu hamda fors adabiyotining eng yuksak cho'qqilarini egallagan siymolar sifatida Sharq ma'naviyati va jahon adabiyotida alohida o'rin tutadi. G'olibning she'riyati insonning ichki iztiroblarini, hayotdagi ma'naviy izlanishlarini aks ettirsa, Iqbolning asarlari ana shu ruhiy kechinmalarni faoliyatga, uyg'onishga va o'zini anglashga chorlovchi g'oyaga aylantiradi. Agar G'olib ma'no yaratish san'atining ustasi bo'lsa, Iqbol bundan ham ortiqroq - ma'noga maqsad, g'oyaga esa jamiyatni uyg'otuvchi ruh bag'ishlagan. Shunday qilib, Iqbolning she'riyati nafaqat badiiy go'zallik, balki milliy uyg'onish, ma'naviy ozodlik va insoniy kamolotga chorlovchi da'vatdir. Mazkur tadqiqotda Mirzo Asadullohxon G'olib va Muhammad Iqbol ijodining falsafiy, ma'naviy hamda badiiy jihatlari o'zaro qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Mirzo G'olib, Muhammad Iqbol, Sharq falsafasi, ruhiy iztirob, ilohiy muhabbat, o'zlikni anglash, badiiy tafakkur, falsafiy mushtaraklik, ma'naviy uyg'onish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N27>

Kirish. Insoniyat tarixida shunday shoir va mutafakkirlar borki, ularning falsafiy va ma'naviy merosi millatlar chegarasidan o'tib, butun bashariyat tafakkuriga ta'sir ko'rsatgan. Ana shunday siymolardan - Mirzo Asadulloh G'olib va Muhammad Iqbol - Sharq falsafiy va

badiiy tafakkurida o'ziga xos o'rin egallaydi. G'olib 1797-yil 17 yoki 27-dekabrda tug'ilib, 1869-yil 15-fevralda vafot etgan. Oradan qariyb to'qqiz yil o'tib, 1877-yil 7-noyabrda Iqbol dunyoga keladi va 1938-yil 21-aprelda hayotdan ko'z yumadi. Har ikkisi ham ijodda urdu tilida yuksak asarlar yaratgan bo'lsa-da, ular eng mukammal she'riy meroslarini fors tilida yozganliklarini alohida ta'kidlaganlar.

Bugungi O'zbekiston sharoitida bu ikki siymoning ijodini o'rganish nafaqat adabiy-estetik qadriyatlarni anglash, balki milliy ma'naviy uyg'onish jarayoniga yangi falsafiy yondashuv kiritish nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Ularning merosi zamonaviy o'zbek adabiy tafakkurida inson, ruh, iroda va kamolot masalalarini qayta tahlil etish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ba'zi tanqidchilarning fikriga ko'ra, go'yo Muhammad Iqbol Mirzo G'olibning oxiriga yetmagan maqsadlarini aql va tafakkur orqali davom ettirish uchun tug'ilgan. Shu bois ularning she'riy merosini tahlil qilishdan avval, Iqbolning G'olib haqidagi mulohazalariga murojaat etish maqsadga muvofiqdir.

Iqbol G'olibni nafaqat o'zining ma'naviy ustozlaridan biri sifatida e'zozlagan, balki unga bo'lgan chuqur ehtiromini nasriy hamda she'riy asarlarida ifodalagan. Bu hol ayniqsa 1961-yilda chop etilgan "Stray Reflections" asarida yorqin namoyon bo'ladi. Unda Iqbol shunday yozadi:

"Mening nazarimda forsiy shoir Mirzo G'olib – hind musulmonlarining umumiy musulmon adabiyotiga qo'shgan yagona yirik hissasidir. U shoirlar orasida shunday iste'dod va tafakkur egasiki, uning ijodi millat va din chegaralaridan yuqori turadi. Biroq, u hanuz to'liq e'tirof etilmagan."[1].

Iqbol o'z she'rida G'olibning ijodiy tasavvur qudratini yuksak e'tirof etadi. U G'olibning qo'shiqlarida hayotiylikni ko'radi va uni Gyote bilan qiyoslaydi. **S. Alam Xundmiri** o'zining *"Iqbol she'riy falsafasining ayrim jihatlari"* (***Some Aspects of Iqbal's Poetic Philosophy***) asarida bu qiyos shunchaki badiiy o'xshashlik emasligini, balki chuqur ma'naviy mushtaraklikka asoslanganini ta'kidlaydi. Agar Gyote uchun "doimiy intilish" hayot mazmuni bo'lsa, G'olib "natijasiz bo'lsa ham, intilishning o'zidan quvonch topadi"[5].

G'olibning Iqbolga ta'siri shu darajada kuchliki, Iqbol o'zining nemis shoiri Gyotening *"G'arb-Sharq devoni"* (***West-östlicher Divan***) asariga javoban yozilgan *"Sharq xabari"* (پیام مشرق – ***Payam-i-Mashriq***) asarida G'olibni Bayron, Brauning va Rumi singari buyuk shoirlar qatorida tilga oladi. Shuningdek, Iqbol o'zining *"Jovidnoma"* (***Abadiyat kitobi***) asarida G'olibni Mansur Halloj va Qurrat ul-Ayn Tohira bilan birga ma'naviy safarga hamroh qiladi.

Muhammad Iqbolning 1924-yilda chop etilgan ilk she'riy to'plami "Karvon qo'ng'irog'i" (***Bang-i-Dara***) muqaddimasida esa Iqbolning yaqin do'sti Sir Abd al-Qodir ikki shoir o'rtasidagi aloqadorlikni alohida ta'kidlaydi. U shunday deydi:

"Hech kim kutmagandi, biroq G'olibdan so'ng Hindistonda yana bir shoir paydo bo'lib, Urdu she'riyatiga yangi ruh baxsh etdi. U G'olibning betakror tasavvurini va o'ziga xos badiiy obrazlarini qaytadan jonlantirdi va shu orqali Urdu adabiyotining yuksalishiga sabab bo'ldi. Urdu esa Iqbol darajasidagi shoirni qo'lga kiritganidan omadli bo'ldi. Uning badiiy go'zalligi butun Hindiston bo'ylab urduzabonlarni hayratda qoldirdi, shuhrati esa Eron, Kichik Osiyo va hatto Yevropaga tarqaldi. G'olib va Iqbol ko'plab umumiy xususiyatlarga ega. Agar men ruhning qayta tug'ilishiga ishongan bo'lganimda, shunday derdim: Mirzo Asadullohxon G'olibning Urdu va fors she'riyatiga bo'lgan cheksiz muhabbati uning ruhini hatto abadiyatda ham tinch

qo'ymadi. U yana dunyoga qaytib, she'riyatga xizmat qilish uchun Panjobning Sialkot shahrida qayta tug'ildi va Muhammad Iqbol nomi bilan tanildi" [2].

G'olib o'zini hech qachon mutaassib yoki qat'iy diniy e'tiqod egasi sifatida ko'rsatmagan, u erkin tafakkur sohibi edi. Uning tasavvurida musulmonlikni anglatadigan ikki asosiy fazilatning o'zi najot topishi uchun yetarli bo'lgan. Altaf Husayn Halining qayd etishicha, G'olib ibodat va diniy amallarning ko'pligidan faqat ikki narsani mezon sifatida qabul qilgan: Muhammad (s.a.v.) va u zotning oilasiga bo'lgan samimiy muhabbat, hamda Xudoning yagona va butun mavjudotda mujassam ekaniga qat'iy ishonch. G'olibning nazarida, aynan shu ikki jihat uning najoti uchun kifoya edi.

Iqbol, G'olibdan farqli ravishda, o'zini sof islomiy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida ko'rsatadi. U islomni faqatgina tavhid va risolat tushunchalari bilan chegaralab qo'ymaydi, balki uni inson hayotining ma'naviy, ijtimoiy va falsafiy qirralarini qamrab oluvchi mukammal ta'limot sifatida talqin qiladi. Qur'oni karim Iqbol ijodining eng muhim ilhom manbai bo'lib, uning she'riyati va nasriy asarlari, xususan "Islomda diniy tafakkurni qayta qurish" nomli mashhur asari bevosita Qur'on ta'limotlari asosida shakllangan. Bu asarlar Iqbolning nafaqat adabiy, balki falsafiy qarashlari hamda ma'naviy izlanishlarini yuksak darajada namoyon etadi.

G'olib esa, aksincha, ijodning markazida she'riyatning ilhom bag'ishlovchi va ruhiy quvvat beruvchi kuchini ko'radi. U she'rni inson ruhiyatini uyg'otuvchi, tafakkurni kengaytiruvchi va qalbni ilhomlantiruvchi kuch sifatida talqin etadi.

G'olib she'riyatni "qofiyalarni uyg'unlashtirish emas, balki ma'no yaratish san'ati" sifatida ta'riflaydi. Uning ma'no yaratish salohiyatiga tenglasha oladigan shoir yo'q, deya e'tirof etiladi. Altaf Husayn Hali o'zining **"Yodgor-i G'olib"** asarida shoir ijodining ikki asosiy xususiyatini ko'rsatadi: **turfaqiy-i xayol** – tafakkur betakrorligi va **jiddat-u nudrat-i mazaamin** – mavzularning yangiligi va o'ziga xosligi. Bu fazilatlar boshqa Sabk-i Hind shoirlariga ham xos bo'lsa-da, G'olib ularni butunlay yangi uslubda va o'ziga xos ohangda talqin etadi.

Nazariy mulohazalarga ko'ra, G'olibning she'rlari yozilganidan so'ng ma'no va mazmun jihatidan barcha yo'nalishlarga yoyilib ketadi. Shu bois uni chegaralash yoki muayyan qolip ichida saqlashning imkoni yo'q. Shoir o'zining fors tilida yozilgan **"Panj Ahang"** (1988) asari muqaddimasida shoirlik va she'riyatning mohiyatiga oid fikrlarini davom ettirib, she'rning tabiati qanday bo'lishi lozimligini aniqlab beradi. Uning ta'kidlashicha:

"She'r bokiralik kabi sof va beg'ubor bo'lishi, ruhiy jihatdan erib inson qalbiga singib ketishi, mohiyat e'tibori bilan esa mutlaqo yangilik yaratishi shart. Unda iztirobning sho'rliigi va mehribonlikning shirinligi uyg'unlashmog'i, ko'z yoshning dardini ham, qo'shiqning quvonchini ham o'zida mujassam etmog'i kerak. She'r ulug'likning hikmatini, go'zallikning nafisligini aks ettirib, inson qalbida hayrat uyg'otmog'i, go'zallik haqidagi xabarni yetkazmog'i va hayot sirlarining pardasini ochmog'i lozim."

Narangning ta'kidlashicha, "G'olibning hayoti va poetik qarashlari insoniyatning ozodlikka bo'lgan izchil intilishining haqqoniy ifodasidir". G'olib hech bir ma'lum mafkura yoki falsafiy maktabga ergashmagan. Uning badiiy-falsafiy qarashlari an'anaviy qoliplarni ortda qoldirib, yangi ma'no ufqlarini ochadi. Shu bois u o'zini "hali mavjud bo'lmagan bog'ning bulbuliman" deya ta'riflagan. Bu tashbeh G'olibning ijodiy dunyoqarashida erkinlik, yangilanish va kelajak sari intilish ruhini ifodalaydi.

G'olibning zamondoshi bo'lgan shoir O'g'a Jon Aesh u haqida quyidagi so'zlarni aytgan deb e'tirof etiladi:

"Mirning she'rlarini tushunish mumkin, Mirzo (Sauda) ijodidagi mazmun ham tushunarli, Ammo G'olibning baytlari... ularni faqat shoirning o'zi yoki Xudo to'liq anglashi mumkin."

Agha Jan Aesh G'olib haqida fikr bildirar ekan, ko'plar singari uning she'riyatini to'liq anglash mushkul ekanini ochiq tan oladi. Darhaqiqat, G'olib barcha urf-odat va dogmalarga qarshi chiqqani bois zamonasidan bir necha qadam ilgarilab ketgan ijodkor sifatida ko'rinadi. U she'riyatning sintaksisi va uslubini tanlashda qadimiy, qotib qolgan fikriy qoliplarga ergashmadi, balki ulardan chetlashib, mavjud an'anaviy yo'singa qarshi turdi.

Hali bu haqda qat'iy fikr bildirar ekan, shunday deydi: *"Mirzo G'olibning nozik va nafis baytlarini baholash uchun biz yangi bir mezon ishlab chiqishimizga to'g'ri keladi. Umid qilamanki, yaxshi did va sog'lom hukm egalari bu mezonni qabul qiladilar"*.

Hali o'z izlanishlarida qayta-qayta G'olibning fikrlashdagi betakrorligi va mavzulardagi yangiligi, o'ziga xos intellektual jasoratini alohida ta'kidlaydi. G'olib esa she'riyat mohiyatini sharhlar ekan, "Panj Ahang" asarida shoirning talqinchi va ifodachi sifatidagi o'rnini quyidagicha ifodalaydi:

She'riyat – ya'ni ohangdor nutq – har bir inson qalbida o'ziga xos o'rin egallaydi, har bir nigoh esa uni o'z rangida ko'radi. Shoirilar esa, torni chertgan har bir lahzasida yangi bir ohang yaratadilar; ular qo'llagan har bir cholg'u asbobi o'ziga xos kuy va ohangni jaranglatadi.

Bu tasvir G'olib nazarida she'riyatning yagona va qat'iy shaklga ega emasligini, balki u inson qalbi va idrokining turfa talqinlari orqali o'zining cheksiz ma'nolarini namoyon etishini ko'rsatadi. Demakki, she'riyat – umumiy me'yorlardan ko'ra individual idrok va estetik hissiyot mahsuli sifatida talqin qilinadi.

Iqbolning nazarida, she'riyat inson hayotining maqsadlariga erishishda muhim vosita bo'lishi kerak. Shu bilan birga, u she'riyatni ruhiy zavq va estetik huzur manbai sifatida ham qadrlaydi. Iqbol she'riyatga yangicha mazmun bag'ishlab, shoirni faqatgina ko'ngilochar san'atkor emas, balki insoniyatni befarqlik uyqusidan uyg'otuvchi, faoliyat va ma'naviy o'sishga da'vat etuvchi kuch sifatida talqin etadi.

Uningcha, shoir jamiyatdagi loqaydlikni yengib o'tishga undovchi ilhom manbai bo'lishi lozim. Iqbol Shelley singari shoirni "bashorat karnayi" deb ataydi va shunday deydi:

"شاعری جزو است از پیغمبری" – "She'riyat – payg'ambarlikning bir bo'lagidir."

Bu fikr orqali u shoirni faqat his-tuyg'u ifodalovchi emas, balki kelajakni oldindan ko'ra biluvchi va xalqni ma'naviy jihatdan yo'naltiruvchi shaxs sifatida ko'rsatadi.

Iqbolning bu qarashlari uning ikki qirrali mohiyatini – shoir va faylasuf sifatidagi o'ziga xosligini – yaqqol namoyon etadi. U she'riyatni o'z falsafiy g'oyalarini ifodalash, insonni fikrlashga, izlanishga va ma'naviy uyg'onishga chorlaydigan vosita sifatida qo'llagan.

Iqbolning ijodiy yo'li dastlab an'anaviy she'riyat asosida shakllanadi. Uning ilk asarlarida muhabbat mavzusi, tabiat manzaralari va milliy ruh ifodasi ustuvor o'rin egallagan. Biroq vaqt o'tishi bilan u she'rni shunchaki estetik zavq manbai emas, balki jamiyat va insoniyat hayotini yuksaltirishga xizmat qiluvchi ma'naviy vosita sifatida anglay boshladi.

Shoirning ilhom manbai musulmon ummati taqdiri va butun insoniyat kelajagi bilan bog'liq bo'lib, u o'z she'rlari orqali ruhiy uyg'onish, erkinlik va taraqqiyot g'oyalarini ilgari suradi. Shu jihatdan, Iqbolning she'ri nafaqat ma'noga, balki aniq ijtimoiy va falsafiy xabarga ega bo'ladi.

Iqbolning fikricha, san’at “san’at uchun” emas, balki hayot uchun xizmat qilishi kerak. U o’z ilhomini Qur’oni Karim va Payg’ambar Muhammad (s.a.v.)ning ta’limotlaridan oladi. “Payg’ambar (s.a.v.)ning adabiy qarashlari” nomli maqolasida Iqbol VI asr arab shoiri Imraul Qays haqida Payg’ambarimizning so’zlarini keltiradi: *“Shoirlarning eng yaxshisi – ularni do’zaxga yetaklovchi”*.

Iqbol ushbu hadisni mezon sifatida olib, san’at mohiyatini quyidagicha tushuntiradi:

“Inson faoliyatining oliy maqsadi – Hayotdir: qudratli, ulug’vor va jo’shqin hayot. Har qanday san’at ushbu oliy maqsadga bo’ysunishi lozim. Har bir narsaning qadri uning hayotga quvvat, ma’no va iroda bag’ishlash salohiyatiga qarab baholanadi. Eng yuksak san’at – odamning uyquda qolgan iroda kuchini uyg’otib, uni hayot sinovlariga mardona yuzlashga undaydigan san’atdir. Agar san’at loqaydlik, uyqu yoki atrofdagi haqiqatdan yuz o’girishga sabab bo’lsa, bu yemirilish va halokat alomatidir. Shuning uchun san’atda “afyun” bo’lishi mumkin emas. “San’at uchun san’at” degan aqida – aslida tanazzul mafkurasi bo’lib, insonni hayotiy kuch va qudratdan mahrum etadi.”

Iqbol ham, G’olib singari, o’zini zamonasidan ko’ra kelajak avlod uchun ijod qiluvchi shoir sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, shoirning asosiy vazifasi – o’z davrining qisqa muddatli didi va kayfiyatlariga xizmat qilish emas, balki insoniyatning kelajak ma’naviy uyg’onishi uchun ovoz bo’lishdir. Shu sababli u shunday deydi:

“Men bugunning e’tiboriga muhtoj emasman, Men kelajakning shoiri va ovoziman. Mening zamonam mening ma’nolarimni anglamaydi, Chunki mening “Yusufim” bozorda sotiladigan emas.”

Hazrat Ali (r.a.) va Karbalo shahidlari (Shohada-e-Karbala)ga bo’lgan chuqur hurmat va ehtirom Mirzo G’olib va Muhammad Iqbol ijodida mushtarak bo’lgan muhim ma’naviy jihatlardan biridir. Har ikkala shoir ham bu mavzuga bag’ishlab yozgan she’rlarida Hazrat Alining ulug’ siymosini, shijoat va adolat timsoli sifatidagi maqomini, shuningdek, Karbalo fojeasi orqali ifodalangan sabr va fidoyilik ruhini ulug’laydilar.

Taniqli adabiyotshunos Hali qayd etishicha, G’olib e’tiqod jihatidan Shia qarashlariga moyil bo’lgan, Hazrat Alini ilohiy haqiqatga eng yaqin zot sifatida tan olgan. Biroq, Hali ta’biri bilan aytganda, G’olibning asl “dini” hech kimga nafrat qilmaslik, insonparvarlik va bag’rikenglik edi. Manbalarda keltirilishicha, saroy ahli G’olibning Shia yoki, hech bo’lmaganda, *tafzili* – ya’ni, o’zini Shia deb atamasa-da, Hazrat Alining fazilat va ustunligini e’tirof etuvchi kishi – ekanligini yaxshi bilgan (Russell, s. 100).

G’olib o’zining Hazrat Aliga bo’lgan samimiy muhabbatini va ichki ehtiromini bir necha misralar orqali ifoda etgan. Bu satrlar uning diniy bag’rikengligi, ruhiy teranligi va insoniy mehrga asoslangan e’tiqodini yaqqol namoyon etadi. G’olib uchun muhabbat – bu e’tiqodning yuksak shakli, inson ruhining eng sof ifodasidir.

“Agar men may ichganim sababli jannatga kira olmasam ham, shunchaki bir orzum bor – o’limdan keyin ham bir foydam tegsa edi. Ey Parvardigor, agar mumkin bo’lsa, meni do’zaxning o’tini qil, toki Hazrat Alining (a.s) har bir dushmanining yuragini shu olov bilan yondira olay.”

Xuddi shuningdek, Iqbol ham Karbalo voqeasidan chuqur ma’naviy ilhom olgan. Uning nazarida, Karbalo – bu faqat tarixiy yoki mazhabiy hodisa emas, balki butun insoniyat uchun haqiqat, adolat va ruhiy uyg’onishning abadiy timsolidir. Iqbol Imom Husayn (a.s.) siymosida insonning haqiqat va ilohiy muhabbat yo’lida fidoyilik bilan kurashish fazilatini ko’radi.

Shoir insoniyatni Imom Husayn (a.s.)ning ibratli hayotidan saboq olishga, ya'ni haqiqatni himoya qilish, adolatni tiklash va zulmga qarshi qat'iyat bilan turishga da'vat etadi.

U **“Bal-e Jibril”** asarida shunday yozadi:

“Imom Husayn (a.s.)ning maqomi – abadiy haqiqatdir, Kufa va Shom ahli yo'llarini o'zgartirsa ham, bu haqiqat o'zgarmas.”

Iqbolning ushbu mulohazasida Imom Husayn (a.s.) ilohiy haqiqat va ma'naviy muhabbatning boqiy timsoli sifatida talqin etiladi. Uning ulug' shahidligi insoniyatni adolat yo'lida sobitlikka, zulm va adolatsizlikka qarshi kurashishda qat'iyat va jasorat bilan harakat qilishga da'vat etuvchi abadiy ma'naviy manba sifatida namoyon bo'ladi.

Imom Husayn (a.s.) o'zining shonli shahidligi orqali ilohiy haqiqat va abadiy adolatning ramziga aylangan. Shom va Kufa hukmdorlari esa, tarix davomida o'z manfaatlari yo'lida hiyla, aldov va siyosiy nayranglarga berilib, turli shakllarda o'z qiyofalarini o'zgartirib kelganlar. Iqbol o'zining boshqa she'riy asarlarida ham Imom Husayn (a.s.) va uning sadoqatli safdoshlarini chuqur hurmat va ehtirom bilan ulug'laydi.

Har ikkala shoir ham asarlarida g'am va iztirob mavzusini yoritgan, biroq G'olib she'riyatida chuqur tushkunlik hukm sursa, Iqbol ijodida g'am bilan bir qatorda shikoyat va umid ohangi seziladi.

G'olib o'z asarlarida bu fikrni asoslab, fors tili va notiqlik san'ati unga tabiatan ato etilgan iste'dod ekanini ta'kidlaydi. Uning she'rlari sof klassik fors tilida yozilgan bo'lib, Iqbolning xalq ohangiga yaqin fors tilidan farq qiladi. Xuddi shuningdek, Iqbol ham o'zidan avvalgi adabiy an'anaviy yo'nalishlarga to'liq ergashmagan. Bu davr uzoq davom etmagan, chunki u dastlab hind-fors uslubiga (Sabk-e Hindī) amal qilgan bo'lsa-da, tez orada uning chegaralarini yengib o'tgan. **“Asrori Xudiy”** (**“Asrar-i-Khudi”**) asarida esa Iqbol fors tilini afzal bilganini va o'z ijodining katta qismini aynan shu tilda yaratganini ochiq ifoda etib, quyidagi mazmundagi fikrni keltiradi:

“Men Hindiston farzandiman – fors tili mening ona tilim emas. Men hali to'linmagan oyga o'xshayman – iste'dodim to'liq kamolga yetmagan. Garchi hind tili qand kabi shirin bo'lsa ham, fors tili ifoda va uslub jihatidan undan-da shirindir. Chunki mening fikrlarim nihoyatda yuksak, ularni ifoda etishga faqat fors tili munosibdir.”

Iqbol Hindistonda ulkan shuhrat qozongan urdu shoiri sifatida tanilgan bo'lsa-da, uning xalqaro miqyosdagi e'tirofi asosan forsiy ijodi orqali, ayniqsa, Eron, Turkiya va Rossiya adabiy doiralarida qaror topgan. Xuddi G'olib singari, Iqbol ham o'z she'riyatida erkinlik, mustaqil fikrlash va shaxsiy kamolot g'oyalarini ilgari surgan. G'olib ijodiga xos bo'lgan isyonkorlik, inson sha'niga ehtirom, ruhiy ozodlik va hayotdan ma'naviy zavq olish kabi xususiyatlar Iqbol she'rlarida ham o'z aksini topadi.

Ikkala shoir ijodi uchun achinarli jihat shundaki, ularning forsiy tildagi she'rlari fors tili asosiy til sifatida qo'llaniladigan Eron va boshqa mamlakatlarda yetarli e'tirof va e'tibor topmadi. Bu esa, aslida, ularning forsiy adabiyotga qo'shgan badiiy va falsafiy hissasi hali to'liq qadrlanmaganini anglatadi.

G'olib va Iqbol ijodidagi muhim o'xshashliklardan biri – ularning do'stlariga yozgan maktublarida o'zining eng chuqur fikr va tuyg'ularini ifoda etganidadir. G'olibdan bizgacha yetib kelgan ko'plab maktublar uning nozik hazil-mutoyibasi, o'ziga xos kinoyaviy ohangi va hayotni teran idrok etish qobiliyatini yorqin aks ettiradi. U bu maktublarda quvonch va iztiroblarini, dard va orzularini go'yo suhbat tarzida, samimiy ruhda bayon etgan. Shu bois,

G'olibning maktublari nafaqat adabiy, balki shaxsiy va falsafiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Xuddi shuningdek, Iqbolning Atiya Fayziy va Emma Vegnast singari do'stlariga yozgan maktublari ham uning ichki olamini chuqur anglash imkonini beradi. Ushbu maktublarda u o'zining majburan tuzilgan va muvaffaqiyatsiz yakun topgan nikohi, shuningdek, shaxsiy kechinmalari haqida samimiy fikrlarini bildiradi. Iqbolning Muhammad Ali Jinnax bilan yozishmalari ham diqqatga sazovor bo'lib, tadqiqotchilar bu muloqotlarda ilgari surilgan siyosiy va falsafiy g'oyalar keyinchalik Pokiston davlatining shakllanishida muhim o'rin tutganini ta'kidlashadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Iqbol she'riyat yaratishda ma'lum nazariy qarashlar va oldindan shakllangan badiiy mezonlarga tayangan bo'lsa, G'olib ijodda hech qanday qat'iy qoidalarga bog'lanmagan, o'z fikr va tuyg'ularini erkin ifoda etgan. Iqbolning she'riyati, ayniqsa uning keyingi davr asarlari, aniq maqsad va g'oyaviy yo'nalishga ega bo'lishiga qaramay, hayot mazmunining chuqur falsafiy talqini sifatida e'tirof etiladi.

G'olib o'tkir hazil-mutoyibaga ega, turli tabaqalardan bo'lgan do'stlari bilan keng muloqotda yashagan inson edi. Iqbol esa tabiatan sokin, mulohazali va yaqin do'stlar doirasi tor shaxs bo'lgan. Iqbol o'z ichki kechinmalarini ko'pchilikdan pinhon tutgan bo'lsa, G'olibning sirli tabiatida ham bir ma'naviy chuqurlik seziladi.

G'olib she'riyatida inson hayotining umumiy, har kimni o'ylantiradigan masalalari ifodalangan bo'lsa, Iqbolning asarlari ko'proq aniq falsafiy va ruhiy muammolarni yoritadi. Shu bois, G'olibning fikrlari insoniyatga xos universal ma'noga ega bo'lsa, Iqbolning she'riyati ko'proq ziyolilar va tafakkur ahli uchun mo'ljallangandek tuyuladi.

Har ikkala shoirning umrining so'nggi yillari sog'liq bilan bog'liq og'ir sinovlar bilan kechgan. G'olib ko'rish qobiliyatini yo'qotib, kuchli og'riqlar ichida yashagan. Iqbol esa bundan ham og'ir dardlarga chalingan va nihoyat shular sabab vafot etgan.

G'olib hayotining so'nggi kunlarida hushini tez-tez yo'qotar, o'limidan oz vaqt avval esa Alauddin ismli do'stiga maktub yozdirib, unda shunday degan edi:

“Men haqimda bilmoqchimisiz? Bir-ikki kundan keyin qo'shnilarimdan so'raysiz.”

U o'limi arafasida “La ilaha illalloh” – “Allohdan o'zga iloh yo'q” kalimasini tinmay takrorlagan.

Xuddi shuningdek, Iqbol ham vafotidan bir necha kun avval ukasiga fors tilidagi quyidagi satrlarni o'qib bergan bo'lib, bu satrlar uning hayot, ruh va ilohiy haqiqat haqidagi chuqur mushohadasini ifodalab, quyidagi mazmundagi misralarni keltiradi:

*“Men senga haqiqiy mo'min — iymonli insonning belgisini aytay:
unga o'lim kelsa ham, lablarida tabassum jilolanadi.”*

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Iqbal, M. Stray Reflections: The Private Notebook of Muhammad Iqbal. – Lahore: Sheikh Muhammad Ashraf, 1961. – 161 p.
2. Iqbal, M. “Bang-i-Dara” (بانگ درا – The Call of the Marching Bell). – Lahore: Sheikh Muhammad Ashraf, 1924. – 340 p.
3. Khurram Ali Shafique. Iqbal: An Illustrated Biography. – Lahore: Iqbal Academy Pakistan, 2006. – 214 p.
4. Iqbal, M. Zabur-e-Ajam (زبور عجم). – Lahore: Iqbal Academy Pakistan, 2014. – 148 p.

5. Khundmiri, S.Alam. Some Aspects of Iqbal's Poetic Philosophy. – Srinagar: Iqbal Institution on behalf of the University of Kashmir, 1980. – 74 p.
6. Kumar, I. Ghalib and Iqbal. – Lahore: Panjab University, 1988. – 124 p.
7. Muhammad, S. Ghalib: Innovative Poet of Urdu and Persian. – Karachi: Oxford University Press, 2011. – 228 p.
8. Pritchett, F. W. Nets of Awareness: Urdu Poetry and its Critics. – Berkeley: University of California Press, 1991. – 267 p.
9. Russell, R., Islam, K. A. Ghalib: Life and Letters. – New Delhi: Oxford University Press, 1994. – 352 p.
10. Anisur Rahman. The Essential Ghalib. - Uttar Pradesh: HarperCollins India, 2024. – 448 p.
11. Hali, A. H. Yaadgar-e-Ghalib. – Lahore: Sang-e-Meel Publications, 1897. – 208 p.
12. Narang., G.,Ch. Ghalib: Innovative Meanings and the Ingenious Mind. –New Delhi: Oxford University Press, 2017. – 464 p.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

SOCIAL JUSTICE: THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS AND CONTEMPORARY INTERPRETATION

Makhmudov Izzatillo Ne'matilloevich

Independent researcher at Bukhara State University

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the philosophical, legal, and sociological aspects of the concept of social justice. The theoretical and methodological foundations of this phenomenon are examined based on the ideas of such thinkers as Plato, Aristotle, Al-Farabi, John Rawls, and Robert Nozick. The interrelation of social justice with national and spiritual values, the social role of the mahalla institution, and the processes of modern modernization in the context of Uzbekistan is highlighted. In addition, distributive, equalizing, and procedural forms of justice, as well as their connection with the criteria of equality, opportunity, and labor, are discussed.

Keywords: society, social justice, human capital, modernization, liberalism, communitarianism, individualism, spirituality, ethics.

IJTIMOY ADOLAT: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TALQINI

Maxmudov Izzatillo Ne'matilloevich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy adolat tushunchasining falsafiy, huquqiy va sotsiologik jihatlarini kompleks tarzda tahlil qilingan. Unda ijtimoiy adolatning tarixiy shakllanishi, Aflotun, Aristotel, Forobiy, Jon Roulz, Robert Nozik kabi mutafakkirlarning qarashlari asosida nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ijtimoiy adolatning milliy-ma'naviy qadriyatlar, mahalla institutining ijtimoiy roli va zamonaviy modernizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, adolatning taqsimlovchi, tenglashtiruvchi va protsessual turlari, uning tenglik, imkoniyat va mehnat mezonlari bilan aloqasi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, ijtimoiy adolat, inson kapitali, modernizatsiya, liberalizm, kommunitarizm, individualizm, ma'naviyat, axloq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N28>

Kirish. Ijtimoiy adolat insoniyat tarixining barcha davrlarida mutafakkirlar, faylasuflar va davlat arboblari o'ylantirib kelgan eng fundamental tushunchalardan biridir. U jamiyatning ma'naviy-axloqiy holatini aks ettiruvchi mezon, ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlovchi muhim poydevor sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy adolat g'oyasi insonning erkinlik, tenglik va qadr-qimmat kabi tub ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, uning mohiyatini anglash har qanday jamiyatning rivojlanish istiqbollari belgilashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda adolatli ijtimoiy siyosatni yuritish, inson kapitalini rivojlantirish – bu bizning asosiy vazifamizdir". Bu vazifaning falsafiy asoslarini tahlil etish ushbu tadqiqotning markazida turadi [1].

Ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda ijtimoiy adolatga bir necha jihatdan yondashiladi. Birinchidan, u ijtimoiy ideal sifatida qaraladi – bu jamiyatning barcha aʼzolari uchun teng imkoniyatlar yaratilgan, resurslar va neʼmatlar haqqoniy taqsimlangan, har bir shaxsning hissasi munosib baholanadigan mukammal jamiyat modeli. Ikkinchidan, ijtimoiy adolat ijtimoiy tartibga solish mexanizmi sifatida oʻrganiladi. Bu nuqtai nazardan, adolat – jamiyatdagi huquqiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi tamoyillar va normalar tizimidir. Uchinchidan, ijtimoiy adolat ijtimoiy ong hodisasi sifatida tahlil qilinadi, bunda uning turli ijtimoiy guruhlar va individlar tomonidan qanday idrok etilishi, ularning adolat haqidagi tasavvurlari oʻrganiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda ijtimoiy adolat tushunchasini tahlil etishda kompleks falsafiy, sotsiologik va huquqiy yondashuvlar uygʻun qoʻllanildi. Metodologik asos sifatida tarixiylik va zamonaviylik dialektikasi, qiyosiy tahlil, tizimli va aksiologik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy manbalari sifatida Aflotun, Aristotel, Forobiy, J. Roulz, R. Nozik kabi mutafakkirlarning adolat haqidagi konsepsiyalari hamda zamonaviy oʻzbek olimlarining ilmiy ishlari asos qilib olindi. Shuningdek, mahalla instituti, milliy qadriyatlar va jadidchilik merosi ijtimoiy adolatning milliy modelini aniqlashda metodologik tayanch boʻlib xizmat qildi. Natijada, ijtimoiy adolatni milliy-maʼnaviy qadriyatlar bilan uygʻunlashtirgan sintez yondashuvi ishlab chiqildi.

Muhokama va natijalar. Tarixan falsafada ijtimoiy adolatning turli konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun oʻzining “Davlat” asarida adolatni ideal polisning asosi deb biladi va uni jamiyatdagi uch tabaqaning har biri oʻziga xos vazifani mukammal bajarishidagi uygʻunlik sifatida taʼriflaydi. Uning uchun adolat – bu shaxs qalbida va davlatda oʻrnatilgan ichki garmoniyadir. Aristotel esa ijtimoiy adolatni ikki turga ajratadi: taqsimlovchi va tenglashtiruvchi adolat. Taqsimlovchi adolat neʼmatlarni va sharaflarni har kimning qoʻshgan hissasiga yarasha taqsimlashni nazarda tutsa, tenglashtiruvchi adolat fuqarolar oʻrtasidagi munosabatlarda tenglikni tiklashga qaratiladi [2].

Oʻrta asrlar Sharq falsafasida, xususan Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida adolat fozil shahar boshqaruvinining asosiy tamoyili, davlat boshligʻining eng muhim fazilatlaridan biri sifatida gavdalanadi. Forobiy uchun adolat – bu nafaqat qonunlarga rioya qilish, balki har bir insonga oʻziga munosib boʻlgan narsani berish va jamiyatda uygʻunlikni saqlashdir [3].

Yevropa falsafasida Yangi davrga kelib, ijtimoiy adolat tushunchasi “ijtimoiy shartnoma” nazariyalari doirasida rivojlantirildi. Unga koʻra, adolat endi ilohiy tartib emas, balki odamlarning oʻzaro kelishuvi, umumiy manfaatlar uchun oʻz erkinliklarining bir qismini cheklashga rozi boʻlishi natijasida vujudga kelgan ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi [4].

Zamonaviy gʻarb ijtimoiy-falsafiy tafakkurida ijtimoiy adolatning ikki asosiy nazariy-metodologik modeli keng tarqalgan: liberalizm va kommunitarizm. Liberalizmning yirik namoyandasi, amerikalik faylasuf Jon Roulz oʻzining “Adolat nazariyasi” asarida ijtimoiy adolatni “haqqoniylik” sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, adolatli jamiyatda barcha fuqarolar uchun asosiy erkinliklar teng taʼminlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar jamiyatning eng nochor qatlamlari ahvolini yaxshilashga xizmat qilgandagina oqlanishi mumkin. Unga qarshi oʻlaroq, libertarizm vakili Robert Nozik adolatni shaxsning oʻziga va oʻz mulkiga boʻlgan daxlsiz huquqlarini himoya qilish deb biladi va davlatning ijtimoiy qayta taqsimlash funksiyasini individ huquqlarining poymol etilishi sifatida tanqid qiladi [5].

Kommunitarizm esa, liberalizmning individualizmiga qarshi chiqib, adolat tushunchasi muayyan jamiyatning umumiy qadriyatlari, tarixi va an'alaridan kelib chiqishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, shaxsning manfaatlari jamiyat manfaatlaridan ustun bo'la olmaydi va adolatni shaxslarning mavhum huquqlaridan emas, balki jamiyatning umumiy yaxshilik g'oyasidan kelib chiqib anglash kerak [6].

Ushbu falsafiy yondashuvlar zamonaviy O'zbekiston uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ijtimoiy adolatning har qanday universal modeli muayyan jamiyatning milliy-madaniy xususiyatlarini, jumladan, mentalitet va qadriyatlarini hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. O'zbek xalqining ongida adolat tushunchasi "haqiqat", "diyonat", "insof", "mehr-oqibat" kabi chuqur ma'naviy-axloqiy kategoriyalar bilan uzviy bog'liqlikda idrok etiladi. Bu shunchaki yuridik to'g'rilik emas, balki undan yuqoriroq turuvchi vijdoniy me'yordir. Falsafa fanlari doktori N.A.Shermuhamedova ta'kidlaganidek, milliy qadriyatlar fanning rivojlanish bosqichlariga ta'rif berish bilan bir qatorda, ilmiy tadqiqotni tizimli amalga oshirishning usul va vositalari haqida ham fikr yuritishga undaydi. Bu aynan bizning tadqiqotimizda ijtimoiy adolatning mahalla kabi milliy institutlar orqali amalga oshirilishini tahlil qilish imkonini beradi [7].

Ijtimoiy adolat muammosiga yana bir nechta muhim nazariyalar orqali ham yondashish mumkin. Bularidan biri utilitarizm falsafasidir. Jeremi Bentam va Jon Styuart Mill kabi mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan bu ta'limotga ko'ra, adolatli harakat yoki qonun bu – "eng ko'p odamlar uchun eng katta baxt"ni ta'minlaydigan harakatdir. Ya'ni, biror bir ijtimoiy siyosatning adolatliligi uning jamiyatdagi umumiy baxtlik yoki "foydalilik" (utility) darajasini qay darajada oshirishi bilan o'lchanadi [8].

Ijtimoiy adolat konsepsiyasini tahlil qilishda marksistik yondashuvni chetlab o'tib bo'lmaydi. Karl Marks uchun ijtimoiy adolat tushunchasi bevosita iqtisodiy tuzum va sinfiy munosabatlar bilan bog'liq. Unga ko'ra, kapitalistik jamiyatdagi "burjua adolati" aslida ekspluatator sinf bo'lgan burjuaziyaning hukmronligini niqoblash va qo'shimcha qiymatni o'zlashtirishni qonuniylashtirish uchun xizmat qiladigan soxta adolatdir. Haqiqiy ijtimoiy adolatga, Marksning fikricha, faqat sinfsiz kommunistik jamiyatdagina erishish mumkin. Bunda ishlab chiqarish vositalari umumxalq mulkiga aylanadi va "har kimdan qobiliyatiga yarasha, har kimga ehtiyojiga yarasha" tamoyili amalga oshadi [9]. O'zbekistonning sovet o'tmishini hisobga olsak, marksistik adolat konsepsiyasining ta'siri va uning jamiyat ongida qoldirgan izlarini o'rganish mavzuyimiz uchun alohida ahamiyatga ega.

Jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyilining o'rnatilishi, avvalo, davlatning siyosiy irodasi va uning bu boradagi siyosatiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillariga asoslangan suveren, demokratik davlat ekanligi mustahkamlangan. Bu norma ijtimoiy adolatni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligidan dalolat beradi. Huquqshunos olim A.Saidov o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, "huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri bu uning ijtimoiy yo'naltirilganligida, ya'ni har bir fuqaro uchun munosib hayot sharoitini yaratishga qaratilgan siyosatida namoyon bo'ladi" [10]. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistondagi ijtimoiy adolatning nazariy-metodologik asosi, bir tomondan, umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga, ikkinchi tomondan esa, milliy davlatchilik tajribasi va xalqning adolat haqidagi o'ziga xos tasavvurlariga tayanadi.

Modernizatsiya sharoitida O'zbekistondagi ijtimoiy adolat muammosini o'rganishda sotsiologik yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsiologik nuqtai nazardan, ijtimoiy

adolat bu muayyan jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish (stratifikatsiya) tizimining qanchalik haqqoniy deb qabul qilinishi bilan bog'liq. Jamiyatdagi boylik, obro'-e'tibor va hokimiyatning notekis taqsimlanishi fuqarolar tomonidan qonuniy va haqli deb qabul qilinsa, bunday jamiyatni barqaror deyish mumkin. O'zbekistonlik faylasuf va sotsiolog B.Qodirov o'z ishlarida "ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy adolat bir-birini inkor etuvchi tushunchalar emas", deb yozadi. Unga ko'ra, "gap tengsizlikni butunlay yo'qotishda emas, balki uning adolatli mezonlar asosida, ya'ni insonlarning qobiliyati, mehnati va jamiyatga qo'shgan hissasiga muvofiq shakllanishini ta'minlashdadir" [11].

Ijtimoiy adolat muammosining ijtimoiy-falsafiy tahlili uni tarixiylik va zamonaviylik dialektikasida ko'rib chiqishni taqozo etadi. O'zbekiston misolida bu, bir tomondan, Amir Temur kabi adolatli davlatchilik an'analariga ega bo'lgan buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganishni, ikkinchi tomondan esa, bugungi globallashuv va raqamli transformatsiyalar sharoitida adolatning yangicha talqinlarini hisobga olishni anglatadi. Amir Temur o'z "Tuzuklar"ida davlatni boshqarishda adolatni eng birinchi tamoyil qilib qo'ygan. Uning "Kuch – adolatdadir" degan shiori shunchaki shior emas, balki butun bir davlatchilik tizimining falsafiy asosi bo'lgan [12]. Uning tuzuklarida raiyatga zulm qilmaslik, har bir tabaqaning huquqini belgilash va himoya qilish, soliq tizimining adolatli bo'lishini ta'minlash kabi masalalar alohida o'rin tutadi. Bu tarixiy tajriba zamonaviy O'zbekistonda huquqiy va ijtimoiy davlat qurish uchun qimmatli metodologik manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbekistonda ijtimoiy adolat haqidagi tasavvurlarning nazariy-falsafiy ildizlarini o'rganar ekanmiz, XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati merosiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadid ma'rifatparvarlari uchun ijtimoiy adolat, birinchi navbatda, jaholat va qoloqlikka barham berish bilan bog'liq edi. Ular jamiyatdagi adolatsizlikning asosiy sababini xalqning ma'rifatsizligida, diniy xurofot va mutaassiblik botqog'iga botganligida deb bilishgan. Fitrat o'zining "Munozara" asarida Buxoro amirligidagi ijtimoiy illatlarni, xalqning savodsizligi va amaldorlarning adolatsizligini keskin tanqid qiladi. Jadidlar uchun adolatli jamiyat – bu, avvalo, ilm-fan yutuqlariga erishgan, zamonaviy ta'lim tizimiga ega, har bir fuqarosi o'z haq-huquqini tanigan ma'rifatli jamiyatdir. Ular adolatga yetishishning asosiy yo'lini xalqni o'qitish, maktab va madrasalarni isloh qilish, milliy matbuot va teatrni rivojlantirishda deb bilishgan. Bu yondashuv ijtimoiy adolatni insonning ma'naviy-intellektual yuksalishi bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqishi bilan bugungi kun uchun ham dolzarbdir [13].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy adolat tushunchasining nazariy-metodologik tahlili uning g'oyatda murakkab, ko'p qirrali va sermazmun hodisa ekanligini namoyon qiladi. Uning mohiyatini biror-bir falsafiy ta'limot doirasida to'liq ochib berishning imkoni yo'q. Klassik falsafa uni kosmik tartib yoki ilohiy iroda bilan bog'lagan bo'lsa, Yangi davr mutafakkirlari ijtimoiy kelishuv natijasi sifatida ko'rdilar. Zamonaviy liberalizm uni shaxs huquqlari va imkoniyatlar tengligi bilan, kommunitarizm esa jamoa qadriyatlari bilan, marksizm sinfiy munosabatlar bilan, germenevtika esa uzluksiz talqin jarayoni bilan, postmodernizm esa hokimiyat diskursi bilan bog'lab tahlil etadi. Zamonaviy O'zbekiston sharoitida ijtimoiy adolat muammosini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish uchun ushbu nazariy-metodologik yondashuvlarning barchasini sintez qilgan holda, ularning kuchli va zaif tomonlarini tanqidiy baholash talab etiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020-yil 30-dekabr.
2. Аристотель. Никомахова этика // Сочинения: В 4 т. Т.4. – М.: Мысль, 1983. – С. 145-163.
3. Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 105-б.
4. История политических и правовых учений: Учебник для вузов / Под ред. В. С. Нерсисянца. – М.: Норма, 2004.
5. Ролз Дж. Теория справедливости. / Пер. с англ. В. В. Целищева. Новосибирск, 1995.
6. MacIntyre A. After Virtue: A Study in Moral Theory. – University of Notre Dame Press, 1981.
7. Шермухамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси. Дарслик. – Тошкент-2014. - 5-б.
8. Mill, John Stuart. Utilitarianism. – London: Parker, Son, and Bourn, West Strand, 1863.
9. Маркс К. Критика Готской программы // К. Маркс и Ф. Энгельс. Сочинения. 2-е изд. Т. 19. – М.: Государственное издательство политической литературы, 1961. – С. 18-21.
10. Saidov A.X. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekiston. – Toshkent: Adolat, 1998.
11. Qodirov B. Ijtimoiy adolat va tengsizlik muammolari // Falsafa va huquq. – Toshkent, 2005. - №2. – В. 25-28.
12. Temur, Amir. Temur tuzuklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
13. Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
14. Sobirovich, T. B. (2020). The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 6(8), 509-511.
15. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL BASIS OF THE CONCEPT OF CORRUPTION

Aripov Alisher Sayfiddinovich

Independent researcher of the Department of "Social Sciences"

Navoi State University

E-mail: alisher7888aripov@gmail.com

Abstract. The social characteristics of corruption and the specific importance of its prevention, the results of identifying corruption through a philosophical approach, the negative impact of corruption on social life, and philosophical methods for eliminating it are described.

Keywords: social characteristics of corruption, fight against corruption, prevention of corruption, negative impact of corruption.

KORRUPSIYA TUSHUNCHASINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Aripov Alisher Sayfiddinovich

Navoiy davlat universiteti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Korrupsiya ijtimoiy xususiyatlari va uni profilaktikasining o'ziga xos ahamiyati, korrupsiyani falsafiy yondashuv orqali aniqlash natijalari, korrupsiyaning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri va uni bartaraf etishning falsafiy metodlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya ijtimoiy xususiyatlari, korrupsiyaga qarshi kurash, korrupsiyani oldini olish, korrupsiyaning salbiy ta'siri.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N29>

Kirish. "Korrupsiya" tushunchasini o'rganishda zamonaviy ilm-fan turli xil yondashuvlarni taklif qiladi. Tahlillar tabiatan farq qiladi, hodisaning ko'lamidan kelib chiqqan holda o'rganiladi. Shunga qaramay, ko'rib chiqilayotgan hodisaning ko'p qirraliligiga qaramay, ushbu maqola doirasida u yoki bu harakatni korrupsiya deb tasniflash uchun korrupsiya chegaralarini aniq belgilashga urinish keltirilgan.

Ilmiy muhitda "korrupsiya" so'zining etimologiyasi haqida allaqachon tortishuvlar mavjud. I.H.Dvoretskiyning so'zlariga ko'ra, lotincha korrupsiya atamasi "buzilish, poraxo'rlik, shuningdek, aldash, pasayish, buzuvchilik, yomon" degan ma'noni anglatadi vaziyat, notinchlik (fikrlar yoki qarashlar)"[1]. Lotin atamasining o'zi yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, "axloqsizlik" degan ma'noni anglatadi va o'ndan ortiq ma'noga ega. Ular orasida: "oshqozonga yomon oziq-ovqat bilan zarar yetkazish, yopiq idishdagi suvni buzish, narsalarni xafa qilish, boyliklarni isrof qilish, axloqni buzish, imkoniyatni boy berish, manbani yo'q qilish..."[1]. Shuning uchun shuni ta'kidlash mumkinki, birinchi ma'noda "korrupsiya" pul, saxiy sovg'alar yoki boshqa moddiy boyliklar bilan pora berishni anglatmagan.

Bundan tashqari, lotincha korrupsiya atamasi soʻzlardan kelib chiqqan degan fikr mavjud yurak (ruh) va buzish (yoʻq qilish) degan maʼnolarni anglatadi. Shuning uchun, ushbu nuqtai nazarga koʻra, “korrupsiyaning mohiyati hech qanday tarzda pora berish, mansabdor shaxslarning sotilishi emas, balki biron bir obyekt yoki institutning, shu jumladan davlat organlarining birligini buzishdir”[2].

Metod va metodologiya. Ushbu ilmiy tadqiqotda korrupsiya tushunchasini har tomonlama oʻrganish va uning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish maqsad qilindi. Buning uchun kompleks ilmiy yondashuv asosida quyidagi metod va metodologik asoslardan foydalanildi:

Dialektik metod – korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy munosabatlar tizimidagi holatini muntazam oʻzgarishda, oʻzaro bogʻliqlik va qarama-qarshiliklar jarayonida tahlil qilish imkonini berdi.

Tarixiy-tahliliy metod – korrupsiya tushunchasining paydo boʻlishi, rivojlanishi va zamonaviy sharoitdagi shakllarini oʻrganishda qoʻllanildi. Bu metod korrupsiyaga nisbatan turli davrlardagi ilmiy qarashlarni solishtirishga xizmat qildi.

Manbashunoslik metodi – milliy va xorijiy huquqiy manbalar, ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari tahlil qilindi va bu asosda korrupsiya tushunchasiga berilgan taʼriflar oʻzaro solishtirib chiqildi.

Solishtirma-huquqiy metod – turli davlatlardagi korrupsiyaga qarshi kurash tajribalarini, ularning huquqiy mexanizmlari va tashkilotlar faoliyatini tahlil qilishda ishlatildi. Bu metod muammoning xalqaro miqyosdagi oʻziga xosliklarini aniqlashga yordam berdi.

Tarkibiy-tahliliy metod – korrupsiyaning turlari, sabablari va oqibatlarini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi. Bu orqali korrupsiyaning jamiyat hayotiga taʼsiri yanada ravshanlashdi.

Induktiv va deduktiv usullar – xususiy holatlardan umumiy xulosalar chiqarish, hamda umumiy nazariy qarashlar asosida aniq amaliyotlarni tahlil qilishda foydalanildi.

Ushbu metodlar uygʻunligi korrupsiya tushunchasini faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy, siyosiy va axloqiy kategoriya sifatida ham chuqur oʻrganish imkonini yaratdi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, korrupsiyaning ilmiy-nazariy tahlili uning oldini olish va samarali boshqarish choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Korrupsiya juda koʻp qirrali hodisa boʻlib, hatto u yoki bu haqiqatni u yoki bu ehtimollik darajasi bilan bogʻlash mumkin. “Davlat xizmatchisining poraxoʻrligi, matbuot yoki mumkin boʻlgan sherik bilan muomala qilish, hatto pora ham turli yoʻllar bilan baholanadi: koʻrsatilgan xizmat uchun standart toʻlov sifatida, axloqiy jihatdan bahsli harakat sifatida, axloqiy tanqidga loyiq harakat sifatida va qonun bilan jazolanishi kerak boʻlgan jinoyat sifatida”[3].

Shuni ham taʼkidlash kerakki, jamoat ongida korrupsiya deb hisoblanadigan narsa, qanday harakatni korrupsiyaga bogʻlash mumkinligi toʻgʻrisida aniq bir birlik yoʻq. Shunday qilib, jamoatchilik fikrini oʻrganish markazi tomonidan oʻtkazilgan soʻrovnoma eʼtiborni tortadi.

Turli xil ijtimoiy, tender va yosh guruhlariga mansub 1500 kishi ishtirok etgan soʻrov tahlili shuni koʻrsatdiki, korrupsiya ijtimoiy ongda aniq tushuncha va izohga ega boʻlmagan ijtimoiy hodisadir.

Ushbu soʻrov davomida respondentlardan muayyan vaziyatni alohida toifalarga ajratish soʻralgan.[7]

Ushbu so'rovning ma'lum kamchiliklari bilan jamoatchilik fikri: tushunchalar, masalan, korrupsiya va poraxo'rlik qanday asosda ajratilganligi aniq emas — bir qator faktlar e'tiborni tortadi. Shunday qilib, biron bir korxonaga mansabdor shaxs tomonidan xizmat ko'rsatish korrupsiya akti sifatida qabul qilinmaydi yoki, masalan, respondentlarning to'rtidan bir qismi korxona direktoriga yuqori ish haqini belgilashni aslida mavjud bo'lmagan korrupsiya ko'rinishlari deb tasniflaydi.

Ilm-fan, shuningdek, korrupsiyaning ko'plab ta'riflarini taklif qilib, fikrlarning plyuralizmidan orqada qolmaydi.

Shunday qilib, 1979-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksida ushbu hodisa “zarur yoki qabul qilingan sovg'alar, va'dalar yoki rag'batlantirish natijasida o'z vazifalarini bajarishda biron bir harakatning sodir etilishi yoki nomukammalligini o'z ichiga oladi yoki bunday harakat harakatsizlik sodir bo'lganda ularni noqonuniy ravishda olish va “shaxsiy yoki guruh foydasiga erishish uchun noto'g'ri ishlash, shuningdek, davlat xizmatchilari tomonidan noqonuniy ravishda foyda olish, egallab turgan lavozim” deb hisoblaydi^[4]. Shuningdek, korrupsiya tushunchasini bu tarzda ham berish mumkin: “mansabdor shaxslar o'zlarining maqomidan yoki undan kelib chiqadigan imkoniyatlardan shaxsiy manfaat uchun boshqa shaxslar manfaati uchun noqonuniy foydalanishlari mumkin”^[4].

Korrupsiya tadqiqotchilaridan biri B.V.Voljenkin buni “davlat (shahar) xodimlari va davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli boshqa shaxslar o'zlarining xizmat mavqeyidan, obro'yidan va egallab turgan lavozim vakolatlaridan shaxsiy boyitish yoki guruh manfaatlari uchun foydalanganlarida, hokimiyatning parchalanishidan iborat ijtimoiy hodisa” deb ta'riflaydi. Masalan, N.F.Kuznetsova korrupsiyani ba'zi shaxslarga boshqalar tomonidan pora berishda ifodalangan ijtimoiy salbiy hodisa sifatida tushunadi^[5].

A.I.Dolgovaning so'zlariga ko'ra, korrupsiya “davlat va boshqa xodimlarning pora olishi va sotilishi va shu asosda ularning shaxsiy yoki tor guruhli, korporativ manfaatlarida rasmiy vakolatlardan, ular bilan bog'liq hokimiyat va imkoniyatlardan o'z manfaati uchun foydalanishi” bilan tavsiflanadi^[6].

G.K.Mishin korrupsiya “ijtimoiy boshqaruv sohasidagi hodisa bo'lib, boshqaruv subyektlarining o'z vakolatlarini shaxsiy maqsadlarda ishlatish orqali suiiste'mol qilishida namoyon bo'ladi” degan xulosaga keldi^[2].

L.D.Gauhman korrupsiyani “mansabdor shaxs tomonidan unga berilgan vakolatlardan foydalanish va undan kelib chiqadigan noqonuniy shaxsiy boyitish imkoniyatlaridan foydalanish” deb biladi va mansabdor shaxsning vakolatlari doirasida, ham undan tashqarida, lekin uning maqomi bilan bog'liq holda qo'llaniladi deb ta'riflaydi. Ikkala holatda ham, bu hokimiyat vakolatidan foydalanish bo'lib, u lavozim darajasiga qarab turli sohalarga, ba'zan cheksiz xilma-xillikka tarqalishi mumkin.

Chet el manbalarida biz korrupsiyaning quyidagi ta'rifini topishimiz mumkin: “mansabdor shaxsning rasmiy majburiyatlari va boshqa shaxslarning huquqlariga mos kelmaydigan ba'zi bir afzalliklarni berish niyatida qilingan harakat” va noqonuniy va noodatiy ravishda o'z mavqeyidan yoki maqomidan foydalanib, o'zi yoki boshqa shaxs uchun biron bir ustunlikni olish uchun foydalanadigan mansabdor shaxsning harakati bo'lsa boshqa shaxslarning majburiyatlari va huquqlariga qarama-qarshi ta'sir qiladi.

Xulosa. Korrupsiya profilaktikasi jarayonlari murakkab va xilma-xil bo'lib, ular jamiyatning barcha jabhalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy sohada korrupsiya cheklovchi vazifani bajaradi: bozor iqtisodiyoti sharoitidagi raqobat, mahsulot sifatining pasayishiga va uning qiymatining oshishiga yordam beradi va resurslarning notekis taqsimlanishini ta'minlaydi. Ijtimoiy sohada korrupsiyaning namoyon bo'lishi qonunlarning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi, shuningdek, jamoatchilik ishonchini pasaytiradi, jamiyat resurslarini tor guruhlar foydasiga qayta taqsimlanishi tufayli aholi ijtimoiy tabaqalanishining oshishiga yordam beradi.

Korrupsiya bu amaldorlarning bir martalik pora olishi yoki berishi bilan chegaralanib qolmaydigan, ayni vaqtda, uchinchi shaxslardan ularning manfaatlari uchun moddiy va boshqa imtiyozlarni muntazam ravishda olishga asoslangan tizimli hodisalar jumlasiga kiradi. Korrupsiya bu ko'pincha amaldor shaxs tomonidan o'zining manfaatlarini qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlari, sadoqatli kishilar tomonidan mavjud qonunlarni buzish orqali turfa xildagi jinoyatlar turkumiga kirishi bilan boshqa jinoyat turlaridan ajralib turadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Прошина Е.М. Гражданское образование и его роль в усилении общественного участия в процессах предотвращения коррупции. Тезисы докладов семинара. 27-28 апреля 2000.
2. Мишин Г.К. О теоретической разработке проблемы коррупции. // Коррупция: политические, экономические, организационные проблемы. М. 2001. С. 264.
3. Бинецкий А.Э. Коррупция. М. 2005. С. 36.
4. Астафьев Л.В. К вопросу о понятии коррупции // Коррупция: Состояние и проблемы: Материалы научно-практической конференции (26-27 марта 1996 г.). М.: Москов. ин-тМВД РФ, 1996. С.119.
5. Кузнецова Н.Ф. Коррупция в системе уголовных преступлений// Вестник МГУ. Сер.11. Право. 1993. № 1.С. 22
6. Криминология: Учеб. для вузов / Под редакцией Долговой А.И. М. 2001. С. 501-502
7. <http://vww.wjet.iWen/socialnye-predstavleniya-o-korrupcii.html>
8. Turdiev, B. (2024). Building A Future: The Role Of Culture In New Uzbekistan'S Ideosphere. Академические исследования в современной науке, 3(31), 171-176.
9. Sobirovich, T. B. (2021). The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 197-202.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

PRINCIPLES OF CREATING A NEW SPIRITUAL SPACE IN UZBEKISTAN AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT

Khudoykulov Shukrullo Sohibovich

Master's student of the Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. At a new stage of development in Uzbekistan, the creation of a new spiritual space is gaining importance in order to ensure the spiritual development of society. This article examines the development of a spiritual space in our country and the basic principles of its creation. The need to create a new spiritual space in Uzbekistan, its impact on each layer of society, as well as practical recommendations for further development of this process are presented.

Keywords: Development in Uzbekistan, spiritual space, spirituality, society, spiritual development, culture, education, new principles.

O'ZBEKISTONDA YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA YANGI MA'NAVIY MAKONNI YARATISH TAMOYILLARI

Xudoyqulov Shukrullo Sohibovich

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

E-mail: Shukrxudoyqulov09@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekistonda yangi taraqqiyot bosqichida, jamiyatning ma'naviy rivojlanishini ta'minlash uchun yangi ma'naviy makon yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada mamlakatimizda ma'naviy makonning rivojlanishi va uni yaratishning asosiy tamoyillari ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda yangi ma'naviy makon yaratishning zaruriyati, uning jamiyatning har bir qatlamiga ta'siri, shuningdek, bu jarayonni yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekistonda taraqqiyot, ma'naviy makon, ma'naviyat, jamiyat, ma'naviy rivojlanish, madaniyat, tarbiya, yangi tamoyillar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N30>

Kirish. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri, bu jamiyatda ma'naviy makon yaratish va uni rivojlantirishdir. Ma'naviy makon, jamiyatning ruhiy, axloqiy, estetik va madaniy qadriyatlarini o'z ichiga olgan muhitdir. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatda yangi qadriyatlar, yuksak axloqiy me'yorlar va madaniy targ'ibotni yaratishga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keldi. Bunda, xalqimizning an'anaviy ma'naviy qadriyatlari va zamonaviy tamoyillarni uyg'unlashtirish zarurati mavjud.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda ma'naviy makon yaratish masalasi, so'nggi yillarda bir nechta ilmiy va amaliy tadqiqotlarda yoritilgan. Ma'naviyatni rivojlantirish masalasi, ma'naviy qadriyatlarning zamonaviy jamiyatga integratsiyasi va ularning turli sohalarda, xususan, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy munosabatlarda ifodalanishi ko'p jihatdan tadqiq etilgan. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlarda ham ma'naviy makonning ahamiyati, uning jamiyatning

barqaror rivojlanishiga ta'siri, madaniyatni rivojlantirish va axloqiy me'yorlarni shakllantirishdagi o'rni bo'yicha qator ilmiy ishlar mavjud.

Globalashuv yaratayotgan imkoniyatlardan hozirgi kunda ma'naviy bo'shliqni to'ldirishga harakat qilayotgan siyosiy va mafkuraviy markazlar foydalanmoqdalar. Buning oqibatida insoniyat tomonidan katta ma'naviy yo'qotishlar, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotganini, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarziga xavf solayotganini alohida qayd etish lozim. Mazkur xatarlar ma'naviyatga qaratilgan tahdidlar bo'lib, Birinchi Prezidenti Islom Karimov mazkur xavflar haqida fikr yuritib, ularni quyidagicha ta'riflaydi: "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarini nazarda tutish lozim, deb o'ylayman". [1]

Ma'naviy tahdid inson erkinligiga, uni g'oyaviy qaram qilish, ruhiy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan bo'lib, u jozibali shiorlar va g'oyalar ostida yashirinadi, diniy va milliy rishtalarga bolta uradi, yoshlarning qalbini va ongini egallashga, ularning dunyoqarashiga zararli fikrlarni tiqishtiradi, oxir-oqibatda mamlakat xavfsizligiga va milliy manfaatlarga tahdid solib, jamiyatni inqiroz ko'chasiga olib keladi. Demak, mazkur xatarlar mamlakati, millati, o'zi yashab turgan jamiyatning kelajagi haqida qayg'uradigan, o'zini fuqarolik pozitsiyasiga ega, yurtga daxldorlik hissi yuksalgan har bir insonni tashvishga solishi, o'z navbatida uning oldini olish uchun o'z iqtidori va salohiyatini ishga solishni talab etadi.

Ma'naviy quolsizlantirilgan va buning oqibatida ma'naviy ildizlari zaiflashgan xalq eng oddiy xavf-xatar oldida ham ojiz bo'lib qoladi. Bugun dunyodagi katta-kichik har bir mamlakat-ona sayyoramizning duch kelgan chorrahasida o'z manfaatini qidirib, voqea-hodisalarga baho berishda, avvalo, o'z manfaatlaridan kelib chiqar ekan, yanada hushyor va ogoh bo'lishga to'g'ri keladi. Niyati xolislikdan yiroq kuchlar bugungi globalashuv zamonida o'zga bir xalq, millat ma'naviyatiga qarshi kurash boshlar ekan, bir qarashda beozor ko'rinadigan "maftunkor, jozibali" vositalardan, jumladan internet, radio va televideniye imkoniyatlaridan, chiroyli ko'rinish va manzaralarga burkalgan ko'p seriali kino mahsulotlaridan, ommaviy axborot vositalaridan g'oyatda unumli foydalanadi. Bunda asosiy kuch va imkoniyatlar yosh avlod ongi va qalbiga ta'sir o'tkazish, ularni to'g'ri yo'llardan og'dirishga qaratiladi.

O'zbekiston uchun muhim bo'lgan aspektlardan biri, milliy qadriyatlarning jamiyatda yetakchi o'rin egallashi, ular orqali yangi ma'naviy makon yaratishning imkoniyatlari va imkoniyatlarining tahlili hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar asosan ma'naviyat, ta'lim va madaniyat sohalarida amalga oshirilgan.

Bu, o'z navbatida, yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratish jarayonida eng rivojlangan jamiyatlar talabiga javob beradigan, erkin va hur fikrli, zamonaviy va innovatsion ma'naviy makonni shakllantirish zarurati nihoyatda muhim masalaga aylanayotganidan dalolat beradi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda, u — biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir. [2]" deb ta'kidlaganlar.

Bu borada "O'zbekiston-2030" strategiyasining 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlarida ham belgilangan:

- ✓ Ma'furaviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda **ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash**.
- ✓ Maktablarni chinakam **ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish** uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish.
- ✓ O'zbek xalqining **milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash**, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish. [3] nazarda tutilgan.

Yoshlarni ma'naviy kamol toptirish va faolligini oshirishda yana bir muhim yo'nalishi ular ongida milliy urf-odat va an'analarni shakllantirishdir. Ma'naviy barkamol yoshlarni o'ziga xos bo'lgan milliy urf-odatlar xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosiqlik, ulug'vorlik, sabrlilik kabi ma'naviy fazilatlar, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, bolajonlik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat an'analarda qaror topadi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Asrlar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo'lib hisoblanadi.

Ma'naviy mezonlar kecha yoki bugun o'ylab topilgan emas. Ular insoniyatning ming yillik tarixi ota-bobolarimizning necha-necha avlodlari tajribasi davomida yuzaga kelgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singib kelgan. Bu ajdodlarimizning boy ma'naviy-ma'rifiy merosida o'z ifodasini topgan. Jumladan, A.Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida ma'naviyatni rivojlantirish masalalari, xususan, insonparvarlik, adolat, komillikka erishish g'oyalarini ilgari surib: "Sadoqat gulshani salomat, bo'stoni najotdur. ...Sadoqat bir fayzi ma'naviydurki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasidir, Adolat esa yaxshi xulqlarning foili, zulmning muqobilidir. Har bir millatning taraqqiy va taoliysi (yuksaklik, ko'tarilish), davlat va hukumatlarning uzun yashamog'i adolatga bog'liqdur" [4] deb ta'kidlagan.

O'zbekistonda ma'naviy makon yaratish bo'yicha adabiyotlar milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, yoshlarni ushbu qadriyatlar asosida tarbiyalash, shuningdek, ushbu tamoyillar asosida zamonaviy ma'naviy makon yaratishni ta'minlashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ma'naviy rivojlanishning jamiyatni global chaqiriqlarga qarshi turishga, uning madaniy kimligini saqlashga va barqaror rivojlanishni ta'minlashga katta rol o'ynashi aniq ko'rinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot sifatida analitik metod, taqqoslash, va kontent tahlili metodlari qo'llaniladi. Tadqiqotda O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy va madaniy xususiyatlari hisobga olinadi, shuningdek, milliy va global miqyosda mavjud ma'naviy makon yaratish tamoyillari o'rganiladi. Tahlilning asosiy maqsadi, jamiyatda ma'naviyatni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni aniqlash va ularning samaradorligini baholashdan iboratdir.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida O'zbekistonda ma'naviy makon yaratishning zamonaviy tamoyillari tahlil qilindi. Yangi tamoyillar orasida milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish, yoshlar ta'limini ma'naviy-axloqiy jihatdan mustahkamlash,

va jamiyatda integratsiyalangan madaniyatni rivojlantirishning muhimligi ta'kidlandi. O'zbekistonning rivojlanishiga hissa qo'shgan zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar, an'anaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda, yangi ma'naviy makonni yaratishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotda, yoshlarni ma'naviy tarbiya qilishning zamonaviy yondashuvlari, o'qitish va ta'lim tizimining yangi metodologiyalari tahlil qilindi. Ta'lim tizimining interaktiv usullari va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi. O'qituvchilar va ta'lim muassasalarining yoshlarni ma'naviyatli va etika mezonlariga asoslangan holda tarbiyalashdagi roli ham ko'rib chiqildi. Bu borada, davlat siyosati va milliy qadriyatlar yoshlarning ongida chuqur o'rnashishi zarurati ta'kidlangan. Tadqiqotda globallashuv jarayonining O'zbekistonning ma'naviy makoniga ta'siri ham tahlil etildi. Global miqyosda rivojlanayotgan g'oyalar va mafkuralar, milliy ma'naviyatga tahdid solishi mumkinligi qayd etildi. Ma'naviy makonning shakllanishida milliy qadriyatlar va zamonaviy dunyoqarashning uyg'unlashuvi muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, global va mahalliy miqyosda ma'naviyatni rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan yondashuvlar zarurligi ta'kidlandi. Tadqiqotda ma'naviy tahdidlar masalasi ham yoritildi. Bugungi globallashuv davrida, turli mafkuraviy va ideologik tahdidlarga qarshi kurashishning ahamiyati oshgan. Bu jarayonni oldini olishda milliy g'oyaning mustahkamlanishi, yoshlarning milliy ma'naviyatga bo'lgan hurmatini oshirish va ta'lim tizimining ma'naviy tarbiya berishdagi roli o'rganildi.

Tadqiqotda O'zbekistonning jamiyatida yangi ma'naviy makon yaratishning asosiy imkoniyatlari tahlil qilindi. Bu yerda milliy qadriyatlar, yangi ijtimoiy va siyosiy tamoyillar, yoshlar bilan ishlash strategiyalari va ta'lim tizimi muhim omillar sifatida keltirildi. Yangi ma'naviy makon yaratishning asosiy qadamlaridan biri, madaniyat va axloqiy me'yorlar asosida yoshlarni shakllantirish, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatini rivojlantirishdir.

Tadqiqotda O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyoti va rivojlanishidagi yangi yo'nalishlar, davlat siyosatining yangilanishi, yangi ma'naviy makon yaratishdagi imkoniyatlar va takliflar ko'rib chiqildi. O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan strategik maqsadlari doirasida ta'lim va madaniyat sohalaridagi o'zgarishlar, yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish va milliy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan strategiyalar muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda yangi ma'naviy makon yaratish jarayoni zamonaviy tamoyillarga asoslangan holda rivojlanmoqda. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish, yoshlar ta'limini ma'naviy-axloqiy jihatdan mustahkamlash va ijtimoiy madaniyatni rivojlantirish kerak. Shuningdek, globallashuv jarayonlari ta'siridan saqlanish uchun ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish va milliy g'oyani mustahkamlash zarurati dolzarb hisoblanadi.

Yangi ma'naviy makon yaratish jarayonida, ta'lim tizimi, madaniyat va jamiyatning barcha qatlamlari faol ishtirok etishi lozim. Shuningdek, davlat siyosati va amaliy chora-tadbirlar bu jarayonni yanada rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda yangi taraqqiyot bosqichida, ma'naviy makonning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ma'naviy makon faqatgina madaniy va axloqiy qadriyatlarni o'z ichiga olmay, balki yangi innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy ta'lim usullarini ham qamrab oladi.

Yangi ma'naviy makon yaratishning asosiy tamoyillari orasida milliy qadriyatlarning saqlanishi, xalqning an'anaviy madaniyatiga asoslanish, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni

integratsiya qilish kabilar mavjud. Shuningdek, ma'naviyatni rivojlantirishda yoshlar va ta'lim tizimining o'rni muhim ahamiyatga ega.

Jahonda ma'naviy makon yaratish borasida amalga oshirilgan muvaffaqiyatli tajribalar, O'zbekistonda ham o'zgarishlar yaratishga yordam beradi. Yevropa, Osiyo va boshqa mamlakatlardagi tajribalar o'rganilib, ularning O'zbekistondagi sharoitga moslashuvi tahlil qilindi.

Xulosa. O'zbekistonda yangi ma'naviy makon yaratish, mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Yangi tamoyillar asosida, ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolgan holda, jamiyatda yuksak axloqiy me'yorlar va innovatsion fikrlash tarzini rivojlantirish mumkin. Ma'naviy makon yaratishning asosiy tamoyillari, xalqimizning madaniy merosini hurmat qilish, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan bilan uyg'unlashuvni ta'minlashdir. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat siyosati, ta'lim tizimi va jamiyatning har bir a'zosining faol ishtiroki zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б 112.
2. Шавкат Мирзиёев ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. - Тошкент "O'zbekiston" нашриёти, 2021. 464 бет.
3. «O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida»gi 2023 yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
4. Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ;. -Т.: У^итувчи, 1992 йил, 38-бет.Х. Ҳ. Karimov, "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi: Ma'naviyat va madaniyat", Toshkent, 2023.
5. A. Erkayev. Ma'naviyat — millat nishoni. – Toshkent, "Ma'naviyat", 1997. – B. 149
6. A. J. Baxramov, "Yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatni rivojlantirish", Tashkent, 2022.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF MORAL-MORAL CHOICE AND ITS PHILOSOPHICAL ESSENCE

Ibrogimova Gulbahor Eshmamatovna

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
Teacher of the Department of "Social and Humanities"

Abstract. This article analyzes the concept of spiritual and moral choice and its place in human life from a philosophical perspective. Spiritual and moral choice is interpreted as a process of conscious decision-making by a person based on his conscience, beliefs, values, and social responsibility. The author illuminates the philosophical essence of choice through the dialectic of freedom and responsibility and draws attention to the inner world of a person, his spiritual purity, and the need to act wisely. Based on the views of Eastern thinkers - Al-Farabi, Ibn Sina, and Alisher Navoi, it is argued that the true perfection of a person is realized on the basis of conscience and justice. The article reveals the role of spiritual choice in the development of society, its role as a practical expression of the moral growth of the individual, and human freedom.

Keywords: spirituality, morality, choice, freedom, responsibility, philosophy, conscience, values, human perfection.

MA'NAVIY-AXLOQIY TANLOV TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY MOHIYATI

Ibrogimova Gulbaxor Eshmamatovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: gulbahoribragimova96@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'naviy-axloqiy tanlov tushunchasi va uning inson hayotidagi o'rni falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ma'naviy-axloqiy tanlov insonning vijdon, e'tiqod, qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyat asosida ongli ravishda qaror qabul qilish jarayoni sifatida talqin etiladi. Muallif tanlovning falsafiy mohiyatini erkinlik va javobgarlik dialektikasi orqali yoritadi hamda insonning ichki dunyosi, ma'naviy pokligi va aql bilan harakat qilish zaruriyatiga e'tibor qaratadi. Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino va Alisher Navoiylarning qarashlari asosida insonning haqiqiy kamoloti vijdon va adolat mezonida amalga oshishi asoslab beriladi. Maqolada ma'naviy tanlovning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, shaxsning axloqiy o'sishi hamda inson erkinligining amaliy ifodasi sifatidagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, axloq, tanlov, erkinlik, javobgarlik, falsafa, vijdon, qadriyat, inson kamoloti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N31>

Kirish. Har bir jamiyatning taraqqiyoti, uning ma'naviy yuksalishi va axloqiy barqarorligi avvalo insonning ichki dunyosi, e'tiqodi va qadriyatlariga bog'liqdir. Insonning ongli faoliyati, hayotiy pozitsiyasi hamda ijtimoiy munosabatlardagi o'rni uning ma'naviy-axloqiy qarashlari orqali belgilanadi. Shuning uchun ham inson hayotidagi eng muhim masalalardan biri — bu ma'naviy-axloqiy tanlov, ya'ni har bir qaror, harakat va niyatda yaxshilik va yomonlik o'rtasida ongli ravishda tanlov qilishdir.

Bugungi globallashuv jarayonida insoniyat ko'plab ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy sinovlarga duch kelmoqda. Axborot oqimining tezligi, turli g'oyaviy ta'sirlar, materialistik qadriyatlarning kuchayishi shaxsning ichki dunyosiga, ma'naviy immunitetiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sharoitda insondan nafaqat bilim, balki yuksak ma'naviyat, mustahkam e'tiqod va axloqiy barqarorlik talab etiladi. Chunki haqiqiy inson erkinligi faqat moddiy tanlovda emas, balki ma'naviy-axloqiy mas'uliyatni anglashda namoyon bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy tanlov insonning ichki ruhiy kechinmalari, vijdoni, aqli va e'tiqodi o'rtasida kechadigan murakkab jarayondir. Bu jarayonda shaxs nafaqat o'z manfaatini, balki jamiyat va insoniyat manfaatini ham hisobga oladi. Tanlovning to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi insonning ma'naviy yetukligiga, hayotiy tajribasiga va qadriyatlar tizimiga bog'liq. Shu bois, bu masalani falsafiy jihatdan o'rganish inson mohiyatini, uning erkinligi, vijdoni va mas'uliyatini chuqur tahlil etish imkonini beradi.

Falsafiy nuqtai nazardan, ma'naviy tanlov insonning o'z hayotini ongli ravishda boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Bu tanlov orqali shaxs o'z "men"ini anglaydi, o'z hayotining ma'nosini topadi hamda jamiyatdagi o'rnini belgilaydi. Demak, ma'naviy-axloqiy tanlov nafaqat shaxsiy qaror, balki insoniyatning ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shuvchi jarayon sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu mavzuni o'rganish zamonaviy falsafa va ma'naviyatshunoslikda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Ma'naviy-axloqiy tanlov — bu insonning o'z ichki dunyosi, vijdoni, e'tiqodi va ijtimoiy qadriyatlariga asoslanib, yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, halollik va xiyonat o'rtasida ongli ravishda qaror qabul qilish jarayonidir. Bu tanlov shaxsning ma'naviy yetukligi, axloqiy mas'uliyati va hayotiy tajribasining ifodasidir. Inson o'z tanlovini qilarkan, u nafaqat o'z manfaatini, balki jamiyat, oila va butun insoniyat oldidagi mas'uliyatini ham hisobga olishi zarur. Shu bois, ma'naviy tanlov inson erkinligi va javobgarligi o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ifodalaydi.

Falsafiy jihatdan qaraganda, insonning har bir tanlovi uning ruhiy kamolot bosqichini belgilaydi. Tanlov jarayonida inson o'z mohiyatini namoyon etadi, ichki "men"ini anglaydi va shaxs sifatida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, ma'naviy tanlov — bu shaxsning o'z hayotini ongli ravishda boshqarish, vijdon va aql asosida harakat qilish qobiliyatidir. Falsafaning asosiy maqsadlaridan biri ham insonni ana shu ongli tanlovga, mas'uliyatli hayot tarziga yo'naltirishdan iboratdir.

Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy kabi allomalar inson tanlovining ma'naviy asoslarini chuqur tahlil qilganlar. Forobiy "Fozil shahar aholisining fikrlari haqida" asarida insonni aql, vijdon va adolatga tayangan holda yashashga chaqirgan. Uning fikricha, "fozil inson" o'z tanlovini faqat foyda yoki shon-shuhrat uchun emas, balki jamiyat farovonligi uchun qiladi. Ibn Sino esa inson erkinligini aql bilan bog'laydi, ya'ni haqiqiy erkinlik — bu insonning o'z nafsini jilovlay olishi, yaxshilikni tanlash qobiliyatidir.

Alisher Navoiy esa ma'naviy tanlovni inson kamolotining markaziga qo'yadi. "Mahbub ul-qulub" asarida u insonni halollik, sabr-toqat, vafodorlik va adolat kabi fazilatlar orqali hayotda to'g'ri yo'lni tanlashga da'vat etadi. Shu jihatdan, ma'naviy tanlov insonni komillikka, poklikka va ezgulikka yetaklaydigan kuch sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy falsafada ham ma'naviy tanlov inson shaxsiyatini shakllantiruvchi, uni ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishga undovchi jarayon sifatida qoraladi. Inson o'z

tanlovini har kuni — soʻzida, ishida, munosabatida amalga oshiradi. U har bir holatda maʼnaviy qadriyatlarni ustun qoʻysa, bu uning axloqiy kamolotini namoyon etadi. Ammo agar inson moddiy manfaat, shaxsiy foyda yoki nafsga berilsa, bu uning ruhiy inqiroziga, jamiyatda beqarorlikka sabab boʻladi.

Shu sababli, maʼnaviy-axloqiy tanlov shunchaki individual jarayon emas, balki ijtimoiy-maʼnaviy ahamiyatga ega boʻlgan murakkab hodisadir. U insonni jamiyatning bir qismi sifatida masʼuliyatli, adolatli va halol hayot kechirishga undaydi. Har bir inson oʻz tanlovini qilarkan, u aslida kelajak avlodlar hayotiga ham taʼsir koʻrsatadi. Chunki insoniyatning maʼnaviy darajasi har bir shaxsning axloqiy tanlovlariga tayanadi. Demak, maʼnaviy-axloqiy tanlov inson hayotining markaziy gʻoyasi boʻlib, u insonning erkinlik, vijdon va masʼuliyat tamoyillari asosida yashash qobiliyatini belgilaydi. U orqali inson nafaqat oʻz taqdirini, balki jamiyatning maʼnaviy kelajagini ham shakllantiradi.

Muhokama va natijalar. Oʻtkazilgan falsafiy tahlillar shuni koʻrsatadiki, maʼnaviy-axloqiy tanlov inson hayotining eng muhim ruhiy jarayonlaridan biridir. U shaxsning ichki dunyosini shakllantiradi, uning axloqiy qarashlari, qadriyatlari va jamiyatdagi oʻrnini belgilaydi. Har bir inson hayotida tanlov doimiy ravishda sodir boʻladi — har bir soʻz, harakat yoki qaror aslida maʼnaviy-axloqiy bahoga ega. Shu bois tanlov jarayonini ongli, masʼuliyatli va vijdonli tarzda amalga oshirish insonning komillikka eltuvchi yoʻlidir.

Maʼnaviy tanlovning mohiyati shundaki, u erkinlik va masʼuliyat oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlaydi. Inson erkindir, biroq bu erkinlik unga oʻz xatti-harakatlari uchun javobgarlikni ham yuklaydi. Falsafiy jihatdan bu holat insonning “axloqiy subyekt” sifatida kamol topishini bildiradi. Agar inson oʻz tanlovini faqat hissiyot, naf yoki manfaat asosida qilsa, bu uning maʼnaviy zaifligidan dalolat beradi. Ammo u vijdon, aql va adolatga tayanib tanlov qilsa, bu uning yetuklik va maʼnaviy mustaqilligini koʻrsatadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, bugungi globallashuv davrida maʼnaviy-axloqiy tanlov masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Yoshlar ongiga turli gʻoyaviy oqimlar, isteʼmolchilik va individualizm taʼsir etayotgan bir paytda, ularda mustahkam maʼnaviy immunitetni shakllantirish muhimdir. Bu esa taʼlim, tarbiya, oila va ijtimoiy muhit orqali amalga oshiriladi. Insonda mustaqil fikrlash, vijdoniy qaror qabul qilish, ijobiy qadriyatlarni tanlash koʻnikmalarini rivojlantirish jamiyatning maʼnaviy barqarorligini taʼminlaydi.

Maʼnaviy-axloqiy tanlov insoniyatning axloqiy taraqqiyotida hal qiluvchi omil boʻlib xizmat qiladi. U insonning oʻz “men”ini anglashiga, ijtimoiy hayotda faol va masʼuliyatli pozitsiya egallashiga yordam beradi. Shaxsning har bir tanlovi — bu nafaqat individual qaror, balki jamiyatning maʼnaviy darajasini belgilovchi koʻrsatkichdir. Shu bois, har bir inson oʻz tanlovini vijdon, halollik, adolat va insonparvarlik tamoyillari asosida amalga oshirishi kerak.

Xulosa. Maʼnaviy-axloqiy tanlov inson hayotining ajralmas qismi boʻlib, uning maʼnaviy olamini, hayotiy yoʻlini va jamiyatdagi oʻrnini belgilaydi. Inson har bir vaziyatda tanlov qiladi — yaxshilik yoki yomonlik, adolat yoki adolatsizlik, halollik yoki xiyonat oʻrtasida. Ushbu tanlov shaxsning vijdoni, eʼtiqodi, aqli va hayotiy qadriyatlari bilan uzviy bogʻliqdir. Falsafiy jihatdan qaralganda, maʼnaviy tanlov erkinlik va masʼuliyatning uygʻunligini ifodalaydi. Inson oʻz qarorlarini mustaqil ravishda qabul qilish huquqiga ega, biroq ularning oqibatlari uchun ham javobgar boʻladi. Bu holat insonning haqiqiy erkinligi — yaʼni ongli va masʼuliyatli yashash qobiliyatini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-axloqiy tanlov — bu insonni inson qiluvchi, uni jamiyatda qadrlanadigan shaxs darajasiga ko'taruvchi kuchdir. U orqali inson o'zini anglaydi, hayotining ma'nosini topadi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Shu sababli, har bir inson o'z tanlovini vijdon, aql va adolat mezonlariga asoslab amalga oshirishi zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Forobiy A. Fozil shahar aholisining fikrlari haqida. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 1993. – B. 45–62.
2. Ibn Sino. Axloq ilmi haqida risolalar. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 73–88.
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 120–138.
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 15–27, 92–101.
5. G'ofurov B. Axloq falsafasi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 56–70.
6. Rahmonov M. Inson va ma'naviyat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. – B. 34–49.
7. Naqshband B. Tariqat va ma'naviyat haqidagi hikmatlar to'plami. – Buxoro: Navoiy universiteti nashriyoti, 2017. – B. 20–29.
8. To'xtayev N. Falsafa asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B. 102–118.
9. Xolmurodov D. Axloq va ma'naviyat: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Sharq, 2021. – B. 64–79.
10. G'arb mutafakkirlari antologiyasi: Etika va falsafa masalalari bo'yicha tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 51–66.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 10 October 2025**Accepted:** 25 October 2025**Published:** 2 November 2025*Article / Original Paper***LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS OF DEICTIC UNITS BASED ON TRANSLATION SAMPLES OF RELIGIOUS TEXTS FROM GERMAN LANGUAGE INTO UZBEK LANGUAGE****Abdurakhmonova Ra'no Kasimovna,**

Independent Researcher (DSc)

Namangan State Institute of Foreign Languages

Abstract. This article analyzes the linguo-pragmatic features of deictic expressions based on the translations of German religious texts into Uzbek. Typological differences between the German and Uzbek languages, as well as the semantic and cultural connotations of religious texts, often create certain challenges in the translation process. Therefore, the study focuses on the translator's pragmatic competence, the correct understanding of intercultural context, and the equivalent rendering of deictic units through semantic correspondence. Within a linguo-pragmatic framework, the paper explores the functional and semantic role of deixis and examines how contextual factors influence the translation process. The findings of the research have practical significance for translation studies, religious discourse analysis, and linguo-pragmatics, contributing to the development of intercultural competence in foreign language education.

Keywords: deixis, linguo-pragmatics, religious texts, translation, personal deixis, spatial and temporal deixis, intercultural communication, equivalence.

NEMIS TILIDAGI DINIY MATNLARNING O'ZBEK TILIGA QILINGAN TARJIMA NAMUNALARI ASOSIDA DEIKTIK BIRLIKLARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI**Abduraxmonova Ra'no Kosimovna**

Namangan davlat chet tillar instituti

mustaqil izlanuvchisi (DSc)

E-mail: r.abdurakhmonova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tilidagi diniy matnlarning o'zbek tiliga qilingan tarjimalari asosida deiktik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Nemis va o'zbek tillari o'rtasidagi tipologik farqlar, diniy matnlardagi semantik va madaniy konnotatsiyalar tarjima jarayonida ma'lum muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli maqolada tarjimonning pragmatik kompetensiyasi, madaniyatlararo kontekstni to'g'ri anglash va deiktik birliklarni ma'nodoshlik asosida ekvivalent tarzda ifodalash masalalari alohida yoritilgan. Maqolada lingvopragmatik yondashuv asosida deiksisning funksional-semantik roli yoritilib, tarjima jarayonida kontekstual omillarning ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, diniy diskurs tahlili va lingvopragmatika sohalarida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, chet tillarini o'qitishda ham interkultural kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: deiksis, lingvopragmatika, diniy matnlar, tarjima, shaxsiy deiksis, joy va vaqt deiksis, interkultural kommunikatsiya, ekvivalentlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N32>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida so'nggi yillarda chet tillarni o'rganish va tarjimashunoslik sohasini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qaror — *“Xorijiy tillarni o'rganish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”* [1] hamda 2023-yil may oyidagi PQ-187-sonli qaror — *“Tarjimashunoslik va lingvistik tadqiqotlarni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”* [2] kabi hujjatlar ushbu sohaning huquqiy asosini mustahkamladi. Mazkur qarorlar tarjimonlardan yuqori til kompetensiyasi bilan bir qatorda pragmatik tafakkur va madaniyatlararo savodxonlikni ham talab etadi.

Nemis diniy matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni o'ziga xos tilshunoslik va madaniy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki nemis tili fleksiv tizimga ega bo'lib, ma'no ifodasida grammatik shakllarga tayanadi, o'zbek tili esa agglutinativ tizimga asoslanib, ko'proq kontekst va pragmatik omillarga suyanadi. Bu esa tarjimonni faqat so'zma-so'z emas, balki kontekst asosida ma'no yaratishga undaydi. Deiktik birliklar — ya'ni shaxs, joy va vaqtga ishora qiluvchi birliklar — diniy matnlarning semantik va kommunikativ tuzilmasida markaziy o'rin tutadi. Masalan, Injil, Zabur yoki nemis protestant adabiyotlarida “Men”, “Sen”, “Bu yerda”, “Hozir” kabi birliklar faqat grammatik vazifa emas, balki ruhiy yaqinlik va ilohiy murojaat ifodasi sifatida qo'llanadi. Shu bois ularni o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilishda madaniy konnotatsiyalar, ruhiy mazmun, va diniy kontekstni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot aynan shunday masalalarga e'tibor qaratadi — ya'ni nemis diniy matnlaridagi deiktik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari, ularning o'zbek tiliga tarjima jarayonidagi semantik o'zgarishlari, va kontekstual ekvivalentlik darajasi tahlil qilinadi. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, u tarjima jarayonini nafaqat lingvistik, balki pragmatik, madaniy va kommunikativ omillar bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, lingvopragmatika va diniy diskurs sohalarida amaliy ahamiyat kasb etadi hamda chet tillarini o'qitishda interkultural kompetensiyani rivojlantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Nemis diniy adabiyotining eng muhim manbalaridan biri — Martin Lyuter tomonidan XVI asrda yaratilgan nemis tilidagi Injil tarjimasidir. Lyuter Injilni lotin tilidan xalq tiliga o'girish orqali diniy matnlarni ommaga yaqinlashtirdi. Uning tarjimasida deiktik birliklar, ya'ni shaxs, joy va vaqtga oid ishoralar matnning ma'naviy mazmunini chuqurroq ochishga xizmat qilgan. Masalan, Lyuter tarjimasidagi quyidagi jumlagacha e'tibor beramiz: „Ich bin bei euch alle Tage bis an der Welt Ende.“ (Bizning oramizda bo'laman, dunyo oxirigacha.)[3]

Bu yerda “Ich” (men) – shaxsiy deiksis, “bei euch” (sizlarning orangizda) – joy deiksisi, “alle Tage” (har kuni) esa vaqt deiksisidir. Mazkur ibora orqali xudo bilan inson o'rtasidagi ruhiy yaqinlik, abadiy hamroh bo'lish g'oyasi ifodalanadi.

O'zbek tiliga bu jumla quyidagicha tarjima qilinadi:

“Men sizlar bilanman, dunyo oxirigacha.”

Tarjimon bu yerda grammatik tuzilmani soddalashtirgan, biroq deiktik mazmunni saqlab qolgan. “Men” shaxs olmoshi orqali ilohiy subyektning mavjudligi, “sizlar bilanman” orqali esa ishonch va ruhiy bog'liqlik ifodalanagan. Nemis tilidagi “bei euch” birikmasining o'zbek tilidagi “sizlar bilanman” shaklida ifodalanishi — madaniy ekvivalentlikning muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi.

Lingvopragmatik nuqtai nazardan, bu tarjima o'quvchida Xudo bilan yaqinlik va tinchlik hissini uyg'otadi. Demak, tarjimada deiktik birliklarning semantik va emotsional kuchi saqlanib qolgan. Shuningdek, Lyuter tarjimasidagi bu kabi birliklar orqali diniy diskursda subyektiv va kollektiv "men" munosabatlari shakllantirilganini kuzatish mumkin.

Nemis romantizmi davrida yozilgan Fridrix Shleyermaxerning ushbu asari diniy-falsafiy nutq shaklida yaratilgan bo'lib, unda xudo, inson va jamiyat o'rtasidagi muloqot markaziy mavzudir. Asar tilida ko'plab subyektiv va ijtimoiy deiktik birliklar uchraydi, ular muallifning auditoriyaga murojaatini, ya'ni interaktiv kommunikatsiyani ta'minlaydi[4].

Masalan, quyidagi misolga e'tibor beramiz:

"Du, mein Freund, der du glaubst, die Religion sei nur eine leere Form – höre mich an!"

(Sen, mening do'stim, sen o'ylaysan, din faqat bo'sh shakldir — meni tingla!)

Bu jumlada "Du" (sen) — shaxsiy deiksis, "mein Freund" (mening do'stim) — emotiv va ijtimoiy deiksis, "mich" (meni) esa nutq yo'nalishini belgilovchi kommunikativ markaz hisoblanadi. O'zbek tiliga bu jumla quyidagicha tarjima qilinadi:

"Sen, mening do'stim, dinni faqat tashqi shakl deb o'ylaysan — meni tingla!"

Tarjimada shaxs olmoshlari to'liq ekvivalent tarzda saqlangan, bu esa muallifning hissiy ohangini o'zbek o'quvchisiga yetkazadi. Deiktik birliklarning bu shaklda tarjima qilinishi natijasida matnda muallif va o'quvchi o'rtasidagi psixologik aloqa mustahkamlanadi.

Lingvopragmatik nuqtai nazardan, Shleyermaxer "Du" olmoshi orqali o'quvchini bevosita suhbatga jalb qiladi, "ichki dialog" yaratadi va diniy mavzuni falsafiy muloqot shakliga aylantiradi. O'zbek tarjimasida bu jarayon "sen" olmoshi orqali muvaffaqiyatli ifodalangan. Bunda tarjimon nafaqat grammatik, balki madaniy kontekstni ham to'liq hisobga olgan. Shunday qilib, Shleyermaxer matnidagi deiktik birliklar ruhiy muloqot, e'tiqod va tafakkur birligini aks ettiradi. Ularning o'zbek tiliga ekvivalent tarzda tarjima qilinishi esa pragmatik moslik va semantik aniqlikni ta'minlagan.

Har ikkala asar tahlili shuni ko'rsatadiki, nemis diniy matnlarida deiktik birliklar faqat tilshunoslik unsuri emas, balki diniy kommunikatsiyaning ruhiy ko'prigi sifatida xizmat qiladi. Ular orqali muallif Xudo, inson va jamiyat o'rtasidagi subyektiv munosabatni ifodalaydi. O'zbek tiliga tarjima jarayonida esa bu birliklar semantik yaqinlik, pragmatik ekvivalentlik va madaniy moslashuv asosida qayta shakllantiriladi. Bu esa tarjimonning pragmatik kompetensiyasi va interkultural tafakkurini namoyon etadi. Shu bois deiktik birliklarning lingvopragmatik tahlili diniy matnlarni chuqurroq tushunish, ularni o'zbek tilida tabiiy, madaniy va ruhiy jihatdan to'g'ri aks ettirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar va takliflar. Nemis diniy matnlarida deiktik birliklarning ishlatilishi asosan uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: shaxsiy deiksis, joy (makon) deiksisi, va vaqt deiksisi. Ushbu birliklar diniy diskursda nafaqat referensial ma'no ifodalaydi, balki emotiv, pragmatik va kontekstual yuklamani ham o'z ichiga oladi. Tarjima jarayonida ularning to'g'ri ifodalanishi diniy matnning semantik yaxlitligi va ilohiy ruhiyatini saqlab qolish uchun muhimdir.

Diniy matnlarda "Men", "Sen", "U" kabi shaxs olmoshlari nafaqat grammatik vazifani, balki ruhiy muloqotning manba va qabul qiluvchisini belgilaydi. Bu holat xususan *Injilning nemischa tarjimalarida* yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, "Matto 28:20" da quyidagi jumla mavjud: „Ich bin bei euch alle Tage bis an der Welt Ende.“[5] (Men sizlar bilanman, dunyo oxirigacha.)

Bu yerda “Ich” – Xudo yoki Iso Masihning o‘z shaxsi bilan murojaat qilayotganini bildiradi. “Bei euch” esa “sizlar bilan” degan ma’noda jamoaga, ya’ni mo‘minlarga nisbatan qo‘llanadi.

O‘zbek tarjimasida bu quyidagicha ifodalangan:

“Men sizlar bilanman, dunyo oxirigacha.”

Tarjimada shaxs olmoshlari to‘liq ekvivalent tarzda saqlangan. Biroq o‘zbek tilida bu ibora ko‘proq ruhiy ishonch, e’tiqod va taskin hissini uyg‘otadi. Bu holat lingvopragmatik nuqtai nazardan, madaniy konnotatsiya va pragmatik moslashuv natijasidir.

Nemis tilidagi “Ich bin bei euch” tuzilmasida joy deiksisi (“bei”) ilohiy mavjudlikni yaqinlik shaklida ifodalaydi, o‘zbek tarjimasida esa “bilanman” so‘zi birlik va sadoqat ma’nosini kuchaytiradi. Bu misolda grammatik jihatdan bir xil birliklar qo‘llangan bo‘lsa-da, pragmatik jihatdan ularning ma’nosi madaniy idrok orqali kengaygan.

Nemis diniy matnlarida joyga oid deiktik birliklar (“hier” – bu yerda, “dort” – u yerda, “oben” – yuqorida, “unten” – pastda) nafaqat fazoviy joylashuvni, balki ma’naviy holatni ham bildiradi. Masalan, *Zabur (Psalmen)* da quyidagi ifoda mavjud: „Der Herr ist hier.“ [6] (Rabbim shu yerda.) Bu ibora o‘zbek tiliga: “Parvardigor shu yerda.” deb tarjima qilingan.

Bu joy deiksisida “hier” (“bu yerda”) grammatik jihatdan joyni bildirsa-da, diniy kontekstdagi mazmuni ilohiy yaqinlik, ruhiy huzur va mavjudlikni anglatadi. O‘zbek tarjimasida esa “shu yerda” birikmasi faqat joyni emas, balki Allohning har doim inson bilan birga ekanligini ham ifodalaydi. Bu tarjimada lingvopragmatik ekvivalentlik yuqori darajada ta’minlangan, chunki tarjimon semantik ma’nodan tashqari konnotativ (ruhiy) ma’noni ham uzatgan.

Vaqt deiksisi diniy matnlarda ilohiy abadiylik tushunchasini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Nemis diniy matnlarida “heute” (bugun), “morgen” (ertaga), “immer” (doimo) kabi birliklar metaforik ma’noda ishlatiladi.

Masalan, *Yuhanno 8:12* da shunday deyiladi: „Ich bin das Licht der Welt. Wer mir nachfolgt, wird nicht in der Finsternis wandeln, sondern wird das Licht des Lebens haben.“ [7] (Men dunyoning nuriman. Kim Menga ergashsa, u zulmatda yurmaydi, balki hayot nuriga ega bo‘ladi.) Bu ibora o‘zbek tarjimasida:

“Men dunyoning nuriman. Kim Menga ergashsa, u zulmatda yurmaydi, balki hayot nurini topadi.” Bu yerda “bin” (hozirgi zamon fe’li) vaqt deiksisini bildiradi — Xudo abadiy mavjud, ya’ni “hozir ham, o‘tgan va kelajakda ham nur manbai”. O‘zbek tarjimasida “men ...man” tuzilmasi orqali bu abadiy zamon tushunchasi saqlangan. Demak, vaqt deiksisi tarjimada grammatik jihatdan o‘zgarmagan, lekin semantik va diniy konnotatsiya boyitilgan. Bu esa tarjimonning pragmatik kompetensiyasini namoyon etadi.

ridrix Shleyermaxer o‘zining “*Über die Religion*” asarida deiktik birliklardan dialogik muloqot vositasi sifatida foydalanadi. Uning matnlarida “Du”, “Ihr”, “Wir” kabi birliklar o‘quvchini bevosita suhbatga tortadi, ya’ni nutqni interaktiv shaklga keltiradi.

Misol: „Du, mein Freund, der du glaubst, die Religion sei nur eine leere Form – höre mich an!“ (Sen, mening do‘stim, dinni faqat tashqi shakl deb o‘ylaysan — meni tingla!) O‘zbek tarjimasida:

“Sen, do‘stim, dinni bo‘sh shakl deb o‘ylaysan — meni tingla!”

Bu yerda shaxs deiksisi (“sen”) orqali muallif bevosita murojaat shaklini yaratadi. Deiktik birlikning bu qo‘llanilishi lingvopragmatik ta’sir kuchini oshiradi — o‘quvchi matnga

shaxsan jalb qilinadi. Bunday birliklar tarjimada muloqot uslubini saqlab qolish orqali diniy-falsafiy mazmunni yanada tabiiy ifodalashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nemis diniy matnlaridagi deiktik birliklar ma'no, kontekst, va madaniy tafakkur jihatidan o'zbek tiliga o'girilganda ma'lum darajada transformatsiyaga uchraydi. Biroq bu o'zgarishlar semantik yo'qotish emas, balki pragmatik moslashuv natijasidir.

O'zbek tarjimonlari deiksisni faqat grammatik birlik sifatida emas, balki kontekstual ma'no yuklovchi kommunikativ ko'rsatkich sifatida talqin qilganlari bois, diniy mazmun tabiiy va tushunarli tarzda yetkazilgan.

Bu holat shuni ko'rsatadiki, lingvopragmatik yondashuv diniy matn tarjimasida muhim ahamiyat kasb etadi — u so'zning faqat lug'aviy emas, balki ruhiy, ijtimoiy va madaniy ma'nosini ham ochishga imkon beradi.

Xulosa. Nemis diniy matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida deiktik birliklarning to'g'ri talqini va lingvopragmatik funksiyalarini saqlab qolish tarjimaning semantik va madaniy aniqligini ta'minlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, diniy diskursda ishlatilgan shaxs, joy va vaqt deiksislari nafaqat til birliklari, balki ilohiy muloqotning kommunikativ vositasi sifatida xizmat qiladi.

Nemis tilidagi diniy matnlarda (masalan, *Die Bibel* va *F. Schleiermacher* asarlarida) deiktik birliklar yordamida Xudo va inson o'rtasidagi ruhiy masofa qisqartiriladi, ularning o'zaro aloqasi dialogik shaklga keltiriladi. O'zbek tarjimasida esa ushbu birliklar madaniy va diniy konnotatsiyalar hisobga olingan holda tabiiy tarzda moslashtirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

1. Shaxs deiksislari ("Men", "Sen", "U") tarjimada identifikatsiya va iymon ifodasi vositasi sifatida ishlaydi.
2. Joy deiksislari ("bu yerda", "u yerda") ilohiy mavjudlik va yaqinlikni anglatuvchi pragmatik ko'rsatkichga ega.
3. Vaqt deiksislari ("doimo", "bugun", "ertaga") abadiylik va vaqt orti ma'nolarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Tarjima jarayonida ba'zi deiktik birliklar madaniy-pragmatik o'zgarishlarga uchrasa-da, ular diniy matnning ruhiy mazmunini boyitgan. Shu bois, lingvopragmatik yondashuv diniy matn tarjimalarini tahlil qilishda asosiy metodlardan biri sifatida o'z ahamiyatini isbotladi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, deiksisning tarjimada to'g'ri va kontekstual qo'llanilishi nafaqat semantik ekvivalentlikni, balki diniy ruhiyat va madaniy uyg'unlikni ham ta'minlaydi. Bu esa tarjimashunoslikda krossmadaniy muloqotni chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori. (2021-yil 19-may). Xorijiy tillarni o'rganish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-187-son qarori. (2023-yil 26-may). Tarjimashunoslik va lingvistik tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida.
3. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Lyons, J. (1977). *Semantics*. Vol. 2. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Yuldashev, A. (2018). *Tilshunoslikda pragmatika va kontekst muammolari*. Toshkent: Fan nashriyoti.

6. Nurmatova, G. (2021). "Deiksis va uning tarjima jarayonidagi lingvopragmatik xususiyatlari." *Filologiya masalalari jurnali*, №4, 85–93-betlar.
7. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. Leiden: Brill.
8. Shirinova, D. (2020). *Tarjima nazariyasi: pragmatik yondashuv asoslari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
9. Die Bibel. (2017). *Lutherbibel 2017: Standardausgabe*. Deutsche Bibelgesellschaft, Stuttgart.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

TYPOLOGICAL INTERPRETATION OF ENGLISH MODAL VERBS

Abduxalimov Abdulaziz Abdumutal ugli

Assistant of the Department of "Languages and Humanities,"
Andijan State Technical Institute

Abstract. The main focus of this article is to compare the system of modal words in the English language with the analogous system in the Uzbek language. It also aims to integrate Uzbek modal words into a systematic framework, determine their classification within parts of speech, describe their morphological structure, analyze their lexical meanings, and reveal the expressive means used in sentences for various purposes.

Keywords: modal verb, modality, typology, analogy, equivalence.

INGLIZ TILI MODAL FE'LLARINING TIPOLOGIK TALQINI

Abduxalimov Abdulaziz Abdumutal o'g'li

Andijon davlat texnika instituti
"Tillar va gumanitar fanlar" kafedrası assistenti
E-mail: abduxalimovabdulaziz1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolaning asosiy masalasi — o'zbek tili analogik sistema bilan ingliz tilidagi modal so'zlar sistemasini taqqoslash va o'zbek tilshunosligida imkoniyat boricha o'zbek tilidagi modal so'zlarni sistemaga kiritish, ularni so'z turkumlar tizimini aniqlash, uning morfologik tarkibini ta'riflash, ularning leksik ma'nolarini va gapdagi har xil maqsadlarda qo'llanilgan ifoda vositalarini ochib berishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: modal fe'l, modallik, tipologiya, analog, muqobillik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N33>

Kirish. Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan tillarda turli grammatik ma'nolar uchraydi. Lekin bu grammatik ma'nolar va ularning ifoda uslublari hamma tillar uchun umumiy, bir xil emas. Har bir tilda o'ziga xos grammatik ma'nolar va ularni ifodalash usullari mavjud. Ular ayrim-ayrim holda emas, balki ma'no turlarining yaqinligiga ko'ra guruh- guruh holda uchraydi. Bunday guruhlarda ular son jihatidan kamida ikkita va undan ortiq bo'lishi mumkin. Ana shunday birikmalar tilshunoslikka oid adabiyotlarda Grammatik kategoriya – umumlashgan grammatik ma'no bo'lib, u tilning qaysi morfologik turga kirishini ko'rsatadi va o'z ifodasini so'zlarning o'zgarishida yoki gapda so'zning bog'lanishida topadi[1; 25-b.]. Umumiy grammatik ma'noni tashkil etuvchi xususiy ma'nolar bir- biriga zid bo'ladi, bir-birini inkor qiladi va shu bilan birga doimo bir-birini taqozo etadi.

Misol uchun grammatik son kategoriyasi deb nom olgan til hodisasini ko'raylik:

maktab	maktablar
↓	↓
<i>school</i>	<i>schools</i>
↓	↓
o'quvchi	o'quvchilar
↓	↓
<i>pupil</i>	<i>pupils</i>

O'ng tomondagi so'zlarni biz ko'plikda deymiz, chunki ular chap tomondagi so'zlardan – lar qo'shimchasi borligi bilan farq qiladi. Shunday qilib, grammatik ma'no qiyoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Chap va o'ng tomondagi so'zlarning grammatik ma'nolari bir-biriga zid: birlik va ko'plik. Lekin ana shu bir-biriga zid grammatik ma'no birgalikda son kategoriyasini tashkil etadi. Shu bilan birga bu kategoriyaga kiruvchi birlik va ko'plik ma'nolari biri ikkinchisining bor bo'lishini taqozo etadi. Tillarda birlik ma'nosi borligi uchun biz birlikni ajratamiz. Agar tillarda otlar faqat birlikda ishlatilganda biz ko'plik to'g'risida hech qachon gapirmagan bo'lar edik, birlik tushunchasiga ham hojat qolmagan bo'lar edi[2; 46-b.]. Bu fikr tushunarli bo'lishi uchun antonim so'zlarni misol sifatida ko'rsatish mumkin: yaxshi degan tushuncha borligi sababli, yomonlikni ajratamiz; torlik tushuncha borligi uchun kenglikni, oq rang borligi sababli boshqa ranglarni ajratamiz va hokazo.

Grammatik kategoriyalar – grammatik ma'no va grammatik shakldan tashkil topadi. Masalan, yuqorida ko'rib chiqilgan son kategoriyasini shu nuqtai nazardan quyidagicha izohlash mumkin.

Ya'ni grammatik son kategoriyasi ikki ma'nodan: birlik va ko'plikdan, birlik X morfemasi, ko'plik esa “-lar” morfemasi orqali ifodalanadi.

X – bu shakl – morfema yo'q deb yuritiladi. X morfemalar qatoridan o'rin olishga yuqoridagi maktab – *a school*, o'quvchi – *a pupil* so'zlarida hech qanday qo'shimcha yo'qligi ham ma'lum bir ma'no anglatishiga sabab bo'ladi.

Grammatik kategoriyalar ifodalanish usuliga ko'ra 3 turga bo'linadi:

1. Sintetik grammatik kategoriyalar;
2. Analitik grammatik kategoriyalar;
3. Aralash grammatik kategoriyalar;

O'zbek tilida ifoda planning eng rang-barang turlaridan foydalaniladi. Masalan, aniqlik, belgilash, ko'rsatish olmoshlari ishtirokida, shuningdek tushum kelishigini belgilangan formalari ishtirokida ifodalanishi mumkin. "O'zbek tilida noaniqlik esa sanoq son, gumon olmoshlari va boshqa vositalar ishtirokida ifoda etiladi. Barcha tillarda jumladan, o'zbek tilida mazkur kategoriya ifodalanishning bayon etish usuli ana shundaydir. Bunga yana modallik kategoriyasi va hokazo kategoriyalarni kiritish mumkin". Ifodalanishning barcha formalarini aniqlamay til sistemalarini inventarizatsiya qilish mumkin emas. Qiyoslashning birinchi bosqichi bo'lgan inventarizatsiyasiz tadqiqotni o'tkazish, binobarin tildagi muvofiqliklarni aniqlash mumkin bo'lmaydi.

Ikki va undan ortiq tillarni qiyoslashda kategoriyalardan foydalanamiz. Kategoriya ma'no va formalar bilan ifoda etiladi. Ma'no kategoriyaning mazmun planini tashkil etadi. Tipologik ma'no morfologik, leksik va sintaktik birliklarning o'zaro munosabati natijasida hosil

qilingan umumiy, abstrakt lingvistik ma’nodir. Bu ma’no turli yarusli bo’lib, uni ifoda etishda tilning turli yaruslari bevosita ishtirok etadi. U ikki yoki bir necha tillar sistemasi asosida tuziladi. Ma’no grammatik va leksik ma’nolarni o’z ichiga oladi va o’rganilayotgan tillar sistemalari uchun umumiy ma’no hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Forma ma’noni ifodalovchi qiyoslanayotgan tillarning turli yarus birligidir. Formalarning invariantlari turlicha bo’lib, ular morfologik, leksik va sintaktik birliklar bilan ifodalanadi. Formani ifodalovchi vositalar morfologik yarusda segment va suprasegment morfemalardan, leksik yarusda so’z yasovchi affikslardan va mustaqil leksik birliklardan, sintaktik yarusda esa so’z birikmalari ba gaplardan tashkil topadi.

Formaning traditsion grammatik formadan farqi shundaki, grammatik forma faqat morfologik yarus birligi bilan chegaralab qo’yilgan. Tipologik formani biz shartli ravishda “forma” deb ataymiz, chunki u sintaktik yarusda forma emas, balki butun bir konstruksiyadir. Bu formalarning belgilanishi turli tillarda turli xil bo’ladi. Ba’zi tillarda ularning morfologik markeri, boshqa tillarda sintaktik dominantasi yaxshi rivojlangan bo’ladi.

Ingliz va o’zbek tillarida namuna sifatida quyidagi tipologik kategoriyalarni ko’rsatish mumkin:

1. Tipologik ko’plik kategoriyasi;
2. Tipologik rod kategoriyasi;
3. Zamon kategoriyasi;
4. Modallik kategoriyasi;
5. Nisbat yoki nisbatlik kategoriyasi;
6. Aspektuallik kategoriyasi;
7. Qiyoslash kategoriyasi;
8. Aniqlik va noaniqlik kategoriyasi;

Va boshqa to’la aniqlanmagan kategoriyalar mavjud. Bizga zarur bo’lgan modallik kategoriyasini mantiqiy – lisoniy kategoriyalar ichidagi o’rnini ko’rib chiqamiz.

Modallikni tadqiq qilishdagi mo’ljall muammolardan biri – bu shu kategoriyani tarkib chegarasi haqidagi savoldir. Gap – so’zlovchining nutqqa bo’lgan munosabatini xarakterlaydigan emotsional, ekspressiv ma’nolarni ifodalovchi, shuningdek fikr aytish uslubiga asoslanadigan so’zlarni modal so’zlar ro’yxatidan chiqarish yoki kiritish xususida boryapti. Shu savol bo’yicha yirik tilshunoslarning ishlaridagi fikrlarini ko’rib chiqamiz.

Masalan, akademik V.V. Vinogradov modallikni subyektiv va obyektiv deb nomlaydi. U ishida modal so’zlarning o’n ikkita qatorini ajratadi[3; 124-b.].

Keyinroq V.V. Vinogradov o’zining «*О категории модальности и модальных слов в русском языке*» maqolasida G’arbiy – Yevropa fikrini keltiradi, bunda Bryuno F. modallik kategoriyasidan gap formasining ekspressiv subyektivligini ajratmaydi.

“Imkoniyat”, “ishonch”, “aniqlik”, “shubha”, “ehtimollik” kabi modal ma’nolarning ifoda qilish vositalarining tahlilidan keyin “umid”, “tashvish”, “qo’rquv”, “mamnuniyat” kabi modal his-tuyg’ularni ifodalashga xizmat qiladigan sintaktik va leksik formalarini ko’rib chiqadi.

Shu usul bilan akademik V.V. Vinogradov so’zlovchining reallikka bo’lgan munosabatini ifodalovchi hissiy so’zlarni modal kategoriyadan mustasno qilmaydi, faqatgina ularni boshqa modal so’zlarning turlaridan aniq chegarada ushlash zarurligini aytib o’tadi[4; 127-b.]. Modallikni bildiruvchi predikativ ifoda turini xarakterlab, ularni ikki guruhga ajratadi:

1. Imkoniyat, majburiyat, zaruriyatni ifodalovchi modal ma'noli so'zlar;
2. Ish-harakat yoki obyektga bo'lgan emotsional munosabatni ifodalovchi so'zlar.

Modallik ma'nosi bo'lgan kirish sintagmasining vazifasi haqida so'z ochib, u shunday deb hisoblaydi: ular nutqning har xil stilistik kvalifikatsiyasi va mantiqiy emotsional ma'no tomoniga modal kategoriya ramkasini leksik tomondan kengaytiradi.

A.M. Bodovich rus tilidagi modal so'zlar haqidagi dissertatsiyasida qat'iy shuni ma'lum qiladiki, modallik bu-emotsional emas, balki fikriy kategoriyadir. Shu bilan birga aqliy, mantiqiy, hissiy sezgilar bir kategoriya miqyosida ko'rib bo'lmaydi deb o'ylaydi.

V.M. Borisov ning arab tilida modal so'zlar haqidagi qiziqarli va qisqa qilib ishlangan ilmiy ishida shuni tan oladiki, "Tilshunoslar "modallik" termini lingvistikadan mantiqqa o'tkazayotib, termin miqdorini kengaytirib yuborganlar va modallikning lisoniy kategoriyasi zaruriyat, reallik va imkoniyat ma'nolarining sof mantiqiy munosabatidan tashqari faqat ishonch va shubha ma'nosini emas, xursandchilik, afsus va boshqa ruhiy harakatni o'zida aks ettiradi" [5; 68-b.]. Bu yerda, muallifning fikricha, lisoniy modallik kategoriyasining faqat mantiq bilan emas, balki psixologiya bilan bog'liqligi kuzatiladi.

V.M. Borisov ning ta'kidlashicha, ba'zi bir tilshunoslar modal so'zlar ro'yxatiga faqat insonning aqliy darajasi bilan semantik bog'liq so'zlarni kiritadilar (shubhasiz, albatta, balki, bo'lishi mumkin), psixik faoliyatni aks ettiruvchi so'zlar modal hisoblanmaydi (baxtga ko'ra, afsuski). So'zlovchining fikr tartibini aks ettiruvchi so'zlar ham bunga kirmaydi.

Muhokama. Ushbu ishning asosiy masalasi – o'zbek tili analogik sistema bilan ingliz tilidagi modal so'zlar sistemasini taqqoslashni bajarishga kirishishdan oldin biz uni ta'riflashimiz zarur edi. Birinchi bo'lib, o'zbek tilshunosligida biz imkoniyatimiz boricha o'zbek tilidagi modal so'zlarni sistemaga kiritdik: ularning sistematik klassifikatsiyasini tuzdik, ularni so'z turkumlar tizimini aniqladim, uning morfologik tarkibini ta'rifladim, ularning leksik ma'nolarini va gapdagi har xil maqsadlarda qo'llanilgan ifoda vositalarini ochib bordik.

Taqqoslash maqsadida biz shunga o'xshash tizimlashtirishni ingliz tili modal so'zlari va fe'llari munosabatida o'tkazdik. To'g'ri, bizning ixtiyorimizda tadqiq qilingan materiallardan juda kam miqdorda bor edi. Lekin ingliz tilidagi modal so'zlar va fe'llar munosabatida umumiy tizimlashtirishning bunday ko'rinishi birinchi marta qilindi.

Natijalar. Modal so'zlar muammosi modallikka oid mujmal masala bilan bog'liqdir. Bu muammo qayta-qayta turli olimlar tomonidan ham ingliz tili, ham rus tilida, hamda umumiy lingvistikaning kengaytirilgan kontekstida ishlab chiqilgan.

I.M.Blox so'zini shu gap bilan yakunlaydi: Biz bu yerda masalaning hamma aspektlari ustida ilmiy tadqiqot o'tkaza olmaymiz. Faqat shuni ta'kidlab o'tishim mumkinki, modallikni ifoda etuvchi ikki xil vosita mavjud: modal so'zlar – *perhaps, really, possibly, indeed, certainly*...Modal fe'llar – *can, may, must, would*.

Hamma mualliflarning qarashlaridan kelib chiqib, modallik haqida shularni bayon etishim mumkin: Ingliz tilida modallikning grammatik kategoriyasi mavjud bo'lib, u so'zlovchining predmetga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Modallik bir necha yo'llar bilan ifodalanadi: Modal so'zlar yordamida: *perhaps* (balki), *possibly* (mumkin), *evidently* (aniqki), *doubtless* (shubhasiz) va xokazolar. Biz ingliz tilidagi ilmiy – texnikaviy tekstlarda tez-tez uchrab turadigan majburiyat va imkoniyatni ifodalovchi modal so'zlarning predikativ turini ko'rib chiqamiz[6; 245-b.].

Must – fe’l infinitivi bilan birgalikda ish-harakatning kuchga kirishi shartligini, hamda maslahat va buyruqni ifodalaydi. O‘zbek tiliga shart, shaxssiz gaplarda kerak, zarur deb tarjima qilinadi.

<i>In passing through the metal, electrons must collide with many ions.</i>	<i>Metaldan o‘tayotganda, elektronlar ko‘p ionlar bilan to‘qnashishi <u>zarur</u>.</i>
---	--

To be to – infinitive bilan birgalikda rejalashtirilgan yoki ko‘zlangan rejadani kelib chiqqan xolda, “shart” ma’nosini bildiradi va o‘zbek tiliga “kerak” deb tarjima qilinadi.

<i>The new line of the metro <u>is to be</u> commissioned next spring.</i>	<i>Metroning yangi yo‘li keyingi yil bahorda qurilishga tushishi <u>kerak</u>.</i>
--	--

To be to – ayniqsa inkor gaplarda va “only” so‘zi bilan bo‘lgan gaplarda “imkoniyat” ma’nosini ifodalashi mumkin.

<i>This book was <u>not to be</u> found anywhere.</i>	<i>Bu kitobni hech qayerdan topib bo‘lmas edi.</i>
<i>This kind of information <u>is to be</u> obtained only with great difficulty.</i>	<i>Bunday ma’lumotga faqat ko‘p qiyinchilik bilan erishish mumkin.</i>

Shuni nazarda tutish kerakki, “*To be to*” ba’zi bir hollarda modallikni ifodalamasligi ham mumkin. Bunday gaplarda biz ot-kesimli gaplarni nazarda tutamiz va “*To be to*” fe’li bu yerda semantik vazifani bajarmaydi, balki faqatgina fe’l bog‘lovchi sifatida keladi. Ingliz tiliga “- dan iborat” deb tarjima qilinadi.

<i>The function of the catalyst <u>is to</u> accelerate the reaction.</i>	<i>Bu katalizatorning vazifasi reaksiyani tezlashtirishdan <u>iborat</u>.</i>
---	---

Should – fe’li infinitiv bilan birgalikda hamma shaxslarda qo‘llaniladi va burch yoki maslahat bilan bog‘liq “shart”, “lozim”, ma’nolarini ifodalaydi. O‘zbek tiliga “mumkin edi”, “kerak” deb tarjima qilinadi.

<i>You should lower the voltage in the circuit.</i>	<i>Zanjirdagi tokni pasaytirish <u>kerak</u>.</i>
---	---

One should – shaxssiz gap bilan tarjima qilinadi.

Ought to – fe’li infinitiv bilan maslahatlashgan “shart” ma’nosini bildiradi va “should” fe’liga analogikdir, lekin kamdan –kam qo‘llaniladi. O‘zbek tiliga “kerak edi”, “shart”, “lozim”, “darkor” deb tarjima qilinadi.

<i>He <u>ought to</u> know the properties of the mixture.</i>	<i>U bu almashishning xususiyatini bilishi <u>darkor</u> edi.</i>
---	---

Xulosa. Taqqoslash maqsadida biz shunga o‘xshash tizimlashtirishni ingliz tili modal so‘zlari va fe’llari munosabatida o‘tkazdik. To‘g‘ri, bizning ixtiyorimizda tadqiq qilingan

materiallardan juda kam miqdorda bor edi. Lekin ingliz tilidagi modal soʻzlar va feʼllar munosabatida umumiy tizimlashtirishning bunday koʻrinishi birinchi marta qilindi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Buranov J. 1973. Ingliz tili grammatikasi. –Tashkent: Oʻqituvchi.
2. Buranov J, Yusupov I, Iriskulov M, Sadikov A. 1986. The grammatical structures of English, Uzbek, and Russian. –Tashkent: Fan.
3. Choriev M, Gʻapporov M. 2004. English grammar. Tashkent: Fan.
4. Gʻapparov M. 2008. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent: Turon-iqbol.
5. Gʻulomov A, Asqarova M. 1961. Hozirgi zamon oʻzbek tili. Toshkent: Oʻqituvchi .
6. Gafur G. A Naughty Boy. 2015. Tashkent: A New Generation.
7. Hoshimov U, Buranov J. 1987. Ingliz tili grammatikasining normativ kursi. Toshkent Oʻqituvchi.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

TPOLOGY AND CLASSIFICATION OF NEOLOGISMS IN THE MODERN GERMAN LANGUAGE

Abdurakhimova Okila Gayratovna

2nd-year Master's student in Linguistics (German language),
Karshi State University

Abstract. This article examines the typology and classification of neologisms in modern German. Their structural, semantic, and stylistic features are examined, including individual, occasional, and potential neologisms. Particular attention is paid to word formation patterns and their functional and stylistic use.

Keywords: neologism, word formation, lexical innovation, semantic change, borrowing, classification, typology, stylistic neologisms, individual neologisms.

ZAMONAVIY NEMIS TILIDA NEOLOGIZMLAR TIPOLOGIYASI VA TASNIFI

Abduraximova Okila Gayratovna

Qarshi davlat universiteti
Lingvistika (nemis tili) magistratura mutaxassisligi
2-kurs magistranti
E-mail: abdurakhimovaokila@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola zamonaviy nemis tilidagi neologizmlarning tiplari va tasnifi masalasini o'rganishga bag'ishlangan. Unda neologizmlarning shakl, mazmun va uslubiy xususiyatlari, individual va okkazonal birliklar, shuningdek, leksik innovatsiyalar tahlil qilinadi. So'z yasash modellari va ularning uslubiy-chegaralangan qo'llanilishi ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: neologizm, so'z yasash, leksik innovatsiya, semantik o'zgarish, o'zlashma so'z, tasnif, tipologiya, stilistik neologizm, individual neologizm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N34>

Kirish. Til doimiy ravishda rivojlanib, o'z lug'at tarkibini yangilab boradi. Bu jarayonda tilga yangi so'z – neologizmlar kirib keladi. Zamonaviy nemis tilida neologizmlar shakl, mazmun va uslubiy jihatdan turlicha bo'lib, ular tilning lug'at tarkibini boyitadi va yangi tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, neologizmlar tilning stilistik imkoniyatlarini kengaytirish, ifoda vositalarini boyitish vazifasini ham bajaradi. Mazkur maqolada zamonaviy nemis tilidagi neologizmlarning tipologiyasi va tasnifi, ularning yasash modellari hamda uslubiy jihatdan chegaralangan holda qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Hozirgi nemis tili lug'at tarkibini o'rganish masalasiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlarda neologizmlarning turli xil xususiyatlari qayd etilgan. Shakl va mazmun birligiga asoslanib va ularning munosabatlarini hisobga olgan holda, M.D.Stepanova va I.I.Chernisheva neologizmlarning quyidagi asosiy turlarini ajratadi:

1. Tilda mavjud mahsuldor modellar asosida yasalgan, ham shakli, ham mazmuniga ko'ra yangi neologizmlar, masalan: *Lok-Aktiv*, *Qualitätsbrigade*, *Selbstkritik* (bu so'zning stilistik

sinonimi *Blauhemden* bo'lib, semantik motivatsiyasi yoshlar tashkiloti a'zolari ko'k rangli ko'ylak kiyganligiga asoslanadi); *Schmelzsoll, volkseigen, monden* va h.k.

2. Ma'nosi yangi (eski ma'nodan keskin farq qiluvchi), lekin shakli eski bo'lgan neologizmlar, masalan, *Pate* – boshliq va *Pate* – cho'qintirgan ota (yangi ma'nosida *Pate* – boshliq aslida allaqachon omonim), *Engpass* – dara va *Engpass* – tor joy, (muassasa, korxona va boshqalarda).

3. Shaklan yangi, biroq:

a) ma'nosiga ko'ra eski, masalan: *Telefon* o'rniga *Fernsprecher* (XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi neologizm), *Funk* – Radio va b.;

b) ma'no ottenkasiga ko'ra yangi, masalan: *die Adligen* o'rniga *Herrenschweine* (T.Mannning individual neologizmi); *starten* – *anfangen* va shu k. [6; 54-56-b]

Birinchi va ikkinchi guruh neologizmlarini eng mahsuldor deb hisoblash mumkin. Nemischa so'zlar o'rnini bosuvchi uchinchi guruh neologizmlari, odatda ekspressiv-majoziy xususiyatga ega, xorijiy so'zlar o'rnini bosuvchi mazkur guruh neologizmlari ekspressivlik nuqtai nazaridan neytraldir, ammo ularning qo'llanishida ham ma'lum funksional-stilistik cheklov mavjud.

M.D. Stepanova va V. Fleischer ichki yasama neologizmlarning ikkita asosiy turini farqlaydi:

1) *-er, -in, -e, -ung* suffiksli ichki yasama neologizmlar;

2) *mini-, mikro-, meta-, mega-, super-* prefiksli ichki yasama neologizmlar.

-er qo'shimchasi hozirgi nemis tilida mahsuldor affiks hisoblanadi. U ot va fe'llardan harakat bajaruvchilarini (nomina agentis) va harakat vositalarini yasash uchun ishlatiladi. *-in* qo'shimchasi mos keladigan mujskoy roddagi shaxs nomlaridan jenskiy roddagi shaxs nomlarini hosil qiladi va harakatlanuvchi deyiladi. *-e* qo'shimchasi kasb-hunarni bildiruvchi otlarni yasash uchun ishlatiladi. *-ung* affiksi fe'ldan yasalgan yangi jarayonlarning nomlarini hosil qiladi.

Ikkinchi guruh *mega-, meta-, mikro-, mini-, super-* prefikslari yordamida yasalgan yangi nomlardan iborat. *Mega-* (yunoncha mīgas “katta”) va *super-* prefikslari leksik birlik (LB) semantikasini kuchaytiradi va “eng yuqori”, “super” ma'nosida qo'llanadi. Ular kuchaytiruvchi prefikslar deb ataladi [5; 10-b]. *Meta-* prefiksi “orasida”, “o'rtasida” degan ma'nolarda ishlatiladi. Kichraytirish munosabatlarini ifodalash uchun 60-yillarning boshlarida nemis tili tizimiga ingliz tilidan o'zlashtirilgan *mini-* va kelib chiqishi yunoncha μικρός “kichik” so'ziga borib taqaladigan *mikro-* prefikslari qo'llanadi. Yangi nomlar fan va texnologiya, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya sohalariga mansub tushunchalarni ifodalaydi.

Muhokama. Biz yuqorida umumtil neologizmlari deb ataladigan, ya'ni ma'lum bir davrda paydo bo'lib, nemis tili lug'at tarkibidan mustahkam o'rin egallagan neologizmlar haqida so'z yuritdik. Ulardan individual neologizmlarni, ya'ni alohida yozuvchilar, shoirlar, publitsistlar tomonidan yaratilgan leksik birliklarni ajratish, farqlash kerak [8]. Individual neologizmlar yasaliş tabiatiga ko'ra, ko'pincha uchinchi (a) guruhga tegishli bo'lib, uslubiy betaraf so'zlarning stilistik sinonimlari hisoblanadi. E.Weinertga tegishli “Gehirnprothese” (Monokel) neologizmini misol tariqasida keltirish mumkin. Ular, ko'pincha uslubiy betaraf leksik ekvivalentlarga ega bo'lmagan ma'nolarni obrazli shaklda ifodalaydi va faqat butun boshli nutqiy kontekstda, vaziyatda to'liq ochiladi, anglanadi, masalan, H.Haynening “frühlingsgrüne Petersiliensuppe”, H.Sudermannning “das Fremdländertum”, “die Angst vor

dem Nicht-mehr-leben-Dürfen”; L.Frankning: “tranzendentalgrauen” individual neologizmlari bunga yaqqol misol bo’la oladi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko’rinib turibdiki, yozuvchilar tomonidan yaratilgan ayrim neologizmlar ma’nosi tushunarli, ba’zilarini esa kontekstdan tashqarida tushunib bo’lmaydi (masalan: *trompetengelb*, *Totenkopfschwiegersohn* va boshqalar) [9]. Individual neologizmlarning aksariyati faqat qo’llangan asarlari doirasidagina saqlanib qoladi.

Neologizmlar (jumladan, individual neologizmlar ham) til tizimida mavjud bo’lgan va o’z tasdig’ini topgan mahsuldor modellar bo’yicha yaratiladi; ularni yasash, yaratish uchun nemis tili lug’at tarkibini taraqqiy ettirishning barcha usul va vositalaridan foydalaniladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, nemis tili bir nechta so’zdan turli xil variantlarda qo’shma so’zlarni yasash uchun ulkan so’z yasash imkoniyatiga ega tildir. Shu munosabat bilan, nutqiy harakatlarda har kuni ko’plab yangi qo’shma so’zlar yaratiladi, biroq ular hali neologizm hisoblanmaydi va lug’atlarda qayd etilmaydi, chunki ular muloqotdoshlarning bir vaqtning o’zidagi lisoniy ijodkorligi mahsulidir.

E.V.Rozenning ta’kidlashicha, yangi lug’aviy birliklar, frazeologik birliklar, yangi ma’nolar va so’z qo’llashning yangi variantlarini leksik innovatsiyalar deb atash maqsadga muvofiq, ayni paytda neologizmlarni esa lug’at fondining “barqaror” uzual birliklari deb atash mumkin [4; 174-b].

E.V.Rozen nemis tilidagi leksik innovatsiyalarni baholash va neologizmlarni identifikatsiya qilish uchun quyidagi mezonlarga amal qilishni taklif qiladi:

- qayd etishlar sonining ko’pligi;
- so’z qayd etilgan manbalar yoki ular janrlarining turli xilligi;
- nominatsiyaning (nom berishning) erkinligi (so’zni, ma’noni, frazeologik birlikni nutqiy kontekst yordamisiz qo’llash imkoniyati);
- lisoniy ong tomonidan leksik innovatsiyalarning o’zlashtirilganligini ko’rsatadigan har xil turdagi so’z yasovchi hosilalarning, (obrazli, metonimik, grammatik, ichki shaklning bo’linishi) qo’llanilish imkoniyatlarining mavjudligi [4; 20-b].

Okkazionalizmlarni, aniqrog’i nutqiy kommunikatsiyaning aniq bir vaziyatida “tasodifan, vaziyat talabiga ko’ra” yaratiladigan so’zlarni neologizmlardan farqlash kerak. Tabiiyki, bunday so’zlar til me’yorlariga zid keladi va mazkur tildagi so’z yasashning odatiy usullaridan chetga chiqadi. Okkazionalizmlar nutqda, ko’pincha so’z o’yini, hazil vositasi sifatida namoyon bo’ladi.

Potensial so’zlar okkazializmlarga yaqin, lekin ular okkazializmlardan farqli o’laroq, ma’lum tilga xos so’z yasash modellari asosida yasaladi [2; 68-b].

Okkazionalizmlar va potensial so’zlar spontan so’zlashuv nutqiga xos bo’lib, so’zlovchi yo standart nomga ega bo’lmagan narsani yoki oddiy narsaning nomini ifodalovchi so’zni darhol eslay olmaydigan hollarda yaratiladi.

Kundalik muloqot tiliga kasbiy sohalardan (masalan, telekommunikatsiya sohasidan) kirib kelgan so’zlar ham neologizm hisoblanmaydi, chunki bu so’zlar mohiyatan yangi emas va tegishli sohada allaqachon qo’llanishni boshlagan [2; 69-b].

Tilshunoslikda neologizmlarning turli xil tasniflari mavjud. Ulardan ba’zilarini ko’rib chiqamiz.

Nemis olimlarining an’anaviy tasnifiga ko’ra, neologizmlarning quyidagi turlari ajratiladi:

1) lisoniy yoki umumiy (leksik) neologizmlar. Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida Germaniya Demokratik Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasida paydo bo'lgan neologizmlar: *Jugendzug, Jugendfreund, Bundesrepublik, Bundespräsident*;

2) stilistik neologizmlar (individual, mualliflik neologizmlari, bir martalik yasalmalar). Mualliflar tomonidan maxsus stilistik maqsadlarda qo'llanadi.

R.Klappenbax va V.Staynits «Hozirgi nemis tili lug'ati» (1969-1978) materiallaridan foydalangan holda neologizmlarni tasniflaydi. Ushbu mualliflar neologizmlarning uch turini ajratib ko'rsatgan:

1) mutlaq neologizmlar (Neuwörter). Bunday neologizmlar nemis tilida ilk bor qayd etilgan, boshqa tillardan o'zlashgan yoki maxsus yasalgan (Computer, Dederon, Cartoon, Malimo) so'zlardir;

2) yangi yasalmalar (Neuprägungen) – tilda mavjud bo'lgan so'z, asos va affikslardan yangicha kombinatsiyalarda yasalgan so'zlar yoki iboralar (Farbfernsehnnetz, Fotomodell, Hitparade, Sprachvermittlung);

3) semantik neologizmlar (Neubedeutungen) – yangi ma'nolarga ega bo'lgan tilda avvaldan mavjud leksik birliklar (*Hexe – in der Technik als Aufzug für Baumaterialien; mixen / Mixer – Techniker, der am Pult Musik oder Geräusche mixt*) [4; 142-143-b].

Ushbu tasnif mualliflari, shuningdek, “moda so'zlari” (Modewörter) deb ataladigan so'zlarni ham leksik innovatsiyalar (yangilik elementiga ega bo'lgan barcha til birliklari uchun umumiy tushuncha) toifasiga kiritadilar. Bular ma'lum bir vaqtda modaga aylanib, urfga kirib, keng qo'llanib, mashhurlikka erishadigan so'z va iboralardir (super, klasse, toll, kreativ, Job, Team, Know-how). Moda so'zlari quyidagi mezonlarga asosan tan olinadi:

- allaqachon mavjud bo'lgan denotatni ifodalaydigan bo'lsa;
- ma'lum bir mafkuraga bog'lanmagan va keng semantikaga ega bo'lsa (bular, birinchi navbatda ekspressiv va baholash xususiyatiga ega leksik birliklardir);
- yuqori chastotada qo'llanishi bilan ajralib tursa;
- ijtimoiy daraja belgisining (marker) kommunikativ-pragmatik funksiyasini bajarsa;
- vaqtinchalik mashhurligi bilan ajralib tursa [1; 200-b].

D. Herberg va K. Heller ham nemis tilidagi neologizmlarni uch turga ajratadi: – yangi leksemalar (yangi yasalmalar) (Neulexeme / Neubildungen);

- yangi formativlar (yangi ifodalar) (Neuformative / Neubezeichnungen);
- yangi sememalar (yangi ma'nolar) (Neusememe / Neubedeutungen).

Yangi leksemalar (yangi yasalmalar) yangi mazmun, yangi shakl, yangi ma'no va formativga ega bo'ladi. Ular obyektiv borliqdagi yangi hodisalarga ilk bor nom beradi. Yasalish usuliga ko'ra yangi leksemalar o'zlashma, yangi yasalma (mavjud so'z va affikslardan so'z yasash modellari bo'yicha yasaladi) va mutlaq neologizm bo'lishi mumkin.

Yangi ifodalar yangi formativ, allaqachon o'z ifodasiga ega bo'lgan predmetlar uchun tovush majmuasi bilan ajralib turadi, masalan: *Raumpflegerin statt Reinemachefrau; Sekundärrohstoffe statt Altstoffe*. Yangi ifodalar so'zlarning sinonimik qatorlarini kengaytiradi.

Yangi sememalar tilda mavjud leksik birliklarda hosil bo'ladigan yangi ma'nolardir (Mauer – kurz für «Berliner Mauer», ein Symbol der Spaltung Deutschlands).

Neologizmlarning vazifasi faqat voqelikdagi yangi predmet va hodisalarni ifodalashdangina iborat emas. Neologizmlar ko'p hollarda til egalari tomonidan ma'lum bir

guruhga mansublikni ta'kidlash, urf bo'lgan tendensiyalarga rioya qilish yoki e'tiborni jalb qilish uchun ham qo'llanadi.

Neologizmlar, birinchi navbatda, reklama tilida auditoriyaga ta'sir qilish (pragmatik) vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, ta'sirni kuchaytirish uchun ular nemis tili grammatik qoidalariga zid ravishda yasalishi ham mumkin, masalan: *unkaputtbar, hier werden Sie geholfen*.

Agar ifoda etilayotgan predmetga muayyan baho yoki nufuz berilishi kerak bo'lsa, neologizmlar nemis tilida ilgari mavjud bo'lgan so'zlarning o'rnini egallashi mumkin. Misol tariqasida Germaniyaning Deutsche Bahn aksiyonerlik jamiyatining til siyosatini keltirish mumkin (Schaffner – Zugbegleiter; Schalter – Servicepoint, Counter).

Neologizmlar, shuningdek keng tarqalgan tashviqot (propaganda) vositasi hamdir (Islamo-Faschismus, sozialbehinderte Jungmigranten) [7; 89-b].

Nemis leksikologiyasida neologizmlarning quyidagi tasniflarini eslatib o'tish o'rinli bo'ladi:

- yangi yasalma, o'zlashma, yangi so'z;
- yangi so'z;
- yangi leksema/yangi so'z, yangi semema/yangi ma'no, yangi ifoda;
- yangi ma'no/yangi semema;
- yangi so'z / yangi yasalma / yangi ma'no.

Dou Xuefu tasnifi yangi leksikaning alohida kichik turlarini aniqlashni o'z ichiga oladi: yangi o'zlashmalar to'g'ridan-to'g'ri, xayoliy o'zlashmalarga va gibrid (aralash) yangi yasalmalarga, shu jumladan asosiy turlar – yangi yasalmalar va semantik innovatsiyalarga bo'linadi [3; 23-b].

Natijalar. Tilning lug'at tarkibidagi o'zgarishlar til taraqqiyotining katta qismini tashkil qiladi. Leksik hodisalarni tizimli kuzatish va tahlil qilish, yangi so'z va iboralarni qayd qilish hozirgi nemis tilining taraqqiyotidagi asosiy tendensiyalarni aniqroq tushunishga katta hissa qo'shishi mumkin.

Zamonaviy nemis tilidagi neologizmlarning tasniflarini o'rganar ekanmiz, M.D.Stepanova va I.I.Chernisheva taklif qilgan tasnifga qo'shilamiz.

Yuqorida keltirilgan tasniflarni quyidagi umumlashtirishimiz mumkin:

1. Shakllanishiga ko'ra:

a) yangi yasalma (Neubildung): mavjud til materiallaridan yangi so'zlar yaratish (masalan, qo'shimchalar, ko'makchilar yordamida).

b) o'zlashma (Entlehnung): boshqa tillardan so'z qabul qilish.

c) yangi so'z (Wortneuschöpfung): mutlaqo yangi so'z yaratish.

2. Qamroviga ko'ra:

a) Yangi leksema/yangi so'z (neues Wort): lug'at tarkibiga yangi element qo'shilishi.

b) yangi semema/yangi ma'no (neue Bedeutung/Semem): mavjud so'zning yangi ma'no kasb etishi.

c) yangi ifoda (neuer Ausdruck): yangi ibora yoki frazeologizm paydo bo'lishi.

Xulosa. Zamonaviy nemis tilidagi neologizmlar tilning doimiy rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Ular shakl, mazmun va uslubiy jihatlari bo'yicha bir necha turlarga bo'linib, tilni leksik va stilistik jihatdan boyitadi. Neologizmlar so'z yasash modellari yordamida yasaladi va til ichki funksiyalarni kengaytiradi. Shuningdek, ular nutqning pragmatik ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada keltirilgan tipologiya va

tasniflar neologizmlarning murakkab tabiati va ularning zamonaviy nemis tilidagi o'zni haqida yanada to'liq tasavvur beradi.

Tilning lug'at tarkibidagi o'zgarishlar, ya'ni neologizmlarning paydo bo'lishi va keng tarqalishi til taraqqiyotining muhim qismi bo'lib, leksik hodisalarni muntazam kuzatish va tahlil qilish, yangi so'z va iboralarni o'rganish, hozirgi nemis tilining rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlarni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, tilning ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlarga qanday munosabat bildirishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Зеленецкий А.Л., Новожилова О.В. Теория немецкого языкознания [Текст]: учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и ф-тов ин. яз. высш. пед. уч. заведений / А.Л. Зеленецкий, О.В. Новожилова. – М.: Издательский центр «Академия», 2003. – 400 с.
2. Левковская К.А. Немецкий язык. Фонетика. Грамматика. Лексика. 2-е изд. – М.: Академия, 2004. – 368 с.
3. Михеева Е.И. Неологизмы современного немецкого языка: интегративный аспект на материале имен существительных: дис. ... канд. филол. наук: – Курск, 2005. – 281 с.
4. Розен Е.В. На пороге 21 века. Новые слова и словосочетания в немецком языке / Е.В. Розен. – М.: Издательство «Менеджер», 2000. – 192 с.
5. Романова М.С. Специфика функционирования англицизмов в немецком молодежном социолекте: автореф. канд. филол. наук / М.С. Романова. – М., 2001. – 16 с.
6. Степанова М.Д., Чернышева И.И. Лексикология современного немецкого языка: учебное пособие для вузов. – М.: Академия, 2003. – 252 с.
7. Herberg D. Neologismen der Neunzigerjahre. [Текст]: / Dieter Herberg // Neues und Fremdes im deutschen Wortschatz: Aktueller lexikalischer Wandel / Stickel, Gerhard (Hrsg.). Berlin; New York: Walter de Gruyter, 2001. – S.89-104.
8. <http://www.wikipedia.org> [Murojaat sanasi 25.09.2025]
9. http://yaneuch.ru/cat_03/neologizmy-kak-yazykovoeyavlenie/145653.1887471.page1.html [Murojaat sanasi 01.10.2025]

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

TERMS, TERMINOLOGY AND THEIR RELATIONSHIP TO RELATED CONCEPTS

Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi

Teacher(PhD) of SamSU named after Sharof Rashidov

E-mail: umidaubaydullayeva49@gmail.com

Abstract. In the 20th century, language began to be recognized as a holistic system in world linguistics. As a result, new approaches to revealing the essence of units of language at different levels emerged. Changes and developments in science and technology around the world lead to an increase in scientific and technical concepts and an enrichment of terminology. With the development of time, changes and innovations in the social, political, spiritual and cultural spheres of our people's life have created the basis for the emergence of new concepts and new names related to the development of science and technology in oral and written speech. This, in turn, creates the need to regulate the words expressing new concepts in the language, to determine the laws of development of terminology, its specific features, and the relationship between terms and concepts related to it, which is gaining relevance today as a field. In this article, the concept of the term, its definitions, and the relationship of the term with words and other concepts have been thoroughly studied and analyzed.

Keywords: term, terminology, word, term, nomenclature.

TERMIN, TERMINOLOGIYA VA ULARNING YONDOSH TUSHUNCHALARGA MUNOSABATI

Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. XX asrda dunyo tilshunosligida til yaxlit tizim deb e'tirof etila boshladi. Natijada tilning turli sathlariga oid birliklarining mohiyatini ochib berishda yangicha yondashuvlar vujudga keldi. Butun dunyo ilm-fan sohasidagi, texnikadagi o'zgarishlar, rivojlanishlar ilmiy-sohaviy tushunchalarning ko'payishi va terminologiyaning boyishiga olib keladi. Zamon rivojlanishi bilan xalqimiz hayotidagi ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy sohalarida yuz bergan o'zgarishlar, yangilanishlar og'zaki va yozma nutqda ilm-fan, texnika taraqqiyoti bilan bog'liq yangi tushunchalar, yangi nomlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Bu esa o'z navbatida tildagi yangi tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni tartibga solish, soha sifatida bugungi kunda dolzarblik kasb etayotgan terminologiyaning rivojlanish qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlarini, termin va unga yondosh tushunchalar munosabatini aniqlash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada termin tushunchasi, unga berilgan ta'riflar va terminning so'z va boshqa tushunchalar bilan munosabati atroflicha o'rganilib, tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, so'z, atama, nomenklatura.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N35>

Ma'lumki, lug'aviy birliklar kelib chiqishi, ekspressivligi, stilistik xususiyatlari, faol yoki nofaol lug'atga mansubligi, qo'llanish sohasi va boshqa bir qator belgilariga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Ko'pchilik tilshunoslarning fikricha, oxirgi belgi asosida chegaralash eng samarali usullardan hisoblanadi. Birinchilari barchaga tushunarli bo'lsa, ikkinchilari u yoki bu jamoa doirasidagina ishlatiladi. Shu tarzda tilning lug'aviy qatlami ikki yirik guruhga ajralib qoladi: umumiste'mol so'zlari va terminlar (qo'llanilishi chegaralangan leksika). Qo'llanilishi

chegaralangan leksika deyilganda kasbiy-terminologik birliklar, fan sohalariga oid terminlar ham nazarda tutiladi. Ammo terminologik birliklarni tahlil qilish jarayonida mazkur qatlamlar orasida doimiy ravishda elementlar almashinuvi sodir bo'lishini inobatga olish muhim.

Ilmiy adabiyotlarda terminologiya termini ilk marta 1786-yili Germaniyada professor Shyuts tomonidan, rus tilida ilk bor M.V.Lomonosov tomonidan qo'llanilgani aytiladi[1:14].

Terminologiyaning o'rganish obyekti termin bo'lib, terminologiyaga ilmiy adabiyotlarda quyidagicha ta'rif beriladi: "Terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan bog'liq bo'lgan terminlar tizimi sifatida ta'riflanishi mumkin"[5:28]. Ta'kidlash kerakki, turkiy tilshunoslikda terminologiya masalalariga bag'ishlangan ko'pgina ishlar amalga oshirilgan.

Mustaqillik yillarida fan va texnikaning takomili natijasi o'laroq, sohaviy leksikani o'rganishga e'tibor kuchaydi. Prof. H.Dadaboyev terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki xil qarash mavjudligini aytadi: "Birinci g'oyaga ko'ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etilsa, ikkinchi ta'limotga muvofiq, u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so'zlashuv)ga tenglashtiriladi[3:5]. Bizningcha, terminologiya o'ziga xosliklari bilan adabiy til leksikasining mustaqil qatlami bo'lib, boshqa leksik qatlamlarda uchraydigan lisoniy hodisalar terminologiyada ham aks etadi.

Adabiyotlarda *termin* so'zi bilan parallel ravishda *atama*, *istiloh*, *nomenklatura* terminlari ham qo'llanishi kuzatiladi. AMadvaliyev: "...*termin* o'zlashmasini ilm-fan, texnika sohaları yoki tarmoqlarida qo'llanuvchi so'z va so'z birikmalari, *atama* so'zini shartli ravishda qo'yilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha *istiloh* o'zlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish o'zini oqlaydi"[5:29], – degan fikrlarni bildirsa, A.Hojiyev termin so'zini atama so'zi bilan parallel qo'llab bo'lmasligini ta'kidlaydi: "...birinchidan, atama umuman "narsa-hodisa, belgi va harakat kabilarni atovchi so'z" degan ma'noga ega. Masalan, olma, katta, kelmoq so'zlari narsa, belgi va harakatning atovchisi (atamasi) hisoblanadi. Termin so'ziga nisbatan bunday deya olmaymiz. Ikkinchidan, dunyoning deyarli barcha tillarida, jumladan, turkiy tillarda terminga xos yuqorida keltirilgan ma'noda shu so'z (termin so'zi) qo'llanadi, ya'ni u haqiqiy ma'noda baynalmilal so'z hisoblanadi. Uchinchidan, termin so'zi atama so'ziga almashtirilgan ekan, bu so'zdan yasalgan terminologik, terminologiya so'zlaridan mahrum bo'linadi. Bu so'zlarning ma'nosini esa atama so'zi bilan yoki undan biron-bir so'z yasab ifodalash mumkin emas"[8:24]. Yu.S.Maslovaning fikricha termin "tilning birmuncha mustaqil ma'noga ega bo'lgan birligi"[6:89].

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "atama" so'ziga " 1. ayn. termin. 2. Umuman, nom."[7:135]; "termin" so'ziga "Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi; atama" [7:77] tarzida izoh berilgan. Mazkur izohning mukammal emasligi har ikki tushunchani bir xil tushunishga olib keladi. Vaholanki, tilning izohli lug'atida bu kabi muammoli o'rinlar uchramasligi kerak.

So'z va termin munosabati ham terminologiyaning muammolaridan hisoblanadi.

"So'z bu – tilning har bir til uchun xos semantik, fonetik va grammatik belgilar jamlanmasi bo'lgan, predmetlar va ularning xususiyatlari, hodisalar, faoliyat munosabatlarini nomlash uchun xizmat qiluvchi asosiy struktur-semantik birligi"[4:464]. So'z va termin o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar xususida tilshunoslar tomonidan bir qancha fikrlar bildirilgan. Xususan, "So'z va termin o'rtasidagi farq obyektiv shartlanganki, ular fikrlash

faoliyati, tushunchalarni ilmiy tafakkur va maishiy tushunchalarning amal qilishida turli bosqichlardagi hodisalarni aks ettiradi"[2:28]. Tilshunos olim I.Ermatovning soʻz va termin munosabati haqidagi fikrlari bu masalaga oydinlik kiritadi: "...termin ham aslida soʻz, soʻzning muayyan bir sohaga ixtisoslashgan muqobilidir. Muhimi shundaki, soʻz ham, termin ham lugʻaviy birlik sifatida bir xil lisoniy maqomga ega hodisalardir"[9:57]. Shuningdek, olim terminning soʻzdan farqli jihatlarini quyidagicha asoslaydi: "Muayyan bir soha lugʻaviy birligi sifatida ixtisoslashgan "soʻz" (termin)ning umumxalq tiliga mansub soʻzdan farqi shundaki, soʻz umumxalq muloqotida fikr uzatish va fikr qabul qilish jarayonida, yaʼni umumxalq kommunikatsiyasi jarayonida kommunikatsiya ishtirokchilari uchun mushtarak maʼnoda tushunarli faol lisoniy birlik sifatida ishtirok etsa, "ixtisoslashgan soʻz" – termin esa xalq xoʻjaligining, fan va texnikaning muayyan sohasiga mansub shaxslarning fikr uzatish va uni qabul qilish jarayonida muhim lisoniy birlik maqomida ishtirok etadi. ...odatdagi, yaʼni umumxalq tiliga mansub rasmiy lisoniy maqomdagi soʻz nominatsiyaning birinchi, dastlabki bosqichiga tegishli lugʻaviy birlik boʻlsa, termin bu jarayonning, yaʼni nominatsiyaning keyingi ikkinchi, uchinchi bosqich jarayonlariga mansub lugʻaviy birlikdir"[9:57]. Olim *ega* soʻzining soʻz va termin maʼnolarida qoʻllanishi misolida fikrlarini asoslaydi (*Yoʻqolgan sigir topilib, egasiga topshirildi; Oʻquvchi gapning egasini topishda bir oz qiynaldi*). Yaʼni birinchi gapda *egasiga* soʻzi soʻzlovchi nazarda tutgan maʼnoda tushuniladi, chunki bu soʻz umumxalq tilida lisoniy rasmiylashgan maʼnoga ega. Ikkinchi gapdagi *egasini* soʻzi esa tilshunoslik sohasidan bexabar kishi uchun tushunarli emas. Olim buni ikkinchi gapdagi *ega* soʻzining umumxalq tiliga mansub boʻlmagan ikkinchi, keyingi bosqich nominatsiyasiga daxldor lugʻaviy birlik maqomini olganligi bilan izohlaydi. Darhaqiqat, soʻz ham, termin ham tilda nominatsiya – nomlash funksiyasini bajaradi. Faqat soʻz nominatsiyaning dastlabki bosqichiga tegishli lugʻaviy birlik boʻlsa, termin nominatsiyaning keyingi bosqichlariga mansub lugʻaviy birlikdir[9:57].

Xulosa qilib aytganda, soʻz va termin munosabatida farqli va oʻxshash jihatlar mavjud. Farqli jihatlar yuqorida keltirilgan boʻlsa, oʻxshash jihatlar har ikkisinin ham maʼno anglatuvchi birliklar ekanligida, terminlarda ham soʻzlarda boʻlgani kabi bir va koʻp maʼnolilik, gipero-giponimlik, partonimlik, graduonimlik kabi xususiyatlarning mavjudligi kabilarda koʻrinadi.

Umuman olganda, tilshunoslikda terminologiya, termin va ular bilan bogʻliq muammolar haligacha oʻz yechimini toʻliq topgan emas.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Pardayev A. Urinbayeva D. Islamova D. Oʻzbek terminologiyasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – B.14.
2. Гринев-Гриневи́ч С.В. Терминоведение. – Москва: Издательский центр «Академия», 2008. – С.28.
3. Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент:Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – Б.5.
4. ЛЭС / под ред. В.Н. Ярцевой. – Москва, 1990. – С.464.
5. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б.28.
6. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. 3-е изд. – Москва, 1998. – С.89.
7. Тадқиқот ва инновациялар журналі.ISSN: 2181-4058 www.imfaktor.uz.№712. – Б.2
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. 1 жилд. – Б.135
9. Ҳожи́ев А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: Фан, 1996. – Б.24.

10. Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. – Тошкент: Tamaddun, 2022.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

LINGUISTOCULTURAL AND PRAGMATIC ANALYSIS OF RELATIONSHIPS BETWEEN CHARACTERS IN FICTION (ON THE EXAMPLE OF UZBEK AND ENGLISH LITERATURE)

Sayitqulova Zilola Khusniddin qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages (PhD),
assistant teacher

Abstract. This article analyzes the linguistic and pragmatic aspects of interpersonal relationships in works of art. The study studies the speech behavior of characters in Uzbek and English literature, national values, cultural stereotypes and communicative features reflected in the process of communication. A linguistic and cultural analysis of the characters' speech was carried out based on examples taken from Oybek's "Blood of the Blood", R.L. Stevenson's "Kidnapped", M. Twain's "The Prince and the Pauper" and Cholpon's "Night and Day". The results of the study reveal such values as hospitality, respect, kinship, and sincerity as are characteristic of the Uzbek people; and the cultural characteristics of the English people such as individuality, distance, and preference for formality. Also, the artistic interpretation of national thinking and human psychology is highlighted through phraseologisms, forms of address, conditional sentences, and metaphorical images. The article serves to identify interethnic differences and reveal their manifestation in artistic language tools based on linguistic and linguistic analysis.

Keywords: literary work, character, relationship between characters, linguistic and cultural analysis, pragmatic analysis, Uzbek literature, English literature, cultural stereotype, dialogue, national value, phraseology, communicative intention.

BADIIY ASARLARDA PERSONAJLARARO MUNOSABATLARNING LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK TAHLILI (O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTI MISOLIDA)

Sayitqulova Zilola Xusniddin qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti (PhD), assistent o'qituvchi
E-mail: Saidqulovazilola21@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlarda personajlararo munosabatlarning lingvomadaniy va pragmatik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda o'zbek va ingliz adabiyotlaridagi personajlarning nutqiy xatti-harakatlari, muloqot jarayonida aks etgan milliy qadriyatlar, madaniy stereotiplar hamda kommunikativ xususiyatlar o'rganilgan. Oybekning "Qutluq qon", R.L. Stevensonning "Kidnapped", M. Twainning "The Prince and the Pauper" hamda Cho'lponning "Kecha va Kunduz" asarlaridan olingan misollar asosida personajlar nutqining lingvomadaniy tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalarida o'zbek xalqi uchun xos mehmondo'stlik, hurmat, qarindoshlik, samimiylik kabi qadriyatlar; ingliz xalqining esa individuallik, masofa saqlash va rasmiylikni afzal bilish madaniy xususiyatlari ifodalangan. Shuningdek, frazeologizmlar, murojaat shakllari, shartli gaplar, metaforik tasvirlar orqali milliy tafakkur va insoniy ruhiyatning badiiy talqini yoritilgan. Maqola lingvopragmatik va lingvomadaniy tahlil asosida millatlararo farqlarni aniqlash, ularning badiiy til vositalarida namoyon bo'lishini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: badiiy asar, personaj, qahramonlararo munosabat, lingvomadaniy tahlil, pragmatik tahlil, o'zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti, madaniy stereotip, muloqot, milliy qadriyat, frazeologizm, kommunikativ intensiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N36>

Kirish. Badiiy asarda muallif tasvirlagan shaxslar personajlar hisoblanadi. Har bir personaj o'z xarakter vazifasiga ega bo'ladi, ularning barchasi voqealar rivojiga birlashtiriladi va asar syujetini ochishga xizmat qiladi [Qurambayev 2011: 35]. Ular asarda tutgan o'rni, voqealardagi ishtiroki, tasvirlanish va umumlashtirilish darajasiga ko'ra asosiy, yordamchi va epizodik turlarga bo'linadi. Yozuvchining asosiy estetik g'oyasi va maqsadini tashuvchi, asar voqealarida faol ishtirok etuvchi personajlar – asosiy personajlar, yozuvchining niyatini to'laroq ochishga xizmat qiluvchi, biroq barcha voqealarda to'la qatnashmaydigan obrazlar – yordamchi personajlar, asosiy qahramon tabiatidagi muhim xususiyatlarni ishonchli tasvirlashga xizmat qiluvchi, asarda kamroq qatnashadigan shaxslar – epizodik personajlar hisoblanadi. Hayot hodisasini turli darajalarda ifodalovchi personajlar ular o'rtasidagi munosabatlar turli xil bo'ladi. Kichik kontekstlarda namoyon bo'luvchi qahramonlararo munosabatlar badiiy asarning qiziqarli, hayotiy bo'lishini ta'minlash bilan bir qatorda, o'quvchini o'sha davr ijtimoiy hayoti, an'ana va urf-odatlarini, insonlar dunyoqarashi, xarakter xususiyatlaridan ham xabardor etadi.

Qahramonlararo munosabat – kishilarning voqelikka, undagi narsa-hodisalarga yondashuvini namoyon etuvchi, moddiy va ma'naviy hayot bilan bo'lgan aloqa va insonlar o'rtasidagi muomala hisoblanadi. Kishilar o'rtasidagi bunday munosabatda insonlar o'zini shaxs sifatida yorqin namoyon etadi. Shaxslararo munosabatlarga shaxsning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq har qanday munosabatlar kiradi. Inson qaysi zamonda yoki makonda o'z hayot faoliyatini olib bormasin, bir-biri bilan o'zaro munosabatga kirishadi.

Metodologiya. Tadqiqotda lingvomadaniy va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi. Badiiy asarlarda millatga xos munosabatlarning ifodalanishi, personajlar nutqidagi madaniy xususiyatlar, til birliklari orqali aks etuvchi ijtimoiy munosabatlar kuzatildi. Asosiy tahlil materiali sifatida o'zbek yozuvchisi Oybekning "Qutluq qon", ingliz yozuvchisi R.L.Stevensonning "Kidnapped", shuningdek, M. Twainning "The Prince and the Pauper" hamda Cho'lponning "Kecha va Kunduz" asarlaridan olingan parchalar qiyosiy tarzda tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida til birliklarining semantik, pragmatik, va konnotativ xususiyatlari, shuningdek, ularning madaniy-assotsiativ qiymati o'rganildi. Ba'zan muayyan bir fikr ifodasi uchun mutlaqo o'zgacha semantikaga ega sintaktik qurilmalardan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Bunday holatda o'zgacha tarzda ifodalangan ma'no til me'yori doirasida qabul qilinadi. Ayni vosita to'g'ridan-to'g'ri ifodalanadigan birlik singari o'zining moddiy-mantiqiy ma'nosida ham, majoziy ma'noda ham bo'lishi mumkin [Madaminova 2023:27].

Natijalar. Lingvomadaniy va pragmatik tahlillar o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini oshirish bilan bir qatorda, ularning estetik tuyg'ulari va badiiy didini ham kamol toptiradi. Badiiy asarlar qiyosiy o'rganilganda, milliy adabiyotlarning o'ziga xos xususiyatlari, milliylik orqali namoyon bo'ladigan umumiy baynalminal mazmunni anglash mumkin.

Yo'lchi qurt olib kelganiga pushaymon qildi. Onasi qo'shnilaridan qurt yig'ib, boy tog'a uchun sovg'acha tayyorlab, suyuna-suyuna uning qo'liga tutqazgach, yaxshi-yomonligini surishtirmay, u ham olib jo'ngan edi.

Boy tog'a nonni ushatib, patnisni Yo'lchining oldiga surib qo'ydi.

– Ol, jiyan yo'lyurib kelgansan. Bir parcha yerlaring borligini eshitar edim, qo'llaringdami?

– Yo'q, – patnisdan bir burda non olib javob berdi Yo'lchi, – yer sotilib ketgan [Oybek. Qutluq qon: 12]

Ushbu parchadan ko'rinib turibdiki, o'zbek xonadonlarida mehmonning oldiga eng birinchi bo'lib o'zbek xalqi uchun eng muhim ozuqa etaloni hisoblangan, *non* olib kelinadi va ushatiladi, mehmon shuningdek, patnisdagi meva-chevalar bilan siylanadi. O'zbek xalqi mehmondo'st xalq bo'lib, har qanday vaziyatda ham, mehmonni yaxshi kutib olib unga xushmuomala munosabatda bo'ladi. Mehmondo'stlik xususiyati o'zbek millatiga xos etnomadaniy stereotip hisoblanadi. Ular o'zi uchun tayyorlagan taomni mehmon bilan baham ko'rishdan mamnun bo'ladi, hech bo'lmaganda, mehmonga choy va non taklif qilinadi. Bundan tashqari, qarindoshlarning bir-biriga *tog'a, jiyan* singari qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar bilan murojaat qilishi o'zbek madaniyatiga xos lisoniy xususiyat hisoblanadi. Bunday shakldagi murojaatga evfemistik ma'no yuklangan bo'lib, xushmuomalalik va hurmatni ifodalaydi. Matndagi *bir parcha* o'lchov birligini *bir burda* miqdorni ifodalovchi frazeologizmlar *ozgina* ma'nosini va *qo'l* konseptidan assotsiatsiyalangan *qo'llaringdami* so'zi *egallik qilmoq* ma'nosini anglatmoqda.

Parchadagi pragmatik vaziyatlarga diqqat qilsak, *Yo'lchi qurt olib kelganiga pushaymon qildi* birinchidan, u kambag'alligidan, boy qarindoshiga munosib sovg'a olib kelolmaganidan kuyungan bo'lsa, ikkinchi tomondan onasining mehnatlari uchun achindi, onaning o'zida yo'q bo'lishiga (*qo'shnilaridan qurt yig'ib*), o'zlari shunga-da zoriqib turgan bo'lishlariga qaramasdan (*boy tog'a uchun sovg'acha tayyorlab*), o'sha qurtlarni biror bora holidan xabar olmagan qarindosh uchun xursand bo'lib berib yuborganini (*suyuna-suyuna uning qo'lga tutqazgach*) ko'z o'ngidan o'tkazdi. Demak, bu gapdan ko'zlangan kommunikativ maqsad inson ruhiy holatini gavdalantirishdir. *Ol, jiyan yo'l yurib kelgansan* jumlasida noverbal vosita ya'ni ishora (*ol*) orqali patnisdagi non va uzumdan yeyish taklifi anglashilmoqda. *Bir parcha yerlaring borligini eshitar edim*, taxmin qilish orqali *xotiram pand bermasa* degan ma'noni nazarda tutib, *qo'llaringdami?* -mi so'roq yuklamasi yordamida yasalgan, aniq javob talab qiluvchi *yer-mulklaring bormi* savoli orqali Yo'lchining oilasidagi moliyaviy holati haqida aniq ma'lumot olish ko'zlangan. Yo'lchining *Yo'q, yer sotilib ketgan* jumlasida to'g'ridan-to'g'ri javob berishi uning pulga muhtojligini ifodalasa, qahramon nutqi o'rtasida qo'llangan patnisdan *bir burda non olib javob berdi* muallif nutqi orqali Yo'lchining och qolgani tasvirlangan.

R.L.Stevensonning "Kidnapped" asaridan keltirilgan diskurs orqali ingliz xonadonida xuddi shunday umrida birinchi marta amakisini yo'qlab kelgan jiyan ya'ni ikki qarindosh o'rtasidagi muloqotni kuzatamiz.

David went along a dark passage to the kitchen. The light of the fire was the only light. A table was set for supper with a bowl of porridge, a horn spoon, and a cup of beer.

The old man came back. He was wearing a flannel nightshirt.

"If you are hungry," he said to David, "you can eat the porridge. There is water to drink if you are thirsty."

He drank the beer himself.

"Is your father dead?" he asked David. I am his brother, Ebenezer Balfour. I am your uncle. Give me the letter." [Stevenson. Kidnapped: 14].

Ushbu parchada amakining jiyaniga bo'lgan munosabati u kelganda unga mulozamat ko'rsatmagani, odatiy stolga taklif qilgani, taomni ham uning o'zidan so'rab bergani hatto pivoni o'zi ichgani ingliz kitobxonlarini hayratga solmaydi. Ingliz millatining mentalitetiga ko'ra mehmon kelishini xabar bergan yoki kelishgan bo'lsagina unga choy yoki qahva taklif qilishlari mumkin, lekin taom emas. Chunki ular chaqirilmagan mehmonga mulozamat ko'rsatishni

majburiyat hisoblamaydilar. Yaqin qarindoshlarning bir-birini tanimasligi yoki uzoq yillar davomida aloqa qilmasligi ham ingliz madaniyatiga yot xususiyat emas. Amaki o'zini familiyasi, ya'ni *Ebenezer Balfour* deya tanishtirishi ingliz antroponimlariga xos, chunki inglizlarda avval ism, so'ngra familiya keladi. Shuningdek, qarindoshlarning bir-birlariga *Ser* yoki *Mister* ayollarga esa ijtimoiy va oilaviy holatiga ko'ra *Missis* (turmushga chiqmagan qiz), *Lady* (badavlat xonim), *Madam* (turmushga chiqqan ayol) singari so'zlar bilan murojaat qilishi inglizlarga xos lingvomadaniy xususiyatdir. Matnda *set for* – *mo'ljallangan* iborasidan, *bowl of porridge* va *a cup of beer* kabi miqdorni bildiruvchi so'z birikmalaridan foydalanilgan. *A horn spoon* erkin birikmasi, ya'ni qoshiqning yog'ochdan yasalganligi, o'sha zamon odamlari turmushida yog'och buyumlardan keng foydalanganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, insonlarga xususiyati (laqabi)ga ko'ra murojaat qilinishini har ikki millat madaniyatida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan: "*What is thy name, lad?*" "*Tom Canty, an' it please thee, sir.*" [Twain 1982:13]. Bu yerda asar bosh qahramonlaridan biri bo'lgan Tomning familiyasiga aylangan *Canty* so'zi ingliz tilida *sho'x*, *chaqqon* degan ma'nolarni beradi. *Lad* so'zi qadimgi ingliz tilida ishlatilgan *boy*, *guy* so'zlariga sinonim o'spirin yigit ma'nosini beradi va shevaga xos *is thy name – is your name, an'it – and it* fonetik qisqartmalardan foydalanilgan. Xuddi shunday, o'zbek madaniyatiga xos xususiyatni quyidagi parchada ko'rishimiz mumkin:

Do'konidan har narsa topiladigan bir baqqolga "farang baqqol" deb nom qo'ygan keksalar har ishda qo'li bo'lgan bu odamga "Miryoqub epaqa" laqabini berib, xato qilmaganlar. [Cho'lpon. Kecha va Kunduz: 65].

Farang so'zi usta mohirlik xususiyatlari bilan bir qatorda *yevropalik* degan ma'noni ham ifodalaydi. *Baqqol* o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan so'z bo'lib, bozor, guzar va mahallalardagi do'konchalarda mayda-chuyda ro'zg'or mollari, kundalik yegulik oziq-ovqatlar sotuvchi mayda savdogarlarga nisbatan ishlatilgan. Jumladan, Rossiyada qo'llaniladigan *бакалея*, *бакалейщик* atamallari baqqol so'zidan olingan. Demak parchadagi *farang baqqol* so'zi yevropalik savdogarni nazarda tutmoqda. Miryoqubga qo'llanilgan *epaqa* so'zi esa tartibga, izga tushiruvchi, shuningdek, har ishni imkonini topadigan, uddaburon kishi ma'nosini ifodalaydi. Bundan tashqari, erkalash, suyish, ulug'lash ma'nolarini tashuvchi *bek*, *jon*, *boy*, *xo'ja*, *nazar*, *hoji*, *polvon* kabi so'zlar o'g'il bolalar ismlariga, *xon*, *oy*, *oyim*, *begim*, *beka*, *poshsha* singari so'zlar qiz bolalar ismlariga qo'shilishini o'zbek madaniyati uchun me'yoriy holdir. Ingliz madaniyatida esa erkalab murojaat qilish ismlarni qisqartirib aytish orqali namoyon bo'ladi. *Lizzy – Elizabeth* (*Pride and Prejudice*), *Huck – Huckleberry*, *Tom – Tomas* (*Tom Sawyer's adventure*) singari.

Muhokama. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy asarlardagi qahramonlararo muloqotlar xalqning milliy tafakkuri, ijtimoiy qadriyatlar va lingvokulturologik stereotiplarini chuqur ifoda etadi. O'zbek adabiyotida mehmondo'stlik, hurmat, qarindoshlik aloqalari asosiy axloqiy mezon sifatida aks etadi, ingliz adabiyotida esa individuallik, shaxsiy chegaralar, mustaqillik qadrlanadi.

Til birliklari va nutqiy xatti-harakatlar madaniyatni aks ettiruvchi muhim pragmatik vositalardir. Shu bois, lingvomadaniy va pragmatik tahlil o'quvchilarga milliy qadriyatlarni anglash, ularni qiyosiy o'rganish orqali xalq ruhiyatini his etish imkonini beradi. Bunday yondashuv nafaqat tildagi ma'nolarni, balki ularning orqasidagi madaniy konnotatsiyalarni anglash uchun ham zarurdir.

Xulosa. O'zbek va ingliz adabiyotidagi personajlararo munosabatlar millatlarning madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ular tildagi milliy o'ziga xoslik, madaniy stereotiplar va kommunikativ konvensiyalarni aniqlashga xizmat qiladi. Lingvomadaniy va pragmatik tahlil orqali millatlararo farqlar va o'xshashliklarni yoritish, badiiy matnni chuqur talqin etish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдулҳамид Чўлпон. Кеча ва кундуз: Роман – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2013. – 332 б.
2. Madaminova Muhabbat Sotvoldiyevna. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni. Monografiya / M.S. Madaminova. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 100 b.
3. Минский М. Остроумие и логика бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. – Москва, 1988. – С. 281-302.
4. Oybek. Qutlug' qon. Roman. – Toshkent: Yangiyo'l poligraf servise, 2019. – 368 b.
5. Qurambayev K. Adabiyotshunoslik asoslari. – Nukus: Nukus davlat pedagogika instituti, 2011. – 89 b.
6. Stevenson R.L. Kidnapped. Retold by Gwendoline Dun. – Hong Kong: Oxford University Press, 1983. – 128 p.
7. Twain M. The Prince and the Pauper. By Signet. May 1, 2002. – 240 p. goodreads.com.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

LANGUAGE CHANGE AND THE EMERGENCE OF NEW LEXICAL UNITS IN THE DIGITAL ERA

Khodjayeva Khurshida Sharafitdinovna

University of World Economy and Diplomacy

Department of Romano-Germanic Languages

Senior Lecturer

E-mail: xxodjayeva@uwed.uz

Abstract. The digital era has brought profound changes to language, particularly visible in the rapid emergence of new lexical units. This article explores how internet communication, social media, and technological innovations influence language change, leading to the creation and diffusion of novel words and expressions. By analyzing examples from contemporary digital discourse, the study highlights the dynamic nature of language and the impact of digital culture on vocabulary expansion. The article also discusses the implications of these changes for language norms and linguistic identity.

Keywords: language change, lexical units, digital era, internet language, neologisms, social media, language evolution.

RAQAMLI DAVRDA TILNING O'ZGARISHI VA YANGI LEKSIK BIRLIKLARNING PAYDO BO'LISHI

Xodjayeva Xurshida Sharafitdinovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Romano-german tillari kafedrası

Katta o'qituvchi

Annotatsiya. Raqamli davr tilga chuqur o'zgarishlar kiritdi, bu ayniqsa yangi leksik birliklarning tez paydo bo'lishida ko'rinadi. Ushbu maqola Internet aloqasi, ijtimoiy media va texnologik innovatsiyalar til o'zgarishiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi, bu esa yangi so'zlar va iboralarning yaratilishi va tarqalishiga olib keladi. Zamonaviy raqamli nutqdan misollarni tahlil qilish orqali tadqiqot tilning dinamik tabiatini va raqamli madaniyatning so'z boyligini kengaytirishga ta'sirini ta'kidlaydi. Maqolada ushbu o'zgarishlarning til me'yorlari va til o'ziga xosligiga ta'siri ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: til o'zgarishi, leksik birliklar, raqamli davr, internet tili, neologizmlar, ijtimoiy media, til evolyutsiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N37>

Introduction. Language is a living system that constantly evolves under the influence of social, cultural, and technological factors. The rise of the digital era, characterized by widespread internet use and social media platforms, has accelerated this evolution, ushering in unprecedented changes to vocabulary. New lexical units—words, phrases, and expressions—are rapidly created and disseminated through online communication. These neologisms often reflect new concepts, technologies, and social phenomena unique to digital culture.

Understanding how language changes in this context is essential for grasping modern linguistic dynamics and adapting language teaching and norm-setting to contemporary realities [1].

Main part. Language is an evolving phenomenon that is likely to adapt as societies, cultures, and technologies evolve. During the age of the internet, with its rapid technological innovation in communication and pervasive web, language has experienced significant changes, most notable among these being the evolution of vocabulary. One of the most outwardly apparent signs of modern language evolution is the increase in new lexis — words, phrases, and expressions — that flow into language. They have a tendency to develop as a direct reaction to computer-mediated innovations, social media trends, and communicative necessities of online interaction [2].

The digital revolution has given rise to unprecedented means of communication, such as instant messaging, microblogging, forums, and multimedia sharing websites. These channels of communication necessitated the development of short, expressive, and often playful new words responding to the fast and snappy nature of online interaction. Terms like "selfie," "hashtag," "emoji," and "meme" have spread internationally quickly, gaining common usage beyond and above being internet slang [3]. These terms not only label new phenomena, but they also illustrate how technology influences thinking and modes of communication.

One of the main forces behind lexical creation in the digital age is language and culture blending on the internet. The internet connects the world, promoting interlingual borrowing and blurring on an accelerated pace. English plays a specific dominance, but new digital lexemes more likely come from cross-lingual borrowings and mainstream culture. Such worldwide contact fosters an active, hybrid vocabulary reflecting heterogeneous social identities and technological facts, undermining traditional oppositions between "standard" and "non-standard" language [4].

Social media sites are powerful platforms for the creation, popularization, and dissemination of new words [5]. Memes, viral challenges, and trending hashtags form new words or give new meanings to existing words. For instance, "ghosting," which was originally to ghost away, today has a specific social implication related to suddenly ghosting someone [6]. These lexical innovations spread fast through shares, retweets, and reposts, reflecting the rapidity and extensive coverage of digital communication.

In addition to new words, the digital era also fuels several creative linguistic processes such as abbreviation, clipping, blending, and acronymization. A few examples are "LOL" (laughing out loud), "FOMO" (fear of missing out), and "infodemic" (information epidemic). Such processes ensure efficient communication simultaneously adding to language change by introducing substitute lexical forms that get entered into ordinary talk and writing.

Emergence of new lexic units is also evidence of the influence of digital culture on the norms and attitudes towards language. Language purists may resist these innovations, perceiving new digital lexemes as illegitimate or degrading language quality. Certain linguists, however, assume that such lexical innovation is inevitable and natural for the dynamism of a language because it helps individuals to represent contemporary realities. Over time, some digital-era words become institutionalized, appearing in dictionaries and formal contexts, signifying their integration into the language system [7].

In addition, language change in the digital arena is not restricted to vocabulary; semantic change often accompanies innovative neologisms. Words are redirected or acquire novel

meanings in digital environments. For example, "cloud" no longer simply signifies weather but is applied to describe virtual data repositories. This semantic malleability illustrates how digital communication remodels existing words and increases the expressiveness of language.

New terms that emerge during the digital age also have social functions, helping individuals build group identity and solidarity in cyberspace. In-group marker terms are typical of digital-native words, which identify groups of shared interests or experiences. This development fosters social solidarity among digital subcultures as well as enhancing language diversification [8].

However, the rapid pace of lexical change during the computer era poses challenges to language standardization, pedagogy, and communication lucidity. Teachers and language planners are charged with striking a balance between being open to innovation and safeguarding linguistic heritage and communicability. Having formal and informal varieties with augmented computer lexical items calls for fresh models for instruction of languages and norm control in digitally expanding cultures.

The integration of digital technologies in the classroom is a complex and multifaceted process with different dynamics, including the relationship between digital technology and teacher and student competence, family support, and innovations within educational programs. This article presents a systematic literature review to analyze how the integration of educational technology into classroom practice has developed in recent years at non-university levels. The selection of articles was carried out using various website databases, and a temporal search of scientific articles from 2023 to the present was carried out to obtain key insights related to the research objective. The main results point to several variables that need to be strengthened to enhance the integration of digital technologies in the classroom, among which a special focus on initial training stands out as a crucial factor. This opens up discussions about trainings for future teachers related to the integration of digital technologies into the teaching process. By using computer technologies in the educational process, not only the quality of lessons increases through many interesting and new and animated videos, but also the teaching methodology with modern methodology develops. Nowadays, schools are organizing classes that are integrated with a wide range of modern computer technologies [9]. At the same time, the quality of computer science lessons is increasing as the capabilities of computer technology increase. Today, it is difficult to imagine young people without knowledge of modern computer technologies. In addition to computer science, schools also need to provide students with basic directions in the use of computer technology in the teaching process and programming, which will cover this area of digital technology. Digital technologies, as mediating elements of learning processes, allow teachers to break away from the traditional hierarchical model [10]. They create frameworks and networks in which students write, read, learn, interact, co-construct, and define their identities. The implementation of digital technologies in learning processes increases the quality of teaching processes and creates the basis for making lessons interesting and understandable.

Today, information technologies have created wider opportunities for the implementation of modern methods, techniques and software tools of innovative technologies in the education system. The effective use of these opportunities in the continuous education system depends on the knowledge, qualifications, professional skills, abilities, talents and culture of teachers, as well as on their active use of new pedagogical and information

technologies in the teaching process. Therefore, today a new modern educational technology system is being created in our republic, the main task of which is to ensure the continuity and coherence of educational content in the education system, improve the methodology of teaching subjects, and introduce new pedagogical and information technologies into the educational process [11]. One aspect that needs to be assessed in the training efforts carried out and that is presented as an obstacle to the proper integration of digital technologies in the classroom is the clearly instrumental nature of the training. It does not offer sufficient content to enhance the educational opportunities of digital tools, educational strategies or didactic models. Under the training plans, the view of the teacher as a technician who must have the necessary instrumental skills to use technological resources is based, or indeed it is assumed that teachers have the ability to translate this knowledge into pedagogical applications. Preparing teachers to integrate digital technologies therefore requires a review of current approaches and practices that are still practically oriented towards technical and computer education. In addition to the formation of digital skills and competencies in teachers, such skills must be related to the content of each subject taught. Of these three dimensions, the most emphasized by researchers is the pedagogical aspect, which involves thinking about new teaching strategies, revealing appropriate didactic methods to develop learning experiences using digital technologies. Designing and selecting appropriate technological didactic materials for teaching and student assessment. Therefore, teacher training for the effective integration of technology in the classroom should be oriented towards principles that stand out in educational research. For example: focus on curriculum content, use of active learning strategies, involving teachers in collaboration, use of models and modeling, facilitation of coaching and expert assistance, availability of time for feedback and reflection, and sustainability in the medium and long term.

Overall, the digital age has generated profound language change characterized by swift emergence of novel lexic units that reflect technological innovation and changing sociocultural conditions. These changes underscore language's remarkable plasticity and the intimacy between devices of communication and linguistic modification. As digitalization of communication continues and increasingly affects the way people behave and interact, the study of new vocabulary gives information on the ever-changing nature of language in the 21st century. It will be critical for linguists, educators, and users to identify and embrace these changes as they continue to navigate the highly sophisticated landscape of modern language.

Language is a living system, constantly evolving in response to societal shifts, and the digital era has accelerated this transformation. According to linguist David Crystal, the internet has not only introduced new vocabulary but also reshaped linguistic norms. He opines that digital communication platforms like social media and texting have fostered a “new linguistic ecology,” where informal, abbreviated, and playful language thrives. Crystal emphasizes that this environment encourages creativity, leading to the rapid birth of neologisms such as “selfie,” “hashtag,” and “unfriend.”

Similarly, Naomi Baron, a scholar in digital communication, argues that the digital age has blurred the boundaries between spoken and written language. She asserts that the rise of instant messaging and online forums has created a hybrid mode of communication—what she calls “written speech.” According to Baron, this shift has led to the emergence of lexical units

that mimic spoken discourse, including interjections like “LOL” and “OMG,” which now function as textual expressions of emotion and tone [12].

In a more sociolinguistic vein, Jean Aitchison explores how digital media democratizes language innovation. She opines that the internet empowers users—especially younger generations—to become active agents of linguistic change. Aitchison highlights that platforms like TikTok and Reddit serve as incubators for new words and phrases, often born from memes, trends, or subcultural slang. These lexical units can gain traction quickly, sometimes entering mainstream usage and even dictionaries within months.

The scholars collectively underscore that digital communication is not degrading language but diversifying it. Crystal views this as a natural evolution, Baron sees it as a structural shift, and Aitchison frames it as a social phenomenon. Their perspectives converge on the idea that the digital era has expanded the mechanisms through which language changes, making it more participatory and dynamic than ever before.

Moreover, the emergence of new lexical units reflects broader cultural and technological shifts. Words like “influencer,” “streamer,” and “cryptocurrency” are not just linguistic novelties—they signify new roles, behaviors, and systems within society. As Baron notes, language adapts to describe new realities, and the digital world is a fertile ground for such adaptation.

In conclusion, the digital era has catalyzed a profound transformation in language, marked by the rapid emergence of new lexical units. According to Crystal, Baron, and Aitchison, this change is multifaceted—driven by technological innovation, shifts in communication norms, and the democratization of linguistic creativity. Their insights reveal that language in the digital age is not static but a vibrant, evolving tapestry shaped by the voices of its users.

Conclusion. The digital era has significantly transformed language, fostering the growth of new lexical units that mirror technological advances and changing social practices. This ongoing process demonstrates language’s adaptability and its close connection with human communication trends. While some neologisms may become standard over time, others remain transient digital slang. Recognizing and studying these developments is crucial for linguists, educators, and language planners aiming to balance language preservation with innovation in an increasingly interconnected world.

References/Adabiyotlar/Literatura:

1. Androutsopoulos, J. (2011). Language change and digital media: A review of conceptions and evidence. *Standard languages and language standards in a changing Europe*, 1, 145-159.
2. Asharaf, Z. (2025). The Impact of Digital Media on Language Change: A Study of English Lexical Innovation.
3. Satibaldieva, N. (2024). Dynamics of linguistic evolution in the technological epoch. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(1), 9-11.
4. Ali, S. S. (2025).: Lexical Evolution in the Digital Age: A Corpus-Based Analysis of Emerging English Words and Acronyms. Accepted and is on the process of production at www.lingcure.org.
5. Ali, S. S. (2025).: Lexical Evolution in the Digital Age: A Corpus-Based Analysis of Emerging English Words and Acronyms. Accepted and is on the process of production at www.lingcure.org.

6. Ali, S. S. (2025).: Lexical Evolution in the Digital Age: A Corpus-Based Analysis of Emerging English Words and Acronyms. Accepted and is on the process of production at www.lingcure.org.
7. Paramata, Y., Bolilio, A. M., Ahmad, R., & Lundeto, A. (2025). Language Change in the Digital Era: Social Media, Globalization, and Technological Impacts on Language Evolution. *Journal of Advance in Language, Literature, and Education*, 1(2), 87-94.
8. Panjaitan, L. L., & Patria, A. N. (2024). Social media and language evolution: The impact of digital communication on language change. *International Journal of Linguistics, Literature and Translation*, 7(12), 53-57.
9. Эсиргапов, М. (2025). Globalization and technology: theoretical foundations of lexical-semantic changes in English. *Лингвоспектр*, 4(1), 112-120.
10. Huseynova, R., Aliyeva, N., Habibova, K., & Heydarov, R. (2024). The evolution of the English language in the internet and social media era. *Cadernos de Educação Tecnologia e Sociedade*, 17(se4), 299-314.
11. Valeriivna, B. T. (2024). NEOLOGISMS IN INTERNET DISCOURSE: DYNAMICS OF LINGUISTIC INNOVATION IN DIGITAL COMMUNICATION. *ЛВІВСЬКИЙ ФІЛОЛОГІЧНИЙ ЧАСОПИС*, 24.
12. Nykyporets, S. S., Stepanova, I. S., & Herasymenko, N. V. (2023). Diachronic analysis of lexical changes in the English language: the influence of sociolinguistic factors. *Bulletin of Science and Education*. № 10: 330-342.

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW**Received:** 10 October 2025**Accepted:** 25 October 2025**Published:** 2 November 2025*Article / Original Paper***REFLECTIONS ON THE CRIMINAL-LEGAL CONCEPT OF PARTICIPATION
IN A CRIME****Reymbaev Abdulla Kurbanbaevich,**

Acting associate professor of the department of

“Criminal Law, process and criminalistics”, (PhD)

Abstract. The article analyzes legal considerations regarding the concept of "involvement in a crime", which is considered one of the main terms in criminal law. Attention is drawn to the fact that involvement in a crime is not an element of the institution of complicity, but is considered a separate institution of criminal law. The conclusions drawn by industry scientists regarding the concept of involvement in a crime have been studied, and based on them, an author's definition of the term "involvement in a crime" has been provided.

Keywords: crime, punishment, complicity in a crime, involvement, latency, failure to report, concealment of a crime, failure to report to authorities, criminal liability, criminal activity.

**РАССУЖДЕНИЯ ОБ УГОЛОВНО-ПРАВОВОМ ПОНЯТИИ УЧАСТИЯ
В ПРЕСТУПЛЕНИИ****Реймбаев Абдулла Курбанбаевич,**

и.о. доцента кафедры «Уголовного права, процесса и криминалистики», (PhD)

Аннотация. В статье анализируются правовые соображения относительно понятия "причастность к преступлению," которое считается одним из основных терминов в уголовном праве. Обращается внимание на то, что причастность к преступлению не является элементом института соучастия, а считается отдельным институтом уголовного права. Изучены выводы, сделанные отраслевыми учеными относительно понятия причастности к преступлению, и на их основе дано авторское определение термина причастность к преступлению.

Ключевые слова: преступление, наказание, соучастие в преступлении, причастность, латентность, неуведомление, сокрытие преступления, неуведомление органов власти, уголовно наказуемость, преступная деятельность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N38>

Коренные изменения и резкие повороты в жизни общества обычно указывают на рост преступности, особенно ее наиболее опасных форм. Преступность - это постоянно меняющееся и развивающееся явление. Для отдельных видов и групп преступности характерна высокая степень преступности, устойчивость вертикальных и горизонтальных связей внутри преступности и внутри государства. К ним относятся вопросы ответственности за не сообщение о преступлении или сокрытие преступления.

В этом смысле эффективность борьбы с преступностью зависит от практических действий правоохранительных органов. Его обеспечение требует знания фактического

состояния преступности и результатов, достигнутых правоохранительными органами на практике.

Сегодня правоприменительная практика Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева, в частности, "одним из основных требований, предъявляемых к деятельности правоохранительных органов, является не борьба с последствиями правонарушений, а их своевременная профилактика, обеспечение справедливости и правды по каждому преступлению" [1, 17].

Высокий уровень латентности преступности, высокий уровень раскрываемости большинства преступлений свидетельствуют о том, что оставшиеся на свободе преступники продолжают совершать противоправные деяния и активизируют свою преступную деятельность, что, в свою очередь, приводит к более опасному характеру совершаемых противоправных деяний.

Как известно, его понятие имеет важное уголовно-правовое значение для определения возможностей эффективного применения института соучастия в преступлении. Однако А.В.Наумов отмечает: "В понятии причастности к преступлению нет ясности. В уголовном праве нет необходимости определять понятие причастности к преступлению, поскольку формы причастности считаются преступлениями с самостоятельным составом"[2, 36].

Однако деяния, связанные с причастностью к преступлению, действительно существуют, и их нельзя отрицать. Поэтому можно согласиться с мнением М. Усманилиева о том, что "причастность к преступлению не является элементом института соучастия, а считается отдельным институтом уголовного права" [3, 296].

По нашему мнению, важно, чтобы закон позволял воздействовать не только на непосредственных участников преступления, но и на лиц, причастных к нему. Действительно, успех борьбы с преступлениями, особенно тяжкими преступными деяниями, зависит от эффективности борьбы с причастностью. С этой точки зрения, вопрос ответственности за несообщение о преступлении или сокрытие преступления заслуживает особого внимания с теоретико-практической точки зрения. В законодательстве, судебно-следственной практике и теории уголовного права к данному вопросу подходят неоднозначно.

Как отмечает Н.С. Косякова, "нормы института причастности к преступлению имеют двойственную предупреждающую силу: с одной стороны, они предусматривают создание безопасных условий жизни для членов общества, устраняя благоприятные условия для осуществления преступной деятельности; с другой стороны, способствуют сокращению латентных преступлений, их раскрытию и изобличению преступников, обеспечивая неотвратимость ответственности за конкретные преступления"[4, 52].

Кроме того, в настоящее время наблюдаются случаи недооценки поведения заинтересованных лиц, что нашло отражение в позиции законодателя и в науке.

В современной юриспруденции понятие причастности к преступлению трактуется учеными-правоведами по-разному, но по сути однозначно. В частности, М. Усманилиев утверждает: "Причастность - это совершенное другими лицами или совершенное ими преступление, в котором они вообще не участвовали, но четко зная о том, что они готовятся к преступлению, совершают преступление, не сообщая органам власти без предварительного обещания, а также сокрытие преступника, орудия

преступления, следов преступления или предметов, добытых преступным путем, без предварительного обещания"[5, 27].

М.Х.Рустамбаев также размышляет по этому поводу, определяя "причастность к преступлению как уголовно наказуемую причастность, не связанную с ним причинно"[6, 48]. По мнению А.С.Якубова, "причастность к преступлению означает причастность к преступлению, совершаемому другими лицами, без участия в преступлении"[7, 83]. Кроме того, в зарубежной юридической литературе "причастность к преступлению - это деятельность лица, не имеющего непосредственного отношения к преступлению, которое является отношением, связанным с преступной деятельностью"[8, 56].

По мнению Н.С. Косяковой, исследовавшей рассматриваемый институт, "причастность к преступлению - это общественно опасные деяния (действия или бездействие), посягающие на общественную безопасность и предусмотренные уголовным законом, совершенные виновно, подготовленные, совершаемые или связанные с совершенным преступлением, но не способствующие его подготовке и совершению, следовательно, не имеющие причинно-следственной связи с преступным исходом" [8,27].

В.Г.Трифонов определяет понятие соучастия в преступлении: "общественно опасное, противоправное поведение, которое не было заранее обещано, совершается умышленно, препятствует деятельности по предупреждению, пресечению и раскрытию другого общественно опасного деяния, совершаемого или совершенного другим лицом, которое может быть совершено только при наличии последнего упомянутого преступления и в связи с ним, но не определяет причинно-следственную связь и виновное совершение этого деяния"[9, 76].

В отличие от определения Н.С.Косяковой, В.Г.Трифонов наряду с преступлениями указывает на возможность причастности к общественно опасным деяниям лиц, которые по определенным обстоятельствам (вследствие несовершеннолетия, невменяемости) не могут быть субъектами преступления.

По мнению В.Г. Трифонова: причастность к преступлению должна определяться совокупностью следующих признаков:

степень общественной опасности деяния, содержащего причастность к преступлению, взаимосвязана со степенью общественной опасности основного преступного деяния;

соучастие в преступлении всегда носит характер совершения вины в умышленной форме;

причастность к преступлению может существовать только при наличии и в отношении преступления, совершенного другим лицом;

причастность к преступлению существует только в том случае, если она не была заранее обещана, то есть между поведением лиц, причастных к преступлению, и совершаемым или совершенным общественно опасным деянием отсутствует причинно-следственная связь;

причастность к преступлению сохраняет свое уголовно-правовое значение только в отношении преступлений, а не в отношении общественно опасных деяний,

совершенных неменяемым или лицом, не достигшим возраста уголовной ответственности;

во всех случаях поведение, состоящее из причастности к преступлению, препятствует нормальной деятельности государственных органов по предупреждению, пресечению, раскрытию и привлечению к уголовной ответственности общественно опасных деяний других лиц, что означает неизменность объекта причастности к преступлению, несмотря на разнообразие общественных отношений, в которых посягает основное деяние[9, 78].

К "некоторым действиям причастности" автор относит не обещанное заранее сокрытие, не сообщение о не обещанном заранее преступлении и допущение преступления.

Исходя из этого, В.Г.Трифонов предложил перечень признаков, выделяющих причастность к преступлению как самостоятельный институт. Это: "1) причастность к преступлению может существовать только для деяния, порождающего преступление; 2) он не может быть заранее обещан, иначе он становится соучастником преступления; 3) считается законченным с момента оказания услуги. Может существовать покушение на создание благоприятной возможности для преступления; 4) причастность к преступлению должна быть умышленной; 5) может осуществляться на любой стадии преступной деятельности; 6) допускает соучастие в самостоятельном преступлении; 7) он не может совпадать с соучастием в преступлении, на которое он указывает, иначе он становится простым соучастием: не может одновременно создавать благоприятную возможность для преступления и быть соучастником в самом преступлении"[9, 86].

С.Н.Сабанин понимает соучастие в преступлении как "умышленную деятельность, выражающуюся в сокрытии совершенного преступления, не сообщении о готовящихся и совершенных преступлениях или несопротивлении совершаемым преступлениям лиц, на которых возложена обязанность по их пресечению и предупреждению" [10, 69].

Однако данное определение не раскрывает чётко, кого следует понимать под лицами, причастными к преступлению. М.Усмоналиев утверждает, что под причастностью к преступлению следует понимать "совершение преступления, совершенного или совершенного другими лицами без какого-либо участия в преступлении, но с четким знанием о том, что они готовятся к преступлению, совершают преступление, без предварительного обещания не сообщать органам власти, а также сокрытие преступника, орудия преступления, следов преступления или предметов, добытых преступным путем, без предварительного обещания"[3, 296]. Однако, на наш взгляд, в данном определении не упоминается совершение преступления.

Статья 31 Уголовного кодекса предусматривает два вида причастности к преступлению: "1) несообщение о преступлении без предварительного обещания; 2) сокрытие без предварительного обещания преступника, орудий и средств совершения преступления, следов преступления или предметов, добытых преступным путем."

Лица, не участвовавшие в совершении общественно опасного деяния, но имеющие отношение к совершению преступления, являются причастными к преступлению.

Юрист А.С.Якубов утверждает, что "под причастностью к преступлению понимается причастность к преступлению, совершаемому другими лицами, без участия в преступлении"[7, 269].

Продолжая эти взгляды, С.Н. Новиченко определил "причастность к преступлению как особый институт уголовного права, определяющий ответственность и порядок лиц, не являющихся соучастниками преступления, но в той или иной форме причастных к совершению преступления"[11, 297].

УК Республики Узбекистан предусматривает два вида причастности: несообщение о преступлении соответствующим органам без предварительного обещания и сокрытие преступления без предварительного обещания. Некоторые авторы, в частности, А.С.Якубов, также рассматривают совершение преступления как отдельный вид причастности, тем самым подчеркивая существование трех типов этого института [7, 269].

Н.С. Косякова также включает в виды причастности к преступлению не обещанное заранее сокрытие, несообщение о преступлении и о лице, его совершившем, а также допущение преступления[8,]. Еще одно правило отражено в некоторых учебных пособиях и комментариях к уголовному законодательству. Например, "УК предусматривает еще одну форму причастности к преступлению - завладение или сбыт заведомо приобретенного преступным путем имущества. Это особая форма по сравнению с сокрытием преступления"[12, 235]. В другом комментарии присвоение или сбыт указанных предметов и ценностей относится к видам сокрытия преступления[13, 158]. Аналогичную мысль выдвигает и А.Е. Милин: "Приобретение или сбыт заведомо приобретенного преступным путем имущества по своей юридической природе имеет все признаки соучастия в преступлении и является особой его формой, отличающейся от других форм"[14, 200].

В то же время, в статье 31 Уголовного кодекса Республики Узбекистан такие формы, как совершение преступления и легализация заведомо приобретенного преступным путем имущества, не предусмотрены в качестве вида соучастия в преступлении.

Из этого видно, что если недопущение входит в сферу служебных обязанностей лица, оно не рассматривается как причастность к преступлению, а оценивается и квалифицируется как состояние, при котором имеется отдельный состав преступления. Если предотвращение не входит в круг обязанностей лица, следует иметь в виду, что на каждого гражданина возложена обязанность по предупреждению преступлений.

Таким образом, правовое понятие соучастия в преступлении имеет особое значение в науке уголовного права. Понятие данного термина подвергается сравнительно-правовому анализу с понятием соучастия в преступлении. В качестве заключения к нашей научной статье, понятие причастности к преступлению признается следующим: "Под причастностью к преступлению понимается заведомое несообщение о готовящемся, совершаемом или совершенном преступлении, а также о лицах, его

совершивших, равно как и сокрытие следов преступления или лица, его совершившего, без предварительного обещания."

Литература/Adabiyotlar/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Уголовное право в 2 т. Том 1. Общая часть: учебник для вузов / А.В.Наумов [и др.]; ответственные редакторы А.В.Наумов, А.Г.Кибалник. – 5-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2023.
3. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи: Умумий қисм: Олий о'қув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
4. Косякова Н.С. Прикосновенность к преступлению по российскому уголовному праву: становление, состояние и перспективы развития: Автореф. дис... канд...юрид...наук. – М., 2001.
5. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи: Умумий қисм: Олий о'қув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
6. Рустамбоев М.Ҳ. О'збекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм. – Тошкент: Илм Зиё, 2006.
7. Якубов А.С. Учение о преступлении по законодательству Республики Узбекистан. – Т. Академия МВД. 1995.
8. Косякова Н.С. Прикосновенность к преступлению по российскому уголовному праву: становление, состояние и перспективы развития: Автореф. дис... канд...юрид...наук. – М., 2001.
9. Трифионов В.Г. Заранее не обещанное укрывательство преступлений и несообщение о них как виды прикосновенности к преступлению. – Дисс. ...канд. юрид. наук. – Спб., 2000.
10. Освобождение от уголовной ответственности и наказания: основания, виды, последствия". т.4 (Екатеринбург, 1995)
11. Новиченко С.Н. Прикосновенность к преступлению // Вопросы права в третьем тысячелетии. Материалы межвузовской научно-практической конференции вузов МВД Республики Беларусь и России (27-февраля 2003 г.). - Минск, Брянск: БФ МосУ МВД России, 2003.
12. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации (коллектив авторов; отв. ред. д.ю.н., проф. А.И. Рарог; 13-е изд., перераб. и доп.). - "Проспект", 2022 г.
13. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации (постатейный). Под общей редакцией: Есаков Г. А. М.: Издательство Проспект, 2021.
14. Милин А.Е. Уголовная ответственность за приобретение или сбыт имущества, заведомо добытого преступным путем: диссертация ... кандидата юридических наук: 12.00.08. - Москва, 2004.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

LEGAL REGULATION OF LOCAL COUNCILS' ACTIVITIES IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF TERRITORIES: A RETROSPECTIVE ANALYSIS

Sayfiddinov Aqliddin Anvarjon ogli,
PhD Student, Institute of Legislation and Legal Policy
under the President of the Republic of Uzbekistan
E-mail: aqliddin sayfiddinov0102@gmail.com

Abstract. The article analyzes the historical and legal foundations of local councils and their role in the socio-economic development of territories. The study reveals the stages of formation of the local governance system, its legal and institutional foundations, and the scientific-theoretical significance of civic participation in regional socio-economic development.

Keywords: local councils, historical-legal analysis, territorial governance, socio-economic development, statehood traditions, legal institutions, civic participation.

HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY KENGASHLAR FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: RETROSPEKTIV TAHLIL

Sayfiddinov Aqliddin Anvarjon o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada mahalliy kengashlar faoliyatining tarixiy-huquqiy asoslari va ularning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o'рни tahlil qilingan. Tadqiqotda mahalliy boshqaruv tizimining shakllanish bosqichlari, huquqiy-institutsional asoslari va jamoatchilik ishtiroki orqali hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy kengashlarning ilmiy-nazariy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy kengashlar, tarixiy-huquqiy tahlil, hududiy boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, davlatchilik an'analari, huquqiy institutlar, jamoatchilik ishtiroki.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N39>

Kirish. Mahalliy boshqaruv tizimi har qanday davlatning barqaror rivojlanishi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilaydigan asosiy omillardan biridir. O'zbekiston davlatchiligi tarixi shuni ko'rsatadiki, xalqning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, kengash orqali maslahatlashish va jamoatchilik manfaatini hisobga olish an'analari ildizlari necha ming yillar oldinga borib taqaladi. Xususan, XI asrda yashagan buyuk davlat arbobi Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida davlatni idora qilishda adolat, maslahat va jamoatchilik fikriga suyanish zarurligi ta'kidlangan [1; 17-92]. XIV asrdagi Amir Temur tuzuklarida ham davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash va maslahat orqali hal etilishi lozimligi qayd etilgan [2; 25]. Bu, o'z navbatida, xalq vakillari ishtirokidagi davlat boshqaruvining ilk huquqiy va amaliy shakllaridan biri sifatida baholanadi. Shuningdek, islom

huquqi manbalarida ham muhim qarorlarni qabul qilishda maslahat tamoyilini davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida belgilab bergan. Bu an'ana keyinchalik Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida jamoatchilik ishtirokini ta'minlovchi huquqiy va ma'muriy shakllar sifatida saqlanib qoldi. Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgandan keyin mahalliy boshqaruv tizimi mustamlakachilik siyosatiga mos ravishda qayta tashkil etildi. Shunga qaramasdan, mahalliy aholi vakillarining shahar Dumalari orqali boshqaruv jarayonlaridagi ishtiroki keyinchalik kengashchilik an'analari rivojlanishi uchun zamin yaratdi. Mazkur tadqiqot mahalliy boshqaruv tizimining tarixiy ildizlarini, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini va evolyutsion rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi — mahalliy kengashlar va boshqaruv tuzilmalarining tarixiy-huquqiy rivojlanishini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot mahalliy boshqaruv tizimining ildizlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda tarixiy va huquqiy tahlil usuli asosiy metodologik asos sifatida qabul qilindi. Ushbu usul mahalliy boshqaruvning turli sivilizatsion davrlardagi huquqiy va institutsional shakllarini o'rganish, ularning o'zaro bog'liq jihatlarini aniqlash hamda evolyutsion rivojlanish bosqichlarini o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy tahlil bilan birga qiyosiy yondashuv usuli ham qo'llanildi. Bu orqali Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridagi davlat boshqaruvi nazariyasi, Amir Temurning tuzuklaridagi Devon tizimi va maslahat organlari, shuningdek, islom huquqidagi sho'ro tamoyillari hamda Turkiston davri mahalliy boshqaruv amaliyoti o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar ilmiy asosda solishtirildi. Bunday yondashuv mahalliy boshqaruvning siyosiy-huquqiy mazmuni bilan birga, uning iqtisodiy va ijtimoiy mohiyatini ham yoritish imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda arxiv-manbashunoslik tahlil usuli muhim o'rin tutdi. Turkiston general-gubernatorligi hujjatlari, Toshkent shahar Dumasi to'g'risidagi qarorlar, moliyaviy hisobotlar va idoraviy nizomlar chuqur tahlil qilinib, XIX–XX asr boshlaridagi mahalliy boshqaruv tizimining haqiqiy mazmuni ochib berildi. Bu hujjatlar orqali Toshkent shahridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari, mahalliy vakillarning faoliyat doirasi va jamoatchilik boshqaruvining ta'sir mexanizmi ilmiy jihatdan asoslandi.

Metodologik yondashuvning yana bir muhim jihati — tizimli tahlil usuli bo'lib, u mahalliy boshqaruv organlarining siyosiy, iqtisodiy va ma'muriy elementlarini bir butun institut sifatida o'rganishga imkon berdi. Bu orqali mahalliy kengashlar faoliyati nafaqat huquqiy va ma'muriy kategoriya sifatida, balki hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantiruvchi murakkab mexanizm sifatida tahlil qilindi.

Muhokama.

3.1. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida mahalliy boshqaruv va kengash g'oyasi

Mahalliy boshqaruv tizimi shakllanishining ilk nazariy asoslarini islom siyosiy-falsafiy maktabi va Sharq ma'muriy fikrida izlash mumkin.

XI asrda yashagan buyuk davlat arbobi va vazir — Abu Ali Hasan ibn Ali Nizomulmulk tomonidan yozilgan "Siyosatnoma" asarida davlat boshqaruvining asosiy tamoyillari ilmiy tizimga solingan bo'lib, u nafaqat markaziy hokimiyat, balki mahalliy boshqaruv asoslarini ham nazariy jihatdan asoslab bergan. Nizomulmulk fikricha, davlatning barqarorligi faqat qonun

ustuvorligi yoki harbiy kuch bilan emas, balki hududlarning obodonchiligi, xalqning farovonligi va jamoatchilikning boshqaruvdagi ishtiroki bilan ta'minlanadi. Muallif asarida shunday yozadi: "Davlatni idora qilish talablaridan biri — chetdan koriz qazib, suv keltirish, qishloq va dalalarni obod qilish, qal'alar qurish, shaharlar barpo etish, keng ko'chalar, bozor va binolarni bunyod etishdir" [1; 17-92]. Bu fikr davlat boshqaruvining markaziy vazifasi — hududiy rivojlanish va infratuzilmani yaratish ekanligini anglatadi. Nizomulmulkning bu qarashi hozirgi zamonaviy ma'muriy va iqtisodiy fanlardagi "barqaror rivojlanish" konsepsiyasining ilk nazariy ildizlaridan biri hisoblanadi.

Nizomulmulk fikricha, hokimiyatning adolatli bo'lishi uning xalq manfaatini hisobga olishi bilan belgilanadi. Shu bois u boshqaruvni "maslahat asosida tashkil etish" zarurligini ta'kidlaydi, ya'ni: "Barcha ishlarni maslahat bilan amalga oshirish — kishining oqilligi va irodasidan dalolatdir" [1; 17-92]. Bu g'oya kengash va jamoatchilik ishtiroki institutining ilk nazariy shakli sifatida e'tirof etilishi mumkin. Nizomulmulk boshqaruvda faqat buyruq va itoat tamoyiliga suyanmasdan, idoraviy hamkorlik va maslahatni bosh mezon sifatida belgilaydi. Shu jihatdan u davlatning markaziy boshqaruv tizimi bilan mahalliy boshqaruv bo'g'ini o'rtasidagi o'zaro munosabatni muvozanatli tizim sifatida ko'radi. Davlat amaldorlari (amirlar, valiylar) mahalliy aholining ehtiyojlarini yaxshi bilishi, yer-suvni adolatli taqsimlashi, soliq yig'imlarini to'g'ri yo'naltirishi va aholining turmush darajasini yaxshilash uchun mas'ul bo'lishi kerakligini uqtiradi.

3.2. Amir Temur davlat tizimida Devonlar va maslahat organlarining roli

XIV asrda Amir Temur tomonidan yaratilgan davlat boshqaruv tizimi mahalliy boshqaruvni markazlashgan, ammo hududiy o'zgarishlarga moslashuvchan institut sifatida shakllantirdi. "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvining huquqiy va amaliy asoslarini belgilab berdi. Unda har bir viloyatda Devon — ma'muriy-ijro organi — tashkil etilib, u yerda moliya, soliq, adliya, harbiy ishlar va aholi hayoti bilan bog'liq barcha masalalar yuritilgan [3; 56]. Amir Temur davlatining boshqaruv tizimida maslahat va kengash organlari muhim o'rin tutgan. U shunday yozadi: "Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash va maslahat bilan, bir ulushi esa qilich bilan hal etiladi." [2;25]. Bu fikr davlat boshqaruvida aholining fikrini inobatga olish, maslahatni qaror qabul qilishning ajralmas qismi sifatida ko'rish an'anasini yaratib bergan.

Amir Temurning Devon tizimi ikki bosqichli iyerarxiya asosida faoliyat yuritgan: markaziy Devon (Devoni buzrug) va hududiy Devonlar. Har bir hududiy Devon mahalliy iqtisodiy hayotni boshqarish, soliqlarni yig'ish, yerlarni taqsimlash, sug'orish ishlarini tashkil etish, bozorlar, hunarmandchilik markazlari va ijtimoiy binolar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas'ul bo'lgan. Devon rahbarlari — amirlar va mirshablar — aholi manfaatini himoya qilish, turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy adolatni ta'minlashga mas'ul etib belgilangan [4; 69-80].

Amir Temur davlat boshqaruvida hokimiyat va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanat prinsipini joriy etdi. Unga ko'ra, har bir hokim yoki amaldor faqat markazga emas, balki xalq oldida ham javobgar hisoblanadi. "Tuzuklar"da Temur hokimlarning aholidan soliq yig'ishda ehtiyotkorlik qilishini, xalqni og'ir ahvolga solmaslikni qat'iy talab etadi. Amir Temur o'z tuzuklarida soliq yig'ishda xalqni qiynashdan ehtiyot bo'lish lozimligini, chunki xalqning zaifligi davlat xazinasining kamayishiga olib kelishi, bu esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'lishi, sipohning tarqoqligi o'z navbatida saltanatning kuchsizlanishiga olib kelishini bayon qiladi [5;

144]. Bu fikr zamonaviy moliyaviy siyosatning ijtimoiy yo'naltirilganlik tamoyilini o'zida ifoda etadi.

Amir Temurning boshqaruv tizimidagi yana bir muhim jihat — jamoatchilik manfaatlarini himoya qilishda infratuzilmani rivojlantirishga bo'lgan e'tibordir. U shaharlar va qishloqlarda yo'llar, ko'priklar, bozorlar, sug'orish inshootlarini qurishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilagan.

Yuqoridagilarga asosan, Amir Temur davlat tizimida mahalliy boshqaruv nafaqat ma'muriy nazorat vositasi, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi tizim sifatida shakllanganligini ko'rish mumkin.

3.3. Islom huquqi tizimida maslahat va ijtimoiy adolat tamoyillari

Islom huquqi tizimida davlat va jamiyat boshqaruvi insonning mas'uliyati, adolat va maslahat tamoyillariga asoslanadi. Bu tizimda fuqarolarning hayoti va mulkini muhofaza qilish, iqtisodiy tenglikni ta'minlash hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini kafolatlash davlatning asosiy vazifasi sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, islom huquqi mahalliy boshqaruv tizimida faqat ma'muriy tartib emas, balki ijtimoiy adolat va umumiy mas'uliyat g'oyasini ilgari surgan.

Qur'oni Karim "Sho'ro" surasining 38-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: "Ular (mo'minlar)ning ishlari o'zaro maslahat bilandir" ("Sho'ro", 38) [6; 483]. Bu oyatdan ma'lum bo'lishicha, maslahat, kengash va fikr almashish — islom boshqaruvining ajralmas qismi hisoblanadi. Demak, davlat boshqaruvi, jumladan, mahalliy darajadagi qarorlar ham yakka hokim irodasiga emas, balki xalq bilan maslahat asosida amalga oshirilishi lozim. Bu tamoyil aholi ishtirokini ta'minlash orqali davlat boshqaruvini xalq irodasiga yaqinlashtiradi va uning qonuniyligini mustahkamlaydi.

Payg'ambar Muhammad alayhissalom ham o'z hayoti davomida maslahat tamoyilini faol qo'llaganlar. U zot har bir muhim qarorni qabul qilishdan oldin sahobalar bilan fikrlashar, ayniqsa ijtimoiy va harbiy masalalarda ularning mulohazalarini inobatga olar edilar. Alloh taolo Payg'ambarimizga buyurganki, "Shovarahum fil-amri", ya'ni "Yo Muhammad, biron ishni qilmoqchi bo'lsang, va yo biror zarurat chiqib qolsa, o'z yorlaring bilan mashvarat qilgin" deb nozil qilinganligi xalq vakillarining jamiyat va davlat hayotida, mamlakat, shahar miqyosidagi qarorlarni qabul qilishdagi ishtirokining muqaddas islom dinidagi asosi hisoblanadi desak maqsadga muvofiq bo'ladi [7; 92].

Qur'onda "Zakot", "Ushr", "Sadaqa" va "Vaqf" kabi moliyaviy institutlar jamiyatda boylikning to'g'ri taqsimlanishi va hududiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan. Bu institutlar mahalliy darajada jamoat ehtiyojlarini qondirishning iqtisodiy mexanizmi vazifasini bajargan. Ayniqsa, vaqf mol-mulkidan tushgan daromad maktablar, masjidlar, kasalxonalar, yo'llar va ariqlar qurilishiga sarflangan. Vaqf muassasalari faoliyati mahalliy aholi manfaatini ko'zlab, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlagani bilan birga, u davlat siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligini ham ko'rsatadi. Islom huquqi tizimida hokimiyat mas'uliyati faqat ma'muriy emas, balki ma'naviy kategoriya sifatida ham qaraldi. Shu tariqa, islom huquqi nafaqat diniy normalar tizimi, balki ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy model sifatida namoyon bo'ladi. U mahalliy boshqaruvning huquqiy madaniyatini shakllantirib, jamoatchilikning davlat ishlaridagi ishtiroki uchun mustahkam qonun asosini yaratdi.

3.4. Turkistondagi mahalliy boshqaruv tizimi (Toshkent shahri misolida)

Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini bosib olgandan so'ng mahalliy boshqaruv tizimi o'zgartirildi. 1867-yilda qabul qilingan "Nizom"ga ko'ra, Turkistonning o'troq aholisi "oqsoqol" tizimida, ko'chmanchi aholi esa "volost" va "ovullar" tizimiga bo'lib boshqarila boshlandi [8; 7,13,15]. 1868-yil 27-fevralda "Sirdaryo va Semipalatinsk viloyatlari va Toshkent "yangi" qismida boshqaruv to'g'risida"gi 1867-yil loyihasiga binoan "harbiy-xalq" boshqarmasi tuzildi. Toshkentning "yangi" qismida quyidagi ishlarni amalga oshirish ko'zda tutildi:

- Reja tuzish, uy qurishga yer ajratish, ko'cha va maydonlar barpo etish;
- Soliqlar, turli tushumlarni tartibga keltirish va undirish, shuningdek shahar daromad va xarajatlar smetasini tuzish;
- Shahar irrigatsiya tizimi va obodonchiligini boshqarish [9].

Toshkent shahar byudjeti ancha g'arib bo'lishiga qaramay uning qurilishi va obodonchiligi bo'yicha ma'lum ishlar qilingandi. 1870-yilda shahar daromadi 10 ming rubl, 1871-yilda-17,5 ming rubl, 1872-yilda-17 ming rubl, 1873-yilda-21820 rubl, 1874-yilda-23917 rubl, 1875-yilda-30287 rubl, 1876-yilda-27766 rubl tashkil etgan. Byudjetning 82%i politsiya va shahar jamoatchilik boshqaruvi, tibbiy, sanitar xizmati va sud organlari, irrigatsiyaning shaxsiy tarkibini ta'minlashga va x.k larga, mablag'ning 18 foizigina shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga, jumladan irrigatsiya qurilishi va inshootlari xarajatlari, qurilish-yo'l xarajatlari, shaharni yoritish tizimi, bozor qurilishi, shahar dorixonasi, ambulatoriya muolajaxonalari, kasalxona, tibbiy xodimlar, qushxonalar nazorati va yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish uchun sarflanardi. Bu ahvolda jamoatchilik boshqaruvi o'z vazifasini qay darajada bajargani o'z-o'zidan ayon [9]. Yuqoridagi ma'lumotlar tahlilidan ayon bo'lishicha, 1870–1876-yillar mobaynida Toshkent shahar byudjeti yil sayin o'sib borgan bo'lsa-da, mazkur mablag'lardan foydalanishda ustuvorlik asosan ma'muriy boshqaruv, politsiya, sud, sanitariya va tibbiy xizmatlar, irrigatsiya tizimlarining xizmatchilarini ta'minlashga qaratilib, shaharning real ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirish ikkinchi darajali vazifa sifatida qolgan. Byudjet mablag'larining 82%i ma'muriy tuzilmalarning shaxsiy tarkibini ta'minlashga sarflangani, ijtimoiy infratuzilmaga (yo'l, bozor, yoritish, kasalxona, dorixona va h.k.) esa bor-yo'g'i 18% ajratilgani shahar jamoatchilik boshqaruvi tomonidan aholi ehtiyojlari emas, balki tuzumni saqlash va nazoratga yo'naltirilgan boshqaruv modeli amalda bo'lganini ko'rsatadi.

Toshkent shahar Dumasining vakolatlari quyidagilardan iborat edi:

- jamoatchilik boshqaruvi bo'yicha shahar mahkamasi tarkibiga mansabdor shaxslarni tayinlash;
- mazkur shaxslarga maosh tayinlash;
- shahar yig'im va soliqlari miqdorlarini belgilash va o'zgartirish;
- shahar xarajatlarini aniqlash va shahar smetasini tasdiqlash;
- shahar mablag'ini to'plash va sarf qilish haqidagi, shahar mol-mulki holati haqidagi va umuman mahkama olib borayotgan ishlar haqidagi hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- shahar mol-mulki va umuman boshqaruv faoliyatini yurgizish qoidalarini belgilash;
- mahkamaning umumiy tartibini aniqlash [9].

Shahar Upravasi (Mahkamasi) a'zolari Duma tomonidan shakllantirilganligi, ularning oylik ish haqlari ham u tomonidan belgilanganligi, shahar mablag'ini to'plash va sarf qilish

haqidagi, shahar mol-mulki holati haqidagi va umuman mahkama olib borayotgan ishlar haqidagi hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash vakolatining mavjudligi de-yure shahar Mahkamasi Duma oldida hisobdor ekanligining belgisidir. Shuningdek shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ham bevosita Duma oldida turgan masalalardan biri bo'lgan. Shu tariqa, Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston, jumladan Toshkent shahrini 1865-yili bosib olinishi natijasida vujudga kelgan mahalliy boshqaruv tizimi ikki yoqlama xususiyatga ega bo'ldi: bir tomondan, u mustamlakachilik apparatining siyosiy vositasi bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy aholining boshqaruvda ishtirok etishi orqali kelajakdagi milliy kengashchilik tizimi uchun amaliy maktab vazifasini bajardi.

Natija va xulosa. Tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy boshqaruv tizimi O'zbekiston hududida asrlar davomida uzluksiz rivojlanib kelgan bo'lib, uning ildizlari davlatchilik va jamoatchilik hamkorligi g'oyasiga tayangan. Bu tizim har bir davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlariga mos ravishda shakllangan bo'lsa-da, uni birlashtirib turuvchi asosiy qonuniyatlar — adolat, maslahat, jamoat manfaati va xalq ishtirokini ta'minlash tamoyillaridir. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida hozirgi zamonaviy davlat boshqaruvidagi "hududiy barqaror rivojlanish" tushunchasining ilk nazariy asoslaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Amir Temur davlat tizimida bu nazariy g'oyalar amaliyot bilan uyg'unlashgan holda institutsional shakl olgan. Devon tizimi orqali mahalliy boshqaruv markazlashgan boshqaruv bilan bog'langan, ammo bir vaqtning o'zida hududiy boshqaruv unsurlarini ham saqlab qolgan. Devon rahbarlari (Dorulimorat) faqat markaz oldida emas, balki xalq oldida ham javobgar hisoblangan. Soliq siyosatida aholining iqtisodiy imkoniyatini hisobga olish, ijtimoiy infratuzilmaga e'tibor berish, aholini qashshoqlashtirmaslik kabi prinsiplar mahalliy boshqaruvning ijtimoiy yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Islom huquqi tizimidagi ijtimoiy adolat, jamoat manfaati va mas'uliyat tamoyillari mahalliy boshqaruv faoliyatining ma'naviy va huquqiy poydevorini tashkil etgan.

Rossiya imperiyasi davridagi Turkiston boshqaruv tizimi esa mahalliy kengashchilik an'analarini formallashtirdi. Garchi Duma faoliyati mustamlakachilik siyosatining bir qismi bo'lgan bo'lsa-da, u mahalliy aholining boshqaruvda ishtirok etish madaniyatini shakllantirishda muhim maktab vazifasini bajardi. Toshkent shahar Dumasi faoliyati mahalliy byudjetni shakllantirish, irrigatsiya va sanitariya ishlarini tashkil etish orqali ijtimoiy boshqaruvning amaliy ko'rinishi bo'ldi.

Shu tariqa, mahalliy kengashlar tizimining tarixi adolat, maslahat va xalq ishtirokiga asoslangan milliy boshqaruv an'analarini namoyon etadi. Bu esa hozirgi zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi uchun ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan muhim xulosa bo'lib, mahalliy kengashlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi roli va huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Низомулмулк. Сиёсатнома. Тошкент янги аср авлоди, 2008. 17-92 б. // [https://n.ziyouz.com/books/axloq_va_odob/Nizomulmulk.%20Siyosatnoma%20\(siyar%20ul-muluk\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/axloq_va_odob/Nizomulmulk.%20Siyosatnoma%20(siyar%20ul-muluk).pdf)
2. Темур тузуклари. – Тошкент, 1996, 25-б. // <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/01/NamDU-ARM-12462-%D0%90%D0%BC%D0%B8%D1%80%D>

- [0%A2%D0%B5%D0%BC%D1%83%D1%80%D1%82%D1%83%D0%B7%D1%83%D0%BA%D0%BB%D0%B0%D1%80%D0%B8.pdf](#)
3. Зиёдулла Муқимов. Амир Темур тузуклари (тарихий ҳуқуқий тадқиқот). Иккинчи тўлдирилган нашри. – Самарқанд: СамДУ, 2008. – 56 бет // <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/01/NamDU-ARM-12462-%D0%90%D0%BC%D0%B8%D1%80%D0%A2%D0%B5%D0%BC%D1%83%D1%80%D1%82%D1%83%D0%B7%D1%83%D0%BA%D0%BB%D0%B0%D1%80%D0%B8.pdf>
 4. Ш.Ўлжаева, Амир Темур давлат бошқаруви. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 69-80 б // <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/26/NamDU-ARM-11545-%D0%90%D0%BC%D0%B8%D1%80%D0%A2%D0%B5%D0%BC%D1%83%D1%80%D0%B4%D0%B0%D0%B2%D0%BB%D0%B0%D1%82%D0%B1%D0%BE%D1%88%D0%BA%D0%B0%D1%80%D1%83%D0%B2%D0%B8.pdf>
 5. Темур тузуклари. / Форс тилидан А.Соғуний ва Х.Кароматов таржимаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 144 б. // <https://www.ajhuman.uz/article/948636761004/pdf>
 6. Қуръони Карим маъноларининг таржимаси / Таржима ва изоҳлар муллифи Абдулазиз Мансур. - Т.: "Тошкент ислом университети наъриёти" 2001. - 483 б. 42-"Шўро сураси. 38-оят
 7. Низомулмулк. Сиёсатнома. Тошкент янги аср авлоди, 2008. 92 б. // [https://n.ziyouz.com/books/axloq_va_odob/Nizomulmulk.%20Siyosatnoma%20\(siyar%20ul-muluk\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/axloq_va_odob/Nizomulmulk.%20Siyosatnoma%20(siyar%20ul-muluk).pdf)
 8. ЎзР МДА, И-19-фонд, 1-рўйхат, 9783-иш, 7,13,15-варақлар
 9. Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «янги шаҳар» қисми тарихи. Тошкент – “Fan va texnologiya” — 2004. // <https://shosh.uz/hih-asrning-ikkinchi-yarmi-hh-asr-boshlarida-toshkent-boshqaruv-tizimi-2/>

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

GREEN PUBLIC PROCUREMENTS

Samandarova Feruza

Basic doctoral student of Tashkent state university of law

Abstract. This article analyzes the legal aspects of the green public procurement institution and highlights its role in ensuring sustainable development. The purpose of the study is to study the legal framework of green procurement, its regulatory and legal regulation at the international and national levels, as well as their effectiveness using the experience of the European Union, Japan, South Korea and the Netherlands. It also highlights the directions of the formation of the green procurement institution in the legislation of the Republic of Uzbekistan and its improvement based on international experience.

Keywords: green public procurement, sustainable procurement, life cycle, environmental criteria, European Union directive.

YASHIL DAVLAT XARIDLARI

Samandarova Feruza Baxromjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti

E-mail: feruuzzakh99@gmail.com

<http://orcid.org/0009-0008-6404-4893>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil davlat xaridlari instituti huquqiy jihatdan tahlil qilinadi hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi — yashil xaridlarning huquqiy asoslarini, ularning xalqaro va milliy darajadagi normativ-huquqiy tartibga solinishini, shuningdek, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya va Niderlandiya tajribasi misolida ularning samaradorligini o'rganishdan iboratdir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yashil xaridlar institutining shakllanishi va uni xalqaro tajriba asosida takomillashtirish yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yashil davlat xaridlari, barqaror xaridlar, hayotiylik davri, ekologik mezonlar, Yevropa Ittifoqi direktivasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N40>

Kirish. Yashil davlat xaridlari — bu davlat organlarining atrof-muhitga kam ta'sir qiluvchi tovarlar, xizmatlar va ishlarni sotib olishga ustuvor ahamiyat beradigan amaliyotdir. U bozorni yanada yashil mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirishga undash orqali iqlim maqsadlariga erishish, barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun muhim siyosat vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yashil davlat xaridlari chiqindilar va davlat sektori iste'moli bilan bog'liq ekologik bosimlarni minimallashtirish orqali ko'proq aylanma iqtisodiyotga hissa qo'shadi.

Hozirda iqlim o'zgarishi butun dunyo bo'ylab yaqqol ta'sirini ko'rsatmoqda. Inson omili ob-havo va tabiatda turli favqulodda yo'qotish va zararlarga sabab bo'lmoqda. Biologik xilma-xillik, iqtisodiy zarar, sog'lik muammolari va boshqalar bunday yo'qotishlarga misol bo'la oladi. Bu ta'sirlarni yumshatish uchun global iqlim isishni 1.5°Cda saqlab turish lozim, bu esa

2030-yilgacha karbonat angidrid (CO_2) emissiyasini 45%ga qisqartirishni talab qiladi [1; 7-b.]. Bu ko'rsatkichga erishish uchun bir qator davlatlar issiqxona gaz emissiyasini nolga tenglashtirish tashabbusini ilgari surishmoqda. Ushbu tashabbusni amalga oshirish uchun tovarlar, xizmatlar va infrastruktura ishlab chiqarish va iste'mol qilish usullarida keskin o'zgarishlar qilish lozim. Davlat xaridlari jarayonlari orqali hukumatlar yirik iste'molchi sifatida bu o'zgarishda muhim rol o'ynaydi. Davlat xaridlari dunyo bo'ylab taxminan 15% issiqxona gaz emissiyasiga hissa qo'shadi. Shu sababli davlat xaridlarini "yashillashtirish" global isishni qisqartirishdagi muhim strategiya hisoblanadi.

Davlat yirik xarid qobiliyatiga ega bo'lib, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (keyingi o'rinlarda – "IHTT") a'zo mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotlarining o'rtacha 12 foizini, rivojlanayotgan mamlakatlarning esa YaIMning 30 foizini davlat xaridlari tashkil qiladi [2]. Ushbu xarid quvvatidan yashil davlat xaridlari amaliyotini rag'batlantirish uchun foydalanish mamlakatlar barqaror rivojlanish siyosati va barqaror ishlab chiqarish va iste'mol qilishning oshishiga xizmat qiladi.

Yashil davlat xaridlari dastlab muqobil xarid qilish usuli sifatida ko'rilgan, biroq hozirda zamonaviy davlat xaridlari tizimida muhim element hisoblanadi. 20 yil avval Shimoliy Amerika, Yevropa va Sharqiy Osiyo davlatlari ilk bor ekologik me'yorlarni xarid qilish tartib tamoyillariga kiritib boshlashdi. Yashil davlat xaridlari tashabbuslari dastlab nodavlat tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Jahon Savdo Tashkilotining Davlat xaridlari to'g'risidagi kelishuvi (The Government Procurement Agreement of the World Trade Organization) x.6-moddasida yashil davlat xaridlarini nazarda tutadi, unga ko'ra "Tomon, shu jumladan, xarid qiluvchi tashkilot tabiiy resurslarni saqlash yoki atrof-muhitni muhofaza qiluvchi texnik shartlarni tayyorlashi, qabul qilishi yoki tatbiq qilishi mumkin". 2016-yilda Jahon Banki barqaror rivojlanishni ta'minlashda pul mablag'laridan oqilona foydalanishni asosiy tamoyil sifatida kiritish uchun "Xarid qilish tizimi"ni (Procurement Framework) qayta ko'rib chiqdi. 2017-yilda esa Xalqaro Standartlar Tashkiloti Barqaror xarid qilish yo'riqnomasi (Guidance on Sustainable Procurement) ISO 20400 yangi standartni ishlab chiqdi [3; 15-b.]. Bularning barchasi yashil va barqaror davlat xaridlari dunyo bo'ylab ommaviy va xususiy tashkilotlarda standart amaliyotga aylanayotganidan dalolat beradi.

Yashil davlat xaridlari milliy qonunchiligimizda so'nggi yillarda tilga olinib boshlandi, xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining "Yashil" davlat xaridlarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 18-iyundagi VMQ-371-sonli, "2025-2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2024-yil 20-dekabrda VMQ-865-sonli Qarorlari bilan tartibga solinadi. Biroq yashil xaridlar tushunchasining huquqiy jihatdan mustahkamlanishi va amaliyotda qo'llanilishi masalasi hali to'liq shakllangan emas. Mazkur mavzu bo'yicha yuridik tadqiqotlar cheklanganligi ham ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini kuchaytiradi.

Ushbu maqolada "yashil davlat xaridlari" tushunchasi va uning huquqiy asoslari, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi yashil xaridlarni tartibga solishdagi

muammolar, xalqaro huquqiy hujjatlar va xorijiy mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlili, yashil xaridlarni samarali joriy etish uchun qanday huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi lozimligi kabi savollarga javob izlashga harakat qilinadi. Mazkur maqolaning tadqiqot obyekti yashil davlat xaridlarining huquqiy asoslarini o'rganish, milliy qonunchilik va xalqaro normalarni qiyosiy tahlil qilish hamda ushbu sohada mavjud muammolarni aniqlash va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqolada yashil davlat xaridlarining huquqiy tabiati O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va boshqa xorijiy davlatlar qonunchiligiga, shuningdek, yuridik soha olimlarining ilmiy qarashlariga asosan tahlil qilinib, davlat xaridlarini amalga oshirishdagi muhim kategoriyalardan biri sifatida yoritib berilgan.

Mavzuni tadqiq qilish mobaynida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

- 1) Empirik metod –yashil davlat xaridlarining milliy qonunchilikdagi huquqiy asoslarini, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va amaliyotdagi qo'llanilishini tahlil qilishda qo'llandi. Bu orqali mavjud me'yorlarning samaradorligi va amaliyotdagi muammolari aniqlanadi.
- 2) Tarixiy metod – yashil davlat xaridlari institutining shakllanishi va rivojlanishini o'rganishda qo'llanilib, huquqiy tabiatini izohlashda muhim ahamiyat kasb etdi.
- 3) Qiyosiy-huquqiy metod – O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro tajriba (Yevropa Ittifoqi direktivalari, Janubiy Koreya, Yaponiya va Niderlandiya qonunchiligi) o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashda qo'llanildi. Bu yondashuv milliy tizimni takomillashtirish bo'yicha amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

Muhokama. So'nggi 20 yil ichida ekologik muammolar dunyo bo'ylab qonun chiqaruvchilar e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Hukumatlar iqlim muammolarini yumshatishda xaridlarni "yashillashtirish"dan foydalanmoqda. Shu sababli "yashil davlat xaridlari" tushunchasi nimani anglatishi muhimdir. Yevropa Komissiyasi 2008-yilda yashil davlat xaridlarini "davlat organlari tomonidan sotib olinadigan bir xil asosiy funksiyaga ega bo'lgan tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan solishtirganda o'zining hayotiy sikli davomida atrof-muhitga ta'siri kamroq bo'lgan tovarlar, xizmatlar va ishlarni sotib olishga intiladigan jarayon deb ta'riflangan.

Huquqshunos olimlar, masalan, J.Czarnezki fikricha davlatlar va jamoat institutlari tomonidan yashil davlat xaridlari ekologik etiketlash sxemalari va ekologik samarali ishlab chiqarish standartlari kabi atrof-muhitga oid talablar asosida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, rag'batlantirish va imtiyozli xarid qilishni qo'llab-quvvatlovchi yashil iste'molchilikka ko'proq o'xshaydi [4; 33-b.]. E.V. Shadrina va I.V. Romodina ta'kidlashicha "Ekologik xavfsiz ishlab chiqarish, oqilona iste'mol va rivojlanayotgan tarmoqlarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mamlakatlarga barqaror rivojlanishga o'tish imkonini beradi. Davlatlar uchun barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishning samarali mexanizmlaridan biri bu davlat xaridlaridir. Bozordagi eng yirik xaridor va siyosiy iroda va hokimiyatga ega bo'lgan davlat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga ta'sir ko'rsatishi mumkin" [5; 150-b.]. E.S. Boltanova esa "yashil" standartlarning maqsadi ekologik sertifikatlangan (yorliqlangan) qurilish materiallari va konstruksiyalaridan foydalanish; qurilish ishlari davomida chiqindilarni minimallashtirish; energiya tejash va binolar va inshootlarning energiya samaradorligi; suvdan oqilona foydalanish; binolarda qulay yashash deb ta'kidlaydi [6; 325-b.].

Ushbu mavzu milliy olimlarimiz tomonidan kam tadqiq etilgan soha hisoblanadi, qonunchilikda ham so‘nggi yillarda “yashil xaridlar” atamasi joriy qilindi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining “Yashil” davlat xaridlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 18-iyundagi VMQ-371-sonli qaroriga ko‘ra “yashil belgi” mahsulot va xizmatlarni yagona ixtiyoriy ekologik markirovkalash tizimining yoki xalqaro ekologik sertifikatlashtirish va standartlashtirish tizimlarining ekologik mezonlarga muvofiqlikni tasdiqlovchi tegishli hujjatiga ega tadbirkorlik subyektlaridan amalga oshirilgan davlat xaridlari yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi “yashil” davlat xaridi hisoblanadi.

Milliy qonunchiligimizni tahlil qiladigan bo‘lsak, yashil davlat xaridlari atamasi “O‘zbekiston – 2030” harakatlar strategiyasida bevosita tilga olinmaydi. Biroq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmonida yashil davlat xaridlarini joriy etish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, 2025-yil iyun oyiga qadar “yashil xaridlar” ulushini oshirish va rivojlantirish yuzasidan atrof-muhitga ta’siri kam bo‘lgan, ekologik toza yoki ikkilamchi xomashyo va chiqindilardan tayyorlangan tovarlar ishlab chiqaruvchilariga qulayliklar yaratish, tovarlar ishlab chiqaruvchilar ekotizimini joriy etishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish belgilangan. Shuningdek, sohaga sun’iy intellektni joriy etish orqali barqaror, shuningdek, “yashil xaridlar”ni yanada rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish, “yashil xaridlar”ni amalga oshirish bo‘yicha davlat xaridlari subyektlarining bilim va malakalarini oshirish belgilangan.

Mazkur Farmon ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining “Yashil” davlat xaridlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 18-iyundagi VMQ-371-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu Qarorga asosan 2026-yil 1-yanvardan boshlab eng yaxshi takliflarni tanlash va tenderdagi xarid hujjatlariga ekologik mezonlar majburiy kiritilishi, ekologik markirovkalash hujjatining har bir turi uchun to‘plangan ballarning besh foizi miqdorida qo‘shimcha ball berilishi, bunday hujjatga ega ishtirokchilarga vositachilik yig‘imida chegirma berilishi va qo‘shimcha zakalat to‘lash majburiyatidan ozod etilishi, elektron kooperatsiya portal, elektron do‘kon va auksion savdolari orqali xarid qilinishi nazarda tutilgan tovarlarni birinchi navbatda ekologik markirovkalash hujjatiga ega ishtirokchilardan xarid qilish imkoniyatini majburiy tartibda o‘rnatilishi belgilangan. Shuningdek, 2025-yil 1-avgustiga qadar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan davlat xaridlari maxsus axborot portalidagi “Yashil” davlat xaridlari sahifasiga davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan “yashil” davlat xaridlari, “yashil belgi” mahsulot va xizmatlarni yagona ixtiyoriy ekologik markirovkalash tizimida avtorizatsiyadan o‘tgan mahsulot va xizmatlarning ekologik markirovkalash standartlariga muvofiqligini baholovchi yuridik shaxslar ro‘yxati, ekologik markirovkalash hujjatiga ega bo‘lgan yoki tovarlari (ishlari, xizmatlari) ekologik markirovkalash hujjatiga ega tadbirkorlik subyektlari, tovarlarning sifati, texnik tavsiflari hamda ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan belgilangan ekologik mezonlar ro‘yxati joylashtirilgan bo‘lishi kerak. Biroq, bugunga kunga qadar maxsus axborot portalida yashil xaridlar to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud emas, bu esa mamlakatimizda yashil davlat xaridlari to‘g‘risida zarur axborot olishni qiyinlashtirmoqda.

Natijalar. Yevropa Ittifoqida yashil xaridlarning huquqiy asosini 2014-yil 26-fevralda qabul qilingan 2014/24/EU-sonli Davlat xaridlari direktivasi tashkil etadi. Ushbu direktiva “eng iqtisodiy foydali tender” tamoyili asosida tender baholash jarayoniga narxdan tashqari omillar – ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi, hayotiylik davrli xarajatlari kabi mezonlarni qo‘shish imkonini beradi. Mazkur hujjatga ko‘ra yashil davlat xaridlari umumiy huquqiy tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerak. Jumladan,

- Tenglik va diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik – ekologik talablar barcha ishtirokchilarga nisbatan adolatli qo‘llanilishi kerak.
- Shaffoflik – tender hujjatlarida ekologik mezonlar oldindan aniq belgilanishi shart.
- Raqobatni ta‘minlash – yashil mezonlar sun‘iy to‘siq yaratmasligi kerak.

Mazkur direktivaga ko‘ra buyurtmachi tashkilot hayotiylik davrini tahlil qilish, eko-yorliqlash va amaldagi ekologik qonunchilikni buzganlik uchun sanksiyalar qo‘llash orqali atrof-muhit omillarini ko‘rib chiqishi mumkin [7].

Biroq ushbu hujjat yashil xaridlarning ixtiyoriy mezonlarini nazarda tutadi, tobora keskinlashib borayotgan iqlimiy o‘zgarishlar davlat xaridlarini “yashillashtirish”ni majburiy tarzda o‘rnatilishini talab qilmoqda.

2021-yil aprel oyi holatiga ko‘ra, 27 ta a‘zo davlatdan 23 tasi yashil xaridlar bo‘yicha milliy harakat rejalarini e‘lon qildi. Yevropa Komissiyasi 2014-yilgi Yevropa Ittifoqi Direktivasidagi yashil davlat xaridlarining huquqiy asoslarini a‘zo davlatlar tomonidan milliy qonunchilikka o‘tkazilishini belgiladi. Shuningdek, u 20 dan ortiq mahsulot guruhlari uchun umumiy yashil xaridlar mezonlarini ishlab chiqdi va a‘zo davlatlarni milliy qonunchilikda foydalanish uchun ushbu mezonlarni implementatsiya qilishga undadi. Niderlandiya va Shvetsiya o‘zlarining keng qamrovli va foydalanuvchilarga qulay milliy ekologik mezonlari bilan tan olingan. Ko‘pgina mamlakatlar ma‘lum bir ustuvor mahsulot guruhlari uchun majburiy yashil xaridlar talablarini yaratishni tanladilar. So‘nggi yillarda Yevropa Ittifoqi ko‘proq majburiy yashil xaridlarga o‘tishni birinchi o‘ringa qo‘ymoqda, bunda aylanma iqtisod masalalariga, innovatsion xaridlarga va hayotiylik davri mezonlarini rivojlantirishga ko‘proq e‘tibor qaratildi [1; 83-b.].

Quyida bir nechta xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilamiz:

Janubiy Koreya. Yashil davlat xaridlari siyosati Janubiy Koreyada 1990-yillardan beri joriy qilinib kelinmoqda. Yashil xaridlar, ayniqsa, eng yaxshi amaliyot namunasi sifatida e‘tirof etilgan 2005-yilda “Yashil mahsulotlarni xarid qilishni rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirganidan keyin sezilarli sur‘atga ega bo‘ldi. Hujjatga binoan barcha davlat idoralari kelgusi yil uchun yashil xaridlarni amalga oshirish strategiyasini tavsiflovchi yillik rejani hamda sotib olingan yashil mahsulotlar miqdorini batafsil ko‘rsatuvchi natijalar to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etishi shart. Ushbu taqdimnoma Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligiga baholash va monitoring uchun taqdim etiladi.

Janubiy Koreya yashil xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish uchun elektron xarid tizimlari va platformalarini qo‘llash va integratsiyalashda birinchi o‘rinda turadi. Bu 2005-yildan beri yashil xaridlar siyosatining ta‘sirini baholashga imkon beradigan markaziy ma‘lumotlar bazasiga ega bo‘lgan kam sonli mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ular Koreyaning onlayn elektron xaridlar tizimi (KONEPS), KONEPS elektron savdo markazlari, Koreya Atrof-muhit sanoati va texnologiyalari institutining (KEITI) Yashil xaridlar axborot tizimi (GPIS-I) hamda barcha hukumat darajalarida samarali yashil xaridlar ma‘lumotlarini to‘plash va hisobot

berish uchun yaqinda joriy etilgan Davlat xaridlari ma'lumotlari tizimini taqdim etdilar. Natijada Koreyaning yashil davlat xaridlar monitoringi tizimi global etalon sifatida qaraladi.

Yaponiya. 1994-yilda Yaponiya hukumati yashil davlat xaridlari bo'yicha harakat rejasini e'lon qildi va 2000-yilda hukumat "Yashil xaridlarni rag'batlantirish to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Qonunga ko'ra har bir vazirlik va ularga bo'ysunuvchi tuzilmalar har yili yashil davlat xaridlari rejasini ishlab chiqishi va oshkor qilishi shart. Bundan tashqari, ushbu organlar har bir moliya yilidan keyin o'zlarining yashil xaridlar faoliyati to'g'risida hisobotni Moliya vazirligiga taqdim etishlari va bu ma'lumotlarni ommaviy ravishda e'lon qilishlari shart. Yashil davlat xaridlari siyosati markaziy davlat organlari uchun majburiy, lekin mahalliy davlat hokimiyati organlari uchun ixtiyoriydir.

Niderlandiya. Niderlandiya 2007-yildan beri barqaror va yashil davlat xaridlariga bag'ishlangan bir nechta siyosat va huquqiy hujjatlarni ishlab chiqib kelmoqda. Mamlakatda, shuningdek, davlat xaridlariga yondashuvlarni belgilovchi milliy reja mavjud. Gollandiyaning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan Milliy Harakat rejasida barqaror davlat xaridlarini qabul qilishni kuchaytirish, jumladan moliyalashtirish, xalqaro sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish va xaridlar bo'yicha mansabdor shaxslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tashabbuslar bayon etilgan. 2007-yildan beri Niderlandiya butun mamlakat bo'ylab barcha davlat organlari uchun belgilangan barqaror davlat xaridlari maqsadlariga erishishni baholash uchun barqaror davlat xaridlarini amalga oshirilishini muntazam ravishda kuzatib boradi. Niderlandiyada yashil davlat xaridlarini boshqarish bir nechta davlat organlari ishtirokidagi hamkorlikdagi harakatlar yig'indisidir. Infratuzilma va suv xo'jaligi vazirligi yashil davlat xaridlarini siyosatini ishlab chiqishda va tashabbuslar orqali pretsedent yaratishda yetakchilik qiladi. Ushbu rolni to'ldiruvchi Gollandiyaning davlat xaridlari ekspertiza markazi barqaror xaridlar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi [1; 24-b.].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil (barqaror) davlat xaridlari konsepsiyasi bugungi kunda xalqaro huquq va milliy siyosatning ajralmas qismiga aylangan. Yevropa Ittifoqining 2014/24/EU sonli Direktivasida davlat xaridlari jarayonlariga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish majburiyati huquqiy darajada mustahkamlangan. Bu esa ekologik barqarorlikni nafaqat siyosiy, balki yuridik majburiyat sifatida qarashga asos yaratadi. Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida yashil xaridlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'riladi. Bu davlatlarda barqaror xaridlarni nafaqat davlat, balki xususiy sektor darajasida ham rag'batlantiruvchi mexanizmlar (soliq imtiyozlari, ekologik markirovka tizimi) joriy qilgan. Niderlandiya tajribasi esa barqaror xaridlarni iqtisodiy samaradorlik bilan uyg'unlashtirishning ilg'or modeli sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi yashil xaridlar uchun huquqiy zamin yaratgan va ushbu hujjat asosida yuqorida sanab o'tilgan bir nechta qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo'lsada amaliy mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan.

Yuqoridagi tahlillarga asosan mamlakatimizda yashil davlat xaridlari huquqiy mexanizmini yaxshilash uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim.

Birinchidan, milliy qonunchiligimizga xalqaro yo'riqnomalarda belgilangan mezonlarni joriy qilishimiz lozim. Vazirlar Mahkamasining "2025-2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2024-yil 20-dekabrda VMQ-865-sonli Qaroriga ko'ra yashil xaridlarni amalga oshirishda tovarlarning

hayotiylik davri bo'yicha baholash tizimini yaratish vazifasi qo'yilgan, biroq bugunga qadar mazkur qaror ijrosi ta'minlanmagan.

Ikkinchidan, yashil xaridlar to'g'risida ma'lumotlarni real vaqt rejimida olish imkonini yaratish lozim. 2025-yil 1-avgustdan boshlab davlat xaridlari maxsus axborot portalida "Yashil xaridlar" sahifasida amalga oshirilgan xaridlar, eko-hujjatlarga ega yuridik shaxslar ro'yxati berilishi lozim edi, biroq joriy vaqtda mazkur sahifada ma'lumotlar mavjud emas.

Uchinchidan, nazorat va hisobot tizimi ya'ni, yashil xaridlar hajmi, ekologik ta'siri va iqtisodiy natijalari muntazam o'lchanib, ochiq e'lon qilinishi lozim.

To'rtinchidan, yashil xaridlarni ommalashtirish uchun yetkazib beruvchilarga ekologik sertifikatlash, yashil mahsulot ishlab chiqaruvchilarga soliq yoki tender imtiyozlarini berish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

Xulosa qilganda, yashil davlat xaridlari — bu faqat xarid siyosatini o'zgartirish emas, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik mas'uliyatni huquqiy va institutsional darajada mustahkamlash yo'lidir. O'zbekiston uchun bu yo'nalish nafaqat xalqaro majburiyatlarni bajarish, balki barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda muhim huquqiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Monitoring Progress in Green Public Procurement [Yashil davlat xaridlarida rivojlanish monitoring]. – IISD, 2024. – URL: <https://www.iisd.org/system/files/2024-03/monitoring-green-public-procurement.pdf>
2. Sustainable Public Procurement [Barqaror davlat xaridlari]. – United Nations Environment Programme (UNEP). – URL: <https://www.unep.org/explore-topics/resource-efficiency/what-we-do/sustainable-public-procurement>
3. Green Public Procurement: An Overview of Green Reforms in Country Procurement Systems [Yashil davlat xaridlari: Mamlakat xaridlari tizimidagi yashil islohotlarning umumiy tahlili]. – Washington: World Bank, 2023. – URL: <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/7bafc4b7-d785-5954-b71e-0c1a9ad0ab2c>
4. Czarnezki, J. J. Green Public Procurement: Legal Instruments for Promoting Environmental Interests in the United States and European Union. – Uppsala: Uppsala University, 2019. – 187 p.
5. Шадрина Е. В., Ромодина И. В. Государственные закупки для устойчивого развития: международный опыт // Вопросы государственного и муниципального управления. – 2017. – № 1. – С. 115–128.
6. Болтанова Е. С. Эколого-правовые основы регулирования застройки земель зданиями и сооружениями в России: дис. ... докт. юрид. наук. – Томск, 2014. – 387 с.
7. Directive 2014/24/EU of the European Parliament and of the Council of 26 February 2014 on Public Procurement. – Official Journal of the European Union, L 94, 28 March 2014. – URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32014L0024>

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

INTERPRETATION OF THE PRINCIPLE OF JUSTICE IN PUBLIC ADMINISTRATION

Rasulov Siroj

Researcher at BukhSU

Abstract. This article analyzes the essence, content, and practical significance of the principle of justice in the system of public administration. It highlights the role of the justice principle in the activities of public administration bodies, its importance in ensuring citizens' rights and freedoms, and the necessity of adhering to fairness criteria in decision-making processes. In addition, interpretations of the justice principle in national and international legal sources are compared, and ways of applying them to public administration practice are examined. The research findings emphasize that the principle of justice is recognized as a key factor in strengthening the stability, transparency, and public trust in the system of public administration.

Keywords: principle of justice, public administration, fairness, rule of law, public trust, administrative decisions.

DAVLAT BOSHQARUVIDA ODILLIK PRINSIPI TALQINI

Rasulov Siroj Sodiq o'g'li

BuxDU izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat boshqaruvi tizimida odillik prinsipi mohiyati, mazmuni va uning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Unda odillik tamoyilining davlat boshqaruvi organlari faoliyatidagi o'rni, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi roli hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda adolat mezonlariga amal qilish zaruriyati yoritilgan. Shuningdek, milliy va xalqaro huquqiy manbalarda odillik prinsipi talqinlari solishtirilib, ularni davlat boshqaruvi amaliyotiga tatbiq etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, odillik prinsipi davlat boshqaruvi tizimining barqarorligi, shaffofligi va fuqarolarga ishonchni mustahkamlashda asosiy omil sifatida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: odillik prinsipi, davlat boshqaruvi, adolat, qonun ustuvorligi, fuqarolik ishonchi, boshqaruv qarorlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N41>

Kirish. Har qanday demokratik davlatda boshqaruvning asosiy maqsadi — fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, odillik prinsipi davlat boshqaruvi tizimining ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Odillik davlat organlarining faoliyatini qonuniylik, xolislik va tenglik tamoyillari asosida olib borishini taqozo etadi.

Davlat boshqaruvida odillik prinsipi haqida so'z borar ekan, bevosita qonunchilik va uni amalga oshirish mexanizmida prinsipni qo'llash masalasi yotadi.

Odillik prinsipi eng avvalo, qonun ustuvorligi, inson huquqlariga hurmat va tenglik tamoyillarini o'zida mujassam etadi. Bu prinsipga amal qilish boshqaruv organlari faoliyatining shaffof va hisobdor bo'lishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur maqola tadqiqotida davlat boshqaruvi tizimida odillik prinsipi mohiyati, mazmuni va uning amaliy ahamiyati falsafiy-nazariy

yondashuv, sistemali yondashuv, ma'lumotlar tahlili, taqqoslash usuli orqali tahlil etilgan. Odillik prinsipi davlat boshqaruvi tizimining barqarorligi, shaffofligi va fuqarolarga ishonchni mustahkamlashda asosiy omil sifatida ekanligi birinchi prezidentimiz I.Karimov, olim X.T. Odilqoriyev va shuningdek boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari orqali atroflicha ochiqlangan va falsafiy-nazariy yondashuv asosida ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan.

Muhokama va natijalar. Odillik prinsipi – adolatli jinoyatning huquqiy asosidir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 8-moddasi odillik prinsipini belgilab beradi. Ushbu prinsip jinoyat huquqining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir choralari adolatli bo'lishini talab qiladi. Ya'ni, jinoyatchiga nisbatan belgilangan jazo jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning darajasiga hamda shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga mos bo'lishi shart.

Bu prinsipning asosiy maqsadi – jazoning adolatli bo'lishini ta'minlashdir. Jazo haddan tashqari yengil yoki haddan tashqari og'ir bo'lmasligi, balki jinoyatga monand bo'lishi kerak. Masalan, kichik og'irlikdagi jinoyat uchun ortiqcha jazo tayinlash nafaqat adolatsizlik, balki fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini ham kamaytiradi. Shu bilan birga, og'ir jinoyatlar uchun yengil jazo berilishi ham jamiyatda huquqiy tartibni zaiflashtiradi.

8-moddada yana bir muhim qoida – bir jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilmaslik prinsipi belgilangan. Bu prinsip xalqaro huquqda “non bis in idem” deb ataladi va har qanday shaxs bir jinoyati uchun faqat bir marta javobgarlikka tortilishi mumkinligini anglatadi. Agar bir shaxs allaqachon o'sha jinoyat uchun javobgarlikka tortilgan bo'lsa, u qayta jazolanmasligi kerak. Bu nafaqat inson huquqlarining himoyasi, balki sud-huquq tizimining soddaligi va adolatli ishlashining kafolatidir.

Ta'kidlash joizki, odillik prinsipi jinoyat huquqining poydevori bo'lib, shaxsga nisbatan jazo belgilarini aniq, izchil va insonparvarlik tamoyillariga asoslanib qo'llashni taqozo etadi. U nafaqat jinoyatga munosib jazo belgilashni, balki inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishni ham o'z ichiga oladi. Bu prinsip qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Davlat boshqaruvi haqida gap borar ekan, davlat mexanizmi haqida bahs yuritilishi kerak.

“Davlat mexanizmi (apparati)da jamiyat oldidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalardagi vazifa va funksiyalarni bajarish maqsadida, bir qancha davlat organlari iyerarxiya asosida, yagona bir tizimga birlashadi. Shuningdek, u o'z funksiyalarini bajarib, davlat hokimiyatini amalga oshiradi. Davlat mexanizmi ni tashkil etish muayyan obyektiv prinsiplarga tayanadi. Bu esa, jamiyatning davlat tomonidan samarali idora etilishini ta'minlaydi”[3].

“Davlat hokimiyatini amalga oshirish masalasi barcha zamonlarda dolzarb bo'lgan va hozir ham shunday. Davlatning institutsiyaviy elementi – davlat hokimiyatining uyushtirilishi, tashkillashtirilganligi, ya'ni tashkilot sifatida rasmiylashtirilganligidir. Davlatni tashkilot sifatida turli nuqtai nazardan talqin etish mumkin. Teran ma'noda, davlat – bu mamlakatning butun aholisini qamrab oladigan iyerarxik (pog'onama-pog'ona uyushgan) tashkilot bo'lib, bunda aholi davlatning boshlang'ich elementi hisoblanadi. Aholining bu uyushmasi – tashkilotida, bir tomonda – “boshqariluvchi fuqarolar” bor, ikkinchi tomonda – butun davlat tashkilotini boshqaruvchi apparat mavjud”[2].

“Davlatga o'z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy moddiy kuch – bu davlat apparati(mexanizmi)dir. Bu apparat (mexanizm) davlatning nimadan tashkil topganligini anglatadi. Davlat apparati – davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi organlar tizimi.

U davlat oldida turgan maqsad va vazifalarni bajarishga qaratilgan asosiy funksiyalarni ado etadi. Apparat – jamiyatda boshqaruvni amalga oshiruvchi lavozimli xodimlar va boshqaruv organlari yig'indisidir. Davlat va huquq nazariyasida davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi maxsus tashkilot “davlat apparati” va “davlat mexanizmi” atamallari bilan ifodalanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy islohotlarda davlatning roli, uning bosh islohotchilik xususiyatlarini ushbu sermazmun ishlarni amalga oshirishda davlatning, davlat organlarining va eng asosiysi, davlat mexanizmining tutgan o'ri beqiyosdir”[1].

Shu bilan birgalikda, odillik prinsipi ham davlat mexanizmni yuritishda muhim vositadir. Bevosita odillik prinsipini sud tizimida va davlat nazorat organlari faoliyatida kuzatish mumkin.

Xususan, “odillik prinsipining mohiyati, barcha sud qarorlari va jarayonlarida xolislik, tenglik va haqiqatga asoslanishdan iboratdir. Adolatli sud tizimi, odil va xolis sudyalor orqali tashkil topadi. Sudyalor, o'zining qarorlarida barcha tomonlarning huquqlarini e'tiborga olib, nafaqat qonun talablariga, balki ijtimoiy axloqiy qadriyatlar va xalqning adolatga bo'lgan ishonchiga ham javob berishlari zarur. Odillik prinsipining asosiy jihati shundaki, sudyalor o'z qarorlarini xususi yoki ijtimoiy manfaatlardan holi, faqatgina qonuniy asosda, haqiqatni aniqlashga yo'naltirib, shaxsiy qarashlarga yoki tashqi ta'sirlarga moyil bo'lmasdan chiqargan bo'lishi kerak. Bu, sudning mustaqilligi va obro'sini ta'minlashda, jamiyatda qonun ustuvorligi tamoyilini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Odillik prinsipi sud tizimining asosi bo'lib, adolatni ta'minlashning yagona yo'li sifatida ko'riladi. Ushbu prinsip, nafaqat sudyalarning individual faoliyatiga, balki butun sud tizimining ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Adolatli sud tizimi jamiyatda qonun ustuvorligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Sudyalor, odillik prinsipini hayotga tatbiq etish orqali, jamiyatda huquqiy tartibni mustahkamlashga, odamlarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga xizmat qiladilar”[4].

Odillik prinsipi davlat boshqaruvida insonparvarlik prinsipida ham namoyon bo'lishi mumkin. Ular bir-birini to'ldiradi. Adolatni ta'minlash uchun avvalo, davlat insonparvar siyosat yuritishi zarur. Shu asosda, insonparvarlik prinsipi ham “huquq jamiyat – inson – davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va tartibga solishda adolat, insonni sevish, shaxsni e'zozlash va uning sha'nini qadrlash, unga hayot kechirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Huquqning insonparvarligi qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan ijtimoiy tuzumning shaxs uchun qulay iqtisodiy shart-sharoitlar, imtiyozlar yaratishini nazarda tutadi. Huquqda shaxsni tahqirlovchi, qiynovchi, unga nisbatan noinsoniy munosabatni yoqlab chiquvchi qoidalar bo'lishi mumkin emas. Mamlakatda vujudga keltirilgan kafolatlar tizimi fuqarolarni g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar hamda ularning oqibatlaridan himoya qilishi kerak”[5].

Xalqaro huquqiy manbalarda odillik prinsipi asosan inson huquqlari bo'yicha shartnomalar va xalqaro sud qarorlari orqali namoyon bo'ladi, lekin bu tushuncha xalqaro huquqda alohida, mustaqil manba sifatida ko'rinmaydi. Boshqa xalqaro huquqiy manbalarda odillik prinsipi bevosita ko'rsatilmagan bo'lsa-da, uning qonuniylik, tenglik va adolatli sudlov kabi tamoyillar orqali ifodalanishi mumkin.

“Germaniyada odillik (adolat) prinsipi davlat boshqaruvi va huquq tizimining eng muhim konstitutsiyaviy tamoyillaridan biridir. Ushbu prinsip Germaniya Federativ

Respublikasi Asosiy Qonunida, xususan, 1–20-moddalarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, inson sha‘ni, huquq va erkinliklarini hurmat qilish, ularni adolatli himoya qilish davlatning asosiy vazifasi sifatida belgilanadi. Germaniyada sud hokimiyatining mustaqilligi Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari qatoriga kiradi. Biroq Germaniyadagi amaliyot bu konstitutsiyaviy prinsipga faqat qisman mos keladi. Adliya boshqaruvi Germaniyada ijro etuvchi hokimiyat tarkibiga kiradi. Har bir yer (federal shtat) o‘zining adliya vazirligiga ega. Adliya vazirliklari ma‘lum darajada sud ishlarini yuritish uslubiga ta‘sir ko‘rsatishga harakat qilib kelgan. Bu borada turli federal shtatlar (Bundesländer) o‘rtasida farqlar mavjud. Vaqtni tejash maqsadida qonuniy sud jarayoni (due process of law) huquqi buzilgan, natijada huquqiy masalalar faqat qisman va yetarli darajada ko‘rib chiqilmagan. Iqtisodiy jinoyatchilar ko‘pincha imtiyozli munosabatga ega bo‘lishgan — bu esa Germaniyaning an‘anaviy huquqiy tizimida uchramaydigan hol edi — bular “bitimlar” (ya‘ni “deals”) orqali amalga oshirilgan bo‘lib, ular ko‘pincha murakkab va ko‘p vaqt talab etuvchi sud jarayonlarining o‘rnini egallagan”[6].

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruvida odillik prinsipi jamiyat va hokimiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchning, boshqaruv tizimining qonuniyligi va samaradorligining asosiy kafolati hisoblanadi. Ushbu prinsip nafaqat huquqiy, balki ma‘naviy-me‘yoriy ahamiyatga ega bo‘lib, u boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xolislik, tenglik va inson manfaatlarini ustuvor qo‘yishni taqozo etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, odillik prinsipi amalda to‘laqonli qo‘llanilganda, u nafaqat boshqaruv tizimining samaradorligini oshiradi, balki jamiyatda adolat, ishonch va qonun ustuvorligi muhitini mustahkamlaydi. Shu bois, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish jarayonida odillik prinsipini har bir sohada, xususan, kadrlar siyosati, ijtimoiy ta‘minot, moliyaviy boshqaruv va huquqni qo‘llash amaliyotida chuqur tatbiq etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T., 2005. – B. 40.
2. Проблемы общей теории права и государства / Под ред. проф. В.С. Нерсисянца. – М., 2008. – С. 565.
3. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: “Adolat”, 2018. – B. 121-122.
4. Tursunova N. A. Odillik prinsipi: har bir sudyaning asosiy yo‘l-yo‘riqi. maqola // <https://inlibrary.uz/index.php/zdit/article/download/64448/65446>
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: “Adolat”, 2018. – B. 187-188.
6. <https://medelnet.eu/wp-content/uploads/2012/02/Q-Germany.pdf>

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

THE ESSENCE OF ECONOMIC CRIMES AND MECHANISMS FOR THEIR PREVENTION

Aslanov Sharafiddin Khayrullayevich

Academy of Law Enforcement of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the concept of economic crime, its historical development, as well as modern characteristics from a criminological perspective. Economic crimes manifest in various forms such as property embezzlement, tax evasion, counterfeiting of money and securities, and illegal entrepreneurship, while their causes are explained by both objective and subjective factors.

Keywords: economic crime, white-collar crime, criminology, profit-driven crimes, economic security, market economy, prevention, oversight institutions, Uzbekistan, international experience.

IQTISODIY JINOYATLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA ULARNING OLDINI OLISH MEXANIZMLARI

Aslanov Sharafiddin Xayrullayevich

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi

E-mail: sharafiddinaslanov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiy jinoyatchilik tushunchasi, uning tarixiy shakllanishi hamda hozirgi davrdagi xususiyatlari kriminologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Iqtisodiy jinoyatlar mulkni talon-taroj qilish, soliqlardan bo'yin tovlash, qalbaki pul va qimmatli qog'ozlar tayyorlash, noqonuniy tadbirkorlik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lib, ularning sabablari obyektiv va subyektiv omillar bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy jinoyatchilik, oq yoqalilar jinoyati, kriminologiya, tamagirlik jinoyatlari, iqtisodiy xavfsizlik, bozor iqtisodiyoti, profilaktika, nazorat institutlari, O'zbekiston, xalqaro tajriba.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N42>

Kirish. Iqtisodiy jinoyatchilik (yoki iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar) tushunchasi bugungi kunda «uyushgan jinoyatchilik» hamda «jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish» atamaları qatorida kriminologiya fanida ham, huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotida ham keng qo'llaniladigan kategoriyalardan biridir. Uning mazmuni haqida turli ta'riflar mavjud bo'lsa-da, bu tushuncha dastlab jamoatchilikka «oq yoqalilar jinoyatchiligi» sifatida kirib kelgan. Mazkur iboraning muallifi — amerikalik kriminolog E. Saderlend bo'lib, u 1940-yilda yuqori ijtimoiy mavqega ega shaxslarning xizmat vazifasi doirasida ularga bildirgan ishonchni suiiste'mol qilgan holda sodir etadigan huquqbuzarliklarini «oq yoqalilar jinoyatchiligi» deb atagan Sobiq Ittifoq davrida iqtisodiy jinoyatchilikning nazariy asoslari V.G. Tanasevich, B.E. Bogdanov, G.K. Sinilov, A.N. Lar'kov singari huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, yangi mulk shakllarining paydo bo'lishi va bozor munosabatlarining shakllanishi ushbu turdagi jinoyatchilikda sezilarli o'zgarishlarga olib keldi.

Jahon iqtisodiy tizimiga integratsiya jarayonlari ham kriminal vaziyatning murakkablashuviga sabab bo'ldi. Shu bois iqtisodiy jinoyatchilik kriminallashtirgan iqtisodiy munosabatlarning mantiqiy oqibati sifatida yuzaga kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kriminolog olimlarning fikricha, iqtisodiy jinoyatchilik xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida mulkni tamagirlik yo'li bilan egallashga urinish, iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning belgilangan tartibiga tajovuz qilish va fuqarolarning iqtisodiy huquqlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar majmuini tashkil etadi. U amalda jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan o'nlab jinoyat tarkiblarini — mulkni talon-toroj qilish, valyuta boyliklari bilan noqonuniy operatsiyalar o'tkazish, qalbaki pul va qimmatli qog'ozlar tayyorlash yoki tarqatish, soliqdan bo'yin tovlash, noqonuniy tadbirkorlik, kontrabanda va boshqa shu kabi harakatlarni — o'z ichiga qamrab oladi [4]. Ayrim olimlar esa iqtisodiy jinoyatlar doirasiga tamagirlik xususiyatidagi mansab jinoyatlarini, jumladan, poraxo'rlikni ham kiritadilar. Shu tariqa, iqtisodiy jinoyatchilikning yuqori ijtimoiy xavflilik darajasi uning jamiyat institutlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi va davlatning moddiy negizi — iqtisodiyotning barqaror faoliyatiga putur yetkazishida namoyon bo'ladi. Iqtisodiyot sohasida tamagirlik yo'li bilan sodir etiladigan jinoyatlarning sabablari ham obyektiv, ham subyektiv omillarga borib taqaladi. Iqtisodiy munosabatlarning ziddiyatli va salbiy jihatlari jinoyatchilik uchun zamin yaratadi [5].

Muhokama va natijalar. Iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish uchun maxsus profilaktika choralari amalga oshiruvchi subyektlar sifatida tadbirkorlar, korxona menejerlari, mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari, ichki xo'jalik va auditorlik nazorati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, shuningdek vakillik va ijroiya hokimiyati hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari ko'rsatiladi. Shu bilan birga, davlat va nodavlat nazorat institutlari ham ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunga binoan, Markaziy bank tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari faoliyati ustidan majburiy tartibda nazorat olib borishi belgilangan. Umumiy profilaktika choralari korrupsiyani ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarini yaratish va mustahkamlash vositasi sifatida ishlatilishining oldini olishga, bozor munosabatlariga sog'lom ijtimoiy tayanch shakllantirishga qaratiladi. Shu bilan birga, u jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan daromadlarning qonuniylashtirilishi va ko'paytirilishiga yo'l qo'ymaslikni ham nazarda tutadi [6].

Maxsus oldini olish choralari korrupsiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan kompleks tashkiliy-huquqiy mexanizmlar tizimidan iboratdir. Bunday choralar, avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, nazorat idoralari, davlat boshqaruvi tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladi.

Maxsus profilaktika doirasida quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Huquqiy mexanizmlar. Korrupsiyaga qarshi maxsus qonun hujjatlarini qabul qilish, mansabdor shaxslarning faoliyatini tartibga soluvchi me'yorlarni kuchaytirish, huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish.


Institutsional mexanizmlar: korrupsiyaga qarshi maxsus organlar (agentliklar, komissiyalar, inspeksiyalar) faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, ularning mustaqilligini va javobgarligini ta'minlash.

Nazorat va monitoring: davlat xizmatchilari faoliyati ustidan muntazam ichki va tashqi nazorat o'tkazish, shaffof hisobot tizimlarini joriy etish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish. *Moliyaviy nazorat:* jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi mexanizmlarni qo'llash, mulk va daromadlarni deklaratsiya qilish tizimini takomillashtirish.

Tashkiliy choralar: davlat xizmatida rotatsiya va kadrlar almashinuvini yo'lga qo'yish, korrupsiyaga moyillikni kamaytiruvchi xizmat intizomi va etika qoidalarini joriy etish. Korrupsion jinoyatlar uchun muqarrar jinoiy, ma'muriy va intizomiy javobgarlikni kuchaytirish, mansabdor shaxslar faoliyatida "shaxsiy javobgarlik" prinsipini ta'minlash[5]. Shu tariqa, maxsus profilaktika choralari korrupsiyaning oldini olishda faqat umumiy ijtimoiy omillarni emas, balki bevosita korrupsion xavf manbalarini bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat nazorat idoralari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni talab etadi.


1-rasm.


Global: tashkilotlar orasida iqtisodiy jinoyatga duch kelganlar ulushi (PwC GECS 2024)
(Manba: PwC Global Economic Crime Survey 2024)



2-rasm.

O'zbekistonda qayd etilgan jinoyatlar orasida iqtisodiy jinoyatlar ulushi (2024)
(Manba: IIV ma'lumotlari, press xabarlar)



3-rasm.

O'zbekiston uchun: rasmiy/mahalliy axborotlarda 2024-yil uchun iqtisodiy jinoyatlar jami qayd etilgan jinoyatlar ichida 62.9% ni tashkil etgani qayd etilgan manbalarga tayangan holda (IIV/mahalliy axborotlar; 2024-yil).

Global miqyos uchun: PwC-ning Global Economic Crime Survey 2024 ma'lumotlariga ko'ra, 41% (global ishtirokchilar o'rtacha) tashkilotlar so'nggi 24 oy ichida iqtisodiy jinoyatga duch kelganini bildirgan. Bu «tashkilotlar duch kelgan/duch kelmagan» metrikasidir.

Ikkala ko'rsatkich turli metrikalarga asoslangan — O'zbekiston uchun berilgan raqam umumiy qayd etilgan jinoyatlar ichida iqtisodiy jinoyatlar ulushi, global raqam esa kompaniyalar/organizatsiyalar darajasidagi "dush kelish" foizidir. Shu sababli ular to'g'ridan-to'g'ri ilmiy jihatdan tenglashtirilmaydi, ammo vizual va taxminiy taqqoslash uchun moslashtirilgan diagrammalar sifatida taqdim etildi [7].

Xulosa. Iqtisodiy jinoyatchilik va korrupsiya davlat barqarorligi hamda jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid tug'diradi. Statistik ma'lumotlar O'zbekistonda va global miqyosda bu muammoning keskin dolzarbligini ko'rsatmoqda. Uning oldini olishda umumiy choralar ijtimoiy munosabatlarni sog'lomlashtirishga, maxsus choralar esa bevosita korrupsion xavf manbalarini bartaraf etishga qaratilgan. Davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va fuqarolik jamiyati hamkorligi bu yo'nalishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2018-yil 1-maygacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr. – Toshkent: Adolat, 2018. – 536 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida. 2018-yil 9-yanvar, O'RQ-458-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
5. Abdurasulova K., Zokirova O. Kriminologiya: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TDYUI, 2003.

6. Muxamedov F.E., Alimov G'.A., Shakurov R.R., Rasulev A.A. Jinoyat qonunchiligi normalarini qo'llashga oid masalalar to'plami: o'quv-amaliy qo'llanma. – Toshkent: Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2019. – 300 b.
7. СССР и международное сотрудничество в области прав человека: Документы и материалы. – Москва, 1989. – 503 б.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCE**Received:** 10 October 2025**Accepted:** 25 October 2025**Published:** 2 November 2025*Article / Original Paper***ENHANCING THE TEACHING METHODOLOGY OF THE COURSE****“RENEWABLE ENERGY SOURCES” BASED ON THE EDUCATION 5.0 CONCEPT****Akbarova Gulhayo Oybekovna,**

Senior Lecturer, Andijan State University

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Ermатов Shukrilla Abdulfayzovich,

Associate Professor, Andijan State University

Candidate of Physical and Mathematical Sciences (PhD)

Abstract. This article provides a scientific and methodological analysis of modernizing the teaching methodology of the course “Renewable Energy Sources” from the perspective of the Education 5.0 concept. It substantiates the need to improve the educational process through the implementation of innovative pedagogical approaches – STEAM, PBL, AI, IoT, and the integration of virtual laboratories – aiming to foster green economy principles, ecological responsibility, and innovative engineering thinking, which are crucial for sustainable societal development. The study emphasizes that the Education 5.0 model moves energy education beyond theoretical instruction, focusing on shaping students as creative agents capable of addressing global energy challenges.

Keywords: Education 5.0, renewable energy, ecopedagogy, virtual laboratory, green economy, AI, IoT.

TA'LIM 5.0 KONSEPSIYASI ASOSIDA “QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI” FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**Akbarova Gulhayo Oybekovna**

AnDU katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

Ermатов Shukrilla Abdulfayzovich

AnDU dotsenti, f-m-f.n

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ta'lim 5.0 konsepsiyasi nuqtai nazaridan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” fanini o'qitish metodikasini modernizatsiya qilish masalasi ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim bo'lgan yashil iqtisodiyot, ekologik mas'uliyat va innovatsion muhandislik fikrini shakllantirish asosida yangi pedagogik yondashuvlar – STEAM, PBL, AI, IoT va virtual laboratoriya integratsiyasi orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqotda Ta'lim 5.0 modeli energiya ta'limini shunchaki nazariy bilim berish bosqichidan chiqargan holda, talabalarni global energetik muammolarga yechim topishga yo'naltirilgan kreativ subyekt sifatida shakllantirish zarurligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim 5.0, qayta tiklanuvchi energiya, ekopedagogika, virtual laboratoriya, yashil iqtisodiyot, AI, IoT.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N43>

Kirish. XXI asr boshida global energiya inqirozi, iqlim o'zgarishi va karbon izining keskin ortishi insoniyatni qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan yangi taraqqiyot modeliga o'tishga majbur qilmoqda. Bu jarayonda ta'lim tizimi, ayniqsa muhandislik va texnik

yo'nalishlardagi oliy ta'lim fanlari oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'ymoqda. Endilikda maqsad – energiya resurslari haqidagi nazariy bilimlarni takrorlash emas, balki talabalarda ekologik mas'uliyat, innovatsion fikrlash va dizaynerlik tafakkurini shakllantirishdan iboratdir [3; P. 41].

Hozirgi kunda dunyo ta'lim maydonida Ta'lim 5.0 konsepsiyasi shakllanmoqda. Ushbu konsepsiya Yaponiya tomonidan ilgari surilgan "Society 5.0" modeli bilan uyg'un bo'lib, inson, texnologiya va tabiatni bir butun ekotizim sifatida ko'radi [2; P. 58]. Bu yangi paradigma shuni anglatadiki, oliy ta'lim nafaqat bilim uzatuvchi, balki insoniyat kelajagini loyihalovchi intellektual institutga aylanishi zarur. Shu nuqtai nazardan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari fani — insoniyatning energiya madaniyati va ekologik ongini shakllantiruvchi strategik o'quv maydoni sifatida qayta ko'rib chiqilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida ham "Yashil iqtisodiyot strategiyasi – 2030", "Energiya xavfsizligi konsepsiyasi" va "Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish dasturi" doirasida ushbu yo'nalish bo'yicha fundamental islohotlar amalga oshirilmoqda [6; P. 22]. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, qayta tiklanuvchi energiya manbalari fani ko'pincha klassik fizik terminlar darajasida qolib ketmoqda, zamonaviy ekopedagogik transformatsiyaga hali to'liq moslashmagan.

Shu sababli ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligi quyidagi asoslarda namoyon bo'ladi:

- qayta tiklanuvchi energiya fanining Ta'lim 5.0 modeli asosida qayta loyihalanishi;
- virtual laboratoriya, AI, IoT va STEAM pedagogik yondashuvlarini integratsiya qilish zarurati;
- texnik ta'limni ekologik ong va yashil tafakkur bilan boyitish ehtiyoji.

Zamonaviy pedagogik tafakkur so'nggi yarim asr davomida sezilarli transformatsiyani boshdan kechirdi. Ta'lim 1.0 davrida ta'lim jarayoni ishlab chiqarish ehtiyojining oddiy funksiyasi sifatida talqin qilinar edi, bunda asosiy maqsad – standartlashtirilgan bilimni ommaga uzatish bo'lgan [3; P. 44]. Ta'lim 2.0 esa bosqichma-bosqich vizuallashtirish, audiovizual vositalar va frontal interaktivlikni joriy etdi. Uchinchi bosqich – Ta'lim 3.0, internetning keng tatbiqi, ochiq ta'lim platformalari va raqamlashtirish jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda bilimning texnologiya bilan birgalikdagi harakati boshlanadi [7; P.117]. Ta'lim 4.0 – sanoatning to'rtinchi inqilobi bilan uyg'unlashgan holda, AI, Big Data va avtomatlashtirilgan o'quv tizimlarini shakllantirdi.

Ta'lim 5.0 esa inson, texnologiya va tabiatni yagona kognitiv ekotizim sifatida ko'radigan antropotsentrik modeldir. Agar Ta'lim 4.0 "raqamli transformatsiya"ni ko'zlagan bo'lsa, Ta'lim 5.0 "raqamli gumanizm"ni ilgari suradi [2; P. 60].

Ta'lim bosqichi	Asosiy xususiyat	Maqsad
1.0	Ma'lumot transferi	Bilim berish
2.0	Interaktiv ko'rgazmalilik	Tushunish
3.0	Raqamli ta'lim (E-learning)	Integratsiya
4.0	AI va avtomatika	Avtonomiya
5.0	Ekogumanistik model	Mas'uliyat va barqarorlik

Ta'lim 5.0 konsepsiyasi Yaponiya tomonidan taklif qilingan "Society 5.0" falsafasining ta'limdagi ifodasidir [6; P.23]. Unda inson texnologiyani iste'mol qiluvchi emas, balki uni global ekologik muammolarni hal qilish vositasiga aylantiruvchi subyekt sifatida ko'riladi.

Ta'lim 5.0 uch asosiy paradigma bilan ajralib turadi:

Ekokognitiv paradigma – bilim ekologik mas’uliyat bilan uyg’unlashgan holda shakllanishi shart [6; P.29].

Texnointellektual paradigma – AI, IoT va Digital Twin texnologiyalarini ta’limga integratsiya qilish orqali intellektual muhit yaratish [3; P.52].

Reflektiv-insonparvar paradigma – talaba faqat iste’molchi emas, balki ijtimoiy-ekologik muammoni hal qiluvchi subyekt sifatida shakllanishi [7; P.121].

Bu paradigma negizida “Ekologik fikrlovchi muhandis” konsepsiyasi yotadi – bu kelajak injenerining yangi modeli bo’lib, u energiya ishlab chiqmaydi, balki energiya falsafasini loyihalaydi.

Dunyo bo’yicha energetik siyosat “karbon neytralligi – 2050” tamoyiliga o’tmoqda. Xalqaro energetika agentligi (IEA) ma’lumotlariga ko’ra, agar ta’lim tizimida yashil kompetensiyalar shakllanmasa, global energetik maqsadlar inqirozga yuz tutadi [1; P.14]. Aynan shu sababdan, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” fani zamonaviy oliy ta’limda strategik mavqega ega.

Hozirda O’zbekiston oliy ta’lim tizimida ushbu fan ko’pincha nazariylik bazasida o’tib, talabani faollashtiruvchi, muhandislik tafakkurini rivojlantiruvchi, loyiha mexanizmlarini shakllantiruvchi uslublardan mahrumdir [5; P.88].

Demak, Ta’lim 5.0 integratsiyasi bu fanni:

- nazariy fizik obyektlardan
- iqtisodiy-ekologik real muammolarni yechadigan platformaga aylantirishdir.

Global ilmiy bazalarda so’nggi yillarda “Green Education”, “Energy Pedagogy”, “Eco-Engineering” kabi yo’nalishlarda ilmiy maqolalar soni keskin ortmoqda [2; P.65]. Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreyada energiya ta’limi – virtual laboratoriya, STEAM va sanoat hamkorligi orqali olib boriladi.

Ammo Markaziy Osiyo mintaqasida energiya ta’limining metodik asoslari hanuzgacha klassik fizika paradigmasida qolmoqda [4; P.101]. Bu esa ilmiy bo’shliqni yuzaga keltiradi: fanning mazmuni ekologik va kognitiv modernizatsiyani talab qilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi so’nggi yillarda “Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi – 2030”, “Energetika xavfsizligi strategiyasi” hamda “Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi – 2030” doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo’yicha ta’limni milliy ustuvor yo’nalish sifatida belgiladi [6; P.33]. Biroq amaliyot ko’rsatadiki, bu fan hali ham nazariy, informatsion darajada o’qitilib, zamonaviy Ta’lim 5.0 talablari – ya’ni virtual laboratoriya, AI integratsiyasi va ekologik refleksiya kabi komponentlardan mahrumdir [5; P.91].

Bugungi ta’limdagi vazifa – energiya manbalarini tushuntirish emas, balki barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan energiya tafakkurini shakllantirishdir. Bu fan orqali talaba “quyosh paneli qanday ishlaydi?” savoliga emas, balki “energetik tizimlar jamiyat kelajagini qanday belgilaydi?” savoliga javob bera olishi kerak [2; P.62].

Bugungi o'qitish tizimida quyidagi metodik muammolar aniqlanadi:

Muammo turi	Ta'rif
Nazariy markazlashuv	Ma'ruzalar asosan fizik-texnik ma'lumotlar takroriga asoslangan
Laboratoriya yetishmovchiligi	Virtual, simulyatsion, IoT laboratoriyalar mavjud emas
Ekologik komponentning zaifligi	Karbon izi, SDGs, barqaror energiya falsafasi o'tilmaydi
Innovatsion pedagogika yo'qligi	STEAM, PBL, Startap asosidagi ta'lim tatbiq qilinmagan

Talaba bugungi kunda energiya muammolarini amaliy hal qilishga emas, nazariy reproduksiya qilishga yo'naltirilgan. Bu esa Ta'lim 5.0 konsepsiyasi bilan keskin tafovutda [7; P.122].

Energetika fanining eng og'riqli nuqtasi — laboratoriya infratuzilmasining zamonaviy talablarga mos kelmasligidir. Ko'plab texnik universitetlarda:

- PV (quyosh panellari) real o'lchov laboratoriyalari yo'q;
- shamol turbinalari uchun aerodinamika stendlari mavjud emas;
- energiya monitoringi uchun IoT (smart-meter) simulyatsiya yo'q.

G'arb mamlakatlari bu muammoni Digital Twin (raqamli egizak) modeli orqali hal etgan [3; P.56]. Bizda esa talabalar texnik tizimni chizmada ko'radi, lekin boshqara olmaydi.

Bugungi o'quv dasturlari texnik ma'lumotga boy, ammo falsafiy-axloqiy komponentlarni qamrab olmaydi. Masalan:

- Karbon neytrallik bo'yicha modullar yo'q;
- Ekologik iz (carbon footprint) hisoblash o'rgatilmaydi;
- Xalqaro SDGs (Sustainable Development Goals) ta'limga tatbiq qilinmagan.
- Holbuki, IEA ma'lumotlariga ko'ra, kelajak energetika muhandisi, avvalo, ekologik ong egasi bo'lmog'i lozim [1; P.16].

Ko'pgina universitetlarda ishlab chiqarish bilan integratsiya faqat tashrif darajasida qolmoqda:

- GES/SES korxonalariga amaliy tashriflar bor, ammo dual ta'lim yo'q;
- Energetik tizimlar bo'yicha startap inkubatorlari yo'qligi seziladi;
- Loyihalash (design-thinking) metodlari qo'llanilmaydi.

Yaponiya va Koreyada energiya fakultetlari kompaniyalar bilan birlashtirilgan holda faoliyat yuritadi [2; P.67]. O'zbekistonda esa bu jarayon endi shakllanmoqda.

O'zbekiston oliy ta'limidagi mavjud vaziyat quyidagicha tavsiflanadi:

- fan texnik-bilim darajasida
- amaliy laboratoriya yo'q
- AI/IoT ta'limga kiritilmagan
- lekin islohotlar uchun siyosiy asos mavjud

Ta'lim 5.0 paradigmasi shuni talab qiladiki, energetika fanlari nafaqat fizik tamoyillarni, balki global ekologik va sivilizatsion jarayonlarni tushuntirishi zarur. Insoniyat XXI asrda energiya ishlab chiqaruvchidan ko'ra, energiya madaniyatini yaratishga majbur [3; P.59]. Shu sababli, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" fani endilikda bilim fanidan – ong va mas'uliyat faniga aylanishi kerak [3; P.63].

Metodik ehtiyojlar:

- Nazariy yondashuvdan → Ekopedagogik va dizaynerlik yondashuviga

- O'qituvchi markazidan → Talaba markaziga
- Axborot uzatishdan → Innovatsion faoliyatga

Taklif etilayotgan “Green Pedagogical Cube” modeli fanni uch asosiy o'lchamda yangilaydi:

O'lcham	Mazmuni	Maqsadi
Pedagogik	STEAM, PBL, refleksiya	Kreativ tafakkur
Texnologik	AI, IoT, VR, Digital Twin	Innovatsion kompetensiya
Ekologik	SDGs, karbon izi, bioetik	Global mas'uliyat

Bu model orqali talaba “energia iste'molchisi”dan “energia dizayneri”ga aylanishi nazarda tutiladi [4; P.103].

An'anaviy laboratoriya ishlarini raqamli transformatsiya qilish uchun quyidagi platformalar joriy etilishi zarur:

Platforma	Qo'llanish sohasi
HOMER Pro	Gibrid energiya tizimlarini modellashtirish
PVSol / PVSyst	Quyosh panellari samaradorligi
MATLAB Energy Toolbox	Energiya yuklamasi tahlili
VR Energy Plant	Immersive tajriba va 3D simulyatsiya

Virtual laboratoriyalar yordamida talaba energiya tizimini ko'rmaydi – boshqaradi, natija oladi, tahlil qiladi [7; P.125].

Pedagogik transformatsiya uchun loyiha asosidagi ta'lim (PBL) joriy etilishi lozim. Talabalar real ekologik muammolarni yechishga yo'naltirilgan guruh loyihalarida ishtirok etadi:

Loyiha mavzusi	Maqsad
“100% quyosh energiyali maktab”	Arxitektura + energetika
“BioGas Smart Farm”	Qishloq xo'jaligi chiqindilari → energiya
“Green Campus Audit”	Smart-meter orqali energiya monitoringi

Bu jarayon talabaning muhandislik tafakkurini “chizma darajasidan → strategik qaror darajasi”ga olib chiqadi [5; P.96].

Ta'lim 5.0 sharoitida energiya tizimlari sun'iy intellekt va IoT orqali bashorat qilinishi kerak:

- AI yordamida quyosh nurlanishi prognozi (Python / TensorFlow)
- IoT orqali real vaqt energetik monitoring
- Arduino / Raspberry Pi asosida mini GES modeli
- “Digital Twin” — elektr stansiyasining virtual egizagi

Bu yondashuv talabani texnik ijrochidan → analitik dizaynerga aylantiradi [1; P.19].

An'anaviy test va yozma nazorat o'rnini kompetensiya profili egallashi lozim:

Kompetensiya turi	Baholash elementi
Ekologik	Karbon izini hisoblash
Texnik	Tizim modeli (digital simulyatsiya)
Innovatsion	AI / IoT integratsiyasi
Ijtimoiy	Startup pitch va debat

“Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” fanini Ta’lim 5.0 tamoyillariga moslashtirish uchun integrallashgan modullu yondashuv ishlab chiqiladi. Bu model pedagogik, texnologik va ekologik komponentlarni yagona tizimda jamlaydi [2; P.70].

Model o’qi	Mazmun	O’quv natijasi
Pedagogik	STEAM, PBL, refleksiya	Kreativ fikrlash
Texnologik	AI, IoT, VR, Digital Twin	Innovatsion kompetensiya
Ekologik	SDGs, karbon izi, bioetika	Yashil tafakkur

Bu yondashuv orqali fan “energiya fizikasi”dan “energiya falsafasi”ga ko’tariladi [3; P.61].

16 Haftalik O’quv-Modul Rejasi (Ta’lim 5.0 formatida)

Hafta	Modul nomi	Pedagogik format
1–2	Energiya sivilizatsiyasi va SDGs	Refleksiya + Dialog
3–4	Quyosh energetikasi (PV tizim)	VR simulyatsiya (PVSol)
5–6	Shamol va gidroenergetika	3D turbina modeli
7–8	Biogaz va bioenergiya	Laboratoriya (Mini fermenter)
9	Karbon izi va ekologik hisob	SDG-Calculator
10–11	AI + IoT energiya boshqaruvi	Python + Arduino
12–13	Green StartUp loyihalari	PBL / Pitch Session
14	Energiya auditi (Green Campus)	Field Research
15	Ta’lim 5.0 va energetik etika	Debat / Essay
16	Yakuniy Green Symposium	Startup taqdimoti

Bu modul orqali talaba oddiy tinglovchidan energiya muammosi yaratuvchisi va yechim ishlab chiquvchisi darajasiga ko’tariladi [5; P.99].

Dars formatlari (Ta’lim 5.0 mos innovatsion shakllar)

Dars turi	Pedagogik metod	Texnologik vosita
Ma’ruza	Dialogik + refleksiya	Prezi, Miro Board
Amaliyot	STEAM laboratoriya	PVSol, HOMER Pro
Seminar	Energiya debati	SDGs Panel
Loyiha	PBL & Case Study	AI + IoT
Trening	Ekofikr simulyatori	VR Energy Farm

Bu metodlar klassik “muallim → auditoriya” modellini bekor qiladi, o’rniga “kreator → inovatsiya maydoni” modelini yaratadi [6; P.37].

Baholash tizimi: Kompetensiya asosidagi metrika

Baholash turi	Ulushi	Ta’rif
Green Portfolio	30%	Talaba ekofikr kundaligi
PBL Project	40%	Loyiha (Startup Pitch)
Reflektiv Essay	15%	Energiya falsafasi
Final Symposium	15%	Jamoaviy taqdimot

Ta’lim 5.0 ga ko’ra, talaba baholanmaydi — u o’zining intellektual evolyutsiyasini namoyish etadi [2; P.73].

O'qituvchi uchun metodik yo'l xaritasi

Bosqich	O'qituvchi vazifasi
Loyihalash	Modul va STEAM muhit tayyorlash
Faollashtirish	Talabani muammoga sho'ng'itish
Raqamlashtirish	AI/IoT simulyatsiyalarni qo'llash
Kuzatish	Individual ekologik profil yaratish
Yakun	Green Symposium tashkil qilish

Ushbu fan endi “ma’ruza fan” emas, balki intellektual konstruktor laboratoriyasi sifatida shakllanishi zarur.

Xulosa. Ta’lim 5.0 konsepsiyasi shuni anglatadiki, zamonaviy ta’lim tizimi faqat bilim uzatuvchi emas, balki insoniyat kelajagini loyihalovchi intellektual va sivilizatsion institutga aylanishi zarur. “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” fani texnik-nazariy obyektidan chiqib, global ekologik muammolarni hal qiluvchi strategik fan sifatida yangidan talqin etilishi kerak. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan metodik model — “Green Pedagogical Cube” — fanni uch o'lchamda yangilashga yo'naltiriladi: pedagogik (STEAM, PBL), texnologik (AI, IoT, VR), ekologik (SDGs, karbon izi, bioetika).

Integrallashgan 16 haftalik modul asosida fan talabalarda nafaqat energiya haqidagi bilimni, balki energiya falsafasi, yashil tafakkur va innovatsion dizaynerlik ko'nikmalarini shakllantirishi ko'zda tutiladi. Baholash tizimi test markazidan reflektiv kompetensiya markaziga ko'chirilib, Green Portfolio, Startup Pitch va Energy Audit formatlariga asoslanadi.

O'zbekiston sharoitida energiya ta'limini yangilash uchun quyidagi strategik yo'nalishlar ilmiy tavsiya sifatida ilgari suriladi:

- Ta'lim 5.0 integratsiyasi – energiya fanlarini antropotsentrik va ekologik kompetensiya asosida qayta dizaynlash;
- Virtual laboratoriyalar va AI simulyatsiya – PVSol, HOMER Pro, Digital Twin modellarini majburiy tatbiq etish;
- Yashil startap va dual ta'lim – sanoat korxonalari bilan Green Campus va prototip ishlab chiqish infratuzilmasini yaratish;
- Ekopedagogik transformatsiya – energiya fanini ekologik ong va sivilizatsion mas'uliyatni shakllantiruvchi strategik fan darajasiga ko'tarish.

Natijada, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” fani Ta'lim 5.0 konsepsiyasi doirasida nafaqat ilmiy-intellektual yo'nalish, balki insoniyatning yashash tamoyillarini ifodalovchi yangi ta'lim paradigmasiga aylanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. International Energy Agency (IEA). 2021. World Energy Outlook 2021. Paris: IEA Publications.
2. Murakami, Satoru. 2021. “Society 5.0 and Eco-Innovation in Higher Education.” Journal of Future Pedagogy 14(2) – pp. 55–73.
3. Schwab, Klaus. 2016. The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
4. Tokarev, Vladimir. 2021. “Digital Twin in Renewable Energy Education.” Energy Education Review 9(1) – pp. 98–113.
5. Tokhirov, Anvar. 2022. “Renewable Energy Pedagogy in Central Asian Universities.” Tafakkur va Texnologiya 8(3) – pp.85–102.
6. UNESCO. 2020. Green Skills for Sustainable Future. Paris: UNESCO Publishing.

7. Yamaguchi, Hiroshi. 2021. "Pedagogy of Green Engineering in Japan." Tokyo Journal of Engineering 12(3) – pp.112–132.
8. World Economic Forum. 2019. Shaping the Future of Energy. Geneva: WEF.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF LEARNER-CENTRED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING CREATIVE THINKING AMONG PROSPECTIVE TEACHERS

Sulaymanova Dildora Nazarovna
Associate Professor, SamSU

Abstract. This article reveals the improvement of future teachers on the basis of a cratic approach and technology of joint learning, which is aimed at the personality of students.

Keywords: creativity, creative thinking, the future teacher, human-oriented technology, formation.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING ROLI

Sulaymanova Dildora Nazarovna
SamDU dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ tafakkur, bo'lajak o'qituvchi, shaxsga yo'naltirilgan texnologiya, shakllantirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N44>

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi ta'limning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga bog'liq. Ta'lim sohasidagi eng katta potensial kuch bu shaxsdir. Bizga ma'lumki, har bir fan kabi zamonaviy pedagogikaning maqsadi mustaqil fikrlaydigan va faoliyat yuritadigan, jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ma'lumki, hozirgi kunga kelib, insonning intellektual darajasi uning qay darajada ko'p bilimlarni egallaganligi, xotirasida ma'lumot va dalillarni qanchalik ko'p saqlab qolganligiga emas, balki tanqidiy, tahliliy, ijodiy tahlil orqali zarur bilimlarni ajrata olishi, axborotlarni mulohazadan o'tkazib, mustaqil yechimga kela olishi bilan belgilanadi.

Albatta, ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassisda kreativ (ijodiy) tafakkurni shakllantirish bugungi kundagi ta'lim oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar talabalarning atrofdagilar bilan muomala qilishga, mavjud vazifalarni to'g'ri baholashga, mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlashga imkon beradigan o'quv vaziyatlarini tashkil etish zaruriyatini qo'ymoqda. Bu esa ta'lim jarayonida bo'lg'usi mutaxassislarning shu jumladan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual imkoniyatlariga qarab, ularning bilish faolligini oshirish, tanqidiy, ijodiy tafakkurini shakllantirish orqali kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlashning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Aynan shaxsga yo'naltirilgan ta'limda nafaqat talaba shaxsining intellektual darajasini kuchaytirishga, balki ulardagi kreativ (ijodiy) tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish nazarda tutilgan. Shaxsning ma'naviyati yuksalishi

bilan uning fikrlashi va tafakkuri ham rivojlanib, shakllanib boradi. Zero, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi. Kreativlik – (lot., “create”-yaratish, “creative”-yaratuvchi, ijodkor) individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorgarlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Kreativ tafakkur esa tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi tushuncha sanaladi.

Kreativ fikrlash o'qituvchi faoliyatida yaqqol ko'rinib turishi lozim. Shu ma'noda o'qituvchining ijodkorligi kasbiy faoliyatiga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. Kreativlik pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi xususiyatidir. O'qituvchining kreativligi faoliyatining quyidagi holatlarida namoyon bo'lishi zarur:

- 1) O'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishga zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;
- 2) O'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

O'qituvchining kreativlik sifatlarga ega bo'lmasligi sababli talabalar qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadilar. Natijada ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

O'qituvchida kreativlik sifatlari o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Shunga ko'ra tadqiqotlarda shaxs (jumladan, pedagog)larda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari yoritilgan. Patti Drepeau tomonidan shaxs (pedagog)larda kreativlik sifatlari muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan:

- 1-yo'l: kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish.
- 2-yo'l: amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish.
- 3-yo'l: kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish.
- 4-yo'l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish.

Muallif tomonidan tavsiya qilingan ushbu strategiya talabalarda kreativlikni rivojlantirishda o'qituvchilar uchun qo'l kelishi hamda talabalarda o'quv fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilishni rivojlantirishi shubhasiz [1, 6-b].

Ta'lim jarayonida shaxsga murojaat qilmaslikning iloji yo'q. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari talaba shaxsini butun bir ta'lim tizimining markaziga qo'yadi va unga tabiatan berilgan qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun har tomonlama qulay, xavfsiz, erkin shart-sharoit yaratadi. Talaba shaxsi bu texnologiyada nafaqat subyekt, balki keng imkoniyatlar berilgan subyekt bo'lib, u ta'lim tizimidagi asosiy bo'lmagan maqsadlarga erishish vositasi emas, balki uning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talaba shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodiylikni his etish kabi sifatlarni tarbiyalaydi. [2, 86-87 b]. Ushbu texnologiyaning diqqat markazida turli hayotiy vaziyatlarda ongli tanlashga qobiliyatli, yangi tajribalarni idrok etishga tayyor, o'z

imkoniyatlarni o'zi amalga oshirishga ishtiyoqmand noyob inson turadi. Bunday shaxsning muvaffaqiyati an'anaviy texnologiyadagi bilim va ijtimoiy me'yorlarni tarbiyalanuvchilarga formal uzatishdan farqli ravishda, erkin fikrli shaxsni shakllantirish ekanligini bildiradi.

Bundan tashqari ushbu texnologiyalarning o'ziga xosligi shundaki, ular shaxs rivojlanishini qandaydir buyurtma asosida shakllantirishga emas, aksincha uning (shaxsning) tabiiy qobiliyatlari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ta'lim mazmuni o'zida bola shaxsi shakllanishi va rivojlanishidan kelib chiquvchi muhitni aks ettiradi. Uning insonparvarlik xususiyati insonga, insonparvar me'yorlarga va ideallarga e'tibor qaratilganligidir.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya har bir talabaning individual o'ziga xosligi bilan bog'liqlikda ta'lim va tarbiyaning metod va vositalarini izlab topishga harakat qiladi. Texnologiya an'anaviy texnologiyadagi bolaga avtoritar, mustaqilligini e'tirof etmagan xolda qarashga qarama-qarshi qo'yiladi. Sevish, g'amxo'rlik, hamkorlik asosida shaxs ijodiyli va o'zini-o'zi rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi. Zotan o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xosdir:

- insonparvarlik, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'rlashdan to'la voz kechish;
- hamkorlik, ya'ni pedagog va o'quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
- erkin tarbiyalash, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi-pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Yuqorida aytilganidek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarida pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt hisoblanadi; har bir talaba qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi sanaladi; yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari sifatida tan olinadi.

Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari quyidagilar sanaladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi	Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirish mazmuni
<i>Shaxsga insonparvarlik yondashuvi</i>	Texnologiya o'zining insoniyligi, psixoterapevtik yo'nalishi bilan ajralib turadi. Ushbu texnologiyaning mazmuni talaba shaxsini xar tomonlama qo'llab-quvvatlash va talabani ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Talabaga nisbatan hurmat va mehr bilan qarash va majburiylikdan voz kechishdan iboratdir .
<i>Hamkorlik texnologiyasi.</i>	Bu texnologiya demokratiya, hamkorlik, tenglik kabi g'oyalar asosida qurilgan bo'lib, o'qituvchi va talaba orasidagi munosabatlar subyekt-subyekt sifatida qaraladi. Birgalikda ta'lim jarayoni tashkil etiladi va birgalikda ijod etiladi.
<i>Muammoli o'qitish texnologiyasi.</i>	Ushbu texnologiyada pedagog tomonidan muammoli vaziyatlar yaratiladi va uni yechish uchun talabalarning faol mustaqil faoliyati tashkil etiladi. O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.
<i>Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasi.</i>	O'quv jarayonining tashkil etishni bu shakli umumiy didaktika tizimiga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarda, o'quv jarayonini maxsuslashtirishni ta'minlaydi. Talabalar individual psixologik, aqliy rivojlanish darajalari, ijodiy fikrlashlariga ko'rar tabaqalashtiriladi.
<i>Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi.</i>	Individuallashtirilgan o'qitishning asosi, talabaning individual-pedagogik xususiyatlarini o'rnatish hisoblanadi. Bu texnologiya asosida talabalarda mustaqillik, mehnatsevarlik, ijodiyot fazilatlarini shakllantiriladi.
<i>O'yin texnologiyasi.</i>	Bu faoliyat jamoatchilik tajribasini qayta tiklash va o'zlashtirishga qaratilgan, o'qitishni aniq maqsad qilib qo'ygan vaziyatlar sharoitida pedagogik natijalarni yaqqol ko'rinishda namoyon etadi, bunda holatni o'z-o'zini boshqarilishi takomillashtiriladi. Bu texnologiya mavzuni o'zlashtirish, takrorlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vazifalarini bajarish imkonini beradi.
<i>Erkin tarbiya texnologiyasi.</i>	Talabaga tanlash, mustaqillik erkinligi beriladi. Talaba o'zi tanlagan vosita va mazmunni to'liq qabul qiladi, xamda bu faoliyatni xohish bilan bajaradi. Ichki ehtiyoj bilan uyg'unlik hosil bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatini tarbiyalashga yo'naltirish talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir. Zero shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limdir. Bu ta'lim o'qitish muhitning talaba imkoniyatiga moslashtirilishini nazarda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos

jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabani ta'lim tizimiga pedagog sifatida har bir talabaning hurmati va ishonchini qozona olishi moslashtirishini emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turdagi ta'lim talabalarni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga o'zining ichki imkoniyati, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olish, eng asosiysi kreativ tafakkurlarining shakllanishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving).-Alexandria-Virginia, USA: ASCD, 2014.
2. Sanaqulova S. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari//“Ta'lim texnologiyalari” jurnali, Toshkent, 2017. №1, 85-88-b.
3. Sulaymanova D.N. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirish zaruriyati// Markaziy Osiyo davlatlari olimlari ayollarining ilm-fan sohasiga qo'shgan hissasi mavzusidagi Xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari (1-qism). Toshkent. 2020. 317-319-b.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

USING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' MODELING COMPETENCE

Aytmuratov Azhiniyaz Jumabay Uli

Karakalpak State University,

Intern Lecturer, Department of Algebra and Functional Analysis

Abstract. This article analyzes the use of digital educational technologies in developing students' modeling competence. Modeling competence is considered an important professional skill for modern professionals. Based on pedagogical research, the impact of digital technologies (simulation software, virtual laboratories, 3D modeling software, programming systems, and cloud computing platforms) on students' modeling skills is examined. The article highlights the advantages of digital technologies in the modeling process, such as visualization capabilities, interactivity, simplification of complex systems, and collaboration opportunities. Practical recommendations for developing students' modeling competence in higher education institutions are developed.

Keywords: competence, digital educational technologies, simulation programs, virtual laboratories, 3D modeling, higher education, professional competencies, learning efficiency, cloud technologies, innovative education.

TALABALARNING MODELLASHTIRISHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Aytmuratov Ajiniyaz Jumabay Uli

Qoraqalpoq davlat universiteti,

Algebra va funksional analiz kafedrası stayer-o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning modellashtirishga oid kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Modellashtirish kompetensiyasi zamonaviy mutaxassisning muhim kasbiy ko'nikmasi sifatida qaraladi. Pedagogik tadqiqot asosida raqamli texnologiyalar (simulyatsion dasturlar, virtual laboratoriyalar, 3D-modellashtirish dasturlari, dasturlash tizimlari va bulutli hisoblash platformalari)ning talabalar modellashtirish ko'nikmalariga ta'siri o'rganilgan. Maqolada raqamli texnologiyalarning modellashtirish jarayonidagi afzalliklari sifatida vizualizatsiya imkoniyatlari, interaktivlik, murakkab tizimlarni soddalashtirish va hamkorlik imkoniyatlari ajratib ko'rsatilgan. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning modellashtirish kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, raqamli ta'lim texnologiyalari, simulyatsion dasturlar, virtual laboratoriyalar, 3D-modellashtirish, oliy ta'lim, kasbiy kompetensiyalar, o'qitish samaradorligi, bulutli texnologiyalar, innovatsion ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N46>

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi jadal sur'atda rivojlanayotgan texnologik muhitda muhim o'zgarishlarga duch kelmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangi yondashuvlarni joriy etish zaruratini keltirib chiqarmoqda [3]. Ayniqsa, modellashtirish kompetensiyasi XXI asr kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi [9]. Modellashtirish — bu murakkab jarayonlar va tizimlarning soddalashtirilgan taqdimotini yaratish qobiliyati bo'lib [4], u talabalarning analitik fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror

qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi[1]. Tadqiqot doirasida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Modellashtirish kompetensiyasi va raqamli texnologiyalarga oid ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Bu kompetensiyaning tarkibiy qismlari, rivojlanish bosqichlari va baholash mezonlari aniqlashtirilib, zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot Toshkent davlat texnika universiteti informatika va axborot texnologiyalari fakulteti talabalari (n=120) ishtirokida o'tkazildi. Talabalar tajriba (n=60) va nazorat (n=60) guruhlariga bo'lindi. Tajriba guruhi talabalari o'quv jarayonida maxsus ishlab chiqilgan raqamli texnologiyalar asosidagi ta'lim muhitida ta'lim oldilar, nazorat guruhi esa an'anaviy o'qitish metodlari asosida o'qitildi.

Tadqiqot davomida quyidagi raqamli vositalardan foydalanildi:

- Simulyatsion dasturlar (MATLAB, Simulink, GeoGebra)
- Virtual laboratoriyalar (PhET Interactive Simulations)
- 3D-modellashtirish dasturlari (Blender, AutoCAD)
- Dasturlash tizimlari (Python, R, JavaScript)
- Bulutli hisoblash platformalari (Google Colab, Jupyter Notebook)

Talabalarning modellashtirish kompetensiyasi rivojlanish dinamikasini baholash uchun quyidagi vositalardan foydalanildi:

- Kirish va yakuniy testlar
- Modellashtirish loyihalari
- Kuzatuvlar va suhbat
- Talabalar faoliyatini baholash

Ma'lumotlarni tahlil qilishda statistik metodlar qo'llanildi, jumladan, t-test, ANOVA va korrelyatsion tahlil.

Pedagogik tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar asosida o'qitilgan tajriba guruhi talabalarining modellashtirish kompetensiyasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqoriroq ko'rsatkichlarga erishdi.

1-jadval.

Modellashtirish kompetensiyasi ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasi (foizlarda):

Kompetensiya komponenti	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Farq
Nazariy bilimlar	78.5%	65.3%	13.2%
Amaliy ko'nikmalar	82.1%	60.7%	21.4%
Analitik fikrlash	75.3%	58.9%	16.4%
Ijodiy yechimlar topish	71.8%	54.2%	17.6%
Hamkorlik qilish	83.4%	67.5%	15.9%

Tajriba guruhi talabalari quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli ustunlikka erishdilar:

1. **Konseptual modellarni ishlab chiqish** — talabalar mavhum tushunchalarni vizualizatsiya qilish va o'zaro bog'liqliklarni aniqlash ko'nikmalarini namoyish etdilar.
2. **Murakkab tizimlarda sabab-oqibat aloqalarini aniqlash** — raqamli simulyatsiyalar yordamida turli parametrlarning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan oqibatlarni tahlil qilish.

3. **Empirik ma'lumotlar asosida matematik modellar yaratish** — real ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va ularni model parametrlari bilan bog'lash.
4. **Modellashtirishda hamkorlikda ishlash** — bulutli texnologiyalar yordamida bir vaqtning o'zida hamkorlikda model ustida ishlash.

Bundan tashqari, tajriba guruhi talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ko'rsatishicha, raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi ijobiy o'zgarishlarga olib keldi:

- O'quv jarayoniga qiziqish va motivatsiya oshdi (87% respondentlar)
- Mustaqil o'rganish va tadqiqot ko'nikmalari rivojlandi (82% respondentlar)
- Nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi aloqa mustahkamlandi (78% respondentlar)
- Kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi oshdi (85% respondentlar)

Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar talabalarning modellashtirish kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi. Bu quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Raqamli texnologiyalar murakkab tushunchalarni vizual ko'rinishda namoyish etish imkoniyatini beradi[2], bu esa o'quvchilarning abstrakt modellarni idrok etishini osonlashtiradi. Masalan, 3D modellashtirish dasturlari yordamida talabalar fizik jarayonlarni vizual ko'rinishda ko'rib, tushunishlari mumkin.

Simulyatsion dasturlar talabalarning model parametrlarini o'zgartirish va natijalarni real vaqtda ko'rish imkoniyatini beradi[7], bu esa tajriba-sinov yo'li bilan o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. GeoGebra va PhET platformalari orqali talabalar geometrik va fizik modellarni interaktiv tarzda o'rganib, modellashtirish prinsiplarini chuqurroq tushundilar.

Raqamli texnologiyalar real dunyo tizimlarini soddalashtirilgan holda taqdim etish imkonini beradi[5], bu esa talabalarning bosqichma-bosqich murakkablikni oshirib borish orqali modellashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi [6]. MATLAB va Python dasturlari yordamida talabalar murakkab iqtisodiy va ekologik tizimlarni modellashtirishni o'rgandilar.

Bulutli texnologiyalar talabalar o'rtasida hamkorlikda ishlash imkoniyatini yaratadi, bu esa jamoaviy modellashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi [8]. Google Colab va GitHub platformalari yordamida talabalar guruhli loyihalarda samarali ishlashni o'rgandilar.

Tadqiqot davomida quyidagi qiyinchiliklar aniqlandi:

1. **Texnik ta'minot masalalari:** Barcha talabalar ham zarur texnik vositalarga ega emas, bu esa raqamli texnologiyalardan foydalanishni cheklab qo'yadi.
2. **O'qituvchilar tayyorgarligi:** Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun o'qituvchilar ham tegishli ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
3. **O'quv materiallarining integratsiyasi:** Mavjud o'quv dasturlariga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish qo'shimcha tayyorgarlikni talab qiladi.

Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- O'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish
- O'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish
- Ochiq kodli va bepul dasturiy ta'minotdan foydalanishni rag'batlantirish
- Talabalarni zarur texnik vositalar bilan ta'minlash uchun grantlar va homiylik dasturlarini ishlab chiqish

Xulosa. Ushbu tadqiqot raqamli ta'lim texnologiyalari talabalarning modellashtirish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Vizualizatsiya, interaktivlik, murakkab tizimlarni soddalashtirish va hamkorlik imkoniyatlari kabi afzalliklar tufayli raqamli texnologiyalar modellashtirish jarayonini yanada samarali qiladi. Bu tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalari uchun talabalarning modellashtirish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan samarali ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdurahmonov B.A. (2023). Oliy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish: muammolar va istiqbollari. *O'zbekiston pedagogika fanlari axborotnomasi*, 15(2), 45-57.
2. Ahmadjonov M., & Karimov U. (2022). Ta'lim jarayonida modellashtirish texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
3. Alimov A.A. (2023). Raqamli avlod uchun ta'lim: Zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
4. Azimov I.M., & Yusupova G.R. (2024). Kompyuter modellashtirish asosida talabalarning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirish. *Ta'lim va innovatsiyalar*, 8(1), 112-124.
5. Baratov D.B. (2021). Matematik modellashtirish va uning zamonaviy ta'limda qo'llanilishi. *Matematika va informatika o'qitish metodikasi*, 12(3), 77-86.
6. Chemezov S.A., & Abramova O.F. (2022). Pedagogicheskiye usloviya formirovaniya kompetentsiy modelirovaniya u studentov tekhnicheskikh vuzov. *Vyssheye obrazovaniye segodnya*, 10, 64-70.
7. Dilshodov A. (2023). Virtual laboratoriyalar va ularning fizika ta'limidagi o'rni. *Fizika, matematika va informatika*, 5(1), 33-42.
8. Ergashev B., & Nasimov Sh. (2024). Zamonaviy ta'limda bulutli texnologiyalar: imkoniyatlar va istiqbollari. *Axborot texnologiyalari ta'limi*, 6(2), 88-99.
9. Haydarov F.I. (2022). Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim. Toshkent: Sharq nashriyoti.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

MODEL OF MULTIPLATFORM METHODOLOGY IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE OF STUDENTS

Najmetdinov Ma'ruf Gayratovich

Researcher of the doctoral program of Kokand University

Abstract. This article is devoted to the development and scientific substantiation of a modern multiplatform methodological model in the formation of healthy lifestyle (HLM) skills of schoolchildren, based on the tasks of improving the quality of education and training competitive personnel put forward in the Concept of Development of the Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030. The study analyzes modeling as the main tool reflecting the goal and result of pedagogical activity, and at the same time explores the pragmatic and systemic-functional theoretical foundations of the multiplatform methodological system. The main goal is to reveal the main components of the process of effectively forming students' STT through the multiplatform methodology model, such as goal-oriented, theoretical-methodological, substantive-processual, organizational and result-oriented management. The model is built on a combination of systemic-processual, axiological, reflexive and activity-oriented approaches, through which it is shown that important competencies such as gnostic, moral-volitional, communicative and organizational are formed in 10-11th grade students. The results of the study reveal the huge potential of multiplatform in forming STT in a modern educational environment, and the implementation of this model in practice will significantly increase the effectiveness of the educational process.

Keywords: healthy lifestyle, multiplatform, methodological model, systemic-functional approach, pedagogical modeling, competencies, educational technologies.

O'QUVCHILARNING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIPLATFORMADAN FOYDALANISH METODIKASI MODEL

Najmetdinov Ma'ruf G'ayratovich

Qo'qon universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ilgari surilgan ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash vazifalaridan kelib chiqqan holda, xususan, maktab o'quvchilarining sog'lom turmush tarzi (STT) ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy multiplatformali metodika modelini ishlab chiqish va ilmiy asoslashga bag'ishlangan. Tadqiqotda modellashtirish pedagogik faoliyatning maqsadi va natijasini aks ettiruvchi asosiy vosita sifatida tahlil etiladi, shu bilan birga multiplatformali metodik tizimning pragmatik va tizimli-funksional nazariy asoslari tadqiq etiladi. Asosiy maqsad multiplatformadan foydalanish metodikasi modeli orqali o'quvchilarning STTni samarali shakllantirish jarayonini boshqarishning maqsadga yo'naltirilganlik, nazariy-metodologik, mazmunli-jarayonli, tashkiliy va natijaviy kabi asosiy komponentlarini ochib berishdan iboratdir. Model tizimli-jarayonli, aksiologik, refleksiv va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar uyg'unligi asosida qurilib, u orqali 10-11-sinf o'quvchilarida gnostik, axloqiy-irodaviy, kommunikativ va tashkiliy kabi muhim kompetensiyalar shakllantirilishi ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari multiplatformaning zamonaviy ta'lim muhitida STTni shakllantirishdagi ulkan salohiyatini ochib beradi va mazkur modelning amaliyotga joriy etilishi ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sog'lom turmush tarzi, multiplatforma, metodika modeli, tizimli-funksional yondashuv, pedagogik modellashtirish, kompetensiyalar, ta'lim texnologiyalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N47>

Kirish. Zamonaviy jamiyatning shiddatli rivojlanish sur'atlari, axborot oqimining beqiyos darajada o'sishi hamda globallashtirish jarayonlarining ta'sirida yosh avlodning sog'lom turmush tarzi (STT) ko'nikmalarini shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida kun tartibidan joy olmoqda, zero, millatning kelajagi uning yoshlarining jismoniy va ma'naviy sog'lomligiga bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalar, xususan, oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, shuningdek, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, metodika va texnologiyalarni keng joriy etish zarurligi ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Bu vazifalar talabalarda nafaqat kasbiy bilim va malakalarni, balki mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, ayniqsa, shaxsiy salomatlikka mas'uliyatli munosabatni shakllantirish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Biroq, ta'lim jarayonida o'quvchilarni STTga yo'naltirish an'anaviy metodikalar doirasida qolib ketayotgani, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bo'lgan qiziqishi va ulardan foydalanish ko'nikmasini STTni shakllantirish maqsadida to'laqonli safarbar etmaslik dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Pedagogika fanlari doirasidagi fundamental ilmiy izlanishlarda har qanday tadqiqot ishining muvaffaqiyatli yakuniga erishishdagi muhim vosita bu modellashtirish usuli bo'lib, u dissertatsiya doirasida tadqiq etilayotgan obyektning nazariy va amaliy jihatdan mukammal modelini yaratishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, model obyekt to'g'risida yangi informatsiya olish imkonini beruvchi, ilmiy ish predmetini ilmiy jihatdan aks ettiruvchi tasavvuriy qiyofa va uning moddiy ko'rinishga ega tizimidir [1]. Biroq, bugungi kunda model tushunchasining qamrovi ancha kengayib, u borliq haqidagi istalgan fikr va tasavvurlarga ham tegishli bo'lib qolmoqda, masalan, istalgan faoliyatning maqsadi natijani aks ettiruvchi jarayon modeli sifatida baholanmoqda. Shunday ekan, o'quvchilarning STTni shakllantirish kabi murakkab va ko'p qirrali jarayonni samarali boshqarish uchun uning nazariy va amaliy yo'nalganligiga qarab, bilishga doir va pragmatik guruhga ajratilgan modellarning pragmatik, tizimli-funksional asoslarini tadqiq etish va ishlab chiqish maqsad qilib olindi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda multiplatformadan foydalanish metodikasining tizimli-funksional modelini ilmiy asoslash, uni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy etish mexanizmlarini tahlil qilishdan iboratdir. Modelning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, u o'quvchilarning STTni shakllantirishda multiplatformadan foydalanish metodikasi jarayonini boshqarish vositalarini izlab topish, model subyekti sifatida uning funksiyalarini to'liq aks ettirishga yordam beradi. Tadqiqot doirasida modellashtirish obyekt sifatida aynan metodik tizim tanlab olinib, uning samaradorligini oshirish maqsadida maqsadga yo'naltirilganlik, nazariy-metodologik, mazmunli-jarayonli, tashkiliy va natijaviy kabi asosiy komponentlarni o'z ichiga olgan yagona yaxlit tizim yaratiladi. Bu tizim zamonaviy axborot-ta'lim muhitining imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, yoshlarning zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan qiziqishini foydali yo'nalishga burish va ularda hayotiy muhim kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu esa o'z

navbatida, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, maqolada ishlab chiqilgan modelning har bir komponenti chuqur ilmiy asoslangan bo'lib, uning samaradorligi amaliy tadqiqotlar orqali isbotlanadi.

Adabiyotlar sharhi. Sog'lom Turmush Tarzi (STT) tushunchasi falsafiy, sotsiologik, tibbiy va pedagogik jihatdan ko'plab tadqiqotlar predmeti bo'lib kelgan, uning mohiyati inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi, individual va ijtimoiy salomatlikni ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatlar majmui sifatida ta'riflanadi [2]. Sovet davridagi tadqiqotlarda STT, asosan, jismoniy tarbiya va tibbiy madaniyat nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar shaxsning ruhiy, ma'naviy, ijtimoiy va ekologik salomatligini ham o'z ichiga oladi [3]. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ta'kidlashicha, STTni shakllantirishda ta'lim muhitining o'rni beqiyosdir, chunki maktab yoshidagi davr shaxsiy qadriyatlar va xatti-harakatlar shakllanadigan asosiy bosqich hisoblanadi [4]. A.V. Petrovskiy va M.G. Yaroshevskiy kabi rus psixolog-pedagoglari shaxsning ijtimoiy muhitdagi faoliyatining muhimligini ko'rsatib, STTni shaxsning faol hayotiy pozitsiyasi natijasi deb bilganlar [5].

O'quvchilarda STTni shakllantirishning samarali yo'llarini izlashda innovatsion metodikalarni joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlar eshigini ochdi [6]. Ayniqsa, multiplatforma (MP) tushunchasi, ya'ni turli texnologik platformalar (mobil ilovalar, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, o'quv virtual muhitlar) orqali yagona ta'lim mazmunini uzatish va interaktivlikni ta'minlash metodikasi [7] pedagogik tadqiqotlarda tobora muhim o'rin egallamoqda. D.L. Rodrigues va K. T. Schmid kabi olimlar multiplatformaning o'quv jarayonidagi motivatsiyani oshirish, ta'limga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish va o'quv materialini o'zlashtirish samaradorligini oshirishdagi salohiyatini ta'kidlaganlar [8, 9]. Ular MPdan foydalanish o'quvchilarga o'zlariga qulay vaqtda, qulay joyda, o'zlarining shaxsiy tempida o'rganish imkonini berishini, bu esa ayniqsa STT kabi shaxsiy qabul qilish va doimiy e'tiborni talab qiladigan sohalarida muhimligini ko'rsatishgan [10].

STTni shakllantirish metodikalarini tahlil qilgan N.N. Niyozov va U.X. Xodiyev [11] o'z tadqiqotlarida faqatgina an'anaviy darslar yoki jismoniy tarbiya mashg'ulotlari yetarli emasligini, balki maktab, oila va mahallaning kompleks hamkorligida pedagogik modellashtirishga asoslangan tizimli yondashuv zarurligini ilgari surganlar. Modellashtirish pedagogikada qo'yilgan maqsadga erishishning eng muhim vositalaridan biri bo'lib, I.R. Rodlasiu tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, model ma'lum bir obyekt haqida yangi axborotlar olish imkonini beruvchi, tadqiqotning ilmiy jihatdan aks ettiruvchi fikriy tasavvur yoki uning moddiy ko'rinishga ega tizimidir [12]. Ushbu tushuncha hozirgi kunda shunchalik keng qo'llanilmoqdaki, hatto olam haqidagi istalgan bilimlar va tasavvurlarga ham tegishli bo'lib qolmoqda, masalan, zamonaviy nuqtai nazardan istalgan faoliyatning maqsadi faoliyat natijasini aks ettiruvchi model sifatida ko'rib chiqilishi mumkin [13].

Modellarni tasniflashda F.I. Reregudov va F.R. Tarasenko [14] ularni axborotlarni uzatish va tasavvur qilish metodlari bo'yicha guruhlashtirishni taklif qilganlar, shuningdek, modellarni maqsadning nazariy va amaliy yo'nalganligiga qarab, bilishga doir va pragmatik guruhga ajratish mumkinligini asoslashgan. Bizning tadqiqotimizda aynan pragmatik, tizimli-funksional model asoslariga tayanilgan bo'lib, bu yondashuv multiplatformali metodik tizimni yaxlit, boshqariladigan va natijaga yo'naltirilgan tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi [15].

Multiplatformadan foydalanish metodikasi modeli, jumladan, 2.2.3-rasmda aks etganidek, maqsadga yo'naltirilganlik, nazariy-metodologik, mazmunli-jarayonli, tashkiliy va natijaviy kabi beshta asosiy komponentni o'zida mujassam etadi [16]. Maqsadga yo'naltirilgan model tizimning boshqa bloklari uchun yetakchi rol o'ynaydi va uning mazmunini aniqlashtirish asosida hamkorlik xaritasi, ta'lim standarti va ijtimoiy buyurtma, me'yoriy-huquqiy asoslar belgilab olinadi [17]. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, oliy ta'lim Davlat ta'lim standarti, shuningdek, Yoshlar siyosatiga oid davlat dasturi va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijtimoiy buyurtma sifatida xizmat qiladi [18]. Prezidentimizning yoshlarning salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan e'tiborlari ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, ayniqsa BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish taklifi ham yoshlar faolligini oshirishga qaratilgan faoliyatning bir ko'rinishi hisoblanadi [19]. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan tizimning maqsadga yo'nalganligi ma'lum natijalarga erishish bilan belgilanadi va modelning asosiy maqsadi o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda multiplatformadan foydalanish metodikasini takomillashtirish tarzida aniqlashtirildi [20].

Modelni ishlab chiqish jarayonida bir qator vazifalar hal etilishi ko'zda tutilgan, jumladan, metodologik yondashuvlarni aniqlashtirish, modelning blok-tuzilmasini belgilash, blok va elementlar o'rtasidagi aloqadorlikni ochib berish hamda ularga tavsif berish kabi vazifalar ushbu jarayonning izchilligini ta'minlaydi [21]. Bu vazifalar kompleks metodologik yondashuvlar bilan bog'liq bo'lib, ularning samarali uyg'unligi STTni shakllantirish jarayonining nazariy-amaliy asosini mustahkamlaydi [22]. Metodologik asos sifatida tizimli-jarayonli yondashuv (tadqiqotning umumiy mantig'ini aks ettiruvchi), aksiologik va refleksiv yondashuvlar (strategiyaning nazariy-metodologik asosi sifatida) hamda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv (amaliy-yo'naltirilgan taktika) birgalikda qo'llaniladi [23, 24]. Tizimli-jarayonli yondashuv STTni shakllantirish metodikasini yaxlit, barqaror va ichki o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tuzilma komponentlari, funksional aloqa va munosabatlar yig'indisi sifatida ifoda etish imkoniyatini beradi [25].

Modelning barcha komponentlarining yaxlitligi va uzluksizligi orqali o'quvchilarning STTni shakllantirishda multiplatformadan foydalanish metodikasini rivojlantirishga erishiladi [26]. Har bir metodologik yondashuv ma'lum bir tamoyillar tizimi bilan bog'liq bo'lib, ular pedagogik modellar va tizimlarni ishlab chiqish jarayoniga qo'yiladigan talablar, boshlang'ich qoidalar tushuniladi [27]. Tizimli yondashuvning asosiy tamoyili yaxlitlik tamoyili bo'lib, u multiplatforma metodikasi tizimini ham yaxlit, ham qismlar yig'indisi sifatida tahlil etishni talab etadi [28]. Shu orqali, tadqiq etilayotgan pedagogik muammoni modelning har blokida sodir bo'layotgan tuzilmalar, komponentlari, funksional aloqadorlik va ularni boshqarish nuqtai nazaridan yaxlitlikda tasavvur qilish imkonini beradi [29].

STTni shakllantirish faoliyatga yo'naltirish orqali 10-11-sinf o'quvchilarida gnostik, axloqiy va irodaviy, kommunikativ va tashkiliy kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi [30]. Gnostik kompetentlik (tanqidiylik, zukkolik, analitik ko'nikmalar, axborotni topish qobiliyati), Axloqiy va irodaviy kompetentlik (axloqiy normalarni qo'llash, ijtimoiy moslashish, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik), Kommunikativ kompetentlik (ijtimoiy munosabatlar madaniyati, jamoada ishlash, hamdardlik) va Tashkiliy kompetentlik (STT normalarini anglash,

uyushqoqlik, vaqtni boshqarish) kabi kompetensiyalar multiplatformali muhitda yanada samarali rivojlanadi [31, 32].

Xulosa qilib aytganda, ilg'or xorijiy va mahalliy tadqiqotlar STTni shakllantirishda an'anaviy metodikalarning cheklovlarini ko'rsatib, multiplatformali modellashtirilgan metodik tizimning zarurligini ilmiy asoslab beradi. Bu yangi yondashuv bo'lajak pedagoglarning ilmiy va kasbiy professionalligi bilan bog'liq bo'lib, materialni to'liq o'zlashtirish, mustahkamlash va takrorlash jarayonini takomillashtirish imkonini beradi, shuningdek, bilim olish jarayonini qiziqarli tarzda qabul qilinishiga yordam beradi [33]. Shunday qilib, bu metodika ta'lim muassasalari va 10-11-sinflar o'rtasida vositachi sifatida qo'llaniladi, bu esa pedagogik usullarning to'liq tarbiyaviy salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi [34].

Metodologiya. Tadqiqotning asosiy metodologik strategiyasi tizimli-funksional modellashtirish yondashuviga asoslangan bo'lib, bu yondashuv o'rganilayotgan obyekt – o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda multiplatformadan foydalanish metodikasini yagona, yaxlit, ichki bog'liq elementlardan tashkil topgan hamda o'zaro funksional aloqadorlikka ega bo'lgan tizim sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Modellashtirish jarayoni tizimning barcha komponentlarining yaxlitligi hamda uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu jarayon o'quvchilarning STTni shakllantirishga oid pedagogik muammoni modelning har bir blokida sodir bo'layotgan tuzilmalar, komponentlari, funksional aloqadorlik va ularni boshqarish nuqtai nazaridan yaxlitlikda tasavvur qilish imkonini beradi. Tadqiqotda mazkur pedagogik modelni ishlab chiqish va amaliyotda sinovdan o'tkazish uchun bir qator nazariy va empirik tadqiqot metodlari kompleks tarzda qo'llanildi.

Nazariy tadqiqot metodlari doirasida analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, analiz yordamida STTni shakllantirishga doir mavjud nazariy yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va multiplatforma imkoniyatlari chuqur o'rganilib, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlandi, shu bilan birga sintez orqali tizimli-funksional modelning beshta asosiy bloki: maqsadga yo'naltirilganlik, nazariy-metodologik, mazmunli-jarayonli, tashkiliy va natijaviy komponentlari o'zaro bog'liqlikda birlashtirildi. Modellashtirish metodik tizimning samaradorligini nazariy jihatdan tasdiqlash, uning blok-tuzilmasini aniqlashtirish va elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni ochib berishga qaratilgan asosiy metod bo'ldi, bu esa multiplatformali metodikaning nazariy-metodologik asosini mustahkamladi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatuv, so'rovnoma (anketa), test sinovlari, suhbatlar va pedagogik eksperiment (tajriba-sinov ishlari) usullaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatuv orqali 10-11-sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida multiplatformadan foydalanish ko'nikmalari va ularning STTga bo'lgan munosabatlari real vaqt rejimida qayd etildi. So'rovnoma va test sinovlari o'quvchilarda STTga doir bilim, ko'nikma, malaka va gnostik, axloqiy-irodaviy, kommunikativ va tashkiliy kabi kompetensiyalar darajasini aniqlash uchun qo'llanildi, xususan, so'rovnomalar orqali multiplatforma muhitining samaradorligini o'rganish maqsadida o'quvchilarning faoliyatga bo'lgan motivatsiyasi, ularning qiziqishlari va o'rganish usullari haqidagi subyektiv fikrlari to'plandi. Eng muhimi, ishlab chiqilgan metodika modelining samaradorligini baholash maqsadida nazorat va eksperimental guruhlar ishtirokida pedagogik eksperiment o'tkazildi, bu eksperiment doirasida nazorat guruhida an'anaviy metodikalar qo'llanilgan bo'lsa, eksperimental guruhda multiplatformadan

foydalanish metodikasi modeli amaliyotga joriy etildi. Tadqiqotning aniqligi va ishonchliligi statistik tahlil metodlari (T-kriteriy, χ^2 -kriteriy) yordamida ta'minlandi.

Tahlillar va natijalar. O'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda multiplatformadan foydalanish metodikasi modelining samaradorligini empirik jihatdan tasdiqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasidagi bir nechta umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari ishtirokida keng qamrovli pedagogik eksperiment o'tkazildi. Tadqiqotda jami 180 nafar o'quvchi ishtirok etib, ular tasodifiy ravishda eksperimental guruh (EG, n=90) va nazorat guruhiga (NG, n=90) ajratildi. EGda multiplatformadan foydalanish metodikasi modeli, jumladan, maxsus ishlab chiqilgan mobil ilovalar, interaktiv veb-resurslar va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'rifiy kanallar majmuasi asosida STTni shakllantirish faoliyati olib borildi, NGda esa an'anaviy darslar va ma'ruzalar orqali ta'lim berildi. Tadqiqot ishlari boshlanishidan oldin (kirish diagnostikasi) va tugagandan so'ng (yakuniy diagnostika) o'quvchilarning STT darajasi maxsus test sinovlari va so'rovnomalar asosida baholandi. STTni baholash quyidagi uchta asosiy mezonlar: Bilim (STTga oid nazariy ma'lumotlar), Ko'nikma (STT prinsiplarini amaliy qo'llashga tayyorlik) va Kompetensiya (to'rtta asosiy kompetensiyaning umumiy darajasi) bo'yicha amalga oshirildi.

1-jadval. O'quvchilarning Sog'lom Turmush Tarzi (STT) Darajasining Kirish va Yakuniy Diagnostika Natijalari (Foizda)

Guruh	Diagnostika Bosqichi	Bilim Darajasi (A)	Ko'nikma Darajasi (B)	Kompetensiya Darajasi (C)
Eksperimental Guruh (EG)	Kirish	42.2	38.9	35.6
(n=90)	Yakuniy	85.6	81.1	78.9
Nazorat Guruh (NG)	Kirish	41.1	37.8	34.4
(n=90)	Yakuniy	60.0	54.4	52.2

1-jadval natijalariga ko'ra, kirish diagnostikasi bosqichida har ikkala guruh o'quvchilarining STT darajalari deyarli bir xil bo'lib, bu ularning teng boshlang'ich sharoitda ekanligini ko'rsatadi. Biroq, eksperiment yakunida EG o'quvchilarining ko'rsatkichlari NGga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Xususan, **Bilim darajasi** EGda 42.2% dan **85.6% gacha** oshgan bo'lsa, NGda bu o'sish 41.1% dan 60.0% gacha cheklangan. **Ko'nikma darajasi** EGda 38.9% dan **81.1% gacha** o'sib, o'quvchilarning STT prinsiplarini amaliyotda qo'llashga bo'lgan tayyorligi keskin oshganligini bildiradi. Eng muhimi, multiplatforma metodikasi modelining asosiy maqsadi bo'lgan **Kompetensiya darajasi** EGda 35.6% dan **78.9% gacha** ko'tarilgan, bu esa modelning kompleks kompetensiyalarni shakllantirishda yuksak samaradorligini isbotlaydi.

STTni shakllantirishda multiplatforma metodikasi modelining samaradorligini yanada chuqurroq ochib berish maqsadida, model orqali shakllantirilishi ko'zda tutilgan to'rtta asosiy kompetensiyaning yakuniy diagnostika natijalari tahlil qilindi. Kompetensiya darajasi «yuqori», «o'rta» va «past» kabi sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baholandi.

**2-jadval. Kompetensiyalar Darajasining
Yakuniy Diagnostika Natijalari (Guruhlar bo'yicha, Foizda)**

Guruh	Daraja	Gnostik Kompetentlik	Axloqiy- Irodaviy Kompetentlik	Kommunikativ Kompetentlik	Tashkiliy Kompetentlik
EG	Yuqori	36.7	31.1	34.4	35.6
(n=90)	O'rta	42.2	47.8	44.4	43.3
	Past	21.1	21.1	21.2	21.1
NG	Yuqori	12.2	10.0	11.1	11.1
(n=90)	O'rta	40.0	38.9	36.7	37.8
	Past	47.8	51.1	52.2	51.1

2-jadvaldagi ma'lumotlar multiplatforma metodikasi modelining har bir kompetensiyani shakllantirishdagi ta'sirini yaqqol ko'rsatadi. EGda **yuqori darajadagi gnostik kompetentlik** (tanqidiy fikrlash, axborotni topish qobiliyati) 36.7% ni tashkil etgan bo'lsa, NGda bu ko'rsatkich atigi 12.2% ni tashkil qildi. Bu farq multiplatformaning o'quvchilarda axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish va uni oqlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirganligini ko'rsatadi. **Axloqiy-Irodaviy kompetentlik** (qat'iyatlilik, mas'uliyat, maqsadni belgilash) darajasining EGda 31.1% gacha ko'tarilishi multiplatforma muhitida berilgan amaliy vazifalar, jumladan, o'z STT monitoringini olib borish kabi topshiriqlarning shaxsiy sifatlarni shakllantirishdagi samaradorligini isbotlaydi.

Shu bilan birga, EGda **Kommunikativ kompetentlik** (jamoada ishlash, aloqa ko'nikmalari) 34.4% va **Tashkiliy kompetentlik** (vaqtini boshqarish, faoliyatni rejalashtirish) 35.6% yuqori darajani qayd etgan. Bu natijalar multiplatformaning interaktiv platformalar, forumlar va guruh loyihalari orqali o'quvchilarning ijtimoiy munosabatlar madaniyatini, hamkorlik ko'nikmalarini va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini samarali rivojlantirganligini ko'rsatadi. Statistik tahlil (T-kriteriy) natijalari EG va NG o'rtasidagi yakuniy ko'rsatkichlardagi farqning $p < 0.01$ darajasida statistik jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqladi, bu esa multiplatformadan foydalanish metodikasi modelining samaradorligini ilmiy asoslaydi.

Muhokama. O'tkazilgan pedagogik eksperiment va uning natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda multiplatformadan foydalanish metodikasi modeli an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan sezilarli darajada yuqori samaradorlikni namoyish etdi. Birinchi jadvaldagi yakuniy diagnostika natijalarining eksperimental guruhda nazorat guruhiga nisbatan Bilim, Ko'nikma va ayniqsa Kompetensiya darajalarida keskin o'sish kuzatilishi, tadqiqot asosida ishlab chiqilgan tizimli-funksional modelning amaliy ahamiyatini va ilmiy to'g'riligini tasdiqlaydi. Multiplatforma muhitining ta'sirida o'quvchilar STTga doir nazariy bilimlarni nafaqat o'zlashtirganlar, balki bu bilimlarni o'z hayotlariga tatbiq etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni ham samarali shakllantirganlar, chunki multiplatforma axborotni uzatish va uni amalda qo'llash o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi.

Tadqiqotning eng muhim natijasi ikkinchi jadvalda ko'rsatilgan to'rtta asosiy kompetensiyalarning yuqori darajada shakllanishidir. Gnostik kompetentlikning EGda sezilarli darajada o'sishi multiplatformaning interaktiv va mustaqil o'rganishga yo'naltirilgan xususiyati bilan izohlanadi, chunki o'quvchilar turli platformalarda mavjud STTga oid axborotni mustaqil ravishda topish, uni tanqidiy tahlil qilish va o'z nuqtai nazarini ifoda etishga o'rganganlar. Bu

esa ularda umumiy ta'lim, moslashuvchanlik va aqlning tanqidiyligi kabi muhim sifatlarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, multiplatformada amalga oshirilgan vazifalar va loyihalar o'quvchilarda axloqiy va irodaviy kompetentlikni (qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, o'z-o'ziga talabchanlik) kuchaytirgan, chunki o'quvchilarga o'z STT rejalarini tuzish va ularning bajarilishini muntazam nazorat qilish vazifasi yuklatilgan, bu esa ularning mustaqilligi va mas'uliyatini oshirgan.

Kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarning ham yuqori darajada shakllanishi shuni ko'rsatadiki, multiplatforma nafaqat individual o'rganishni, balki jamoaviy ishlash, fikr almashish va hamkorlikni ham samarali tashkil etish imkonini beradi. Virtual guruhlarda birgalikda ishlash, onlayn bahs-munozaralar uyushtirish kabi vazifalar o'quvchilarda ijtimoiy interaktivlik, hamdardlik va odamlarga hurmat kabi sifatlarni rivojlantirgan, shu bilan birga multiplatforma vositalarida o'quv faoliyatini rejalashtirish o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlagan. Xulosa qilib aytganda, tizimli-funksional modelning asosiy tamoyili bo'lgan yaxlitlik tamoyili o'zini oqladi, chunki metodik tizimning barcha komponentlari o'zaro funksional aloqadorlikda ishladi va natijaga erishishni ta'minladi. Bu natijalar I.R. Rodlasiu, F.I. Reregudov va F.R. Tarasenko kabi olimlarning modellashtirishning nazariy va pragmatik ahamiyati haqidagi g'oyalariga mos keladi, ya'ni model faoliyat natijasini aks ettiruvchi samarali boshqaruv vositasi sifatida o'zini namoyish etdi.

Xulosa. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi talablaridan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda multiplatformadan foydalanish metodikasi modeli tizimli-funksional yondashuv asosida ilmiy jihatdan asoslandi va amaliy sinovdan o'tkazildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — maqsadga yo'naltirilganlik, nazariy-metodologik, mazmunli-jarayonli, tashkiliy va natijaviy komponentlarni o'z ichiga olgan yagona modelni ishlab chiqish va uning samaradorligini isbotlashdan iborat bo'lib, o'tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari bu maqsadga to'liq erishilganligini statistik jihatdan ishonchli tarzda tasdiqladi. Xususan, multiplatforma metodikasi qo'llanilgan eksperimental guruhda o'quvchilarning STTga doir Bilim, Ko'nikma va, ayniqsa, Kompetensiya darajalari nazorat guruhiga nisbatan keskin yuqori natijalarni ko'rsatdi, bu esa multiplatformaning STTni shakllantirish jarayonidagi ulkan salohiyatini ochib berdi.

Modelning samaradorligi, ayniqsa, o'quvchilarda gnostik, axloqiy-irodaviy, kommunikativ va tashkiliy kabi muhim umuminsoniy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarning yuqori darajada shakllanganida namoyon bo'ldi. Multiplatformaning interaktiv va moslashuvchan ta'lim muhiti o'quvchilarda mustaqil o'rganish, tanqidiy tahlil qilish, ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish va o'z-o'zini samarali boshqarish kabi hayotiy zaruriy ko'nikmalarni rivojlantirishga asosiy turtki bo'ldi. Tadqiqotda qo'llanilgan tizimli-jarayonli, aksiologik, refleksiv va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar majmuasi metodik tizimning ilmiy-nazariy mustahkamligini ta'minladi va uning barcha elementlari o'zaro uzviy bog'liqlikda samarali ishlashini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda multiplatformadan foydalanish metodikasi modeli O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etilishi lozim bo'lgan innovatsion, samaradorligi isbotlangan va kelajakka yo'naltirilgan pedagogik yechim hisoblanadi. Bu model yordamida nafaqat STTni shakllantirish samaradorligi oshiriladi, balki yosh avlodda raqamli texnologiyalardan maqsadli va foydali

foydalanish madaniyati ham shakllantiriladi, bu esa ularning komil inson bo'lib voyaga yetishida mustahkam poydevor yaratadi. Shuningdek, bu tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy didaktik talablarni kiritish va ta'lim jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish borasida muhim amaliy va nazariy ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar multiplatforma metodikasining boshqa ta'lim yo'nalishlaridagi samaradorligini o'rganishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Rodlasiu, I. R. (2018). *Pedagogik Modellashirish Nazariyasi va Amaliyoti*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimov, I. A. (1997). *Barkamol avlod orzusi*. Toshkent: O'zbekiston.
3. Petrovskiy, A. V., & Yaroshevskiy, M. G. (1998). *Psixologiya: Darslik*. Moskva: Akademiya.
4. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti. (2019). *Health Education and Promotion in Schools*. Geneva: WHO Press.
5. Niyozov, N. N., & Xodiyev, U. X. (2020). Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda pedagogik-psixologik yondashuvlar. *Xalq ta'limi*, (3), 45-50.
6. Davlatov, A. X., & G'ulomov, S. S. (2022). O'quv jarayoniga zamonaviy AKTni joriy etishning didaktik asoslari. *Ta'lim texnologiyalari*, (1), 7-14.
7. Shmid, K. T. (2017). Multi-platform learning environments: Design and application. *Journal of Educational Technology Systems*, 45(4), 519-536.
8. Rodrigues, D. L. (2019). The impact of multi-platform educational resources on student engagement and motivation. *International Journal of Modern Education Studies*, 5(2), 112-125.
9. Reregudov, F. I., & Tarasenko, F. R. (1989). *Metodologiya sistemnogo podxoda v pedagogike*. Moskva: Pedagogika.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. *O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida*.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyuldagi 410-son qarori. *O'quvchilarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish chora-tadbirlari to'g'risida*.
12. Rodlasiu, I. R. (2018). *Pedagogik Modellashirish Nazariyasi va Amaliyoti*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
13. Tarasenko, F. R. (1989). *Metodologiya sistemnogo podxoda v pedagogike*. Moskva: Pedagogika.
14. Reregudov, F. I., & Tarasenko, F. R. (1989). *Metodologiya sistemnogo podxoda v pedagogike*. Moskva: Pedagogika.
15. Yusupov, O. Q. (2021). Tizimli-funksional yondashuv asosida pedagogik modelni ishlab chiqish. *Ilmiy xabarnoma*, (4), 180-187.
16. Alimov, B. G. (2022). Multiplatformali ta'lim muhitida o'quvchilar kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi. *Pedagogik mahorat*, (2), 56-63.
17. O'zbekiston Respublikasining 2020-yildagi 637-sonli Qonuni. *Ta'lim to'g'risida*.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
19. BMT Bosh Assambleyasining 2021-yildagi rezolyutsiyasi. *Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish tashabbusi*.
20. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston.
21. Eshonqulov, B. E. (2023). Pedagogik tadqiqotlarda modelni ishlab chiqish bosqichlari. *Zamonaviy ta'lim*, (3), 101-107.
22. Aliyeva, M. F. (2021). Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda metodologik yondashuvlarning o'rni. *Pedagogika olami*, (4), 215-220.

23. G'afforov, A. A. (2022). Ta'limda aksiologik va refleksiv yondashuvlarning sintezi. *Ilm sarchashmalari*, (2), 88-95.
24. Olimov, Z. X. (2023). Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvning pedagogik samaradorligi. *Ta'lim va innovatsiya*, (1), 45-52.
25. Muxamedov, S. M. (2021). Tizimli-jarayonli yondashuvning didaktik imkoniyatlari. *Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi*, (5), 115-120.
26. Abdullayeva, N. E. (2022). Metodik tizim komponentlarining o'zaro aloqadorligi. *O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi*, (3), 67-73.
27. Qodirov, I. R. (2020). Pedagogik tamoyillarning tizimlashtirilishi. *Pedagogik tadqiqotlar*, (1), 34-40.
28. To'laganov, U. U. (2023). Yaxlitlik tamoyilining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati. *Uzbekistan Journal of Pedagogics*, (2), 150-157.
29. Sobirov, F. F. (2021). Tizimli va jarayonli yondashuvlar sintezi. *Ta'lim nazariyasi va amaliyoti*, (4), 78-85.
30. Mamadaliyev, A. M. (2022). O'quvchilarda umuminsoniy kompetensiyalarni shakllantirish. *Pedagogika olami*, (1), 105-112.
31. Xoliqov, I. N. (2023). Gnostik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion usullari. *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari*, (3), 60-67.
32. Jo'rayeva, S. T. (2021). Kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarning o'zaro bog'liqligi. *Xalq ta'limi*, (5), 90-97.
33. Xudoyberdiyev, Z. Q. (2022). Bo'lajak pedagoglarning kasbiy professionalligini oshirishda multiplatforma. *Ta'lim muammolari*, (4), 110-117.
34. Norxo'jayeva, L. L. (2023). Ta'lim-tarbiya jarayonida multiplatformaning tarbiyaviy salohiyati. *Maktab va oila*, (2), 40-46.

Received: 10 October 2025
Accepted: 25 October 2025
Published: 2 November 2025

Article / Original Paper

ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL AND UPBRINGING PROCESS AIMED AT ENSURING THE QUALITY OF EDUCATION AND THE TECHNOLOGY OF DEVELOPING DIDACTIC MATERIALS

Javliyeva Shahnoza Bahodirovna
Associate Professor of SamSU

Abstract. This article highlights the issues of effectively organizing the educational and upbringing process aimed at improving and ensuring the quality of education.

Keywords: quality of education, didactic materials, pedagogical technology, innovative approach, information technologies, educational efficiency.

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHGA YO'NALTIRILGAN O'QUV-TARBIYAVIY JARAYONNI TASHKIL ETISH VA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH TEXNOLOGIYASI

Javliyeva Shahnoza Bahodirovna
SamDU dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirish va uni ta'minlashga qaratilgan o'quv-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, didaktik material, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv, axborot texnologiyalari, ta'lim samaradorligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I11Y2025N48>

Jahondagi oliy ta'lim taraqqiyotining asosiy tendensiyalari tahliliga ko'ra ta'lim sifatini ta'minlash – jamiyat rivojlanishining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralib, yuzaga kelayotgan global miqyosdagi ekologik, iqtisodiy, siyosiy muammolar va inqirozlarning yechimida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida ta'lim dasturlari, material resurslar bazasi, kadrlar salohiyati hamda boshqarish tizimiga bog'liq holda jamiyat, shaxs va davlat talablari asosida o'ziga xos ta'lim sifatini kafolatlash tizimi joriy qilinmoqda. Xususan, Buyuk Britaniyada universitetlar faoliyati va ularning ta'lim dasturlari sifatini baholashning davlat tashkilotlarining bosh roli ta'minlangan ko'p pog'onali akkreditatsiyalash tizimi Quality Assurance Agency (QAA) mezonlari asosida, ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari sifatini baholash amalga oshirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash, jamiyat talablariga mos ta'lim muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro miqyosda ta'lim sifatini oshirish, yuqori kasbiy kompetentlikka ega zamonaviy mutaxassislar tayyorlashning pedagogik mexanizmlari bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, jamiyat

talabiga mos ta'lim muhitini yaratish muammolari, oliy ta'lim tizimi orqali yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sohasiga o'qitishning zamonaviy, interaktiv, ijodiy uslublarini joriy etilishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim natijalariga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish, bitiruvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llash kompetensiyalarini shakllantirish, zamonaviy kadrlar tayyorlash jarayonini motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlar asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi.

Ta'lim sifatini pedagogik ta'minlashning tajriba modelini ishlab chiqish, uni qurish va tajriba-sinov ishlari tekshirish jarayonida olingan natijalarni o'quv materiallar yaratish texnologiyasi ma'lum ma'noda aks etishi sababli butun o'quv jarayoniga o'tkazish imkoniyatini beradi.

Modellashtirish ilmiy bilish usuli sifatida pedagogikada keng qo'llaniladi. Pedagogik modellashtirish muammosiga bag'ishlangan, OTMda ta'lim sifatini pedagogik ta'minlash tizimining modelini yaratishda quyidagi umumiy metodologik qoidalarni hisobga olish muhimligini ko'rsatadi [1]:

- birinchidan, model bu ta'lim sifati tizimiga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni aks ettiradigan aqlan taqdim etilgan yoki amalda tatbiq etilgan tizim (jarayon, faoliyat);
- ikkinchidan, model tadqiqot obyektiining eng muhim xususiyatlarini aks ettiradi;
- uchinchidan, model tadqiqot obyektiining o'ziga qaraganda kamroq elementlarni o'z ichiga olishi mumkin, ammo yaxlitligi bilan uning o'rnini bosishi kerak;
- to'rtinchidan, OTM amaliyotida ta'lim sifatini pedagogik ta'minlash modelini o'rganish va sinovdan o'tkazish tadqiqot obyekti to'g'risida yangi ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

Mutaxassislar tayyorlash sifatini muammolari bo'yicha tadqiqotlarda ishlab chiqilgan oliy kasbiy ta'lim sifat tizimi, umumiy model, oliy ta'lim bilan bog'liq tizimlari, jumladan, o'zaro sifatli tizimlari ko'p darajali iyerarxiya, mamlakat, mintaqaviy, tarmoq OTMlari bo'lib uni ta'minlash. Ta'lim sifatini pedagogik ta'minlashning OTM modeli barcha iyerarxik darajalar bilan chambarchas bog'liqdir.

Ta'lim sifatini pedagogik ta'minlash tizimining modeli OTMning tashkiliy, didaktik, uslubiy, ilmiy, kadrlar va sa'y-harakatlarini birlashtirgan holda o'quv jarayonining yuqori sifatiga erishish va uning natijalariga binoan belgilangan standartlarga javob beradigan qismidir. Bunda kadrlar tayyorlash sifatiga ta'sir qiluvchi turli xil omillar va sharoitlar hisobga olinadi.

Shu munosabat bilan OTMda ta'lim sifatini pedagogik ta'minlash tizimining modelini ishlab chiqish uchun quyidagi g'oyalar asos qilib olindi [2]:

mavjud bo'lgan oliy o'quv yurtining tashkiliy va kadrlar tuzilmasi, mavjud resurslar va imkoniyatlarga tayanish;

funksiyalar va vakolatlarning maqbul taqsimlanishi, professor-o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik madaniyatini oshirish tufayli o'quv jarayonining barcha subyektlari harakatlari va boshqaruv qarorlarini yuqori darajadagi muvofiqlashtirishga erishish;

o'qituvchilar va ma'muriy xodimlar;

- oliy ta'lim tizimida sodir bo'ladigan turli xil aloqalar, munosabatlar va jarayonlarni hisobga olish;

Ta'lim sifatini pedagogik ta'minlash modeli yaratilgan asosiy g'oya, OTMning o'quv jarayoniga tizimli va jarayonli yondashuvni, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan, ushbu jarayonning faol subyektlari bo'lgan va uni amalga oshiradigan mutaxassislarni tayyorlashga individual ravishda ijodiy yondashish. Avvalo, biz o'quv jarayonida o'quvchilarning individual o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, ta'lim maqsadi va mazmunini maqbul aniqlash, o'qituvchilar tarkibini mohirona tanlash, joylashtirish va malakasini oshirish, takomillashtirishga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. OTMlarda sifat tizimlarini o'rganish, OTMda ta'lim sifatini pedagogik ta'minlashning tajriba-sinov ishlari modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi [3]:

abituriyentlarning umumiy ma'lumot darajasi va ularning kasbiy darajasiga yo'naltirilgan tanlov;

ta'lim jarayonining aniq maqsadini aniqlash;

asosiy va o'zgaruvchan tarkibini ishlab chiqish

qo'shimcha ta'lim dasturlari;


professor-o'qituvchilar tarkibi va ma'muriy kadrlarning kasbiy mahorati va pedagogik madaniyatini oshirish;

zamonaviy o'quv texnologiyalarini joriy etish asosida o'quv mashg'ulotlari davomida rivojlanayotgan muhitni shakllantirish;

o'quv jarayonini har tomonlama o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish;

tadqiqot, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish.

Tajriba-sinov ishlari sinov davomida olib borilgan barcha ishlar ta'lim sifatini pedagogik ta'minlash tizimining samarali ishlashini (o'quv jarayonining ishlash sifatini ta'minlash konturi) va kelgusi istiqbolli rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan edi.



OTMda ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha ishlarning boshlanishi abituriyentlarning sifati, ularning bilimlari, qiziqishlari va tanlagan ixtisosligini muvaffaqiyatli o'zlashtirish qobiliyatidir. OTMdagi o'quv jarayoni, bir tomondan, talabani rivojlanishini to'xtata olmaydi, uning standart ta'lim dasturida nazarda tutilganidan ko'proq bilish va bilish huquqini cheklaydi, boshqa tomondan, u real bo'lmagan talablarni qo'yimasligi kerak, talabalarni doimiy muvaffaqiyatsizlikka mahkum etish. Bu abituriyentlarning aniq belgilangan umumiy va maxsus qobiliyatlari, olingan ta'lim darajasi va sifati asosida ishlab chiqilgan individual yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Шарипов Ш. "Таълим жараёнлари сифатини ошириш тайёрланаётган кадрлар бандлигини таъминлаш омили сифатида. <http://dr-sharipov.com>"
2. Ҳайдарова О.Қ. Бўлажак ўқитувчиларни таълим жараёнига технологик ёндашувга тайёрлаш. Дис. ... пед. фан. ном. – Қарши: 2004. – 182
3. Холиқов А.А. Олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини ривожлантириш: Пед.фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати.-Тошкент: 2018. -53 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).